2024-yil. 18-son

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802

18 NOYABR | O‘ZBEKISTON DAVLAT BAYROG‘I QABUL QILINGAN KUN



O‘zbekiston bayrog‘i

Qalbimiz to‘la surur,
To‘tiyo yurt tuprog‘i,
Hilpirab turar mag‘rur,
O‘zbekiston bayrog‘i.

Rangi hayot misoli,
Yulduzlari hiloli,
Mustaqillik timsoli,
O‘zbekiston bayrog‘i.

Iftixor dilimizda,
U yo‘ldosh yo‘limizda,
Yuksalar qo‘limizda,
O‘zbekiston bayrog‘i.

Gumbazlarda, yuksakda,
Peshtoqlarda, falakda,
Ko‘ngillarda, yurakda,
O‘zbekiston bayrog‘i.

Rangi hayot misoli,
Yulduzlari hiloli,
Mustaqillik timsoli,
O‘zbekiston bayrog‘i.

Iqbol Mirzo

Gulnoza ORIPOVA,
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti v.b.,
filologiya fanlari doktori (DSc)
gulnoza_oripova81@mail.ru



MUSTAQILLIK DAVRI LIRIKASIDA QOFIYA TURLARI

Annotatsiya: maqolada she’riy asar kompozitsiyasining ritmik-intonatsion qurilishida qofiya muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritilgan. Sharq poetikasi nazariyasiga ko‘ra, qofiya tarkibi mustaqillik davrida yaratilgan lirik asarlar tahlili asosida tekshirilgan. Barmoq she’r tizimida yaratilgan asarlardagi qofiyaning juftlik, kesishgan, o‘rama, masnaviyona, ruboiyona turlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *sharq poetikasi, qofiya nazariyasi, qofiya turlari, lirik asar kompozitsiyasi, mumtoz qofiya, raviy.*

Аннотация: в статье освещается значение рифмы в ритмико-интонационном построении композиции поэтического произведения. Согласно теории Восточной поэтики, рифмованный состав исследовался на основе анализа лирических произведений, созданных в период независимости. В произведениях, созданных по системе пальчиковой поэзии, исследованы парные, перекрестные, оберточные, маснавийские, рубаи типы рифмы.

Ключевые слова: *восточная поэтика, теория рифмы, виды рифмовки, композиция лирического произведения, классическая рифма, равиоли.*

Annotation: the article highlights the importance of rhyme in the rhythmic-intonation construction of the composition of a poetic work. According to the theory of eastern poetics, the composition of the rhyme was examined on the basis of an analysis of lyrical works created in the period of independence. In the works created in the finger poem system, the types of rhyme in pairs, crossed, scroll, masnaviyona, ruboiyona are studied.

Key words: *eastern poetics, rhyme theory, types of rhyme, composition of a lyrical work, classical rhyme, ravium.*

Kirish. Sharq poetikasida qofiya nazariyasi “Ilmi qofiya”ga asosan Shayh Ahmad Taroziy, Atoulloh Husayniy, Alisher Navoy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida tekshirilgan. Sharq she’riyatining xususiyatlari mazkur mutafakkirlar asarlarida mohiyatan chuqur, milliy adabiyotimiz tabiati va mezonlariga mos yoritilgan. Shayh Ahmad Taroziy qofiya haqida fikr yuritganda, she’rning asli qofiya ekanligi, qofiyasiz she’r bo‘lmasligi, agar qofiyasiz bo‘lsa, harora deyilishini aytib o‘tgan. Shuningdek, qofiyani “ustun”ga qiyoslagan. Shuning uchun ham she’riy asar kompozitsiyasining ritmik-intonatsion qurilishida qofiya muhim ahamiyatga ega. Qofiya orqali ijodkorning g‘oyaviy-badiiy niyati o‘z ifodasini topadi. Qofiya vositasida eng muhim fikrlar o‘quvchiga estetik jihatdan singdiriladi. Uning diqqati qofiyadosh so‘zlarga qaratiladi. Shuningdek, “Qofiya ritmik jihatdan misrani ta’kidlash bilan she’r ritmining his qilinishida muhim ahamiyat kasb etadi. She’rni o‘qish davomida qofiya misraning tugaganidan darak beradi, pauza bajarayotgan ajratish funksiyasini ta’kidlaydi” [1: 383].

Rus adabiyotshunosligida V.Jirmunskiy, B.Tomashevskiy, L.Timofeyev, A.Kondratov, B.Goncharov, Aslanov, Lotman kabi olimlar ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirgan. Sharq she’rshunosligidagi qofiya strukturasi I.Krachkovskiy, Y.Bertels, A.Borovkov singari sharqshunos olimlar tomonidan ham jiddiy o‘rganilgan.

XX asr o‘zbek adabiyotshunosligida ham she’rshunoslikning muhim nazariy muammolari, xususan, qofiya nazariyasi ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilgan. Qofiya ohangdoshlikni yuzaga keltiradi. Ohangdoshlikni yuzaga keltirishining ikki shakli: birinchisi, ohangdoshlik tovushlarning takrorlanishi va parallel kelishi orqali yaratiladi. Ikkinchisi, ohangdoshlik tovushlarning eshitilishdagi yaqinligi va o‘xshashligiga tayanadi. U.To‘ychiyev to‘g‘ri qayd etganidek: “Muhim ma’no va fikrlarni ta’kidlash orqali poetik mazmunning real ifodalanishiga ko‘maklashish; tasviriy vosita bo‘lib kelib, she’rning badiiy jihatdan yuksak bo‘lishiga hissa qo‘shish; misralarning xushohang bo‘lishini ta’minlash; ritmik qatorlar oxirini eslatish; bandni uyushtirish; yangi-yangi she’r shakllari va poetik janrlarni vujudga keltirish va boshqalar qofiyaning asosiy funksiyasidir” [2: 108].

Asosiy qism. Sharq poetikasi nazariyasiga ko‘ra, qofiya tarkibini fonetik jihatdan tekshirish she’r kontekstida qofiyaning funksiyasi, kompozitsion sathdagi o‘rnini aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sharq mumtoz she’riyatida qofiyaning 55 ga yaqin turi mavjud bo‘lib, faol turi 25 tani qamrab olgan. Adabiyotshunos B.To‘xliyev Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub “Qutadg‘u bilig” dostonida qofiyaning 16 turi

qo‘llanganligini [3: 62], M.Akbarova Alisher Navoiyning Sharq mumtoz g‘azaliyotida mavjud bo‘lgan qofiyaning 23 xilini qo‘llaganligini [4: 24], professor A.Sabirdinov Oybek qofiyaning 22 turidan foydalanganligini tadqiq etgan [5: 134-136]. Hozirgi davr ijodkorlari ham qofiya qo‘llash borasida qator muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Sirojiddin Sayyid, Matnazar Abdulhakim kabi shoirlar aruz tizimi vaznlaridan keng foydalangan holda mumtoz qofiya turlaridan mohirona foydalanmoqda. Mumtoz qofiyalar tuzilishiga ko‘ra ikki xildir: muqayyad qofiya (raviy bilan yakunlangan) va mutlaq qofiya (raviydan so‘ng qofiyaning boshqa harflari ham ishtirok etishi). Erkin Vohidovning “Hijron qushlari” g‘azali mutlaq qofiya turida yozilgan bo‘lib, quyidagi matla’ bilan boshlanadi:

Tarki yurt et/ gan xazon fas/ lidagi qush/ larmikin?

- V - -/ - V - -/ - V - -/ - V -

Yo qirov tush/ gan boshim tash/ lab uchar hush/ larmikin? [6:412]

- V - -/ - V - -/ - V - -/ - V -

Foilotun/ foilotun/ foilotun/ foilun

Ushbu g‘azal ramal bahrining musammani mahzuf vaznida yozilgan bo‘lib, “a-a, b-a, v-a, g-a, d-a” qofiyalanish tizimiga ega. Besh baytdan iborat mazkur she’riy asar “qushlarmikin, hushlarmikin, ushlarmikin, og‘ushlarmikin, tushlarmikin, qushlarmikin” qofiyadosh so‘zlaridan tashkil topgan, “sh” undoshi raviydir. Ma’lumki, raviy qofiyani tashkil etuvchi element, so‘zning tub yoki yasama asosi oxiridagi harfdan iborat. Raviy she’rdagi qofiyalanuvchi barcha misralarni biriktiradi va o‘zaro bog‘lab turadi. Qofiyaning tarkibiga ko‘ra tuzilishida raviydan oldin va keyin turuvchi unli hamda undosh tovushlar ham turli nomlar bilan yuritiladi. Raviydan oldin keluvchi element – ridf (mingashish) bo‘lib, “sh” raviydan oldin kelgan “u” unlisidir. Raviydan oldin kelgan “q, h, g‘, t, q” undoshlar daxildir. Demak, mazkur g‘azal qofiyaning asos qismiga ko‘ra farqlanuvchi murdaf qofiya deyiladi. Yoki Erkin Vohidovning “Do‘stga deganim” g‘azalining qofiya tarkibi tekshirilganda, muqayyad qofiya turiga mansubligi aniqlandi. Qofiyaning bu turida qofiyadosh so‘z raviy harfi bilan yakunlanadi, undan keyin boshqa harflar ishtirok etmaydi:

In-son ti/ li-ni til bi /la-rin so-n(e)/ tu-shu-nib-dir,

- - V/ - V - V / V - - V / - V -

Dil dil-ni/ va le-ko‘y la/ ma, o-so-n(e)/ tu-shu-nib-dir

- - V/ - V - V / V - - V / - V -

Maf’uvlu/ foilotu/ mafoiylu / foilotun

Mazkur g‘azal muzoreyi musammani axrabi makfufi solim vaznida yozilgan, “inson, oson, yolg‘on, on, jon, isyon, nodon” qofiyadosh so‘zlari tarkibidagi “n” undoshi raviy bo‘lib, undan oldingi “o” unlisi ridfdir. Bu qofiya turida ham raviydan oldin cho‘ziq “o” unlisining kelishi qofiyaning fonetik tarkibiga ko‘ra murdaf qofiyani yuzaga keltirgan. Shuningdek, Erkin Vohidovning “Kechir, yo Rab” g‘azali mujarrad qofiya turiga mansub bo‘lib, undosh bilan tugagan raviydan oldin qisqa unli kelgan:

Menga tosh otdi bir johil, kechir, yo Rab, kechirdim men,

V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - -

U quldir, bandai g‘ofil, kechir, yo Rab, kechirdim men

V - - -/ V - - -/ V - - -/ V - - -

Mafoiylun/ mafoiylun/ mafoiylun/ mafoiylun

Mazkur g‘azal hazaji musammani solim vaznida bitilgan bo‘lib, “johil, g‘ofil, odil, qotil, moyil, jo qil, doxil, nokomil” ohangdosh so‘zlari qofiyani hosil qilgan. Baytlar tarkibidagi qofiyalarda “l” undoshi raviydir. Undan oldin kelgan “i” qisqa unlisi tavjih hisoblanadi. Demak, mujarrad qofiya turida asosiy talab raviyning undosh yoki cho‘ziq unli bo‘lishi hamda raviydan oldin tavjihning (qisqa unli) kelishi ekan.

Matnazar Abdulhakimning “Bezdim achchiq so‘zidan....” deb boshlanuvchi g‘azalida tuzilishiga ko‘ra muqayyad qofiya qo‘llangan:

Bez-di-mach-chiq/ so‘-zi-dan en/ di yu-rak bo/ lis-t(i)-ar

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

Bu-ni ayt-gan/ da ti-lim bo‘l/ mo-g‘i-nu lo/ lis- t(i)-ar [7: 78]

- V - - / - V - - / - V - - / - V -

Foilotun/ foilotun/ foilotun / foilun

Har bir bayt “bol, lol, qattol, dallol, timsol, fol, darhol” qofiyadosh so‘zlari orqali bog‘lanib, “l” undoshi asosida raviy hosil qilingan. Raviydan oldin kelgan “o” cho‘ziq unlisi ridf bo‘lib, raviydan oldin cho‘ziq unlining qo‘llanishi murdaf qofiyani yuzaga keltirgan. Qofiyaning tovush tarkibiga ko‘ra farqlanuvchi bu turi raviydan oldin keluvchi harflarga bog‘liqdir.

Barmoq she’r tizimida yaratilgan asarlarda qofiyalar banddagi o‘rniga ko‘ra farqlanishi bilan ajralib turadi. Abdulla Oripovning “Navro‘z” she’rida kompozitsiyani hosil qiluvchi qofiya o‘ziga xos funksiya bajargan:

Avval yuragingga mo‘ralaydi u,
So‘ngra kurtaklarga o‘rgatadi so‘z.
Zaminning ko‘zidan qochadi uyqu,
Demak, Bahor keldi,
Kelmoqda Navro‘z [8: 344].

Bandlar tarkibidagi “so‘z”, “Navro‘z”, “muz”, “tuz”, “ko‘z” qofiyadosh so‘zlari kompozitsion zanjirni hosil qilgan. To‘rt banddan iborat mazkur she’rning birinchi bandidagi “so‘z”, ikkinchisidagi “muz”, uchinchi banddagi “tuz” va to‘rtinchisidagi “ko‘z” qofiyalanuvchilari har bir band so‘ngida takrorlanayotgan “Navro‘z” so‘zi bilan qofiyadoshdir. Shu o‘rinda V.Jirmunskiyning “Qofiya, uning tarixi va nazariyasi” tadqiqotidagi nazariy qarashlarini

keltirish joiz: “Qofiya she’riy kompozitsiyada tashkiliy funksiyaga ega bo‘lgan tovush takroridir. U yuqori sifatli tovush elementlarini badiiy tartiblashni nazarda tutadi. Qofiya uchun tovushlarni tanlash, ayniqsa, ta’kidlangan unlilarni tanlash bandni tuzishda muhim omil hisoblanadi”. Abdulla Oripov ham qofiyadosh so‘zlar tarkibidagi “o‘ (u)” unli tovushlarini ta’kidlash orqali fikrning ta’sirchanlik kuchini oshirishga erishgan. Bu esa she’r ohangdorligi va ifoda ta’sirchanligini ta’minlagan:

Avval yuragingga mo‘ralaydi u,
So‘ngra kurtaklarga o‘rgatadi so‘z.
Zaminning ko‘zidan qochadi uyqu,
Demak, Bahor keldi,
Kelmoqda Navro‘z.

Qofiyalar banddagi o‘rniga ko‘ra undagi so‘zlar tovush tarkibi to‘la mos kelsa, to‘q, qismangina mos kelsa, och qofiyalarga bo‘linadi. Qofiya tarkibidagi tovushlarning to‘la mos kelishi to‘liq (to‘q) qofiya hisoblanib, shoirning “Navro‘z” she’rida qofiyalanuvchi so‘zlarning tovush tarkibi bir-biriga muvofiq kelishini kuzatamiz. Qofiyalanuvchi so‘zlar banddagi o‘rniga ko‘ra “a-b-a-b, v-b-v-b, g-b-g-b, d-b-d-b” shaklidagi kesma qofiya turiga mansub.

She’rda olam va odamning yasharishi, poklanishi yurtimizga bahor faslining kirib kelishi tasviri bilan bog‘liq poetik manzarada aks etadi. Shoir Navro‘zning kelishini yangi kunning boshlanishi, deya ta’kidlarkan, olamning yaralishi arabcha “kof” va “nun” harflarining bir-biriga qo‘shilib, “Kun!”ga aylanishi natijasida “Yaral!”, “Bunyod bo‘l!” degan ma’nolarni anglatishiga ishora qiladi. She’rning “so‘ngra kurtaklarga o‘rgatadi so‘z” satri zamiriga ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiyning “Odamzod vujudi osmonining jahonni yoritar yulduzlari va inson zotiga xos bo‘lgan konning behisob javharlari bo‘lgan so‘z” [9: 23]ning qudrati va ta’rifi haqidagi dohiyona fikrlarini jo qiladi. Zaminning ko‘zidan uyqu qochishi butun bashariyatning uyg‘onishiga, o‘zligini anglashiga, sergak tortishiga ishoradir. She’rdagi “Qishning ahvoliga boqib hoynahoy, Yum-yum yosh to‘kmoqda eriyotgan muz” satrlari xalqimizning qadimdan qish va yoz (ikki qutb)ning o‘zaro kurashuvi, qish tomonning yengilib, chekinishi natijasida yangi kun, yangi yilning kirib kelishi haqidagi dualistik qarashlari ifodasiga qurilgan. Bu esa qadimiy inonch-e’tiqodlarimizning ramzidir. She’rdagi bahor kelishi bilan “eriyotgan muz” yangi kundan boshlab dunyoning mehr-shafqatga, muruvvatga to‘lishi nishonasi, dunyoning “tengsiz bir chiroy”da jilva qilishiga, ezgulik g‘olib kelishiga ishora. Shoir poetik mahorati o‘ziga xos she’riy kompozitsiyada qofiyadosh so‘zlarni zargarona tanlashida, ularda olamning yaralish formulasini ko‘ra olishida ko‘zga tashlanadi. Bu esa so‘zlar vositasidagi mantiqiy ma’no zanjirida namoyon bo‘ladi: “so‘z – Navro‘z – tuz – ko‘z”. She’rdagi “Harir hovur ichra yayrar dala-tuz”, “Yana shu’lalardan qamashmoqda ko‘z” satrlaridagi qofiya uchun tanlangan “tuz” so‘zi rizq-ro‘z, “ko‘z” so‘zi olamning go‘zalliklaridan bahra olish, tiriklik ma’nolarini ifodalaydi. Demak, mazkur she’rda ifodalanayotgan poetik g‘oya she’r kompozitsion markazini tashkil qiladi. “Badiiy kompozitsiya, jumladan, lirik kompozitsiya markazida tashkil etuvchi kuchga ega bo‘lgan poetik g‘oya yotadi. Kompozitsiyaning bosh g‘oya ifodalangan nuqtasi, odatda, kompozitsion markaz deb ataladi. Boshqa kompozitsion bo‘laklar ana shu kompozitsion markaz atrofida uyushib, yetakchi, hukmron g‘oyaning yorqin ifodasiga xizmat qiladi” [10: 77]. She’rdagi “Demak bahor keldi, kelmoqda Navro‘z” misrasining har bir band so‘ngidagi takrori bandlararo kompozitsion zanjirni hosil qiladi. Bu esa she’rning kompozitsion jihatdan yaxlitligini kuchaytiradi. “Aslida, lirik she’r kompozitsiyasining uch aspekti: tashqi (matniy), tematik va ritmik-intonatsion qurilishi bir-biriga singib, bir-birini to‘ldiradi va yaxlit estetik hodisani voqelantiradi” [11: 39]. Shunday ekan, “yaxlit estetik hodisani voqelantiruvchi” lirik kompozitsiyada qofiya lirik kechinmaning ta’sirchanligi, hayotiyligini ta’minlashga xizmat qiladi. Natijada lirik qahramon yuragida hayotga bo‘lgan muhabbat, yashash zavqi, hayotsevarlik g‘oyasi lahza sayin ortib borayotganini his qilamiz. Demak, lirik she’r kompozitsiyasida lirik kechinmaning dinamik tarzda o‘sib borishi va o‘quvchiga zavq berishida qofiya alohida o‘rin tutadi. Qofiya “she’rning shakliy birligini saqlaydi, ma’no uzviyligiga ko‘maklashadi, yangi-yangi band hamda she’riy ko‘rinishlar hosil qilib, she’r kompozitsiyasini yuzaga keltiradi, she’rning g‘oyaviy mazmunini to‘ldiradi, she’rda obrazlilik va hayotiylikni ta’minlaydi” [12: 10].

Erkin Vohidov she’rlarida, asosan, to‘q qofiyalar uchrasa-da, shoir ba’zan qofiya imkoniyatlaridan samarali foydalanib, undosh va unli tovushlari mushtarak ohangdorlikka ega qofiyalarga ham murojaat qiladi:

Tangritog‘ – shamoyili,
Jayhun, Talas va Ili –
Bobolarim manzili –
Turkiston bir, vatan bir

She’rdagi “shamoyili – Ili - manzili” qofiyadosh so‘zlari fikrning ohang bilan uyg‘unlikdagi salmog‘ini orttirib, shoirning poetik mahoratini ko‘rsatishga xizmat qilgan. She’r murabba’larga xos qofiyalanish tizimiga ega: “a, a, a, b”. Ushbu o‘rinda Fitratning quyidagi so‘zlari xarakterlidir: “...qofiya yurakimizdagi sezgilarimizni tasvirlay olmaydir; sezgilarimizni tasvir etuvchi so‘zlarimizni bezaydir (ziynat beradir); sezgilarimizni boshqalarg‘a o‘tkarmak uchun aytilg‘usi so‘zlar vaznli, qofiyali bo‘lg‘anda musiqa ohangini berib turadir, shuning uchun quloqqa yoqimliroq keladir” [13: 48]. Darhaqiqat, qofiya she’riy nutqda

ohangdorlik va musiqiylikni ta’minlab, she’rning ritmik jihatdan jozibadorligini yuzaga chiqaruvchi muhim omil hisoblanadi.

Qofiyaning biron tushuncha yo ma’noni ta’kidlash vazifasi uning ohangdoshlikni hosil etish vazifasi bilan aloqador, chunki qofiya uchun tanlangan so‘zdagi tovushlar ohangdosh bo‘lishi shart. Bunday jihatlar Halima Xudoyberdiyeva ijodiga xos bo‘lib, shoiraning “Ko‘nglimdagi arslon” she’rida qofiyadosh so‘zlardagi musiqiylik va ohangdoshlik juftlik (a-a-b-b) qofiya turida yaqqol seziladi:

Yuragimga ona arslon qo‘ygan in
Qodir Olloh, ruhim o‘zing ko‘targin.
Dargohingda topshirguncha men jonni
O‘ldirmagil ko‘ksimdagi arslonni [14: 331].

She’rdagi “in-ko‘targin – jonni-arslonni”, “xob-tob – qush-boyaqish”, “olchoqlar-bog‘lar – hasad-dard”, “qasd-payqashmas – qil-til”, “so‘rmalab-o‘rmalab – mast-kas” kabi qofiyadosh so‘zlar vositasida lirik “men” kechinmalari o‘ziga xos tarzda ifodalangan. Juftlik qofiya turini Sirojiddin Sayyidning “Sen” she’ri orqali kuzatish ham mazkur qofiya imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi:

Men tun bo‘lsam, sen bir mahzun sham bo‘lding,
Men bir barg, sen bir tomchi shabnam bo‘lding.
Men bir tiyra shom bo‘ldim, sen oy bo‘lding,
Men tog‘ bo‘ldim, sen bir toshqin soy bo‘lding [15: 118]

Banddagi “sham-shabnam”, “oy-soy” qofiyadosh so‘zlari a-a-b-b tarzida qofiyalanib, nafaqat she’r kompozitsion qurilishida, balki shoir poetik g‘oyasini ifodalashda ham muhim funksiya bajargan.

Ruboiyona qofiya (a-a-b-a yoki a-a-a-a) turi, asosan, to‘rtliklarga xos bo‘lib, ularning aksariyati shu qofiyada yozilgan. Masalan,

Sarg‘ayaman, qadd-u-belim dol qilaman men,
Azoblarda umrimni uvol qilaman men.
Yaralangan tik arslonning shiddati bilan
So‘z mulkini bir kuni ishg‘ol qilaman men.

Bu davr she’riyatida o‘rama qofiya (a-b-b-a) turidan ham foydalanilgan. Halima Xudoyberdiyevaning “Sotib olingan tahlika” she’rini misol tariqasida keltirish mumkin: “Ne uchun xijolat tortar bu ayol, Kuch-qudratin so‘rgan yeri oldida? O‘zi semirtirgan eri oldida Nechun egiladi, oriq qaddi dol”

Xulosa. Mustaqillik davri lirikasi kompozitsion sathida qofiya muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ijodkorlarimiz tomonidan yaratilgan g‘azallarda qofiyaning ikki turi: muqayyad qofiya va mutlaq qofiya turlari qo‘llangan. Barmoq she’r tizimida yaratilgan asarlarda shoirlar qofiyaning juftlik, kesishgan, o‘rama, masnaviyona, ruboiyona turlaridan mohirona foydalanib, badiiy mahoratga erishganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. Б.383.
2. Тўйчиев У. Ўзбек совет поэзиясида бармоқ системаси. – Тошкент: Фан, 1966. Б.108.
3. Тўхлиев Б. Вопросы поэтики «Кутадгу билиг» Юсуфа Хас Хаджиба. – Тошкент, 2004. – С.62.
4. Акбарова М. Алишер Навоий ғазалларида қофия. – Тошкент: Фан, 1993. Б.24.
5. Сабирдинов А. Ойбекнинг поэтик маҳорати. – Рига: GlobeEdit, 2020. Б.134-136.
6. Воҳидов Э. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2019. Б.412.
7. Матназар Абдулҳаким. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. Б.78.
8. Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. Иккинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. Б.344.
9. Алишер Навоий. Хамса. Насрий баён. – Тошкент: Navro'z, 2019. Б.23.
10. Жамол Камол. Лирик шеърият. – Тошкент: Фан, 1986. Б.77.
11. Қуронов Д. Назарий қайдлар. – Тошкент: Akademnashr, 2018. Б.39.
12. Райҳонов Ф. Шеър қанотидаги юлдузлар (Ўзбек халқ оғзаки ижодида қофия санъати). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. Б.10.
13. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. Тўртинчи жилд. – Тошкент: Маънавият, 2020. Б.48.
14. Худойбердиева Ҳ. Йўлдадирман. – Тошкент: Шарқ, 2006. Б.331.
15. Сирожиддин Саййид. Аламли дунёда аламли гулим. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. Б.118.

Baxodir SUYUNOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori (DsC).



TILDAGI TERMINLAR PRAGMATIKASIGA DOIR

Annotatsiya: ushbu maqola o‘zbek tilidagi terminlar pragmatikasi, semantikasi va etimologiyasi masalalariga bag‘ishlangan. Unda o‘zbek tilidagi ayrim terminlarning qo‘llanilishi va leksik-semantik xususiyatlari haqida fikr-mulohaza yuritilgan. Muallif mavzuni yoritishda mavjud ilmiy manbalardan o‘rinli foydalangan va ayrim faol terminlar misolida ularning lug‘aviy o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan ochib bergan. Lug‘atlarda keltirilgan dalillar asosida har bir terminning ma’no xususiyatlarini atroflicha tahlil va talqin qilgan.

Kalit so‘zlar: *so‘z, atama, termin, terminologiya, komponent, leksema, tizim, sistema, termin-element, muqobil, grammatik sistema.*

Аннотация: данная статья посвящена вопросам прагматики, семантики и этимологии терминов узбекского языка. Содержится мнение об употреблении и лексико-семантических особенностях некоторых терминов в узбекском языке. Автор грамотно использовал имеющиеся научные источники при освещении темы и раскрыл их специфические лексические особенности с научно-теоретической точки зрения на примере некоторых активных терминов. На основе данных, представленных в словарях, он тщательно проанализировал и истолковал значение каждого термина.

Ключевые слова: *слово, термин, термин, терминология, компонент, лексема, система, система, терминэлемент, альтернатива, грамматическая система.*

Annotation: this article is devoted to the issues of pragmatics, semantics and etymology of terms in the Uzbek language. It contains an opinion about the usage and lexical-semantic features of some terms in the Uzbek language. The author appropriately used the available scientific sources in the coverage of the topic and revealed their specific lexical features from a scientific and theoretical point of view on the example of some active terms. Based on the evidence presented in the dictionaries, he thoroughly analyzed and interpreted the meaning of each term.

Key words: *word, term, term, terminology, component, lexeme, system, system, terminelement, alternative, grammatical system.*

Kirish. Hozirgi globallashuv, ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnik o‘zgarishlar davrida jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq holda, yangi-yangi so‘z va tushunchalar yuzaga kelmoqda. Bular esa, o‘z navbatida tilimizda yangi terminlarni ham yuzaga keltiradi. Ilgaridan ishlatilib kelinayotgan qator leksemalar yangi ma’no kasb etmoqda.

Binobarin, bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy masalalarini yanada chuqurroq o‘rganish, terminlarning o‘zbekcha muqobillarini yaratish, ularni qo‘llashni til qonuniyatlari asosida tartibga solish davlat ahamiyatiga molik vazifaga aylandi. Ona tilimizni, uning ichki va tashqi imkoniyatlarini yanada teranroq tadqiq etish, terminologiyaning dolzarb masalalarini atroflicha o‘rganish hozirda, ayniqsa muhimdir.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga o‘ttiz besh yil to‘lgan bo‘lsa-da, hali-hamon tilimizdagi ko‘pgina terminlar boshqa yondosh tushunchalar bilan almashtirilib, noto‘g‘ri talqin etilishi kuzatilmoqda.

Xususan, o‘zbek tilida so‘z, atama va termin tushunchalari mavjud bo‘lib, ularni ma’no hamda vazifalariga ko‘ra o‘zaro farqlash lozim. Ammo so‘z, atama va terminlar aralash holda, ya’ni birining o‘rniga ikkinchisi ishlatilaveradi. Natijada, tabiiy ravishda, tilimizda g‘alizlik va muammolar kelib chiqadi.

Hatto, “termin”, “terminologiya” kabilar “atama”, “atamashunoslik” leksemalari bilan almashtirib qo‘llaniladigan bo‘ldi, “atama”, “atamashunoslik” kabi tushunchalarning umummilliy xarakterga ega ekanligi e’tiborga olinmaydi. Chunki, “atama” deyilganda, onomastika (toponimiya, antroponimiya, oykonimiya)ga aloqador leksik birliklar ham tushuniladi. Aslida, fanda avvaldan iste’molda bo‘lgan “termin” va “terminologiya” leksemalarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Asosiy qism. Terminlarning umumiste’moldagi so‘zlardan farqli jihati shundaki, ularning qo‘llanilish doirasi chegaralangan bo‘ladi. Tilda terminlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi, aksincha zaruratga qarab yuzaga keladi yoki yaratiladi. Shuningdek, oddiy so‘zdan farqli ravishda, terminning ma’nosi kontekstga bog‘liq bo‘lmaydi. Muayyan leksema terminologik maydonda termin sifatida qo‘llanar

ekan, uning ayni ma’nosi saqlanib qolaveradi. Biroq, ko‘p komponentli terminlarning aniq ma’nosini belgilab olish uchun kontekst zarur.

Terminning tuzilishi masalasi, ya’ni uning necha qismdan iborat bo‘lishi, ixcham-noixchamligi ham bahstalab masalalardan bo‘lib, bu hodisaning ijobiy yoki salbiy ekanligi haqida aniq bir fikr bildirilmagan. Terminga nisbatan qo‘yiladigan, lekin amalda har doim ham erishib bo‘lmaydigan talablardan biri – uning ixcham bo‘lishidir.

Keyingi yillarda qator mualliflar tomonidan terminga berilgan ta’riflarda uning muayyan fan sohasiga oid tushunchalarning ifodasi bo‘lgan so‘z va so‘z birikmasi ekanligi ta’kidlangan. Shunisi ham borki, terminga berilgan ta’riflarda termin sifatida ishlatilayotgan birikmalarning tarkibi, ya’ni uning necha qism (komponent)dan iborat bo‘lishi haqida ma’lumotlar yo‘q.

Vaholanki, aksariyat hollarda ikki, uch qismdan iborat terminlar bilan bir qatorda, besh, olti, yetti, hatto undan ham ortiq komponentlardan tashkil topgan terminlarni uchratish mumkin. Ayrim ilmiy tadqiqotlarda o‘zbek kimyo terminologiyasida 94 foiz ikki qismli birikma termin bilan birga, besh, olti qismdan iborat terminlar ham bor ekanligi qayd etiladi.

Boshqa tillar terminologiyasida bo‘lganidek, o‘zbek tili terminologiyasida ham ilmiy-texnik tushunchalarni ifodalash uchun yuzlab xalqaro termin-elementlardan foydalanib kelinadi. Xalqaro termin-elementlarning asosiy qismi genetik jihatdan mustaqil so‘zlarni qisqartirishdan hosil qilingan: avto-, agro-, aero-, bio-, makro-, mikro-, ultra- singari termin yasovchilar va -log, -logiya, -bus, -fob, -skop, -izm kabi o‘z semantikasiga ega bo‘lgan faol termin yasovchi morfemalardir.

Termin haqida fikr yuritilar ekan, termin o‘zi nima? - degan savolning tug‘ilishi, tabiiy.

Termin – kasbiy ma’no bildiruvchi, kasbiy tushunchani ifodalovchi va shakllantiruvchi ayrim obyektlar va ular o‘rtasidagi aloqalarni muayyan kasblar nuqtayi nazaridan bilish hamda o‘zlashtirish jarayonida ishlatiladigan so‘z yoki birikmadir.

Haqiqatan ham shunday, chunki har bir sohaning, tarmoqning termini borki, u o‘sha soha, tarmoq doirasida qo‘llaniladi, aniqroq qilib ifodalasak, kasb-hunar egasining nutqini shakllantiradi, o‘zaro nutqiy muomala uchun shart-sharoit yaratadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, muayyan kasb-hunar yoki mutaxassislikka ega bo‘lgan kishilar, ko‘pincha, u yoki bu sohaning o‘ziga xos spetsifik terminlari bilan ish ko‘radi. Masalan, iqtisodchilarning yozma yoki og‘zaki nutqida kartel, kliring, tovar oboroti, mayda mulkchilik, mablag‘, renta kabi tor doiradagina qo‘llaniladigan terminlarning ishlatilishi, tabiiy holdir. Bu xildagi terminlar iqtisodiyotdan uzoqroq biror kasb egasining nutqida ishlatilmaydi. Shu bilan birgalikda, iqtisodiyot sohasining bir qator terminlari ham borki, ular mazkur til egalarining deyarli barcha nutqida bab-baravar ishlatilaveradi. Masalan, bozor, mol, savdo, savdo-sotiq, pul, xaridor, bozorchi, olib sotar, chayqovchi kabilar shular jumlasidandir.

Birinchidan, tildagi terminlarning o‘zbekcha muqobillarini amalda qo‘llash (agar mavjud bo‘lsa), ikkinchidan, xorijiy terminlarning o‘zbekcha muqobillarini yaratish (agar mavjud bo‘lmasa) va barcha tegishli sohalarda bir xilda ishlatilishini ta’minlash davlat tili qonuni va mustaqilligimizning talabidir. Masalan, imlo – orfografiya, bekat – ostanovka, imtihon – ekzamen, sinov – zachyot, bo‘lim – seksiya, tahlil – analiz, devonxona – kanselyariya, shevashunoslik – dialektologiya kabi so‘zlarning birinchilarini tilimizda keng ko‘lamda qo‘llash maqsadga muvofiq.

Terminni boshqa birliklardan farqlab olish borasida tilshunos olim, professor R.Rasulov quyidagicha fikr yuritadi:

Fan ilmiylikni, aniqlikni, mantiqiylikni talab qilar ekan, bu talablar, birinchi navbatda, bevosita termin bilan bog‘lanadi. Chunki termin ilmiyligi, aniqligi bilan muayyan fanga oidligi, ko‘p ma’nolilik xususiyatiga ega emasligi (monosemantikligi), qo‘llanilish doirasi chegaralanganligi, ijobiy yoki salbiy bo‘yoqqa (emotsional-ekspressivlik, konnotatsiyaga) ega emasligi kabilar bilan boshqa guruh so‘zlaridan, tematik maydonlardan farq qiladi va ajralib turadi. Terminlar shu nuqtai nazardan, mustaqil hisoblanadi.

Shu o‘rinda ayrim terminlar va ularning muqobili (ekvivalenti) sifatida berilayotgan so‘zlar haqida ham fikr-munosabat bildiramiz.

Xususan, sistema termini salmoqliligi, ilmiy jihatdan chuqur mazmunga egaligi, dunyo miqyosida qo‘llanilishi, ayniqsa fanda faolligi, ilmiy nutqqa ham, ilmiy-ommabop nutqqa ham xosligi bilan ajralib turadi. U terminologiya sohasining, terminologik leksikaning eng yetakchi, eng muhim va eng faol terminlaridan biri hisoblanadi va ilmiy tushunchani tashiydi. Shunga ko‘ra, u aniqlikka ega. Ushbu terminning mantiqiy “yuki”ni ko‘tarish, tashish uchun majburan qo‘llanayotgan tizim so‘zining sistema o‘rnida qo‘llanilishi maqsadga muvofiq emas.

Birinchidan, tizim so‘zida, uning mohiyatida ilmiylik belgisi, tushunchasi yo‘q. Ikkinchidan, bu so‘z termin emas va termin bo‘la olmaydi. Uchinchidan, ayni so‘z mazmunan noaniq va mavhum. To‘rtinchidan, tizim so‘zi umumiste’molda, kundalik nutqda kam ishlatiluvchi, asosan so‘zlashuv nutqiga oid bo‘lgan so‘zdir. Tizim so‘zi lug‘atlarda “ip, sim

va shu kabilarga terilgan narsa, shoda. Bir tizim marvarid. Bir tizim marjon. Bir tizim pomidor qoqi. Bir tizim qalampir" ma'nolarida izohlangan.

Sistema esa termin sifatida mohiyatan qism (bo'lak) va butun munosabatidan, ularning dialektik bog'liqligidan, uzviy birligidan tashkil topadi. Yana ham anig'i sistema "qismlardan tashkil topgan butunlik; bir butunlik (butundan iborat narsa)ning muayyan tartibda joylashgan va o'zaro bog'langan elementlari (qismlari)ning birlashmasi, jami; u yoki bu nazariya asosida yotgan prinsiplar (nuqtai nazar, qarashlar)ning jami; umumiy vazifaga ko'ra o'zaro bog'langan a'zolarning jami".

Masalan, Quyosh sistemasi, Yer sistemasi, falsafiy sistema, pedagogik sistema, tarbiya sistemasi va hokazo. Sistema "Barqaror (qat'iy) munosabatlar bilan o'zaro bog'langan til elementlari (birikmalari) ning ichki uyushgan majmui". Masalan, leksik sistema, so'z yasalish sistemasi, so'z turkumlari sistemasi, kelishiklar sistemasi, grammatik sistema va boshqalar.

Ma'lum bo'ldiki, sistema terminiga xos qism va butun munosabati, ular orasidagi uzviylik, dialektik bog'liqlik, ilmiy uslubga xoslik, aniqlik, keng ma'nodagi fanga oidlik tizim so'zida yo'q.

Tizim so'zining o'ziga xos qo'llanish doirasi bo'lib, u so'zlashuv nutqiga oidligi, tilimizning lug'at tarkibidan mustahkam o'rin egallaganligi, milliyligi, o'z o'rnida turli shakllarda – yasalishlarda ijtimoiy vazifa bajarishi bilan alohida o'rin tutadi.

Yuqoridagilarga ko'ra, tizim so'zining sistema termini o'rnida qo'llanilishi sun'iy, majburiy bo'lib, bu yuzaki va shaklan o'zbekchalashtirish bo'lib, mohiyatan va mazmunan talabga javob bermaydi. Ayni jarayon amaliyotda o'zini oqlamaydi, aksincha noaniqlikni, g'alizlikni keltirib chiqaradi.

Qiyoslang: til tizimi, unlilar tizimi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar tizimi, Quyosh tizimi, Yer tizimi, davolash tizimi, o'quv tizimi va boshqalar.

Shunday fikrni obyektiv, struktura, diagnoz, realizatsiya, programma, texnologiya, kriminal, sitata, ekspress, stadion, assotsiatsiya, aktiv, sivilizatsiya, baza, monitoring kabi terminlar va ularning muqobili sifatida berilayotgan so'zlarga nisbatan ham aytish mumkin.

Shu bilan birgalikda, terminologiyada tilning o'z ichki imkoniyatlaridan foydalanmasdan, o'zga tillardan o'zlashgan terminlarni o'rinsiz ishlatish holatlari ham mavjud. Masalan, guruh o'rniga gruppa, matn o'rniga tekst, ma'ruza o'rniga leksiya, muallif o'rniga avtor kabi.

Xulosa. Tildagi termin, so'z va atama tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lib, ularning pragmatikasi masalasi, bir-biridan ajratib olish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Xususan, so'z tilning kichik semantik birliklaridan biri bo'lib, u terminni ham, atamani ham, boshqa birliklarni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli ularni o'zaro almashtirib qo'llash yuz beradi. Ammo, yuqorida ta'kidlanganidek, termin, so'z va atama tushunchalarining har biri o'ziga xos xususiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Даниленко В.П. Русская терминология. – М., 1977. 90-стр., Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2002. 104-б.
2. Кондаков Н.И. Логический словар. – Москва, 1971. – С. 301-475.
3. Мадвалиев А.П. Узбекская химическая терминология и вопросы её нормализатсии. Дисс. канд. филол. наук. – Т.,1986. – С.3-8.
4. Mahkamov.N. Terminologik tamoyillar va xalqaro termin-elementlar. // Xorijiy so'z va terminlardan foydalanishda me'yor va milliy-assotsiativ fikrlash muammolari. – Toshkent, 2011. 47-bet.
5. Mirahmedova Z. O'zbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. – Toshkent: "Fan", 2010. 10-bet.
6. Rasulov R. Termin xususiyatlari. // SamDU Axborotnomasi. 2005-yil 2-son.
7. Rasulov R., Suyunov B., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent, 2010. 44-bet.
8. Suyunov B.T. Termin va boshqa til birliklari masalasi. O'zMU xabarlari. 2022, № 1/11.
9. Hojiev A. Termin tanlash mezonlari. – Toshkent: 1996., 77-bet.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Moskva: 1981. 1-tom, 461-bet.

Manzar ABDULXAYROV,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
O‘zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik
kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori

BASHAR MUALLIMI

Annotatsiya: maqola Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarining matniy tadqiqiga bag‘ishlangan. Unda “Qutadg‘u bilig” turkiy xalqlarning badiiy tafakkuri tadrijini tadqiq etishda qimmatli manba ekanligi kabi masalalar o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *badiiy tafakkur, talqin, tabdil, manba, meros, turkiy xalqlar, tamaddun, adolat, el, elat.*

Аннотация: статья посвящена текстологическому анализу произведения Юсуфа Хоса Хаджиба «Кутадгу Билиг». В нем изучались такие вопросы, как «Кутадгу Билиг», являющийся ценным источником для исследования развития художественного мышления тюркских народов.

Ключевые слова: *художественное мышление, интерпретация, перевод, источник, наследие, тюркские народы, цивилизация, справедливость.*

Annotation: the article is devoted to the textual analysis of the work of Yusuf Khos Hajib “Kutadgu Bilig”. It studied such issues as “Kutadgu Bilig”, which is a valuable source for studying the development of artistic thinking of the Turkic peoples.

Keywords: *artistic thinking, interpretation, translation, source, heritage, Turkic peoples, civilization, justice.*

“Qutadg‘u bilig” barcha turkiy xalqlar, jumladan biz o‘zbeklarning ona tilimizda yaratilgan ilk shoh asar. Agar ona tilimizni barhayot mavjudot sifatida talqin qilsak, uning to‘laqonli hayot kechirishi uchun dastlabki sarchashmasi qanchalar zarurligi oydinlashadi. Milliy davlatchiligimizning qayta tiklanishi bilan kelajakka o‘zgacha ishonch bilan qaray boshladik. Bu ishonchimiz yanada mustahkam bo‘lishi uchun tarixga murojaat qilishimiz tabiiy. Tarixda buyuk davlatlar barpo etish hamma xalqlarga ham nasib etmagan. Bir paytlar misrliklar hayratomuz davlat shakllantirgan, keyinchalik xitoyliklar, yunonlar, forslar, rimliklar shunday sharafga muyassar bo‘lgan. Nihoyat, nisbatan yangi tarixda inglizlar yarim dunyoni egalladilar. Binobarin, jahongir xalqlarni ham bir necha toifaga bo‘lish mumkin. Ijodkor jahongir xalqlarning yoxud bashariyat tamadduni tarixiga salmoqli ulush qo‘shgan bunyodkor zobit uluslar safida turkiy xalqlar ham borligi bilan faxrlanamiz. Turkiy xalqlarning jahoniy hukmronligi bir necha marta, xususan qoraxoniylar va temuriylar, usmoniylar, qolaversa boburiylar davrida ham davom etganini unutmaslik kerak va bu jahongirlik bashariyat tarixiga qo‘shgan benazir hissasi bilan alohida ahamiyatga molik[1].

“Qutadg‘u bilig” qoraxoniylar davridan meros qolgan, o‘sha davrning tarixida va insoniyat tamadduni ravnaqida tutgan ahamiyatini hamisha yodimizga soladigan, faqat buyuk saltanatlar davrida yaratilishi mumkin bo‘lgan asar sifatida ham qimmatli. Homer yunonlarning zafarli yurishlarini boqiy dostonlarida kuylaganidek, Yusuf Xos Hojib o‘z asarida turkiy xalqlarga xos donishmandlik xislatlarini aks ettiradi. Biz turkiy xalqlarni boshqa jahongir xalqlardan farqlaydigan ijobiy jihatimiz faqat bunyodkorlik xislati bilan cheklanmaydi. Xitoylar va olmonlar singari mushohadago‘ylik qon-qonimizga singib ketgani ayni shohona asar mazmun-mohiyatida o‘z ifodasini topgan. Garchi dastlabki qarashda mushkul tuyulgani bilan dunyoni zabt etish oson. Insoniyat o‘z tarixi davomida jahongirlikning turli usullaridan samarali foydalanib kelayotir va bu jarayon zamonlar o‘tgani sayin yangicha shakllar kasb etishi ham shubhasiz. Rizq-u ro‘z topish qanchalar qiyin bo‘lmasin, jamiki tirik mavjudot ochlikdan qirilib ketar darajaga deyarli hech qachon tushmagan. Kun kechirishning ming xil usullari bor. Lekin chinakam insoniy hayot kechirish saodati hammaga ham nasib etavermaydi.

Qoraxoniylar saltanati dunyoning yarmini egallashi barobarida “Inson qanday munosib hayot kechirishi kerak?”, “Bu borada qanday tamoyillarga amal qilishi lozim?”, “Bashariy saodat negizi qanday qoidalarga borib taqaladi?”, “Adolatli saltanat qoidasi bormi?” singari jahonshumul masalalar ustida ham bahs-munozaralar yuritganiga “Qutadg‘u bilig” misolida ishonch hosil qilamiz.

Turkiy xalqlarning badiiy tafakkuri tadrijini o‘rganishda qimmatli manba hisoblanuvchi bu asarni o‘rganish natijasida shunday xulosalarga kelish mumkin. Turkiy xalqlar qadimda yarim dunyoni egallagan kezlarda ham mohiyatan jahongirlikka hech qachon mahliyo bo‘lishmagan. Aksincha, hayot mohiyatini qidirish hamisha yetakchi fazilat hisoblangan. Aslida bu barcha imperiya-saltanatlar uchun xos xususiyatday tuyuladi. Rossiya imperiyasi eng kuchaygan palla o‘n to‘qqizinchi asrda ham Lev Tolstoyning paydo bo‘lgani shundan dalolat beradi. Umuman, Yusuf Xos Hojib fenomenini Homer, Firdavsiy, Dante, Navoiy, Shekspir, Gyote, Tolstoy

singari daholarga nisbatan o‘rganish zarur.

“Qutadg‘u bilig” yolg‘iz turkiy xalqlarning emas, balki mazkur hududda azaldan yashab kelayotgan barcha el-u elatlar, qolaversa, qo‘shni yirik va kichik uluslarning salohiyatini to‘la-to‘kis aks ettiruvchi asar sifatida ham qimmatli.

“Qutadg‘u bilig” shunchaki didaktik asar emas. Qolaversa, “Shohnoma” singari jangnoma ham emas. Bu rostmana davlat nizomi vazifasini bajaradigan qomusiy asar. Davlatchilik qonun-qoidalarini belgilab beradi. Muallif debochada asar to‘rt qadriyatga tayanishini ta’kidlaydi:

Bu doston bitishda qanot xush niyat,
Negizi tabarruk to‘rtta qadriyat.
Birisi – adolat, to‘g‘rilik asos,
Ik(k)inchisi – davlat, qut, iqbol hassos.
Uchinchi – ulug‘lik, tafakkur-aql,
Qanoat-ofiyat – to‘rtinchi naql.
Bu asno nomladim ular har birin,
Bayon qilgum asta asror-u sirin[2].

Jamiyat to‘laqonli faoliyat yuritishi uchun Adolat, Davlat-qut, Ulug‘lig-u tafakkur, nihoyat Qanoat-ofiyat asos bo‘lishi kerak, degan g‘oyani Yusuf Xos Hojib ilgari suradi. Shoir adolatni birinchi galda tilga olgani bejiz emas. Binobarin, har qanday jamiyat, har qanday insoniy munosabatlar odilona qoidalar negiziga qurilishi kerak. Adolatsiz, tafakkursiz davlat-qut yo‘q, davlatdan esa faqat qanoat vositasida bahramand bo‘lish mumkin. Binobarin, filologiya fanlari doktori Qosimjon Sodiqov ta’kidlaganidek, “Yusuf Xos Hojib davlatning kuch-qudratini, gullab-yashnashini, ezgulikni, kishining baxt-u saodatini adolat, aql-zakovat hamda qanoat birligida deb biladi.

Muallif o‘zining tenglik, adolat to‘g‘risidagi qarashlarini Kuntug‘di tilidan beradi. Uning uqtirishicha, to‘g‘rilik (adolat) oldida hamma barobar. Kuntug‘di elig tilidan buni shunday ta’riflaydi:

Ko‘nilik uzala kesan-men ishig,
Adirmas-ma begsig ya qulsig‘ kishig[3].
(Ishni to‘g‘rilik, ya’ni adolat yuzasidan hal qilaman,
Bek yo qulni farqlab o‘tirmayman.)

Adib siyosatni, davlat qonunlarini yuqori tutadi. Qonun va intizom ostida mamlakat obod, xalq emin-erkin yashaydi, degan g‘oyani qo‘llab-quvvatlaydi. U o‘tmish adib va mutafakkirlari orasida birinchilardan bo‘lib davlat va jamiyat boshqaruvining demokratik asoslarini, tenglik prinsiplarini ishlab chiqdi, o‘z davri davlat boshqaruvining yo‘l-yo‘riqlarini, to‘r-u tuzuklarini yaratdi. Binobarin, “Qudatg‘u bilig” davlat nizomi darajasiga ko‘tarilgan asar edi.

Yusuf Xos Hojib kishilik ma’naviyati tarixida birinchilardan bo‘lib “Komil inson” tushunchasini ko‘tarib chiqdi. U “Komil inson”ni tugal er deb atagan. Mutafakkir kishining ma’naviy yuksalishida ikki bosqichni ajratadi: birinchisi – balog‘at; bunga ixlos qilsa, har bir bilimli, uqushli kimsa erishuvi mumkin. Kishi kamolotining ikkinchi bosqichi tugallikdir. Unga har kimsaning yetishuvi mushkul. Adibning ta’kidlashicha, tugal erda ikki sifat uyg‘unlashmog‘i kerak: biri – bilim; ikkinchi – uqush (zakovat). Ana shu sifatlari bilan kishi tugallikka erishadi:

Bu ikki biriksa, bo‘lur er tugal,
Tugal er ajunug‘ tamam er tugal.
(Bu ikkisi biriksa, kishi tugal bo‘ladi,
Tugal er olamni tugal qo‘lga oladi), –
deb yozadi mutafakkir”[4].

Qanoat-ofiyat haqida so‘z yuritganda, shoir oltin o‘rtalikka amal qiladi. Bu dunyo amallariga, hoy-u havasga berilib, u dunyoni unutmaslikni qayta-qayta uqtirishi barobarida jamiyatga naf keltirmaydigan zohidona turmush tarzini ham ma’qullamaydi. Shoir davlat va ijtimoiy toifalar o‘rtasidagi munosabatlardan tortib, sevgi-muhabbat singari ko‘ngil kechinmalari sir-asrorlarini ham bayon etadi.

Yusuf Xos Hojib o‘z asarini yaratishda nisbatan “Don Kixot” muallifidek yo‘l tutgandek taassurot paydo bo‘ladi. Servantesning mashhur asari o‘z davridagi qahramonlik asarlariga parodiya sifatida paydo bo‘lgan bo‘lsa, Yusuf Xos Hojib ham zamondosh shoirlarning ijodidan, qolaversa donishmandlar, dongdor kishilarning pand-u nasihatlaridan barakali foydalanadi.

“Qutadg‘u bilig” aruz vaznida yaratilgan, tabdil ham shu vaznda bo‘lsa, ayni muddao bo‘lardi.

Asarning “O‘zg‘urmish Kuntug‘di eligga pand berishini aytadi” bobida aksariyat hukmdorlarga xos nafsga qul bo‘lish illati ayovsiz fosh qilingan:

Otalilar otasiz xor qasdingdan,
Onalilar onasiz zor dastingdan.

Asar muallifining shoirona mahorati ham alohida mavzu. Dostonda qo‘llangan she’riy san’atlar haqida alohida ilmiy ish qilish kerak.

Muallif asarini o‘n sakkiz oyda yozganini qayd etgan. Navoiy hazratlari “Xamsa”ni ikki yilda yozib tugatish uchun necha yil tayyorgarlik ko‘rgani, xususan davlat arbobi sifatida ham samarali faoliyat yuritganini inobatga olganda, muallif asarni yaratishdan oldin qanday ijtimoiy faoliyat bilan shug‘ullanganini aniq tasavvur qilish mumkin. Hazrat singari “Qutadg‘u bilig” muallifi ham aslzodalar toifasidan ekani, shubhasiz. Uning ismiga nisbatan taxminiy qiyofasini ham gavdalantirish mumkin. Binobarin, Sharqda insonning ismi jismiga monand bo‘lishi azaldan odat tusini olgan.

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Xos Hojib kishilik ma’naviyati tarixida bashar muallimi sifatida juda katta iz qoldirdi. Uni o‘rganish esa har bir ma’naviyat kishisi uchun o‘ta zarurdir. Zero, kishi kamolotining yuksalishi tarixiy manbalarni bilishdan boshlanadi. Qolaversa, ushbu asar turkiy xalqlarning badiiy tafakkuri tarzini o‘rganishda bosh omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Юсуф Хос Ҳожиб. “Қутадғу билиг”. –Т.: “Akademnashr”, 2015.
2. Юсуф Хос Ҳожиб, “Қутадғу билиг”. Ғ.Ғулом Бадиий адабиёт нашриёти. – Т., 1971.
3. Юсуф Хос Ҳожиб, “Қутадғу билиг”. –Т.: Ўзбекистон ССР “ФАН” нашриёти, 1972.
4. “O‘zAS”, 2010-yil 10-dekabr, 50-son.



Dilnavoz YUSUPOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

“ARUZI NISORIY” ASARI HAQIDA

Annotasiya: ushbu maqolada adabiyotimiz tarixida tazkiranavis olim sifatida nom qoldirgan, “Muzakkiri ahbob” asarining muallifi Hasanxoja Nisoriyning “Aruzi Nisoriy” risolasi haqida so‘z boradi. Maqola muallifi mazkur risolani adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilib, undagi juzv, rukn, zihof, furu', bahr, vazn kabi nazariy birliklarni o‘rgangan.

Kalit so‘zlar: *aruz, juzv, rukn, zihof, bahr, vazn, bayt.*

Аннотация: в данной статье говорится о трактате «Арузи Нисари» Хасанходжи Нисари, автора «Музаккири ахбаб», оставившего имя в истории нашей литературы как учёного тазкиранависа. Автор статьи изучая этот трактат с точки зрения литературоведения, исследовал такие теоретические единицы, как джузв, рукн, зихаф, фуру', бахр, вазн.

Ключевые слова: *аруз, джузв, рукн (стопа), фуруъ (изменения), бахр (метр), вазн (стихосложный размер), бейт (двустишие).*

Annotation: this article discusses the treatise "Aruzi Nisari" by Hasanhoja Nisari, the author of "Muzakkiri Ahbab", who left a name in the history of our literature as a scholar of tazkiranavis. The author of the article examined this treatise from the point of view of literary criticism and studied such theoretical units as juzv, rukn (foot), zihaf (changes), bahr (poetic meter), wazn (verse meter).

Keywords: *aruz, juzv, rukn (foot), zihaf (changes), bahr (poetic meter), wazn (verse meter), beyt (couple).*

Adabiyotimiz tarixida shoir va tazkiranavis olim sifatida nom qoldirgan Hasanxo‘ja Nisoriy (1516-1597) taniqli o‘zbek shoiri va davlat arbobi Podshohxoja bin Abdulvahhobxoja (Xoja)ning farzandi bo‘lib, undan bizgacha “Muzakkiri ahbob” tazkirasi yetib kelgan. Muallifning o‘zi ta’kidlashicha, ushbu tazkira Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” va Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarlaridan keyingi uchinchi tazkira hisoblanadi.

Manbalarda Nisoriyning o‘zbekcha va forscha she’rlaridan iborat devon tartib bergani haqida ham ma’lumotlar bor, ammo ushbu devon bizgacha yetib kelmagan yoki hanuz topilmagan. Shoir lirik merosidan qo‘limizda juda oz hajmdagi namunalargina mavjud. Bu she’rlar, asosan, shoirning o‘z tazkirasi “Muzakkiri ahbob”, shuningdek, Alouddavla Qazviniyning “Nafois ul-maosir” (1560—1589), Badriddin Kashmiriyning “Ravzat ur-rizvon” (1589), Darveshali Changiyning “Risolai musiqa” (1572—1604) va Mutribiyning “Tazkirat ush-shuaro” (1605) asarlari orqali yetib kelgan. Mazkur she’rlar bir nechta g‘azal, ruboiy, bayt va “Bahoriyot” qasidasini o‘z ichiga oladi [1, 4].

Hasanxo‘ja Nisoriy shoir va tazkiranavis bo‘lishdan tashqari, aruzshunos olim ham bo‘lgan. Uning “Chahor gulzor”, ya’ni “To‘rt gulzor” nomli ilmiy asari adabiyotshunoslikka yaqin yillarda ma’lum bo‘ldi [3, 54]. Asar 1560-yilda yozib tugallangan bo‘lib, to‘rt gulzor, ya’ni to‘rt bobni o‘z ichiga oladi. Har bir bob yana o‘z ichida bir qancha fasllar, ya’ni gullarga bo‘linadi. Birinchi gulzor (bob) 5 gul (fasl)dan iborat. Uning birinchi faslida fors tilining o‘ziga xosligi haqida gap boradi. Ikkinchi faslda harakatli va sukunli harflar haqida ma’lumot keltiriladi. Uchinchi faslda harflarning na’vlari: qo‘shilib yoziladigan, ajratib yoziladigan harflar haqida, to‘rtinchi faslda izofalar hamda turli tilshunoslik bilan bog‘liq qoidalar va beshinchi faslda imola va boshqa hodisalar haqida ma’lumotlar keltiriladi. Ikkinchi gulzor ikki fasldan iborat bo‘lib, badiiy san’atlar ta’rifiga bag‘ishlangan. Uning birinchi qismida lafziy san’atlar, ikkinchi qismida ma’naviy san’atlarga to‘xtalib o‘tiladi. Uchinchi gulzor ham ikki qismdan iborat. Uning birinchi qismi she’rning vujudga kelishi va nazm shakllari, ikkinchi qismi esa aruz qonun-qoidalariga bag‘ishlangan. To‘rtinchi gulzor uch qism, ya’ni uch guldan iborat. Birinchi gul tashbeh haqida, ikkinchi gul istiora va uchinchi gul qofiya masalalariga

bag‘ishlanadi.

Aruz masalalari asarning uchinchi bobi, ikkinchi faslidan o‘rin olgan bo‘lib, tojik olimi U. Toirov asarni nashrga tayyorlar ekan, uni “Aruzi Nisoriy” deb ataydi [3, 54]. Risola shoir shaxsiga berilgan ta’rif bilan boshlanadi: “Bidon, ki sho'ir dar lug‘at donanda ast va dar istiloh kase, ki husnu qubh va saqamu (nodurustiyu) sihat va matbo‘u g‘ayrimatbo‘ va tavzinu taqte' va muqaffiyu g‘ayrimuqaffii lavozimi ash'orro bidonad” (Mazmuni: Bilgilki, “shoir” so‘zi lug‘atda bilimdon bo‘lib, istilohda she’rlarning go‘zalligi va noma’qulini, matbu’ va nomatbu’sini farqlaydigan, vaznli yoki qofiyali so‘zni qofiyaga ega bo‘lmagan so‘zdan ajrata oladigan kishidir).

So‘ngra aruz so‘zining lug‘aviy va istilohiy ma’nolari, taqte’ masalalariga to‘xtalib o‘tiladi. Sadr, ibtido, aruz, zarb, hashf haqidagi ruknlar bilan bog‘liq ma’lumotlar aytib o‘tilgach, bahrlarni hosil qiluvchi ruknlar 8 turli bo‘lishi, ular harflar tarkibiga ko‘ra xumosiy (5 harfdan iborat) va subo’iy (7 harfdan iborat) kabi guruhlarga bo‘linishi ta’kidlanadi. Xumosiyga fa’uvlun va fo'ilun, subo’iyga esa mustaf'ilun, mafo'iylun, fo'ilotun, mutafo'ilun, mafo'ilatun, maf'ulotu ruknlari kiradi. Ushbu sakkiz rukn sabab, vatad, fosila kabi juzvlardan tarkib topadi. Sabab ham ikki turli bo‘lib, uning sababi xafif (yengil sabab) degan turi ikki harfli so‘zlardan iborat bo‘ladi, bunda avvalgi harf mutaharrik, keyingisi sokindir, ya’ni gul va mul kabi. Sababi saqil (og‘ir sabab) ham ikki harfli bo‘lgani holda uning har ikki harfi ham mutaharrik bo‘ladi: gula, gida kabi (bu o‘rindagi “ho” harfi harakat vazifasini bajaradi). Sababni xafif va saqil deb atashlarining boisi, bir harakatli va bir sokin harfni talaffuz qilish ikki mutaharrikni talaffuz qilishdan osonroqdir.

Risolada vatad va fosilaning turlariga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Ushbu ta’riflardan so‘ng Nisoriy mazkur juzvlarning har biridan tarkib topgan bayt va misralarni keltiradi. E’tiborli jihati – har uchala misol Abdurahmon Jomiyning “Risolai aruz” asaridan olingan [4]. Nisoriy risolada baytlaridan misol berilayotgan mualliflarning nomlarini keltirmaydi, shunchaki “shoirlardan biri aytadi” yoki “bayt” degan umumiy jumla bilan aytib ketaveradi. Masalan, faqat sababdan paydo bo‘lgan bayt “chunon ki yake az shuaro gufta. Bayt” tarzida shunday keltiradi:

Har dam peshat doram zoriy,
K-az g‘am to kay zoram doriy?

Risolada vatad va fosila uchun misollar ham shu tariqa berib boriladi.

Asarning keyingi fasli zihof (asl ruknlarni turlicha o‘zgartirish) va furu' (tarmoq ruknlar)ga bag‘ishlangan. Nisoriy asl ruknlarni umumiy holatda 8 ta deb keltiradi, lekin ulardan faqat beshtasigagina to‘xtalib o‘tadi. Bular quyidagilardir: mafo'iylun, fo'ilotun, mustaf'ilun, maf'ulotu, fa’uvlun. Bu o‘rinda ham muallif xuddi salafi Jomiy singari mazkur besh aslning forsiy she’riyatda nisbatan ko‘p qo‘llanilganligiga e’tibor qaratadi.

Risolada mafoiylun aslidan 12 zihof va 16 furu', foilotun aslidan 10 zihof va 13 furu', mustaf'ilun aslidan 8 zihof va 13 furu', maf'ulotu aslidan 9 zihof va 11 furu', fauvlun aslidan 7 zihof va 8 furu' – jami 46 zihof va 61 ta furu' keltirilgan.

Risolaning keyingi o‘rinlarida bahrlar bilan bog‘liq ma’lumotlar berilgan. Muallif bahrlarning umumiy sonini jami 19 ta deb keltiradi. Tavil, madid, basit, vofir va komil bahrlari arab aruziga xos bahrlar ekanligi, ularda fors-tojik shoirlari kam she’r aytganlarini ta’kidlab, ushbu bahrlarning har biriga bir baytdan misol keltirish bilan cheklanadi. Hazaj, rajaz, ramal, muzore', sari', muqtazab, mujtass, munsarih, xafif, mushokil, mutaqorib, mutadorik bahrlari esa ular mansub bo‘lgan vaznlar bilan birgalikda alohida tahlil etiladi. Muallif qarib va jadil bahrlarining nomini keltirgani holda ularga misol bermaydi, mazkur bahrlarning keyin ixtiro qilingani va fors-tojik shoirlarning devonlarida bu bahrlarda yozilgan she’rlar mavjud emasligini ta’kidlaydi.

Risola ruboiy vaznlari haqidagi qisqacha ma’lumotlar bilan o‘z yakuniga yetadi. Axrab va axram shajarasini izohlash bilan bog‘liq o‘rinlarda ham Jomiy risolasida keltirilgan ruboiylardan foydalanilgan.

U.Toirovning fikriga ko‘ra, muallif asarni yozishda, asosan, Shams Qays Roziyning “Al-Mo‘jam”, Nosiruddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or” asarlaridan foydalangan. Biz bu fikrni inkor qilmagan holda ushbu asar uchun Abdurahmon Jomiyning “Risolai aruz” asari asosiy manba vazifasini o‘taganligini ta’kidlab o‘tmoqchimiz. Agar diqqat qaratilsa, Nisoriyning aruzga xos eng kichik birliklariga munosabatidayoq Abdurahmon Jomiyga ergashish kuzatiladi. Sabab, vatad, fosilaga berilgan ta’riflar; ularning har biriga keltirilgan alohida misollar Jomiy risolasi bilan aynan o‘xshashdir. Asliy ruknlarga munosabatda ham, ya’ni sakkiz asldan faqat 5 tasiga to‘xtalib o‘tilishida ham Jomiyning yondashuvi ustuvorlik qiladi. Shuningdek, vaznlarga keltirilgan misollar ham “Risolai aruz”dan olingan. Kuzatishlarimiz asnosida, muallif o‘z risolasida 70 dan ortiq o‘rinda Jomiy keltirgan baytlardan foydalangani ma’lum bo‘ldi.

Biz Hasanxo‘ja Nisoriyning “Chahor gulzor” tarkibidan o‘rin olgan aruzga doir risolasini tadqiq etish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Hasanxo‘ja Nisoriy adabiyotimiz tarixida tazkiranavis olim, shoir sifatida nom qoldirish bilan birga aruzshunos olim sifatida ham faoliyat yuritgan. Uning adabiyotshunosligimizga so‘nggi yillarda ma’lum bo‘lgan “Chahor gulzor” asarining uchinchi gulzor, ikkinchi qismi aruz ilmi tahliliga bag‘ishlangan.
2. Asarda aruzning nazariy asoslari taqti', juzv, rukn, zihof, furu', bahr, vaznlar asosida tadqiq etiladi.
3. Risolaning tartib berilishida Abdurahmon

Jomiyning “Risolai aruz” asari asosiy manba vazifasini o‘tagan. Nisoriy juzvlar, asl ruknlar, bahrlar tahlilida Jomiy risolasida keltirilgan misollardan aynan foydalangan.

4. Nisoriyning “Chahor gulzor” asarida keltirilgan mumtoz poetikaning boshqa tarmoqlari: she’r nav’lari, badiiy san’atlar, qofiya ilmini ham zamonaviy she’rshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish bugungi adabiyotshunoslikning muhim masalalaridandir. Umuman olganda, ushbu asar garchi XVI asrda yaratilgan bo‘lsa-da, muallifning sodda va ravon uslubi, muammoga konkret yondashuvi bilan aruz nazariyasini o‘rganishda hozirgi kitobxon uchun muhim dasturulamal bo‘lib xizmat qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нисорий Ҳасанхожа. Музаккири аҳбоб (Тарж. ҳамда сўзбоши ва изоҳлар муаллифи И. Бекжон). – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.

2. Ҳодизода Р., Каримов У., Саъдиев С. Адабиёти точик (асрҳои VI—XIX ва ибтидои асри XX). – Душанбе: Маориф, 1988.

3. Се рисолаи аруз (“Арўзи Ҳамидй”, “Арўзи Нисорй, “Меъроч ул-арўз”) / Муаллифони сарсухану тавзеҳот ва ҳозиркунандагони чоп У. Тоир, М.Солеҳов Мирзо, Ҳ. Талбакова ва С.Дурманова – Душанбе, 2014.

4. Абдураҳмон Жомий. Рисолаи аруз (таржимон, шарҳ ва изоҳлар муаллифи Д.Юсупова). – Тошкент: TAMADDUN, 2014.

5. Юсупова Д. Темурийлар давридаги арузга доир рисолаларнинг қиёсий таҳлили. Монография. – Тошкент: Ta’lim-media, 2019.

6. Yusupova D. Comparative analysis of treatises about aruz (prosody) by Nasir ad-Din Tusi and Alisher Navoi // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD). Volume 05, issue 03, Marchl 2020. – P. 34-38.

Qodirjon Mo‘ydinov,
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Odinaxon MIRZAAZIZOVA,
ChDPU O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich magistranti
omirzaazizova@gmail.com;



TIL – MILLATNING OR-NOMUSI

Annotatsiya: maqola jadal rivojlanayotgan davrda o‘zbek tiliga davlat va hukumat tomonidan, tilshunos va adabiyotshunos olimlar, ziyolilar tomonidan e’tibor va hurmat bor, lekin ijtimoiy hayotda o‘zbek tilida so‘zlashuvchi xalq – asosan, yoshlar tomonidan tilga nisbatan beparvolik, bepisandlik, e’tiborsizlik natijasida bo‘lgan e’tibor va hurmatni yo‘q bo‘lib ketayotgani, shu sababli ona tiliga bo‘lgan muhabbat va sadoqatni yanada mustahkamlash borasida olib borilishi kerak bo‘lgan ishlar haqida.

Kalit so‘zlar: *til, millat, o‘zbek tili, kommunikatsiya, milliy til, milliy muomala.*

Annotation: in the period of rapid development of the article, the Uzbek language is paid attention and respected by the state and government, by linguists and literary scholars, intellectuals, but in social life, the Uzbek-speaking people - mainly young people - are indifferent to the language, about the loss of attention and respect due to neglect, and therefore about the work that needs to be done to further strengthen the love and devotion to the mother tongue.

Key words: *language, nation, Uzbek language, communication, national language, national treatment.*

Аннотация: в период бурного развития статьи узбекскому языку уделяется внимание и уважение со стороны государства и власти, лингвистов и литературоведов, интеллигенции, однако в общественной жизни узбекскоязычное население – преимущественно молодежь – безразличие к языку, о потере внимания и уважения из-за пренебрежения, а значит, и о работе, которую необходимо провести для дальнейшего укрепления любви и преданности родному языку.

Ключевые слова: язык, нация, узбекский язык, общение, национальный язык, национальное обращение.

Har bir inson qalbida Vatan muhabbati pinhona yashaydi. Mana shu mehr-muhabbatni nutqida ifodalash uchun esa unga o‘z milliyligini aks ettira olgan ona tiliga ehtiyoj seziladi. Til benihoya muqaddas va mo‘tabar ne’mat, u inson tafakkurini shakllantirgan, taraqqiyot bosqichlariga olib chiqqan, ruhiy komillikka boshlagan, ijtimoiy munosabatlarga yo‘l ko‘rsatgan, ilm yo‘lida mayoq, zulmatda chiroq bo‘lgan sehrli bir jilodir. Shuning uchun ham tilga hurmatsizlik, insoniyatning o‘ziga bo‘lgan hurmatsizligidir. Bugungi kunda ayrim, hatto ko‘pchilik hamyurtlarimiz tilga beparvolik bilan munosabatda bo‘lishmoqda.

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 20-oktyabr kuni “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonni imzoladilar. Farmonga muvofiq, 2020 – 2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi hamda asosiy yo‘nalishlari tasdiqlandi. Farmon asosida ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Prezidentimizning: “Mening farzandim chet tillarini biladi-yu, ona tilini bilmaydi, degan gap Yangi O‘zbekistonga ma’qul emas, chet tilini bilishi kerak, lekin ona tilini bilishga majbur” – deya kuyinib aytgan so‘zlari bugungi kunda tilimizga bo‘lgan e’tiborni yanada kuchayganligidan dalolat beradi.

Biron til va xalqni bir-biridan ayro holda tasavvur etish nomumkin yumushdir. Tilsiz xalq va xalqsiz til tushunchalari mohiyatdan mutlaqo mahrumdir. Xalq tilning tillo beshigida balog‘atga yetadi, til esa so‘z sohibi bo‘lmish xalqning qalbidan kuch oladi, uning ardog‘ida tarovat topadi. Til xalq birligining, xalq esa til barhayotligining poydor posboni.[1;3]

Ona tili – bu har bir millatning millat sifatida namoyon bo‘lishini belgilaydigan asosiy omildir. Oldindan mavjud bo‘lgan ko‘p tillar nima uchun o‘lik tilllar guruhiga kirmoqda? Tilllararo notenglik – kichik tillar yashovchanligiga salbiy ta’sir qiluvchi asosiy omil. Qaysidir til muhimroq bo‘lsa, unga muayyan bir jamiyat yoki dunyo miqyosida ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Natijada ayrim insonlar o‘z ona tilini chetga surib, farzandlari uchun ijtimoiy mavqe beradigan, “foydali” boshqa tilni tanlashadi, ona tili sevilmaydi, qadrlanmaydi, balki o‘sha “foydali” tilni bilganlar har tomonlama rag‘batlantiriladi. Masalan, bizning sharoitda rus tiliga, ingliz tiliga berilayotgan e’tibor bu holatning bir ko‘rinishidir. Bu tilni biluvchi mutaxassislarga ustama maoshlar beriladi, imtiyozlar taqdim etiladi. Mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan boshqa millat mutaxassislarining o‘zbek tilini bilishi, bu tilda ish yuritishi rag‘batlantirilmaydi. Albatta, bu jarayon eng og‘riqli nuqtalardan biridir. Ayrim “zamonaviy, madaniyatli” o‘zbek yoshlari o‘zbek tilida gapirishga uyaladi. Ular uchun o‘zbek tili kambag‘al til va bu tilda hamma tushunchalarni ifodalashning go‘yoki iloji yo‘q. Bu achinarli holat birinchi navbatda biz o‘zimizga “Ona tili nima?”, “Nima uchun biz o‘zbek tilini onaga qiyoslaymiz?”, “Nima uchun ona tilini sevishimiz kerak?”, “Nima uchun o‘zbek tilini bilishimiz kerak?” singari savollarni bermasligimiz, o‘zbek tilini sevmasligimiz va bilmasligimiz, Navoiyni tanimasligimiz natijasida vujudga kelgan holatdir.

Yoki ko‘zimiz tushgan va odat tusiga kirgan reklamalar, peshtaxta yozuvlaridagi xatoliklarga, boshqa tillarni aralashtirib nom berilgan do‘konlar, turli xil ovqatlanish joylari nomlariga e’tibor beraylik. To‘g‘ri, tilimizdagi muammolarni faqat reklama yoki peshtaxtadagi yozuvlarni o‘zgartirish bilan bartaraf qilib bo‘lmaydi. Lekin shu yozuvlarni o‘zgartirish orqali qisman bo‘lsa ham boshqa tillarning ta’sirini kamaytirib, tilimizdagi bitta muammoni hal qilishga erishamiz. Kechagina mana shu mavzu bo‘yicha bir suhbatga ko‘zim tushdi: Qozoq xalqi barcha savdo do‘konlariga nom berishda umuman chetdan so‘z olmasdan va bu nomni tanlashda ham kreativ, ham milliylikdan chetga chiqmagan holatda tanlar ekan. Masalan, Жаңасыни алда, жылы жүр – Yangisini olda, issiq yur, Көп қарай берсең басқалар алып кетеді – Kelib qarab tursang, boshqalar olib ketadi, жуз рет откенше, бір рет кіріп кет – yuz marta o‘tkuncha, bir marta kirib ket kabi iboralardan foydalanadilar va shu belgilar (brend) orqali boshqa tadbirkorlardan ajralib turadi va xaridorlar diqqatini shu orqali jalb qiladilar.

Shuni ta’kidlash kerakki, o‘zbek tilining xalq og‘zaki ijodi hech bir sohani chetda qoldirmagan. Ayniqsa, maqollar bunga misol bo‘la oladi. Bir mavzuni qamrab olgan yuzlab maqollarni topishimiz mumkin. Bu xususiyat ham tilimizni boy til ekanligini bildiradi. Biz ham dorixonalarga аптека yoki boshqa bir ruscha jumlalar o‘rniga Sog‘lik – umr garovi, El sog‘ligi – yurt boyligi; mehmonxonalarga shunchaki hotel o‘rniga, Mehmon – atoyi Xudo, O‘quv markazlariga repetitor o‘rniga – Bilmagan ayb emas, bilishga tirishmagan ayb; Hunarmandlar ish joylariga – Ustadan shogird o‘zar yoki Yuzga kirsang ham hunar o‘rgan kabi maqollar yoki iboralarni o‘z yozuvimizda, o‘z tilimizda yozib qo‘yishsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Biz shu bitta yozuv yoki maqol orqali birinchi navbatda yozuvga, tilga e’tibor berish, xalqimiz tobora unutish arafasida turgan maqol, iboralarni yana nutqqa olib kirish hamda insonlar e’tiborini jalb qilish orqali ona tilimiz rivojlanishi uchun o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lar edik.

Hech bir xalq o‘z ona tilidan voz kechgan emas. U o‘z hayot tarzidan, o‘z tarixidan, o‘zi yaratgan qadriyatlardan voz kechmaydi. Ona tili mana shu qadriyatlar orasida eng bebahosidir. [3;22]

Barchamizga ma’lum, o‘zbek tilini barcha turkiy xalqlar – qirg‘iz, tojik, qozoq, ozarbayjon, uyg‘ur hamda turk xalqi bemalol tushunadi. Chunki o‘zbek tili turkiy xalqlar uchun o‘rta tildir. Bu tilimizning go‘zalligi va qudratli ekanligining yana bir isbotidir.

Alisher Navoiyning “Muhokamat-ul lug‘atayn” asarini o‘qish davomida birgina “yig‘lamoq” fe’lining – iglanmoq, igranmoq, singramoq, ingramoq singari har xil darajalarining borligiga guvohi bo‘lamiz. Navoiy “bosh” so‘zi bilan bog‘liq – bosh uchurmak, bosh tortmak, boshdin quymoq, boshiga yetmoq, bosh ura kirishmak, bosh olib chiqmak kabi o‘nlab fe’llar sinonimiyasini tuzgan.

Boshqa tillarda so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydigan tushunchalar mavjud. Masalan, taqim so‘zini olaylik, bu so‘z o‘zbekcha so‘z bo‘lib, tizzaning orqa tomonidagi chuqurchaga nisbatan ishlatiladi. Bobolarimiz sochi uzun qizlarni ta’riflashda “sochi taqimiga tushar ekan” deyishgan, uloq o‘yinida “uloqni taqimiga bosdi” degan ifoda hamon qo‘llaniladi. Ammo tanamizdagi ushbu a’zo hech qaysi tilda nomga ega emas. Bu ham tilimizning boyligi va o‘zbek tilida so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydigan biror tushuncha yo‘qligining bir isbotidir. [2;9]

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, millatimizni millat sifatida saqlab turgan ona tilimiz oldidagi qarzimiz hali talaygina. Bu, avvalambor, unga hurmat, e’tibor ko‘rsatish vazifasidir. O‘z ona tilini hurmat qilmaydigan xalqni xalq sifatida hech kim hurmat qilmaydi. Shuning uchun biz ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz, go‘zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz, dunyoga tanitishda o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak. Til yashasa – millat yashaydi. Agar biz o‘z tilimizning ko‘rkamligini tarannum eta olsak, birligimiz yanada mustahkam bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2012.
2. Mengliyev B. va boshq. 10-sinf ona tili darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022.
3. Xonazarov X. Til va dil. – Toshkent: O‘zbekiston, 1991.



Parizoda AXRORXO‘JAYEVA,
Farg‘ona davlat universiteti adabiyotshunoslik yo‘nalishi
2-bosqich magistranti

JADID DRAMALARIDA XOTIN-QIZLAR TA’LIMI MASALASI

Annotatsiya: Turkiston jadidlarining mushtarak maqsadlaridan biri xotin-qizlarni savodli qilish ekan, ular millat onalarini madaniyat va ma’rifatdan boxabar qilish, xat-savodini chiqarish, millat hayotida ularning faolligini oshirish, o‘z huquq va erkinliklarini tanish, jamiyatda erkaklar bilan bir qatorda izlanish, o‘z fikr va qarashlarini bayon eta olish, iste’dodlarini namoyon etishlari uchun bir qancha tizimli ishlarni amalga oshirdilar. Yangi usul maktablarining qurilishi, yozilgan nasriy, she’riy va dramatik asarlar, teatrlar, matbuotlardagi tinimsiz chiqishlar ta’lim, san’at, sanoat, qishloq xo‘jaligi sohasidagi yetuk kadrlar orasida ayollarning ulushi ortishiga sabab bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: *jadid dramasi, jadid matbuoti, ta’lim, “Biz va Siz”, “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”, dramaturg mahorati.*

Annotation: one of the common goals of Turkestan moderns is to make women literate. , have carried out a number of systematic works in order to be able to express their thoughts and views, to show their talents. The construction of new method schools, written prose, poetic and dramatic works, incessant performances in theaters and press led to an increase in the share of women among the senior staff in the fields of education, art, industry, and agriculture.

Key words: *modern drama, modern press, education, «We and You», «Poisonous life or victims of love», dramaturgical skills.*

Аннотация: одной из общих целей туркестанских современников является повышение грамотности женщин, ознакомление матерей нации с культурой и просвещением, развитие грамотности, повышение их активности в жизни народа, знание своих прав и свобод. и искать в обществе вместе с мужчинами, провели ряд систематических работ для того, чтобы иметь возможность выражать свои мысли и взгляды, проявлять свои таланты. Строительство новометодных школ, письменная проза, поэтические и драматические произведения, постоянные выступления в театрах и печати привели к увеличению доли женщин среди зрелых кадров в области образования, искусства, промышленности и сельского хозяйства.

Ключевые слова: современная драматургия, современная пресса, образование, «Мы и Вы», «Ядовитая жизнь или жертвы любви», драматургическое мастерство.

XX asrning boshlarida adabiyotimizda yangi bir janr yuzaga keldi va bu janr jadidlarning o‘z maqsad va g‘oyalarini xalqqa anglatishda eng ko‘p qo‘l keldi. Bu drama janri edi. Dastlab og‘zaki, keyin esa dramaturglar shakllanib, yozma tarzda sahna asarlari yaratila boshlandi. Bu jarayonda birinchilardan bo‘lib Mahmudxo‘ja Behbudiy “Padarkush” dramasini yaratdi va ushbu drama g‘oyaviy puxtaligi, ta’sirchanligi, ma’rifatparvarlarning g‘oyalarini yaqqol aks ettirganligi bilan katta muvaffaqiyat qozondi. Mahmudxo‘ja Behbudiydan so‘ng esa Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Xoji Muin Shukrullo, Abdulla Badriy, G‘ulom Zafariy, Sadriddin Ayniy va bir qator ijodkorlar o‘zlarining dramalarini yozib namoyish etdi. Dastlab dramalar fojea- tragediya ko‘rinishida bo‘lgan bo‘lsa, vaqt o‘tgani sayin yo‘nalishlari kengayib bordi, komediyalar ham yaratildi.

Rus sharqshunosi A.N.Samoylovich 1916-yilda e’lon qilingan “Драматическая литература сартов” nomli maqolasida “Turkistonda yangi adabiyot maydonga keldi. Bu men uchun kutilgan hol edi”, deb yozgan. Darhaqiqat, asrimiz boshlarida ming yillik adabiyotimizning qat’iy qonun tusini olgan aruz vaznidagi mumtoz namunalari o‘rnida tamomila yangi mazmun va shakldagi ovrupocha yo‘nalish kasb etgan badiiy adabiyot shakllana boshladi. G‘arb adabiyotining roman, hikoya, barmoq vaznidagi she’r turlari Turkiston turkchasida dadil qo‘llanila boshladi. Oz fursatda bu yo‘nalishning iste’dodli namoyandalari paydo bo‘ldi. Shu bilan birga, XX asrning 10-yillaridan o‘zbek jadid dramaturgiyasining tajribalari kurtak yozdi.[1]

Jadidlar 1913-yilga kelganda ancha o‘sgan edilar. Bundan buyog‘iga ular yolg‘iz poeziya sohasida emas, balki turmush mohiyatini va jamiyat psixologiyasini chuqurroq ifodalay oladigan teatr adabiyoti, ya’ni dramaturgiyani ham tushunadigan va uning kerak ekanini anglaydigan bir darajaga yetgan edilar. “Padarkush” dramasi esa ularning badiiy hamda ijro mahoratini yana bir bor namoyon etdi.

Turli xalqlar madaniyati tarixida zamonaviy teatr ikki xil yo‘l bilan vujudga keladi. Birinchisi, muayyan teatrning qadimiy teatr an’analari (xalq sahna o‘yinlari, og‘zaki drama)dan tadrij va takomil bilan o‘sib chiqish yo‘li bo‘lsa, ikkinchisi, boshqa xalqlar teatri tajribalarini o‘zlashtirish yo‘lidir. “O‘zbek teatri tarixi uchun materiallar” kitobida yangi o‘zbek teatri ikkinchi yo‘l bilan vujudga kelganligi haqida mulohaza yuritilgan. [2]

Aytish mumkinki, jadid dramaturgiyasinig vujudga kelishi va taraqqiy etishida rus, tatar, ozarbayjon teatr truppalarining o‘rni katta. Har qanday yangilik taqliddan boshlanishini yodga olsak, jadid teatri ham o‘rganishdan, taqliddan boshlanganini inkor etolmaymiz.

Miyon Buzruk o‘zbek jadid dramaturgiyasi va teatri mumkin bo‘lganidan ancha kechikib maydonga kelishining ikki asosiy sababi borligini aytadi. Shundan birinchisi, mamlakatda amalda bo‘lgan va omma ruhiyatini egallagan ma’naviy daraja bo‘lsa, ikkinchisi esa, mana shu ma’naviy darajaga nisbatan chor hukumati qo‘llagan siyosatdir. Uning bu kabi mulohazalaridan chor hukumati mamlakatda chuqur ildiz otgan diniy fanatizmning davom etishini mamlakat boyliklarini talash asosiga qurilgan mustamlakachilik siyosati uchun muvofiq topgan edi, degan xulosaga kelish mumkin.[3] Professor Begali Qosimov ham yuqoridagi fikrlarga mos ravishda “O‘zbek jadid adabiyoti, jumladan, dramaturgiyasining paydo bo‘lishi davr harakatchiligiga bevosita aloqadordir”,[4] deb aytadi.

Bu davrda yozilgan dramalarda asosiy va bosh g‘oya xalqni ilm-ma’rifatga undash, eski turmush an’analarini parchalar, to‘y va marosimlardagi dabdaba va haybarakallachilikdan voz kechish, yoshlar, ayniqsa xotin-qizlar ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor berish, ko‘pxotinlikni yo‘qotish, soxta dindorlarni fosh etish, xalqni dunyo ko‘rishga undash, o‘z haq-huquqlarini anglatishdan iborat edi. Bu g‘oyalarni omma ongiga singdirishda esa, ba’zan tragediya, ba’zan komediyadan foydalanildi.

Asrimiz boshlaridagi adabiy merosning she’riyat namunalari, adabiy aloqalar, tarjima asarlar, adabiy tanqidchilik maxsus tadqiqotlar mavzusi sifatida o‘rganildi. Biroq nasr va dramaturgiya sohasida yaratilgan asarlar yaxlit yirik tadqiqotlarga muhtoj. Ayniqsa, jadidchilik davri adabiyotining eng sermahsul va ommabop hodisasi bo‘lgan dramaturgiya alohida janr sifatida maxsus tadqiqot mavzusiga aylanmadi. Holbuki, aynan dramaturgik asarlarda jadid qarashlari, maqsad va intilishlari o‘zga janrlardan ko‘ra ko‘proq va xo‘broq hamda keng miqyoslarda o‘z aksini topdi. She’riyat va nasrning ahamiyatini kamsitmagan holda aytish lozimki, dramaturgik asarlar jadidlarning xalq bilan yaqinlashuvi, uning maishiy, ma’naviy dunyosiga kirib borishini ta’min etdi. G‘oyalarning yoyilishi, singishi va amaliy natijalar berishida dramaturgiya va teatr beqiyos ta’sir ko‘rsatdi. Shu bois ham jadidchilik harakatining aksariyat yirik namoyandalari dramaturgiyaga, teatr ishlariga alohida ahamiyat berdilar, ilk namunalarini yaratdilar. Haqiqatdan ham dramaturgiya va teatr ma’rifat, millat taraqqiyoti, ozodligi, madaniyati, mustaqilligi g‘oyalarini tashuvchi eng asosiy ma’naviy qurollardan biri bo‘lib qoldi. Shu sababli ham jadid dramaturgiyasining shakllanish jarayonlarini o‘rganish zarurdir. Bu avvalo, jadidchilik haqidagi qarashlarimizni, tushunchalarimizni kengaytirishga, hodisaning maqsad

1 Ризаев Ш. “Жадид драмаси”. – Тошкент: “Шарқ”, 1997. 4-бет

2 Абдулҳайров Б. “Миён Бузрук Солихонов – Ўзбек жадид драматургияси ва театри тадқиқотчиси”. Диссертация. – Тошкент, 2010. 62-63-бетлар.

3 Абдулҳайров Б. “Миён Бузрук Солихонов – Ўзбек жадид драматургияси ва театри тадқиқотчиси”. Диссертация. – Тошкент, 2010. 63-бет

4 Қосимов Б. Жадидчилик – “Ёшлик” журнали, 1990, 7-сон.

va ko‘lamini to‘laroq tasavvur etishga yordam bersa, ikkinchidan, Turkistonda yangicha ijtimoiy-estetik tafakkurning shakllanishi va taraqqiyotini kuzatish, adabiy-badiiy saviyaning yuksalishini aniqlashga imkon beradi.[1]

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, ayniqsa, birinchi o‘n yilligi va keyingi yillarda jadid adabiyoti, xususan, jadid dramaturgiyasini o‘rganish jadal rivojlandi. Shuhrat Rizayev “O‘zbek jadid dramaturgiyasining shakllanish manbalari” (T.,1995), Xadichaxon Lutfiddinova “Yozuvchining estetik ideali va ayollar obrazi” (T.,1994), Oltinoy Tojiboyeva “80-yillar o‘zbek dramaturgiyasining sahnaviy talqin muammosi” (T.,1996), Qudrat Jo‘rayev “20-yillar o‘zbek dramaturgiyasi” (T.,1994), Nargis Davurboyeva “Fitrat dramalarida milliy ozodlik g‘oyasining talqini” (T.,1999), Hidoyatxon Azimova “Abdulla Avloniy dramaturgiyasi” (T.,1999), Ilhom G‘aniyev “Fitrat dramalari poetikasi” (T.,1998), Guli Mahmudova “Turkistonda jadidchilik harakati va uning axloqiy-estetik fikr taraqqiyotiga ta’siri” (T.,1996), Dilora Rajabova “Turkiston jadidlarining qarashlarida yoshlar va xotin-qizlar masalalari” (T.,2003), Zulxumor Mirzayeva “O‘zbek jadid adabiyotining Amerikada o‘rganilishi” (T.,2006), Burhon Abdulhayrov “Miyon Buzruk Solihonov – O‘zbek jadid dramaturgiyasi va teatri tadqiqotchisi” (T., 2010), Abdusamad To‘ychiyev “O‘zbek nasrida jadid obrazi talqini”(T.,2001), Abdurahim Soliyev “O‘zbek dramaturgiasida inson talqini” (T.,2012), Tohirjon Qozoqov “XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysidagi ijtimoiy-siyosiy ahvol va jadidchilik harakati” (T.,2001) dissertatsiyalari fikrimizning yaqqol isbotidir. Albatta, biz mavzuimiz doirasidagi izlanishlarning ayrimlarini sanab o‘tdik, xolos.

Bu davrda yaratilgan sahna asarlarda jadidlar – ma’rifatparvarlar dilidagi eng og‘riqli masalalar qalamga olindi. Dramalardagi erk va ozodlik uchun kurash, xalqni birdamlikka chorlash, eski turmush, to‘y-marosimlardagi dabdabalarga barham berish, millatni ma’rifatli, savodli qilish bilan bir qatorda xotin-qizlar masalasi, ularga qilinayotgan jabr-zulmga barham berish, ularning tafakkuri, aql zakovatiga ishonish, o‘zini namoyon etishiga imkon berish, qarama-qarshiliklar oldida jasorat ko‘rsata olish… bularning hammasi sahna asarlaridagi eng e’tiborga molik jihatlardir.

“Baxtsiz kuyov” (A.Qodiriy), “Biz va Siz” (A.Avloniy), “Yorqinoy” (Cho‘lpon), “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” (Hamza), “Halima” (G‘ulom Zafariy) “Chin sevish” (A.Fitrat), “Mazluma xotin” (Hoji Mu’in), “Juvonmarg” (Abdulla Badriy) dramalari yuqoridagi fikrlarimiz isbotini topgan asarlar hisoblanadi.

Jadid dramalarida xotin-qizlarga erksiz, haq-huquqsiz bir mavjudot, jonsiz buyum sifatida qaraladi. Ularga o‘z fikr va istaklarini bildirish uchun na so‘z, na imkon beriladi. Faqat zulm, faqat xo‘rlik, kayf-safo, pul topish manbai sifatida qaralishi albatta o‘sha davr turmushida ayollarga bo‘lgan munosabatni yaqqol aks ettiradi.

Yuqoridagi fikrlar isbotini Abdulla Badriyning “Juvonmarg” dramasida ham ko‘rishimiz mumkin:

“…*xotinimning zarardan boshqa hech bir foydasi yo‘q. topgan molni yeb yotmoqdan boshqa ishka yaramaydur. Balki kasofati ko‘proqdir. Qizim bo‘lsa, qizimning bir nav foydasi bo‘ldi-ku, lekin undan kelgan foyda ham bebaraka bo‘ldi. Kuyovdan olgan pullarning hammasini shamol yedi*”[2]. Akram kontur ismli yigitga qizini berib, besh ming tanga qalin puli undirib, uni ham ichkilik, aysh-ishratga sarflagan Toshpo‘latning so‘zlari badbaxt er, yengil-yelpi hayotga o‘rgangan otani eslatadi. Bu kabi misollarni drama davomida ko‘plab uchratish mumkin:

To‘xtamurod – Xotuningning puli ko‘p bo‘lgani minan sanga berarmi?

Toshfo‘lot – Berarmi? Nimaga bermasun ekan, haddi bormuki, bermasin. Xotinim bo‘lgandan keyn olaveraman-diya!.. Bermasun qani, o‘ldurub, pichoqlab tashlamasam. Padar qusurni darrov o‘ldurarman. Bermasa, jonini olarman, uka!

To‘xtamurod – Ux-xa-xa-xa-xa!.. Barakalla! Mard ekansan, jo‘ra!..Xotundan qo‘rqmoq soqoli bor odamg‘a hech bir yarashadurmu?..Yigitlik shunday bo‘ladirmi? Saning yigitligingga qoyilman, Toshfo‘lot!..

Toshfo‘lot – Xotundan qo‘rqmoqlik, degan gap ham bu dunyoga gap bo‘ladimu? Xudoyim taolo xotunlarni bizlarg‘a qul qilib yaratib qo‘ygan. Onlar bizlarga xizmatkor. Xizmatkor bo‘lgandan keyin xotunning haddi bormuki, egasig‘a bo‘yin yo‘g‘onlik qilsun. Manim xotunim, manim xizmatkorim bo‘lgandan keyin nima qilsam qilaman, quvlab hayday, desam, haydayman. Saqlay, desam, saqlayman. Har nima qilsam, ixtiyorim o‘zimga-diya. Bu ham shunday gap. Bir etak oq tangani to‘kib sotib olgan xizmatkorim, xotinim bo‘lsin-u, man undan qo‘rqib turay emish.[3]

Yuqoridagi misralar orqali erlarning xotinlarga hayvon yoki bir arzimas buyumga qilingandek munosabat ko‘rsatilyapti. Ularni ongsiz, haq-huquqsiz bir mavjudot sanayapti. Albatta bu munosabat va uning sabablarini ilmli xotin-qizlar yaxshi anglaydi: “…*bizning baxtiqaroliklarimiz otamning buzuqligidandur. Ammo otamning buzuqliklari nodonlikdandur… Biz, xotin-qizlar, barchamiz baxti qarodirmiz. Xususan, biz, Turkiston xotin-qizlaridek badbaxt ham mazlumalar hech bir yerda yo‘q. Bizlarni badbaxt qilgan narsa ham nodonlikdur…Nodonlik orqasida o‘sha johil erlarimizning nafs hayvoniyalariga ozuq bo‘lub, oq kunni ko‘rolmiy, to‘rt oyoqlik molga o‘xshab to‘rt devorning orqasida qamalib yotmoqg‘a mahkum bo‘lubmiz.*” [4] Drama bosh qaramoni To‘tioy bu nodonlik sababini yaxshi anglagani holda, zamondosh dugonalarining, ayollarning ayni davrda erkaklar bilan teng huquqqa egaligi, faqatgina astoydil ku-

1 Ризаев Ш. “Жадид драмаси”. – Тошкент: “Шарқ”, 1997. 8-бет.

2 Бадрий А. Жувонмарг // Ризаев Ш. “Жадид драмаси”. – Тошкент: “Шарқ”, 1997. 200-бет.

3 Бадрий А. Жувонмарг // Ризаев Ш. “Жадид драмаси”. – Тошкент: “Шарқ”, 1997. 210-бет.

4 Бадрий А. Жувонмарг // Ризаев Ш. “Жадид драмаси”. – Тошкент: “Шарқ”, 1997. 211-бет.

rash bu haqiqatni yuzaga chiqarmog‘i mumkinligi, shu yo‘l orqali zulm zanjirini parchalash mumkinligi haqida onasiga so‘zlaydi. Ammo otasining nodonligi o‘zining ham, onasining ham o‘limiga sababchi bo‘ladi.

Hoji Mu’inning “Mazluma xotin” dramasi ham shunday fojea bilan tugaydigan sahna asarlaridan biridir. Bu dramada ham erlarning nodonligi, xotinlarga qilgan jabr-zulmi qoralanadi. Rohat qilaman deb qo‘sh xotinlilik jabrini tortgan Uzoqboy, kundoshlik jabrini ko‘rgan, bir umr eri uchun xizmat qilib, mehrsizlikda, xor-u zorlikda jon bergan Tansuqoy, asli eriga muhabbatsiz, ammo, erni o‘ziniki qilish uchun kundoshini hiyla bilan o‘lar qilib urdirgan Suyaroyning oilaviy mojarosi qalamga olinadi. Bu dramada ham eshonboboning nutqi orqali ayollarning erlar oldida erksizligi, tengsizligi ta’kidlanadi: “*Bu minan bo‘lmasa, do‘g‘ urub qo‘rquting-diya. Bu minan ham bo‘lmadi, so‘ngra 1-2 martaba yumalatib jon chiqmas o‘rniga xo‘b urung… Xotun deganni shunday zabt qilib o‘tini olingki, qamchingizni uchidan doim qon tomib tursun”.*[1]

Xotin-qizlarning og‘ir turmushi, erk-ozodligi masalasi ko‘proq mutaassiblik bilan izohlanuvchi to‘rt devor ichidagi oilaviy mojarolar tanqidi jadid adabiyotida, xususan sahna asarlarida keng ishlangan edi. Buni XX asr boshida ijod etgan deyarli har bir dramaturgda topish mumkin.[2]

“Padarkush”da ziyoli, “Juvonmarg”da Jo‘raqul obrazi bo‘lgani kabi “Mazluma xotin” dramasida muallim obrazi orqali aqli noqis kishilarning ko‘zini ochish, haqiqatni anglatish vazifasi yuklatiladi: “*Xotunlarni nohaq so‘kmoqg‘a hech kimning haqqi yo‘q, xotunlar ham bizlardek odam bolasi, bizlardek huquqlik inson. Alar tilsiz hayvon emaski, bizlar xohlaganimizcha ishlatsak… Payg‘ambarimiz alayhissalom sahobalariga aytibdurlarki, “Sizlardan eng yaxshilaringiz o‘z xotunlariga yaxshi muomala qiladurganlari ”.*[3]

Bu o‘rinda muallim jamiyatda ayollarning erkaklar bilan teng huquqli ekanliklari, ularga qilingan har qanday mehribonchilik, marhamat o‘z javobini topishi, xotin qizlarni xo‘rlash, jabr-zulm ko‘rsatish dinda ham qoralanganligini uqtirmoqchi bo‘ladi. Dramalardagi ziyoli shaxs obrazi orqali jadidlarning tub maqsadlari namoyon bo‘ladi. Ya’nikim, dramalardagi yangi zamon odami – ma’rifatparvar shaxs jadidlarning sahnadagi qiyofasidir.

Jadidlarning qarashlarida jamiyat rivojlanishini to‘xtayotgan xotin-qizlar ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq illatlar: ma’rifat qoloqligi, qayg‘u-kulfat, urug‘chilik va o‘rta asrdan saqlanib qolgan munosabatlardan qutulish yo‘lyo‘riqlari o‘z aksini topgandir. Jadidlar fikricha, xotin-qizlar o‘z ayollik huquqini anglashi, talab qilishi, tiklashga intilishi, uni tuban kimsalardan himoyalashi jamiyatning teng huquqli a’zosi bo‘lishi uchun diniy va dunyoviy bilim imkoniyatlaridan foydalanish sharoitlari yaratilishi zarur. Ma’rifatsiz, jamiyatda o‘zboshimchalik, jabr-zulm, adolatsizlik, tengsizlik, johillik, zo‘ravonlik hukmronlik qiladi. Jamiyatdagi bu tubanlik birinchi galda xotin-qizlar hayotida tezroq va to‘laroq aksini topadi.

Dilora Rajabova o‘zining “Turkiston jadidlarining qarashlarida yoshlar va xotin-qizlar masalalari” mavzusidagi dissertatsiyasida jadid dramalaridagi ayollar obrazini tadqiq etadi, dramaturg – jadidlarning mushtarak maqsadlarini umumlashtiradi.

Jadidlar dunyoqarashida ayol, yor, ona, mehribon do‘st, ijtimoiy zulmga uzoq vaqt bardosh bergan, unga qarshi kurashini to‘xtatmagan va undan g‘olib chiqqan, dinni tahqirlovchi ta’limotini jur’at bilan parchalab tashlagan qahramon inson sifatida namoyon bo‘ladi. Turkistondagi ayollar qismati deyarli barcha jadid ma’rifatparvarlarining tafakkkurida o‘z ifodasini topgan. Bu g‘oyalar Turkiston xalqlarining milliy uyg‘onish, milliy taraqqiyot yo‘lida to‘g‘anoq bo‘lgan o‘tmish sarqitlaridan xalos bo‘lib, ma’rifat manzillarini egallashi bilan bog‘liq g‘oyalardir.[4] Hoji Mu’in jamiyatning ma’naviy ravnaqi, qismati asosan ayollarning barkamolligiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatsa[5], Sadriddin Ayniy o‘tmishda xotin-qizlarning og‘ir hayoti, jaholat ostida azob chekishi, ularning ilmsizlik va haqsizlikka qarshi harakatlarini ayollar obrazlari orqali ko‘rsatgan[6]. Abdulla Avloniy ham ayollar qismatini maorif va adabiyot, eski urf-odatlar bilan bog‘liq holda izohlaydi[7]. “Biz va Siz” asarida esa an’anaviy muhabbat fojeasi ilm-ma’rifatsiz kishilarning bid’at urf-odatlari natijasi sifatida ko‘rsatiladi. Asar qahramoni Kamol obrazi orqali jadidlarning xotin-qizlar masalasi borasidagi fikr, orzu-umidlari, maqsadlari ifodalangan. Ular Kamol obrazi orqali xotin-qizlarga nisbatan yuksak madaniyat bilan munosabatda bo‘lishlarini bildirganlar, ularni hatto erkaklardan ham yuqori qo‘yadilar. “Erdan xotunning martabasi ulug‘. Butun bir oilaning tarbiyasi, yozmish saodati uy boshlig‘i bo‘lg‘on xotun qo‘lida bo‘ladir”, deb Abdulla Avloniy Kamol obrazi orqali, birinchidan, yevropacha ta’lim olgan, ikkinchidan, oila va muhabbat masalalariga yangicha munosabatda bo‘layotgan, uchinchidan, yigit va qiz munosabatlarini ilm va ma’rifat belgilashini asosiy mezon qilib olgan ziyolini namoyon etadi[8]. Jadidlar shunday yosh kishilar timsolida Turkistonda yetilayotgan yangi inson – ziyoli, ma’rifatparvar, madaniyatli va millatparvar shaxslarni namuna qilib ko‘rsatdilar.

Fitrat ayollarning tutgan o‘rniga juda katta baho beradi va ayollarning ijtimoiy hayotda muhim o‘rin egallaganliklariga alohida ahamiyat beradi. Ayollarning erkin harakat qilishi, har bir ishda faol ishtirok etishi, ammo ularni yomon ko‘zlardan asrash lozimligini

1 Муъин Ҳ. Мазлума хотин // Ризаев Ш. “Жадид драмаси”. – Тошкент:. Шарқ, 1997. 291-бет.

2 Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. Тошкент “Маънавият” 2002. 324-бет.

3 Муъин Ҳ. Мазлума хотин // Ризаев Ш. “Жадид драмаси”. – Тошкент: Шарқ, 1997. 295-бет.

4 Ражабова Д. Туркистон жадидларининг қарашларида ёшлар ва хотин-қизлар масаласи. Диссертация. Т – 2003.

5 Муъин Ҳ. Мазлума хотин // Ризаев Ш. “Жадид драмаси”. – Тошкент:. Шарқ, 1997 . 281-316-бетлар

6 Айний С. Дохунда. Асарлар. Т.2 1964. 453-бет.

7 Қаранг: Авлоний А. Тошкент тонги. – Т. 1979

8 Авлоний А. Биз ва Сиз. // Танланган асарлар. Т 2. – Т.: Маънавият. 1998. 159-бет.

ham unutmaydi. “Xotin – kishilik boqchasining gulidir. Hayvon tumshug‘i tegmasin deb chechakni og‘ilga tiqmang. Xotunlar qamalsalar tarbiyasiz qolarlar. Tarbiyasiz xotunlar ulusning o‘limi uchun yo‘l ocharlar. Gulni hayvondan saqlamoq tegish. Biroq, uning uchun gulni yerga ko‘mmak emas, hayvonni bog‘lab qo‘yarg‘a kerak”[1]. O‘z qarashlarida aks ettirilgan muhabbat mavzusining bir-biriga o‘xshash tomonlari shundaki, chin sevgi egalari qilib savodli va yangi fikrdagi yoshlar olinadi. (Kamol va Maryam “Biz va Siz”, Mahmudxon va Maryam “Zaharli hayot yohud ishq qurbonlari”, To‘tioy “Juvonmarg”, Nuriddinxon va Zulayho “Chin sevish”). Ularga teskari holda eskilik va bid’at urf-odatlar timsolida ota-onalar orzusi va el oldidagi obro‘lari uchun kurash aqidasi gavdalanadi; sevmagan va sevilmagan savodsiz qizlar ro‘dapo, johila va xunuklik timsoli etib ko‘rsatiladi; yigitlarning xotin-qizlarga bo‘lgan munosabatlarida qizlarning savodli va ilmli bo‘lishlari, ularning husni va latofati bo‘lib jilolanadi, sevishganlar o‘rtasida erkin munosabat, xat orqali bir-birining ruhiyatidan xabardor bo‘lishi va taskin topishi ulug‘lanadi; xotin-qizlarning mol kabi sotilishi va sotib olinishi qoralanib, bir-birini tanib, bilib va so‘zlashib, muhabbat qo‘yishlari yangi zamon, yangi turmush belgilari sifatida ta’riflanib, bular ma’rifatparvarlikning xotin-qizlar borasidagi dunyoqarashning asosiy yo‘nalishlari deb hisoblanadi.

1 Фитрат А. Чин севиш: Шеърлар, драмалар,мақолалар. / Масъул муҳаррирлар Б. Қосимов, С. Эркинов. – Т.: Адабиёт ва санъат. 1996. 80-бет.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Авлоний А. Танланган асарлар. Икки жилдлик. – Т.: Маънавият, 1998
2. Бир мусулмон. Хотунлар эрлар билан баробар эмас. // Туркистон вилоятининг газетаси. 1912. 20 -сентабр
3. Фитрат А. Ҳиндистонда бир фаранги ила бухороли мударриснинг жадид мактаблари хусусида қилған мунозараси. // Шарқ юлдузи. 1997. № 1. 130
4. Фатҳиддинзода З. Ҳуқуқи инсон. // Садои Туркистон. 1914. 10- декабр
5. Ҳамза. Заҳарли ҳаёт ёҳуд ишқ қурбонлари. Тўла асарлар тўплами: 5 жилдлик. 3- жилд. – Т, “Фан” , 1998.
6. Яна тўй масаласи.// Садои Фарғона. 1914. 8-июн.
7. Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”. G‘afur G‘ulom nashriyoti. – Toshkent, 2016. 229-234-betlar.

Анвар МУХИДДИНОВ,
д.ф.н., профессор Ферганского государственного университета,
София РАХИМОВА,
магистрант 2 курса Ферганского государственного университета

НАУЧНАЯ ИДЕНТИФИКАЦИЯ ЯЗЫКОВЫХ КОНТАКТОВ (НА ПРИМЕРЕ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Аннотация: в статье рассматривается феномен языковых контактов на примере русского и узбекского языков, которые имеют длительную историю взаимодействия. Особое внимание уделяется социолингвистическим аспектам, лексическим заимствованиям и их адаптации, а также влиянию русского языка на грамматику узбекского. Подчеркивается, что контакты способствуют обогащению языков и отражают социальные и культурные процессы в полиэтническом обществе Узбекистана.

Ключевые слова: *языковые контакты, русский язык, узбекский язык, заимствование, социолингвистика, лексическая адаптация, грамматическое взаимодействие, культурные изменения.*

Annotatsiya: maqolada rus va o‘zbek tillari misolida til aloqalari hodisasi ko‘rib chiqiladi, ular uzoq davom etgan o‘zaro ta’sir tarixiga ega. Asosiy e’tibor sotsiolingvistik jihatlar, leksik o’zlashma so’zlar va ularning moslashuvi, shuningdek, rus tilining o‘zbek tili grammatikasiga ta’siriga qaratiladi. Til aloqalari tillarning boyishiga yordam berishi va O‘zbekistonning ko‘p millatli jamiyatidagi ijtimoiy va madaniy jarayonlarni aks ettirishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *til aloqalari, rus tili, o‘zbek tili, o’zlashma so‘zlar, sotsiolingvistika, leksik moslashuv, grammatik o‘zaro ta’sir, madaniy o‘zgarishlar.*

Annotation: this article examines the phenomenon of language contact between Russian and Uzbek, which have a long history of interaction. Special attention is given to sociolinguistic aspects, lexical borrowing and its adaptation, as well as the influence of Russian on Uzbek grammar. It is emphasized that such contact enriches both languages and reflects the social and cultural processes in Uzbekistan’s multiethnic society.

Keywords: *language contact, Russian language, Uzbek language, borrowing, sociolinguistics, lexical adaptation, grammatical interaction, cultural changes.*

Языковые контакты – это явление, которое происходит, когда два или более языка взаимодействуют, влияют друг на друга и обмениваются элементами, такими как лексика, грамматика и фонетика. В условиях глобализации и полиэтнического общества языковые контакты играют важную роль в развитии и трансформации языков. На примере русского и узбекского языков, взаимодействие которых имеет длительную историю, можно увидеть, как культурные, политические и социальные факторы влияют на их эволюцию и взаимное обогащение.

История языковых контактов между русским и узбекским языками уходит корнями в эпоху российской колонизации Средней Азии в XIX веке. В результате расширения Российской империи русский язык начал активно проникать в регионы Средней Азии, в том числе в Узбекистан. Этот период характеризуется началом интенсивного взаимодействия двух языков, когда русский язык стал использоваться в административных и образовательных сферах, что привело к его широкому распространению. Узбекский язык, в свою очередь, сохранил свои корни и национальные особенности, но начал впитывать элементы русского языка, что отразилось в изменениях лексического состава и фонетических особенностей.

Современная ситуация билингвизма в Узбекистане представляет собой уникальное социолингвистическое явление, при котором оба языка – русский и узбекский – функционируют в своих специфических сферах и дополняют друг друга. Русский язык сохраняет свою значимость в деловой, научной и образовательной сферах, благодаря чему его влияние на узбекский язык продолжается.

В Узбекистане можно наблюдать тенденцию, при которой русскоязычное население часто использует узбекские термины для обозначения культурных реалий и местных понятий, в то время как узбекоязычные жители заимствуют из русского языка термины, связанные с научно-технической лексикой и современной культурой. Этот взаимный обмен приводит к созданию своеобразного языкового пространства, где заимствованные слова не только адаптируются, но и становятся частью повседневного общения.

Интересно, что русский и узбекский языки также взаимно обогащаются на уровне грамматики и синтаксиса. Так, русские предлоговые конструкции иногда внедряются в узбекский язык, в то время как узбекские послелоги и агглютинативные структуры в некоторых случаях проникают в русскоязычную речь, особенно среди двуязычных носителей. Например, в обиходном узбекском языке распространены заимствования вроде «работа» (вместо "ish"), «магазин» (вместо "do'kon") и «отпуск» (вместо "ta'til"), «бизнес» (вместо “tadbirkorlik”), кофе (вместо “qahva”), люстра (вместо “qandil”.), «врач» (вместо “shifokor”).

Эти русские слова часто встречаются в разговорной речи, особенно среди молодежи и в городах, где русский имеет большее влияние. При этом такие заимствования адаптируются фонетически и морфологически: русские слова могут принимать узбекские окончания, как, например, в слове "магазиндан" (буквально «из магазина»), где добавляется узбекское окончание "-дан" для выражения направления или происхождения. Обратный процесс можно заметить в русскоязычной речи, когда узбекские слова и выражения используются как лакуны для описания традиционных или культурных реалий, не имеющих точных аналогов в русском языке. Например, слова "махалла" (традиционная узбекская община или квартал), "ош" (национальное блюдо), "чайхана" (традиционное заведение для чаепития), «чапан» (национальный мужской халат), «шурпа» (национальное блюдо) используются русскоязычными говорящими в их исходном виде с небольшими изменениями фонетического облика слов. Эти слова, закрепленные в русской речи Узбекистана, демонстрируют культурное богатство и специфические реалии узбекской жизни, которые постепенно становятся понятными для русскоязычных носителей без необходимости перевода.

Данный процесс способствует созданию уникального социокультурного феномена, который поддерживает культурное разнообразие и формирует новое поколение двуязычных носителей, способных свободно переключаться между двумя языками в зависимости от контекста и сферы общения. Социолингвистический анализ подтверждает, что подобное языковое взаимодействие подчеркивает сохранение культурных ценностей каждого языка, поскольку узбекский продолжает выполнять роль символа национальной идентичности, а русский остается средством межнационального и международного общения.

Одним из ключевых аспектов языковых контактов является лексическое заимствование. В узбекском языке под влиянием русского появилось множество новых слов, связанных с технологией, наукой, политикой и культурой. Например, такие слова, как «телевизор», «компьютер», «институт» и «автомобиль» – это прямые заимствования из русского языка, которые были адаптированы к фонетическим и морфологическим нормам узбекского. Важно отметить, что заимствование лексики происходит не только на уровне бытовых терминов, но и в специализированных профессиональных сферах, таких как медицина, юриспруденция и инженерия, что демонстрирует влияние русского языка как языка науки и технологий.

Языковые контакты между русским и узбекским языками неразрывно связаны с культурными изме-

нениями. В процессе взаимодействия языков происходит обмен не только лексическими и грамматическими элементами, но и культурными концептами. Например, русские заимствования в области бытовой культуры и технологий отражают модернизацию узбекского общества и его ориентацию на российскую культуру. В современный период наблюдается обратный процесс: узбекские элементы проникают в русскую речь узбекского населения Узбекистана, что свидетельствует о сохранении и популяризации национальных традиций и ценностей.

Научная идентификация языковых контактов между русским и узбекским языками демонстрирует сложный и многогранный процесс взаимодействия двух языков и культур. Эти контакты являются не только результатом исторических и политических событий, но и отражением социальной динамики и культурных изменений, происходящих в современном обществе. Исследование языковых контактов позволяет понять, как языки адаптируются к новым условиям и взаимодействуют друг с другом, обогащая свою лексику, грамматику и культурные коды. В перспективе изучение языковых контактов может способствовать более глубокому пониманию культурных и социальных изменений, происходящих в полиэтнических и поликультурных сообществах, таких как Узбекистан.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Брайнин В. Л. Введение в социолингвистику: учебное пособие / В. Л. Брайнин. – Москва: Просвещение, 2015. – 256 с.
2. Богородицкий В. А. Вопросы контактной лингвистики: монография / В. А. Богородицкий. – Казань: Изд-во Казан. ун-та, 2013. – 320 с.
3. Плунгян В. А. Языковые контакты и их последствия для структуры языка / В. А. Плунгян // Вестник Российской академии наук. – 2018. – № 2. – С. 45–59.
4. Дьяков А. В. Влияние русского языка на лексическую систему узбекского языка в XX веке / А. В. Дьяков // Вопросы языкознания. – 2017. – № 4. – С. 102–110.
5. Кузьмина И. Н. Проблемы двуязычия и языковых контактов в полиэтническом обществе: учебное пособие / И. Н. Кузьмина. – Санкт-Петербург: ЛГУ, 2016. – 198 с.

Madina DALIEVA
associate professor
Uzbek State World Languages University
Head of the Department of Teaching
English Methodologygfdsa DSc

GENETICS OF VIEWS ON EDUCATING A SPIRITUALLY PERFECT PERSON IN THE SCIENTIFIC-SPIRITUAL HERITAGE OF THE JADIDS."

Annotation: this article explores the revival of Uzbekistan's philosophical heritage following independence, emphasizing the significance of spiritual and moral teachings from historical thinkers in shaping contemporary society. It discusses the concept of the "perfect person," as articulated by thinkers like Aziziddin Nasafi and Muhyiddin Ibn Arabi, highlighting their ideals of moral integrity, self-awareness, and societal contribution. The text underscores the interconnectedness of philosophy and human nature, advocating for the understanding of one's spirituality as essential to grasping broader existential questions. It concludes by asserting the relevance of Eastern philosophy in the 21st century, urging a thoughtful integration of its values into modern discourse.

Keywords: *jadidism, jadid Ideas, oriental thought, justice, perfect person, education.*

Annotatsiya: ushbu maqola O‘zbekistonning mustaqillikdan so‘nggi falsafiy merosining qayta tiklanishini o‘rganadi va zamonaviy jamiyatni shakllantirishda tarixiy fikr egalarining ruhiy va axloqiy ta’limotlarining ahamiyatini ta’kidlaydi. Aziziddin Nasafiy va Muhyiddin Ibn Arabi kabi mutafakkirlar tomonidan ifodalangan "mukammal inson" tushunchasini muhokama qiladi, axloqiy to‘g‘rilik, o‘z-o‘zini anglash va jamiyatga hissa qo‘shish g‘oyalarini yoritadi. Matn falsafa va inson tabiatining o‘zaro bog‘liqligini ta'kidlaydi, shuningdek, o‘z ruhiyatini tushunishning kengroq mavjudlik savollarini anglashda muhimligini ta'kidlaydi. U 21-asrda Sharq falsafasining ahamiyatini va uning qadriyatlarini zamonaviy muhokamalarga ehtiyotkorlik bilan integratsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, jadidchilar g‘oyalari, sharq tafakkuri, adolat, komil inson, tarbiya.*

Аннотация: эта статья исследует возрождение философского наследия Узбекистана после обретения

независимости, подчеркивая значимость духовных и моральных учений исторических мыслителей в формировании современного общества. Обсуждается концепция "совершенного человека", как её описывают мыслители, такие как Азизиддин Насафий и Мухйиддин Ибн Араби, подчеркивая их идеалы моральной целостности, самосознания и вклада в общество. Текст подчеркивает взаимосвязь философии и человеческой природы, выступая за понимание своей духовности как необходимого для осознания более широких экзистенциальных вопросов. В заключение подчеркивается актуальность восточной философии в 21 веке, призывая к внимательной интеграции её ценностей в современный дискурс.

Ключевые слова: *джадидизм, идеи джадидов, восточная мысль, правосудие, идеальный человек, образование.*

After gaining independence, the Uzbek people embarked on the study and revival of the rich philosophical heritage left by their ancestors. The spiritual and moral ideas expressed in the philosophical works of representatives of science and culture hold significant importance in the development of society, especially in nurturing feelings of goodness and pride among the youth. Indeed, the social, moral, and philosophical ideas and teachings of thinkers have scientific and conceptual significance today, in protecting society from spiritual threats and in elevating the philosophical consciousness of the younger generation while strengthening their ideological immunity. In this context, the study of the spiritual and scientific heritage of thinkers, particularly the Jadid representatives, from a modern scientific and methodological perspective remains a focal point in the research community today. As our President noted: “The words of our enlightened ancestor Mahmudkhoja Behbudi, ‘Worldly science and knowledge are necessary for existence in this world,’ still hold relevance today.

Philosophical thoughts about the development of human issues have been a central theme of philosophy across all times and places. The human problem is not only a subject of philosophical inquiry but also a focal point of other sciences. While other disciplines study specific aspects or characteristics of a person, philosophy strives to understand the individual as a whole. In other words, philosophy attempts to explain the natural and social essence of humans, their place among living beings in the world, and how they differ from other creatures. It seeks to identify the laws that express the mechanisms of interconnectedness between a person’s body, psyche, and spirituality. Philosophy analyzes the relationship of humans to the world, their environment, and the ways and methods through which they can transform themselves, emphasizing their status as beings who determine their own fate.

Humans have created various ideas and teachings about themselves and their spiritual and moral development. Thus, the ideas humans create about themselves also evolve over time, becoming richer or outdated. While humans possess all goodness and miracles, they also bear the roots of various conflicts and discord. The concept of a perfect person is an integral part of our people's noble aspirations and national spirituality. This idea of a perfect person is reflected in the sacred texts of Zoroastrianism, the Qur'an, Hadiths, Sufi philosophy, and the works of Eastern thinkers.

It is noteworthy that the concept of a "spiritually developed person" ("perfect person") was introduced into scientific discourse by the Islamic philosopher Muhyiddin Ibn Arabi. He acknowledges that the ideal person is embodied in the figure of the Prophet Muhammad. According to Aziziddin Nasafi, any individual who embodies "good words, good deeds, good morals, and knowledge" can be considered a perfect person. For the perfect individual, the only goal is to bring benefit to the people and alleviate the difficulties of others. The entire effort of the perfect person is directed towards honesty, truthfulness, and goodness, encouraging people to be compassionate, to avoid causing harm to one another, to empathize, and to rely on each other in solving social issues.

In Aziziddin Nasafi's philosophical views, the perfect person stands out for their ability to discern good and evil with insight, meaning that social changes are first reflected in the hearts of such individuals. Thus, among all beings in the world, there is no one greater or wiser than the perfect person, as the ranks of existence, from the lowest to the highest, are those of the perfect individual. The perfect person is the essence and cream of existence.

Aziziddin Nasafi defines the perfect person as the most complete, most intelligent, and the wisest individual who conveys the mysteries of the unseen to others. Such a person embodies divine qualities and encompasses the entire cosmos with their high spirituality. These individuals are always vigilant and

aware of everything around them. A person is formed within society; that is, they achieve perfection not as an inherently distinguished spirit but through a process of spiritual and moral purification.

he source of all virtues lies in reading, learning, and enlightenment. At this point, it is fitting to quote the wisdom of Abu Rayhan Beruni: "The pursuit of knowledge initially requires moral purity. Furthermore, education and upbringing demonstrate a unity; only those students who adhere to this reality can progress toward perfection."

Descriptions of human nature are diverse. Socrates' saying, "Knowing yourself" takes on new significance in every historical era. In the history of Eastern philosophy, humanity has also been one of the main themes. For instance, in Al-Farabi's philosophy, a person is interpreted as a product of the overall development of existence. The philosopher showed that all of a person's noble qualities stem from knowledge, and that the essence of human life (the pursuit of happiness and the desire to make others happy) can only be achieved through knowledge and enlightenment. Both Al-Biruni and Ibn Sina sought to prove that humanity's superiority over other beings is due to reason and intellect. In contrast, Abu Hamid Al-Ghazali emphasized that this superiority lies in the human heart rather than the mind.

In the teachings of mysticism, which aimed to prove the limitations of intellect, the concept of the perfect person was a central idea. This perfection was mainly expressed through spiritual growth and the ability to control physical desires. In Eastern philosophy, thoughts about humanity developed inextricably linked to Eastern ways of thinking and lifestyle. Philosophical knowledge of human essence also holds significant educational importance. Philosophy helps to gain a deeper understanding of human nature, its place, and significance in society during each new historical era. By understanding the characteristics and virtues inherent in humanity, students strive to cultivate such qualities within themselves.

It is known that the necessity of analyzing human essence, interests, and relationship to existence based on certain values has always existed and will continue to do. Questions such as "Why have I come to this world?", "What is the purpose of my existence?", "What is the essence of existence?", and "What moral and legal criteria govern my relationship with nature, society, and humanity?" cannot be ignored by anyone at any time. In the process of finding answers to these questions, individuals think deeply, reflect, connect their knowledge and life experiences with past lessons, and conduct intellectual analyses based on specific social and spiritual values, striving to draw conclusions that will serve as a guide for life.Philosophers are those thinkers who have lived their entire lives immersed in such questions, seeking answers grounded in certain spiritual values. Philosophers have always been regarded as the wise individuals of their time. Being a person of mature spirituality, wisdom, and knowledge primarily signifies adherence to human interests and humanitarian values. It is difficult for a good philosopher to emerge from those who lack spiritual depth and extensive knowledge. In their general conclusions related to the analysis of humanity and existence, philosophers base their ethical and moral standards on humanitarian values.

Unjustifiable interests, goals, thoughts, and conclusions are not recognized as justice. Philosophical conclusions are viewed as a synthesis of human nature, the essence of humanity, and knowledge about nature and society, based on certain scientific traditions, moral values, specific necessities, needs, and opportunities. In the East, philosophy is not just simple knowledge; it is deeply ingrained in people's hearts, teaching them to embrace tolerance, reflection, patience, humanity, justice, and to approach every action and thought with careful consideration and respect for human dignity. Eastern philosophers have always based their teachings and conclusions on concrete historical experiences, practical outcomes, the scientific achievements formed during the process of development, the beliefs and needs of humanity and the people, the level of spiritual growth, as well as religious and secular values. For this reason, philosophy in the East is regarded as a culture of thought rooted in knowledge about knowledge, certain traditions, and values. Philosophy connects all sciences, allowing human knowledge to develop as a coherent system.

In Eastern philosophy, the problem of human beings and the entire existence is studied together, in an organic connection. However, before understanding what existence is, the question of knowing what a human being is takes precedence. Existence is eternal and limitless, and its development is continuous. Although human life is temporary, it embodies the highest symbols of perfection and greatness within existence. The essence of a human being manifests in the unity of their ever-improving and evolving spirituality and the activities required by it. The level of a person's spirituality determines their relationship with existence, which develops as a result of the progression of this relationship.

The famous philosopher Aziziddin Nasafiy also remarked on the main criterion for understanding human essence: "O dervish, the knowledge of the beginning and the end is hidden within you; whatever you seek, seek within yourself. Why search outside?"

As the great Greek philosopher Plato said, it is not enough for an individual to be just; one must be a philosopher to truly understand oneself. Those trapped in personal selfishness will interpret justice in their own way. Many rulers have also tried to define the criteria of justice based on their own interests and continue to do. A person's ability to analyze their essence objectively and conscientiously involves evaluating all their goals and related tasks in light of historical lessons, current necessities, and the opinions and interests of others.

Another important issue in Eastern philosophy is the analysis of the moral and legal criteria of human relationships. By reading the following lines from Alisher Navoi, one can gain a deeper understanding of the essence of humanitarian ideas in Eastern philosophy: "Whoever can bring joy to a broken heart, As long as there is one, is as good as rebuilding the ruined Kaaba." These thoughts show that providing solace to a suffering individual and uplifting their spirit is equivalent to restoring the fallen Kaaba in terms of virtue.

In human relationships, the importance of justice, faith, integrity, kindness, and compassion for the life and development of society is clearly expressed in the words of the great Amir Timur: "I have satisfied the beings created by God with justice and integrity. I have judged both the guilty and the innocent with mercy, based on truth. Through my charitable deeds, I have won the hearts of the people." One of the reasons for the strength of the Timur Empire was indeed this. Thus, the criteria for social justice also form one of the main principles of Eastern philosophy. A person engages with nature based on specific interests, relying on values and traditions, while being aware of the consequences of their actions. Therefore, their relationship with nature is also an activity grounded in spirituality.

In conclusion, in the 21st century, humanity should not blindly revert to the traditions and values of Eastern philosophy. It is essential to recognize that the essence of philosophy is universal human values and to utilize the traditions and values of Eastern philosophy wisely and broadly. From the above thoughts, one should not conclude that we need to completely abandon past philosophical teachings to create an entirely new philosophy. Philosophy has developed as a science with its own history, theories, specific laws, and categories throughout all times. However, the system of philosophical problems that gains priority significance under the influence of the conditions, needs, and possibilities of the era is constantly evolving and renewing.

For this reason, in each historical period, the focus has been on studying and analyzing not philosophy as a whole, but rather its specific problems. In the 21st century, understanding the essence of the individual, protecting their rights, dignity, and interests, and elevating their spirituality have become the primary issues of philosophical analysis aimed at strengthening the unity and solidarity of the community. This is also the reason why there is a significant emphasis on studying Eastern philosophy today.

The list of used literature

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.311-b.
2. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Hindiston. 2-jild – Toshkent: Fan, 1965.36-b.
3. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1968. 458-b.
4. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob. - Toshkent: 1996. 147-b.
5. Aziziddin Nasafiy. Komil inson haqida. Beshinchi risola. Suluk bayonida & Najmiddin Komilov. Tasavvuf.
6. Choriyev A. Inson falsafasi. Inson to'g'risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti. I kitob –Toshkent, "Chinor ENK", 1998. 264-b.
7. Konfutsiy. Hikmatlar. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. 2018. – 198-b.

Xolbibi QURBONOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti p.f.n.
Yulduz QURBONOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi p.f.f.d. (PhD)

SODDA GAP SINTAKSISINI ZAMONAVIY USULLARDA O‘QITISH YO‘LLARI

Annotatsiya: bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida sintaksis bo‘limi muammolarini o‘rganish bo‘yicha amalga oshirilgan izlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Sodda gap sintaksisining darsliklarda berilishi, unga oid nazariy bilim, amaliy mashq va topshiriqlar o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmasini shakllantirishdagi ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Kalit so‘zlar: *innovatsion ta’lim, didaktik tafakkur, darslik, sintaksis, nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya.*

Аннотация: сегодня в узбекском языкознании важное значение приобретают исследования по изучению проблем раздела синтаксиса. Изложение синтаксиса простого предложения в учебниках, теоретических знаний по нему, практических упражнений и заданий заключается в выявлении значимости его в формировании у учащихся навыков письменной и устной речи.

Ключевые слова: *инновационное обучение, дидактическое мышление, учебник, синтаксис, речевая компетентность, лингвистическая компетентность.*

Annotation: today, in Uzbek linguistics, the research carried out to study the problems of the syntactic branch is of paramount importance. Simple sentence syntax is given in textbooks, theoretical knowledge about it, practical exercises and tasks are aimed at determining the importance of students in the formation of written and oral skills.

Key words: *innovative education, didactic thinking, textbook, syntax, speech competence, linguistic competence.*

Bugungi innovatsion ta’lim ona tilini o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadi bilan ta’lim oluvchida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish va takomillashtirishni ustuvor vazifaga aylantirdi.

Didaktik tafakkur — o‘rganish, o‘rgatish va ta’lim mazmunining doimiy aloqadorligi, munosabatlarini izlash, aniqlash demakdir. O‘qituvchi o‘quvchilarni faollashtiradigan, o‘zi va o‘rganuvchi uchun qulay bo‘lgan yo‘llarni, usul va uslublarni, o‘qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi, zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib, o‘quv jarayoni samaradorligini oshiradi. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatib, o‘quv jarayonining yuqori sifat va samaradorligiga erishadi. Shu boisdan ham, pedagogik, didaktik, ta’lim texnologiyalariga va darsliklarga olib kirishga o‘quv jarayonidagi eng samarali vositalar deb qaralmoqda. Ulardan dunyo pedagogik amaliyotida keng foydalanilmoqda. Har qanday fan darsligi mazmun, vazifa va tuzilish jihatidan mukammal bo‘lishi lozim. Bu faqat darslikning emas, darsning samarasini oshirib, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi uchun keng imkon yaratib beradi. Darslikni o‘rinli ishlata olish, o‘quvchiga yetkazib berish esa bugungi kunning zamonaviy o‘qituvchisi oldidagi eng dolzarb masaladir. Filologiya fanlari doktori Baxtiyor Mengliyev ta’biri bilan aytganda, “Darslik yuqori darajada umumlashtirilgan va zamonaviy ilmiy bilimlarga asoslangan ma’lumotlar-qoidalar, hukmlar, tasniflardan tashkil topishi lozim”.

O‘quv predmetining mazmuni uzviy va tizimli ifodalanishida, avvalo, o‘quv materialini maqsadga yo‘naltirilgan ravishda tizimlashtirish talab etiladi. Darslikning zamonaviylashuvi bu bevosita bo‘lajak kadrlarning zamonaga mos bo‘lib ulg‘ayishiga, fan-texnika yutuqlaridan to‘la xabardor bo‘lishiga, milliy qadriyatlarimiz ruhida kamol topishiga erishish demakdir.

Ko‘rinadiki, umumta’lim maktabining ona tili ta’limi sathlararo uzviylikka tayanadi. Bu avvalo, darslikda o‘z ifodasini topadi.

Mazkur maqolada o‘quvchilarning psixologik jihatlari hamda dars davomida yuzaga keladigan ehtiyojlarini inobatga olib, sodda gap sintaksisini o‘zlashtirishga qaratilgan metod va usullar, mashq va topshiriqlar tahlili hamda uning dars samaradorligi va o‘quvchilarning ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyatini yoritishga qaratildi.

O‘quvchilarga quyidagi innovatsion usullar orqali mavzuni o‘rganish bir muncha oson kechadi.Masalan,

Matnni o‘qing. Matnda qo‘llangan so‘z birikmalarini aniqlab yozing. Ularni nima bog‘lab turganligini izohlang.

Cho‘l manzarasi

Birdaniga cho‘lning havosi o‘zgardi, erta kuz bo‘lishiga qaramay, esib turgan ilimiliq shabada o‘rniga qandaydir dimoqqa xush yoqadigan, bog‘lardan esayotgan yoqimli shamol kela boshladi. Hozir biz bir

tomoni hali bezrayib yotgan cho‘l, bir tomoni esa obod bo‘lgan yerning hududida turardik.

Etagi olislarda cho‘zilib ketgan cho‘l to‘quvchi dastgohidagi tandaga, yangi obod bo‘lgan joylar esa shu tandaning asta-sekin to‘qilib kelayotgan sergul matosiga o‘xshardi.

Shag‘al yotqizilgan yo‘lning ikki chetida hali usti yopilmagan bir qavatli binolar, xom g‘isht devoriga tol tashlab ustidan tosh bostirib qo‘yilgan chala uylar, ba’zan shaxmat katagiga o‘xshagan sement devorlar uchrab turardi. Bu yerlarda hali odam yashamay turib yosh terak va qayrag‘ochlar allaqachon yerga parcha-parcha soya tashlab ulgurgan edi.

(Said Ahmad)

Mazkur topshiriqda o‘quvchilardan matndagi hamma birikmalarni aniqlab yozishlari talab qilinmadi. Asosiy e’tibor matn tarkibidan so‘z birikmasini aniqlay olishlari hamda ularni bog‘lovchi vositalarni tushunishlariga qaratildi. O‘quvchilar yozib bo‘lgach, har bir yozgan birikmalari tekshirildi, xato va kamchiliklari aniqlanib, matn umumiy tahlil qilib berildi, so‘z birikmalari aniqlanib, ularni bog‘lovchi vositalari haqida ma’lumot berildi.

Berilgan birikmalarni o‘qing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

qo‘l qo‘ymoq, qizilishton, bosh og‘riq, o‘n ikki, sayr qilmoq, …kabi.

Ushbu birliklar doskada yozildi. O‘quvchilarga ushbu birliklarni qatnashtirib gap tuzib yozishlari aytildi. So‘ngra ularning yozganlari tahlilga tortildi. Bu jarayonda o‘quvchilarning ushbu birliklarni qatnashtirib tuzgan gaplaridan so‘z birikmasi va qo‘shma so‘zni farqlashlari tushuntirib berildi. *Masalan, Aziza beliga qo‘lini qo‘yib raqsga tushdi(qo‘l qo‘ymoq – so‘z birikmasi), Dadam kundaligimga qo‘l qo‘ydi(qo‘l qo‘ymoq(imzo) – qo‘shma so‘z).*


Berilgan sarlavhalardan birini tanlab, unga mos so‘z birikmalari hosil qiling. Hosil qilgan so‘z birikmalaringizni tartiblab, ular asosida matn tuzing.

Istirohat bog‘i | Sevimli kitobim | Mening sahifam | Yo‘lchi yulduz

Mazkur topshiriq o‘quvchilarni sarlavha ostida matn yaratish, unga oid til birliklarini jamlash, fikrni tartiblashda samarali usul hisoblanadi. Dastlab o‘quvchilarga sarlavhadan istalgan birini tanlab, unga oid so‘z birikmalari tuzishlari aytildi. So‘ngra tuzgan so‘z birikmalarini bog‘lab matn yozishdi. Bu jarayonda o‘quvchilarga matn tuzish ham qiyinchilik tug‘dirmaydi.

Har qanday matn ijodiy mahsul sanaladi va matn yaratuvchisining kommunikativ rejasi asosida shakllantiriladi. Matnda joylashtirilgan gaplar propozitsiyasi mantiqiy ketma-ketlik hamda matn yaratuvchisining kommunikativ faoliyati asosida bir makropropozitsiyani tashkil etadi. Demak, voqelikning bayon qilinishida gaplar ketma-ketligi mazmuniy aloqadorlik muhim sanaladi. Shu sabab ona tili ta’limida o‘quvchiga tayyor matnni havola etish yoki biror mavzuda matn yaratish topshirig‘ini berishdan avval uning matn tuzish texnologiyasidan boxabarlik darajasiga e’tibor qaratish muhim sanaladi.

So‘z birikmasining bog‘lanish turlarini maktabda o‘quvchilarga tushuntirishda tuzilmaviy – mantiqiy chizma “Pog‘ona” grafik organayzeridan foydalanish mumkin:



Pog‘ona usuli orqali o‘rgatish o‘quvchilarning so‘z birikmasining bog‘lanish turlarini, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tez va oson, pog‘onaviy ravishda bilib olishlariga erishiladi.

Mavjud 8-sinf “Ona tili” darsligida ushbu mavzu uchun bir soat ajratilgan bo‘lib, asosan gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari haqida ma’lumot berilgan. O‘quvchilarga gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarining mazmun-mohiyati, tinish belgilarining qo‘llanilishi hamda ohang yordamida farqlanishini o‘zlashtirib olishlariga e’tibor qaratiladi. Bunda audio materiallardan keng foydalanildi.

Tinglang. Gapni ifoda maqsadiga ko‘ra turlarga ajratib yozing.

Audiomatn: *Tanaffus bo‘ldi? Bu kitobni yaxshilab o‘qing. Mahallamizda hashar tashkil qildik. Qani, men ham o‘qishga kirsam. Eng yaqin do‘sting kim? Bu xabar yolg‘on! Hamma birgalikda kuylasa edi. Vazifalarni vaqtida bajaring. Bu voqeani buvimga aytishimiz kerak. Suv ichasanmi? Ko‘chaga chiqma. Qishlog‘imizga bolalar kutubxonasi qurilsa. Toshkentga ketyapsan? Do‘stingni chaqir. Manzara chiroyli, havosi toza.*

Darak gap	So‘roq gap	Buyruq gap	Istak gap

Leksik birliklar konseptual tarmoqlarning tarkibiy qismlari sifatida yoki kontseptual tarmoqlarga kirishni ta’minlaydigan (eshituvchi yoki vizual) ogohlantiruvchi sifatida ko‘riladi. Neyroilmiy natijalar oqimi so‘zlarni tushunish qayta ishlangan so‘zlarning semantik tarkibiga mos keladigan asab faollashuvi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Masalan, og‘iz, qo‘l yoki oyoq bilan bajarilgan harakatlarni tavsiflovchi jumlalarni tinglash bunday harakatlarni bajarish va kuzatishni ta’minlaydigan ko‘rish-motor zanjirlarni faollashtirishi natijasida yuzaga keladi.

Anderson va Lynch tinglash ko‘nikmalari nutq qobiliyatlari kabi muhim ekanini ta’kidlaydilar, chunki ikkala turdagi ko‘nikmalar birgalikda ishlab chiqilmasa, odamlar yuzma-yuz muloqot qila olmaydi, degan xulosaga kelingan.

Videoni diqqat bilan kuzating. Shu asosda dialog matni yozing.

Mazkur topshiriqda o‘quvchilarga ovozsiz qisqa hajmli video ko‘rsatildi. O‘quvchilardan videoni diqqat bilan kuzatib, u asosida dialog matni yozishlari aytildi. Agar tinglovchi lingvistik tinglash jarayonida faol ishtirok etsa va so‘zlovchi suhbatda niyat qilgan xabarni kuzatish uchun o‘zining nolingvistik bilimidan foydalansa, agar u tinglasa, javob bersa va savollar bersa, demak, tinglash davomida tushunish, muloqotga kirishish jarayonlarini ham bosib o‘tadi.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning turli vaziyatlarga mos gaplar tuzib, matn yarata olishlariga e’tibor qaratildi.

Bizga ma’lumki, yuqorida qayd etilgan metod va usullar asosida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga oid qo‘llangan tajriba materiallarining o‘quvchilarning sodda gap sintaksisini o‘zlashtirishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B. Mengliyev, B. Baxriddinovna. Ona tili ta’limi: uzluksiz ta’lim bosqichlarida chalkashlik uchramayaptimi? Til va adabiyot ta’limi. 2015.

2. Tettamanti, M., et.al., 2005, “Listening to Action-Related Sentences Activates Fronto-Parietal Motor Circuits”, Journal of Cognitive Neuroscience

3. Anderson, A. & Lynch, T. Listening. – Oxford: Oxford University Press 2003.

4. Selin Yildirim, Özgür Yildirim. The importance of listening in language learning and listening comprehension problems experienced by language learners: a literature review. A literature review. 2016.

Dilbar DUYSABAYEVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti
d.duysabaueva@gmail.com.



LINGVOMADANIY KOMPETENTLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MODELI

Annotatsiya: ushbu maqolada “kompetensiya” va “lingvomadaniy kompetensiya” tushunchalari muammolari haqida so‘z boradi. Shuningdek, lingvomadaniy kompetentlikni takomillashtirish modeli hamda uni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, kasbiy kompetensiya, didaktik kompetensiya, lingvomadaniy kompetensiya, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются проблемы понятий «компетентность» и «лингвокультурная компетентность». Также были рассмотрены модель повышения лингвокультурной компетенции и современные подходы к ее формированию.

Ключевые слова: *компетентность, профессиональная компетентность, дидактическая компетентность, лингвокультурная компетентность, профессиональная подготовка педагогов.*

Annotation: this article discusses the problems of the concepts of "competence" and "linguistic competence". Also, the model of improving linguistic and cultural competence and modern approaches to its formation were considered.

Key words: *competence, professional competence, didactic competence, linguistic and cultural competence, professional training of teachers.*

Til ijtimoiy hodisa ekanligi va u yoki bu darajada jamiyat va millatning rivojlanishiga bog‘liq ekanligi azaldan ma’lum bo‘lgan. Shaxsning tili ham u yashayotgan jamiyatga bog‘liq. Til – madaniyat ombori. Unda til va madaniy qadriyatlar: so‘z boyligi, frazeologiya, grammatika, folklor, badiiy va ilmiy adabiyot, yozma va og‘zaki nutq aks ettirilgan. Ona tilini o‘qitishda ham lingvomadaniy kompetensiyalarni shakllantirish – madaniy savodxonlikni rivojlantirish, qadr-qimmatini hurmat qilish va til ko‘nikmalarini shakllantirish nuqtai nazaridan ta’lim mazmunini rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Lingvomadaniyatshunoslik bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, “Til madaniyati” iborasining ta’riflari juda ko‘p emas. Shunday qilib, Ye.O.Oparina til madaniyatini “Til tizimiga ham, nutqqa ham, nutq xatti-harakatlarining ijtimoiy-madaniy jihatdan asosli xususiyatlariga ham taalluqli keng doiradagi hodisalar” deb ta’riflaydi [1, 89-b.].

Lingvomadaniy kompetensiya tufayli talabalar so‘zning ma’nosini, mohiyatini, so‘z boyligini va grammatik tuzilishini idrok etadilar, og‘zaki nutqning mantiqiyligi va adabiy tilning o‘ziga xosligini o‘rganadilar. [2, 67-b.].

Lingvomadaniy kompetensiyani takomillashtirishning didaktik jarayonini uslubiy loyihalashtirishni tadqiqotchilar bo‘lajak faoliyatning rivojlanishini umumiy g‘oyadan aniq dasturlashtirilgan harakatga va kutilgan natijaga qadar, ya’ni kommunikativ sohada lingvomadaniy ko‘nikmalarning amaliy ishlarga, madaniyatlararo muloqot mobaynida hosil bo‘ladigan bir qator bosqichlar sifatida amalga oshiriladigan murakkab xilma-xillik, bosqichma-bosqich faoliyat sifatida o‘rganadi. Ushbu jarayonning nazariy asosi – lingvistik va madaniy metodologiyaning konseptual qoidalari, nazariya tamoyillari, talabalarning bilish faoliyatini o‘qitish va boshqarish tamoyillari nazariyasi qoidalari. Lingvomadaniy kompetensiya shu bilan birga til (nutq) birliklarida ko‘rinish topgan va muloqotning kognitiv asosini tashkil etuvchi dunyo haqidagi bilimni egallashga asoslangan boshqa lingvistik va madaniy jamiyatlar vakillari bilan o‘zaro tushunish va o‘zaro munosabatlarga qobiliyati va tayyorligi sifatida aniqlanadi. Ushbu muammoni o‘rganuvchilar tomonidan tilni o‘rganishning so‘nggi darajasiga erishish asosan, lingvomadaniyatshunoslikning shakllanish darajasi bilan belgilanishini qayd etib o‘tgan.

Model bu – tarkibiy va funksional bilim, tadqiqot va o‘rganish obyektini boyitadigan, obyektni tasvirlash yoki ko‘paytirish orqali o‘rganish bizga berilgan obyekt haqida yangi ma’lumot bera oladigan etib almashtira oladigan aql-idrok tashkillashtirilgan yoki moddiy jihatdan amalga oshiriladigan tizim.

Ushbu mavzuni o‘rganish jarayonida talabalarning lingvistik-madaniy kompetensiyasini shakllantirishning loyihalashtirilgan modelini qurish muammosini hal qilishda mexanizm-nazariy va uslubiy usullarini tanlash, ularning har bir obyektni o‘rganishning asosiy yo‘nalishi, uning umumiy strategiyasini boshqaradigan tushuncha yoki prinsip, lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish modeli sifatida ko‘rib chiqildi. Modelga nazariy va uslubiy yondashuvlar, prinsiplar va komponentlar aniqlanadi. Lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish modellarining bloklari va tarkibiy qismlari tizimli (umumiy ilmiy asos) va

madaniy-pragmatik (nazariy va uslubiy strategiya) usullari tanlandi. Ularning qo‘shimcha rivojlanishi bizni qiziqtirgan jarayonni har tomonlama o‘rganishga, shuningdek til va madaniyatni o‘rganish jarayoni sifatida kasbiy tayyorgarlikning samarali ishlaydigan modelini yaratishga imkon berdi.


Lingvomadaniy kompetensiyaning mazmuni haqidagi masalani tahlil qilish bilan birga, olimlar “bilim”, “ko‘nikma” atamalarining mazmuni aspektini ham tahlil qiladi.


“Bilim” – bu inson ongida haqiqatning haqiqiy aksidir. Bilim bilish, anglash natijasi. Ma’lum bir hodisaning oddiy ta’rifidan ilmiy ta’rifigacha talqin qilishdan oldin bilimning bir necha darajalari mavjud.

“Ko‘nikma” – bir nechta mashqlar natijasida avtomatlashtirilgan harakatlar va operatsiyalarni bajarish usullari. “Ko‘nikma” – inson tomonidan olingan bilim va ko‘nikmalarning umumiyligini qoplash uchun mantiqiy harakatlarni bajarish usullari. Ko‘nikmalar harakatlarni nafaqat oddiy, balki o‘zgartirilgan sharoitlarda ham bajarish qobiliyatini beradi.

Ta’lim dunyoning rasmini shakllantirishni ta’minlaydi. Shaxsning kognitiv bilimlari tuzilishining bir qismi bo‘lgan axborot psixikaviy jarayonlarning ma’lum bir to‘plamidan o‘tib, bilim bloklarida to‘planib, konseptual ravishda tashkil etilishi kerak. Jamiyatning “dunyo tasviri”ni shakllantirish, o‘z ona tiliga o‘zlashgan so‘zlarning, tildagi funksional-konseptual mos kelmaydigan tushunchalarning, kategoriyalarning tarkibiga kiritish yoki turli etnik guruhlar tomonidan o‘ziga xosliklarga oid lingvomadaniy bilim va kognitiv-kommunikativ faoliyatni o‘zlashtirishga urinishlar asosida amalga oshiriladi.

Til birliklari: so‘zlar, iboralar, frazeologik birliklar, oldingi matnlar berilgan ma’lum bilimlarni o‘zlashtirish, milliy va madaniy ma’nolarni tushunish va anglash nuqtai nazaridan tilni bilish darajasini yoki nutq faolligini modellashtirishni aniqlash muhim ahamiyatga ega. **Bo‘lajak ona tili va adabiyoti o‘qituvchilarida lingvomadaniy kompetentlikni takomillashtirish modeli**





Lingvomadaniy ko‘nikmalarni shakllantirish manbai semantikaning milliy-madaniy komponentiga ega lingvistik birliklarni o‘z ichiga olgan pragmatik xarakterdagi asl matndir. Bunday matn madaniyatlararo muloqotning asosi bo‘lib xizmat qiladi, til orqali madaniyatni o‘rganishni ta’minlaydi.

Talabalarning shaxsiy kontekstiga lingvistik va madaniy bilimlarni qo‘shish boshqa madaniyatlar bilan munosabatlar tizimini shakllantiradi va milliy madaniyat hodisalarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ta’lim va madaniyat tuzilmasini aks ettiruvchi tizimli ta’lim majmuasida ta’lim muassasasi madaniyati talabalarning kompetensiyasini shakllantirish muhiti sifatida quyidagi elementlardan iborat tizim sifatida qaraladi: maqsad (missiya, maqsadlar va vazifalar); texnologiya, xizmat ko‘rsatish uslubi, motivatsiya, boshqaruv-nazorat tizimi, axborot ta’minoti vositalari, shu jumladan, maqsadlarga erishish va natijalarni baholash mezonlari; ichki integratsiya vositalari; yangi studentlarni bog‘lash usullari, til, boshqarishni bo‘lish usuli, munosabatlar uslubi, rag‘batlantirish va jazolash tizimi va hokazolar. [3, 54-b.]. Oliy ta’lim tizimida ona tilini o‘rganayotgan talabalarning lingvistik-madaniy kompetensiyasini shakllantirish jarayonining samaradorligi o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z taqdirini o‘zi belgilash va madaniy-ma’rifiy maydonda shaxsning o‘z-o‘zini anglash shartlariga bog‘liq.

O‘rtacha lingvomadaniy kompetensiya ta’lim muassasalarida ona tilini o‘rganayotgan odamlarga tegishli bo‘lib, ular lingvomadaniy materiallardan foydalanish bo‘yicha tajribaga ega (kitoblar, darsliklar, filmlar va boshqalar orqali). Ona tilini yaxshi biladigan, lingvistik madaniyat sohasida juda keng bilimga ega bo‘lgan, lingvomadaniy bilimlarning asosiy darajasidan xabardor bo‘lgan va foydalanadigan odamlar uchun yuqori darajadagi lingvomadaniy kompetensiya xarakterlidir. Lingvomadaniy kompetensiyasi yuqori bo‘lgan odam uning madaniyati va tili xatti-harakatlarga, munosabatlarga, o‘zaro ta’sirga, ya’ni sotsializatsiyaga ta’sir qilishini tushunadi va baholaydi.

Shunday qilib, talabada lingvomadaniy kompetensiyani takomillashtirish natijasi: 1) talabaning ona tilining jamiyatdagi o‘rni va madaniyatiga munosabatini bashorat qiluvchi sabablar;

2) talabalarning ona tilini o‘rganishga, muloqotga, o‘z-o‘ziga yo‘naltirilganligi;

3) ularning o‘quv faoliyatini, shu jumladan, ona tili grammatikasini mukammal o‘rganishdagi maqsadlarini anglash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Опарина Е.О. Язык и культура. Языковая культура как предмет общественного интереса [Электронный ресурс]. Сб. обзоров – М.: ИНИОН, 1999. 109 с.
2. Клюев Е.В. Речевая коммуникатsiя.-М.:Рипол классик, 2002. 67 с.
3. Кенжебеков Б.Т. Университет студенттерінің кәсіби құзыреттілігін қалыптастырудың теориясы мен практикасы. Монография. – Астана, 2001ж. 54-б.
4. https://inlibrary.uz/index.php/jme/article/view/22742
5. Uskanovna , D. D. (2024). A Model for Improving Linguistic and Cultural Competence in Future Native Language and Literature Teachers. Web of Semantics : Journal of Interdisciplinary Science, 2(4), 138–142. Retrieved from https://web.semanticjournals.org/index.php/wos/article/view/168



Umidjon QO‘ZIYEV,
Namangan davlat universiteti
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O‘ZLASHMALAR VA LINGVISTIK AKADEMIYALAR

Annotatsiya: o‘zlashma so‘zlar leksikani sotsiolingvistik tizim sifatida shakllantirishda beminnat material vazifasini bajarib beradi. Chet tilidan so‘z o‘zlashtirish barcha ijtimoiy va tarixiy omillar (o‘zlashtirish vaqti va shart-sharoiti, o‘zlashgan so‘zlarning semantik xususiyatlari va funksiyalari) ta’sirida amalga oshadi. Mazkur maqolada tilga ishlov berish, uni qayta jonlantirishlar aynan o‘zlashma so‘zlar omili asosida yuz berganini, shu asosda lingvistik akademiyalar faoliyati kabi ijtimoiy omil lisoniy omil natijasida ro‘y berishi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘zlashma so‘z, ijtimoiy omil, lingvistik akademiya, me’yorlashtirish.*

Аннотация: заимствованные слова играют роль незаменимого материала в формировании лексики как социолингвистической системы. Заимствование слов из иностранных языков происходит под влиянием всех социальных и исторических факторов (время и условия заимствования, семантические характеристики и функции заимствованных слов). В данной статье показано, что обработка языка и его возрождение происходят именно благодаря влиянию заимствованных слов, демонстрируя, что социальные факторы, такие как деятельность лингвистических академий, возникают в результате лингвистических факторов.

Ключевые слова: *заимствованное слово, социальный фактор, лингвистическая академия, стандартизация.*

Annotation: loanwords serve as an indispensable material in shaping the lexicon as a sociolinguistic system. Borrowing words from foreign languages is influenced by all social and historical factors (time and conditions of borrowing, semantic characteristics and functions of borrowed words). This article demonstrates how language processing and revitalization efforts occur precisely due to the influence of loanwords, showing that social factors, such as the activities of linguistic academies, arise as a result of linguistic factors.

Keywords: *loanword, social factor, linguistic academy, standardization*

Tildan tilga so‘z o‘zlashishi tilning ijtimoiy va o‘ziga xos qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. “Tilning (nutqning) sofligi uchun kurashni umuman o‘zlashtirishlarga qarshi emas, balki o‘zga til leksemasini nokerak holda ishlatishga, o‘zga til hodisalaridan befarq foydalanish hollariga qarshi olib borish kerak” bo‘ladi.

Til lug‘at qatlamini tozalash, grammatik va fonetik qoidalarni me’yorlashtirish masalasi deyarli har bir millatda kuzatiladi, ko‘pincha siyosiy hodisa sifatida hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Ayniqsa, Yaponiya , Isroil , Eron , Iordaniya , Turkiya davlatlari hukumati o‘z vaqtida tilni globalizatsiya sharoitida qayta tiklash, alifbo islohoti, lug‘atlar yaratishni tilshunoslar oldiga vazifa qilib qo‘yganlar.

Yevropada tilni “tozalash” masalasi kun tartibiga juda erta qo‘yilgan. Jumladan, 1582-yil Florensiyada Accademia crusca (Kepak akademiyasi – tilni un kabi elaklab kepakdan tozalash ma’nosida) tashkil etilgan bo‘lib, uning a’zolari oldiga adabiy tilni barcha “keraksiz narsalar”dan tozalashdek lingvistik vazifa qo‘yilgan edi. Shu kabi Yevropada barcha jabhalarda “tilni himoya qilish” muammosi kelib chiqdi. Bu muammoni hal etishda lug‘atlar yaratish birinchi o‘rindagi yechimga aylandi .

O‘zlashma so‘zlar bilan bog‘liq bunday vaziyat Rossiyada XIX asr boshlarida vujudga kelgan edi. Shishkovchilar va karamzinchilar, asr o‘rtalarida slavyanofillar va g‘arbchilar chet tilidan so‘z olish masalasida qizg‘in bahslashganlar. Fransuz revolyutsiyasining Rossiyaga ta’siridan qo‘rqqan Akademiya prezidenti admiral Shishkov respublika, revolyutsiya kabi “xavfli” so‘zlarga, hatto galosh, billiard, fortepiano (taklif qilingan muqobillar – mokrostup, sharokat, tixogrom) kabi oddiy so‘zlarga “hujum” uyushtiradi.

XX asrning 60-yillarida yangi olinmalarning katta oqimi fransuz tilshunoslari oldiga yangi vazifalar qo‘ydi, tilshunoslikning yana bir neologiya sohasi vujudga keldi, 1971-yildan boshlab esa aynan neologizmlarni me’yorlashtirishga bag‘ishlangan “La Banque des mots” jurnali chop etila boshlandi . Fransuz tilidagi inglizcha o‘zlashmalarni tartibga solish va me’yorlashtirish maqsadida soha va hukumat miqyosida islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, o‘zlashma terminlarning aniqligi va lo‘ndaligi ularning yashab qolish imkoniyatini kuchaytiradi. Nemis tilshunoslari agar o‘zlashma so‘zlar oqimini to‘xtatib bo‘lmas ekan, ularni milliylashtirish va me’yorlashtirish nazariyasini ilgari surmoqdalar .

Chet tilidan so‘z o‘zlashtirish til egalari, jamiyat, shu jumladan, mutaxassislar tomonidan turlicha baholanadi. Qadimgi turkiy toshbitiklarda turk xoqonligi parchalanib ketishining ichki, sezilmas sabablari, mafkuraviy tomonlariga e’tibor beriladi va bu haqda shunday satrlar uchraydi: Tabg‘ach xalqiga bek bo‘ladigan o‘g‘il bolasi bilan qul bo‘ldi, suluv qizi bilan cho‘ri bo‘ldi. Turk beklari turkcha otini tashlab, tabg‘ach beklarining tabg‘achcha otini qabul qilib, tabg‘ach

xoqoniga qaram bo‘ldi. (Ktu, 7) . Demak, ajdodlarimiz fikricha, keraksiz so‘zlarni tilga qabul qilish mafkuraviy, ma’naviy qaramlik va mutelikni bildiradi.

O‘zlashmalar masalasiga ilk bora turkiy tilshunos M. Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarida to‘xtaladi. U chet tilidan qabul qilingan so‘zlarga ikki xil munosabatda bo‘ladi. Tilda uni nomlovchi so‘z bo‘lmasa, shunday so‘zni qo‘shni tildan olish mumkin, biroq tilda mavjud so‘zlar o‘rnida boshqa til so‘zini qo‘llashni zararli deb hisoblaydi . Jumladan, “Devonu lug‘otit turk”da quyidagi satrlarni uchratamiz: “O‘g‘uzlar forsilar bilan aralashgach, ba’zi so‘zlarni unutdilar va ularning o‘rniga forsicha so‘zlarni qo‘llay boshladilar” .

Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida ham o‘z tilida she’r yozishni ep ko‘rmaydigan “zarif” yigitlar – shoirlar tanqid qilinadi. So‘ng turkiy til hamda fors tili qiyosi boshlanadi.

XVII asrda Abulg‘ozi Bahodirxon “Shajarai tarokima” asarida til sofligi haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Bas, turklarga turkona aytmak kerak, to ularning barchasi fahm qilg‘aylar, bizning aytgan so‘zimizni bilmasalar andin ne hosil?..” XX asr boshida ma’rifatparvarlar tilning sofligi masalasiga e’tibor qaratdilar. Xususan, Is’hoqxon to‘ra Ibrat arab tili din tili bo‘lsa-da, masjidlarda va’z o‘qiganda adabiy tilda emas, xalq tilida o‘qish kerakligi masalasini ko‘taradi: “Olami islomni har tarafidagi masjidlarda xalq tili ilan va’z pand etmoq joriydir. Yolg‘iz Turkiston va Buxorog‘a, bilmayman, na sababdan joriy emas. Oningchun xalqni axloqu odobi kundan kun buzilmoqda... Loaqal mazmunini avomg‘a tushundirmoq kerak. Holbuki, xaloyiqg‘a zarurroq, kerakdur” .

XX asrning 20-30-yillarida “Chig‘atoy gurungi” til, adabiyot sohasidagi bir qancha islohotlarni amalga oshirdi. Abdurauf Fitrat boshchiligidagi bu ma’rifiy tashkilot faoliyatidagi asosiy yo‘nalishlar o‘zbek adabiy tili adabiyotini rivojlantirish va o‘zbek adabiy tilini arabiy va forsiy so‘zlardan tozalash bo‘ldi.

Abdurauf Fitratning bu boradagi ishlari salmoqlidir. Zamondosh tanqidchilardan Abdurahmon Sa’diy Fitrat haqida shunday yozadi: “(Fitrat) hozirgi zamon o‘zbek she’riyatida arab va fors so‘zlariga yo‘lni berkitdi, o‘zbek she’r tuzilishining rivojlanish yo‘llarini belgilay borib, ko‘pgina yosh shoirlarni o‘zining uslubi va tili bilan ergashtira oldi, atrofiga yosh shoirlarni to‘plab, ularga til va uslub yog‘idan yo‘l ko‘rsatmakdadir” . Gurung a’zolari, shu qatorda Fitrat o‘zbek tili leksikasidan olib tashlash kerak deb hisoblagan chet tili so‘zlarini biz shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo‘lishimiz mumkin: 1. Arabcha so‘zlar. 2. Fors-tojikcha so‘zlar. 3. Boshqa turkiy tillardan kirgan so‘zlar (Usmonli turkcha, tatarcha kabi). Ularning ko‘pchiligi xalq uchun tushunarsizligi, jonli tilda passivligi, shu tufayli eski o‘zbek tilidagi asarlar qiyinchilik bilan o‘qilishi, ularning o‘rniga o‘zbek tilining o‘zidan keraklicha materiallarni topish mumkinligi tilni tozalash g‘oyasiga asos bo‘ldi. Asosiy maqsad esa adabiy tilni jonli so‘zlashuv tili – xalq tiliga yaqinlashtirish edi. Abdurauf Fitrat “Tilimiz” sarlavhali maqolasida (“Ishtirokiyun”, 1919-yil 12-iyun) o‘zbek tilini “Nihoyatda boy, lekin baxtsiz” deb ta’riflaydi. Fitrat bilim so‘zi misolida uning o‘zagidan 98 so‘z shaklini yasab ko‘rsatadi. Olim turkiy tildagi qonuniyatlarning qat’iyligi, judayam tartibli ekanligi, biroq bu elning farzandlari vafosiz ekanligini achinib yozadi. Fitrat turk tili har qanday arabcha atamalar o‘rnini bosish uchun atama yasash imkoniga egaligini aytib, bir necha misollar orqali isbot qilib beradi .

Shu intilishlar natijasi o‘laroq, gurung a’zosi Elbek 1923-yil “Turkiston” gazetasining 10 ta sonida 550 ta turkiy so‘zni o‘zining yot muqobillari bilan “Lug‘at va atamalar” rukni ostida e’lon qilib bordi. Elbekning bu lug‘atni tuzishdan maqsadi – asrlar davomida o‘zlashib qolgan yot so‘zlarni Chig‘atoy guruhi a’zolari tomonidan yoppasiga turkiylashtirish harakatlari natijasida yuzaga kelgan nuqson va chalkashliklarga barham berish, ularni mubohasalar yordamida ilmiy hal qilish edi . Lug‘at so‘zboshisida u lug‘atni tuzishdan maqsadi tilimizdan barcha “begona” so‘zlarni “quvib” chiqarish va haqiqiy o‘zbekcha terminlar yaratish ekanligini yozadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy xalq jonli tili adabiy til bilan turlicha munosabatda bo‘lishi mumkinligini uqtiradi, arabcha va forscha so‘zlarni lug‘at tarkibidan zo‘rma-zo‘raki chiqarish durust emasligini ta’kidlaydi. Ulug‘ ma’rifatchi tillarning bir-biridan o‘rinli lug‘at olishini tabiiy jarayon deb qaraydi. Eng boy tillardan bo‘lgan inglizchaning ham “o‘n minglar ila begona lug‘atlarni majburan olganligi”ni dalil qilib ko‘rsatadi . Shu bilan birga Turkistonda “qadimdan beri uch til (turkiy, arab va fors-tojik) joriy” ekanligini, Turkiston eli “turk va fors tilini tahsilsiz bilishi” katta baxt ekanligini yozadi . Shu bilan birga, tilga o‘zlashma so‘zlarning ko‘plab qabul qilinishi ham usmonli turk tilidagi kabi adabiy tilni xalq tilidan ajratib qo‘yishi mumkinligini ko‘rsatadi. Behbudiy adabiy tilning shakllanishiga faqat o‘zlashma so‘zlar emas, shevalar ham to‘siq bo‘layotganligini ta’kidlaydi.

Faol islohotchilardan biri Ashurali Zohiriy vaqtli matbuot tilida uchraydigan o‘zbek tili uchun yot bo‘lgan leksik birliklar va grammatik shakllarning qo‘llanilishini, ayniqsa, tatar va usmonli turk tiliga xos shakllarning iste’mol qilinishini qoralaydi . Ashurali Zohiriy ham turli so‘z va terminlar hosil qilishda o‘zbek tilining iloji boricha o‘z ichki imkoniyatlaridan foydalanish kerakligini ta’kidlaydi, o‘zlashma xarakteridagi terminlarning bir qancha o‘zbekcha muqobil variantlarini muhokamaga tashlaydi, terminlarni qo‘llashni nazorat qiladigan qo‘mita tuzishni ilgari suradi.

O‘zbek tilining sho‘ro hokimiyati davrida lug‘at tarkibida sovet – baynalmilal so‘zlarning salmog‘i yil sayin ortib borganligida namoyon bo‘ladi . Bu davrga

kelib, o‘zbek tiliga internatsionalizmlar nomi ostida ko‘plab ruscha so‘zlar qabul qilina boshladi.

O‘z-o‘zidan o‘sha davrdayoq baynalmilal o‘zlashmalarga ikki xil qarash yuzaga keldi. Jumladan, 1929-yil tilshunoslarning Respublika syezdida baynalmilal so‘zlarni o‘z so‘zlarga almashtirish masalasi o‘rtaga tashlandi. Masalan, ishtirokiyun (partiya), dorilfunun (universitet), badantarbiya (fizkultura, gimnastika), muhandis (injener) kabi.

AQSh turkologi A.Bodrogligeti (asli venger) “Chagatay or classical Uzbek” maqolasida o‘zbek tilidagi arabcha va forscha o‘zlashmalar haqida gapirar ekan, ular hech qachon puristik oqimning qarshiligiga uchramaganligini yozadi . Bizningcha, uning fikrlari jadidlar til islohotidan va Ikkinchi jahon urushidan keyingi holatga mos tushadi. Shu nuqtayi nazardan olim sho‘ro voqeligida lug‘at tarkibini deislamizatsiya qilish, o‘zbek milliy tilini rivojlanish manbalaridan uzib qo‘yish, mumtoz merosdan mahrum qilish kabi nozik madaniy siyosat olib borilganligini ta’kidlaydi. Natijada o‘zbeklarning til borasidagi islohotlari mumtoz va zamonaviy til o‘rtasidagi tafovutni kamaytirish, milliy kelib chiqishlarini islomiy va turkiy manbalarga bog‘lashga qaratilayotganini aytib o‘tadi . Turli sabablarga ko‘ra zo‘rma-zo‘raki jonli tilga “tiqishtirilgan” ruscha so‘zlar faol lug‘atdan tushib bormoqda. O‘zbek tili lug‘at tarkibi esa Markaziy Osiyoning mumtoz turkiy merosidan bahra olmoqda . A. Bodrogligeti A.K.Borovkovning 1959-yilda chop etilgan “Uzbeksko-russkiy slovar” lug‘ati va o‘zbek tilining 1981-yilda chop etilgan ikki jildli izohli lug‘atini qiyoslar ekan, o‘zbek tilida arab va fors tilidan o‘zlashgan so‘zlar “chig‘atoy tili” qonuniyatlariga moslashtirilib, yanada faol ishlatilayotganini ta’kidlaydi. Va “o‘zbeklarning o‘z (ilmiy) ishlarida Chig‘atoy adabiy tilini o‘z milliy meroslari sifatida qabul qilishlari, uni rivojlantirishlari, manbalarni abadiylashtirishlarini to‘g‘ri qabul qilishimiz kerak. Chig‘atoy tili o‘zbek xalqiga lisoniy, madaniy aloqadorligi bilan zamonaviy o‘zbek tilining klassik bosqichidir” , – deb xulosa yasaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tilning o‘z ichki qonuniyatlari mavjud bo‘lib, u lisoniy va nolisoniy omillar bilan bog‘liq. Jumladan, tilda yangi so‘z yasalishi va so‘z o‘zlashtirish muayyan ma’noda zid hodisalar bo‘lishiga qaramay, ular bir-birini inkor eta olmaydigan va yonma-yon hodisalardir. Mazkur hodisalar til taraqqiyotining ma’lum bosqichlarida faollashib, almashib boradi. Bizningcha, tilga chet tilidagi so‘zlarning kirib kelishini butunlay to‘xtatib qo‘yish til va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga zid. Bu jarayonlarni tilning yashashga bo‘lgan intilishi sifatida ham baholash mumkin. Biroq chet tilidagi so‘zlarning ko‘plab kirib kelishi ham bir qancha xavfli vaziyatlarga olib keladi. Bu jarayon hozirgi davrda keskin faollashganligi bilan ajralib turadi. Bu tilshunoslardan ijtimoiy hayotga yaqinroq ish tutishni, jamiyatdagi o‘zgarishlarning tilga ta’sirini tez va oqilona belgilab beradigan soha – sotsiolingvistikaga e’tibor berishni ham talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Afrahi M. Language Policy: Iran. https://pdfslide.us/education/language-policy-in-iran.html?page=11
2. Aytürk İ. The First Episode of Language Reform in Republican Turkey: The Language Council from 1926 to 1931. Journal of the Royal Asiatic Society, 2008, 18 (3): 278–283. doi:10.1017/S1356186308008511
3. Bodrogligeti A. Chagatay or classical Uzbek //Turk dilleri arastirmalari. 3 (1993):43-56.P.56. http://turkdilleri.org.
4. Bodrogligeti A. The Relevance of Classical Central Asian Turkic Literature to the Understanding of the Cultural Heritage of Central Asia // Beşinci Milletlerarasi Turkoloji Kongresi, Istanbul, 23-28 Eylul, 1985. Tebliğler. II. Turk Edebiyatı. Cilt I . İstanbul: Edebiyat Fakultesi Basımevi, 1985, 7-44.
5. Hall T.A., Silke H. Loanword nativization in Modern Standard German as evidence for the phonological word // Zeitschrift für Sprachwissenschaft, 2003. 22:56–85.
6. Nahir M. Language academies, Language planning ,and the case of Hebrew – University of Pittsburgh, 1973. –324 p.
7. Абдураҳмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. Б.103.
8. Балдауф И. Маҳмудхўжа Беҳбудий ва унинг “Ойна” журнали // XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. – Тошкент: Маънавият, 2001. Б.35-46.
9. Баҳодирхон Абулғозий. Шажарайи тарокима. – Тошкент: Чўлпон, 1995. Б.6.
10. Беҳбудий Маҳмудхўжа. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. Б.189.
11. Бобомуродова Ш. Элбекнинг луғатшунослик фаолияти // Тил ва адабиёт таълими, 2006, 6-сон. Б.60.
12. Исҳоқхон тўра Ибрат. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2005.
13. Кошғарий М. Девону луғатит турк. I жилд – Тошкент, 1960.

Nasiba SIDIKOVA,
SamDChTI dotsenti
Diana HAYITBOYEVA,
SamDChTI magistranti

IKKINCHI TILNI O‘ZLASHTIRISHDA INTERFERENSIYA HODISASINING NAMOYON BO‘LISHI (INGLIZ-O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek o‘rganuvchilarining ingliz tilini o‘zlashtirish jarayonida duch keladigan interferensiyasining murakkab jihatlari va namoyon bo‘lish bosqichlari o‘rganiladi. Ushbu maqola o‘zbek tilida (ona tilida) so‘zlashuvchilar ingliz tilini o‘zlashtirishda yuzaga keladigan interferensiya turlari va ularning namoyon bo‘lishiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqolada interferensiya bilan bog‘liq nutqiy xatoliklarni bartaraf etish yo‘llari ham bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *interferensiya, fonetik interferensiya, intonatsiya, grammatik interferensiya, unli va undosh tovushlar moslashuvchanligi, fonema.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются сложные аспекты интерференции и этапы ее появления, с которыми сталкиваются изучающие узбекский язык в процессе изучения английского языка. Данная статья посвящена видам интерференций, возникающих при овладении узбекским (носителем) английским языком, и этапам их возникновения. Также в статье описаны способы устранения речевых ошибок, связанных с помехами

Ключевые слова: *интерференция, фонетическая интерференция, интонация, грамматическая интерференция, адаптивность гласных и согласных звуков, фонема.*

Annotation: this article examines the complex aspects of the interference and the stages of its appearance that Uzbek learners face in the process of learning English. This article is devoted to the types of interference that occur in the acquisition of English by Uzbek (native) speakers and the stages of their appearance. The article also describes ways to eliminate speech errors related to interference

Key words: *interference, phonetic interference, intonation, grammatical interference, adaptability of vowel and consonant sounds, phoneme.*

Xorijiy tillarni o‘qish va o‘qitish ta’lim jarayonining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Xususan, ikkinchi tilni o‘qitish bo‘yicha ilmiy izlanishlarning boshlanganiga chorak asrdan oshdi va unga bo‘lgan qiziqishlar oshib bormoqda. [5.1]

Ayniqsa bugungi globallashuv natijasida ingliz tilining ahamiyati oshgani tufayli bu tilni o‘rganishga o‘zbekzabon jamiyatimizda ham katta ahamiyat berilmoqda. Jahon hamjamiyatining rasmiy tiliga aylangan ushbu tilni o‘zlashtirishda o‘zbek o‘rganuvchilari bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda va ushbu jarayonda interferensiya hodisasining turli shakllari yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ikkinchi tilni o‘zlashtirish jarayoni ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda interferensiya hodisalari muhim rol o‘ynaydi.

Interferensiya ikki va undan ortiq tilni yaxshi o‘zlashtirgan hamda til o‘rganayotganlarnıng og‘zaki va yozma nutqida til me’yorlaridan chiqish yoki ma’lum bir tilga xos leksik, grammatik va fonetik xususiyatlarni boshqa bir tilga ko‘chirgan holda so‘zlash holatlaridir. [7,1]

Bunda o‘rganuvchi ong ostidagi shaxsiy mavjud bo‘lgan tilga oid bilimlarini garchi o‘rganayotgan tiliga mos kelmasa-da qo‘llashni boshlaydi. Xususan, yangi o‘rganayotgan tili grafikasini o‘z ona tili tovushlarida talaffuz qiladi, ohangni, so‘z va gap strukturalarini ona tilidagi kabi tuzishni boshlaydi. Interferensiyaning nutqda ikki xil ta’sirini ko‘rishimiz mumkin:

Ijobiy interferensiya: bu holatda, ona tilidan olingan grammatik yoki leksik tajribalar yangi tilni o‘rganishga yordam beradi. Masalan, agar ona tilida mavjud bo‘lgan grammatik qoidalar yangi tilga o‘xshasa, o‘rganuvchi bu qoidalarni osongina qo‘llashi mumkin. Bu ayniqsa, yaqin tillarni o‘rganishda ko‘zga tashlanadi.

Salbiy interferensiya: bunday holda, ona tilidan kelib chiqadigan noto‘g‘ri o‘rganilgan qoidalar yangi tilga qiyinchiliklar keltirishi mumkin. Masalan, ona tilida mavjud bo‘lmagan tovushlar yoki grammatik tuzilmalar yangi tilni o‘rganishni murakkablashtiradi. Shuningdek, talaffuzdagi farqlar ham o‘rganuvchining muammolariga sabab bo‘lishi mumkin.

Interferensiya til tizimining barcha darajalarida, jumladan, morfologiya, semantika pragmatikasi, fonologiya, leksika va sintaksisda namoyon bo‘ladi. [2,16]

Interferensiyaning paydo bo‘lishining bir necha sabablari mavjud:

- Ona tilga qattiq bog‘lanish: ikkinchi tilni o‘rganishda ko‘pincha ona tilning tuzilishi va leksikasi boshqaradi.
- Til o‘rganish tajribasi: agar shaxs avvalgi o‘quv

jarayonida noto‘g‘ri tushunchalar olgan bo‘lsa, bu yangi tilni o‘rganishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

• Samarali metodlar: o‘zlashtirish jarayonida yaroqsiz yoki mos kelmaydigan o‘quv metodlari interferensiyani kuchaytirishi mumkin.

O‘zbek o‘rganuvchilarining ingliz tilini o‘zlashtirishida duch keladigan dastlabki qiyinchiligi o‘zbek va ingliz tillaridagi tovushlar xilma-xilligi va ingliz tilidagi tovush tizimi ifodalovchi grafik belgilarning o‘zbek tilidan mutlaqo farq qilishidir. Ya’ni, ingliz tilida mavjud bo‘lgan /ð/ yoki /æ/ tovushlarining muqobil variantlarining o‘zbek tilida mavjud emasligi yoki ingliz tilida so‘zlarning o’qilishi yozilishidan farq qilishi (o‘zbek tilida odatda bir xil) kabi lingvistik hodisalar fonologik interferensiyani yuzaga keltiradi.Fonetik interferensiya ikki tomonlama jarayondir, chunki interferensiya nutqni fonemalarning pozitsion turlarini qo‘llashda amalga oshiriladi. Shu tufayli talaffuzda yuz beradigan xatolar ona tili bilan boshqa til tovush tizimlarining o‘zaro ta’siri natijasida paydo bo‘ladi. [1.174]

Shuningdek, ingliz va o‘zbek yozuvlarining lotin alifbosiga asoslanganligi bir tarafdan o‘rganishni osonlashtirsa (ijobiy interferensiya), bir tarafdan farqli joylarda anglashilmovchiliklarga sabab bo‘ladi. Biz buni o‘zbekzabon o‘rganuvchilarni ingliz tilidagi “r” harfini qattiq tallfuz qilishida yoki unli va undoshlarning moslashuvida xato qilishida ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek tilida har bir harf ma’lum tovushni ifodalaydi. Ingliz tilida esa ba’zan bir nechta harflar bir tovushni ifodalaydi. Misol uchun ‘book’ so‘zini olsak, bu yerda ikki harf bitta ‘u’ tovushida talaffuz qilinadi.

Ingliz tilini o‘rgatish va o‘rganish jarayonini kuzatar ekanmiz, o‘qitish jarayonida turli vaziyatlarda ona tiliga doir bilimlar va ko‘nikmalarning salbiy ta’sirini kuzatishimiz mumkin. Bu ayniqsa, til o‘rganuvchilarining intonatsiyasida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Intonatsiyadagi xatolik nutqni tushunish borasida qiyinchiliklarga olib kelishi bilan bir qatorda uning asl ma’nosi qanday ekanligini yoki uning semantik qirralarini ochishda ayrim xatoliklarni keltirib chiqarishi mumkin. [3.271]

Biror tilni o‘zlashtirish uchun muloqot ko‘nikmalari zarur va bu maqsadni amalga oshirish uchun tilning fonetika, lug‘at va grammatika kabi qismlari yaxshi egallanishi zarur.[6.14]

O‘zbek talabalarining ingliz tilini o‘zlashtirish jarayonida fonetik interferensiyadan so‘ng yuzaga chiqaruvchi interferensiya turi leksik-semantik interferensiyadir.

Leksik interferensiya ikkinchi tilni o‘zlashtirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu hodisaning ijobiy va salbiy jihatlari, o‘rganuvchilarning til o‘rganish samaradorligiga ta’sir qiladi.

Leksik interferensiya – yangi til o‘rganishda ona til leksikasidan foydalanish. Masalan, o‘zbek tilida “yo‘l” so‘zi ingliz tilida “road” yoki “way” so‘zlariga qarab noto‘g‘ri ishlatilishi mumkin. Bu holatda, o‘rganuvchining ona tilidagi so‘zlar yoki iboralar yangi tilga noto‘g‘ri tarzda qo‘llanilishi natijasida yuzaga keladi. Masalan, o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan so‘z yoki iboraning to‘g‘ri ekvivalenti ingliz tilida topilmaganda, o‘rganuvchi o‘zbekcha so‘zlarni ingliz tilida ishlatishi mumkin, bu esa kommunikatsiya qiyinchiliklariga olib keladi. Agar o‘rganuvchi “I am boring” (men zerikyapman) o‘rniga “I am bored” (men zerikdim) deb aytsa, bu ona tilidagi “zerikkanman” so‘zining noto‘g‘ri ishlatilishi natijasida sodir bo‘ladi. O‘rganuvchi ona tilidagi grammatik tuzilmalarga qaramay, yangi tilni o‘zgacha tarzda talqin qilishi mumkin.

O‘zbek tilida ayrim so‘zlar ma’lum bir kontekstda ishlatiladi. Misol uchun, “telefon” so‘zi telefon apparatini anglatadi. Ingliz tilida esa “phone” so‘zi ham shunday ma’noga ega, lekin “call” so‘zining o‘ziga xos ishlatilishi bor. O‘zbek tilida “telefon qilmoq” deb aytadigan shaxs ingliz tilida “do phone” deb aytishi mumkin, to‘g‘ri variant “make a call” bo‘lishi kerak.

Ikkinchi tilni o‘zlashtirish jarayonida interferensiya hodisasi alohida ahamiyatga ega. Bu hodisa til o‘rganish jarayonida muhim rol o‘ynaydi va o‘quvchilarning muvaffaqiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilar bu interferensiyalarning sabablari va o‘ziga xos xususiyatlarini tushunib, to‘g‘ri so‘z tanlashga e’tibor berishlari zarur. Til o‘rganish jarayonida leksik interferensiyani kamaytirish uchun amaliyot va kontekstni tushunish muhim ahamiyatga ega.

Har bir tilning o‘ziga xos grammatik qoidalari mavjud. Misol uchun, o‘zbek tilida so‘z tartibi ko‘pincha erkin, ingliz tilida esa qat’iy. Bu farq talabalarning ikkinchi tilga nisbatan yondashuvini murakkablashtiradi

Grammatik interferensiya – yangi tilning grammatik qoidalarini o‘zlashtirishda ona tilning qoidalaridan kelib chiqadigan xatolar. Masalan, o‘zbek tilida gap tuzish tartibi ingliz tilidan farq qiladi va bu talablar noto‘g‘ri anglashga olib kelishi mumkin. O‘zbek tilida qo‘llanadigan gap tuzilishi ingliz tilidagidan farq qiladi. Masalan, o‘zbek talabalari “Men kitob o‘qiyapman” gapini ingliz tilida “I reading book” deb tarjima qilishlari mumkin. To‘g‘ri shakli “I am reading a book”. Bundan tashqari, o‘zbek o‘rganuvchilari ingliz tili grammatikasini o’‘rganishda quyidagi bo‘limlarda ham bir qancha muammolarga uchraydi:

Sifat va o‘zgaruvchilar: o‘zbek tilida sifatlar odatda, so‘zlar oldida keladi, ingliz tilida esa ko‘pincha keyin keladi. Misol uchun, “yashil daraxt” (o‘zbekcha) “tree green” (noto‘g‘ri inglizcha) o‘rniga “green tree” (to‘g‘ri inglizcha) bo‘lishi kerak.

Fe’llardan foydalanishi: o‘zbek tilida zamonlarni bildirish osonroq, lekin ingliz tilida zamonlar murakkabroq. Misol uchun, “Men keldim” (o‘zbekcha) o‘ziga xos zamonlardan foydalanishni talab etadi, “I came” yoki “I have come” kabi.

Olmoshlar joylashuvi: o‘zbek tili: o‘zbek tilida

olmoshlar joylashuvi va qo‘llanilishi ko‘proq kontekstga bog‘liq. Misol uchun:

- “U o'qiydi” (kim ekanligi ma'lum bo‘lsa).

Ingliz tili: ingliz tilida olmoshlar aniq va qat’iy qo‘llaniladi. Masalan:

- “He/She reads”.

Bunda o‘zbek tilida olmoshni noaniq ishlatgan o‘quvchi ingliz tilida “It reads” deb xato qilishi mumkin.

Odatda, interferensiya o‘rganilayotgan tilni yaxshi bilmaslik, uning grammatik va struktur xususiyatlarini yaxshi tushunmasligi natijasida yuzaga keladi. Grammatika interferensiyasi ikkinchi tilni o‘zlashtirish jarayonida keng tarqalgan muammo bo‘lib, u talabalar uchun qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. O‘qitish jarayonida grammatik farqlarni tushunish va ularni to‘g‘ri o‘rgatish interferensiyani kamaytirishga yordam beradi. Grammatik interferensiya o‘zbek va ingliz tillari o‘rtasida muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar bu farqlarni bilishi va ularni yengish uchun amaliyot o‘tkazishlari zarur. Har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish va ularga moslashish, yangi tilni o‘zlashtirish jarayonini osonlashtiradi.

Interferensiyani kamaytirish uchun bir qator strategiyalarni qo‘llash mumkin:

1. **Tilni kontekstda o‘rganish:** yangi tilni real hayot sharoitida o‘rganish orqali interferensiya xavfini kamaytirish mumkin. Bunda o‘rganish jarayoni xuddi birinchi tilni o‘rgangandek tabiiy muloqotga asoslanadi va asosan, o‘rganganlarini amaliyotda qo‘llaydi va xatolarini shu jarayonda to‘g‘rilaydi.
2. **Grammatik qoidalarni yaxshi o‘zlashtirish:** ikkinchi tilning grammatikasi haqida chuqur bilimga ega bo‘lish interferensiya ehtimolini kamaytiradi.

Amaliy mashqlar: amaliy mashqlar va til o‘ynashlar orqali o‘zlashtirish jarayonini kuchaytirish mumkin. Amaliy mashg‘ulotlar interferensiyaning oldini olishda katta ahamiyatga ega. Ular o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish, xatolarni tahlil qilish va real hayotiy vaziyatlarda o‘z bilimlarini sinab ko‘rish imkonini beradi. Misol uchun muloqot qilishga qaratilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning gapirish va eshitish qobiliyatlarini yaxshilaydi. Bu interferensiyani kamaytirishga yordam beradi, chunki o‘quvchilar to‘g‘ri aksent va intonatsiyani o‘rganadilar. Boshqalar bilan muloqot qilish orqali o‘quvchilar ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantiradilar, bu esa o‘zaro tushunishni yaxshilaydi.

O‘yinlar, rolli o‘yinlar va boshqa interaktiv faoliyatlar orqali til o‘rganish jarayonini qiziqarli va motivatsiyali qilish mumkin. Amaliy mashg‘ulotlar o‘quvchilarda tilga bo‘lgan qiziqishni oshiradi, bu esa ularni ko‘proq o‘rganishga undaydi.

Ikkinchi tilni o'zlashtirish jarayonida interferensiya hodisasi ko‘plab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, ammo to‘g‘ri yondashuv va metodlar bilan bu muammolarni yengish mumkin. Til o‘rganish jarayonida ona til va yangi til o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhimdir. Har bir til o‘rganuvchi o‘zining o‘ziga xos uslublarini topishi va interferensiya xavfini kamaytirish yo‘llarini qidirishi zarur. Shuningdek, har bir tilning madaniyati va kontekstini tushunish, bu tilning o‘ziga xosligini bilish, o‘zbek tilidagi qoidalar va strukturalarning ingliz tilini o‘rganish jarayoniga ta’sirini ijobiy tomonga o‘zgartira oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Istoda Rasulova. INTERFERENSIYA VA UNING TIL O’RGANISHDAGI SALBIY TASIRI. JOURNAL OF INNOVATSIONS IN SOCIAL SCIENCES. 2ND FEB 2022.
2. Kambarova L.R. THE NOTION OF INTERFERENCE IN LINGUISTICS (ON THE EXAMPLE OF RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES). International Conference on Innovation in Applied Sciences, Education and Humanities. May 31st 2022
3. Yormatova, Yoquthon Nurmatovna LISONIY INTERFERENSIYANING INTONATSION DARAJASIGA DOIR MASALALAR // ORIENSS. 2021. №6. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/lisoniy-interferensiyaning-intonatsion-darajasiga-doir-masalalar (дата обращения: 22.01.2024).
4. Elchin Gashimov. Interference in a Language and Culture Communication. ALLURE JOURNAL Volume 03, No. 1, January 2023, pp. 56-63
5. Ellis R. The study of second language acquisition. Oxford University Press. 1994. Pp824, p1
6. J.J.Jalolov, G.T. Mahkamova, Sh.S Ashurov. English Language Teaching Methodology. T-2015. Ps 334, p 14
7. Weinrich, U. (1953). Languages in contact. New York, NY: Publications of the Linguistic Circle of New York. Ps 149, p1



Nasiba RAIMNAZAROVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
katta o‘qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)

POLISEMANTIK DIALEKTIZMLARNING LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI

Annotatsiya: ushbu tadqiqotda o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida aks etgan shevaga oid so‘zlarning polisemantik xususiyatlari turli-tuman ekanligi, ularning har biri semantik jihatdan aloqadorlik asosida yuzaga kelishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *areal tilshunoslik, ko‘p ma’noli so‘z, o‘z va ko‘chma ma’no, polifunksional so‘z, omonim so‘z.*

Аннотация: в данном исследовании считается, что многозначные особенности слов, относящихся к диалекту, отраженные в толковых словарях узбекского языка, различны, и каждый из них формируется на основе семантической связи.

Ключевые слова: *ареальное языкознание, многозначное слово, собственное и переносное значение, полифункциональное слово, омонимическое слово.*

Annotation: in this research, it is considered that the polysemantic features of the dialect words reflected in the explanatory dictionaries of the Uzbek language are different, and each of them arises on the basis of semantic connection.

Key words: *areal linguistics, polysemous word, proper and figurative meaning, polyfunctional word, homonymous word.*

Bugungi kun tilshunosligida deduktiv ta’lim usuli ustunlik kasb etmoqda. Ya’ni tilshunoslikning amaliy ahamiyati tobora ortib, turli nazariy qarashlarning shakllanishiga asos bo‘lmoqda. Xususan, amaliy tilshunoslikning leksikografiya yo‘nalishi tilshunosning bevosita ijtimoiy nutqiy faoliyatni kuzatuvi va tajribalari asosida ravnaq topayotgan sohasidir.

Adabiy til va hududiy shevalarning leksik-semantik farqini kuzatish davomida Xorazm leksikasida o‘ziga xoslikka egaligi ma’lum bo‘ladi. Bu shevada o‘g‘uz lahjasining ta’siri kuchli bo‘lgan ozarbayjon, turk, turkman tillariga xos leksik birliklar ko‘p uchraydi. Masalan: *gunash – quyosh; cho‘x – juda; yig‘layman – yig‘laram, senikidur – saningdur, unda – anda, yo‘rg‘an –ko‘rpa, dal – emas (inkor shakl); xo‘ja – katta* kabilar[1]. Bu hududga mansub sheva variantlarining polisemantik xususiyatlari ham o‘ziga xosdir. Masalan, “aka” so‘zi ayrim hududlarda “ota” mazmunida qo‘llaniladi, ammo ushbu so‘z boshqa hududlarda “ukadan katta qarindosh” semasini yuzaga keltiradi.

O‘zbek xalq shevalari so‘z boyligida o‘zbek adabiy tilidagi so‘zlar bilan shaklan o‘xshash, ammo ma’noda bir-biridan farq qiladigan leksik-semantik birliklar uchrab turadi. Masalan, *“uzangi”* shevada “narvon” adabiy tilda esa “otga minish va egarda oyoqlarni tirab turish uchun mo‘ljallangan, metalldan yasalgan ot abzali”; “qalin” – gilam, adabiy tilda esa “nikoh to‘yida qiz uchun kuyov tomonidan beriladigan pul”; *“nervan”* Xorazmda qayrag‘och, adabiy tilda “ikki yoni yog‘och va unga mustahkamlangan pog‘onalardan iborat, yuqoriga chiqish va tushish uchun mo‘ljallangan asbob”[2].

Professor V.V.Reshetovning tasnifiga ko‘ra, o‘zbek tili shevalari uch guruhga ajratiladi:

1) shimoli-g‘arbiy guruh – bu qipchoq lahjasidagi shevalardan iborat va qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq tillarining ta’siri sezilib turadi;

2) janubi-g‘arbiy guruh – bu o‘g‘uz lahjasiga taalluqli bo‘lib, chegaradosh hudud tili, ya’ni turkman tilining ta’siri bor;

3) janubi-sharqiy guruh – bu qarluq lahjasiga xos bo‘lib, tojik tilining aralashuvini kuzatish mumkin[3].

Olimning tasnifi O‘zbekiston viloyatlari tilining o‘ziga xosligini belgilash uchun asos bo‘ladi. Garchi barcha viloyatlar uchun umumiy so‘zlashuv tili o‘zbekcha bo‘lsa ham, viloyatlararo leksik qatlam o‘ziga xos leksik-semantik, fonetik, grammatik, sintaktik jihatdan farqlanadi. Semantik mazmunning aloqadorlik asosida turlicha ifodalanishi hudud aholisi so‘z boyligining salmog‘ini belgilab beradi. Quyida shevaga oid so‘zlarning polisemantik tabiatini tavsiflashga harakat qilamiz:

O‘zbek tilining izohli lug‘atida berilgan shevaga oid ko‘chma ma’nodagi so‘zlarning ko‘lami nisbatan kamroqdir. Ko‘pgina shevaga oid so‘zlarning izohi mavjud, ammo uning ko‘p ma’noli xususiyat kasb etishi haqida ishora mavjud emas. Shuning uchun

1 Xudayberganova D.Q. Xorazm xalq dostonlari leksikasida nofaol qatlam: filol. fanlari d-ri… diss. – Urganch, 2017, 39- bet.

2 Allaberdiyev. A.A. Buxoro o‘g‘uz shevalari leksikasi. filol. fan. d-ri. …diss. – Toshkent, 2018, 88-bet.

3 Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2013, 36- bet.

ham quyida izohli lug‘atda berilgan bir qator shevaga oid so‘zlarning ko‘p ma’nolilik xarakterini ochib berishga harakat qilindi:

BADGO‘Y [bad.. + *f.*– gapiruvchi] **1** Yomon so‘zlar aytib yuruvchi, g‘iybatchi, ig‘vogar. *Shu badgo‘y, borlarni ko‘rolmaydigan, yo‘qlarga berolmaydigan och arvoh-a! Ziyoli emas, millatga ziyonli chayon.* K. Yashin, Hamza.

2 *shv.* Tili zahar. *Badgo‘y xotin.*

KASHAL I *shv.* Intizor, zor; xavotirlanish. *Tezroq boring shu chodirga, Kashal onam sizday zo‘rga.* Islom shoir.

Kashal bo‘lmoq 1) intizor bo‘lmoq. *Avazni ko‘rmoqqa kashal bo‘lib, burilib qo‘ndim.* Balogardon; 2) xavotir olmoq. *Kashal bo‘lmang, bir kun kirib boraman, Bek otamga darak bermang, bobojon!* “Erali va Sherali”.

KASHAL II *shv.* Uzoq. *Javob bering, qalmoq elga borayin, Kashal eldan biyni olib kelayin.* “Alpomish”. *Kashal ketgan mening bolam o‘ldimi, Men bebaxtning kuni oxir bo‘ldimi?* “Ravshan”.

KASHAL III *shv.* Ishkal. *Qayerga borsa, ishni kashal qilib yuradi.*

CHORSI 2 *shv. ot* Belbog‘, qiyiqcha. *Bobur mijjalarida yiltiragan tomchilarni ipak chorsi bilan artishdan istihola qilmadi.* X. Sultonov, Bir oqshom ertagi. *Mulla Chori, qo‘lida tuproq solingan ko‘k chorsi, G‘aybarovning yoniga keldi.* M. M. Do‘st, Galatepaga qaytish.

3 *shv.ot* Katta ro‘mol. *Kampir negadir oq surp chorsisining uchini labiga qistirib olgan, yuzi sirliroq ko‘rinardi.* M. M. Do‘st, Galatepa qissalari. *Qarshimda oppoq chorsiga o‘ralgan.. bor dunyosi farishtaday ulug‘ siymo turardi.* A. Nurmurodov, Urush bevalari. *Yuzlarini tilim-tilim ajin qoplagan qaynonasi doka chorsisining uchlarini kiftlariga yelvagay tashlagan ko‘yi.. mushtdek kichrayib o‘tirardi.* N. Qilichev, Chig‘iriq.

Ko‘p ma’noli shevaga oid so‘zlar hududlararo turlicha semaga ega, ammo ma’no jihatdan baribir aloqadorlik xarakterida bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan “badgo‘y” so‘zi o‘z ma’nosida “yomon gaplar aytib yuruvchi, ig‘vogar” mazmunini ifoda etadi. *Shu badgo‘y, borlarni ko‘rolmaydigan, yo‘qlarga berolmaydigan och arvoh-a! Ziyoli emas, millatga ziyonli chayon. (*K. Yashin, Hamza). Ammo bu so‘z ko‘chma ma’noda “chaqib gapiruvchi, dilni og‘rituvchi, zaharli so‘zlarni aytuvchi” mazmunida qo‘llaniladi. *Badgo‘y xotin.* Ushbu misolda leksik birlikning semantik mohiyati o‘zaro aloqadorlik kasb etyapti.

Shuningdek, “Kashal” so‘zi izohli lug‘atlarda shevaga oid so‘z sifatida beriladi, ya’ni “intizor, zor, xavotirlanish” ma’nolarini ifodalaydi. *Tezroq boring shu chodirga, Kashal onam sizday zo‘rga. (*Islom shoir). “Kashal bo‘lmoq” birikmasi esa “intizor bo‘lmoq” ma’nosida qo‘llaniladi. *Avazni ko‘rmoqqa kashal bo‘lib, burilib qo‘ndim. Kashal bo‘lmang, bir kun kirib boraman, Bek otamga darak bermang, bobojon! (*“Erali va Sherali”). “Kashal” so‘zi ayrim shevalarda uzoq ma’nosida ham qo‘llaniladi. *Javob bering, qalmoq elga borayin, Kashal eldan biyni olib kelayin. (*“Alpomish”). *Kashal ketgan mening bolam o‘ldimi, Men bebaxtning kuni oxir bo‘ldimi? (*“Ravshan”). Shuningdek, izohli lug‘atlarda ushbu so‘zning *“*ishkal” ma’nosida qo‘llanilishi ham berilgan. *Qayerga borsa, ishni kashal qilib yuradi.* Demak, *“*kashal” so‘zi “intizor, intizor bo‘lmoq, xavotirlanmoq” ma’nolari uzoq mazmuniy ifodasi bilan ko‘p ma’nolilik xususiyatini kasb etadi. Ammo ushbu mazmuniy ifodalar “ishkal” ma’nosi bilan omonimlik xarakterga ega. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, “kashal” so‘zi ayrim hududlarga oid shevalarda ham polisemantik, ham omonimik xususiyat kasb etadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida berilgan “chorsi” so‘zi shevaga oid birlik sifatida talqin qilingan. Ushbu so‘z o‘z manosida ot so‘z turkumiga oid “belbog‘, qiyiqcha” tushunchalarini ifodalaydi. *Bobur mijjalarida yiltiragan tomchilarni ipak chorsi bilan artishdan istihola qilmadi. (*X. Sultonov, Bir oqshom ertagi). *Mulla Chori, qo‘lida tuproq solingan ko‘k chorsi, G‘aybarovning yoniga keldi.(*M. M. Do‘st, Galatepaga qaytish). Bu birlik ayrim shevalarda katta “ro‘mol” mazmunini ifodalar ekan. *Kampir negadir oq surp chorsisining uchini labiga qistirib olgan, yuzi sirliroq ko‘rinardi. (*M. M. Do‘st, Galatepa qissalari). *Qarshimda oppoq chorsiga o‘ralgan.. bor dunyosi farishtaday ulug‘ siymo turardi. (*A. Nurmurodov, Urush bevalari). *Yuzlarini tilim-tilim ajin qoplagan qaynonasi doka chorsisining uchlarini kiftlariga yelvagay tashlagan ko‘yi.. mushtdek kichrayib o‘tirardi. (*N. Qilichev, Chig‘iriq). “Chorsi” so‘zining ijtimoiy jihatdan foydalanilishi va shakliga ko‘ra ko‘p ma’nolilikni yuzaga keltiryapti. Navoiy, Buxoro, Qashqadaryoning ayrim hududlarida eltmoq so‘zi olib bormoq, tashimoq ma’nosida qo‘llaniladi.

Xulosa. O‘zbek tilining izohli lug‘atida shevaga oid so‘zlarning izohi va miqdori yetarlicha, ammo shevaga oid ko‘chma ma’nodagi so‘zlar salmog‘i juda kam. Lug‘atda shevaga oid so‘zlarning ko‘p ma’nolilik xususiyatiga ishora deyarli yo‘q. Shevaga oid so‘zlarning aksariyati ko‘p ma’nolilik xarakteriga ega, buni yuqorida izohli lug‘atda berilgan dialektal so‘zlarning ma’noviy qirralarini tahlil qilish jarayonida kuzatish mumkin. Shuningdek, shevaga oid so‘zlarning polisemantik xususiyatlari bilan boyitilgan lug‘atlar nafaqat, tilshunoslik, balki kriminalingvistika, sotsiolingvistika, pragmalingvistika kabi turli yo‘nalishlarning istiqbolli kelajagi uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Munira AKBAROVA,
QDPI boshlang‘ich ta’lim nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

TILSHUNOSLIKDA G‘AYRIODATIY BIRIKMALAR MUAMMOSI

Annotatsiya: ushbu maqolada tilshunoslikda g‘ayriodatiy birikmalarning qo‘llanilishi, ular orqali ifodalanadigan fikrning boy emotsionalligi, o‘zbek tilshunosligida bunday birikmalarni aynan “g‘ayriodatiy birikmalar” nomi bilan atash zarurati yuzasidan fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, g‘ayriodatiy birikmalar, ekspressivlik, semantik muvofiqlashtirish, individual-mualliflik birikmalari, oksyumoron, noodatiy birikmalar, okkazional birikmalar, atributiv birikmalar, oraliq iboralar.*

Аннотация: в данной статье описывается использование необычных сложных слов в лингвистике, богатая эмоциональность выражаемой через них мысли, а также необходимость называть такие соединения названием «необычные сочетаные» в узбекском языкознании.

Ключевые слова: *лингвопоэтика, необычные союзы, выразительность, семантическая согласованность, индивидуально-авторские союзы, оксюморон, необычные союзы, окказиональные союзы, определительные союзы, междометия.*

Annotation: this article describes the use of unusual compounds in linguistics, the rich emotionality of the thought expressed through them, and the need to name such compounds by the name of "unusual compounds" in Uzbek linguistics.

Key words: *linguopoetics, unusual conjunctions, expressiveness, semantic coordination, individual authorship conjunctions, oxymoron, unusual conjunctions, occasional conjunctions, attributive conjunctions, interjections.*

Umumjahon tilshunosligining eng dolzarb masalalaridan biri – bu til va nutq hodisalarining nutqiy kommunikatsiya jarayonida harakatga kelishi va o‘zaro munosabati hamda aloqadorligini o‘rganish masalasidir. Til birliklarining eng muhim elementi hisoblanmish so‘z tilda o‘zga qiyofa va vazifani, nutqda esa o‘ziga xos bo‘lgan boshqa qiyofa va vazifani ado etadi. Bundan ko‘rinadiki, til va nutq jarayoni o‘zaro farqli hamda bir - biri bilan uzviy bog‘liq. Nutq birliklari nutq jarayonida yuzalanadi va nutq jarayoni til birliklarining o‘zlarini namoyon etish, turlicha qo‘llanish, o‘zgacha bir ma’no va qiyofa kashf etishi uchun zarur bo‘lgan kommunikativ maydon sanaladi. So‘zlardagi ma’no qirralarini ochiq ifodalash, ularni ro‘yobga chiqarish uchun nutq jarayoni zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Har qanday badiiy matnda izohlanayotgan mazmunni anglay olish uchun nafaqat til leksikasini hamda grammatikasini bilish, balki ayni damda badiiy matnga xos bo‘lgan qonuniyatlarni, matnning lisoniy-poetik tilini ham bilish talab etiladi. “Har qanday fikr nutqda namoyon bo‘lar ekan, so‘zlovchi axborotni tinglovchi shaxsiga nafaqat yetkazib berishni, balki bu fikrning tinglovchiga ta’sir etish ko‘lamini ham doimo nazarda tutishi zarur bo‘ladi. Shu boisdan ham nutqning ifodaliligi va ta’sirchanligini, uning ekspressivligini ta’minlovchi til birliklariga, vositalariga malakali so‘zlovchi, ya’ni yozuvchilar har doim o‘ta sezgir nigoh bilan qaraydilar. Ma’lumki, tilda ekspressivlikni ifoda etishning turfa xil imkoniyatlari mavjud. Bu kabi imkoniyatlarning naqadar keng ekanligi tilning ham nechog‘lik boy ekanligini ko‘rsatib beruvchi mezonlardan biridir”. [1. 43-b.]

G‘ayriodatiy birikmalar jahon tilshunosligida uzoq vaqt davomida individual-mualliflik birikmalari, oksyumoron, noodatiy birikmalar, okkazional birikmalar, atributiv birikmalar, oraliq iboralar terminlari ostida o‘rganib kelingan.

Rus tilshunosligida ham bunday stilistik figuralar turlicha talqin qilinadi. Bu hodisani Yu.S.Stepanov “Semantik muvofiqlashtirish” [2. 250-b.] deb ataydi. U bu birikmalardagi ikki komponentning birikma shaklini hosil qilishida semantik uyg‘unlikning yuzaga kelishi sabab ekanligiga ishora qiladi. N.G. Babenko ham yuqoridagi kabi fikrni ilgari suradi: “…bunday leksemalarning odatiy birikishi mumkin emas, chunki bu ularning leksik ma’nolarida umumiy semalarning yo‘qligi sababli semantik kelishik qonuniga ziddir. Tobe komponentda kontekst-semantik siljishlar paydo bo‘lishi tufayligina iboralarda umumiy semalar paydo bo‘ladi”.[3. 39-b.] G‘ayriodatiy birikmalarning shakllanishida leksemalarning umumiy sema hosil qilishi, kontekst bilan bog‘liq holda ro‘yobga chiqishi asosiy omil ekanligi yuqoridagi fikrlardan ham anglashiladi.

G‘ayriodatiy birikmalarni oksyumoron bilan munosabatini aniqlash, ularni tilshunoslikda alohida termin sifatida ajratib ko‘rsatish, terminlarning o‘zbek tilshunosligida “o‘z mavqeyini tiklashi”ga erishish zarur.

O‘zbek tilshunosligida ijodkorlarning badiiy matnda so‘z qo‘llash usullari, poetik nutqning badiiy-estetik qimmatini sezilarli darajada oshiruvchi til birliklari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari hamda badiiy nutqda tutgan o‘rni haqida bayon etilgan salmoqli manba – bu o‘zbek tilshunosligining taniqli olimlari X.Abdurahmonov va N.Mahmudovlar qalamiga mansub “So‘z estetikasi” nomli qo‘llanma hisoblanadi.

Estetik butunlik bo‘lgan badiiy asar ijodkori uchun esa “narsalarning qat’iy, yalang‘och mohiyati” emas, balki ularning yuksak badiiy ifodasi, yaxlit obrazi ahamiyatlidir. Ijodkor ana shu maqsad bilan tildan yangi-yangi imkoniyatlar izlaydi. Bunday imkoniyatlardan biri badiiy bo‘lmagan nutqda o‘zaro bog‘lanishi chegaralangan so‘zlarni bog‘lash orqali turli ma’no nozikliklari, ekspressivlik, emotsionallik va shu kabilarni yuzaga keltirishdir. Badiiy nutqdagi bunday birikmalarni shartli ravishda g‘ayriodatiy birikmalar deb ataymiz”.[4. 38-b.] Bundan anglash mumkinki, g‘ayriodatiy birikmalardan maqsadli va o‘rinli foydalanilgandagina nutqdagi emotsionallikni oshirishga erishish mumkin, aksincha, noo‘rin tuzilgan birikmalar yoinki bu birikmalarni o‘rinsiz qo‘llash kishida yoqimsiz, tushunarsiz vaziyatni yuzaga keltiradi.

Har bir so‘zning boshqasi bilan qo‘shilish imkoniyatlari esa o‘ziga xos bo‘ladi. So‘zlar ba’zi so‘zlarni biriktira olsa, ayrimlarini biriktira olmaydi. So‘zlardagi boshqa so‘zlarni biriktira olishidagi bu kabi chegaralanganlikning sabablari bor, albatta. Avvalo, so‘zdagi semantikaning o‘zaro mos kelmasligi, ziddiyatliligi tufayli so‘zlar bir-birlari bilan birika olmasligi mumkin. Yuqoridagi fikrimizning isboti o‘laroq, professor N.Mahmudovning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: “…yashil o‘tloq birikmasi mantiqan to‘g‘ri, lekin “yashil navo” birikmasi mantiqan noto‘g‘ri, yoki baqirgan odam – mantiqan to‘g‘ri birikma, “baqirgan sukunat” esa – mantiqan to‘g‘ri emas. Shuningdek, so‘zlarning grammatik tabiatiga ko‘ra ham ular o‘zaro bog‘lana olmasliklari mumkin. Nihoyat, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishiga ularning har biriga xos bo‘lgan leksik xususiyatlari ham to‘sqinlik qilishi mumkin. Masalan, yutuqqa erishmoq, muvaffaqiyatga erishmoq deb ishlatish mumkin, biroq “kamchilikka erishmoq”, “muvaffaqiyatsizlikka erishmoq”deb aytish mumkin emas va hokazo” [4. 40-b.].

Yuqoridagi fikrlarga dalil sifatida quyidagi namunalarga e’tiboringizni qaratmoqchimiz: shirin choy – haqiqiy o‘zining qiyofasida, ya’ni bu birikmadagi shirin so‘zi o‘zining asl ma’nosida ishlatilmoqda, choyning ta’mi shirin ekanligi izohlanmoqda; shirin so‘z, shirin muomala, shirin suhbat, shirin diydor, shirin xayol, shirin xotira, shirin tabassum ko‘rinishidagi birikmalarda esa shirin so‘zining yashirin semasi faollashmoqda. Endi bu birikmalarda shirin so‘zi ta’mni bildiruvchi so‘z emas, o‘zi bog‘langan so‘zlardagi “yoqimlilik, kishi huzur qiladigan, orom oladigan, lazzatlanadigan, xush yoqadigan” [5. 579-b.] kabi sifatlarni ifodalamoqda.

Biroq ba’zida og‘zaki nutqda shu kabi birikmalar uchrab turadiki, ulardagi so‘zlarning asl ma’nolari bir-biriga umuman to‘g‘ri kelmaydi. Shunday bo‘lsa-da, biz uchun ular xuddi odatiy birikmalardek tuyuladi, so‘zlarning bog‘lanish qonuniyatlariga zid keladigan biror hodisa yo‘qdek ko‘rinadi. Lekin yaqindan nazar solinsa, bu birikmalarda ham so‘zlardagi bog‘lanish chegaralaridan chiqish, ma’lum ma’noda chekinishlarning mavjud ekanligi ko‘zga tashlanadi. Misol uchun, shirin so‘z birikmasini tashkil qilgan so‘zlarning ma’nolariga diqqat qilaylik. Ma’lumki, “shirin” lug‘aviy birligi tabiatan ta’mni bildiruvchi so‘zni anglatsa, “so‘z” so‘zi esa eshitish a’zosi yordamida sezish mumkin bo‘lgan tushunchani bildiradi. Bundan esa bizga dastlab har ikkala so‘z o‘zaro birikishi mumkin emasdek ko‘rinadi. Biroq bu so‘zlarning har ikkisida ham mavjud bo‘lgan yoqimlilik belgisi ularni o‘zaro tutashtiradi, shirin so‘zi mazkur birikmaga kirish huquqini “yoqimli” ma’nosi orqali qo‘lga kiritadi. Hosil bo‘lgan bunday birikma dastlab, albatta, g‘ayriodatiy bo‘ladi, o‘zidagi “yangilik” belgisini namoyon etadi. Lekin bu kabi shirin tush, sovuq gap, sovuq xabar, shirin xotira, achchiq g‘am kabi bir nechta birikmalar o‘zidagi “yangilik” bo‘yog‘ini vaqtlar o‘tishi bilan asta-sekin yo‘qotadi, keyinchalik ular bizning nutqimizda odatiy birikmalar kabi muomalaga kiradi. Chunki bunday birikmalar vaqtlar o‘tishi bilan “klishelashib” [4. 42-b.] qoladi.

Bunday ekspressivlik o‘zidagi yangilik, g‘ayriodatiylik belgilari bilan ajralib turadi va xuddi shu sinestetik metaforalar asosida yaratilgan individual muallif birikmalarida yanada yaqqolroq seziladi va kuchayadi, muallifning badiiy asardagi zaruriy ta’sir etish hamda yuqori tasviriy vositasi sifatida o‘z xizmat vazifasini ado etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akbarova M. Emotsional-ekspressiv sintaksisda g‘ayriodatiy birikmalarning tutgan o‘rni // Ilm sarchashmalari: ilmiy-nazariy, metodik jurnal. – Urganch, 2023. 43-46-betlar.
2. Степанов Ю.С. Имена, предикаты, предложения. – М., 1981. С. 250.
3.Бабенко Н.Г. Окказиональное в художественном тексте. Структурно-семантический анализ: Учебное пособие. – Калининград: Калинингр. гос. ун-т, 1997. С. 39.
4. Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. 38-бет.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 4-жилд. – Тошкент: “ЎзМЭ”, 2006. 579-бет.
6. Shavkatovna, A. M. (2023). Unusual Compounds: Oxymoron and Occasionalism. Open Access Repository, 9(7), 148-150.
7. Shavkatovna, A. M. (2023, November). OKSYUMORON–BADIIY, LINGVOPOETIK VOSITA. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 12, pp. 153-157).

8. Shavkatovna, A. M. (2023, November). G ‘AYRIODATIY BIRIKMALAR VA ULARNING BADIIY MATNDA QO‘LLANILISHI. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 12, pp. 163-167).



Saxiba SAIDMURADOVA,
TerDPI, Filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori
Xursanoy XOLMURODOVA
TerDPI talabasi

NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIGA LINGVISTIK TAHLIL METODI ORQALI YONDASHUV

Annotatsiya: yozuvchi Nazar Eshonqul bugungi o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos betakror so‘ziga, ijod falsafasiga hamda estetik qarashlariga ega iste’dodli ijodkor.Bugungi yosh avlodning mustahkam irodali,yuksak axloqli va erkin,hur fikrli bo‘lib ulg‘ayishi – barcha istaklardan ustun.Shu nuqtayi nazardan Nazar Eshonqul hikoyalari tiliga lingvistik tahlil metodi nuqtayi nazaridan qarab,bu kichik janrdagi asarlar personajlari nutqida xalqona , betakror so‘z va iboralarni,o‘ziga xos nutqiy qurilishni, lingvistik vositalar yordamida asarning g‘oyaviy, emotsional qirralar, psixologik jarayonlarni kuzatish mumkinligi mazkur maqolada ta’kidlab o‘tiladi.

Kalit so‘zlar:*estetik qarashlar,psixologik tahlil, lingvistik tahlil, ruhiy kechinmalar, aql-idrok, lingvistik vositalar,”dominanta “ so‘z, inson ongi.*

Аннотация:писатель Назар Эшонкул – талантливый художник, обладающий уникальным словом, творческой философией и эстетическими взглядами в современной узбекской литературе.Воспитание нынешнего молодого поколения волевым, высокоморальным и свободным, открытым – все с этой точки зрения рассматривая язык рассказов Назара Эшанкула с точки зрения метода лингвистического анализа, в речи персонажей этого поджанра мы можем обнаружить популярные, уникальные слова и словосочетания, неповторимый речевой строй, идейно-эмоциональный аспекты, психологические аспекты работы с использованием лингвистических средств, в данной статье подчеркивается возможность наблюдения за процессами.

Ключевые слова: *эстетические воззрения, психологический анализ, лингвистический анализ, психические переживания, интеллект, лингвистические средства, «доминантное» слово, сознание человека.*

Annotation:writer Nazar Eshanqul is a talented artist with a unique voice, creative philosophy and aesthetic views in modern Uzbek literature.From the point of view of the method of linguistic analysis of the language of Nazar Eshankul's stories, the characters of these small genres use unique words and phrases in their speech. This article emphasizes the possibility of observing the specific speech structure, the psychological processes of the ideological, emotional aspects of the work with the help of linguistic means.

Key words: *esthetic views, psychological analysis, linguistic analysis, mental experiences, cognition, linguistic means, the word "dominant", human consciousness.*

Nazar Eshonqul bugungi o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos betakror so‘ziga, ijod falsafasiga hamda estetik qarashlariga ega iste’dodli ijodkor.U zamon bilan hamnafas: botiniy dunyoni va inson ongi sarhadlarini chuqur anglagan holda kitobxonga manzur va maqbul asarlar – roman, qissa va hikoyalar yaratayotgan serqirra ijodkor. Biz ”Uchinchi Renessans” ostonasida turar ekanmiz, bugungi yosh avlodning irodali, yuksak axloqli va erkin, hur fikrli bo‘lib ulg‘ayishi –barcha istaklardan ustun.Yozuvchi Nazar Eshonqul fikricha ,”…mustahkam va kuchli e’tiqodli yozuvchigina millat va Vatan uchun bugun va ertaga ham o‘qiladigan, kuylanadigan hamda sharaflanadigan so‘z yarata oladi, ko‘z o‘ngimizdagi voqelikni ijodkor olami bilan bog‘lay oladi.Yuzakilikka o‘rgangan tasavvurlarni yorib o‘tib, o‘zining yuksak e’tiqod va go‘zallik dunyosini yaratadi”. (Nazar Eshonqul.”Men “dan mengacha.2-kitob)

Yunon notiqlari tilida yozuvchi qalbi bejizga”ilohiyot nuri tushgan qalb” deb atalmagan.Bu ilohiy qalb xiyonat, adolatsizlik, nopoklikdan titrab ketadi va aldangan dunyoni poklashga kirishadi”. Haqiqatan ham, bugungi kun-sayin yangilanib borayotgan yangicha dunyoda badiiy va estetik so‘z ham, adabiyot olami ham, insonlar ham yangilanib boraveradi.Inson doimo teran fikrlashdan to‘xtamasligi, tevarak –atrofga xushyor nazar solishi, aqlli fikr-mushohada qilishi:o‘z ichki ruhiy kechinmalarini tahlil qilib borishi: ruhiyatidagi ayrim kichik illatlarni yuzaga chiqishiga yo‘l qo‘ymay, aksincha aql-idrokini charxlab borishi lozim.

Nazar Eshonqul qalamiga mansub “Shamolni tutib bo‘lmaydi”,”Tobut”,” Maymun yetaklagan odam”,”Yalpiz hidi”,”Haykal” kabi yuksak g‘oyaviy va badiiy mahorat bilan yaratilgan hikoyalar yozuvchi badiiy tafakkurining mahsulidir.

Nazar Eshonqul hikoyalari tiliga lingvistik tahlil metodi nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, bu kichik janrdagi asarlar personajlari nutqida betakror so‘z va iboralarni, o‘ziga xos nutqiy qurilishni, lingvistik vositalar yordamida asarning g‘oyaviy ,emotsional qirralar hamda psixologik jarayonlarni kuzatish mumkin.

Lingvistik tahlilda har bir hikoyadagi ”dominanta “ so‘zlarni ajratib o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. So‘zning har qanday badiiylashtirilgan shakli,u og‘zaki yoki yozma bo‘lishidan qat’iy nazar, inson ma’naviy-psixologik olamiga ta’sir o‘tkazishi jihatidan muhimdir. Masalan, yozuvchining “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasidagi “yulg‘unzor”, ”oftobro‘ya”, ”mustag‘riq”, ”ravoqli”, ”yolg‘izlikning ko‘r musibati”,”qonli halqob”, ”yillar uqalay-uqalay jimitdek qilib qo‘ygan gavdasi’’,kadi-sut idish, “muztar go‘sha” kabi turli poetik so‘z va birikmalar alohida ajralib turadi.Bosh obraz - Bayna momoning xarakteridagi o‘ziga xosliklarni;hayot mashaqqatlari ezib qo‘ygan jussasini zo‘rg‘a ko‘tarib yursada, fe’lida qo‘rslik va qat’iyat mujassam inson qiyofasini ko‘rish mumkin.Bayna momo turmush o‘rtog‘ining va o‘g‘lining shafqatsizlarcha o‘ldirilishiga tomoshabin bo‘lib turgan hamqishloqlariga bir umr ko‘nglida kek saqlab, ulardan alamzada bo‘lib yurdi- “bu qishloqda erkak yo‘q”,”bu qishloqning ayollari endi faqat hezalak tug‘adi”-deya ranjib yurdi.

Bayna momoning g‘am-anduhi hech susaymas, musibati shu qadar ulkan ediki; uning ifori butun jismi-yu kichik jussasiga, hattoki kiyimlariga ham o‘rnashib ketganligini yozuvchi bot-bot takrorlaydi.Momo polvonligi bilan butun qishloqning ori bo‘lgan eri Rayim polvonning hamda hech aybini bilmay o‘lib ketgan yolg‘iz farzandining o‘limini hech ko‘z oldidan ketkaza olmadi.Hikoya hajm jihatidan katta bo‘lmasa-da, mazmunan salmoqdor-badiiy pishiq yaratilganligidan kitobxonlarning sevimli asariga aylanib ulgurdi.

“Maymun yetaklagan odam “hikoyasida esa, “ro‘dapo chol”, ”unduqal axlat soladigan idish” chirkin, badbo‘y va shilta hid”, “badjaxl ma’bud” kabi poetik, psixologik elementlar asarning g‘oyaviy mazmuniga o‘zgachalik bag‘ishlab turibdi. Asarda personaj ruhiyatining hatti - harakatlari, gap- so‘zlari, mimikasi, undagi fiziologik o‘zgarishlarni ko‘rsatish orqali ochib berilishi bilvosita psixologik tasvirdir.Nazar Eshonqul tomonidan yozilgan bu hikoyalarda inson ruhiyatining qavat-qavat sirlari ochilgani, ijodkor tomonidan badiiy psixologizmning xilma-xil usul va vositalari qo‘llangani ham ayni haqiqat.Yozuvchi “Maymun yetaklagan odam’’hikoyasida suratkash qo‘shni cholning ajinlar taram-taram qilib tashlagan, ko‘rimsiz yuzi badjaxl ma’budlarning haykaliga o‘xshashi, ko‘zlari hissiz va ifodasiz, go‘yo necha qadam umri qolganini o‘lchab yurgandek og‘ir qadamlar bilan yurguvchi,qoboqlari ostidan odamlarga adovat bilan tikilib-tikilib qo`yguvchi; nochor holiga ham qaramay, odamlarga kibr aralash dimog‘-firog‘ bilan , shubha bilan qarab qo‘yguvchi cholning portretini so‘z yordamida tasvirlash barobarida, uning fe’l-atvoriga doir jihatlarni (adovat uning butun tanasidan,vujudidan ufurayotgandek,… puli bor-u, lekin hech kimga, hatto o‘g‘liga ham ko‘zi qiymaydigan “juda xasis”deya) ifodalab o‘tadi.

“Maymun yetaklagan odam” hikoyasi tilida bir necha sahifalarga cho‘zilgan qo‘shma gaplarni uchratish mumkin.”Men keyingi yillardagi suratlar shunchaki qo‘l chiqib ketmasligi uchun chizilgan bo‘lsa kerak,- degan fikrga kelgan edim;bu yillardagi suratlarda huvillab qolgan qishloqlar va ko‘chalar, egalari tashlab ketgan uylar, o‘ziga chorlab turgan qabristonlar, o‘lim isi kelib turgan har-xil qurollar, yig‘layotgan ayollar va bolalar, biyday dalalar bosib ketgan o‘laksaxo‘r quzg‘unlar, murdalar ortilgan aravalar, panjarali kameralar, yonib yotgan qishloq, qandaydir qo‘rquvdan (xuddi “Pampeyaning so‘nggi kuni”kabi)” dong qotib qolgan olomon, sirli maxluqlar, yirtqich hayvonlar, yuzlariga har xil jondorlarning niqoblarini kiyib olgan odamlar (karnaval bo‘lsa kerak - deb o‘ylagandim), bazmu-jamshid qilib o‘tirgan shotirlar, aroq navlari, turli xil taomlar, yalang‘och ayollar, mahzuma qizlar, qovjirab qolgan gullarning suratlari aks etgan edi.(9-bet,113 ta so‘z.) Nazar Eshonqulning ”Maymun yetaklagan odam” asarida (T-2004.16-17-bet.) 251 ta so‘z va qator tinish belgilari ishtirok etgan qo‘shma gaplarni uchratamiz. Bunday murakkab va uzundan uzoq qo‘shma gaplarni tushunib anglash uchun uni qayta-qayta o‘qishning o‘zi ham etarli emas, ular kitobxonni mantiqan fikrllashga, zukko va sezgir bo‘lishga undaydi.Bunday lingvistik vositalar yordamida hikoyalarning emotsional, oziga xos qirralarini ko‘rsatish hamda badiiy so‘zga, takrorlar va yangi so‘zlarning paydo bo‘lishiga diqqat qaratiladi. Inson ruhiyatining zaminida obyektiv, ommaviy ong osti kechinmalari yotadi.Shaxsiy, xususiy ong osti kechinmalari ham bu kechinmalar bilan hisoblashadi. Ommaviy ong osti o‘zini insoniyat evolyutsiyasining, diniy va milliy shakllanishning asorati sifatida namoyon qiladi.Har bir odam ongining eng past qavatlarida qatlam-qatlam bo‘lib, nasldan-naslga o‘tib kelayotgan e`tiqod, ishonch, tasavvurlar, hissiyotlar, mayllar asorati yashaydi.Bu mayl va kechinmalar, tasavvurlar inson idroki zaiflashgan, charchagan yoki inson ruhiyatini boshqarishga qurbi yetmay qolgan paytlarda o‘zini turli ko‘rinishlarda namoyon qiladi.Moddiy borliq odamni,uning istaklarini, mayllarini soddalashtiradi, xususiylashtiradi.

Badiiy adabiyotning asosiy vazifasi insonni tarbiyalash ekanligini yodimizda tutishimiz kerak. Hikoyalardagi voqealar tizimi insonlarni hech qachon

atrofimizdagi insonlarga befarq bo‘lmaslikka, loqaydlikning salbiy oqibatlaridan to‘g‘ri xulosa chiqargan holda, sergak bo‘lishga undaydi.Yozuvchi Nazar Eshonqul fikricha, adib nigohi sof ma’noda insonning qalb, go‘zallik,olam bilan uyg‘unlikni ko‘ra olgan va shunga undagan nuqtayi nazar sifatida paydo bo‘ladi.Insonparvarlikka nimaiki yot bo‘lsa, asar ruhi va poetikasi uni inkor qiladi.Insoniyatning xohish va istaklari-orzulari birinchi o‘rinda turadi.Badiiy adabiyotning muhim vazifasi sifatida kitobxonni to‘lqinlantirish, estetik zavq ulashish hamda xalqchillik, tarbiyaviylik ruhi mazkur hikoyalarning ham mohiyatini tashkil qiladi.Shu jihatdan yozuvchi Nazar Eshonqul hikoyalari xalq diliga yaqin, sodda va ravon tilda yaratilgan asarlar sifatida qadrlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazar Eshonqul.”Maymun yetaklagan odam” asari. –T.:2004. 9-16-17-b.
2. Nazar Eshonqul.”Men”dan mengacha.2-kitob.
3. Nazar Eshonqul.”Shamolni tutib bo‘lmaydi”. 3-7-betlar.
4. Nazar Eshonqul.’’Ijod falsafasi” asari.

Zilola TILLABAYEVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
O‘zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

SAMARQAND VILOYATI QARLUQ SHEVALARI LEKSIKASINI AREAL O‘RGANISHGA DOIR

Annotatsiya: ma’lumki, o‘zbek shevalari murakkab tarkibli ekanligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Samarqand viloyati qarluq shevalari rang-barangligi, katta hududga tarqalganligi va leksikasining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Maqolada mazkur lahja leksikasining regiondagi boshqa shevalar bilan munosabati, farqli va o‘xshash jihatlarining geografiyasi masalasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *sheva, lahja, adabiy til, hudud, areal tilshunoslik, leksema.*

Аннотация: известно, что узбекские диалекты отличаются сложным содержанием. В частности, карлукские диалекты Самаркандской области отличаются разнообразием, распространением на большой территории и своеобразием лексики. В статье описывается взаимосвязь лексики этого диалекта с другими диалектами региона, география его разных и схожих аспектов.

Ключевые слова: *диалект, говор, литературный язык, регион, ареальное языкознание, лексема.*

Annotation: it is known that uzbek dialects are distinguished by their complex content. In particular, the karluk dialects of the Samarkand region are distinguished by their diversity, spread over a large area, and the uniqueness of their lexicon. The article describes the relationship of the lexicon of this dialect with other dialects in the region, the geography of its different and similar aspects.

Key words: *dialect, literary language, region, areal linguistics, lexeme.*

Hozirgi Samarqand viloyati O‘zbekistonning o‘rta qismida joylashgan bo‘lib, shimoli - g‘arbdan Navoiy, janubdan Qashqadaryo, shimoli - sharqdan Jizzax viloyatlari hamda janubi-sharqdan Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. U 1938-yil 15-yanvarda tashkil topgan. Xususan, biz tadqiq qilayotgan Samarqand shahri viloyat statistika boshqarmasi bergan ma’lumotlarga ko‘ra, 564500 kishi (2022) ni tashkil etadi [1]. Aholining asosiy qismi o‘zbeklar, tojiklar va eronliklardan iborat bo‘lib, shuningdek, rus, arman, tatar, boshqird, turk, koreys, ozarbayjon, ukrain, yahudiy millatiga mansub kishilar ham bor. Samarqand shahrida 215 ta mahalla bo‘lib, Samarqand shahar kengashiga qarashli 3 shaharcha (Kimyogarlar, Farhod, Hishrav) mavjud. Maydoni 0,12 ming km² [2].

Har qanday xalq hayotida paydo bo‘ladigan voqea-hodisalar dastlab tilning leksikasida aks etadi. Shuning uchun ham leksika til strukturasi elementlari ichida eng harakatchani [3, 23] va xalq maishiy saviyasining oynasi hisoblanadi [4, 72]. Darhaqiqat, o‘zbek xalqi g‘oyat murakkab va tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Turli-tuman millatlar bilan yaqin munosabatlar o‘rnatib, leksik qatlamning boyishiga sabab bo‘ldi. Jamiyat hayotida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar til sistemasining lug‘aviy sathida namoyon bo‘ladi. Bu o‘zgarishlar adabiy tilni oziqlantirib turuvchi shevalar leksikasida ham aks etishi tabiiy, albatta. Leksika ma’lum qonun-qoidaga bo‘ysunuvchi izchil va murakkab tizimdan iborat. Til leksikasi to‘xtovsiz o‘zgarib turadi. Bu narsa lug‘at tarkibida yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi, mavjud so‘zlardan ayrimlarining eskirib, iste’moldan chiqishi, leksik ma’nosini o‘zgartirib, yangi ma’no kasb etishi kabi jarayonlarda ko‘rinadi. Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy tuzumning o‘zgarishi bilan uzviy bog‘langan holda leksika boyib boradi [5]. Shunday qilib, mahalliy dialekt va xalq shevalari milliy tilning quyi formalari bo‘lib

hisoblanishi bilan bir qatorda, ayni vaqtda, ular adabiy tilning ichki rivojlanish imkoniyatlarini tashkil qiladi, adabiy tilning yoki milliy adabiy tilning taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ichki manba, tayanch hisoblanadi. Shuning uchun ham mahalliy dialekt va xalq shevalariga milliy adabiy tilning ichki manbai, ichki taraqqiyot resursi va tayanchi sifatida avaylab munosabatda bo‘lish talab qilinadi [6, 12].

Biz kuzatish olib borgan Samarqand viloyatidagi Samarqand shahri, Kattaqo‘rg‘on, Tayloq, Urgut, Oqdaryo tumanlari, Payariq tumanining Chelak shahri aholisi qarluq lahjasida muloqot qiladi. Bu tadqiqotchilar tomonidan ham e’tirof etilgan. Qarluq lahjasi (Sh. Shoabdurahmonov bo‘yicha, V.V.Reshetov bo‘yicha “qorluq-chigil uyg‘ur”, Y.D.Polivanov bo‘yicha “chig‘atoy”, G‘.O.Yunusov bo‘yicha “turk-barlos”, A.K.Borovkov bo‘yicha “o‘rta o‘zbek” atamalari qo‘llaniladi). Qipchoq va o‘g‘uz lahjalari bilan birga o‘zbek tilining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Qarluq lahjasini bir qancha guruhlarga ajratib ko‘rsatish mumkin. 1. Farg‘ona guruhi — Namangan dialekti (Namangan, Uychi, Chortoq shevalari kirib, ular uyg‘ur tiliga yaqin), Andijon—Shahrixon dialekti (Andijon shahar shevasi, Shahrixon shevasi kiradi), O‘sh— O‘zgan dialekti, Marg‘ilon— Qo‘qon dialektlarini o‘z ichiga oladi. 2. Toshkent guruhi — Toshkent (Pskent, Parkent, Qoraxitoy shevalari kiradi), Jizzax dialektlarini o‘z ichiga oladi. 3. Qarshi guruhi — Qarshi dialekti (Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘ shevalari) Samarqand—Buxoro dialekti (Samarqand, Buxoro, Xo‘jand, Chust, Koson shevalari) ni o‘z ichiga oladi [7, 37].

Akademik Sh.Shoabdurahmonov qarluq lahjasiga Toshkent, Farg‘ona, Andijon— Shahrixon, Namangan, Samarqand— Buxoro, Jizzax— Qarshi, Marg‘ilon— Qo‘qon va shimoliy o‘zbek shevalarini kiritib o‘tadi [8, 9].

Samarqand viloyati shevalarini shartli ravishda 3 guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin. 1-guruh: Samarqand viloyati qarluq shevalari; 2-guruh: o‘g‘uz lahjasiga mansub shevalar; 3-guruh: qipchoq lahjasiga tegishli shevalar.

Tadqiqot obyektimiz bo‘lgan Samarqand viloyati qarluq shevalari bo‘yicha hozirga qadar monografik planda tadqiqot yaratilgan emas. Bu holat mazkur mavzu bo‘yicha hudud shevalarining leksik xususiyatlarini o‘rganishning dolzarb masala ekanligini ko‘rsatadi.

Kirish. Amerika romantizm adabiyotining o'ziga xos adibi, falsafa va badiiy ijod bilan shug'ullangan Nataniel Gotorn (1804-1864) puritanlar – (Angliyadan yangi ochilgan qit'adagi davlat fuqarolarini diniy ruhda tarbiyalash uchun kelgan fanatik ruhoniylar)ning erkin fikrni bo'g'ishini, olimlarni jodugar, sehrgar deb gulxanda yoqishini keskin qoraladi. U o'zi sofdil ruhoniy, dindor bo'la turib, o'z asarlarida soxta dindorlarning zulm va aldov yo'li bilan dehqonlarning yerlarini tortib olishini, erkin fikrlovchilarni, inson qadrini yerga uruvchi ruhoniylarni fosh etdi. N.Gotornning "Alvon harf" romani tadqiqotchilar fikricha, Amerika romantizm adabiyotining yuksak namunasidir. Romanda puritanlarning kuch-quvvati va quroli – qamoqxona hamda dor (eshafot), sofdil qahramonlarning ishongan quroli – axloq va tabiat ekanligi ramziy obrazlarda beriladi. N.Gotorn "Yetti ustunli koshona" romanida sofdil Moul fermer va uning yerini tortib olgan polkovnik Pinchen sudlashuvini tasvirlaydi. N.Gotorn hikoyachilikda ham Amerika romantizm adabiyotini boyitdi. Uning "Marmar yuzli", "Olmos yurak", "Qor qiz", "Go'zallik shaydosi" (rassom haqida) hikoyalarini zamondoshlari bo'lgan Herman Melvill va Edgar Po yuksak baholadi [1;130-140]

Adabiyotlar tahlili. Amerika romantizm adabiyotining yana bir yorqin vakili H.Melvill "Mobi Dik" ("Oq kit") romanida kitlarga ham, odamlarga ham, o'ziga ham shafqatsiz kema kapitani Axavning bir vaqtlar uning oyog'ini tishlab uzgan oq kitdan qasos olish uchun tinimsiz kurashi, bu ish uchun nayza (garpun) otuvchi ovchilarning jasurligi, kitlarning ovchilarga nafrati tasvirlanadi. Yozuvchi mashaqqatli ov manzaralarini tasvirlash bilan bir vaqtda kit ovlovchi dengizchilarning tabiatini, xarakterini aniq-ravshan chizadi. H.Melvill "Arkantadas" asarida tabiat ajoyibotlarini, hikoyalarida inson ruhiy go'zalligini tasvirlaydi. U "Mobi Dik" romanida kit ovlash jarayonida begunoh kitlarni so'yib, tonnalab yog'ini sotish uchun bochkalarga to'ldirish vaqtida ovchilarning quvonchini ham tasvirlaydi. Roman oxirida Oq Kit o'zi ham o'ladi va ovchilarni ham kemasi bilan cho'ktirib yuboradi. Yozuvchi romanda dengiz mavjudotlarini himoya qilish bilan birga, kambag'al dengizchilarning ishsizlikdan azoblanib yashayotganini ko'rsatadi. H.Melvill novellalarida

hayot, tabiat nafosati tasvirlanadi (“Ayvon” va b.lar).

Amerika romantizm adabiyotining yorqin vakillaridan biri Edgar Po 1809-yilda Bostonda sayyor (ko‘chib yuruvchi) artistlar oilasida tug‘ilgan. Ikki yoshli yetim Edgarni uzoq qarindoshi, boy savdogar Allan boqib oladi. Lekin qonuniy o‘g‘illikka olmaydi. Shu boy qarindoshi yordamida Edgar Virginiya universitetida o‘qiydi. Tabiiy fanlarni tez va yaxshi o‘zlashtirganligi [2;117-120] aniqlandi. Edgar kambag‘alchilikda mashaqqatli hayot kechiradi. U 17 yoshigacha musiqa, rassomlik, dengizda suzish, ot sporti (chavandozlik), shoirlikda shuhrat qozongandi. Ko‘p may ichib, to‘palon qilgani uchunmi, savdogar homiysi Allan undan voz kechganidan so‘ng Edgar moddiy yordamsiz qolib, gazeta, jurnallarga kichik fantastik va hajviy hikoyalar yozib, kambag‘alchilikda, mashaqqatli hayot kechirishi [3;121] ma’lum bo‘ladi.

Amerika romantizmiga, xususan Edgar Po ijodiga Angliya romantizmi shoirlari Bayron, Robert Sauti, Samyuel Kolrij asarlari kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Edgar Po hikoyalari (“Vaqt o‘rog‘i”, “Asherlar xonadoni tugashi”, “Tilla qo‘ng‘iz”, “Morg ko‘chasidagi qotillik”, “Qora mushuk” …) Edgar Po detektiv hikoyalarida har qanday mushkul vaziyatlarda, ustalik bilan yashiringan jinoyatchilarni fosh etuvchi iztopar Dyupen xarakterini qoyilmaqom tasvirlashini rus shoiri va tarjimon Valeriy Bryusov uning asarlariga yozgan so‘zboshida mukammal ko‘rsatgan.

Tahlillar va natijalar. Amerikashunos M.N.Bobrova shu haqda yozadi. U Edgar Po ijodini romantizm ruhidagi she’rlar (“Qarg‘a”, “Annabel Li”, “Tamerlan” va boshqa she’rlar ...) emas, balki detektiv, fantastik, ilmiy gipotezali, xayoliy va sarguzasht hikoyalar, qissalar tashkil etadi. Rus adibi F.M.Dostoyevskiy bu asarlarni maqtashni ham, tanqid qilishni ham bilmay, “g‘alati”, “ajib asarlar” deydi. Uning fikricha, Edgar Po faqat tasavvuri boyligi bilangina emas, balki tasavvuri, xayoloti boshqa yozuvchilarning tasavvuri, xayolotiga o‘xshamasligi bilan farqlanib turadi. U (Edgar Po) qahramonlarini juda kutilmagan, og‘ir sharoitlarga tushgan vaqtida, eng aniq tafsilotlari bilan ko‘rsatadi [4;320-330]. Edgar Po hayoti va ijodi haqida tadqiqot yozgan Xervi Allen adibning ilmiy gipotezalari haqiqatga, hayotga yaqinligini ta’kidlaydi. Edgar Poning bir hikoyasida ixtirochi olim havo sharida Angliyadan Amerikaga uchib o‘tadi. Keyinchalik bu ixtiro amalga oshdi.

Atoqli tadqiqotchi M.Urnov amerikalik shoir va yozuvchi Hervi Allen qalamiga mansub “Edgar Po” biografik romaniga so‘ngso‘zida F.M.Dostoyevskiyning fikrini keltiradi: “Edgar Po” ijodiy uslubiga xos xususiyatlar ajoyibot, fantaziya bilan birga hayotiylik, analiz, aqliy izlanishidir. Shu ma’noda Edgar Po ham romantizm, ham realizm adabiyoti vakilidir” [5;320-330].

Edgar Po ilk she’riy to‘plamlarida Amerika romantizmining mashhur vakillaridan Semyuel Teylor Kolrijning “Xubilayxon” va “Albatros” yoki “Qari dengizchi haqida poema”, “Kristabel” asarlarining ta’siri seziladi. S.Kolrijning o‘z davrida shuhrat qozongan, Bayronga ma’qul kelgan “Kristabel” poemasida sofdil qiz o‘rmonda yig‘lab o‘tirgan Jeraldina ismli go‘zal qizga nisbatan qilingan rahmdilligi tasvirlanadi.

“Qari dengizchi haqida poema”da esa dengizchi yoshligi, beboshligi vaqtida mavjli ummondagi kemani beozor qush kuzatib uchishi, dengizchi albatrosni otib o‘ldirishi, bu jabr-zulmga Xudoning qahri kelib, kemani ummon dolg‘alarida cho‘ktirib yuborishi tasvirlanadi [6;170-175]. Angliya romantizm adabiyoti Amerikada boshqalardan ko‘ra Vashington Irving bilan Edgar Po ijodiga ko‘proq ta’sir ko‘rsatdi.

Edgar Po “Tamerlan va boshqa she’rlar” kitobida (shoir she’rlarini poemalar deydi. (Kolrij, U.Vordsvort, Edgar Po davrida she’rlarni yaxlit syujetli bo‘lsa, poemalar deb atashardi.) Kolrijning “Xubilayxon” poemasiga o‘xshatmoqchi edi, lekin bu she’rlar bir-biriga mutlaqo o‘xshamaydi. S.Kolrij “Xubilayxon” poemasiga o‘zi yozgan izohda bu asarini tushida, uyqusida yozganligini aytadi. S.Kolrij tushida Xubilayxon qurdirgan go‘zal qasrni, bog‘lar va gulzorlarni ko‘radi. Tarixiy shaxs mo‘g‘ul xoni Xubilay bilan Yevropa davlatlari XIII asrda yaxshi aloqa o‘rnatgan bo‘lgani bois Bag‘dod xalifaligi bilan yaqinlashgan Xubilayxon Bag‘dodga hujum qilayotgan Xulaguxonga qarshi kurashayotgan edi. “Xubilayxon” poemasida romantik shoir S.Kolrij grotesk usuli (mubolag‘a, g‘aroyibot) bilan, qudratli mo‘g‘ul xonini baland tog‘lardan shovqin solib, katta toshlarni dumalatib, oqib kelayotgan daryoga o‘xshatadi. Shoir fikricha, bu dunyo tobora pastlikka oqib, ummonga quyilib, ovozi o‘chadi va o‘zi ham yo‘qoladi. [7]

S.Kolrijning “Qarg‘a” nomli kichik poemasida baquvvat dubni (chinorni) bir gala cho‘chqalar o‘tkir tishlari bilan g‘ajib, yiqitishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Qattiq bo‘ron-shamol yiqilgan chinorning shoxlarini har yoqqa tarqatadi. Changda qolgan bir urug‘ o‘sib, katta chinorga aylanadi. O‘tinchi kelib, uni yana kesib, taxta qilib sotadi. Ustalar bu taxtalardan kema yasaydi. Dengizda shamol turib, kema cho‘kadi, odamlar halok bo‘ladi. Qarg‘a kelib, bu qasosga sevinadi [8;90-93].

Angliya romantizmi yetakchilaridan S.Kolrij “Qarg‘a” poemasida bir necha ijtimoiy, axloqiy, falsafiy muammolarni, hayot haqiqatini yuksak badiiyat bilan tasvirlaydi:

1. Go‘zallik, kuch-quvvat timsoli chinorni g‘ajib, kemirib yiqitgan cho‘chqalar sog‘lom hayot dushmanlaridir. 2. Ko‘pchilik mensimaydigan, uzoq yashovchi qarg‘a chinorning yong‘og‘idan va tuproqdan yana o‘stiruvchi hayotparvar qush sanaladi. 3. Qayta o‘sgan chinorni kesuvchi, chinor shoxidagi hali ucholmaydigan qush bolalari, polaponlarining o‘limiga sabab bo‘lib, chinorni sotiladigan yog‘och sifatida ko‘ruvchi, daraxt kesuvchi odam yomonlik timsoli sifatida ko‘rilgan. 4. Chinor yog‘ochlaridan kema yasovchi ustalar dengizda olislarga borishni, boshqa xalqlar bilan savdo-sotiqni ko‘zlar edi. 5. Kemaning cho‘kishi va aybsiz odamlarning halok bo‘lishi, tabiiy ofatlar uzun tishli cho‘chqalar va daraxt kesuvchilar ishi natijasidir. 6. Qarg‘aning cho‘chqalardan va daraxt kesuvchilardan o‘ch olishi shoir fikricha, adolatli deyiladi. 7. Qarg‘aning uzoq yashashi haqidagi bu poemani shoir bolalarga mavlud ertagi (рождественная сказка для детей) deb atagan, u bolalarga ham, katta yoshdagilarga ham yaxshilik va yomonlik haqida saboq berishi ta’kidlangan.

Amerika romantizm adabiyoti vakili Edgar Po esa “Qarg‘a” poemasida bu qushni yaqin orada keladigan falokatdan xabar beruvchi, xosiyatsiz qush sifatida tasvirlaydi. Poema oxirida shoir-muallifning sevgilisi Lenora vafot etgani haqida xabar beriladi. [9;900] Edgar Po Angliya she’riyatini, xususan, S.Kolrijning poemalari va she’rlarini sevib o‘qigani yuqorida aytildi. Bayron ham “Vido” she’rida S.Kolrijning “Kristabel” poemasidan bir parchani epigraf qilib olgan. Valter Skott (Shotlandiyalik) mashhur “So‘nggi menestrel (oqin) qo‘shiqlari” poemasini yozishda Kolrijning she’rlaridan ilhomlangani haqida eslab, uni o‘ziga ustoz deb biladi. Kolrij faqat shoir bo‘lib qolmay, Amerika qit’asida hamma teng va adolatli bo‘lgan yangi jamiyat qurish bilan shug‘ullangan utopiyachi faylasuf, ruhoniy sanalgan [10;210-215]. Ana shunday ma’rifatchilardan biri Uilyam Xezlit “Adabiyot biografiyasi” kitobining 14-bobida shoirlar insonlarga Xudo yaratgan olamning ajoyibotlarini, inson ruhiy olamidagi go‘zalliklarni ko‘rsatib berishini ta’kidlaydi. [11] Bu g‘oya ingliz romantizmining tamal toshi bo‘lib, u ma’lum darajada Amerika romantizm adabiyotining tug‘ilishi va shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi. U.Xezlit shu kitobining “Birinchi marta shoirlar bilan tanishganim” bobida Kolrijning xarakteri, fe’l-atvori, sofdilligi, diniy kitoblardagi rivoyatlarga ishonchi haqida ko‘p ma’lumotlar beradi. U ruhoniy shoir Kolrijning Shrusberi qishlog‘i cherkovida ikki hafta va’z aytib, odamlarni hayratga solganini kabutarlarning uyasiga kirib qolgan burgutga o‘xshatadi.[12;190] “Din va falsafa” (olamning yaralishi va ajoyibotlari haqida falsafa) hozirgi vaqtda zaiflashib ketganligini ta’kidlaydi. Xezlit, – unitarlar cherkovidan bunday va’zlar o‘qilishi ajoyib, romantik hodisa sifatida ko‘rilgan. [13;189]

Xulosalar. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Amerika adabiyotida tabiat va ruhiy olam ajoyibotlarini hayotga yaqinlashtirgan, romantizm va detektiv adabiyotni birlashtirgan yozuvchilardan biri Vashington Irving edi. U Angliya, Gollandiya, Ispaniyadan, Eski dunyodan Amerika qit’asiga, yangi dunyoga ko‘chib kelgan turli toifadagi odamlarning hayotini realistik va fantastik voqealar fonida tasvirlaydi. Yozuvchining ancha katta hajmli “Dolf Xeyliger” novellasida (uni qissa deyish mumkin) romantizm adabiyotiga xos ajoyib-g‘aroyib, sirli voqealar, ularni boshdan kechirgan insonlarning o‘zaro munosabatida ochiladigan xarakterlari, ruhiy holatlari mufassal tasvirlanadi. Asar boshlanishida ona mehri sofdil, mushtipar ayolning otasiz o‘sgan, sho‘x, beboshligi bilan nom chiqargan o‘g‘liga mehri tasvirlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. История американской литературы в 2-х томах. I том. – М.: «Просвещение», 1971. – С. 130–140.
2. Боброва М.Н. «Эдгар По». История амерканской литературы в 2-х томах. I том. – М.: «Просвещение», 1971. – С. 117–120.
3. Урнов М. Послесловие к роману «Эдгар По». – ЖЗЛ, «Моладая гвардия», 1987. – С. 320–330.
4. Кольриж С. Стихи. – Москва: «Наука», 1974. – С. 155–175.
5. По, Эдгар.А. Ворон / изд. подгот. В. И. Чередниченко. – М.: «Наука», 2009. – С. 400.
6. Елистратова А.А. Поэма и лирика Кольриджа. С.Кольридж. Стихи. – Москва: «Наука», 1974. – С. 211–215.
7. Хезлит У. Моё первое знакомство с поэтами. Кольриж С.. Стихи. – Москва: «Наука», 1974. – С. 190.

Sherali TURG‘UNOV,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Turan International University,
Namangan viloyati, Namangan shahri
turgunovsherali549@gmail.com

O‘ZBEK XALQ O‘LANLARI STROFIKASI

Annotatsiya: maqolada o‘zbek xalq o‘lanlari strofikasi – tarkibiy tuzilishi haqida bahs yuritilgan. Xususan, o‘lanlarga xos she’riy shakl, vazn o‘lchovlari, qofiyalanish tartibi va tizimidagi o‘ziga xosliklar haqida so‘z boradi. Bundan tashqari, o‘lanlarning o‘ziga xos shakliy qurilishga ega bo‘lgan birinchi misrasi qolganlaridan bo‘g‘inlar miqdoriga ko‘ra farq qiluvchi, ya’ni 3,4,5 bo‘g‘indan iborat misralilari hamda mazmunan 4-misra savol bilan yakun topib, unga javob bo‘luvchi 5-misrasi ham mavjud bo‘lgan o‘lan namunalari va ularning o‘ziga xos jihatlari xususida ham bahs yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘lan, she’riy misra, she’riy band, qofiya, she’riy shakl, she’riy vazn.*

Аннотация: в статье рассматриваются строфы и структурный строй узбекских народных уланов (песен) В частности, речь идет об особенностях стихотворной формы, метров, порядка рифма системы, характерных для уланов. Кроме того, первая строфа стихотворения, имеющая свое шаткое построение, отличается от остальных по числу слогов, т.е. строфы состоят из 3, 4, 5 слогов, а строфа 4 является вопросительной по содержанию. Заканчивая 5-й строфой, являющейся ответом на нее, также идет речь о примерах улана и их конкретных аспектах.

Ключевые слова: *улан, стих, поэтическая строфа, рифма, поэтическая форма, поэтическая метрика*

Annotation: the article discusses the strophes - structural principle of Uzbek folk songs (ulan). In particular, there is talk about the peculiarities of the poetic form, weights, rhyming order and system specific to folk songs "ulan"s. In addition, there is also a discussion about the examples of folk songs (ulan) and their specific aspects namely the first stanza of the poem, which has its own construction, differs from the rest in terms of the number of syllables, i.e. stanzas consisting of 3, 4, 5 syllables, and stanza 4 is a question in terms of content ending with the 5th stanza, which is a response to it.

Key words: *ulan, poetic verse, poetic stanza, rhyme, poetic form, poetic meter*

O‘zbek xalq o‘lanlari millatimizning nomad qatlami nikoh to‘ylarining verbal komponenti sifatida marosimning ajralmas bir qismi bo‘lgan. Izlanishlarimizdan ma’lum bo‘lishicha, o‘lan aytishuvi to‘y marosimlari tizimidagi eng kulminatsion cho‘qqini belgilovchi tadbir shakli bo‘lgan va alohida tayyorgarlik bilan tashkil etilgan.

O‘zbek xalq o‘lanlarining tarkibiy tuzilishi to‘g‘risida o‘zigacha bo‘lgan ustoz folklorshunoslarning ilmiy qarashlarini davom ettirib, Sh.Imomnazarova quyidagilarni belgilagan edi: “O‘lan janri o‘ziga xos to‘rtlik shakldagi she’r tuzilishiga egadir. To‘rtlik shaklidagi qo‘shiqlarda esa tugal fikr mavjud. To‘rtlik misralardagi iboralar o‘tkirligi va mazmun doirasi kengligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodida qo‘shiqlar to‘rtlik shaklida ifodalanishi juda qadimga borib taqaladi... O‘zbek xalq o‘lanlari sillabik she’riy sistemaga xos bo‘lib, uning ritmi va har bir misralardagi hijolar soni tengligi bilan belgilanadi”[3:22].

Odatda, o‘lanlar o‘n bir hijoli barmoq vaznida yaratiladi. Qofiyalanish tartibi a-a-b-a tarzida bo‘lib, birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi misralar o‘zaro qofiyalanadi. Quyidagi o‘lan namunasida hijolar miqdori an’anaviy tarzda o‘n bitta bo‘lsa-da, qofiyalanish tartibida an’anadan chekinish kuzatiladi, ya’ni a-a, b-b ko‘rinishida masnaviyga xos qofiyalanish ko‘zga tashlanadi.

Pastakkina tokchadan tovoq oldim,
O‘zim tengi qizlardan saboq oldim.
O‘zim tengi qizlarning ustasiman,
Yangi chiqqan baxmalning nusxasiman.[7:19]

Bunday holat ko‘p bo‘lmasa-da, o‘lanlar tarkibida uchrab turadi. O‘lanlardagi bunday shakliy o‘zgachalikning uchrab turishi xususida Muzayyana Alaviya ham qayd etib o‘tgan. buning sababi oddiy: xalq og‘zaki ijod namunasini yaratishda she’r tuzilishi, shakli, qofiya tartibi singari nazariy jihatlarga asoslanmaydi, bu tabiiy. Shuning uchun ham ba’zan muayyan janrning nazariyotchilar tomonidan qo‘yilgan nisbiy chegarasidan chetga chiqish holatlari kuzatiladi.

“O‘lanlarda boshqa qo‘shiqlarda uchramaydigan yana bir o‘ziga xos she’riy shakl mavjud bo‘lib, bunga ko‘ra to‘rtlikning birinchi misrasi to‘rt hijoli so‘z yoki so‘z birikmasidan iborat bo‘ladi:

Muratali,
Sabog‘idan quriydi Sirning toli,
O‘lan aytgan qalamqosh kimning yori,
Savlatidan aylansin qizning bari.

Bunday shakldagi to‘rtliklarda birinchi misradagi

hijolar sonini ohang to‘ldirib, keyingi misralarga qofiyalanib ketadi. O‘lanlarning bu shakli qadimiy shakl bo‘lib, bizgacha juda kam yetib kelgan. Birinchi misrasi to‘rt hijoli bo‘lgan o‘lanlarga hech qachon “yor-yor” so‘zi radif bo‘lmaydi. Bu arxaik to‘rtlik shakli o‘zbek og‘zaki va yozma adabiyotining hech qaysi janrida uchramaydi. Turkiy xalqlardan faqat ozarbayjon adabiyoti chinoslari (tuyuq)dagina shu shakl saqlanib qolgan:

Almadan,
Yanag shirin almadan,
Onadim qul uzunnen,
Xudam ruhum olmadan”[3:21-22].

Qurama tog‘ining M.Alaviya folklor namunalarini to‘plagan shimoliy etaklari Toshkent viloyati hududiga kiradi (janubiy qismi ma’muriy jihatdan Tojikiston Respublikasining So‘g‘d viloyatiga qarashli). Mazkur olimadan ancha yillar keyin bu hududdagi qurama elati vakillari ijro etgan o‘lanlarning kompozitsion tuzilishini o‘rgangan M.Jo‘rayev va Sh.Imomnazarovalar quyidagicha yozishgan: “Ma’lumki, Toshkent viloyatining tog‘li hududlaridagi qishloqlarda istiqomat qiluvchi o‘lanchilar ijro etgan o‘lanlarda birinchi misrasi bir yoki ikki so‘zdan iborat bo‘lgan arxaik o‘lanlarga xos matnlar ko‘p uchraydi. Berdi baxshidan yozib olingan “Alpomish” dostonidagi o‘lan aytishish lavhasi tasvirida ham ana shu an’ananing izlari yaqqol ko‘zga tashlanadi:

To‘ng mayli ekan,
Kiygan to‘n adrasdan o‘nmaydi ekan,
Sog‘inib yig‘laydi bu Yodgor o‘g‘li,
Alpomishga bormasam bo‘lmaydi ekan.

Avval omon,
To‘qayda hay-haylasang chiqar qobon,
Barchinoy, sensirama, seni olaman,
Sinamoqqa qo‘yningga bir boraman.

Boshqa variantlardan farqli ravishda, Berdi baxshi talqinidagi o‘lan matnida “yor-yor” takrori qo‘llanilgan emas. Bu ham Ohangaron o‘lanchiligi an’analarining o‘ziga xosligidan kelib chiqqan usuldir”[5:9].

Kezi kelganida ta’kidlab o‘tish joizki, yuqorida nomi tilga olingan Berdi baxshi Toshkent viloyati o‘lanchilik an’analarining lymonazar oxun darajasidagi iste’dodli davomchilaridan biri bo‘lgan. Folklorshunosligimizda bu mashhur kuychining hayoti va ijodi haqida T.Mirzayevning qisqa ma’lumotidan bo‘lak ilmiy xabar yo‘q. Shu boisdan Ohangaron o‘lanchiligi an’analari bilan bog‘liq ravishda bu masalaga qisqacha to‘xtalib o‘tish zarurati seziladi. T.Mirzayevning ta’kidlashicha, “Berdi baxshi kuylagan “Alpomish” dostonida g‘oyaviy-badiiy jihatdan boshqa variantlardan ajralib turadigan muhim xususiyatlar mavjud. Unda samimiy yumor va komizmga o‘ta moyillik sezilib turadi, baxshi kutilmagan holatlarda ajoyib komik situatsiyalar yaratadi”[4:3-7].

Berdiyor baxshi, lymonzar oxun va boshqa qurama elati vakillari kuylagan o‘lanlardagi bandning birinchi misrasida nuqsonli, ya’ni keyingi uchta misralardagi bo‘g‘inlarining soniga nisbatan kam bo‘lgan so‘zlar qo‘llanishi masalasiga qaytsak. Chunki bu holat boshqa hududlarda kuylangan o‘lanlardan farqli ravishda yuz bergan. Bu usulning qanday badiiy-kompozitsion afzalligi borligi to‘g‘risida M.Jo‘rayev va Sh.Imomnazarovalar bildirishgan mulohazalarni yuqorida keltirib o‘tdik. Ularga qo‘shimcha ravishda Ohangaron o‘lanchilari kuylab kelayotgan o‘lan bandlarini qiyoslab o‘rganish asnosida shu narsa aniqlandiki, o‘lan birinchi misrasining kam bo‘g‘inli bo‘lishi tinglovchi diqqatini jalb etuvchilik, poetik undalma va keyingi misralardagi fikrga ramziy ishora vazifasini ham o‘taydi. Masalan:

Pista-bodom,
Pista-bodom tagiga qo‘ydim qadam.
Oramizdan qil o‘tmas totuv edik,
Asli rohat ko‘rmasin buzgan odam [7:19].

E’tibor bersangiz, to‘rt bo‘g‘inli birinchi misra so‘zlarining ikkinchi misra boshida takror kelishi o‘lan leytmotiviga tinglovchi diqqat-e’tiborini yanada kuchaytirish, sevishganlarning g‘anim tufayli judoligini ta’kidlash vazifasini o‘tamoqda. Pista va bodom daraxtlari odamlardan xoli joylarda, asosan tog‘ning ovloq qo‘ynida o‘sadi. Ilk muhabbatiga erishmagan lirik qahramon oydin kechalarda oshno bo‘lgan bu daraxtlarni yillar o‘tib ko‘rar ekan, ikki ko‘ngil orasiga ayriliq solgan odamga nisbatan nafratini bildiradi.

O‘zbek xalq o‘lanlarining ko‘plab namunalarini sinchiklab tekshirish natijasida birinchi misrasi nuqsonli bandlarda bo‘g‘inlar soni to‘rttadan iborat bo‘lishi qat’iy tartib emasligini aniqladik. Mavjud faktlar shuni ko‘rsatadiki, ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi misralardagi bo‘g‘inlar soni, aytaylik, o‘n bitta bo‘lgani holda, birinchi misra uchtagina bo‘g‘inli so‘zdan tarkib topishi ham mumkin ekan. Misol uchun:

Chang-qo-vuz,= 3
O‘laningni aytaman besh-olti ovuz.
Oxun bo‘lib har to‘yda aytolmadim,
Qizitgani to‘yingni endi aytavuz[7:19].

Bundan tashqari, birinchi misrasi nuqsonli o‘lan bandlarining ba’zan besh bo‘g‘inli ko‘rinishi ham mavjudligi kuzatishlarimiz natijasida ayon bo‘ldi:

Se-ni chi-no-ring,= 5
Selkillaydi bo‘yningda bo‘y tumoring.
Bo‘y tumoring bo‘z otning yo‘rg‘asiday,
Qo‘lim tegmay eriysan qo‘rg‘oshinday.[7:31]

Alohida ta’kidlash joizki, o‘lan bandi birinchi misrasining nuqsonli (kam bo‘g‘inli) ko‘rinishi, asosan, Ohangaron va Pop tumanlarida yashagan qurama elati o‘lanchilarining ijodiga xos va bunday modifikatsiyali o‘lanlarning soni kam emas, har xil tarkibda juda ko‘p. Shu bilan birga Namangan viloyatining Yangiqo‘rg‘on, Chortoq, Kosonsoy, Norin, Chust tumanlaridan yozib olingan namunalar ichida ham birinchi misrasi nuqsonli

bo‘lgan o‘lan namunalari ko‘zga tashlanadi.

Tadqiqotimiz oldiga qo‘yilgan vazifalar bilan bog‘liq holda olib borgan kuzatishlarimiz natijasida o‘zbek xalq o‘lanlarining yana bir muhim kompozitsion xossasi aniqlandi. O‘zbek serurug‘ xalq ekanini, uning chorvador qavmlari tarixan qozoq va qirg‘izlar bilan yondosh holda istiqomat qilib, o‘zaro etnomadaniy ta’sir doirasida bo‘lganligini rad etishning imkoni yo‘q. Bunday ta’sir o‘lan janri motivlari va arxitektonikasida ham o‘zini namoyon etadi. Binobarin, ayrim o‘zbek o‘lanlari mazmuni va tuzilishiga ko‘ra qozoq xalq lirikasidagi қайым-айтыс janrining жумбақ-айтыс shakliga yaqin turadi. “O‘lan aytsang, beri kel, aynamov” to‘plami sahifalarida bunday tipdagi milliy o‘lanlarni ko‘plab uchratish mumkin. Masalan:

U bitgandan ko‘zingga go‘yo bitgan,
Bizni aytib yursin, deb o‘lan bitgan.
Oxun bo‘lsang otingga solay yemin,
Ot jonivor yeyishiga nima bitgan?
[Bo‘yniga xaltasin solib arpa bitgan].[7:72]

Mazkur bandning to‘rtinchi va beshinchi misralari savol va javob mazmunini qamrab olgan. Ketma-ket bandlarda “Bizni aytib yursin, deb o‘lan bitgan. Oxun bo‘lsang yodingga solay tayin”, – deya takrorlanib keluvchi ikkinchi va uchinchi misralar esa harbadoshga murojaat, u unutgan narsa-hodisa mohiyatini ochiqlash pafosiga ega.

Qozoq xalq lirikasidagi жумбақ-айтыслар biz o‘rganayotgan besh misrali o‘zbek o‘lanlariga g‘oyaviy-badiiy xususiyatiga ko‘ra, ya’ni vazifadorligi jihatidan o‘xshash bo‘lsa-da, shakliy jihatdan bandlardagi misralar soniga ko‘ra farqlanadi:

“Жiигiтiң жумбағы:
Тағы да отырмын мен жумбақ ойлап,
Дулдулді сахараға қойдым байлап.
Басында булбул отыр уйдің сайрап,
Бір гаҳар қойнында турар жайнап.
Дарияның жағасында қурағы бар,
Жел тисе жанып кетер өрттай қаулап.
Агар білгіш болсаң да бір сасарсың,
Тауып бер жумбағымның бәрін ойлап.
Қыздың шешуі:
Болғанда – ақыл дария, кеудең – дулдул,
Басыңда сайрап турған тілің булбул.
Қойныңнан шыққан гаҳар – екі көзің,
Соққан жел дауылдатып айтқан сөзің,
Дарияның жанып кеткен қурақтары,
Адамның қатты шыққан – ашуы дур
Бәрі де адамзаттың денесі екен,
Таптым ба, жумбағыңды, енді білдір.[2]

O‘lanlarning poetik tuzilishini millatlararo taqqoslash jarayonida muayyan etnospetsifik xususiyatlar ayonlashmoqda. Ulardan birinchisi shundan iboratki, o‘zbek xalq o‘lanida harbadoshiga savol beruvchi chechan yashirin kontent sirini ham o‘zi oshkora qiladi:

1. Mol jonivor yeyishi poya bitgan.
[O‘sha uchun dumlari xoda bitgan].
2. Qo‘y jonivor yeyishi yantoq bitgan,
[O‘shaning chun quyrug‘i yalpoq bitgan].[7:72]

Qozoq folkloridagi жумбақ-айтыслар ham dialogik xarakterga ega. Biroq unda yigit bilan qiz do‘mbira jo‘rligidagi musiqa hamohangligida savol berishadi. Javob esa aytishayotgan raqib tomonidan musiqiy ijro bilan topilishi shart. Topqirlik va so‘zni san’atkorona qo‘llash va kuylash musobaqasi shu tarzda navbatma-navbat davom etadi.

Maqolada bildirilgan mulohazalarimizni quyidagicha umumlashtirish mumkin deb o‘ylaymiz:

1. O‘zbek xalq o‘lanlarining ayrim namunalari strofikasida bo‘g‘inlar miqdoriga ko‘ra kalta birinchi misraning uch bo‘g‘indan iborat bo‘lishi haqida folklorshunosligimizda bildirilgan xulosa barqaror bo‘lmay, to‘rt va besh bo‘g‘inli birinchi misralar ham mavjuddir;

2. O‘zbek xalq o‘lanlari metrikasida mazmunan qozoq folkloridagi jumbaq-aytis janriga muvofiq keluvchi besh misrali band tuzilishi ko‘zga tashlanadi;

3. Hayotsevar janr bo‘lgan o‘lanning xalqimiz madaniy taraqqiyotida butunlay yo‘q bo‘lib ketmasligi yoki turli zamonlardagi aktiv yoki passiv o‘rni jamiyatda sodir bo‘lib o‘tgan ijtimoiy o‘zgarishlar bilan shartlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асқаров М. Бердиёр бахши Пиримқул ўғлини биласизми? – “Олмалиқ ҳақиқати” газ., 1991, 28-октябрь сони (№ 46).
2. Жiигiт пен қыздың жумбақ айтысы. // bilim-all.kz/olen/1461
3. Имомназарова Ш. Ўлан жанри поэтикаси (ўзига хос хусусиятлари, генезиси ва бадийяти). ¬– Тошкент: Firdavs-shoh. 2021. 22-бет.
4. Мирзаев Т. Берди бахши (Бердиёр Пиримқул ўғли). // Алпомиш. Айтувчи: Берди бахши. Ёзиб олувчи: Абдулла Алавий. Нашрга тайёрловчи: Тўра Мирзаев. Тошкент. “Фан” нашриёти. 1969. 3–7-бетлар
5. Қаршибоева М. Бердиёр бахши – Наврўз куйчиси. Фан ва инновация. 2022. 177–179-бетлар.
6. Ўлан айтсанг, бери кел, айнамов. Ўланлар. (нашрга тайёрловчилар: Жўраев М., Имомназарова Ш.) –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2020.¬¬ 19-бет.

Ilxom XOLMO‘MINOV,
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
“Xorijiy filologiya” kafedrasi mudiri,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(Ph),(ORCID: 0000-0002-2904-7879)

MUSTAQILLIK DAVRI VA FOLKLOR TARJIMASHUNOSLIGI

Annotatsiya: mazkur maqolada folklor asarlari tarjimasining o‘ziga xos xususiyatlari, dunyo xalqlarining madaniy aloqalarini kengaytirish, o‘zaro bir-birlarining badiiy, madaniy va ilmiy yutuqlarini o‘rganish, o‘zlashtirish va yuqori bosqichlarga olib chiqishda tarjimaning xizmati mohiyati, mazmun-mundarijasi atroflicha yoritildi. Maqolada yuqoridagi fikrlarga muayyan xulosalar berildi.

Kalit so‘zlar: *folklor asarlari, dunyo xalqlari, badiiy, madaniy va ilmiy, folklor asari tili, uning xususiyatlari, lirik, epik, dramatik turga xos janrlar.*

Аннотация: в данной статье подробно освещены особенности перевода фольклорных произведений, сущность и содержание роли перевода в расширении культурных связей народов мира, изучении, освоении и выведении на более высокий уровень художественных, культурных и научных достижений друг друга. В статье представлены определенные выводы по вышеизложенным мнениям.

Ключевые слова: *произведения фольклора, народы мира, художественные, культурные и научные, язык фольклорного произведения, его особенности, жанры, характерные для лирического, эпического, драматического типов.*

Annotation: this article comprehensively covers the specific features of the translation of folklore works, the essence and content of the service of translation in expanding cultural relations between the peoples of the world, studying, mastering and bringing each other's artistic, cultural and scientific achievements to higher levels. The article provides certain conclusions to the above points.

Keywords: *folklore works, folks, artistic, cultural and scientific, language of folklore works and its characteristics, lyrical, epic, dramatic genres*

O‘zbek tarjimashunosligi asoschilaridan biri professor G‘aybulla Salomov tarjimaga shunday ta’rif beradi: “Tarjima – xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy aloqalarning kengayishiga xizmat qiladi. Tarjima – milliy adabiyotlarning o‘zaro aloqasi va bir-biriga ta’sir jarayonini tezlashtiradi, milliy adabiyotlarda mushtarak mavzular, umuminsoniy g‘oyalar, rang-barang adabiy-estetik didning shakllanishiga muhit yaratadi. Tarjima – milliy tillarning rivojlanish sur’atini tezlashtiradi, tillarning lug‘at boyligini yanada oshiradi, yangi-yangi grammatik vositalarni yaratadi”.

Folklor asarlari keng qamrovli bo‘lib, o‘z ichiga lirik, epik, dramatik turga xos janrlarni o‘zida mujassam etadi. Bu esa o‘z navbatida, ularni tarjima qilish jarayonida o‘ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi. Jahon tarjimashunosligi tarixida folklor asarlar tarjimasini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, mutarjimlar asar mazmunini butunligicha saqlab qolishga intilib, ko‘p hollarda asar shaklini saqlashdan voz kechishgan. Masalan, fransuz tarjima amaliyotining ilk bosqichlarida tarjimonlar she’riy shakldagi asarlarni asliyatdagidek shaklda o‘girish imkonsiz deb, barcha tarjima ishlarini nasrda olib borganlar. Fikrimizcha, asliyat mazmunini saqlab qolishga qaratilgan bu usul esa asarning ruhiyati va emotsional maqsadiga jiddiy putur yetkazib, retseptorga asarning haqiqiy ruhini yetkazib bera olmagan. Tarjimashunos olim Sultonmurod Olimov aytganidek, “Fikr o‘z qolipi bilan fikrdir. Qolip o‘zgarishi bilan, fikrda ham ozmi, ko‘pmi o‘zgarish yuz berishi tabiiy”. Bunday tarjimalar asliyat tilining xususiyatlarini, ularning milliy mentalitetini to‘liq ochib bera olmagach, bu usuldagi tarjimadan voz kechib, asliyat tilining belgilarini ko‘rsatib berishga harakat qilganlar.

XX asr boshida tarjimonlar, asosan, lingvistik aniqlikka e’tibor qaratib, asliyat tilidagi frazeologizmlarni tarjima tili vositalari orqali yetkazishga erisha boshlaganlar. Folklor namunalarini tarjima qilish tamoyillari L.A.Pisareva, A.S.Mirbadaleva, I.Y.Retsker, V.Stanevich, N.V.Kidaysh-Pokrovskaya kabi sovet tarjimon va tarjimashunos olimlari tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur olimlar o‘z ilmiy tadqiqotlarini folklor asarlar matnida uchraydigan stilistik vositalar, leksik birliklar va iboralar tarjimasida adekvatlikka erishish muammolari va ularni bartaraf etishning nazariy jihatlariga bag‘ishlaganlar. A.S.Mirbadaleva o‘zining doktorlik dissertatsiyasida qirg‘iz epik dostoni “Manas” tarjimasiga bag‘ishlangan bobida folklor asarni rus tiliga tarjima qilishning nazariy va amaliy jihatlariga to‘xtalgan. U folklor asarlarni tarjima qilishda qo‘yiladigan asosiy talablarni ko‘rsatib o‘tadi va xalq og‘zaki ijodiyoti namunalarining badiiy

tasvir vositalarini tarjima tiliga o‘girish uslublariga aniqliklar kiritadi.

Jahon tarjimashunosligida I.Graam, E.Nayda, J.Myunday, S.Basnet, M.Beyker, P.Nyumark, R.Bell, J.Ketford, V.Kevin kabi tarjimashunos olimlar tarjima qonuniyatlari, tarjima turlari, tarjimada adekvatlik va ekvivalentlik nazariyalarini, tarjimaning uslublarini o‘z tadqiqot ishi, risola va qo‘llanmalarida keng yoritib berganlar.

Bu sohada bir qator rus tarjimashunos olimlari ham ilmiy izlanishlar olib borganliklarini ta’kidlab o‘tish joiz. Jumladan, V.V.Vinogradov, L.S.Barxudarov, V.N.Komissarov, P.I.Kopanev, S.I.Vlaxov, S.Florin, A.V.Fyodrov, A.D.Shveyser, N.Gabrovskiy, Yu.Ilyushkina, Ya.I.Retsker va boshqalar tarjima sohasida leksik, frazeologik, grammatik hamda stilistik vositalarni tarjima qilishga oid bir qancha muammolarning yechimi borasida fundamental tadqiqotlar olib borganlar.

Ma’lumki, turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar og‘zaki ijodi boy madaniy merosga ega. Baxshilar tomonidan kuylab kelingan og‘zaki dostonchilik maktablari hali hanuz rivojlanib bormoqda. O‘zbek baxshilari “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarini sevib kuylab kelsalar, qozoqlar “Qo‘lbandi botir”, qirg‘izlar “Manas” dostonlarini keyingi avlodlarga bus-butun yetkazishga harakat qilib kelmoqdalar. Bir xalqning ming yillar davomida og‘izdan og‘izga o‘tib, sayqallanib kelgan og‘zaki ijod namunalarini dunyoga tanitish, xorijlik o‘quvchilar orasida ham sevib mutolaa qilinishiga erishish uchun, albatta, tarjimaning o‘rni va sifati muhim ahamiyat kasb etadi. Qanchalik ko‘p folklor namunalariga ega bo‘lmaylik, asliyat tilida xalq dostonlarimizni o‘qib bahramand bo‘luvchi xorijlik o‘quvchilar soni juda kamchilikni tashkil etadi. Zero, turli madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ilmiy, adabiy aloqalarning bosh vositachisi bu, albatta, tarjimadir.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng bu jarayon yanada tezlashib bormoqda. Ammo shuni ham unutmaslik kerakki, folklor asarlarni, xususan, doston janri matnlarini xorijiy tillarga o‘girish mutarjimlar uchun o‘ta murakkab va og‘ir jarayondir. Shu tufayli ularni tarjima qilish jarayoni mutarjimlardan bir nechta muammolarga yechim topish zaruratini talab etadi. Bu muammolarni bartaraf etishning ilmiy-nazariy tamoyillari ishlab chiqilishi o‘zbek tarjimashunos olimlarining bugungi kundagi eng dolzarb vazifalari hisoblanadi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini, ayniqsa, doston janridagi asarlarni tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy tadqiq etish ishlari kam ekanligi e’tiborimizni tortadi. Buni xalq og‘zaki ijodi namunalarini chet tillariga tarjima qilish ishlari sust olib borilayotgani bilan izohlash mumkin. Ammo bu mavzuda ilmiy tadqiqotlar olib borishda ilk qadamlar tashlangan, desak xato bo‘lmaydi. Jumladan, I.Dilmanov, Z.Jumaniyozov, R.Kasimova, M.Abduvahobova, O.Fayzulloyev, Y.Nasriddinova, A.Saparovlarning ilmiy tadqiqotlarini sanab o‘tish mumkin.

Z.Jumaniyozov o‘z dissertatsiyasida “Ravshan” dostonining Karl Rayxl tomonidan nemis tiliga tarjimasini qiyosiy tahlilga tortgan. Ushbu tadqiqot ishida tarjimada milliylikni saqlab qolish, maqol va frazeologik birliklar mazmunini tarjimada qayta tiklash, saj uslubining tarjimada aks etishi masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. I.Dilmanovning qardosh tillardan epos tarjimasi mavzusidagi ilmiy izlanishlarida “Masposhsho” va “Shahriyor” dostonlarining qoraqalpoq tilidan o‘zbek tiliga tarjimasi muammolari tahlil qilingan. R.Kasimova izlanishlarida to‘y va marosim folklorining inglizcha tarjimalarida milliylikni saqlash muammolari, etnografizmlarning tarjimada berilishi usullari yuzasidan tadqiqot olib borgan. O.Fayzulloyev bolalar folklori va ertaklarida uchraydigan lingvokulturemalarning tarjimalarida tarjimonlar qo‘llagan metodlar hamda ularning adekvat tarjimaga erishish darajalarini tahlil qilgan. Y.Nasriddinova o‘z tadqiqot ishining 2-bobini fransuz folklorshunos olimi va tarjimoni Remi Dorning “Nurali” dostoni tarjimasining tahliliga bag‘ishlagan.

Tarjima sohasining ijodiy ish ekanligini o‘zbek tarjimashunosligi maktabi asoschisi G‘.Salomov quyidagi fikrlari bilan dalillaydi: “Birinchisi – tarjimaning til sohasidagi ijod ekanligi. Ikkinchi dalil: agar bir asarni o‘n kishi o‘girsa, ularning tarjimalari bir xil qolipdan chiqqanday, bir-biriga aynan o‘xshab qolmaydi, balki jiddiy farq qiladi. Uchinchi dalil shuki, ayni bir asarni o‘girganda hosil bo‘lgan bir qancha tarjimalar ijodkorlar mansub bo‘lgan maktab, adabiy an’analar, o‘girilayotgan asliyatning tabiati, tur xususiyatlari taqozosi bilan ham bir-biridan yaqqol ajralib turadi”. She’riy tarjimada muvaffaqiyatli tarjimon bo‘lish uchun esa tarjimon haqiqiy shoir darajasida qobiliyatga ega bo‘lmog‘i darkor. Taniqli olim V.Jukovskiy aytganidek, “She’riyatda tarjimon – muallifga raqibdir”. She’riy tarjima namunalaridan shuni ko‘rish mumkinki, asliyat shoiri ijod mahsulini tarjima tilida shunchalar yuksak did bilan tarjima qilinganidan asliyatdan ko‘ra tarjima varianti yaxshiroq bo‘lib chiqishi mumkin. Bunday e’tirofga sazovor bo‘lish uchun esa tarjimon shoirning fitratida iste’dod jo‘sh urib turishi kerak. “Epik dostonlar shakl jihatidan she’riy dostonlardir. Ularning tarjimasiga bel bog‘lash mutarjimlar uchun o‘ta mas’uliyatli, murakkab, ijodiy jarayon. O‘zbek baxshilari tomonidan ijro etib kelinayotgan, ming yillar davomida og‘izdan og‘izga

o‘tib kelgan xalq qahramonlari haqidagi dostonlar hajman yirik asarlar hisoblanadi. Bular ichida o‘zbek folklori namunalarining gultoji shubhasiz “Alpomish” dostonidir”.

Xorijiy auditoriyada ham xalq qahramonlik dostonlarimiz o‘z muxlislarini topishi uchun keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu kabi milliy folklor asarlarimizni xorijiy davlatlarda ham tanilishi uchun o‘zbek tarjimashunos olimlari, mutarjimlari ilk qadamlarini tashlamoqda. Shunday iste’dodli tarjimonlarimizdan biri Qosimboy Ma’murov “Alpomish” dostonini ingliz tiliga tarjima qilib, 2019-yilda Termiz shahrida o‘tkazilgan xalqaro baxshichilik festivalida taqdim etdi. Tarjimon Q.Ma’murovning o‘zbek tilidan ingliz tiliga amalga oshirilgan “Alpomish” dostoni tarjimasi xalq dostonlari tarjimasi yo‘lida amalga oshirilgan ilk urinishlardan biri, desak, xato bo‘lmaydi.

Folklor insoniyat yaratilib, muloqotga kirishgan ilk davrdan buyon asrlar davomida xalq va millat bilan birga yashab, birga rivojlanib kelgan. Badiiy adabiyot paydo bo‘lishidan avval folklor shakllangan. U har bir xalq og‘zaki ijodining rivojlanishiga xizmat qilib, o‘zining hayotiy, turmushbop, xalqchil, g‘oyaviy va tarbiyaviy ahamiyati bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. Folklor janrlari orasida doston janri o‘z tarkibiga boshqa janrlar xususiyatlarini ham singdirgan, murakkab janr bo‘lganligi uchun doston sinkretik janr hisoblanadi. O‘zbek xalq dostonlari qahramonlik, jangnoma, tarixiy, romanik va kitobiy kabi besh turga ajratiladi. “Alpomish” dostoni esa qahramonlik dostonlari sikliga mansubdir.

Mustaqillik davriga kelib o‘zbek xalq dostonlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilindi. Jumladan, dostonda qo‘llanilgan antroponimlarning semantik-uslubiy xususiyatlari va ularning lug‘aviy tizimdagi o‘rni (I.Xudoynazarov), stilistik formulalarning fonetik-stilistik, leksik-semantik, morfologik-stilistik, sintaktik-stilistik xususiyatlarini (Sh.Mahmadiyev), xalq dostonlari leksikasining umumlisoniy sistemada o‘rganish, dostonlarning an’anaviy lingvofolkloristik qonuniyatlari (A.Rahimov), stilistik vositalar, dostonlarning badiiy-estetik va lisoniy-poetik xususiyatlari (G.Jumaniyozova), dostonlarning tarixiy-genetik omillari, ijtimoiy-siyosiy leksemalarining uslubiy, funksional, kommunikativ va konnotativ xususiyatlari, zoonimik va ornitonimik leksik birliklarning funksional-semantik xususiyatlari (I.Umarov), so‘zlarning semantik qurilishidagi o‘zgarishlar, individual neologizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari (M.Qurbonova) bo‘yicha maxsus tadqiqotlar olib borildi. XX asrning qator tarjimashunos olimlari tarjima qonuniyatlari, tarjima turlari, tarjimada adekvatlik va ekvivalentlik nazariyalarini ishlab chiqdilar va tarjimaning uslublarini o‘z tadqiqot ishlari, risola va qo‘llanmalarida keng yoritib berganlar. Shuningdek, tarjima sohasida leksik, frazeologik, grammatik muammolar, tarjima birliklari, stilistik vositalarni tarjima qilishga oid bir qancha muammolarning yechimi borasida keng ilmiy tadqiqotlar olib bordilar. Xalq og‘zaki ijodi namunalarini tarjima qilishda tarjimonlarga mushkullik tug‘diradigan asosan, uch omilni sanash mumkin: a) turli til oilalari o‘rtasidagi grammatik va sintaktik farqlar; b) xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi arxaik so‘zlar, frazeologik birliklar va stilistik vositalar tarjimasi bilan bog‘liq muammolar; d) she’riy matnlarning ritmik, qofiya va ohangdoshlik qurilishini tarjimada qayta yaratish masalalari.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Таржима назариясига кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1982. 236- бет.
2. Пулатов Ю. Бадиий асарда номлар таржимаси. – Тошкент: Фан, 1967. 68 -бет.
3. Очилов Э. Таржима назарияси ва амалиёти. – Тошкент, 2012. 200-бет.
4. Раҳимов Ғ. Таржима назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2016.176-бет.
5. Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Бадиий таржима асослари. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. 164-бет.
6. Ashurova, G. (2020). Artistic Interpretation of Alisher Navoi’s Image in Uzbek Literature of the Independence Period. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(04).
7. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Фан, 2005. 352-бет.
8. Бақоева М. Инглиз ва Америка адабиётидан ўзбек тилига шеърий таржима ва қиёсий шеършунослик муаммолари. – Т.: Фан, 2015. 288-бет.
9. Жўраев К., Жўраев Э. ва бошқалар. Таржима назарияси ва амалиёти. – Андижон, 2008. 116-бет.

Manzura SHAMSIYEVA,
ToshDO‘TAU dotsenti v.b., (PhD)

BADIIY MATNDA MUALLIF LISONIYATI

Annotatsiya: til ongi inson olam manzarasining asosiy shakllanishi sifatida til, psixik faoliyat va fikrning amaliy mujassamligi o‘rtasidagi bog‘liqlik orqali shakllanadi. Til ongining namoyon bo‘lishi jamiyat madaniy bilimlarining majmui bo‘lib, u yoki bu darajada uning a’zolarining idrok etish va faoliyat darajasini belgilaydi. Olimlarning ta’kidlashicha, “til ongi” atamasi biroz tavtologik bo‘lib tuyuladi, chunki inson ongi uning dunyoni anglashi, til esa ushbu anglashni tushunish vositasidir; biri ikkinchisisiz mavjud bo‘lmaydi, til va ong tushunchalari ilmiy yoritishda paydo bo‘lgan yagona ijtimoiy-tarixiy fenomendan ilmiy mavhumlik bilan ifodalanadi. Badiiy asarlarda til ongi tushunchasini muallif lisoniyati tarzida qabul qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Maqolada shaxs lisoniyati tushunchasi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *muallif lisoniyati, tabiat tavsifi, antropologizatsiya, kognitiv, pragmatik, mental olam.*

Аннотация: языковое сознание как основное формирование картины мира человека формируется через связь между языком, психической деятельностью и практическим воплощением мысли. Проявление языкового сознания – это совокупность культурных знаний общества, которая в той или иной мере определяет уровень восприятия и деятельности его членов. Ученые говорят, что термин “языковое сознание” кажется несколько тавтологичным, поскольку человеческое сознание является его пониманием мира, а язык – средством этого понимания; одно не может существовать без другого, понятия языка и сознания представлены научной абстракцией от единственного социально-исторического явления, возникшего в научном освещении. В художественных произведениях уместно будет принять понятие языкового сознания в качестве авторского языкознания. В статье рассматривается понятие языковой личности.

Ключевые слова: *авторское языковое сознание, описание природы, антропологизация, когнитивный, прагматический, ментальный мир.*

Annotation: linguistic consciousness as the main formation of the human worldview is formed through the connection between language, mental activity and the practical embodiment of thought. The manifestation of linguistic consciousness is a set of cultural knowledge of a society, which in one way or another determines the level of perception and activity of its members. Scientists say that the term “linguistic consciousness” seems somewhat tautological, since human consciousness is its understanding of the world, and language is the means of this understanding; one cannot exist without the other, the concepts of language and consciousness are represented by a scientific abstraction from the only socio-historical phenomenon that has arisen in scientific coverage. In works of fiction, it would be appropriate to adopt the concept of linguistic consciousness in the manner of the author's linguistics. The article discusses the concept of a linguistic personality.

Key words: *author’s linguistic consciousness, description of nature, anthropologization, cognitive, pragmatic, mental world.*

Tadqiqotchilar tilda ikki xil ma’no sohalari mavjud, degan xulosaga kelishdi: 1) og‘zaki belgilarni shakllantirishning birlamchi, aslida semiologik usuli sohasi, bu ona tilida so‘zlashuvchilarning obyektiv voqelik va subyektiv tajribasining takrorlanuvchi tasavvurlarini nomlaydi; 2) ikkinchi darajali ma’no sohasi, “to‘liq belgilar” sifatida ifodalar yaratish [1]. Bir qator olimlar “tilga inson omili”, antropologik tilshunoslikka olam manzarasi tushunchasini kiritishning o‘rnini ta’kidlaydi. Birlamchi antropologizatsiya fenomeni – insonning psixofiziologik va boshqa turdagi xususiyatlarining tildagi konstuitiv xususiyatlarga ta’siridir; ikkilamchi antropologizatsiya fenomeni – diniy-mifologik, falsafiy, ilmiy, badiiy. N.A.Shergengning quyidagi fikrlari e’tiborga molik: “Til – bu inson ruhiyati, kuch-qudratining uzluksiz ijodi bo‘lib, fikrlar u tufayli tug‘iladi” [2]. Shuning uchun tabiatning badiiy tavsiflari inson shaxsiyati, psixologiyasi va xulq-atvorining turli jihatlari bilan to‘yinadi.

Antropomorfizm til va nutq hodisasi sifatida asosan, tabiat hodisalari – o‘zining qadimiyligi, odamlar uchun “tanish” bo‘lganiga qaramay, bashorat qilib bo‘lmaslik, o‘rganilmaganlik, idrok qilib bo‘lmaslik xos bo‘lgan unsur bo‘lib qoladi. Shuning uchun, “tosh, yomg‘ir, hayvon, daraxt obyekt sifatida tashqi olamning turli kategoriyalariga kiritiladi va u haqida ishonch bilan bu aka – quyosh yoki singil – oy deb ayta olmaymiz... Har bir narsaga ikkita nom berish maqbul: biri ichki, ikkinchisi tashqi obyektivligi jihatidan” [3].

Tilshunoslikda insonning olam haqidagi tasavvurlarini o‘rganish asosida olam manzarasi tushunchasi shakllanadi. Bularning barchasi lingvistik shaklda, olamning lisoniy manzarasini aks ettiruvchi turli xil konsepsiyalarda aks etadi va qayd etiladi. Inson ongida aks etgan olam manzarasi obyektiv dunyoning ikkilamchi mavjudligi bo‘lib, u o‘ziga

xos moddiy shaklda mustahkamlangan va amalga oshirilgan. G.V. Kolshanskiy fikriga ko‘ra, aynan shu moddiy shakl individual inson ongini faqat dunyoning alohida birligi sifatida obyektivlashtirish funksiyasini bajaradigan tildir [4]. Shunday qilib, inson o‘zini dunyoga o‘z qonunlari va qonuniyatlari bilan emas, balki faqat “inson – olam”ning maxsus o‘zaro ta’sirini olib kiradi, buning natijasida butun insoniyatga tegishli va “til – tafakkur” shaklida mavjud bo‘lgan dunyoning insoniy manzarasi tug‘iladi. “Fikrlash jarayoni turli xil tasavvurlar va tushunchalar o‘rtasida yangi aloqalarni shakllantirishdan iborat bo‘lib, u doimiy “oquvchanligi” bilan ajralib turadi”.

Olamning lisoniy manzarasi – bu inson o‘z ongi va tasavvurida dunyoni aks ettirishi, qanday chizishidir. Sh. Balli har qanday ifodada faktik mazmun (diktum) va individual baho (modus) o‘rtasidagi qarama-qarshilik amalga oshiriladi, deb hisoblagan va modusni diktumda mavjud bo‘lgan, so‘zlovchi subyekt tomonidan amalga oshiriladigan faol aqliy operatsiya deb ta’riflagan [5].

Badiiy asarlarda tabiatni tasvirlash har doim muallifning shaxsiyati, uning tasavvurlari va kechinmalari orqali amalga oshiriladi. Y.N. Karaulov shaxs lisoniyatining yagona nazariyasini yaratdi, u shaxs lisoniyati tushunchasini to‘liq ochib beradi va uni “biror-bir tilning har qanday tashuvchisi” deb ta’riflaydi. Shaxs lisoniyati bu tilda (matnlarda) va til orqali ifodalanadigan shaxs bo‘lib, asosan til vositalari bazasida tiklangan shaxsdir... Shaxs lisoniyati – umuman shaxsiyat tushunchasining qo‘shimcha mazmuni bilan chuqurlashishi, rivojlanishi, to‘yinishidir” [6]. Y.N. Karaulovning fikricha, shaxs lisoniyati kundalik tilning boshqa tomonida, intellektual kuchlar paydo bo‘lganda boshlanadi va uni o‘rganishning birinchi darajasi (noldan keyin) uning olam manzarasidagi ma’nolar va qadriyatlar iyerarxiyasini aniqlash, o‘rnatishdir. Tilshunoslikda shaxs lisoniyatining korrelyati sifatida ma’lum bir shaxsning qadriyatlari iyerarxiyasini aks ettiruvchi va individual kogniotipning bir qismi bo‘lgan olam manzarasida shakllanadigan tushunchalar, g‘oyalar, konseptlarda muallif lisoniyati ko‘rib chiqiladi.

“Shaxs lisoniyati” terminini birinchi bo‘lib 1930-yilda V.V. Vinogradov “Badiiy nasr tili haqida” kitobida qo‘llagan. Tadqiqotchining yozishicha, “qadimiy asarlar nafaqat jamoaviy til ijodining asarlaridan biri, balki tasavvurlar va hissiyotlarning yopiq doirasini estetik jihatdan to‘g‘ri ifodalash uchun o‘z davrining til vositalarini individual tanlash va ijodiy o‘zgartirish ko‘zgusidir. V.V. Vinogradovning so‘zlariga ko‘ra, o‘zini ijodda aks ettiradigan shaxs lisoniyati strukturasiga quyidagilar kiradi:

1) tabiiy tilning tuzilishi (“tilning tashqi grammatik shakllari”);

2) lingvistik jamoaviy amaliyot (“jamoaviy subyektlarning shakllari”);

3) olamning individual manzarasi (“og‘zaki fikrlash xususiyatlari”) [7].

Y.N. Karaulov shaxs lisoniyati strukturasiga uchta darajani kiritdi:

1) og‘zaki-semantik, tavsifda ma’lum ma’nolarni ifodalashning shakliy vositalarini amalga oshirish (ya’ni tilning leksik, grammatik va hokazo qurilishlarini tavsiflash);

2) kognitiv, unda birliklar har bir shaxs lisoniyati “olam manzarasi”da shakllanadigan tushunchalar, tasavvurlar, konseptlar bo‘lib, ular shaxs qadriyatlari iyerarxiyasini aks ettiradi (freym, frazeologik birliklar, aforizmlar, metaforalar va boshqalar);

3) pragmatik, maqsadlar, motivlar, qiziqishlar, argumentatsiya usullari, baholash va boshqalarni o‘rganadi. Shaxs lisoniyatini tahlil qilishda ushbu daraja uning nutq faoliyatini baholashdan dunyodagi haqiqiy faoliyatni tushunishga tabiiy o‘tishni ta’minlaydi [8].

Darhaqiqat, bugungi bo'lajak o'qituvchi zamon talablariga mos tarzda ta'lim berish, yoshlardan bir qadam oldinda yurishi kerak. Yoshlarimiz shunchalar talabchanki, ular kompyuter, telefon va internet sohasini tez o'zlashtiradi. Shuning uchun bu yoshlarga yangicha ta'lim berish usul va metodlarni qo'llash, yangi texnologiyalarni ta'limga olib kirib zamonaviy tarzda dars berish ularning kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari talabalarning bilim, ko'nikma qobiliyatlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishni ta'minlaydigan ma'lumotlar bilan boyitish zarur. Bu uchun bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish ta'lim sifatini oshirishga olib keladi. Albatta, bu esa mazkur jarayonning asosiy tashkilotchisi – bo'lajak pedagoglarni tayyorlash sifatiga bog'liqdir.

Mamlakatimizda inklyuziv ta'lim tizimini innovatsion texnologiyalar asosida modernizatsiyalash orqali oliy ta'lim muassasalarida rivojlangan mamlakatlar standartlari talablariga javob beradigan, faoliyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantiradigan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga e'tibor qaratilgan o'qitish jarayonini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda dunyoda fan va ta'limga kompetentli yondashuv asosida bo'lajak bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, oliy ta'limning sifatini yaxshilash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida

tavsiflangan. Zamonaviy kasbiy ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan inklyuziv ta'lim tizimini amaliyotga keng tatbiq etish asosida bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda kasbiy kompetentligini rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimida faoliyat yuritishga tayyor bo'lgan bo'lajak o'qituvchining asosiy vazifasi ta'lim jarayonlarini innovatsion texnologiyalar asosida individuallashtirish, inklyuziv ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning umumiy o'rta ta'lim olishida va ularni bilish imkoniyatlariga muvofiq tarbiyalashda, ularning jamiyatga moslashuvi va integratsiyalashuvida ko'maklashish, o'quv-tarbiya, davolash-sog'lomlashtish, boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim sifatini oshirish, nazorat qilish, boshqarish, shuningdek, uning ruhiy olamiga professional yondashib, o'zaro ishonch hissini uyg'otish va tug'ilgan muammolarni zudlik bilan bartaraf etish talab etiladi.

Umumta'lim maktablarining barchasida inklyuziv o'qitish shart-sharoitlarini yaratish mumkin. Alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan yoshlar atrofidagi tarbiyaviy muhit hamma vaqt ham yaxshi, mo'tadil bo'lishi bilan birga, bola ongiga jamoada qo'lga kiritilgan muvaffaqiyat ham, mag'lubiyat ham guruhning har bir a'zosiga bog'liq ekanligi haqidagi g'oya singdirib boriladi. Bu esa, bolada jamoa ishida o'z o'rnini aniq bilish va shunga yarasha mas'uliyatni his qilish, jamoa muammolarini o'z shaxsiy muammolari sifatida qabul qilish tuyg'usini shakllantiradi.

Bo'lajak o'qituvchidan kompetensiyaviy yondashuv asosida inklyuziv ta'limga jalb etilgan alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan o'quvchilar ongiga "faqat tirishqoqlik, g'ayrat va shijoat bilan mehnat qilinsagina muvaffaqiyatga erishish mumkinligini, o'z ustida tinimsiz ishlasa, hech kimdan kam bo'lmaslik" mumkinligi qabilidagi g'oyalar singdirib boriladi. Ana shunday g'oyalar ta'sirida ulg'ayib borayotgan bola butun imkoniyatini ishga solgan holda o'qishga, mehnat qilishga intilishi e'tiborda bo'lib, kattalarning nazaridan chetda qolmasligi kerak.

Bo'lajak o'qituvchisi inklyuziv ta'limga birinchi bor kelgan alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarda qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ularda, avvalo, maktabning bir qancha qoidalariga bo'ysunish qiyin kechadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun eng qiyin qoida bu dars vaqtida jim o'tirishdir.

Odatda, o'qituvchilar o'quvchilarning doimo jim o'tirishiga harakat qilishadi, lekin kam harakatli, passiv, quvvati kam bo'lgan o'quvchigina dars jarayonida uzoq vaqt jim o'tira oladi. Xo'sh, alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan o'quvchini qanday qilib maktab qoidalariga bo'ysunishga o'rgatish mumkin? Bu borada bo'lajak o'qituvchining o'quvchilar bilan qiladigan muomala-munosabat uslubi va qo'llayotgan metodining ahamiyati juda katta. Boshlang'ich sinfga jalb etilgan alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan o'quvchining muhim xususiyatlaridan biri undagi o'qituvchiga ishonch hissi bo'lib, bunda o'qituvchining o'quvchiga ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda katta. Misol uchun, o'quv yili boshida inklyuziv ta'limga jalb etilgan alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan 1-sinf qizchasining maktabga moslashishi (adaptatsiyasi) qiyin kechdi. Bu holatda, albatta, o'qituvchining asosiy vazifasi uning ruhiy olamiga professional yondashib, o'zaro ishonch hissini uyg'otishdan iboratdir.

1-2-sinf o'quvchilari, odatda, o'qituvchi siymosini oila a'zolaridan yuqori qo'yishadi. O'qituvchining obro'si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh-urug'larning nufuzi keskin kamayadi. Shu sababli, bolalar o'qituvchining har bir so'zini qonun sifatida qabul qiladilar. Demak, bo'lajak o'qituvchidan boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilar rivojida yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatida o'qituvchi shaxsi va o'quvchi bilan munosabat uslubining ahamiyati juda kattaligini bilishi zarur va kompetensiyaviy yondashuv asosida faoliyatini o'z ustida ishlab rivojlantirib borishligi talab etiladi.

Boshlang'ich sinf yoshidagi bola hali o'zining tub mohiyati va vazifasini tushunib yetmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak deb tushunadi. Bo'lajak o'qituvchining ko'rsatmalariga amal qilib tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi.

Olimlarning tadqiqotlaridan ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun eng birinchi maqsad bu – yaxshi baho orqali o'z "men"ligini ilk bor his etish, ota-onasi va kattalar hurmatiga sazovor bo'lishdir. Shuning uchun o'quvchilar yaxshi baho olishga intiladilar. Lekin ko'p hollarda baholash mezonining buzilishi o'quvchi ruhiyatiga, ayni paytda shaxs sifatidagi taraqqiyotiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi [3; 34,37-b].

1-sinfga kelgan o'quvchilar oradan ma'lum vaqt o'tgach, shodiyona lahzalarning taassuroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o'z ahamiyatini yo'qotib borishini va bola o'qishni kundalik aqliy mehnat ekanligini anglashini bo'lajak o'qituvchi bunday o'zgarishlarni bilishi va inobatga olishi kerak. Agar o'quvchi aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa, o'qishdan ko'ngli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi. Bo'lajak o'qituvchi esa, bunday holning oldini olish uchun bolaga ta'limning o'yindan farqi, qiziqarliligi haqida ma'lumotlar berishi va uni bu faoliyatga tayyorlashi lozim. Ayniqsa, bu inklyuziv ta'lim bilan bog'liq bo'lsa, uning mazmuni o'quvchini bilimlarni egallashga qiziqtirish, o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissini tuyish, o'ziga ishonchini uyg'otishdan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bu his o'qituvchining rag'batlantirish faoliyati bilan amalga oshiriladi va alohida e'tiborga muhtoj bolada o'qishga bo'lgan istak va ishtiyoqni saqlab qoladi [4.13-b].

Masalan, bo‘lajak o‘qituvchining ota-onalar bilan hamkorlikda har bir o‘quvchining yutug‘ini taqdirlab borishi, shuningdek, a’lochi va zukko o‘quvchilarning suratlarini hurmat doskasiga chiqarib, qiziqishini yanada orttirishi va ruhlantirib, rag‘batlantirib turishi bu borada yaxshi samara beradi. Bolada paydo bo‘lgan faxrlanish, o‘z kuchiga ishonch hissi bilimlarni o‘zlashtirish va malakalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. 1-2-sinf o‘quvchilarida ko‘proq ixtiyorsiz diqqat rivojlangan bo‘ladi. Shuning uchun ham ular o‘z diqqatlarini muayyan narsalarga qarata olmaydilar va diqqat obyekti ustida uzoq tura olmaydilar. Ta’lim jarayoni kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam kuchli, faol va ongli diqqatini rivojlantirishga qulay shart-sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mehnat qilish, misol-masalalar yechish, mashqlar bajarish, takrorlash ixtiyoriy zo‘riqish jarayonida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi.

Alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarda har bir bolaning psixik bilish jarayoni o‘ziga xos individual tarzda rivojlangan bo‘ladi. O‘quvchining diqqati, xotira va tasavvuri mustaqil tus ola boshlaydi. Lekin odatdagi holat va vaziyatlarda bolaning psixik bilish jarayonini yuqori darajada rivojlantirish hali birmuncha murakkabdir. Boshlang‘ich sinf yoshidagi alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarda mehnatsevarlik, asosan, o‘qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi hamda mustahkamlanadi.

Mehnatsevarlik o‘zi qilayotgan mehnati unga zavq bergan taqdirdagina yuzaga chiqadi. Bolaga yoqimli bo‘lgan har qanday faoliyat uning uchun foydalidir. Bolada mustaqil ishlash xususiyatining shakllanishi va rivojlanishi, asosan, kattalarga bog‘liq. Agar bola haddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochiq xususiyatli bo‘lsa, unda asta-sekinlik bilan bo‘ysunuvchanlik, tobelik hissi mustahkamlana boradi. Biroq alohida e’tiborga muhtoj bolalarni vaqtidan oldin mustaqillikka undash, unda ba’zi salbiy xislatlarning shakllanishiga ham olib kelishi mumkin. Chunki hayotiy tajribalar, asosan, kimlargadir taqlid qilish asnosida o‘zlashtiriladi. Alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalarning mustaqil faoliyatini shakllantirish uchun bir o‘zi bajaradigan ishlarni ko‘proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir.

Bo‘lajak o‘qituvchi kompetensiyaviy yondashuv asosida shunday bir ijtimoiy pedagogik-psixologik muhit yaratish kerakki, unda alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalarga biron mas’uliyatli vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bolalar o‘zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilishi uchun sharoit yaratishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ana shu his alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolani mustaqillikka undovchi xususiyatlarni yuzaga keltiradi. 3–4-sinflarga borib, aksariyat alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalarda umumiy va maxsus layoqatlar ko‘zga tashlanadi. Bu hayot uchun nihoyatda ahamiyatli bo‘lgan muvaffaqiyatga erishish hissini mustahkamlaydi. Bu esa o‘z-o‘zidan boshqa layoqatlarning jadal rivojlanishiga olib keladi. Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarda idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq to‘liq shakllanib bo‘lgani uchun ham ularga ta’lim berishda kattalarga qo‘llaniladigan metodlardan foydalanish mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchi kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang‘ich sinf yoshidagi alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalarning barcha psixik bilish jarayonlarini rivojlantirishda ularning atrofidagi odamlar, ota-onasi bilan bo‘ladigan muloqoti orqali erishish mumkin. Shuningdek, 3– 4-sinflarga borib, alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun ularning sinfdoshlari bilan munosabatining ham ahamiyati orta boradi. Bu munosabatlardan bo‘lajak o‘qituvchilar kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim-tarbiya maqsadlarida ustalik bilan foydalanishlari mumkin. Bu yoshdagi alohida e’tiborga muhtoj bo‘lgan bolalar soatlab yolg‘iz holda sevimli mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanishlari mumkin va shu asosda ularda mehnatsevarlik va mustaqillik fazilatlari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni https://lex.uz/.
2. Davletshin M. G. va b. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – T.: TDPU, 2004. 34-37-b.
3. Daminov K. Jamiyatdagi nogiron odamlarni o‘qitish. Maktab o‘qituvchilariga qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1991. 13-b.

Shukrullo AVAZOV,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti
E-mail: sh.avazov@gmail.com

TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Annotatsiya: maqolada talabalarning jismoniy faolligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyatli jihatlari bayon etiladi. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish haqidagi me'yoriy va huquqiy hujjatlar, xorijiy va mahalliy olimlar fikrlari o'rganilgan. Talabalarning jismoniy faolligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning SWOT tahlili amalga oshirilgan. Sohaga oid statistik ma'lumotlar tahlil qilingan. Talabalarning jismoniy faolligini oshirishga oid xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *jismoniy faollik, innovatsiya, pedagogik texnologiya, sport, virtual, jismoniy tarbiya, seksiya, harakat, sog'liq.*

Аннотация: в статье рассматриваются важные аспекты использования инновационных педагогических технологий для повышения физической активности студентов. Изучены нормативные и правовые документы, касающиеся развития физического воспитания и спорта, а также мнения зарубежных и местных ученых. Проведен SWOT-анализ инновационных педагогических технологий в повышении физической активности студентов. Проанализированы статистические данные в данной области. Разработаны выводы и предложения по повышению физической активности студентов.

Ключевые слова: *физическая активность, инновация, педагогические технологии, спорт, виртуаль, физическое воспитание, секция, движение, здоровье.*

Annotation: the article discusses the significant aspects of using innovative pedagogical technologies to increase students' physical activity. Normative and legal documents related to the development of physical education and sports, as well as the opinions of foreign and local scholars, have been studied. A SWOT analysis of innovative pedagogical technologies for enhancing students' physical activity has been conducted. Statistical data related to the field has been analyzed. Conclusions and proposals for increasing students' physical activity have been developed.

Key words: *physical activity, innovation, pedagogical technology, sport, virtual, physical, education, section, movement, health.*

Kirish.

Bugungi kunda talabalar o'rtasida jismoniy faollik darajasining pasayib borishi global miqyosda sog'liqni saqlash va ta'lim tizimlarini tashvishga solmoqda. Ko'plab yoshlar kun bo'yi o'tirib ishlaydigan turmush tarziga odatlanib qolganligi, raqamli qurilmalardan ko'p foydalanishi va harakatsizlikning kuchayishi kelajakda sog'liq bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli, talabalarning jismoniy faolligini oshirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi pedagogik texnologiyalar, xususan, interfaol mashg'ulotlar, virtual simulyatorlar va raqamli sport dasturlari yordamida talabalar o'zlarini jismoniy faol mashg'ulotlarga jalb etishga va harakatdan zavqlanishga imkon topishadi. Ushbu texnologiyalar nafaqat jismoniy mashg'ulotlarga qiziqishni oshiradi, balki har bir talabaning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv jarayonini yaratish imkonini ham beradi. Innovatsion yondashuvlar yordamida talabalar orasida jismoniy faollikning ijobiy qabul qilinishi, ularning umumiy sog'lig'i va o'qishdagi muvaffaqiyati ortishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, jismoniy faollikning oshishi o'zini o'zi anglash, ruhiy sog'liq va ijtimoiy faollikka ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar talabalarning faolligini oshirish uchun zamonaviy yechimlar taklif qilib, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlaydi va ularning jamiyatdagi ijobiy rolini kuchaytiradi.

Respublikada oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, imkoniyatlari cheklangan shaxslarning jismoniy reabilitatsiyasi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi sog'lig'ini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq

dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, sport turlari bo‘yicha yuqori natijalarni ta’minlaydigan mahoratli sportchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va trenerlar uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Biz ijtimoiy, texnologik va madaniy o‘zgarishlar tez sur’atda kechayotgan dunyoda yashayapmiz. Sivilizatsiyamiz an’anaviy g‘oyalar inqirozini boshdan kechirmoqda, shuning uchun inson salomatligini saqlashning samarali usullari va mexanizmlarini, shu jumladan, jismoniy o‘z-o‘zini rivojlantirish yo‘llarini ishlab chiqishga ehtiyoji paydo bo‘lmoqda [2: 4].

Mahalliy va xorijiy olimlar ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiyani takomillashtirish masalasini chuqur o‘rgangan bo‘lsalar-da, bugungi kunda jismoniy tarbiya tizimida nazariy va amaliy tarkibiy qismlarni integratsiya yo‘li bilan uyg‘unlashtirish, ya’ni fanlararo aloqalar o‘rnatish masalasi yetarlicha o‘rganilmaganligini kuzatmoqdamiz [3: 758].

Jismoniy faollikni oshirish va ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni kiritish ko‘plab tadqiqotlarda o‘quvchilarning nafaqat jismoniy, balki aqliy rivojlanishi uchun ham muhimligi ta’kidlangan. Buning asosiy sababi o‘quvchilarda faollik va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni qiziqarli va samarali dars jarayonlari orqali rag‘batlantirishdir [4: 112].

Tadqiqotlar ko‘rsatmoqdaki, jismoniy tarbiya darslarida virtual va interaktiv texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularning sog‘lig‘iga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar Wilson va Johnson o‘z tadqiqotlarida shu kabi texnologiyalar yordamida jismoniy mashg‘ulotlar jarayonini shaxsga yo‘naltirish va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirish imkoniyati mavjudligini keltirib o‘tadilar [5: 47]. Shuningdek, bu yondashuv talabalarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirib, ularni faol va sog‘lom turmush tarziga yo‘naltiradi.

Tadqiqotchi N. G‘ulomova jismoniy tarbiya darslarida interaktiv texnologiyalar va virtual o‘yinlarni qo‘llash o‘quvchilarda faollikni oshirib, ularni sog‘lom hayot tarziga yo‘naltirishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonini o‘quvchilarga yaqinlashtirish, ularning jismoniy va aqliy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [6: 34]. M.Nazarova ochiq havoda darslarni tashkil etish orqali o‘quvchilarda sog‘lomlashtiruvchi muhit yaratish va jismoniy faollikni oshirish imkoniyati mavjudligini ta’kidlaydi. Uning tadqiqotida ochiq havodagi mashg‘ulotlar o‘quvchilarning nafaqat jismoniy, balki psixologik holatini ham yaxshilashda muhim rol o‘ynashi aytilgan. M.Nazarovaning fikricha, bu usul o‘quvchilarni tabiat bilan bog‘lash orqali ularning ruhiy salomatligini ham mustahkamlaydi [7: 56]. A.Sherozov o‘z tadqiqotlarida jismoniy tarbiya darslarida jamoaviy va o‘yin shaklidagi mashg‘ulotlarni qo‘llashning afzalliklarini o‘rganib, unga ko‘ra, o‘yin shaklidagi mashg‘ulotlar o‘quvchilarda muloqot va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi, ularni o‘zaro hamkorlikka o‘rgatadi. Bu yondashuv o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega [8: 73].


Tadqiqot metodologiyasi.

Biz olib borgan tadqiqot natijalariga erishish uchun quyidagi tadqiqot metodlaridan foydalandik: nazariy (ta’lim tizimi, ilmiy adabiyotlar, ta’lim va sog‘liqni saqlashga oid huquqiy hujjatlar, internet manbalarining nazariy tahlili va sintezi, kuzatish, mantiqiy tahlil), empirik (o‘quvchilarning hayotiy vazifalari va jismoniy tarbiya faoliyatini kuzatish, suhbatlar, so‘rovnomalar, anketalar), statistik (tadqiqot natijalarining sifat va miqdoriy tahlili, olingan natijalarning ishonchliligini baholash uchun statistik, taqqoslash va omilli tahlil).

Tahlil va natijalar.

Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biridir. Jismoniy tarbiya nafaqat talabalar salomatligini qo‘llab-quvvatlashda, balki ularning umumiy rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida mashg‘ulotlarni qiziqarli va samarali qilish mumkin, bu esa talabalarning jismoniy faollik darajasini oshirishga yordam beradi. So‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar texnologiyalar yordamida darslar sifatini sezilarli darajada yaxshilash mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Innovatsion texnologiyalarning jismoniy tarbiya darslarida qo‘llanilishi yangi o‘quv jarayonlarini yaratish va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi. Quyidagi rasmda biz hozirgi kunda keng qo‘llanilib kelayotgan innovatsion texnologiyalarning asosiy turlari va ularning mazmunini ifodaladik (1-rasm).



1-rasm. Jismoniy tarbiya darslarida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalar .

VR va AR texnologiyalari orqali talabalar real sport maydonlariga yaqin tajribani boshdan kechirishlari mumkin. O'tkazilgan tadqiqotlar VR texnologiyalari yordamida talabalar faolligi 45% ga oshganligini ko'rsatdi. AR texnologiyalari esa murabbiylar uchun mashg'ulotni real vaqtda kuzatish va tahlil qilish imkonini yaratadi, bu esa talabalar faoliyatini nazorat qilishda yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Smartwatch va fitnes trekerlar kabi texnologiyalar yordamida talabalarning jismoniy faollik darajasini real vaqtda kuzatish mumkin. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasidan ma'lum bo'lishicha, talabalar orasida wearable texnologiyalar yordamida mashg'ulotlarni kuzatish orqali motivatsiya 30% ga oshgan. Bu texnologiya talabalarga o'zining jismoniy rivojlanish jarayonini ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishi natijasida amalga oshiriladi.

Gamifikatsiya – o'yinlashtirish orqali o'quv jarayoniga qiziqishni oshirish texnologiyasi. Bu yondashuv jismoniy tarbiya darslarida talabalar uchun turli rag'bat va mukofot tizimlarini yaratish orqali mashg'ulotlarga motivatsiyani oshirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, gamifikatsiya qilingan mashg'ulotlarda talabalar ishtiroki 25% ga oshirganligi qayd etildi. Bu texnologiya talabalar o'rtasida qo'shimcha raqobat va qiziqish uyg'otdi.

Yuqorida keltirilgan texnologiyalarni ta'lim jarayonlarida keng qo'llash va mamlakatimizda sportni targ'ib qilish bo'yicha sezilarli islohotlar amalga oshirib kelinmoqada, jumladan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot

strategiyasining 67-, 68- va 70-maqsadlarida mamlakatimizda sportni keng targ'ib qilish va uni ommalashtirish yo'nalishlari belgilab berilgan. Xususan, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foizga chiqarish, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda uning filiallariga qabul ko'rsatkichlarini oshirish hisobiga faoliyat yuritayotgan oliy ma'lumotli trenerlarning amaldagi 54 foizlik ulushini 2022-yilda 62 foizga, 2026-yilda 85 foizga oshirish kabi vazifalar belgilangan [9].

Biz talabalarning jismoniy faolligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rnini yanada aniqlashtirish maqsadida SWOT tahlilni amalga oshirdik (1-jadval)

1-jadval


Talabalarning jismoniy faolligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning SWOT tahlili .

Sport bilan shug'ullanuvchilar va sport seksiyalariga qatnovchi fuqarolar sonining kamayishi bir necha omillar bi-

Strengths (Kuchli tomonlari)	***Weaknesses (Kuchsiz tomonlari)***
1. Texnologiyalar orqali jismoniy mashg'ulotlarga qatnashish faolligi oshadi va darslar qiziqarli bo'ladi. 2. Talabalarga mustaqil ravishda ishlash imkoniyatini beradi. 3. Shaxsga yo'naltirilgan dasturlar orqali har bir talabaning rivojlanishini kuzatish imkonini beradi. 4. Harakatlarni nazorat qilish va tahlil qilish orqali sog'liq va natijalarni yaxshilaydi.	1. Ba'zi talabalar uchun texnologiya qimmat bo'lishi mumkin. 2. Texnik muammolar yoki uzilishlar faoliyatga xalal berishi mumkin. 3. Texnologiyaga qaramlik shakllanishi mumkin. 4. Ba'zi texnologiyalar harakatni real hayotdagidek mukammal ifodalay olmaydi.
Opportunities (Imkoniyatlari)	***Threats (Tahdidlar)***
1. Jismoniy tarbiya dasturlarini keng ommalashtirish imkoniyati. 2. Yangi o'yin usullari orqali faollikni oshirish va rag'batlantirish. 3. Mobil ilovalar va masofaviy murabbiylik imkoniyatlari tufayli katta auditoriyani jalb etish. 4. Innovatsion texnologiyalar orqali ilg'or o'qitish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish.	1. Texnologiya yangilanishi va rivojlanishiga rioya qilmaslik natijasida eskirishi. 2. Texnologiyalarning sog'liqqa yoki diqqatni chalg'itishga olib kelishi mumkinligi. 3. Dasturiy ta'minot yoki uskunalarning kamligi tufayli mashg'ulotlardan qoniqmaslik. 4. Faollik uchun talab qilinadigan texnologiyalarning yuqori xarajatlari.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar talabalarning jismoniy faolligini oshirishda katta imkoniyatlar yaratadi, biroq ushbu texnologiyalarni qo'llash jarayonida ularning imkoniyatlari va cheklovlarini hisobga olish muhimdir. Keltirilgan rasm va SWOT tahliliga asoslanib aytganda, bu texnologiyalarni maqsadga muvofiq va optimallashtirilgan shaklda qo'llash orqali talabalarni sog'lom va faol turmush tarziga yo'naltirish mumkin.

Bizni bu yo'nalishda tadqiqot olib borishga undagan jihatlardan yana biri, bu mamlakatimizda aholi o'rtasida sport bilan shug'ullanuvchilar va sport seksiyalariga qatnaydigan fuqarolar sonining nima sababdan kamayib borayotganligi hisoblanadi. Quyidagi (2-rasm) raqamlar tadqiqot mavzumizning dolzarbligini yana bir bor isbotlaydi.



2-rasm. Sport seksiya va bo'limlarida darsdan va ishdan tashqari vaqtida sport bilan shug'ullanayotganlarning gender taqsimoti (2023-yilning yanvar-dekabr oylari uchun, ming kishi) [10].

lan izohlanadi. Bugungi kunda texnologik imkoniyatlar o'sishi bilan ko'pchilik sport o'rniga onlayn kontent va video o'yinlarga ko'proq qiziqmoqda. Bu, ayniqsa, yoshlar orasida sezilarli bo'lib, ular ko'proq vaqtini texnologik o'yin-kulgilarga sarflay boshladi.

Kundalik ish rejimining og'irligi va ta'lim yuklamasining oshishi ham sportga ajratilgan vaqtning qisqarishiga sabab bo'lmoqda. Talabalar sport bilan muntazam shug'ullanish uchun vaqt topa olmayapti. Bundan tashqari, ayrim hududlarda sport obyektlari va inshootlari yetarlicha rivojlanmagan yoki ular pullik bo'lgani sababli, talabalar bunday joylarda sport bilan shug'ullana olishmaydi.

Sportning ayrim turlari va kerakli jihozlarning narxi ham sport bilan shug'ullanishni cheklamoqda. Aksariyat oilalar bunday xarajatlarni ko'tara olmasligi tufayli bolalarining sport seksiyalariga qatnovini ta'minlay olmaydi. Sog'liq va xavfsizlik masalalari ham ahamiyatli bo'lib, odamlar pandemiyadan so'ng ommaviy joylarda sport bilan shug'ullanishga nisbatan ehtiyotkor bo'lib qolgan.

Yana bir omil sifatida, sportga bo'lgan motivatsiya va qiziqishning pasayishi kuzatilmoqda. Ayrimlar sport bilan shug'ullanishning foydasi haqida yetarli bilimga ega emas, natijada bu sohaga qiziqish kamaymoqda. Shu sababli, sport infratuzilmasini yaxshilash, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va aholining sportga bo'lgan qiziqishini oshirish zarur hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Jismoniy faollik bolalarning umumiy salomatligi va psixologik holatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Talabalarning jismoniy faolligini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ularning jismoniy va aqliy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga, darslarni qiziqarli va samarali qilishga xizmat qiladi. Texnologiyalar orqali mashg'ulotlarni o'quvchilarga yaqin va tushunarli shaklda yetkazish darslarda ularning faol ishtirokini oshiradi. Bunday yondashuv bolalarda jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantiradi, muloqot qobiliyatlarini mustahkamlaydi va o'ziga ishonchni oshiradi.

Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning jismoniy tarbiya jarayonini takomillashtirishga va innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida ularning jismoniy faolligini oshirishga qaratilgan bo'lib, sog'lom hayot tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.01.2020-yildagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-son Farmoni.

2. Apanasenko H. L. 2007. Knyha o zdorov'e / H. L. Apanasenko. – K. : Medknyha– 132 s.

3. Zavydivska N. N., Rymar O. V., & Malanchuk H. H. (2015). Innovative mechanisms of improvement of student's physical education system on the basis of interdisciplinary connections. Journal of Physical Education and Sport, 15(4), 758.

4. Smith R. (2018). The Role of Innovative Technology in Education. Journal of Physical Activity and Health, 11(2), 110-115.

5. Wilson D., & Johnson K. (2019). Interactive Technologies in Physical Education. Journal of Modern Pedagogy, 15(2), 45-52.

6. G'ulomova N. (2020). Ta'limda innovatsion texnologiyalar va jismoniy faollik. Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali, 14(2), 32-38.

7. Nazarova M. (2019). Ochiq havoda o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilishning afzalliklari. Sog'lom hayot va ta'lim, 10(3), 55-62.

8. Sherozov A. (2021). Jamoaviy o'yinlar va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish. Bolalar rivojlanishi jurnali, 15(1), 70-78.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni.

10.https://stat.uz/img/press-reliz-zhismonij-tarbiya-va-sport-uzb-2023_p94893.pdf

Dilfuza SHADIYEVA,
"International school of finance, technology and science" instituti o'qituvchisi, dotsent v.b., filologiya fanlari nomzodi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TINISH BELGILARINI O'QITISH USULLARI

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga tinish belgilarini o'rgatishning tadqiqotga asoslangan usullari ko'rib chiqilgan va o'qitishni qiziqarli va samarali qilish mumkin bo'lgan asosiy strategiyalar muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: *tinish belgilarini o'rgatish, boshlang'ich ta'lim, yozish ko'nikmalari, bevosita o'qitish, ko'rgazmali qurollar, interfaol vositalar, matnlar, o'z-o'zini tahrirlash, ta'limdagi texnologiyalar.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются основанные на научных исследованиях методы обучения пунктуации учащихся начальных классов, обсуждаются ключевые стратегии, которые могут сделать процесс обучения увлекательным и эффективным.

Ключевые слова: *обучение пунктуации, начальное образование, навыки письма, прямое обучение, наглядные пособия, интерактивные инструменты, тексты, самостоятельное редактирование, технологии в образовании.*

Annotation: this article examines research-based methods for teaching punctuation to elementary school students and discusses key strategies that can make learning fun and effective.

Key words: *teaching punctuation, primary education, writing skills, direct instruction, visual aids, interactive tools, texts, self-editing, technology in education.*

Punktuatsiya yozma nutqni aniq, to'g'ri hamda ifodali bayon qilish, matnning uslubiy ravonligi va tez tushunilishini ta'minlashda muhim vositadir.

Tinish belgilari yozma nutqning eng muhim jihatlaridan bo'lib, u jumlaning ma'nosi va tuzilishini o'quvchiga yetkazishga, shu bilan birga, matnni idrok etishda yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tinish belgilarini o'rganish qiyin bo'lishi mumkin, chunki punktuatsiyaga oid bilimlar jumla tuzilishi, grammatika, og'zaki va yozma nutq o'rtasidagi munosabatlar kabi mavhum tushunchalarni tushunishni talab qiladi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yozma nutqi soddadan murakkabga qarab shakllanib boradi. Ushbu shakllanish yillarida tinish belgilarini samarali o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u o'quvchilarning o'qish va yozish ko'nikmalarini egallash uchun zamin yaratadi.

Boshlang'ich maktabda tinish belgilarini o'rgatish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bir nechta samarali yondashuvlarni aniqladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tinish belgilari bilan erta tanishish yozish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun juda muhimdir. Tinish belgilari bosqichma-bosqich o'rgatib borilishi lozim, ularning murakkabligi vaqt o'tishi bilan ortadi. O'qituvchilarning tinish belgilarini qo'llash haqidagi qoidalarni qiziqarli tarzda yetkazish qobiliyati ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'quv matnlari va tinish belgilaridan foydalanishning haqiqiy misollaridan foydalanish bolalarga tinish belgilarining amaliy qo'llanilishini tushunishga yordam berishini aniqladi. Texnologiya tinish belgilarini o'rganishda ham foydali vositaga aylandi. Interaktiv dasturlar va raqamli o'yinlar ham o'quvchilarning faolligini oshiradi va tinish belgilari haqidagi qoidalarni o'zlashtirishga yordam beradi. Keyingi yillarda tinish belgilarini o'qitishning eng samarali usullari sifatida to'g'ridan to'g'ri o'qitish, ko'rgazmali qurollar, interaktiv texnologiyalar va matn ustida ishlashning kombinatsiyasiga e'tibor qaratmoqda.

Boshlang'ich sinflarda tinish belgilarini samarali o'rganish uchun ko'p qirrali yondashuv zarur. Ilmiy manbalarga asoslanib, yosh o'quvchilar uchun ayniqsa samarali bo'lgan bir nechta usullarni ajratish mumkin.

1. Bosqichma-bosqich to'g'ridan to'g'ri o'qitish. Bu usul tinish belgilarini o'rgatish uchun muhim boshlang'ich nuqtadir. O'quvchilarga eng avval nuqta, keyinroq vergul, so'roq va undov belgilari kabi asosiy tinish belgilarining qo'llanishi haqidagi ma'lumotlarni singdirib borish lozim. So'ngra asta-sekin vergul, keyinchalik esa tire va qo'shtirnoq belgilari kabi murakkabroq belgilarga o'tiladi. Bunday ta'lim o'quvchilarga o'z qobiliyatlariga ishonchni oshirishga imkon beradi. Bu belgilarni alohida-alohida kiritish — aniq tushuntirishlar va modellashtirish orqali o'quvchilarga ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishning samarali usuli hisoblanadi. Bosqichma-bosqich rivojlanish o'quvchilarning haddan tashqari zo'riqishining oldini oladi va har bir bosqichda anglash darajasini kuchaytiradi.

2. Ko'rgazmali qurollar, plakatlar, sxemalar, kartochkalar kabi ko'rgazmali qurollardan foydalanish, ayniqsa, mavhum tushunchalarni aniq tasvirlash yosh o'quvchilar uchun foydalidir. Tinish belgilarining vizual tasviri oddiy jumlalar bilan birgalikda o'quvchilarga jumlalar tuzilishidagi funksiyalarini tushunishga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mavhum qoidalarni konkretlashtirish ham muhimdir. O'qituvchi o'quvchilar yozma mashqlarni bajarishi jarayonida murojaat qiladigan yorqin vizual effektlarni

qo‘llashi mumkin, bu tinish belgilaridan to‘g‘ri foydalanishni yaxshiroq tushuntirishga yordam beradi. Bundan tashqari, tinish belgilaridan foydalangan holda jumlalar tuzish topshiriqlari kabi amaliy mashqlar ushbu tushunchalarni o‘yin tarzida mustahkamlashi mumkin. O‘quvchilarga rasmli test berish orqali bilimlarini amaliy namoyish etish imkoni ham mavjud. Aytaylik, o‘quvchilarga quyidagi ko‘rinishda savollar tayyorlash mumkin:

Elektr quvvati, suv va gazni tejab foydalaning.

Ushbu gapda qaysi tinish belgisi tushirib qoldirilgan?



B u u s u l orqali o‘quvchilarning vizual xotirasini yanada mustahkamlash mumkin.

Tinish belgilari mavzusini mustahkamlash maqsadida turli topshiriqlar berilgan kartochkalardan foydalanish ham yaxshi natija beradi.

3. Interaktiv va raqamli vositalardan foydalanish. Texnologiyalarni qo‘llash tinish belgilarini o‘rganishda samarali ekanligi isbotlangan. Bu usul orqali tinish belgilarini eslab qolish darajasi yuqoriroq. Tinish belgilari bilan raqamli o‘yinlar, ilovalar va onlayn viktorinalar kabi vositalar o‘quvchilarga xatolarini tushunishga va ularni tuzatishga yordam berish orqali tezkor fikrlashni rivojlantiradi. Shuningdek, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda rolli o‘yinlar uyushtirishga ham e’tibor qaratish lozim. Sulton Jo‘raning “Tinish belgilari majlisi” she’rini sahnalashtirish natijasida o‘quvchilar nafaqat mavzularni umumlashtiradilar, balki estetik zavq ham tuyadilar.

4. Matn va hayotiy misollar orqali tinish belgilarini o‘rgatish ham bu mavzuni o‘zlashtirish uchun bebaho manbadir. O‘qituvchi hikoyalar yoki badiiy adabiyotlardan parchalardan foydalanib, tinish belgilarining matnda qanday ishlashini ko‘rsatishi mumkin. Masalan, ushbu lavha keltirilib, tire, vergul, so‘roq belgisi, nuqta kabi tinish belgilarining qo‘llanish sabablari izohlanadi:

— Qalam, jajji toychoq,
Qayga boshlayin seni?
— Daftar beti — oq maydon,
Unga yetakla meni .

Ba’zan o‘qituvchi o‘quvchilar tinish belgilarining matnni idrok etishiga qanday ta’sir qilishiga e’tibor qaratib, qisqa parchalarni tahlil qilishni so‘rashi mumkin. Ushbu usul o‘quvchilarning yozma nutqini takomillashtiradi. .

5. Matn yozish va o‘zini o‘zi tahrirlash usuli. O‘quvchilar tinish belgilarini o‘zlashtirishi uchun muntazam yozish amaliyoti zarur. O‘qituvchilar o‘quvchilarni o‘rgangan tinish belgilari qo‘llanadigan jumlalar yoki kundaliklarni yozib, o‘z bilimlarini qo‘llashga undashlari kerak. Yozgandan so‘ng talabalar o‘z ishlarini tinish belgilarining to‘g‘ri qo‘llangan varianti yordamida o‘z-o‘zini tahrirlash bilan shug‘ullanishlari kerak. Jamoaviy tahrirlash ham samarali usul hisoblanadi. O‘quvchilar bir-birlarining ishlarini tahlil qilish va tinish belgilaridan foydalanish haqida fikr bildirish orqali sinfdoshlarining xatolari va muvaffaqiyatlaridan saboq olishlari mumkin. Ushbu hamkorlikdagi yondashuv mavzuni o‘zlashtirishni yanada yaxshilaydi va o‘quvchilarga o‘z ishlarining ishonchli muharriri bo‘lishga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida quyidagilarni qayd etish mumkin:

– boshlang‘ich sinflarda tinish belgilarini o‘rgatish to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘qitish, interaktiv o‘quv vositalari va matn ustida ishlashning strategik kombinatsiyasini talab qiladi;

– ko‘rgazmali qurollar, o‘quv matnlari, texnologiyalar va o‘z-o‘zini tahrirlash imkoniyatlaridan foydalanish tinish belgilarini o‘rganishni yanada qiziqarli va qulay qiladi.

– o‘qituvchi asosiy tinish belgilarini qo‘llashni o‘rgatishdan boshlab mavzularni asta-sekin murakkablashtirib, o‘quvchilarning yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali savodxonlik poydevorini mustahkamlab boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari. – T.: O‘zbekiston, 2015.
2. Cho‘lpon she’riyatida tinish belgilari. O‘zbek tili va adabiyoti. 2020. - №4.26-33-betlar.
3. Nazarov K., Egamberdiyev B. O‘zbek tili imlo-ishora qoidalari. – T.: O‘qituvchi, 1996.
4. Obidova M. Punktuatsiya. Tinish belgilari va ularning qo‘llanishi. https://doi.org/10.5281/zenodo.6589639
5. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4- sinfi uchun darslik. .– T.: O‘qituvchi, 2017.
6. Русский язык в начальных классах: Теория и практика обучения / под ред. М.С. Соловейчик. .– М., 2000.

Kuysin TUKHTAEVA,
Dean of the English and Literature Faculty
of Navoi State Pedagogical Institute,
candidate in philological sciences, associate professor



EMPOWERING ENGLISH TEACHERS: STRATEGIES FOR DEVELOPING DIGITAL SKILLS IN THE CLASSROOM

Annotation: the article is about the importance of the competences in acquiring pedagogical competence, including the role and significance of digital skills, its components, important factors in the acquisition and development of digital skills.

Key words: *pedagogical competence, digital competence, blogs, news sites and social sites.*

Аннотация: в данной статье речь идет о других компетенциях в приобретении педагогической компетентности, в том числе о роли и значении цифровой компетентности, ее компонентах, важных факторах приобретения цифровой компетентности.

Ключевые слова: *педагогическая компетентность, цифровая компетентность, блоги, новостные сайты и социальные сайты.*

Annotatsiya: mazkur maqola pedagogik kompetensiyani egallashda yondosh kompetensiyalar, jumladan raqamli kompetensiyaning o'rni va ahamiyati, uning komponentlari, raqamli kompetensiyani egallash hamda rivojlantirishda muhim sanalgan omillar xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *pedagogik kompetensiya, raqamli kompetensiya, blogs, news websites, and social media.*

Many jobs today need digital skills. We need them even for jobs that do not ask for high levels of qualifications or experience. For example, if you work in a warehouse or a shop you may keep digital records of stock. Essential digital tools are a step towards learning lots of other new things. They can improve your confidence to use technology for work, learning and daily life. Essential digital skills include being able to:

- use devices like a computer, tablet or mobile phone for simple, personal and work tasks, teaching process;
- find and use information on the internet about teaching tools, teaching methods and techniques;
- understand how to be safe and responsible online when learning or searching for some important information;
- communicate socially and professionally using email, messaging and social media.

As we have already mentioned, digital competence refers to the ability to use digital technologies effectively and responsibly in order to access, manage, evaluate, create, and communicate information. It includes the skills and knowledge needed to navigate digital tools and platforms, critically assess online information, protect personal data and privacy, collaborate and communicate online, and create digital content. Digital competence is increasingly important in today's digital age, as technology plays a significant role in many aspects of our lives, including education, work, and social interactions. Developing digital competence is essential for individuals to thrive in a digital society and effectively participate in the digital economy. Technology is constantly evolving, so it's important to stay informed about the latest trends and developments in the digital world. Follow tech blogs, news websites, and social media accounts to stay up-to-date with the latest advancements.

Acquiring digital competence involves a combination of learning and practice. Here are some key steps to help English teachers develop and improve your digital competence: Take advantage of formal education, online courses, workshops, and training programs to learn about digital technologies and tools. Many organizations offer courses on topics such as digital literacy, data privacy and digital skills development. Explore online resources, tutorials, and guides to learn about specific digital tools and platforms. Websites like YouTube, Coursera, Udemy, and Khan Academy offer a wide range of tutorials on various digital skills. The best way to improve your digital competence is through hands-on practice. Experiment with different digital tools and platforms, try out new features, and explore different ways of using technology in your daily life. Working with others on digital projects can help you learn new skills and gain different perspectives.

A digital skill encompasses a range of skills, knowledge, attitudes, and behaviors that enable individuals to effectively and responsibly use digital technologies in various contexts. The components of digital competence can be broadly categorized into the following areas: digital literacy including basic knowledge and understanding of digital technologies, such as how to use computers, mobile devices, software applications and the internet. It also involves the ability to navigate online information, evaluate sources, and critically assess digital content.The next are technical skills that are specific ones related

to using digital tools and platforms, such as coding, programming, web design, data analysis, digital marketing and multimedia production. Technical skills enable individuals to create, manage, and manipulate digital content effectively.

When it comes to the information management, it involves the ability to search for, organize, analyze and synthesize information from digital sources. It also includes skills related to data management, data privacy and information security. Digital competence also includes skills for communicating and collaborating with others using digital technologies. This includes using email, messaging apps, social media, video conferencing tools and online collaboration platforms.

The problem-solving and critical thinking skills are essential for effectively using digital technologies to solve problems, make decisions and think creatively. Digital competence involves the ability to analyze complex situations, identify solutions and adapt to changing circumstances.

Creativity and innovation is also one of the components of digital competence involving the ability to think creatively, generate new ideas and innovate using digital tools. This includes skills for creating digital content, designing user interfaces and developing new digital products or services. English teachers can enhance their own and their students' digital competence by incorporating the following strategies:

Engaging in ongoing professional development opportunities to enhance digital skills and knowledge foreign language teachers ask their learners attend workshops, webinars, conferences and courses focused on digital tools and technologies relevant to English teaching. Experimenting with a variety of digital tools and platforms that can enhance teaching and learning foreign languages, such as online learning management systems, interactive whiteboards, educational apps, digital storytelling tools and virtual reality applications.

In order to incorporate technology into lesson planning and delivery to create engaging and interactive learning experiences for students teachers should use digital resources, multimedia content, online collaboration tools and virtual communication platforms to enhance English language skills. Digital learning resources, sometimes abbreviated as DLRs, are digital resources that help students and teachers in the learning process. Most digital learning resources are accessed through a connection to the internet. Technology in classrooms has become increasingly prevalent, as many secondary schools move to a one-to-one device model, as each student is issued a laptop or tablet upon admission. Smart Boards are becoming more common in many classrooms, which allow the teachers to interact with digital learning resources during their presentation of new content. This has created an immense impact on how students learn new information. As technology becomes a bigger part of students' lives, some teachers use digital resources to increase student engagement. Additionally, there are learning resources available that give access to information that would be otherwise unavailable. Access to the Internet provides a wide variety of digital learning resources to both teachers and students. Some are geared specifically toward helping either students or teachers, but many are meant to help both. Here are some examples:

Digital textbooks: Digital textbooks can be a cost-effective way to update the curriculum when necessary. They typically come equipped with helpful features, like interactive end-of-unit quizzes, search functions and sources.

Online grade books and classrooms: Programs like Google Classroom, Blackboard and the like are excellent organizational tools for teachers and students. Teachers can keep grade books, teaching materials, attendance, IEP information and differentiation strategies organized all in one place. Students can choose to be alerted to upcoming assignments or newly posted material.

Interactive models: When physical models are difficult or impossible to obtain, many interactive models can be sourced online. For example, in an anatomy and physiology classroom, a cadaver lab would be impossible in the K-12 context. However, interactive models of the human body online can allow students to learn the same information in an interactive way. Teachers can also use these interactive models during their presentation of new content. Multimedia content typically includes a combination of different types of media, such as:

Text: Written content that may include information, instructions or descriptions.

Images: Pictures, photographs or graphics that enhance the visual aspect of the content.

Audio: Sound elements such as music, narration or sound effects.

Video: Moving images that may include animation, live-action footage or recorded presentations.

Animation: Animated graphics or videos that add a dynamic element to the content.

Interactive elements: Features that allow users to engage with the content, such as quizzes, games or clickable links.

Virtual reality (VR) and augmented reality (AR): Immersive technologies that provide a more interactive and engaging experience for users.

When selecting teaching materials to develop digital

competence in students learning English, consider the following guidelines:

- Learning Objectives: Clearly define the digital competence skills you want your students to develop. This could include proficiency in using digital tools, critical thinking, information literacy, online collaboration, digital creativity, and responsible digital citizenship.

- Authenticity: Choose materials that reflect real-world digital contexts and situations. Look for resources that incorporate authentic language use, such as websites, blogs, social media platforms and online articles.

- Relevance: Select materials that align with the interests and needs of your students. Consider their age, language proficiency level and personal interests. Engaging content will motivate them to develop their digital skills.

- Interactive Tools: Include interactive materials that allow students to actively engage with the content. This can involve using educational apps, online quizzes, interactive videos, virtual reality experiences or language learning platforms with gamified elements.

- Multimodal Content: Opt for materials that incorporate different forms of media such as text, images, audio and video. This variety enhances engagement and caters to different learning styles.

- Collaboration Opportunities: Look for materials that promote online collaboration and communication. This could involve using discussion forums, video conferencing tools or collaborative document editing platforms to encourage students to work together and share their ideas.

- Digital Safety and Ethics: Ensure that the selected materials address digital safety, privacy and ethical considerations. Teach students about responsible online behavior, cyber bullying prevention, evaluating online sources for credibility and respecting copyright laws.

- Ongoing Evaluation: Continuously assess the effectiveness of the selected materials in developing students' digital competence. Gather feedback from students and adapt your teaching approach accordingly.

English teachers should remember that the selection of teaching materials should be a dynamic process that evolves with technological advancements and the changing needs of your students.

The above enumerated components can be combined in various ways to create rich and engaging multimedia content across different platforms and mediums. Promoting digital literacy educators would prefer to teach students how to critically evaluate online information, navigate digital resources and use digital tools effectively. Encourage them to develop skills for searching, analyzing and synthesizing information from digital sources. Fostering students' creativity by integrating digital tools for creating multimedia projects, digital storytelling, podcasting, video production and other creative activities also enhance language skills and digital competence. Here it is important to mention about facilitating collaborative learning experiences using digital platforms enabling students to work together on projects, share ideas, provide feedback and engage in peer-to-peer communication. In such cases citizenship educational programmes teach students about responsible and ethical behavior in the digital world, including issues related to online safety, privacy, digital rights, and digital well-being.

In conclusion, developing digital competence in teaching English is essential for educators to effectively engage and empower students in the digital age. By incorporating strategies such as ongoing professional development, exploring digital tools, integrating technology into lesson planning, promoting digital literacy, encouraging creativity, facilitating collaborative learning, teaching digital citizenship, utilizing digital feedback and assessment tools, staying current with educational technology trends, and collaborating with colleagues, English teachers can enhance their own digital skills and knowledge while fostering students' digital competence.

USED LITERATURE

1. Blayone, T., Mykhailenko, O. VanOostveen and others (2017). Surveying Digital Competences of University Students and Professors. Technology, Pedagogy and Education, 27 (3), 279-296.

2. Bond, M., Marin, V.I., Dolch, C., Bedenlier, S., and Zawachi-Ritcher, O. (2018). Student and Teacher Perceptions and usage of digital media. International Journal of Educational technology in Higher Education, 15 (48), 1-20.

3. Dias-Trindade, S., Moreira and others. (2020). Assessment of university Teachers on their digital competences. Qwerty, 15 (1), 50-69.

4. Gleason, B., & Manca, S. (2020). Curriculum and instruction: pedagogical approaches to teaching and learning with Twitter in Higher Education. On the Horizon, 28 (1), 1-8.

Nafisa SADINOVA,
NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

RASMIY USLUB DOIRASIDA BIRIKMA TERMINLARNING QO‘LLANISHI

Annotatsiya: maqolada rasmiy uslub sohasida birikma terminlarning paydo bo‘lishi haqida so‘z yuritilgan. Rasmiy uslub sohasi birikma terminlarining yasalish usullari, xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, rasmiy uslub doirasida qo‘llanadigan birikma terminlarga oid ba’zi misollar yordamida bu hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *rasmiy uslub, sintaktik aloqa, ish yuritish, birikma termin, sintaktik usul, ikki komponentli birikma termin.*

Аннотация: в статье рассматривается возникновение сложных терминов в сфере формального стиля. Анализируются способы образования и особенности сложных терминов в области формального стиля. Также с помощью некоторых примеров сложных терминов, используемых в рамках формального метода, выделены особенности этих явлений.

Ключевые слова: *формальный стиль, синтаксическое общение, тематическое исследование, сложный термин, синтаксический метод, двухкомпонентный сложный термин.*

Annotation: the article talks about the emergence of compound terms in the field of formal style. Forming methods and features of compound terms in the field of formal style are analyzed. Also, with the help of some examples of compound terms used within the framework of the formal method, the specific features of these phenomena are highlighted.

Key words: *formal style, syntactic communication, case study, compound term, syntactic method, two-component compound term.*

O‘zbek tili terminologiyasida qo‘shma va birikma terminlar hosil qilish usulini sintaktik usul deb atash odat tusiga kirgan, ya’ni terminologiyaga oid ishlarda ushbu holat kuzatiladi. [2;4;5.]

Sintaktik usul bilan yasalish ko‘proq birikma terminlarga mos kelsa-da, terminologiyada sintaktik usul keng ma’noda tushuniladi va qo‘shma, juft, takroriy, birikma terminlar hosil qilinishi nazarda tutiladi. Ish yuritish terminologiyasida juft va takroriy terminlar deyarli uchramasligi sababli quyida qo‘shma va birikma terminlar haqida fikr yuritildi va ularning yasalish (hosil bo‘lish) xususiyatlarini ochib berishga harakat qilindi.

Rasmiy uslubga oid terminlarni hosil qilishda sintaktik usul eng unumdor hisoblanadi. Bu usul bilan yasalgan terminlar asosan so‘z birikmasiga, terminelementlari so‘zga teng keladi. Aytish mumkinki, bunda so‘zlar o‘rtasidagi sintaktik aloqa saqlangan holda yaxlitlanib bir tushunchani anglatishi kuzatiladi. Terminshunos V.P.Danilenkoning fikricha, “Qariyb barcha soha terminologiyasida birikma terminlar miqdor jihatidan muhim, yuqori o‘rinlardan birini egallaydi.” [1,170.] Bu fikrni terminologiyaga oid tadqiqotlar ham tasdiqlaydi. [4,15;7,15;3,20.]

Ma’lumki, terminologiyada terminlarning aniq bo‘lishiga katta e’tibor beriladi. Birikma terminlar terminelementlari o‘rtasida saqlangan sintaktik aloqa u atayotgan yangi tushuncha haqidagi ma’lumotni aniqlashtiradi: *virtual qabulxona, jismoniy shaxsning identifikatsion nomeri, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori, pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori, soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami, xalq qabulxonasi, elektron hujjat, elektron xat, elektron imzo, elektron hujjat yuritish, elektron hujjat aylanishi, elektron hujjatni jo‘natuvchi, elektron hujjatni saqlash muddati, elektron hujjatni qabul qilib oluvchi, elektron hujjatning asl nusxasi, yagona interaktiv davlat xizmatlari portali* kabi.

O‘zbek tilining lug‘at boyligida ruscha-baynalmilal so‘zlar haddan ziyod oshib ketgan, o‘zbek tili grammatikasiga rus tilining ta’siri kuchaygan davrda hayotimizga kirib kelgan yangi tushunchalarning ko‘pchiligi rus tilida qanday nomlangan bo‘lsa, o‘zbek tiliga ham shu holida yoki kalkalash yo‘li bilan qabul qilindi. Natijada hujjatlar tili tushunib bo‘lmaydigan darajada chet so‘zlar bilan to‘lib toshdi va bu holat xalq uchun ish yuritish borasida qiyinchilik tug‘dirdi.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan keyin, birinchi navbatda, hujjatlarning o‘zbek tili rasmiy uslubida olib borilishiga katta e’tibor berildi va rasmiy uslub sohasida me’yordan oshib ketgan baynalmilal so‘zlarning aksariyati o‘z so‘zlarimiz bilan almashtirildi, hujjatchilik borasidagi merosimiz esga olindi. Mana shu jarayonda rasmiy uslub sohasida yangi qo‘shma va birikma terminlar vujudga keldi. Zero, ba’zi tushunchalarni bir asosli so‘z bilan nomlash, bu tushuncha yangi bo‘lgani uchun ham uning mohiyatini kishilar ongiga yetkazib berishga ojizlik qilishi yoki tushuncha va uning atamasi bo‘lgan so‘z o‘rtasida nomutanosiblik keltirib chiqarishi mumkin.

Keyingi davrlarda rasmiy uslub sohasida birikma terminlarning yuzaga kelishi kuzatilmoqda. Jumladan,

tilshunos D.Xudoyberganova “Ish yuritish” amaliy qo‘llanmasi mualliflari tomonidan tavsiya etilgan *bosma ish qog‘ozi, rozilik belgisi, qistirma ilova, hujjatlar yig‘majildi, qayta tiklangan nusxa, tashrif varaqchasi, mehnat bitimi, xizmat ma’lumotnomasi, shaxsiy ma’lumotnoma, tasdiqlash ustxati* kabi birikma terminlarning o‘zbek tili imkoniyatlari asosida hosil qilinganini ta’kidlaydi. [6,16.] Shuningdek, ish yuritish sohasida kalkalash yoki yarim kalkalash yo‘li bilan hosil qilingan birikma terminlar ham miqdor jihatdan salmoqli o‘rin tutadi: *virtual qabulxona, jismoniy shaxsning identifikatsion nomeri, soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami* kabi. Keyingi davrlarda elektron ish yuritishning rivojlanishi ham ko‘plab birikma terminlar oqimining kirib kelishiga sabab bo‘ldi: *elektron hujjat, elektron xat, elektron imzo, elektron hujjat yuritish, elektron hujjat aylanishi, elektron hujjatni jo‘natuvchi, elektron hujjatning asl nusxasi* va hokazo. Bu terminlar, asosan, kalkalash yo‘li bilan hosil qilingan bo‘lib, yangi tushunchalar bilan birga iste’molga kirib kelgan.

Rasmiy uslub sohasida birikma terminlar miqdor jihatdan asosiy o‘rinni egallaydi. Bu uslubda birikma terminlarning “ot + ot”, “sifat + ot”, “ravish + ot” modellari kengroq qo‘llanadi.

Ikki komponentli birikma terminlar.

“Ot+ot” modelidagi birikma terminlarda so‘zlar, asosan, moslashuv yo‘li bilan birikadi: *abonentlar bo‘limi, bo‘nak hisoboti, mualliflik huquqi.* Ko‘pincha moslashuv yo‘li bilan birikkan birikmalarda qaratqich kelishigining belgisiz qo‘llanishi kuzatiladi: *qalam haqi, uy manzili, aksiyadorlar jamiyati, ijara haqi, idora arxivi, aksiyadorlik banki, arab raqami, xalq qabulxonasi* va hokazo. Bu holat birikmalarning ixchamligini ta’minlashga xizmat qiladi.

“Sifat+ot” modelidagi birikmalar rasmiy uslub terminologiyasida faol qo‘llanadi: *ma’muriy faoliyat, faol ish, ilmiy tahlil, ochiq arxiv, virtual qabulxona.* Bu tipdagi birikma terminlarni sifat tarkibiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Asliy sifat yordamida hosil qilingan birikma terminlar: *oddiy aksiya, chuqur tahlil. jiddiy tahlil, mukammal tahlil.*

2. Nisbiy sifat yordamida hosil qilingan birikma terminlar: *qisqartma so‘z, noma’lum muallif, noma’lum hujjatlar, pulli aksiya, undirma aliment, axloqsiz xatti-harakat, asosli tahlil, ilmiy tahlil, asosiy narx, bechiqit ishlab chiqarish, muddatsiz omonat* va boshqalar. Ko‘rinib turibdiki, “sifat+ot” modelidagi birikmalarning asosiy qismini “nisbiy sifat+ot” ko‘rinishidagi birikma terminlar tashkil etadi.

“Ravish+ot” modelidagi birikma terminlar: *do‘stona tashrif, tashqi kelishuv, ichki kelishuv, mohirona rahbarlik, asossiz ayblash, rasmiy qabul* kabilar.

“Fe’l+ot” ko‘rinishidagi birikmalar: *o‘sish diagrammasi, hisoblash ishlari, hisoblash markazi, tasdiqlash ustxati, bajarilish sanasi, tayyorlash sanasi, ish yuritish jarayonlari* kabi.

Ba’zan ayni bir xil so‘zlar orasidagi grammatik vositalar o‘zgarishi sababli birikmaning modeli o‘zgarishi mumkin: *birja kursi* – “ot+ot”; *birjaviy kurs* – “sifat+ot”.

Lekin grammatik vositalarni qo‘llashda ehtiyotkorlik zarur. Masalan: *intizomiy jazo, intizom nizomi* birikmalari o‘rnida *intizom jazosi, intizomiy nizom* birikmalarini qo‘llab bo‘lmaydi. Chunki termin yasashda har bir qo‘shimchaga yuklangan mavjud ma’nodan to‘g‘ri foydalanish zarur. Shundagina sun’iylikka yo‘l qo‘yilmaydi.

Uch komponentli birikma terminlar. Rasmiy uslub terminologiyasida uch komponentli birikma terminlar miqdor jihatdan salmoqli o‘rin tutadi: *vaqtbay ish haqi, yopiq aksiyadorlik jamiyati, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, ishbay haq to‘lash, ishga vaqtincha layoqatsizlik, iqtisodiy faol aholi, shaxsiy hujjatlar yig‘majildi* kabi. Uch komponentli birikma terminlarda, asosan, aniqlovchi+aniqlanmish munosabatiga kirishgan birliklarning birikma hosil qilib, birikma holatida keyingi yoki oldingi so‘z bilan yana “aniqlovchi+aniqlanmish” munosabatiga kirishishi kuzatiladi. Bu birikma terminlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Birikma shaklidagi aniqlovchi+aniqlanmish: *shaxsiy hujjatlar yig‘majildi, iqtisodiy faol aholi, bir gallik ishonchnoma, ichki xo‘jalik hisobi, foydali ish koeffitsiyenti;*

2. Aniqlovchi+birikma shaklidagi aniqlanmish: *ishga vaqtincha layoqatsizlik, vaqtbay ish haqi, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, yopiq aksiyadorlik jamiyati, ishbay haq to‘lash, ochiq aksiyadorlik jamiyati, to‘liq majlis bayonnomasi, nominal ish haqi, sayyor ilmiy sessiya, yalpi ichki mahsulot* kabi.

Sohada, oz bo‘lsa-da, 4 va 5 komponentli birikma terminlar qo‘llanishi ham kuzatildi: *ichki mehnat tartiboti qoidalari, kadrlarning shaxsiy tarkibiga oid buyruq, jismoniy shaxsning identifikatsion raqami, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori, soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR), elektron hujjatni saqlash muddati, elektron hujjatni qabul qilib oluvchi, yagona interaktiv davlat xizmatlari portali* kabi.

Yuqoridagilarga tayanib aytish mumkinki, ish yuritish sohasida qo‘shma, shuningdek, birikma terminlarning ko‘pligi jamiyat uchun yangi bo‘lgan tushunchani bir so‘z bilan ifodalash imkoni yo‘qligidan paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. 170-с.
2. Doniyorov R. O‘zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – Toshkent: Fan, 1977.

3. Yuldashev I.J. O‘zbek kitobatchilik terminologiyasi: shakllanishi, taraqqiyoti va tartibga solish: Filol. fan. d-ri... diss. avtoref. – Toshkent, 2005. 20-b.
4. Мадвалиев А.П. Узбекская химическая терминология и вопросы её нормализации: Дисс.... канд. филол. наук. – Ташкент, 1986.
5. Mirahmedova Z. Hozirgi o‘zbek tilining anatomik terminologiyasi: Filol. fan. nomz.... diss. – Toshkent, 1994.
6. Xudoyberganova D. Mustaqillik davrida ish yuritish leksikasi. O‘zbek tili va adabiyoti. 2017. № 4.16-b.
7. G‘ulomova G.Y. O‘zbek yuridik terminologiyasining istiqlol davri taraqqiyoti: Filol. fan. nomz.... diss. avtoref. – Toshkent, 2005. 15-b.

Elyor BOYMANOV,
f.f.f.d. (PhD) NavDU, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi

JAHON TILSHUNOSLIGIDA TURIZM TERMINOLOGIYASI MASALALARINING O‘RGANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada jahon tilshunosligida turizm terminologiyasiga doir ma’lumotlar o‘rin olgan. Tilshunos olimlarning sohaga doir fikrlari to‘plangan va muallif tomonidan munosabat bildirilgan.
Kalit so‘zlar: *tilshunoslik, termin, turizm, sayohat, ekstralingvistik shart, terminologik lug‘at, sohaviy lug‘at.*
Аннотация: в статье содержится информатsiя о терминологии туризма в мировой лингвистике. Были собраны мнения лингвистов в данной области, и автор выразил свою реакцию.
Ключевые слова: *лингвистика, термин, туризм, путешествие, экстралингвистическое состояние, терминологический словарь, отраслевой словарь.*
Annotation: this article contains information on the terminology of tourism in world linguistics. The opinions of linguists on the field have been collected and the relationship has been expressed by the author.
Key words: *linguistics, term, tourism, travel, extralinguistic condition, terminological dictionary, field dictionary.*

Dunyoda tillar ko‘p, ammo ularning barchasi ham rivojlanmagan. Shuning uchun ham dunyo tillaridagi tilshunoslik nuqtayi nazaridan bo‘ladigan turli o‘zgarishlar, rivojlanishlar olimlar tomonidan maqsadli tadqiq etib boriladi va bir-biri bilan qiyoslab o‘rganiladi. Jumladan, tilshunoslikning muhim sohalaridan biri bo‘lgan terminologiyaga doir ilmiy izlanishlar, ya’ni terminlarini to‘plash, saralash, tartibga solish va shu asosida lug‘atlar tuzib nashr etish ishlari, asosan, XIX asrning uchinchi choragi, XX asrning birinchi choragida yuzaga kela boshladi. Turli sohalar terminologiyasida faol qo‘llanuvchi so‘z/terminlar izohiga aniqlik kiritish maqsadida ilmiy tadqiqotlar olib borildi.

Avvalo, terminologiyaning asosi bo‘lgan “termin” so‘zining lug‘aviy ma’nosiga aniqlik kiritish lozim. Lug‘atlarda “termin” so‘ziga quyidagicha ta’rif keltiriladi: “Termin – lot. terminus – chek, chegara, chegara belgisi. Fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so‘z yoki so‘z birikmasi; atama. Terminlar bir ma’noli bo‘lishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega bo‘lmasligi kabi belgilari bilan ham umumiste’moldagi so‘zlardan farqlanadi...” [1, 104]

Terminologiyada leksemalarning o‘zgarib borishi, yangilarining yuzaga kelishi fanning rivojlanishi va boshqa fanlar integratsiyasi bilan bog‘liq hodisadir. Ushbu o‘rinda tilshunos L.I.Bojnoning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli: “Texnika taraqqiyoti ta’sirida terminologiya o‘zaro aloqador ikki qonuniyat asosida, birinchidan, ilmiy-texnika jarayoni qonuniyatlari, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi” [2, 103].

Dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi madaniy-ma’rifiy, iqtisodiy-siyosiy, ilmiy aloqalarning rivojlanishi terminologiya sohasiga ham ta’sir etmasdan qolmaydi, albatta.

Jahon tilshunosligida terminologiya masalalari yuzasidan G.O.Vinokur, V.P.Danilenko, A.A.Reformatskiy, N.Z.Kotelova singari ko‘plab tilshunos olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan va natijada sohaga oid yangi ma’lumotlar ko‘lami kengayib borgan. O‘z navbatida, tilshunoslikning barcha sohalari qatori terminologiya sohasining o‘rganish obyekti keng, vaholanki, ushbu soha ayni paytda rivojlanish darajasi yuqori sanaladi.

Turizmning rivojlanish tarixi juda qadimiy bo‘lib, bu jarayon sivilizatsiyalashgan jamiyat paydo bo‘lishidan ancha ilgari bor edi va har bir tarixiy davrda inson turizm toifasiga kiradigan faoliyatining shunday turistik elementlari mavjudligi ko‘zga tashlanadi. Turizmning paydo bo‘lishi, shakllanishi va yanada rivojlanish tarixini qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha insoniyat jamiyati shakllanishining asosiy tarixiy davrlariga mos ravishda o‘rganib chiqadi. “Turizm” atamasi nisbatan

keyinroq qo‘llanila boshlagan bo‘lsa-da, bu tushuncha ancha qadimiy bo‘lib, o‘tmishda sayohat, safar, ziyorat kabi turlicha nomlar bilan yuritilgan.

Turizm sayohatning bir ko‘rinishi bo‘lib, ushbu sohadagi har bir faoliyat inson uchun xizmat qiladi. Bunda kishilarning dam olishi, faol yoki nofaol ko‘ngil ochishi, sport bilan shug‘ullanishi, atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi, savdo-sotiq, ilm-fan, sog‘lomlashtirish va boshqa bir qancha jarayonlar nazarda tutiladi. Har bir tashkil etilgan sayohatning boshqa ko‘rinishlaridan farqlovchi xususiyati – kishilarning ma’lum muddat o‘zi yashab turgan joydan boshqa hududga, davlatga, qit’aga borishidadir.

Tarixiy manbalardan ma’lum bo‘ladiki, kishilar savdo-sotiqni rivojlantirish, yangi yerlarni aniqlash va o‘zlashtirish, yerosti boyliklarini izlab topish, yangidan yangi transport yo‘llarini aniqlash maqsadida dunyo bo‘ylab sayohatga chiqishgan. Bugungi kun sayyohligining yuzaga kelish tarixi besh ming yilga yaqin davr bilan belgilanadi, ammo bizning davrimizgacha ming yillik davrdagi sayohatlar haqidagi ma’lumotlar etib kelgan. Tarixdan ma’lumki, buyuk sayohatchilar yangi qit’a va yerlarni ochgan, ular haqida muhim ma’lumotlarni yozib qoldirgan, o‘ziga xos geografik ma’lumotlarni aniqlashga erishgan. Demak, eng qadimgi sayohatchilar sifatida, avvalo, boshqa o‘lkalarga sayohatni tashkil qilgan savdogarlar va ziyoratchilarni keltirish maqsadga muvofiq.

Qadimda insonlar o‘zi yashaydigan hududdan boshqa hududlarda mavjud bo‘lgan yer, boyliklarga erishish hamda savdo-sotiq bilan shug‘ullanish maqsadida ko‘pgina mamlakatlar, shaharlar va hatto qit’alarga safar uyushtirishgan. Tarixdan ma’lumki, Gerodot o‘zining “Tarix” kitobida eramizdan avvalgi V asrga tegishli ko‘pgina sayohatlar, ixtirolar xususida ma’lumotlar qoldirgan. Bu esa, o‘z navbatida, turizm sohasining uzoq taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tganligidan dalolat beradi.

Tarixiy manbalarga tayanib aytish mumkinki, “Buyuk Ipak yo‘li” ham sayohatlarning uzoq tarix yo‘lini bosib o‘tganligidan xabar beradi. Turistik sayohatlarni tashkil etishda savdo maqsadlari muhim masala ekanligini alohida ta’kidlash joiz.

Jahon adabiyotida qadimgi shumerlar davrida yaratilgan “Gilgamish haqida afsona” dostoni, Homerning “Iliada”, “Odisseya”, Dantening “Ilohiy komediya”, Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari”, Mark Tvenning “Geklberri Finning sarguzashtlari” singari asarlar sayohat taassurotlariga tayanib yozilgan. Ushbu asarlar matnida muayyan darajada turizmning dastlabki ko‘rinishlariga doir so‘z/terminlar uchraydi.

Turizm sohasining jadal rivojlanishi barobarida sohaga doir terminlar ko‘lami ham kengayib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, turizm terminlariga tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham yondashish zaruratini yuzaga keltiradi. Jumladan, rus tilshunosligida turizm terminologiyasiga doir ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. E.T.Belan, V.L.Vinogradova, N.Ivanova, O.Maslennikova, O.V.Danilenko singari tilshunos olimlar turizm terminologiyasi bo‘yicha ilmiy kuzatishlar olib borishgan. E.T.Belan tomonidan (“Особенности формирования новых терминосистем (на материале английской и русской терминологии международного туризма”) rus tili va ingliz tili turizm terminlari qiyoslab tahlil qilingan hamda sohada muhim ilmiy tadqiqot amalga oshirilgan.

Turizm terminologiyasining nazariy masalalari V.L.Vinogradovaning “Терминология туризма английского и русского языков в синхронном и диахронном аспектах” mavzusidagi nomzodlik tadqiqotida ham o‘rganilgan. Ushbu nomzodlik dissertatsiyasida turizm terminlari zamonaviy va tarixiy jihatdan qiyoslab tadqiq qilingan hamda ushbu tadqiqotda soha terminlarining yuzaga kelishi, muhim omillari, terminlarning xususiyatlari, ularning nutq jarayonida qo‘llanish doiralari bilan bog‘liq masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Tilda mavjud soha terminlarining vujudga kelish shart-sharoitlari, sabablarining o‘rganilishi barobarida ularni ma’lum qoidalarga asoslanib tasniflash muhim sanaladi. Shu jihatdan sohaga oid ilmiy tadqiqotlarda turizm terminologiyasi lug‘at tarkibining rivojlanish bosqichlariga alohida e’tibor qaratiladi, soha so‘z/terminlariga oid ma’lumotlar ko‘lami va paydo bo‘lish sabablari tahlillarda o‘z ifodasini topadi.

Rus tilshunosi O.V.Danilenko “Становление и развитие английской туристской терминологии и их экстралингвистической обусловленности” mavzusidagi tadqiqot ishida ingliz tili turizm terminologiyasining paydo bo‘lish va rivojlanish bosqichlari hamda terminlarning ekstralingvistik shartlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan, turizm sohasida faol qo‘llanadigan terminlarning leksik-semantik xususiyatlarini aniq ochib bergan.

Turizmning dastlabki ildizlari insoniyat ibtidoiy jamoa tuzumining ilk davrlariga borib taqaladi. Davrlar o‘tishi natijasida bu jarayon asta-sekin rivojlanib, takomillashib borgan. Tilshunos A.Y.Aleksandrovaning fikriga ko‘ra, “Sayohatning ilk ko‘rinishlari dastlab sof amaliy rol o‘ynagan: qo‘shnilarning kayfiyatini aniqlash, tajriba almashish, sotish, bozorlarni qidirish va tovarlarni sotib olish bo‘lgan”. [3, 57] Turizm sohasining tarixiy rivojlanishi va shakllanishi davomida terminning ta’rifi hamda maqsadli yuklamasi doimiy ravishda o‘zgarib borganligini manbalar ham tasdiqlaydi.

Aytish mumkinki, xalqaro terminologiyada yunon va lotin tiliga taalluqli termin-elementlar ko‘proq kuzatiladi. Ular turizm terminologiyasiga doir bir qancha terminlarni hosil qilishda ham faol ishtirok etadi. Soha terminologiyasida, asosan, inglizcha, fransuzcha, ruscha, shuningdek, arabcha, forscha, umumturkiy

va sof o‘zbekcha so‘z/terminlar mavjudligini alohida ta’kidlash lozim.

Soha terminologiyasida faol qo‘llanuvchi “turizm” terminining ko‘plab lug‘aviy ma’nolari bor. Jumladan, *“charchoqdan qutulmoq”, “dam olmoq”, “fiziologik jihatdan toliqqan muskullarni bo‘shashtirmoq”. Inglizcha “tour” leksemasining “biror joyga sayohatga borish”* ma’nosi jahon tillari terminosistemasida “turizm” terminining kirib kelishiga asos bo‘ldi”. [4, 48]

Ingliz tilida qo‘llanadigan so‘z va birikmalar jamlangan “Oksford ingliz etimologik lug‘ati”da berilishicha, “turizm” atamasi XIX asrda fransuz tilidan o‘zlashtirilgan. Fransuzcha “tourism” atamasi etimologiyasining keyingi tahlili ba’zi manbalarda XVII asrga to‘g‘ri keladi, o‘shanda “tur” atamasi qo‘llanilgan deb hisoblangan va hatto undan oldin lotin tilidagi “tornus” so‘zidan kelib chiqqan degan fikrlar ham bor. Shu nuqtayi nazardan ikkita til talqini mavjudligini alohida ta’kidlash kerak, xususan:

a) “birinchidan, fransuzcha tur atamasi lotin tilidan fransuz tiliga o‘zlashgan, buni D.N.Ushakovning izohli lug‘ati ham, M.Fasmerning etimologik lug‘ati ham tasdiqlaydi;

b) ikkinchidan, D.N.Ushakov lug‘atida tur atamasi lotincha torno so‘zidan kelib chiqqanligi aytiladi, M. Fasmer lug‘atida esa etimologik jihatdan tur atamasi lotincha tornus – aylanma so‘zi bilan bog‘langanligi haqida ma’lumotlar bor.

Demak, yuqoridagi fikrlar “Oksford ingliz tili etimologik lug‘ati” talqiniga to‘la mos keladi. “Oksford ingliz tili etimologik lug‘ati” tuzuvchilari lotincha tornus atamasining ko‘lamini aniqlash uchun zamonaviy inglizcha torno – tokar va “aylanma harakat” atamasidan foydalanadilar”.

Dastavval, yuqoridagi talqinlar bo‘yicha tokar “aylanma harakat” va tur atamasining zamonaviy ma’nosi o‘rtasidagi mos muvozanatliklarni o‘rnatish qiyin bo‘ladi. Ammo yuqoridagi talqinlarni qo‘shib, mantiqiy uyg‘unlashtirib, antik davrda qo‘llangan “tornus” atamasini quyidagicha qisqartirish mumkin edi, deb taxmin qilinadi, ya’ni tur sayohat demakdir.

Terminologiya sohasidagi adabiyotlarda ham “turizm” terminiga turlicha ta’riflar beriladi: “Ma’lum marshrut bo‘yicha ham tomosha qilish va dam olish, ham sport, ham umumiy ma’lumotni oshirish maqsadida uyushtirilgan sayohat va shunday sayohatlar bilan shug‘ullanish. Fransuzcha tourisme tour sayr demakdir”. [5, 465] “Turizm” fransuzcha tourisme, ya’ni tour – aylanish, sayr qilish”. Masalan, turizmning tobora rivojlanayotganini e’tiborga olib, turistik poyezdlar marshruti yanada ko‘paytirildi. [6, 195]

Adabiyotlarda keltirilishicha, bir guruh olimlar turizm terminiga berilgan ta’rifda tilshunos V.Xuansiker va K.Krapflar talqinidagi umumiy nazariyaga tayanadilar. Ushbu olimlarning ta’riflari quyidagicha: *“Insonlarning munosabatlari va ularning yashash joyidan tashqaridagi faoliyati doimiy yashash tarziga aylanmasdan va mehnat haqi olish bilan bog‘liq bo‘lmagan holda kun kechirishi natijasida kelib chiqadigan munosabatlar majmuasi” turizmdir.[7*, 352] Zamonaviy turizm terminologiyasida ham “turizm” termini uchun keltirilgan ta’rif mazmun jihatdan mos keladi.

“Hozirgi O‘zbekiston hududini bosib olish maqsadida chet elliklar turli qiyofada harbiy zobit, elchi, ayg‘oqchi, darvish, jumladan, sayyoh sifatida kirib kelishgan. Xan hukmdori Udi (miloddan avvalgi 140-87-yillar) ayg‘oqchi Chjan Siyanni Sharqiy Turkistonga yuboradi. Xunlar tomonidan 10 yil asirga olib turilgach, undan qochib Koshg‘ar orqali qadim Parg‘ana (Farg‘ona) davlatiga keladi. Yurtiga qaytgach, 114-yilda imperator topshirig‘i bilan ikkinchi marta savdo karvoniga bosh bo‘lib kelib, O‘rta Osiyo to‘g‘risida ma’lumotlar to‘playdi”. [8, 117-118]

“XIX asrning birinchi yarmida Angliya o‘z maqsadlarini ko‘zlagan holda Rossiyaga qarshi Turkiston xonliklari ittifoqini tuzish maqsadida o‘z ayg‘oqchilarini sayyohlar sifatida yuborib, ma’lumotlar to‘plash ishlari bilan shug‘ullanadi”. [8, 495-496] Albatta, ushbu jarayonlarda ishtirok etgan shaxslarning ham garchand maqsadi boshqa bo‘lsada, sayohat bilan bog‘liq so‘z/terminlarning jamoatchilik nutqida ishlatilganligi aniqdir. Adabiyotlarda keltirilishicha, “turist va turizm atamalari dastlab XIX asr o‘rtalarida London bo‘ylab birinchi ommaviy turistik sayohat tashkil etilgan paytda Angliyada zamonaviy turizmning asoschisi Tomas Kuk tomonidan kiritilgan”. [9] Zamonaviy turizmga asos solgan hamda ommaviy turizmning ahamiyatini tushungan angliyalik Tomas Kuk 1843-yilda dastlabki turistik sayohatni amalga oshirgan va uning ushbu turistik safari muvaffaqiyatli yakunlangan. Fan-texnika sohasidagi kashfiyotlar turizm sohasi hamda soha doirasidagi tushunchalarning yuzaga kelishiga jiddiy turtki bo‘ldi. Soha rivojlanishi barobarida turizm terminologiyasi lug‘at tarkibi boyib boraverdi. Jahon tilshunosligining lug‘at tarkibi, jumladan, turizm terminologiyasi yangi so‘z/terminlar bilan to‘ldirildi. Buni *turist, samolyot, poyezd, vagon, bron, reys, vokzal, aeroport, hotel, motel, kemping, turoperator, ekoturizm, nomer, garnir, kofe, restoran, banket, bar, kurort, bort, brezent, charter reys, shopping tur* kabi turistning sayohat davri bilan bog‘liq so‘z/termin hamda birikmalarning qo‘llanilishi faollasha boshlaganidan ham aniqlash mumkin. Ushbu terminlar soha doirasida turistlar muomalasida tez-tez qo‘llanadi va sayohatning mukammal tashkil etilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Aytish mumkinki, soha terminlarining tarixi, shakllanish bosqichlari, yasalishi, tuzilishi va yuzaga kelish omillari xususida tavsiyalar ishlab chiqishda yuqoridagi singari ma’lumotlarga tayanib ish yuritish

yaxshi natijalar beradi. Dunyodagi tillar doimo bir-biri bilan aloqada ekan, bir til boshqa ikkinchi tildan so‘z va terminlar o‘zlashtirishi natijasida o‘z lug‘at boyligini yanada boyitib boraveradi. Ushbu jarayon turizm sohasi lug‘atlariga ham ta’sir etmasdan qolmaydi. Turli tillardagi soha terminlariga doir masalalarni o‘rganish, qiyosiy tadqiq etish turizm terminologiyasi xususidagi yangi ma’lumotlar bazasini to‘ldirishga xizmat qiladi deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1 Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2002.
2. Божно Л. Научно-техническая терминология как один из объектов изучения закономерностей развития языка // филологические науки. – Москва, 1971. – №5.
3. Александрова Ю.А. Международный туризм. / Александрова Ю.А. – Москва: Аспект Пресс, 2004.
4. Мусина Г., Сатарова Л. Терминология международного туризма и способы ее перевода с английского на русский язык. Научная статья. Теоретическая, прикладная и сравнительно-сопоставительная лингвистика. DOI: https://doi.org/10.23670/IRJ.2022.122.
5. Усмонов О., Дониёров Р. Русча-интернатsionал сўзлар изоҳли луғати.– Тошкент, 1965.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. IV жилд.
7. Лукачева Л., Кварталнов В., Исаев В. и др. Менежмент туризма. Основы менежмента. Учебник. – Москва: Финансы и стасистика, 2006.
8. Асқаров М. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019.

Dildora BAHRIDDINOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
E-mail: dildora6581042@gmail.com



ADABIY TANQID ADABIYOTSHUNOSLIKNING TARKIBI SIFATIDA

Annotatsiya: ilmiy-estetik tafakkur mahsuli sanaluvchi adabiy tanqid so‘z san’ati sifatida dunyoga kelib, shakllanish va rivojlanish jarayoniga kirgan hodisadir. Adabiyotshunoslikning eng tezkor sohasi bo‘lgan adabiy tanqid adabiy jarayonga oid muammolarni, badiiy asarlarni adabiyotshunoslik ilmining yutuqlariga tayangan holda o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: *adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, adabiy tanqid, adabiy jarayon, o‘zbek adabiy tanqidchiligi,munaqqid, milliy matbuotning shakllanishi.*

Аннотация: литературная критика, являющаяся продуктом научного и эстетического мышления, - явление, пришедшее в мир как искусство речи и вступившее в процесс становления и развития. Литературная критика приобрела характер анализа и оценки сути литературного процесса в форме эстетического мышления в действии. Насколько искусство имеет внутреннее разнообразие, критика относится к этим областям.

Ключевые слова: *компоненты литературоведения, литературоведение, литературный процесс, узбекское литературоведение, критика, формирование национальной прессы*

Annotation: literary criticism, which is the product of scientific and aesthetic thinking, is a phenomenon that came into the world as the art of speech and entered the process of formation and development. Literary criticism has acquired the character of analyzing and evaluating the essence of the literary process in the form of aesthetic thinking in action. As much as art has internal diversity, so does criticism in those areas.

Keywords: components of literary studies, literary criticism, literary process, Uzbek literary criticism, criticism, formation of the national press.

Adabiy tanqid adabiyotshunoslik fanining tarkibiy qismi bo‘lib, fan sifatida u “Adabiy jarayon muammolarini o‘rganish, yangi paydo bo‘lgan asarlarni (shuningdek, o‘tmishda yaratilgan asarlarni ham) bugungi kun nuqtayi nazaridan g‘oyaviy-badiiy tahlil qilish va baholashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi” [1,13-bet]. O‘tgan asr boshida jadid munaqqidi Mahmudxo‘ja Behbudiy “Tanqid – saralamoqdur” deya, mazkur soha konsepsiyasini

to‘g‘ri belgilagan edi. Adabiyotshunoslikning eng tezkor sohasi bo‘lgan adabiy tanqid adabiy jarayonga oid muammolarni, badiiy asarlarni adabiyotshunoslik ilmining yutuqlariga tayangan holda o‘rganadi. “Adabiyot ensiklopediyasi”da adabiy tanqid istilohining ma’nosi “Nazariy adabiyotshunoslikda ishlab chiqilgan tahlil tamoyillari, badiiy matnni talqin etish tajribalari asosida adabiy harakatdagi asarlarni o‘rganish, talqin qilish” [2-236-bet] deya izohlanadi. “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” darsligida “Arabiy lug‘atlarning shahodat berishicha, “naqd” so‘zining bosh ma’nosi – “saralamoq”, ya’ni yaxshini yomondan yoki aslni soxtadan ajratish demakdir. “Naqada” o‘zagidan kelib chiqqan tanqid istilohi muhokama qilmoq, tekshirmoq, o‘rganmoq, nimaningdir haqqoniyligi va to‘g‘riligini isbotlamoq, yutuq va kamchiliklarni aniqlash, badiiy asarni baholash, izohlash kabi ma’nolarni ifodalaydi” [3, 5-bet] deyilgan. Rus adabiy tanqidchiligining otasi V.G.Belinskiy tanqidni harakatdagi estetika deb baholab, bu atama “hukm qilmoq” degan ma’noni ifodalovchi grek so‘zidan kelib chiqqandir: demak, uning keng ma’nosi – “hukm qilmoq”, “fikr yuritmoq” demak. Mana shuning uchun tanqid faqat san’at va adabiyot asarlarigagina xos bo‘lib qolmay, fan, tarix, axloq va boshqalarga ham taalluqlidir,” [4-219-bet] - deydi. Adabiyotshunos B.Rahmonov tanqid atamasining qo‘llanish doirasini yanada aniqlashtiradi. Uningcha, tanqid istilohi keng va tor ma’nolarda qo‘llanilishi mumkin. “Har bir san’at turining o‘z tanqidchiligi bor: teatr tanqidchiligi, kino tanqidchiligi, musiqa tanqidchiligi, adabiy tanqidchilik va h. Ya’ni keng ma’noda ushbu istiloh umuman, “badiiy tanqid”ni anglatsa, tor ma’noda qo‘llanilganda uning yoniga izohlovchisi qo‘shiladi: “adabiy tanqid”, “kino tanqidi”, “musiqa tanqidi” va h” [5, 4-bet]. Adabiy tanqid adabiy hodisalarning kelib chiqishi, ularning rivojlanish tendensiyalarini kuzatadi. Buni adabiyotshunoslikning boshqa fanlari bilan bog‘liq holda amalga oshiradi.

Adabiy tanqid adabiyot nazariyasi va adabiyot tarixiga tayanib ish ko‘radi. Shu o‘rinda munaqqid U.Normatov va yozuvchi P. Qodirovlarning “Harakatdagi estetika” deb nomlangan adabiy suhbatidan ushbu jumlalarni esga olish zarur: “Biz adabiyotning zamonaviyligi to‘g‘risida ko‘p gapiramiz. Tanqidiy tafakkurning zamonaviyligi ham nihoyatda muhim masala. Modomiki, adabiy tanqid “harakatdagi estetika” ekan, u zamon nafasini, bugungi kunning ehtiyojlarini sezgirlik bilan o‘zida mujassam etishi lozim”[6,313-bet]. Demak, adabiy hodisalarga eskirgan mezonlar bilan emas, zamon nafasi, bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqib yondashmoq lozim bo‘ladi. Adabiyotshunoslik uch asosiy tarkibiy qismdan iborat. Bular: adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid.

Adabiyot tarixi badiiy adabiyotning uzoq yoki yaqin tarixiga mansub qismini o‘rganadi. Adabiyot tarixi so‘z san’atining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixini ham tadqiq etadi, umumlashtiradi, jamiyat tarixiy taraqqiyotida badiiy adabiyotning roli va ahamiyatini belgilaydi.

Adabiyot nazariyasi badiiy adabiyotning mohiyati, rivojlanish omillari va qonuniyatlari, jamiyat hayotidagi o‘rni va vazifalari, badiiy asar tabiati hamda uning tuzilishi, badiiy til xususiyatlari, adabiy turlar va janrlar kabi masalalarni umumiy tarzda o‘rganadi va shu asosda umumiy qonuniyatlarni ochib beradi. Shuningdek, adabiyot nazariyasi badiiy obraz va obrazlilik, badiiy obraz va reallik munosabatlari, dunyoqarash va badiiy ijod, badiiy ijod jarayoni xususiyatlari, badiiy asarni qabul qilish jarayoni xususiyatlari kabi qator umumestetik masalalarni ham so‘z san’atiga tatbiqan o‘rganadi. Adabiyot nazariyasi badiiy asarlarni tahlil qilish tamoyillari, baholash mezonlari, tahlil metodlarini ishlab chiqadi, adabiyotshunoslik uchun zarur adabiy-nazariy tushunchalar tizimini yaratadi. Ko‘rib turganimizdek, adabiyot nazariyasi adabiyotshunoslik ilmining yadrosini tashkil qiladi[7,18-bet].

Adabiy tanqid adabiyotshunoslikning eng tezkor sohasi bo‘lib, yuqorida aytilgani kabi adabiy jarayon muammolarini o‘rganish, yangi paydo bo‘lgan asarlarni (shuningdek, o‘tmishda yaratilgan asarlarni ham) bugungi kun nuqtayi nazaridan g‘oyaviy-badiiy tahlil qilish va baholash vazifasini bajaradi. Adabiy tanqid badiiy asarni o‘rganishda adabiyotshunoslikning boshqa sohalariga tayanadi. Adabiy tanqid va adabiyotshunoslikning boshqa sohalari o‘rtasida mustahkam aloqa mavjud. Ilmiy-nazariy asos bo‘lmagan holda badiiy asarni baholash mumkin emas. Adabiy tanqid adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid yutuqlariga tayanib ish ko‘radi va ayni chog‘da adabiy tanqidning faoliyati adabiyot tarixi va nazariyasi uchun manba vazifasini o‘taydi. Ko‘rinadiki, ular orasida mustahkam aloqa mavjud.

Adabiy tanqid badiiy ijod bilan qariyb bir vaqtda paydo bo‘lgan. Yozuvchilar yangi yozgan asarlarini turli davralarda, yig‘in va saroylarda o‘qib berishgan, davra qatnashchilari esa shu asarlarning yutuq va kamchiliklarini qayd etib, ayni paytda ham o‘quvchi (kitobxon), ham tanqidchi vazifasini bajarib kelishgan. Bu tanqid tarixining “og‘zaki davri” dir. Tanqidning yozma adabiyotdagi ilk namunalarining paydo bo‘lishi esa tazkirachilik maktabining shakllanishi bilan bevosita bog‘liq. Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” (1487) asari eng qadimgi tazkiralardan biri bo‘lib, unda IV-XV asrlarda O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Eronda yashagan mashhur shoirlar haqida ma’lumot bilan birga ular ijodidan namunalar ham berilgan. Tazkirachilikning mumtoz namunalaridan biri – Navoiyning “Majolis un-nafois“ (1491) asarida esa XV asrda Xurosonda yashagan jami 450 dan ortiq shoir, yozuvchi va olimlarning bilim darajasi, dunyoqarashi, saviyasi va boshqalar

to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Shuningdek, Nisoriy, Vozeh, Fazliy, Tabibiy va boshqalarning tazkiralarida muayyan yozuvchilar va ularning asarlari yuzasidan berilgan ma’lumotlar o‘zbek adabiyotida tanqidning paydo bo‘lishidagi muhim omillardan bo‘lgan. Adabiy tanqid uzoq vaqt mobaynida “amaliy“ ahamiyat kasb etib, yozuvchini maqtash, ko‘kka ko‘tarish yoki, aksincha, qoralash, nuqsonlarini fosh etish, uning asarini esa umumiy baholash va kitobxonga tavsiya etish bilangina kifoyalanib keldi. Adabiyotning rivojlanishi, uning oldiga jamiyat tomonidan qo‘yilgan vazifalarning murakkablashishi bilan tanqid ham adabiy mehnat sohasi sifatida yangi qirralar, sifatlar kasb etdi. XVI–XVIII asrlarda Yevropa xalqlari adabiyotida estetik tafakkurning shakllanishi bilan tanqid adabiy harakatning muhim qismi sifatida ajralib chiqdi. XIX asrda Fransiyada Sh. O. Sent Byov boshchiligidagi “Biografik maktab” ning, Rossiyada V. G. Belinskiy, N. A. Dobrolyubov, N. G. Chernishevskiy singari rus tanqidchilari maktabining shakllanishi bilan tanqidning adabiy hayotdagi ahamiyati behad oshdi, maqsad va vazifalari esa tubdan o‘zgardi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Toshkent: Akademnashr, 2018. 13-bet.
2. Адабиёт энциклопедияси: (Атамалар, истилоҳлар, сиймолар, асарлар ва нашрлар). Тузувчи: Ҳ.Болтабоев. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2014. 236.
3. Nazarov B., Rasulov A., Ahmedova Sh., Qahramonov Q. O‘zbek adabiy tanqidi tarixi. –Toshkent: Tafakkur qanoti, 2012. 5-bet.
4. Белинский В. Г. Танланган асарлар. –Тошкент: Ўзбекистон Давлат Нашриёти, 1955. – Б. 219.
5. Rahmonov B. O‘zbek adabiy tanqidchiligi. –Toshkent: Istiqlol nuri, 2015. 4-bet.
6. Норматов У. Қодиров П. Ҳаракатдаги эстетика // Нафосат гурунглари. –Тошкент, Муҳаррир, 2010. – Б.313.
7. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Toshkent: Akademnashr, 2018. 18-bet.

Ozoda ANORQULOVA,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

AYRIM XALQ TOPISHMOQLARI MATNIDA “OILA” KONSEPTINING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada folklor va uning tarkibiga kiruvchi topishmoq tushunchasi, ular orasida oilani aks ettiruvchilarning ayrim lisoniy-kognitiv jihatlari tahlilga tortilgan. Topishmoqlar kishini ziyraklikka, topqirlikka undaydi. Uzoq davrlardan buyon mavjudligi sabab, topishmoqlar matnida aynan milliy-madaniy qarashlar, aksiologik tamoyillar aks etadi. Ularni aniqlash, tahlilga tortish esa ushbu maqolada yoritilishi belgilangan vazifalardandir.
Kalit so‘zlar: *folklor, topishmoq, konsept, oila, ota, qarindosh-urug‘, o‘gaylik.*
Аннотация: в этой статье рассматривается концепция фольклора и входящих в него загадок, среди которых некоторые лингвокогнитивные аспекты тех, которые представляют семью. Загадки побуждают человека к смекалке, находчивости. Причина существования с давних времен в том, что в тексте загадок отражаются именно национально-культурные взгляды, аксиологические принципы. Их выявление, взвешивание в анализе-вот некоторые из задач, которые будут рассмотрены в этой статье.
Ключевые слова: *фольклор, загадка, понятие, семья, отец, родственник, отчим.*
Annotation: in this article, the concept of folklore and its constituent riddle, among which some linguistic-cognitive aspects of family reflectors, are drawn into the analysis. Riddles motivate a person to elegance, resourcefulness. The reason for its existence since long periods, the text of riddles reflects precisely national-cultural views, axiological principles. And identifying them, weighing them into analysis, is one of the tasks that is prescribed to be covered in this article.
Keywords: *folklore, riddle, concept, family, father, relative-seed.*

Tilshunoslikning turli yo‘nalishlari bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlarning obyekti sifatida topishmoqlar yetakchilik qiladi. Aynan kognitiv yo‘nalishdagi ishlarning aksariyatida topishmoq matnlari asosiy material vazifasini bajargan. Jahon va o‘zbek olimlaridan S.S.Gorkina, O.V.Kulaga, Z.Husainova, E.Ashuraliyev kabilarning bu boradagi ishlarini ko‘rib chiqish jarayonida yuqoridagi xulosalarga kelindi.

Topishmoqlar esa insonni tafakkur qilishga, izlanishga undovchi tarbiya vositalarining asosiylaridan biridir. O‘zbek xalq topishmoqlarining salmog‘i va qamrovi shu qadar kengki, ularni turli sohalar bo‘yicha tahlil va talqin qilish mumkin. Bugungi tadqiqotimizda xalq topishmoqlari matnida “Ota” konseptiga doir materiallarni to‘plab tahlilga tortish maqsadidamiz. Rang-barang mavzuga va matnga ega bo‘lgan topishmoqlarda ota shaxsi nimalarga yoki, aksincha, nimalar otaga qiyoslanganligi, ularning lisoniy-kognitiv mazmunlari haqida kichik izlanishlar olib boramiz.

O‘zbek xalq topishmoqlarini, dastavval, turlar bo‘yicha tahlil qilishni o‘rinli bildik. Bilamizki, topishmoqlar bir predmetli va ko‘p predmetli turlarga bo‘linadi. Bir predmetli topishmoqlarda yashiringan predmet faqat bitta narsa bo‘lsa, ko‘p predmetli topishmoqlar bir nechta yashiringan narsaga ishora qiladi. Oilani anglatadigan topishmoqlarda ham xuddi shu turlarga tegishlilari bor.

Otamdan bir meros oldim, Yerga ko‘msam chirimas. Ushbu topishmoq ism haqida. Ism qo‘yish otalarning zimmasiga yuklangan eng asosiy vazifalardan. Nega aynan otalar, onalar emas, buvi, bobolar emas? Farzandiga to‘g‘ri ism tanlash ota oldida turgan mas’uliyatli burchdir. Chunki insonning ismi ma’lum miqdorda uning hayotiga, turmush tarziga, taqdiriga daxldor bo‘ladi. Oxirat kunida hamma o‘z ismi bilan chaqiriladi. Bu borada Shayx hazratlarining quyidagi fikrlarini keltirib o‘tishni joiz topdik: “Husayn ibn Hasan Marvaziy “Kitob-ul birri vas-sila”da Abul Mo‘tamirdan keltirilgan rivoyatda yozadi: “Umar ibn Abdulazizning huzurida masalalarni muzokara qilishdi. Shunda bir kishi aytdi: “Menga yetib kelgan xabarga ko‘ra, tug‘ilgan bolaga ism qo‘ymay turib o‘lgan bo‘lsa, Qiyomat kuni otasiga: “Meni ismsiz tark qilding-ku!” deydi.”

Shuning uchun har bir musulmon ota-ona bu muhim ishga alohida e’tibor ila yondashmog‘i lozimdir. O‘zi bilmasa, biladiganlardan so‘rab, o‘rganib, o‘g‘il bo‘lsin, qiz bo‘lsin, bolasiga go‘zal ism qo‘yishi kerak. Qo‘ygan ismida orzu-umid, yaxshi niyat, go‘zallik, xayr-baraka o‘z ifodasini topsin. Farzand katta bo‘lib, oq-qorani taniganda o‘z ismidan uyaladigan bo‘lmasin. Balki ismi unga ziynat bo‘lib tursin.”[1]

Hadisi sharifda ham ushbu masalaga doirlari bor: Abu Dardo roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Qiyomat kuni o‘z ismlaringiz va otalaringizning ismi ila chaqirilursiz. Ismlaringizni go‘zal qiling”.

O‘zbek ismlari bo‘yicha ko‘plab kitoblar yozgan olim Ernest Begmatovdir. U o‘zining kitoblarida ismlarning ma’nolari, tilshunoslik bilan bog‘liq holatlarini tadqiq etgan. Olim birgina “O‘zbek ismlari izohi” kitobida 14600 ga yaqin ismlarni izohlaydi. Uning fikricha: “Tilda, aslida, “xunuk” yoki “yomon” ismlar yo‘q. Hech bir ota-ona o‘z farzandiga bunday nom qo‘yishni istamaydi. Odatda, mana shunday “xunuk” ismlarning yaratilishi va berilishi kishilarning o‘z farzandiga bo‘lgan ezgu orzulari, tilak va armonlari bilan bog‘liq. Chaqaloqni qanday nomlash har doim aniq sharoit taqozosi, ota-onalarning istak-xohishlari, ishonch-e’tiqodlari bilan bog‘liq bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi.”[2]

Olimning ushbu lug‘atida o‘zbek ismlaridan Yomonbola, Itolmas, Itemas, Kasofat, Qizlarbas, Qiztug‘mas kabilar izohlangan. Fikrimizcha, o‘zbek tilida lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmagan so‘zlar juda kam, ismlarning barchasida o‘ziga xos mazmun, leksik ifoda, appelyativ ma’no mavjud. Kishiga atoqli ot sifatida ziynat beradigan ism har tomonlama go‘zal bo‘lmog‘i zarur. Ba’zilar ism qo‘yish masalasiga bir yoqlama – mazmunan go‘zal bo‘lishi kifoya deb hisoblashadi, biroq ism ikki tomonlama: ham shaklan, ham mazmunan go‘zal bo‘lishi kerak. Kimdir ismni erkalash qo‘shimchalarini qo‘shgan holatda, kimdir esa ismlarga ayrim so‘zlarni qo‘shgan holatda tanlaydi. Ismlarning etnografiyasiga nazar tashlasak, aksariyat nomlar bola tug‘ilgan vaziyat bilan bog‘liqligini ko‘rish mumkin. Ketma-ket farzandidan judo bo‘lganlar bolalariga To‘xtasin, Tursun kabi fe’llardan, o‘g‘il xohlaganlar O‘g‘iloy, Ulbo‘sin, tish bilan tug‘ilganlar Bo‘riboy kabi nomlarni qo‘yishadi.

Otasi uyda qolar, Bolasi bozor borar. Bu bir predmetli topishmoqda mevali daraxt nazarda tutilgan. Daraxt tushunchasi otaga, mevasi esa farzandga qiyoslanmoqda. Yer yuzi yaralibdiki, unda insoniyat tabiat bilan uyg‘unlikda yashab kelmoqda. Bu yerda mavjud o‘simliklar, dov-daraxtlar, hayvonlar – barcha-barchasi insoniyat qatorida yashashga, undan foydalanishga haqli. Tabiat va inson o‘zaro mushtarakdir. Daraxtning otaga qiyoslanishi ham bejiz emas, chunki ota farzand dunyoga kelishi uchun asosiy sababchi bo‘lib, bolalarning kamolga yetishi, jamiyatga ta’sir etishi borasida ham alohida vazifaga ega. Biror kishining nasl-nasabi, garchi bolada ona genlari ko‘p bo‘lsa-da, onaga qarab emas, otasining nasabi bilan belgilanadi.

Daraxtlar biz yashab turgan hayotimizning bir qismi sanaladi. Biologik jihatdan qarasak, ko‘p yillik o‘simlik o‘zidan karbonat angidrid (CO_2) yutib kislorod chiqaradi, insonlar esa buning aksi kislorod yutib karbonad angidridni chiqaradi. Qolaversa, daraxtlar insoniyatni toza havo, oziq-ovqat, issiqlik, boshpana bilan ta’minlaydi. Shu tariqa inson va tabiat o‘rtasida uzviy bog‘liqlik paydo bo‘ladi.

Lingvokulturologik jihatdan qarasak, daraxt tushunchasi inson tasavvurida turlicha talqin qilinadi.

1 Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Бахтиёр оила – Т.: “Ҳилол-Нашр”, 2018. 528, 292-бет.

2 Бегматов, Э.А. Ўзбек исмлари изоҳи. – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2016. 608, 6-бет.

Bu tushuncha har xil xalqlar tafakkurida o‘ziga xoslikda namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalqida daraxt (yoki mevali daraxt) leksemasi ongda gavdalantirilsa, chinor, tut, terak, olma, o‘rik, rus xalqida qayin yoki eman, hindlarda banan kabi daraxtlar tasavvurda namoyon bo‘ladi. Bizda chinor – uzoq umrni, savlatni, anor – oilani, anjir – serfarzandlilikni anglatadi. Ruslarda Bodzerak – qiz va sevgi timsolini, shuvoq, yovshan – qayg‘u, g‘amni, yaponlarda qirqquloq – yangi yilda omad tilashni, ruslarda esa o‘limni, xitoyda xrizantema – o‘lim va qabristonni anglatadi.

Ota ham daraxtlar borliqqa qanday g‘amxo‘rlik qilsa, o‘z bolalariga xuddi shunday g‘amxo‘rlik qiladi. Mevaning qay darajada sifatli, mazali bo‘lishi daraxtning holati, sog‘lomligiga bog‘liq bo‘lganidek, farzandlarning qay darajada tarbiyaliligi, ilm-salohiyatga egaligi, sog‘lomligi ham otaga bevosita bog‘liq. Aynan shuning uchun ham yuqorida keltirilgan topishmoqda ota shaxsi daraxtga qiyoslangan, bo‘lsa ajab emas.

Otasi bor, enasi bor, O‘n ikkita bolasi bor.

Ushbu topishmoqning javobi narvon. Narvon tojikcha so‘z bo‘lib, ot asli “shoxcha” ma’nosini anglatadigan **nard** otiga bog‘la ma’nosini anglatadigan **bastan** fe’lining **band** hozirgi zamon asosini qo‘shib hosil qilingan bo‘lib, tojik tilida voqe bo‘lgan tovush o‘zgarishlari natijasida **nardbon** shakli yuzaga kelgan. O‘zbek tilida shu shakli tarkibidagi **d** tovushini tashlab, **b** tovushini **v** tovushiga almashtirib olingan.[1] Narvon yuqoriga chiqib-tushishda ishlatiladigan buyum ma’nosini anglatadi (O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2-jild).

Narvon (shevada – shoti) o‘zbek xalqi orasida juda ko‘p o‘rinlarda ishlatiladigan leksemadir. Narvon so‘zi bilan bog‘liq ko‘plab an’analar, hikoyalar, maqollar mavjud. Xalqimiz orasida narvonga o‘tirish mumkin emas deb qaraladi, go‘yoki qiz narvonga o‘tirsa, erga tegolmay qolishi mumkin deb hisoblashadi. Shu sababdan turmushga chiqmagan qizlarning ota-onalari zina yoki narvonga o‘tirishlarini man etishadi (bu udum hanuzgacha ayrim qishloqlarda saqlanadi).

Qolaversa, xalqimiz tilida *“Narvonga chiqsang, shoshmay chiq, O‘z haddingdan oshmay chiq”* degan maqol, Asad Dilmurod tomonidan yozilgan “Narvon” nomli hikoya mavjud.

Narvon so‘zi bilan bog‘liq tushunchalarni kuzatish barobarida bunday nom bilan ataluvchi soch turmagi, shuningdek, Pensilvaniya shtatida joylashgan, iqlimi issiq, subtropik, aholisi ko‘p hudud mavjudligiga guvoh bo‘ldik.

Umuman olganda, keltirilgan topishmoqda narvonning otaga qanday aloqasi borligi haqida mulohaza yuritamiz. Narvon ikkita asosiy ustun va ularni birlashtirib turuvchi kichik zina vazifasini bajaradigan ustunchalardan tashkil topgan. Baland joyga chiqish uchun mo‘ljallangan buyumning ota-onaga qiyoslanishi bejiz emas. Inson hayotida ota va onaning vazifasi ham ustunga o‘xshaydi. Ular hamisha bolalariga tirgak bo‘lishadi, yuqorilashlariga asosiy ko‘maklarini ayashmaydi. Narvonning pishiqligi ustunlarning baquvvatligiga ham bog‘liq. Oilani, er-xotinni farzandlar birlashtirib turganidek, narvon ustunlarini ham kichik qismlari birlashtirib turadi. Yuqoridagi qiyoslanishlarni ko‘rib ota-bobolarimiz naqadar yuksak zehn, aql va tafakkur egalari bo‘lganliklaridan hayratlanamiz.

Bir predmetli topishmoqlarni kuzatish natijasida ularda ota shaxsi **olovga (**Otasi arava qo‘shgancha, O‘g‘li Qo‘qon boribdi (tutun). Bu yerda olov yonishni boshlaguncha tutunning atrofga tarqalib ulgurishi nazarda tutilgan.), **Keliga (**Otasi og‘zin ochar, Bolasi urib qochar (keli) qiyoslanganligi kuzatildi.

Maqola hajmi chegaralanganligi sabab bunday topishmoqlarning tahlilini uzoq davom ettirish imkoni biroz kamayadi. Kelgusi tadqiqotlarda ularni davom etish vazifa qilindi. Sababi, topishmoqlar matnida qo‘llanilgan ifodalar xalqimizning azaliy aksiologik qadriyatlaridan darak beradi, ularni aniqlash va tahlilga tortish bugungi kun ilm-fani uchun ham dolzarblik kasb etadi.

[1] Ш.Раҳматуллаев. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 3-жилд. – Тошкент: “Университет”, 2009. – 148-бет.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Бахтиёр оила. – Т.: “Ҳилол-Нашр”, 2018. 528, 292-бет.
2. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари изоҳи. – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2016. 608, 6-бет.
3. Ш.Раҳматуллаев. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 3-жилд. – Тошкент: “Университет”, 2009. 148-бет.

Gulbahor ASHUROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori, Fuzuliy nomidagi ilmiy tadqiqot markazi rahbari. Email: gulbahora777@gmail.com

TARIXIY ASARDA FAKT VA HAYOT HAQIQATI

Annotatsiya: adabiyotda tarixiy mavzuga murojaat, buyuk tarixiy shaxslarning badiiy obrazini yaratish davrning tabiiy taqozosi bilan sodir bo‘luvchi, muhim axloqiy-estetik ehtiyojning natijasi o‘laroq yuzaga keluvchi jarayondir. Ushbu maqolada Alisher Navoiy obrazi va tarixiy shaxs tasviri haqida fikr-mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *turkiy adabiyot, Alisher Navoiy obrazi, tarixiy shaxs, tasvir va talqin, mustaqillik davri, tadqiqot, badiiy asar, buyuk siymo, milliylik.*

Аннотация: обращение к исторической тематике в литературе, создание художественного образа великих исторических личностей - это процесс, который происходит по велению эпохи, в результате важной нравственной и эстетической потребности. В данной статье рассматривается образ Алишера Навои и образ исторической личности.

Ключевые слова: *тюркская литература, образ Алишера Навои, историческая личность, образ и интерпретация, период независимости, исследование, произведение искусства, великий символ, национализм.*

Annotation: the appeal to the historical theme in literature, the creation of an artistic image of great historical figures is a process that occurs by the presumption of the era, as a result of an important moral and aesthetic need. This article discusses the image of Alisher Navoi and the image of a historical person.

Keywords: *turkic literature, the image of Alisher Navoi, historical person, image and interpretation, the period of Independence, research, work of art, great faith, nationalism.*

Dunyodagi barcha xalqlar adabiyotining muayyan davrida tarixiy shaxs fenomenini badiiy idrok etish tendensiyasi kuzatiladi. Bu jarayon obyektiv va subyektiv omillarga ko‘ra yuzaga keladi. Moziy voqeligini zamonaviy adabiyotda tasvirlashdan asosiy maqsad – insoniyatni ezgulikka chorlash, bugungi kun uchun muhim xulosalar chiqarish, kelajak uchun zarur dasturulamal ko‘rsatishdan iboratdir. Har bir ijodkorning tarixiy mavzu va shaxslar hayotini tasvirlashdagi mahorati esa uning o‘sha xalq o‘tmishi, tarixiy ildizlarini qanchalik aniq tasavvur qilishi va asarlarida haqqoniy tasvirlashi bilan belgilanadi. Bugungi kunda dunyo adabiyotshunosligida tarixiy mavzu, xususan, buyuk siymolar hayoti va faoliyati aks etgan ijod namunalarini genetik va poetik aspektlar uyg‘unligida ilmiy tekshirish, adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan baholash alohida yo‘nalishni tashkil etmoqda.

Tarixiy asarlardagi fakt va hayot haqiqati bilan badiiy talqin o‘rtasidagi mutanosiblik xilma-xil, hatto mutlaqo ikki qutbda bo‘lishi ham mumkin. Masalan, Nizomiy va Navoiylar tasvirlagan Iskandar adolatli, insofli, xalqparvar va darveshtab obraz sifatida tasavvur hosil qiladi:

Dedikim: Manga ganj emastur havas,
Sipoh-u raiyat manga ganj, bas .

Aslida ham shunday bo‘lganmi? Antik davr tarixchilarining Aleksandr haqidagi romanlarini o‘rgangan I.Ismoilovning yozishicha, “Osiyo yurishining asosiy sabablaridan biri boylik orttirish bo‘lgan. Agar shon-sharaf, hukmdorlik, adolat o‘rnatish buyuk harbiy yurishlarning siyosiy maqsadi bo‘lsa, keng imkoniyatlarga ega bo‘lish, mamlakatlar va ularning qimmatbaho narsalarini o‘zlashtirish hisobiga boyish harbiy yurishlarning iqtisodiy maqsadi bo‘lgan. Aksar antik tarixchilar Osiyo yurishining siyosiy maqsadlariga urg‘u berishgan bo‘lsa, Ruf ulardan farqli ravishda iqtisodiy maqsadlarni ham ochiq qayd etadi . Yunon-u makedonlarning Osiyoni zabt etib boyish istagi, qasos haqidagi orzulari ifodalangan bashoratomuz epizodlar, turli follar tasviri keyinchalik sharqlik ijodkorlar asarlarida tushirib qoldirilgan. Ya’ni Aleksandr timsoli Sharq tarixi, adabiyotiga turlicha moslashtirish, qayta ishlashlar bilan o‘tgan. Aleksandr va yunon-makedonlarning Osiyo haqidagi yomon tasavvurlari, orzu-armonlari tasviri ham Sharqda xiralashib ketdi yoki batamom tashlab yuborildi. Shu bois xamsanavislarning Iskandar haqidagi dostonlarida yunon tarixchilari zo‘r berib yozgan Osiyo va uni zabt etish haqidagi bashoratlar, orzu-armonlar ifodasini uchratmaymiz” . Bu – tarixning badiiy adabiyot mulkiga aylanish jarayonida mana shunday o‘ziga xosliklar kuzatilishiga yorqin misol. Ko‘rinib turganidek, sharqlik adiblarning Iskandar obraziga oid talqinlari (boylik masalasida) tarixiy

haqiqatdan tubdan farq qiladi. Bu shuni anglatadiki, o‘tmish mavzusidagi asarlardan tarixiy fakt va badiiy talqin muvofiqligini talab qilish qanchalik tabiiy bo‘lsa, ularda bu ikki hodisaning mutlaqo zid kelishi mumkinligi ham shunchalik mantiqli. Chunki mavzu tarixiy xarakterda bo‘lsa ham, uni qayta ishlayotgan, badiiy kashf etayotgan inson – ijodkor. U masalaga bugunning ko‘zi bilan qaraydi, zamonining saviyasi va tafakkuri bilan fikrlaydi va o‘z ijodiy konsepsiyasi asosida qayta tasvirlaydi. Shu ma’noda, zamonaviy ijodkorning ba’zida ijobiy va ijodiy maqsad taqozosi bilan tarixiy fakt va voqelikni qisman “buzib” talqin etishi normal holat hisoblanadi.

Tarixiy hodisa yoki tarixiy shaxslar tasviri, dastlab, o‘sha hodisalar yuz bergan tarixiy muhit yoki muayyan tarixiy shaxs yashagan davr haqidagi ma’lumotlarni ham taqazo etadi. Tarixiy muhit muayyan hodisaning o‘tmish bag‘ridagi butun murakkabliklari, sharoiti, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, shu hayot bag‘ridagi tabiat va jamiyat, alohida shaxslar va u mansub bo‘lgan jamiyatning o‘y-orzulari, turli holatlarini tasavvur va tasvir qilishni anglatadi. Bularning barchasi garchi alohida olingan bir shaxs – ijodkor tomonidan amalga oshirilishiga qaramasdan, ushbu jarayonning ijodiy natijasi boshqalarga, ya’ni ijodkorning zamondoshi bo‘lgan kitobxonlarga havola etiladi. Xuddi mana shu holat tasvirga olingan hodisalar mantig‘ini, ulardagi tasvir maromining muayyan mezon va talablar bilan uyg‘un bo‘lishini taqozo etadi. Jumladan, tasvir haqqoniyligi, uning ishontirish kuchi, tarixiy fakt va dalillardan foydalanishdagi me’yor, tabiiyki, badiiy til unsurlarining tarixiy mavzuni yoritishdagi ishtiroki va hokazolar uyg‘unligini ham ko‘zda tutadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Hirot shahriga borganida Alisher Navoiy dunyodan o‘tganiga ham bir necha yillar bo‘lib qolgan edi. Bobur bir necha hafta Navoiy yashagan Unsiya uyida yashaydi. U o‘sha tarixiy uy holatini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan odam. Ammo, afsuski, u uyning na ichki, na tashqi tavsifini bergan emas. Uy haqidagi bor-yo‘q gap mana bunday: “Bog‘i Navda bir kecha bo‘ldum, ani munosib ko‘rmay Alisherbekning uylarini ta’yin qildilar. Hiriydan chiqquncha Alisherbekning uylarida edim”. Bu yerdagi interyer tasviri: uyning tuzilishi, shakli, hajmi, jihozlari haqida gap yo‘q. Shunga qaramay, oradan besh-olti asr o‘tganidan keyin ayni mana shu epizod badiiy asarlarda paydo bo‘la boshladi. Endi bu holat ijodkorning tasavvuridagi manzara tasviriga aylanganini sezish qiyin emas. Xususan, To‘lan Nizomning “Navoiy yashagan uyda” she’rida ayni holat uchraydi.

She’r sarlavhasining o‘ziyoq e’tiborni tortadi. Shoir nima uchun qator poetik detallardan aynan “uy”ni tanlab olgan. Uning tanlash imkoniyatida “imorat”, “qasr”, “koshona”, “kulba” singari so‘zlar ham mavjud edi. Nazarimizda, “uy” mazkur sinonimik qatorda o‘zining nisbiy neytralligi, xalqonaligi bilan xoslanib turadi. Ayni jihatlar shoir uchun Navoiy siymosini chizishda ko‘proq xizmat qiladi. Birinchi misrada Boburning Navoiy siymosini ko‘rishga bo‘lgan so‘ngsiz ishtiyoqi samimiy aks etgan. Shoir bu uchun Alisher Navoiyning uyiga oid “poetik jihoz”larni yaxshi topgan:

Bobur shoh Navoiy yashagan uyda,
Besh doston – “Xamsa”ni naqshlagan uyda,
Asl javohirot – “Chor devon”ini
Turkiy el poyiga tashlagan uyda –
Bir oy tunab qoldi, kecha-yu kunduz
Hazrat ruhi bilan so‘zlashdi tanho:
Pirim, oxir keldim, qani qaydasiz?
Bu kun kulbangizga yo‘l berdi Xudo .

So‘ng Bobur shoh kechinmalari tasviriga o‘tiladi. Albatta, bu kechinmalar ham yana Navoiy bilan bog‘lanadi. Buning uchun esa buyuk mutafakkirning ustozlari, Navoiy ilhom olgan manbalar, shogirdlari, do‘stlari, ularga aloqador bo‘lgan nuqtalar tilga olinadi. Bu uydagi jihozlar “yashar egasidan ayro noiloj...”, “gulchinsiz gulzorlar, bulbulsiz chorbog‘”, “Tun bo‘yi qo‘riqlab, yurib chiqar oy” ham poetik topildiqlar qatorida sanalishi joiz.

Shundan keyin tasvir maromi o‘zgaradi. Shoir poetik fantaziyaga keng o‘rin bera boshlaydi: “Hushyor tortdi zamin, ko‘k – yetti qavat, Tashqida sezildi yengil bir qadam”. Tabiiyki bu qadam egasi Hazrat Navoiy edi. U o‘z qahramonlari kuzatuvida kirib kelmoqda:

Eshik lang ochildi. Farhod va Shirin,
Layli Majnun ila bo‘ldilar paydo.
Qushlar to‘lib ketdi surib bir-birin,
Navoiy ko‘rindi tutgancha aso .

Mumtoz adabiyotda talmeh deb yuritiladigan mazkur she’r san’ati, ayni paytda kitobxonni tarix sari yetaklaydi, qadimiy dostonlarning ajoyib qahramonlari tarixi va taqdirini eslash orqali shoir muddaosini ilg‘ashiga yordam beradi. Ushbu she’rda “Navoiy yashagan uy”ning obrazi chizib beriladi. Aslida, bu uy haqida yuqoridagi qayddan boshqa hech qanday fakt mavjud emas. Ushbu misol ham tarixiy fakt va badiiy talqin munosabatini, ham tarixiy mavzudagi asarlarda badiiy to‘qimaning o‘rnini anglashga yordam beradi. Bularning barchasi tarixiy mavzudagi asarlarning yaratilishi hamda ularning badiiy talqiniga oid o‘ziga xosliklar haqida tasavvurlarni oydinlashtiradi.

Ayni mana shu aqida tayanch nuqta – badiiy obraz yaratilishidagi eng muhim shartlardan biridir. Har qanday obraz mana shu xislatiga ko‘ragina kitobxon uchun manzur bo‘ladi. Tarixiy obraz yaratish haqida gap ketganida ham xuddi mana shu

mezon uning o‘zak mohiyatini tashkil etadi. Alisher Navoiy obrazini yaratishda ham bosh mezon xuddi shudir. Zero, bu borada shu paytgacha yaratilgan ko‘plab badiiy asarlar orasidagi bog‘lanishlar ham ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlar me’yoriga qarab belgilanadi.

Bu jarayonda Navoiy obrazining tasviri uchun asos bo‘lgan tayanch manbalar alohida o‘rin tutadi. Nazarimizda, Navoiy obrazini yaratishda mustaqillik davri ijodkorlari uchun zarur bo‘lgan manbalar sifatida quyidagilarni sanash mumkin:

1. Ijodkorning olam va odamga nisbatan umumiy qarashlarining mazmun va mohiyati.
2. Qalamkashlarning adib asarlarini o‘rganishdagi mavjud holati.
3. Ularning Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid manba va materiallar bilan tanishish darajasi.
4. Alisher Navoiyning hayot va ijodi haqida yaratilgan ilmiy, tarixiy va adabiy fakt va materiallar bilan tanish yoki tanish emaslikning umumiy holati.
5. Buyuk adib haqida yaratilgan folklor manbalaridan foydalanish darajasi.
6. O‘zbek va jahon olimlarining Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida yaratgan ilmiy-adabiy tadqiqotlari.
7. XX asrda yaratilgan ilmiy, ilmiy-ommabop hamda badiiy asarlar tizimi.
8. Alisher Navoiy haqida asar yozayotgan ijodkorning o‘z salaflari yoxud zamondosh ijodkorlar tajribasiga bo‘lgan munosabatlari.

Mazkur ilmiy muammolarning asosiy qismini nazariy jihatdan birinchi bobda, amaliy jihatdan esa keyingi boblarda atroflicha ko‘rib chiqishga harakat qilamiz.

Alohida ta’kidlash joizki, ijod ahlining birortasi Alisher Navoiy badiiy siymosini yaratishda ayni mana shu muammolarni chetlab o‘tgan emas. Aslida, ijodkorning adabiy-poetik mahorati ham mazkur muammolarning hal etilish darajasiga qarab begilanishini e’tirof etish joiz bo‘ladi. Olimlar va ijodkorlarning, tabiiyki, navoiyshunos olimlar va shu mavzuda qalam tebratgan ijodkorlarning, shuningdek, ijodkorlarga yaqin bo‘lgan alohida shaxslar va adabiy munaqqidlarning o‘zaro suhbat va muloqotlari bu borada ko‘plab mulohaza, kuzatishlarni o‘zida mujassam etishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada Alisher Navoiyning o‘zidan boshlab, ko‘plab so‘z ustalari (Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Oybek, P.Qodirov, E.Vohidov, A.Oripov va b.) ning kuzatish va ma’lumotlari, navoiyshunos olimlarimizning mulohazalari ushbu fikrning tasdig‘i uchun qo‘shimcha dalil bo‘la oladi.

Tarixni tiriltirish uchun voqelik tafsiloti, sanalar yoki ma’lumotlarni bilishning o‘zi kamlik qiladi. Oddiy, quruq ma’lumot bayoni, xabar matnlari o‘quvchini zeriktiradi. Tarixiy fakt haqiqat va talqinda teranlik, tarixni tilga kiritish, tarixiy shaxslarni “so‘zlatish”, “kiyintirish”, ishonchli portretlarini chizish, moziy muhitiga mos fikrlatish, qalbiga quloq tutib, dard-u alamini anglash – bularning bari yozuvchidan tarixiy haqiqatni tarixiy fakt va mezonlarga asoslanib yozishni talab etadi. Yuqorida keltirilgan misol esa bu jihatning nechog‘li muhimligini ko‘rsatuvchi birgina holatdir.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ijodkor Alisher Navoiyning o‘zbek adabiyoti tarixidagi mavjud obrazini takrorlamaslik uchun izlanishi, tarixiy manbalarni o‘qishi, buyuk shoirning ko‘nglini tushunishi, u bilan bog‘liq muhim faktlarni bilishi, saralashi hamda e’tiqodini anglashi, shuningdek, keng ko‘lamli dunyoqarashga ega bo‘lishi, yuqoridagi kabi tarixiy faktlardan xabardor bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020, 07/20/4865/1395-son.
2. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2006. 152-bet.
3.Али Муҳаммад. Навоий ва Бойқаро: тарихий драмалар. – Тошкент: Чўлпон, 2018. 352-бет.
4. Алимбеков А. Юлдузнинг беш қирраси. – Тошкент: O‘QITUVCHI, 1920. 180-181-бетлар.
5. Ashurova G. (2022). Tarixiy shaxs tasvirida tarixiy fakt va talqin muammosi. Uzbekistan: Language and Culture, 3(3).
6. Руф Квинт Курций. История Александра Македонского. С приложением со¬чинений Диодора, Юстина, Плутарха об Александре / Отв. редактор А. А. Вигасин. – М.: Изд-во МГУ, 1993. – С.200.

Zumradxon JONBO‘TAYEVA,
Turon Xalqaro Universiteti filologiya kafedrasi o‘qituvchisi
zumradxonjonbotayeva@gmail.com



IDEONIMLAR MAKROKO‘LAMIGA OID TUSHUNCHA VA ATAMALAR TIZIMI HAMDA ULARNING TASNIFI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida onomastik birliklar tizimida ideonimlarning o‘rni va mazmun ko‘lami hamda bu guruhga xos mikroko‘lamlarning belgilanishi masalasiga munosabat bildirildi va tasniflash muammosi o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: *onomastika, ideonimlar makroko‘lami, mikroko‘lam, ktematonim, dokumentonim, xronomim, geortonim, gemeronim, biblionim, artionim, teonim, faleronim, dignitonim.*

Annotation: in this article, in Uzbek linguistics, the role of ideonyms in the system of onomastic units and the scope of content, as well as the issue of defining micro-scopes specific to this group, and the problem of classification were studied.

Key words: *onomastics, macro-scope of ideonyms, micro-scope, ktematonym, documentonym, chrononym, georonym, hemeronym, biblionym, artionym, theonym, phaleronym, dignitonym.*

Аннотация: в данной статье в узбекском языкознании изучена роль идеонимов в системе ономастических единиц и объёме содержания, а также вопрос определения микрообластей, свойственных этой группе, и проблема классификатsии.

Ключевые слова: *ономастика, макрообъем идеонимов, микроскоп, ктематоним, документоним, хрононим, геороним, гемероним, библионим, артионим, теоним, фалероним, дигнитоним.*

O‘zbek tilshunosligida shu davrga qadar onomastika yo‘nalishida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, ular asosan, toponimika, antroponimika, gidronimika, keyinroq esa, fitonimika, qisman kosmonimika va zoonimika doirasida bajarilgan. So‘nggi yillarda o‘zbek onomastikasining yaxlit tizimini yaratish, uning ichki turlarini o‘rganishga qiziqish kuchayib bormoqda. Xususan, ideonimlar makroko‘lami monografik planda o‘rganilgan emas.

Ideonim atamasi (yunoncha *ídéa “ideya”* + *onim*) inson faoliyatining aqliy, g‘oyaviy va badiiy sohasida denotatga ega bo‘lgan turli xil onimlar to‘plami sifatida tushuniladi. [1:12.] O‘zbek tilshunosligida bu borada ayrim ishlar bajarilgan bo‘lsa-da ,[2:38.] ideonimlar tizimi monografik planda maxsus o‘rganilgan emas.

Ideonim makroko‘lami doirasiga kiruvchi mikroko‘lamlar doirasini belgilashda turlicha qarashlar mavjud.

N.V.Podolskaya hamda G.Madiyeva va V.Suprunlar tasnifi aynan bir xil: artionim, biblionim, gemeronim, dokumentonim, poetonim, xrononim, geortonim, teonim [3:133.]

E.Begmatov tasnifi: ktematonim, dokumentonim, xrononim, geortonim, gemeronim, biblionim, artionim, musiqa san’ati asarlari (kuy, ashula, qo‘shiq va b.) atoqli oti [4:58].

Y.I.Avlaqulovning “O‘zbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi” mavzusidagi nomzodlik ishi avtoreferatida bir o‘rinda (2-rasmda) E.Begmatov tasnifiga yondashilgani holda, boshqa bir o‘rinda quyidagi nomlar va **ktematonimlarning** tarkibiy qismlari sifatida berilgan:

1) tarixiy, madaniy qiymatga ega bo‘lgan ba’zi yakka nusxadagi qurollar**,** asboblar, zeb-u ziynat buyumlari, qimmatbaho toshlarning atoqli oti;

2) rassomchilik asarlarining atoqli oti;

3) musiqa san’ati asarlari nomi: a) kuylar nomi; b) qo‘shiq (ashula) va laparlar nomi;

4) sahna asarlari (opera, libretto, balet, pyesa) nomi. [5:57]

Mantiqan, ktematonimlarga yuqoridagilardan faqat birinchi (1) guruhgina tegishli bo‘lib, 2- 3- 4- guruh nomlari san’at asarlari sifatida *artionim* doirasida o‘rganilishi kerak. **Artionim** (lot. ars/artis “san’at”, yunoncha ŏnyama “ism” (nom) so‘zlaridan yasalgan bo‘lib, ideonimning bir turi, san’at asari (rang-tasvir, grafika, plastika san’ati, musiqa, kino, teatr) nomidir [6].

Shuningdek, ishda *politonimlar* (davlat ramzlari va atributlari nomi), *faleronimlar* (ko‘krak nishonlari, taqinchoqlar nomi), *dignitonimlar* (davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan ta’sis qilingan unvonlar nomi) , *teonim*lar (ilohiyotga aloqador nomlar) tahlilga tortilgan holda *ideonimlar* guruhidan tashqarida tavsiflangan [7:28]. Vaholanki, onimlarning bu turlari ham inson faoliyatining aqliy va g‘oyaviy sohalariga tegishli ekanligi bilan ideonimlar qatoriga kiritilishi maqsadga muvofiqdir.


Professor B.Yo‘ldoshevning “O‘zbek onomastikasi masalalari” uslubiy qo‘llanmasida “Ideonimlar, biblionimlar deb nomlanuvchi onomastik birliklar ham ktematonimlarning bir turi sanaladi” [8:38] ,

deyiladi. Bizningcha, bunday qarash to‘g‘ri emas. Negaki, shu muallifning o‘zi ham tavsiflaganidek, “Xalq tarixi, madaniyati uchun ma’lum ahamiyatga molik bo‘lgan ba’zi nodir qurollar, asbob-uskunalar, buyumlarning atoqli otlari ktematonimlar deb yuritiladi. Ayrim ishlarda atoqli otlarning bunday turi xrematonimlar deb ham nomlangan”. [9:43] Ideonimlar esa ma’naviy-madaniy, ya’ni nomoddiy, ilmiy, badiiy va san’at asarlarining nomlari tizimini anglatadi.

Teonim termini yunoncha (theonum) – Alloh, Tangri, iloh va onoma (nom, atoqli ot) so‘zlari qo‘shilishidan yasalgan bo‘lib, har qanday pante – ongdagi iloh va ilohalar nomini anglatadi .

E.Begmatov A.V.Superanskayaning mifonimlarni “onomastik ko‘lamning o‘ziga xos sektori” deb atagan tavsifiga tayanib, ularni alohida guruh sifatida yuritilishiga sabab unda ifodalangan narsa, obyektning real mavjudlikka emas, balki xayolga, tasavvurga, farazga asoslanganligi va nomning motivida mifik tasavvur yotishida deb izohlaydi. Bunday nom toponim ham, antroponim ham, zoonim ham, oronim ham, gidronim ham bo‘lishi mumkin. [10] Biz ham shu fikrni ma’qullaymiz. Shu bilan birga, onimlarni turlarga ajratuvchi ayrim tasniflarda berilayotgan poetonimlarni ham xuddi shu fikrga asoslanib, “alohida sektor” sifatida talqin qilish kerak, deb hisoblaymiz. Chunki poetonim tushunchasi, xuddi mifonimlardek, onomastik nomlarning barchasiga birdek tegishli bo‘lib, onimlarning uslubiy bo‘yoqdorlik kasb etishi, poetik mazmunni yuzaga chiqarishga xizmat qilishi bilan xarakterlanadi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarga asoslanib, ideonimlar makroko‘lami quyidagi mikroguruhlarni o‘z ichiga oladi, deb hisoblaymiz:



Shubhasiz, bularning har biri o‘z obyekti, mazmun doirasiga ega bo‘lib, o‘zbek tilshunoslari oldida ularni keng ko‘lamda tadqiq qilish vazifasi turibdi.

Biblionim – har qanday badiiy, ilmiy, diniy, siyosiy asarlarga qo‘yilgan atoqli ot.

Turkiy tilda aruz vaznida yaratilgan tom ma’nodagi birinchi asar Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonidir deb aytish mumkin. (D.Yusupova)

Ktematonim – xalq tarixi, milliy madaniyati uchun ma’lum qimmatga ega bo‘lgan ba’zi nodir qurollar, asbob-uskunalar, buyumlarning bir donasiga berilgan atoqli ot.

“Ko‘hinur” olmosini bobokalonimiz – Hindiston podshohi Zahiriddin Boburmirzoga o‘g‘li Humoyun sovg‘a qilgan. (Internetdan)

Dokumentonim – xalq tarixi uchun alohida ahamiyatga ega hujjatlar nomi.

“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”da shaxsiy mulkka ega bo‘lish va uning daxlsizligi masalalari ham alohida o‘rin egallagan. (Gazetadan)

Xrononim – tarixiy davrlar, bosqichlarning atoqli oti.

Temuriylar davrida Samarqand Sharqning intellektual va madaniy markaziga aylandi. (Ilmiy maqoladan)

Geortonim – har qanday bayram, festival, xotira kunlari va mana shu xildagi marosim va tadbirlarga berilgan atoqli ot.

Respublikamizda har yili 1 - oktyabrda Ustoz va murabbiylar kuni keng nishonlanadi, ustozlar qadrlanadi.

Gemeronim – OAV (gazeta, jurnal, byulleten, axborot va b.) atoqli otlari. Bugungi kunda ilmiy-texnik taraqqiyot natijasi sifatida insoniyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan internet tarmog‘iga doir atoqli otlarni ham kiritish maqsadga muvofiqdir.

“Tafakkur” jurnalining mutolaaga bag‘ishlangan “Javondagi javohir” nomli doimiy rukni bor.

Artionim – tasviriy san’at asarlari (rang-tasvir, grafika, plastika va b.), musiqa san’ati asarlarning (kuy, ashula, qo‘shiq va b.) atoqli oti.

Nihoyat “Navo” kuyi uning butun tanidagi suvlarini ko‘zi orqaliq to‘kdirdi-da, falakning teskari harakatidan shikoyat etib qo‘ydi va dunyoda yolg‘iz hasratkina bo‘lmag‘anligini bildirgandek o‘zining “Savt” kuyini er yuziga shodliq va so‘yinch yog‘dirib arz eta boshladi. (A.Qodiriy “O‘tkan kunlar”)

Politonim atamasi haqida turlicha fikrlar mavjud bo‘lib, hali o‘zining aniq tavsifiga ega emas. N. V. Podolskaya va E.Begmatovga ko‘ra, politonim – davlat ramzlari (bayroq, tamg‘a , emblema va shu xil atributlar) ning atoqli oti. [11:63] Agar bu ta’rifga tayanadigan bo‘lsak, politonim-eponimli birikmalar haqida gapirish kerak bo‘ladi: O‘zbekiston bayrog‘i, O‘zbekiston gerbi kabi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, tamg‘alar bayroq va tangalarda aks etgan bo‘lib, ularni ta’sis etgan hukmdorlar yoki tarixiy joy nomlari bilan tavsiflanadi: Aleksandr tangasi, Lidiya tangasi, Choch tangalari, Amir Temur tangalari kabi.

Boshqa bir yondashuvga ko‘ra, politonim atamasi (qadimgi yunoncha πολιτική – ijtimoiy faoliyat, siyosat + όνυμ – nom) atamasi bilan biz siyosiy ergonimni tushunamiz – siyosiy partiya, harakat, birlashma, saylov bloki, parlament fraksiyasi yoki guruhi nomi va boshqalar .[12:128]

N.Ziyodullayevaning fikricha, qadimda va hozirgi davrda ham ko‘plab mamlakatlar va xalqlar o‘z ramzlari orqali keng tanilmoqda. Jumladan, Fransiyada “Eyfel” minorasi, Misrda piramidalar, Amerika Qo‘shma Shtatlarida “Ozodlik” haykali bo‘lib, ramzlar ham siyosiy, ham tarixiy, ham ma’naviy boylikni ifoda etadi. [13:5]

N.V.Podolskaya va E.Begmatov, N.V.Shimkevich, N.Ziyodullayevalarning fikrlari bir-birini to‘ldirishini hisobga olib, atamaga quyidagicha ta’rif berishni taklif qilamiz:

Politonim – davlat ramzlari (bayroq, tamg‘a, gerb, madhiya, emblema va shu xil atributlar), shuningdek, siyosiy partiya, harakat, birlashma, saylov bloki, parlament fraksiyasi yoki guruhi nomi va boshqalarning nomlarini bildiruvchi atoqli ot.

O‘zbekiston Respublikasida Ekologik (Ekopartiya), “Milliy tiklanish” demokratik (O‘zMTDP), Xalq demokratik (O‘zXDP), “Adolat” sotsial-demokratik (“Adolat” SDP) va Liberal-demokratik (O‘zLiDeP) partiyalari faoliyat olib boradi.

Dignitonim – faxriy unvonlar, mansablar va sh. k. atoqli oti .[14:82]

O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov O‘zbekiston Davlat madhiyasi muallifi va jamoat arbobidir.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilshunoslari oldida onomastik nomlar tezaurusini yaratish uchun hali ko‘plab mikroko‘lam va subko‘lamlarga oid til birliklarini tadqiq qilish va tizimlashtirish vazifasi turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avlaqulov Ya.I. O‘zbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi: Filol.fan.nomz.diss.avtoref. – Toshkent, 2012.
2. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2013.
3. Yo‘ldoshev B. “O‘zbek onomastikasi masalalari” tanlanma fanidan uslubiy qo‘llanma. – Samarqand, 2011.
4. Мадиева Г., Супрун В. Теория и практика ономастики. Изд. 2-е, Almati: Qazaq universiteti – Volgograd: Peremena, 2015.
5. Подолская Н.В. Словар русской ономастической терминологии. – Москва: Наука, 1988.
6. Супрун В.И. Размишления над ономастической терминологией Известия ВГПУ, 2011, № 8. S. 133-138
7. Шимкевич Н.В. Эволюция русской политонимии в новейшее время Вопроси ономастики. 2019. – Т. 2016. № 2. С. 178–198.
8. https://уза.уз/уз/постс/давлат рамзи ватаннинг муқаддас тимсоли



Hikmat HIKMATOV,
CHDPU "O'zbek adabiyotshunosligi" kafedrasi o'qituvchisi

BOBURNING FORS-TOJIK TILIDAGI SHE'RIYATIDA BADIIYAT SAN'ATI

Annotatsiya: Zahiriddin Muhammad Bobur zullisonaynlik an'anasining buyuk shoiri va namoyandasi bo'lib, u turkiy tilda ijod qilgani bilan birga fors-tojik tilida ham bebaho ijod namunasi sohibidir. Uning tojikcha she'rlari ham turkiy she'rlari kabi sodda, ravon va jozibalidir.

Kalit so'zlar: *zullisonayn, istiora, kom, fard, masno'', tarje'band, tarse'.*

Annotation: Zahiriddin Muhammad Babur is a great poet and representative of the tradition of Zullisonaynism, and he is an invaluable example of creativity in the Persian-Tajik language as well as in the Turkish language. His Tajik poems, like his Turkish poems, are simple, fluent and attractive.

Key words: *zullisonayn, istiora, com, fard, masno'', tarje'band, tarse'.*

Аннотация: Захириддин Мухаммад Бабур – великий поэт и представитель традиции зуллисонайнизма, бесценный пример творчества как на персидско-таджикском языке, так и на турецком языке. Его таджикские стихи, как и его турецкие стихи, просты, плавны и очаровательны.

Ключевые слова: *зуллисонайн, истиора, ком, фард, масну, таржебанд, тарсе.*

Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub "Kulliyot"ning olti jildda nashr etilishi katta madaniy voqeadir.Uni o'qib, ilmiy-tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish, shuningdek, Boburning donishmandligi va olim sifatidagi qobiliyati haqida tadqiqotlar olib borish mumkin.Bu "Kulliyot" nashr etilgunga qadar ba'zi kitobxonlar Boburning ham forsiy she'rlari borligini bilmas edilar. Chunki Boburning forsiy she'rlari bo'yicha faqat alohida ilmiy maqolalar e'lon qilingan bo'lib, ular hammaning qo'liga yetib bormagan edi. Faqat "Osori muntaxab" va uning "Devon" nomli bir jildlik lirik she'rlari nashr etilgan edi. Lekin Boburning fors-tojik tilidagi she'rlari bu "Devon"ga kiritilmagan. "Devon"ni Sabohat Azimjonova va Aziz Qayumov nashrga tayyorlagan. Lekin ular "Devon"ning muqaddimasida Boburning forsiy she'riyatini tilga olishmagan. Aytish mumkinki, o'sha davrlarda adabiyotshunoslar Boburning forsiy she'rlari borligidan bexabar edilar.1983-yilda afg'on olimi va shoirasi Shafiqa Yorqin Kobulda Boburning eski yozuv alifbosidagi devonini nashr ettirdi.

"Kulliyot"da Boburning fors-tojik tilida 43 satrdan iborat she'rlari joy olgan. Bayt o'rniga "satr" so'zining qo'llanishi ayrim misralarning ikkinchi satri mavjud emasligi, she'rlarning janrlarga bo'linmaganligi, manbalari ma'lum emasligi bilan bog'liqdir.Mustaqillikdan so'ng Shafiqa Yorqin o'zbek mutaxassislariga Boburning forsiy she'rlaridan namunalar taqdim etdi. Shu tariqa Boburning boy fors-tojik tilidagi lirik merosi O'zbekistondagi bobur shunoslik faniga ma'lum bo'ldi. Boburning "Ash'ori forsi" si "Devon"ning 1-jildiga kiritilgan. So'zboshi muallifi Mirzo Kenjabek "Kulliyot"da Boburning g'azal, ruboiy, qit'a va fardlari ilk bor o'rin olganini ta'kidlaydi.Biroq bu asarda ham uning forsiy she'rlarining manbasi haqida ma'lumot yo'q.

Shunday ekan, Zahiriddin Muhammad Bobur qudratli mutafakkir va zullisonayn shoir ekanligini alohida ta'kidlamoqchimiz. Bu fazilat unda tug'ma va sulolaviy bo'lib, bu bebaho haqiqatdir. Boburning turkiy asarlarini o'qiganimizda uning fors-tojik tili va adabiyotini juda yaxshi bilganiga amin bo'lamiz. Uning turkiy asarlarida fors-tojikcha so'z va iboralar, misra va maqollar keng o'rin olgan. Buni ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarida qayd etganlar. Chunonchi, Bobur qishning sovuq kunlarida askarlari orasida qolganini va shu holatni fors-tojik tilidagi "marg bo yoron surast" (do'stlar bilan o'lish xursandchilikdir) maqolida ifodalaydi.

Boburning olti jildlik "Kulliyot"ining fors-tojikcha merosidan uning bu tildagi qudrati va mahorati haqida fikr yuritish mumkin. Ma'lumki, har birining o'ziga xos ifoda usuli bo'lgan fors-tojik-dariy tillari aslida bir til bo'lib, uni forsiy deb atashadi. Boburning forsiy tili ham Rudakiyning ifoda uslubi kabi juda sodda va ravondir. Hatto Abulqosim Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusravi Dehlaviy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Sa'diy Sheroziy ijodi ham Bobur she'riyati badiiyatidan murakkabroqdir. Boburning forsiysi ham Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo tojiklarining forsisi kabi sodda va ravon tuyuladi. Uning nutqida murakkab grammatik tuzilmalar va tushunilishi qiyin bo'lgan so'z va iboralar mavjud emas. Bu Boburning turk va tojik zullisonaynlik an'anasi ostida o'sganidan dalolat beradi. Yuqoridagi fikrlarni yodda tutgan holda "Boburning forsiy she'rlari" iborasi o'rniga "Boburning tojikcha she'rlari" iborasini qo'llashimiz mumkin.

Boburning fors-tojik she'rlari asosan to'rt lirik janr: g'azal, ruboiy, qit'a va fardda yaratilgan. Bobur qavs ichida o'z fardlarini matallar deb nomlagan. Boburning fors-tojikcha she'riyati 2 g'azal, 12 ruboiy, 7 va 17 baytdan iborat.Bu she'rlar bor-yo'g'i 69 misrani tashkil etadi. Ma'lum bo'lishicha, Bobur fors-tojik she'riyatida

turkiy she'riyatidagidek sermahsul emas. Boburning o'zbek va tojik she'rlari kam bo'lsa-da, ularda ortiqcha so'z ishlatilmaydi, ular juda sodda va ravondir.

Bobur o'zining lirik she'riyatida har ikkala tilda ham haqiqiy oshiq timsolidir.Ushbu baytni o'zbek tilidagi she'riyatidan namuna sifatida keltirsak, kifoya:

O'qung etti ko'b yomon yoro manga,
Marhami lutfing bila yoro manga.

Buyuk shoir "Boburnoma" asarida insonparvarlik g'oyasini tojik tilida quyidagicha ifodalaydi:

Baham barmazan to tavoni dile,
Ki ohi chahone ba ham barzanad.

U sof insoniy mehr-muhabbat va samimiyatni sevadi. Shuning uchun ham Boburning fors-tojikcha g'azallarida insoniy va dunyoviy ishq madh etilgan. Bobur g'azallaridagi "man" obrazi uning oshiqlik timsolidir.Uning ilk g'azalining baytlari vasl-u hijron tasviri bilan boshlanadi:

Ey moh, shomi visoli tu subhi saodat ast,
Ro'zi chudoi tu, vale shomi mehnat ast.

She'rda murojaat qilingan obyekt "Moh"(oy) – mahbubadir. Oshiq shoir unga istiora (metafora) san'ati orqali murojaat qiladi.Shoir ifodasiga ko'ra, visol oqshomi saodat tongidir. Kechqurun zulmatni ifodalasa ham, chiroq bilan yoritilganda saodat tongi kabi bo'ladi. Baytda tazod (qarama-qarshilik) san'ati katta mahorat bilan "ro'z"(kun) – "shom" (tun), "subh"(tong) – "shom" (oqshom) so'zlarida yaqqol aks ettirilgan..

Chonam bikun charohatu rohat rason ba dil,
Az tu ba choni xasta charohat chu rohat ast.

Oshiqning horg'in qalbiga do'stning qo'ygan yarasi aslida taskindir. Oshiq o'z ma'shuqasiga mana shunday iltijo qiladi: jonimni og'ritib qo'y, toki ko'nglim undan rohat olsin. Bu baytda "jarohat" va "rohat" iboralari ichki qofiya sifatida namoyon bo'ladi.

Az komi chomi boda bigirand komi dil,
Aknun, ki vaqti bodavu hangomi ishrat ast.

Yuqoridagi baytlar rindiy ruhiyasida yaratilgan. Shoir mayxo'rlik va ishrat dami yetganda, bazm qilishi va jondin to'yib ichishini aks ettiradi.Ushbu bayt orqali shuni ham bilish mumkinki Bobur tojik tilidagi badiiy san'atlardan ham anchagina xabardor bo'lgan.Birinchi qatorda "kom" so'zi ikki marta keladi, birinchisi tomoq, ikkinchisi maqsad ma'nosini bildiradi. Oxirgi bandda u yor visolidan bahra olishni g'animat deb hisoblaydi:

Gar rext xuni tu, zinhor dam mazan,
Xush bosh, Boburo, ki hamin dam g'animat ast.

Ma'lumki, adabiy-badiiy asarlarda oshiq obrazi ko'pincha zulm xarakteriga ega bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, oshiqning qonini to'kish yorning azaliy odatidir. Yuqorida aytib o'tganimizdek, do'stning jarohatini rohat tarzda qabul qilish va uning visolini istab yashash oshiqning xarakteridir. Yor visolidan xursand bo'lish, sevgilisi uning qonini to'ksa hamki, uni huzur bilan qabul etish - beqaror va sadoqatli oshiqning belgisidir. Bobur esa xuddi shu holatni o'z g'azalidagi oxirgi misrasida ifodalab, lutf orqali lirik obrazga yuzlanib, "Xush bosh" (Xursand bo'l) degan.

Boburning har ikki tilda, ya'ni turkiy va forsiy tillarida yaratgan asarlarida uning barcha g'azallari, asosan, ishq-muhabbat mavzusida ekanligini ko'rish mumkin.Shuningdek, ularning mazmunidan u shariat qonuniyatiga befarq, begunoh shaxs sifatida tanilganini tezda anglash mumkin. Ya'ni, shoir o'z ijodida ko'pincha erkin fikrlovchi obraz sifatida ko'rinadi.

Adabiyotshunos olima Shafiqa Yorqin Turkiyaning Istanbul universiteti qo'lyozmalar bo'limidan o'zbek tilida 5 ta g'azal, 9 ta qit'a, 5 ta ruboiy, 40 dan ortiq fard, bir nechta masno'' she'rlar, 1 ta masno'' tarje'band, 2 ta maktub, hamda tojik tilida 1 ta g'azal, 10 ta ruboiy, 4 ta qit'a, 12 ta fard va 1 ta maktub topganini e'lon qildi. Bu qo'lyozmaning o'ziga xosligi va haqqoniyligi ushbu topilmaning hali Bobur nomi bilan bog'liq hech bir manbada aniqlanmaganligi bilan bog'liq edi. Ushbu topilgan badiiy xazina biron to'plamda va hatto biron bir tadqiqotchi nazariga tushmagan ekan.

Ushbu barcha dalillar shuni isbotlab beradiki, Bobur fors-tojik tilida ham shogirdlik darajasidan ustozlik darajasiga yetgan ekan.

"Kulliyot"da 12 ruboiy borki, ular ishqiy, falsafiy va axloqiy mazmunda yozilgan. Bayt va misralarning soddaligi, mantiqiyligi, mavzu va ravshanligi Boburning tojik she'riyatini yaratishda chinakam yuksak ijodiy mahoratga ega bo'lganidan dalolat beradi. Har bir satr o'z mazmuniga ega bo'lib, shoirning matlab va maqsadi umumiy matnda yaqqol ma'lum bo'ladi. Shoir o'z ruboyisida Hanifa ismli xonimga mushtoq ekanligini bayon etib, quyidagicha ifodalagan:

Xoham, ki Hanifa g'amgusoram boshad,
Darmonu davoi dili zoram boshad.
Har ro'zu hama shab zi Xudo mexoham,
Ya'ne shabu ro'z dar kanoram boshad.

Mazmuni: (Hanifaxonni menga g'amgusor , zor bo'lgan ko'nglimga davo-darmon bo'lishini istayman, Har kecha kunduzi Xudodan uning yonimda bo'lishini so'rayman).

Boburning tojik tilidagi asarlarida yuksak ijodkorlikni talab qiluvchi suxanbozlik san'atining qo'llanishini ham kuzatish mumkin va bu san'at turi o'tmish adabiyotimizda kam uchraydi:

Shoham, ba tu ma'lum nashud, man chi kunam?
Oham ba tu ma'lum nashud, man chi kunam?
Man abro'vu ro' go'yamu tu badru hilol,
Moham, ba tu ma'lum nashud, man chi kunam?

"Shoham" (birinchi misrada), "Oham" (ikkinchi misrada), "Moham" (uchinchi misrada) qofiyali so'zlardagi bir harfni qisqartirish orqali uch misraning tarkibi, hamda ma'nosi o'zgargan.Bu kabi she'rlar shoirdan badiiy san'at talab qilinishi hech kimga sir emas.

Bundan tashqari Bobur tojik tilidagi she'rlarida yuqorida tilga olingan barcha badiiy san'atlar qatorida

tarse’ (birinchi va ikkinchi misralarda so‘zlarni shakl va qolipda baravar terish) san’atidan ham o‘z mahorati bilan foydalangan:

Ba seroba boz or on ko‘fta,
Basero ba bozor on ko‘fta.

Bu baytda birinchi va ikkinchi misradagi so‘zlar o‘zaro qofiyadosh bo‘lib, tarse’ san’atini shakllantiradi. Bundan tashqari, satrlarda so‘zlar takrorlanmaydi, faqat ba’zi so‘zlarning shakli o‘zgargan. Birinchi misraning “Ba seroba” qo‘shma so‘zi ikkinchi misrada “basero ba” shaklida namoyon bo‘lib, mazmun jihatdan bir-biridan farq qiladi. “Boz or”(yana olib kel) ifodasi va “bozor”(bozor) so‘zi ham aynan yuqoridagi xususiyatga ega.

Bobur xirmonidan misollar keltirishdan maqsad uning fors-tojik tilida ham bebaho asarlar yaratganini ko‘rsatishdir. Sababi, shu paytgacha shoirning fors-tojik tilidagi alohida asarining hech bir manbadan olinganiga guvoh bo‘lganimiz yo‘q. Bobur asarlarini o‘qiganimizda, buyuk tilshunos va adabiyotshunos olimning asarini o‘qiyotganimizni sezamiz. Chunki g‘azallarining mazmuni va soddaligi yoki misralarining ravonligidan biz uning yozganlariga shaxsan o‘zimiz guvoh bo‘lgandek his qilamiz. Darhaqiqat, Bobur davrida fors-tojik tilining davlat tili sifatida e’tirof etilishini uning asarlarining o‘ziga xosligini his qilish mumkinligi bilan bog‘lash mumkin. Shu o‘rinda pokistonlik olim Sayidmuhammad Akramning yozilishi bo‘yicha o‘sha davrlarda “fors tili – she’r tili, zavq tili, qalb tili...” bo‘lganligiga Bobur she’riyatidan ham payqash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бобур. Шеърлар. – Тошкент: Ўзбекистон давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1957.
2. Бобур. Бобурнома. – Тошкент:1959.
3. Фарҳанги забони тоҷикӣ, ҷилди 1. – Душанбе:2001
4. S.Sa’diyev, X.Hamidov. Adabiyot. (10 sinflar uchun darslik), –Toshkent: “Cho‘lpon” nashriyoti, 2017.
5. O‘.Rahmonov. “Rozhoi ta’rix” (Ta’rix tilga kirganda) –Navoiy: “Alisher Navoiy nashriyoti, 2016.
6. Nusratullo Chum’axocha, “ Badiiyati she’ri forsi-tojiki Bobur, “Ovozi tojik”, № 83. 2023.
7. H.Hikmatov. “Boburning fors-tojik tilidagi ijodiga nuqtayi nazarlar”, “International Scientific Conference” Uzbekistan. –Tashkent: 2022.



Diyora ABDUJALILOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

ALISHER NAVOIYNING USMONLI XALAFI: IJTIMOIY VA ADABIY FAOLIYATDAGI AYRIM MUSHTARAKLIKLAR

Annotatsiya: maqolada buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiy va uning usmonli turk adabiyotidagi izdoshi, xamsanavis shoir, davlat arbobi va sarkarda Yahyobey Toshlijolining hayot va ijod yo‘li tadqiq etiladi. Maqolada bu ikki ijodkorning ijtimoiy va adabiy faoliyatidagi o‘xshash jihatlar tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: *xamsanavislik, beshlik, an’ana, devon, doston, Usmonli turk adabiyoti*

Аннотация: в статье рассматривается жизненный и творческий путь великого узбекского поэта Алишера Навои и его последователя в османской турецкой литературе, поэта, государственного деятеля и полководца Яхябея Ташлиджали. В статье анализируются схожие аспекты общественной и литературной деятельности этих двух поэтов.

Ключевые слова: *хамсаписание, пятерица, традиция, диван, эпос, османская турецкая литература.*

Annotation: the article examines the life and creative path of the great Uzbek poet Alisher Navoi and his follower in Ottoman Turkish literature, poet, statesman and commander Yahyabey Tashlijali. The article analyzes similar aspects of the social and literary activities of these two artists.

Key words: *hamsanavislik, tradition, divan, epic, Ottoman Turkish literature.*

Sharq Musulmon adabiyoti tarixida xamsachilik an’anasi alohida o‘rin egallaydi. Vujudga kelish va shakllanish davriga ko‘ra XII asrga mansub bo‘lgan bu adabiy hodisa sakkiz asrga yaqin vaqt davomida ko‘plab nazira va tatabbu’larga ega bo‘ldi. Bir necha asrlar davomida yuzlab shoirlar “Xamsa” yaratishga muvaffaq bo‘ldilar. Lekin mashhur xamsanavislar safidan joy olish barchaga ham nasib etmadi. Adabiyotshunoslikda mavjud

ma’lumotlarga ko‘ra, Hirot adabiy muhitida 20 ga yaqin shoir xamsanavislik an’anasiga munosabat bildirgan bo‘lsalar-da, ularning 4 tasi to‘liq beshlik muallifi sifatida e’tirof etiladi .

Usmonli turklar adabiyotida esa XVI-XVII asrlarda “Xamsa” nomi ostida masnaviy yozgan shoirlarning soni o‘n oltitaga yetadi . Lekin ularning hammasi ham o‘z asarlarini mukammal beshlik holiga keltirishmagan yoki nomi ma’lum bo‘lgan asarlarining aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Onado‘lida masnaviy yozish va fors shoiri Nizomiydan ilhom olish Navoiydan ancha avval boshlangan bo‘lsa-da, ko‘pgina shoirlarga masnaviylar majmuasini yozishlariga usmoniy imperiyasida ko‘p o‘qilgan Navoiyning “Xamsa”si turtki bo‘lgan, degan ehtimol ko‘proq. Nemis olimi Zigrid Klaynmixelning yozishicha, “Usmoniylar imperiyasida Alisher Navoiy she’rlariga havasmandlik shoirlarni chig‘atoycha she’r yozishga undagan. Ushbu she’rlar usmoniylar imperiyasida nazmni tushungan usmoniy tilida so‘zlashuvchilarga manzur edi. Shoir do‘stlarining forscha she’riga qarama-qarshi ravishda Alisher Navoiyning o‘zlariga yaqin bir tilda shunday buyuk bir asarlarni yaratganligi unga nisbatan ulkan muhabbatning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan” .

Levend Turkiya kutubxonalarida Navoiy “Xamsa”sining o‘n bitta to‘liq (ikkitasi kulliyotlar tarkibida) hamda dostonlardan biri yoki birdan ortig‘i bor bo‘lgan yana yettita qo‘lyozma mavjudligini qayd etgan .

Xamsashunoslikda Usmonli turklar adabiyotida beshlik yaratgan shoirlar sifatida quyidagilar eslanadi: Hamdulloh Hamdiy, Behishtiy, Yahyobey Toshlijali, Nav’izoda Atoyi, Fayziy, Subhizoda Fayzulloh, Chokariy, Ahmad Rizvon, Hojatiy, Jaliliy, Muidiy, Fathulloh Orif Chalabiy, Fazliy, Lome’iy va b.

Alisher Navoiydan so‘ng unga ergashib, turkiy tilda “Xamsa” yozgan shoirlardan biri Yahyobey Toshlijalidir. U XVI asr Usmonlilar davrida yashab ijod etgan sohibdevon shoir va beshlik muallifi hisoblanadi. Yahyobey 1498-yilda tug‘ilgan (Ba’zi manbalarda tug‘ilgan yili noma’lum deb keltiriladi) . U o‘z asarlarida Sangiston, Toshli degan joydan ekanligini e’tirof etadi. Toshlijali taxallusi ham shundan kelib chiqqan:

Arnavud’un ħassları yegleri
Nesl-i kadįmüm Dukakįn begleri
Mülk-i Arab‟dan ki firar itdiler
Taşlu vilayetde karar itdiler .

(Mazmuni: Nasl-nasabim Albaniyaning Dukakin beklaridandir, oilam Arab diyoridan qochib, Toshli viloyatini makon tutdilar.)

Bolaligida Usmonlilar davlatiga qarashli harbiy bo‘linma – Yanicharlar bo‘linmasiga olib kelinadi. Harbiy bo‘linmada o‘zining ilmga bo‘lgan ishtiyoqi bilan bo‘linma kotibi Shahobiddin Beyning e’tiboriga tushadi va ba’zi majburiyatlardan ozod etiladi. Oshiq Chalabiyning so‘zlariga ko‘ra, u Kamolposhshozoda, Fenarizoda Muhiddin kabi olim va shoirlar majlislarida qatnashadi .

Yahyobey badiiy jod bilan birga jangovarlikni ham o‘zida tarbiyalab boradi. Rustam poshoning qanoti ostida saroyda xizmat qila boshlaydi. Manbalarda uning shahzoda Mustafoning yaqin kishisi sifatida sanjak (Usmonlilar davrida shahzodalar ma’lum yoshga yetgach, ularga boshqarish uchun topshiriladigan viloyat) boshqaruvida maslahatchi bo‘lgani haqida ma’lumotlar keltiriladi. Sulton Sulaymon taxtga o‘tirganidan so‘ng Yahyobey ijodkor sifatida ham nom qozona boshlaydi.

Yahyobey Toshlijalining bizgacha bir devoni, Istanbul haqidagi ikki manzumasi va besh dostondan iborat “Xamsa”si yetib kelgan. Latifiy bulardan tashqari, shoirning “Noz-u niyoz” nomli bir asari ham borligini aytib o‘tadi . Lekin bu asar hozirgacha topilmagan. Shuningdek, adabiyotshunoslikda Toshlijalining 2000 baytli “Sulaymonnoma” hamda Payg‘ambar (s.a.v) mo‘jizalari haqidagi asarlari ham mavjudligi to‘g‘risida ayrim ma’lumotlar uchraydi. Shoirning o‘zi “Gulshan ul-anvor” dostonining “Xotimat ul-kitob” qismi va devonining debochasida Sulton Sulaymon homiyligida “Xamsa” yozganini va uni Sultonga bag‘ishlaganini aytib o‘tadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Yahyobey devon sohibi bo‘lsa-da, uning turkiy adabiyotdagi asosiy o‘rnini “Xamsa” belgilab bergan. Toshlijalining besh dostondan iborat “Xamsa”si “Gulshan ul-anvor”, “Shoh-u gado”, “Ganjinai roz”, “Yusuf va Zulayho” va “Usulnoma” dostonlaridan iborat.

Adabiyotshunoslikda Toshlijalining “Gulshan ul-anvor”, “Ganjinai roz” va “Usulnoma” dostonlarining har uchalasi ham Nizomiy “Maxzan ul-asror”iga javob tarzida vujudga kelgan, degan qarash bor . Lekin uning “Ganjinai roz” dostoni Abdurahmon Jomiyning “Subhat ul-abror” dostoni ta’sirida yozilgan. Dostonning kompozitsion qurilishi (Jomiy dostoni singari 40 maqoladan iborat ekanligi) va unda qo‘llanilgan she’riy o‘lchov ham fikrimizni tasdiqlaydi. Muallif ushbu dostonida Nizomiy va Dehlaviylar qatorida Abdurahmon Jomiyning nomini ham alohida ehtirom bilan yodga oladi:

Ĥażret-i Cāmį’dür anuñ ŝāliŝi
Genc-i ma’ānįnüñ odur vāriŝi
Hamsesidür bāiŝ-i hengām-ı ışk
Hams-ı mübārekde odur cām-ı ışk

(Mazmuni: Hazrati Jomiydir uning yo‘lboshchisi, ma’nolar xazinasining vorisi udir. Ishqdan hikoya qiluvchi “Xamsa”si ishq mayi to‘la muborak qadahdir)

Umuman, Yahyobey Toshlijalining xamsanavislikka munosabati ko‘p jihatdan Jomiyni eslatadi, xususan, uning dostonlarida falsafiy yo‘nalishga ko‘proq urg‘u berilganligi va Yusuf payg‘ambar qissasiga doir alohida doston yaratganligi mazkur muallifning beshlik yaratishda Nizomiydan ko‘ra ko‘proq Jomiyga

ergashganligini ko‘rsatadi . Bu ikki ijodkor beshligidagi o‘zaro o‘xshash jihatlar haqida to‘liqroq tasavvur hosil bo‘lishi uchun quyidagi jadvalni keltiramiz:

№	Jomiy beshligidagi dostonlar	Toshlijali beshligidagi dostonlar
1.	“Tuhfat ul-ahror”	“Gulshan ul-anvor”
2.	“Subhat ul-abror”	“Ganjinai roz”
3.	“Yusuf va Zulayho”	“Yusuf va Zulayho”
4.	“Layli va Majnun”	“Shoh va gado”
5.	“Xiradnomai Iskandariy”	“Usulnoma”

Ko‘rinadiki, Yahyobey Tojlijali beshligi ham Jomiy beshligi singari uchta falsafiy yo‘nalishdagi va ikkita ishqiy dostondan iborat. Shoir ijodining o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, u nafaqat “Xamsa”sida, balki g‘azallarida ham sodda va xalqona uslubdan foydalangan. Xamsanavislikda Yahyobey o‘zidan avval yaratilgan “Xamsa”lardan farqli o‘laroq, o‘z “Xamsa”sini yangi mavzular, voqealar va uslub bilan boyitgan. O‘z asarlari debochasida shoir buni alohida ta’kidlab o‘tadi.

Yahyobey qalami o‘tkir ijodkor, qilichi keskir sarkarda bo‘lgan. U devoni hamda masnaviylarida o‘zi haqida so‘z yuritar ekan, jasurligi va janglarda ko‘rsatgan qahramonliklarini faxr bilan shunday ta’riflaydi:

İki hüner verdi bana Zü’l-celâl
Biri şecaât, biri fazl u kemâl .

(Mazmuni: Zuljalol, ya’ni qudrat va azimat sohibi bo‘lgan Zot menga ikki hunar berdi: biri shijoat va biri kamolot).

Yahyobey Toshlijali Xayoliy Bey bilan birgalikda Sulton Sulaymon Qonuniyning Bag‘dod yurishida qatnashgan va mashhur ozarbayjon shoiri Fuzuliy bilan uchrashgan. Toshlijali “Qilich va qalam sohibi” unvonini olib, harbiy shoir sifatida tanilgan. Shu o‘rinda uning ijtimoiy va siyosiy faoliyati buyuk o‘zbek shoiri Navoiyning faoliyatiga hamohang ekanligini ta’kidlash joiz. Agar ularning hayot yo‘liga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu ikki zot orasida o‘zaro mushtarak jihatlarni kuzatishimiz mumkin bo‘ladi.

Ma’lumki, Alisher Navoiy sulton Husayn Boyqaro xizmatiga kirguniga qadar, uch hukmdor: Abulqosim Bobur, Abusa’id Mirzo va Sulton Ahmad Mirzo saroyida bo‘lib, turli yumushlarni bajargan. Demak, aytish mumkinki, u o‘smirlik davridan boshlab saroy ahli: sultonlar, amaldorlar, mansabdor shaxslar, ularning kundalik turmushlari va o‘zaro munosabatlaridan yaxshi xabardor bo‘lgan.

1469-yilning boshida, ya’ni aprel oyida Husayn Boyqaro Xuroson taxtini egallagan vaqtida Navoiy Samarqandda edi. Sulton shoirga maktub yo‘llab, uni o‘z yoniga chaqirtiradi va Navoiy ona shahri Hirotga qaytadi. Aytish mumkinki, “Yangi hukmdor o‘ziga aqlli, saltanat sirlarini yaxshi biladigan, yashirin ishlar, maxfiy sirlarni tekshirish uchun o‘ziga sodiq do‘st, xalqparvar, dono, murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qiladigan diplomat shaxsni tanlashi kerak edi. Bu jihatdan Husayn Boyqaro uchun Alisherdan munosib inson topilmas edi” .

Alisher Navoiy ham, Yahyobey Toshlijali ham o‘z ijodiy faoliyatlarini bevosita lirik she’rlar yozishdan boshlashgan. Devon sohibi bo‘lgach, ya’ni nazmda muayyan tajribaga ega bo‘lgandan keyin “Xamsa” yozishga kirishganlar. Toshlijali devonini uch marta tartib berib, har safar unga muhim o‘zgartirishlar kiritgan. Mehmed Chavusho‘g‘lu Yahyobey devonining olti nusxasini solishtirib, ilmiy-tanqidiy matnini nashr ettirgan . Agar Alisher Navoiy ham o‘z lirik kulliyoti bo‘lmish “Xazoyin ul-maoniy”ni uch marta qayta ishlab, tahrirlab, hozirgi holatiga keltirganligini yodga olsak, bu ikki shoirning ijodiy faoliyatida ham umumiy o‘xshashliklar borligi kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda, Yahyobey Toshlijali Usmonli turklar

saltanatida podshohning eng yaqin kishilardan biri, ham

davlat arbobi va mohir sarkarda, ham ijodkor sifatida faoliyat yuritgan bo‘lsa, Alisher Navoiy Xurosonda Husayn Boyqaroning “Amiri muqarrabi” sifatida xalq farovonligi va mamlakat obodligi uchun kurash olib bordi. Har ikki shaxs ham buyuk ijodkor bo‘lish bilan birga, kuchli davlat arbobi va harbiylik sohasida yaxshi malakaga ega bo‘lgan zotlar edi. Har ikkala ijodkor xamsanavislikda o‘z o‘rni va yo‘nalishiga ega bo‘lgan shaxslar sifatida adabiyot tarixida nom qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayşe Sağlam. Taşlıcalı Yahya Bey ve Hemsesı. Doctora Tezı. Diyarbakır, 2016.
2. Latîfî. Tezkiretü'ş-şu'ara ve tabsıratü'n-nuzamâ. Haz. Rıdvan Cânım. Ankara, 2000.
3. Araslы N. Nizami va turk edabyati. – Baku: Elm, 1980.
4. Taşlıcalı Yahyâ Bey. Gülsen-i Envâr. Karşılaştırmalı metin. Hazırlayan Ayşe Sağlam. Ankara, 2016.
5. Юсупова Д. Алишер Навоий «Хамса»сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. Филол.фан.ном. дисс. – Тошкент, 2008.
6. Taşlıcalı Yahyâ Bey. Gülsen-i Envâr. Karşılaştırmalı metin. Hazırlayan Ayşe Sağlam. – Ankara, 2016.
7. Farmonov R. Alisher Navoiy – jamiyat islohotchisi va qonunlar ijodkori / Alisher Navoiy va XXI asr (Buyuk shoir va mutafakkir tavalludining 580 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari). – Toshkent, 2021-yil 8-fevral. 213-214-betlar.

Obidjon IGAMBERDIYEV,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Chirchiq shahri, O'zbekiston.
obidjoni117@gmail.com

KO'P YILLIK TAYYORGARLIK BOSQICHLARIDA SHUG'ULLANUVCHI 10-12 YOSHLI FUTBOLCHILARNING UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH

Annotatsiya: maqolada ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida futbolchilarni tayyorlash, turli tayyorgarliklarini baholash va tayyorgarligini belgilovchi omillarni o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy ishlar o'rganilgan va atroflicha tahlil qilingan. Yosh futbolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini baholovchi nazorat testlari tajriba asosida tadqiq qilingan. Tadqiqotda 10-12 yoshli futbolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini testlash va tahlil qilish orqali olingan natijalarga asoslanib xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: *yosh futbolchilar, harakat faoliyati, umumiy jismoniy tayyorgarlik, nazorat testlari, baholash kriteriyalari, obyektiv baholash.*

Аннотация: в статье изучаются и всесторонне анализируются научные работы по подготовке футболистов на этапах многолетней подготовки, оценке различных видов подготовки и изучению факторов, определяющих их подготовку. На экспериментальной основе исследованы контрольные тесты, оценивающие общую физическую подготовленность юных футболистов. В исследовании даны выводы на основе результатов, полученных при тестировании и анализе общей физической подготовленности футболистов 10-12 лет.

Ключевые слова: *юные футболисты, двигательная активность, общая физическая подготовленность, контрольные испытания, критерии оценки, объективная оценка.*

Annotation: the article studies and comprehensively analyzes scientific works on the preparation of football players at the stages of long-term preparation, the assessment of various types of preparation and the study of the factors determining their preparation. On an experimental basis, control tests assessing the general physical fitness of young football players were studied. The study provides conclusions based on the results obtained during testing and analysis of the general physical fitness of football players aged 10-12 ears. n

Key words: *young football players, motor activity, general physical fitness, control tests, evaluation criteria, objective assessment.*

Dolzarbligi. Yurtimizda bolalar futboli va professional futbolni rivojlantirish tizimini yanada yaxshilash, xalqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini yaratish, yuqori iqtidorga ega bo'lgan yosh futbolchilarni saralab olish (seleksiya) tizimini yo'lga qo'yish, bolalar va o'smirlarda futbol bilan shug'ullanish qobiliyatini erta aniqlash va ularda futbolga bo'lgan barqaror qiziqishni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. 2023-yilning 3-noyabrida mamlakatimiz prezidenti tomonidan qabul qilingan "Futbol-ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda xalqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-355 sonli qarorda mamlakatimiz futbolini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Futbolchilar

tayyorlash bosqichlarini raqamlashtirish orqali shaffof saralashni tashkil etish, saralab olingan eng iqtidorli va yuqori mahoratga ega futbolchilarni terma jamoalarga etkazish, yoshlarni zamonaviy futbolga mos usul va falsafa asosida professional tayyorlash va futbol bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish orqali sohani yanada yuqoriga ko‘tarish kabi masalalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu qarorda belgilab qo‘yilganki, ilg‘or xorij tajribasini o‘zlashtirish hamda tajribali xalqaro mutaxassislarni jalb qilgan holda murabbiy va futbolchilarni zamonaviy, innovatsion metodikalar, ilmiy-tahliliy yondashuv asosida tayyorlash, barcha darajadagi futbol-ta’lim muassasalarida yagona yondashuv asosida futbolchilarni tayyorlashni tashkil etish hamda ularni ilmiy va metodik ta’minlash, futbolchilarni tayyorlashning barcha bosqichlarini raqamlashtirish orqali shaffof saralash (seleksiya) ishlarini tashkil etishda inson omilini aralashuvini keskin qisqartirish, joylardagi futbol akademiyalari va maktablaridan saralab olingan eng iqtidorli va yuqori mahoratga ega futbolchilarni terma jamoalarga nomzodlarni zamonaviy futbolga mos usul va falsafa asosida professional tayyorlash va futbol bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, ilg‘or xorijiy sport texnologiyalarini jalb etgan holda sohani rivojlantirishga erishish soha mutaxassislarining oldiga qo‘yilgan dolzarb vazifalarni belgilab berish bilan birga sohada tadqiqot olib borayotgan bo‘lajak olimlarga dolzarb mavzularni ham ko‘rsatib berdi [1,2].

Tadqiqotning maqsadi ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida shug‘ullanuvchi 10-12 yoshli futbolchilarni nazorat testlaridan o‘tkazish orqali ularni umumiy jismoniy tayyorgarligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Futbolchilarni tayyorlash va turli tayyorgarliklarini baholash bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini o‘rganish va tahlil qilish.

2. 10-12 yoshli futbolchilarni umumiy jismoniy tayyorgarliklarini baholash uchun umume’tirof etilgan nazorat testlarini aniqlash;

3. 10-12 yoshli futbolchilarni umumiy jismoniy tayyorgarligini baholash, olingan natijalarni statistik tahlil qilish va xulosalar qilish.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. 10-12 yoshli futbolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan pedagogik tajriba natijalari 1-jadvalda berilgan. 10-12 yoshli shug‘ullanuvchilarning tezkorlik, tezkor-kuch, kuch darajasi, egiluvchanlik, chidamlilik kabi jismoniy sifatlarining rivojlanganlik darajasi va harakat koordinatsiyasi ko‘rsatkichlarini aniqlashda 7 ta nazorat test me’yorlaridan foydalanildi. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida o‘tkazilgan tadqiqotimizga ko‘ra, 10-12 yoshli futbolchilarda tezkorlik jismoniy sifatini rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida “Yuqori startdan 30 m. yugurish”, chaqqonlik qobiliyatlarini rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun “3×10 m. moksimon yugurish”, qo‘l kuchini og‘irligi 1 kg. bo‘lgan to‘ldirma to‘pni uloqtirish, tezkor kuch qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun “Turgan joydan uzunlikka sakrash”, mo‘ljalni to‘g‘ri olish qobiliyatini aniqlash maqsadida og‘irligi 150 gr. bo‘lgan kichik tennis koptogini uloqtirish, koordinatsion qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun “Bir oyoqda muvozanat saqlab turish” va egiluvchanlik sifatini rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida sinaluvchi tik turgan holatda, oyoqlar juft holatda, gavdani oldinga bukish kabi umumiy jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini aniqlash test me’yorlari qabul qilindi [3,4,7,8,10].

Tadqiqot va nazorat guruhi o‘g‘il bolalarning umumiy jismoniy tayyorgarligini rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida yuqorida sanab o‘tilgan nazorat test me’yorlari bo‘yicha olingan statistik natijalarga ko‘ra o‘tkazilgan tadqiqotning birinchi bosqichida nazorat va tadqiqot guruhlari o‘rtasida statistik farqlar kuzatilmadi. Pedagogik tajribaning ikkinchi bosqichida tadqiqot va nazorat guruhlari natijalari o‘rtasida statistik farq kuzatildi. Bunda tajriba guruhi o‘g‘il bolalarining umumiy jismoniy tayyorgarligi o‘rganilganda nazorat guruhidagi bolalarnikiga nisbatan sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Jumladan, nazorat va tadqiqot guruhlarining tezkorlik jismoniy sifatining rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida yuqori startdan 30 m. yugurish nazorat test me’yori qabul qilindi. Pedagogik tajribadan olingan natijalar Student t-mezonidan foydalanildi va hisoblash amaliyotidan so‘ng tadqiqotning birinchi bosqichida nazorat va tadqiqot guruhlari natijalari o‘rtasidagi statistik farqlar kuzatilmadi, o‘rtacha t=1,65 farq qilgan. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida nazorat va tadqiqot guruhlari natijalari o‘rtasidagi ko‘rsatkich farqi t=2,74, ishonchlilik darajasi (P<0,01) tashkil qilgan holda statistik farqlar borligi kuzatildi.

Nazorat va tadqiqot guruhlarining 10-12 yoshli futbolchilarning chaqqonlik qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida 3×10 m mokisimon yugurish nazorat test me’yori qabul qilindi (masofalar 1 m. gacha bo‘lgan aniqlikda o‘lchandi). Tajriba va nazorat guruhlaridagi 7-9 yoshli o‘g‘il bolalarning jismoniy tayyorgarligi o‘rganilganda, tajriba guruhidagi o‘g‘il bolalarda nazorat guruhidagi bolalarnikiga nisbatan sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Tadqiqotning birinchi bosqichida nazorat guruhining 10-12 yoshli futbolchilarda chaqqonlik jismoniy sifatining rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida qabul qilingan 3×10 m mokisimon yugurish testida tadqiqotning birinchi bosqichida nazorat va tadqiqot guruhlari natijalari o‘rtasidagi farqi t=1,90, (P>0,05) tashkil qilgan holda statistik farqlar kuzatilmadi. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida nazorat va tadqiqot

guruhlari natijalari o‘rtasidagi farqi t=2,94, (P<0,01) tashkil qilgan holda statistik farq kuzatildi.

Nazorat va tadqiqot guruhi futbolchilarining qo‘l kuchini rivojlanganlik darajasini aniqlash hamda kuch jismoniy sifatini rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida og‘irligi 1 kg. bo‘lgan to‘ldirma to‘pni uloqtirish test me’yori qabul qilindi (natija uchta urinishning eng yaxshi ko‘rsatkichi asosida aniqlandi). Tadqiqotning birinchi bosqichida nazorat va tadqiqot guruhlari natijalari o‘rtasidagi ko‘rsatkich t=1,84 (P>0,05) farq qilgan. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida nazorat va tadqiqot guruhlari natijalari o‘rtasidagi ko‘rsatkich farqi t=2,41 (P<0,05) teng bo‘ldi.

1-jadval

10-12 yoshli tajriba va nazorat guruhlari futbolchilarining tajriba boshi va oxiridagi umumiy jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari

T/p	Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	O‘g‘il bolalar			
			NG	TG	t	P
			$\bar{x} \pm \sigma$	$\bar{x} \pm \sigma$		
1	Turgan joydan uzunlikka sakrash	sm	148,7±14,3 153,1±13,4	151,6±14,6 159,3±15,2	1,77 2,46	>0,05 <0,05
2	Yuqori startdan 30 m yugurish	s	7,4±0,63 7,2±0,75	7,3±0,7 6,8±0,72	1,66 2,75	>0,05 <0,01
3	3×10 m mokisimon yugurish	s	8,5±0,7 8,2±0,9	8,4 ±0,6 7,7±0,8	1,91 2,93	>0,05 <0,01
4	To‘ldirma to‘pni uloqtirish (1 kg)	m	11,8±1,2 12,7±1,4	12,5 ±1,13 14,5±1,5	1,85 2,40	>0,05 <0,05
5	150 gr kichik tennis to‘pini uloqtirish	m	21,7±2,05 23,6±2,3	22,8±2,0 25,8±2,4	1,71 2,62	>0,05 <0,05
6	Oldinga egilish	sm	7,8±0,63 8,7±0,98	7,8±0,7 9,5±1,1	1,67 3,35	>0,05 <0,01
7	Bir oyoqda muvozanat saqlab turish	s	32,4±2,8 31,8±2,95	33,3±3,1 33,2±3,01	1,82 2,11	>0,05 <0,05

Izoh: *Jadvalda - tajriba boshidagi natijalar; maxrajda - tajriba oxiridagi natijalar. NG-nazorat guruhi, TG-tajriba guruhi. [n=60]*

Nazorat va tadqiqot guruhlarining tezkor-kuch qobiliyatlari hamda tezkorlik qobiliyatining rivojlanganlik darajalarini aniqlash uchun “Turgan joydan uzunlikka sakrash” nazorat test me’yori qabul qilindi (natija uchta urinishning eng yaxshi ko‘rsatkichi asosida aniqlandi). Tadqiqotning birinchi bosqichida nazorat va tadqiqot guruhlari natijalari o‘rtasidagi farqi t=1,76 ko‘rsatkichni (P>0,05) tashkil qilgan holda statistik farqlar kuzatilmadi. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida nazorat va tadqiqot guruhlari natijalari o‘rtasidagi t=2,47, ko‘rsatkichni (P<0,05) tashkil qilgan holda statistik farqlar borligi kuzatildi. Nazorat va tadqiqot guruhlarining 10-12 yoshli futbolchilarning mo‘ljalni to‘g‘ri olish qobiliyatini aniqlash maqsadida og‘irligi 150 gr kichik tennis to‘pini uloqtirish nazorat test me’yori qabul qilindi (natija uchta urinishning eng yaxshi ko‘rsatkichi asosida aniqlandi). Tadqiqotning birinchi bosqichida nazorat va tadqiqot guruhlari natijalari o‘rtasidagi farqi t=1,72 ni (P>0,05) tashkil qilgan holda deyarli sezilarli o‘zgarishlar bo‘lmadi degan xulosaga kelishimizga imkon berdi. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida nazorat va tadqiqot guruhlari natijalari o‘rtasidagi farqi t=2,61ni tashkil etgan. Ular o‘rtasidagi mavjud farq statistik ishonchli (P<0,05)ga teng bo‘ldi.

Nazorat va tadqiqot guruhlarida 10-12 yoshli futbolchilarining koordinatsion qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida “Bir oyoqda muvozanat saqlab turish” nazorat test me’yori qabul qilindi (sinaluvchi ko‘zlarini yumib bir oyog‘da turadi. Qo‘llar belda, bukilgan oyoq tayanch oyoq tizzasi ustida turadi. Pedagog sekundomer yordamida muvozanat saqlab turgan vaqtini hisobga oladi). Nazorat guruhining natijasi tadqiqotning birinchi bosqichida 32,4±2,8 s natijasini ko‘rsatgan bo‘lsa, tadqiqotning ikkinchi bosqichida 33,6±2,95 s teng bo‘ldi.

Tadqiqot guruhining bir oyoqda muvozanat saqlab turishi test natijasida tadqiqotning birinchi bosqichida o‘rtacha 32,9±3,1 s natijasini ko‘rsatgan bo‘lsa, tadqiqotning ikkinchi bosqichida o‘rtacha 34,8±3,01 s yaxshilandi. Olingan natijalar t-mezoni bo‘yicha hisoblash amaliyotidan so‘ng, tadqiqotning birinchi bosqichida nazorat va tadqiqot guruhlari natijalari o‘rtasidagi farqi t=1,81 teng bo‘lgan bo‘lsa, statistik farqlanishni (P>0,05) tashkil qilgan holda o‘zgarishlar aniqlanmadi. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida nazorat va tadqiqot guruhlari natijalari o‘rtasidagi

farqi t=2,10, (P<0,05) ni tashkil qilgan holda statistik farqlar borligi kuzatildi.

Tadqiqot va nazorat guruhi 10-12 yoshli futbolchilarining egiluvchanlik sifatining rivojlanganligini aniqlash maqsadida oldinga egilish nazorat test me'yori qabul qilindi (natija kuchli (chap yoki o'ng) qo'l barmoqlarini yarim ochgan holatda oldinga uzatishi bilan aniqlanadi). Tadqiqotning birinchi bosqichida nazorat guruhining natijasi o'rtacha 7,8±0,63 sm natijasini ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotning ikkinchi bosqichida esa o'rtacha 8,7±0,98 sm yaxshilandi.

Tadqiqot guruhining oldinga egilish test natijasidagi tadqiqotning birinchi bosqichida o'rtacha 7,9±0,7 sm natijasini ko'rsatgan bo'lsa, tadqiqotning ikkinchi bosqichida o'rtacha 9,5±1,1 sm yaxshilanganlini ko'rish mumkin. Tadqiqotning birinchi bosqichida nazorat va tadqiqot guruhlari natijalari o'rtasidagi o'rtacha farqi t=1,68, (P>0,05) tashkil qilgan holda statistik farqlanish aniqlanmadi. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida nazorat va tadqiqot guruhlari natijalari o'rtasida o'rtacha farqi t=3,34, (P<0,01) tashkil qilgan holda statistik farqlar kuzatilganligini ko'rishimiz mumkin.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, yuqori startdan 30 m yugurish, 3×10 m mokisimon yugurish, to'ldirma to'pni uloqtirish (1 kg), turgan joydan uzunlikka sakrash, 150 gr kichik tennis to'pini uloqtirish, bir oyoqda muvozanat saqlab turish, oldinga egilish testlarida tadqiqot va nazorat guruhlaridagi statistik farqlanishlar tadqiqotning ikkinchi davrida aniqlandi.

Xulosa. Hozirgi kunda mamlakatimizda futbolchilarni tayyorlash, tayyorgarlik bosqichlarida futbolchilarni tayyorlashni ilmiy-metodik ta'minlash, istiqbolli o'yinchilarni saralab olish va har tomonlama tayyorgarligini takomillashtirish masalalari dolzarbdir. Mamlakatimizda futbolchilarni tayyorlash bo'yicha birmuncha ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, futbolda saralab olish masalalari o'z yechimini kutmoqda. Xorijiy va mahalliy olimlarning izlanishlaridan ma'lum bo'lishicha, qator sport turlarida tanlab olish va saralash ishlari o'rganilgan bo'lsa-da, futbol sport turida saralab olish bo'yicha salmoqli ishlar qilinmagan. Shundan kelib chiqib, ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida futbolchilarni saralab olish texnologiyasini yaratish zarurati mavjud [5,6,9].

Nazorat va tadqiqot guruhlarida ishtirok etgan futbolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini aniqlash maqsadida qo'llanilgan 7 ta test me'yor ko'rsatkichlariga ko'ra, umumiy jismoniy tayyorgarligi bo'yicha natijalari nazorat guruhi futbolchilarining umumiy jismoniy tayyorgarligi bo'yicha ko'rsatgan natijalariga qaraganda ijobiy o'sish hamda Student t-mezoni bo'yicha hisoblash amaliyotidan tadqiqotning ikkinchi davrida statistik farqlanish aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 7- apreldagi "Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-115-sonli qarori. http://Lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023- yilning 3-noyabrdagi "Futbol-ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda xalqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-355 sonli qarori. http://Lex.uz.
3. Ахмаджанов У.М., Талипжанов А.И., Исеев Ш.Т.. Физическая подготовка футболистов / –Ташкент, 2019. 172 s.
4. Волков ЖИ. В. Система управления развитием физических способностей детей школного возраста в процессе занятий физической культурой и спортом: автореф. дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.04 - М. 1989. - 38 s.
5. Годик М. А.Физическая подготовка футболистов –М.: Терра-Спорт; Олимпия Пресс, 2006. - 272 s.
6. Губа В.П, Лекассаков А.В. Теория и методика футбола: учебник / под общ. ред. В. П. Губы и А. В. Лексакова. – М.: «Спорт», 2015. – 568 s.
7. Запорожанов В. А. Проблема отбора в современном спорте и основные направления ее развития // Отбор и многолетнее планирование в спорте: тезисы докладов республиканской научно-практической конференции. - Киев, 1986. S. 18-19.
8. Igamberdiyev O. Yosh futbolchilarni tanlab olish va seleksiyalashda yangi tadqiq qilish uslubiyatlari // Академические исследования в современной науке. – T, 2022. 159-165-b.
9. Igamberdiyev O. The effectiveness of using tests for assessing their motor skills in the selection of young football players //International Bulletin of Applied Science and Technology. – T. , 2023. 451-456-b.
10. Ermatov Sh.S. Yosh futbolchilarni tanlab olishning nazariy asoslari // "O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" mavzusidagi Respublika 19-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari 11-qism. – Toshkent. 31- avgust 2020-yil. 18-20-betlar.

Nigora RAXMATULLAYEVA,
University of Business and Science
Oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi
raxmatullayevanigora@gmail.com



ME'MORCHILIKKA OID AYRIM LEKSEMALARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek tilidagi me'morchilik leksikasiga oid ayrim so'zlarning semantik strukturasi komponent tahlil qilinadi.Leksemalar semantik strukturasidagi milliy-madaniy bo'yoqdorlik masalasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: *leksema, semantik struktura, komponent tahlil, milliy-madaniy bo'yoqdorlik, termin.*

Аннотация: в данной статье анализируется семантическая структура некоторых слов, относящихся к архитектурной лексике узбекского языка. Освещается проблема национально-культурной окраски в семантической структуре лексем.

Ключевые слова: *лексема, семантическая структура, компонентный анализ, национально-культурная окраска, термин.*

Annotation: in this article, the semantic structure of some words related to the architectural lexicon in the Uzbek language is analyzed. The issue of national-cultural coloration in the semantic structure of lexemes is highlighted.

Key words: *lexeme, semantic structure, component analysis, national-cultural coloring, term.*

Tilshunoslikda muayyan tushuncha atrofida birlashuvchi birliklar semantik maydon deb yuritiladi. Har bir tilda olamning lisoniy manzarasidan kelib chiqqan holda til birliklari muayyan uya va o'xshashlik qatorlariga birlashadi. Bir o'xshashlik qatoriga mansub birliklar o'z navbatida integral va differensial belgilarga ega bo'ladi. O'zbek tilidagi semantik maydonlar Sh.Iskandarova, R.Rasulov, A.Sobirov, I.Qo'chqortoyev, S.Muhammedova kabilar tomonidan tahlil qilingan.Har bir sohaga oid leksemalar umumiy bir semantik maydonni hosil qiladi.Ana shunday semantik maydonlardan biri me'morchilik leksikasidir.

Xalq tarixida, uning madaniy hayotida, turmush tarzida me'morchilik sohasi katta ahamiyatga ega bo'ladi.Me'morchilik har bir millat hayotining ajralmas qismi, uzoq tarixiy jarayonlar natijasida taraqqiy etgan soha sifatida bugungi kunda ham muhim hisoblanadi. O'zbek xalqi azaldan mehnetsevar, ijodkor, madaniy taraqqiy etgan xalq sifatida moddiy madaniy yodgorliklarni yaratib kelgan. Me'morchilikka oid so'zlar ham tilimizda muayyan semantik maydonni tashkil etadi.Bu semantik maydonda me'morchilikka oid terminlar, harakat fe'llari, makon va inshoot nomlari alohida o'rin egallaydi.Inshootni ifodalovchi leksemalarda, ayniqsa, milliy-madaniy xususiyatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday leksemalar qatoriga uy, qasr, saroy, bozor, rasta, kulba, rasadxona kabi bir qator leksemalar kiradi.

Bozor so'zi "savdo-sotiq qilinadigan maxsus joy" ma'nosini anglatadi va bu tojikcha ot "yoyiq", "ochiq" ma'nosini anglatadigan tojikcha boz sifatidan -or qo'shimchasi bilan hosil qilingan. Bu otdan o'zbek tilida bozorchi oti hosil qilingan, bozor-o'char juft oti tuzilgan.[2.46]

Bozorlar qadimgi Rim va Yunonistonning Milet, Pergam va boshqa shaharlarida to'g'ri to'rtburchakli maydonda 3 yoki 4 tomoni qator ustunli savdo rastalari va omborlar, ibodatxonalar, ustaxonalar va boshqalardan iborat bo'lgan. Bozor maydonlari shahar majmua (agora, forum)larining bir qismi hisoblangan. Har bir mamlakat bozorlarining me'morligi va qurilishi iqlim sharoiti, iqtisodi, geografik o'rni va savdo sohasidagi an'analar bilan bog'liq bo'lgan. O'rta Yer dengizi havzasida qadimda ochiq maydonlarda, Sharqda esa usti yopiq bozorlar rivojlangan.

Yevropada bozorlar maxsus reja asosida qurilgan (Parijdagi markaziy bozor, 1850 va b.). Rossiyada ixtisoslashgan bozor («Гостиный двор»)lar asosan, 1-2 qavatli, old tomoni ko'pincha ravoqlar yoki ustunlar qatoridan iborat bostirma bo'lgan (Sankt-Peterburgdagi bozor, 1761-85; Yaroslavldagi bozor, 1813-18 va b.).

O'rta Osiyo hududidagi Buxoro, Samarqand, Poykend, Urganch, Xiva, Marv, Numijkat, Isfijob, Ushturkat, Chag'oniyon kabi shaharlarda savdo-sotiq qadimdan rivojlangan. Ayniqsa, o'rta asrlarga kelib nafaqat shaharlarda, balki juda ko'p yirik qishloqlarda ham tim, toki, chorsu deb nomlangan gavjum bozorlar bo'lgan O'zbekistonda savdo-sotiq eng qadimiy davrlarda yuzaga kelgan. Ayniqsa, o'rta asrlarga kelib nafaqat shaharlarda, balki juda ko'p yirik qishloqlarda ham qaynoq gavjum bozorlar bo'lgan. Butun Sharqdagidek, bu yerda ham mahalliy bozorlarni o'lkaning ko'zgusi desa bo'ladi. Hozir O'zbekistonda bozor asosiy sotiladigan mahsulotlarga ko'ra dehqon bozori (qishloq xo'jaligi mahsulotlari), buyum bozori,

ulgurji bozor, mol (chorva mollari) bozori kabi asosiy turlarga bo‘linadi.

Tim (fors.toj.usti yopiq bozor, savdo rastasining baland tomi, gumbazi ma’nolarini ifodalagan. Timlar qadimda asosan yirik shahar markazlarida, ko‘chalar kesishgan chorraha, chorsu, guzar maydonida, karvonsaroylar yaqinida joylashgan. Usti ulkan gumbaz bilan qoplanib, bir necha hunarmandlik do‘konlari va savdo rastalarini o‘z ichiga olgan. Timlar shahar me’moriy qiyofasini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

Chorsu (forschadan chor — "to‘rt", su —"bozor"; chorrahadagi bozor joy)

1) tarixiy shaharlarning asosiy chorrahasidagi odatda usti yopiq bo‘lgan savdo- sotiq joyi; aksari shaharning o‘rtasida qurilib, markaziy mujassamotga ega bo‘lgan;

2) umuman savdo- sotiq joyi. Aslida sug‘dlarning shahar ichidagi bozorlari va savdo rastalari arab manbalarida “suk” deb, chorrahada joylashganlari “choxorsuk” yoki chorsu deb yuritilgan.

Bozor so‘zi iqtisodiy termin ham hisoblanadi va quyidagi ma’no qirralariga ega:

1. Sotuvchilar bilan xaridorlar o‘rtasidagi tovar ayirboshlash munosabatlari;
2. Ishlab chiqaruvchilar bilan iste’molni o‘zaro bog‘lovchi mexanizm.

Bozor so‘zining ikkinchi ma’nosi – savdo-sotiq qilinadigan muayyan joy, maydon. Hozirgi kunda ham bozorlar me’morchilik obyekti hisoblanadi. Chunki barcha viloyat va tumanlarda zamonaviy talablarga javob beradigan bozorlar barpo etishga ham alohida e’tibor qaratiladi. Bozor so‘zi aynan oldi-sotdi jarayoni ma’nosida va shu oldi-sotdi amalga oshiriladigan joy ma’nosida xalq tilida ko‘p qo‘llanadi. Aynan shu ma’nolar asosida ko‘plab ko‘chma ma’nolar yuzaga kelgan. Bozor so‘zini komponent tahlil qiladigan bo‘lsak, quyidagi ma’no qirralarini kuzatamiz:

1. Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor. (Maqol) Bu o‘rinda gavjumlik, fayzlilik ma’nolariga urg‘u beriladi.

2.*Bozorga o‘xshaydi asli bu dunyo,*
Bozorga o‘xshaydi bunda ham ma’ni.
Ikkisi ichra ham ko‘rmadim aslo,
Molim yomon degan biror kimsani. (A.Oripov)

Bu misralarda bozor so‘zi salbiy ma’no ifodalash uchun qo‘llangan.Inson hayotida sotish va sotib olish mumkin bo‘lgan moddiy narsalar va sotish va sotib olish mumkin bo‘lmagan ma’naviy xususiyatlar mavjud. Dunyoning bozorga qiyoslanishi hamma narsani moddiy qiymat bilan o‘lchash, hatto insoniy munosabatlarda ham moddiylikni ustun qo‘yish, o‘ziga taalluqli narsalarni yuqori baholash va adolatsizlik, xudbinlik kabi hodisalarga aynan bozor leksemasi orqali ishora qilinadi.

Bozor so‘zi bozori chaqqon, bozori o‘tgan, bozori kasod, otang bozor, onang bozor, o‘zini bozorga solmoq, bozor qilib yubormoq kabi iboralar tarkibida ham qo‘llanadi.

Choyxona milliy me’moriy inshootlardan birini ifodalovchi leksema. Bu so‘z choy ichib, tamaddi qilib, hordiq chiqariladigan jamoat joyi; samovar, samovarxona. Choyxona – bu ot xitoycha choy oti bilan tojikcha xona otidan tuzilgan bo‘lib, “choy damlab sotiladigan ommaviy uy”, “somovar” ma’nosini anglatadi. [2.256] Sharqda, Markaziy va O‘rta Osiyoda iqlim va islom dini ta’sirida umumiy ovqatlanish joylari tashkil etilgan, bu joylarda yilning ko‘p qismi issiq havo bo‘lib, ko‘p miqdorda suyuqlik iste’mol qilishga to‘g‘ri kelgan. Islom dinida o‘tkir spirtli ichimliklar ichish taqiqlanganligi sababli musulmon mamlakatlarida chanqoqni bosish uchun eng tarqalgan ichimlik ko‘k choy bo‘lgan. Bularning barchasi choyxonalarning ko‘payishiga olib kelgan. Choyxonaga erkak kishilar yoki mahalliy bo‘lmagan musofirlar, mehmonlar choy ichish, ovqatlanish va o‘zaro suhbat qurish uchun borishgan. Choyxonada so‘nggi yangiliklarni eshitish, muhokama qilish, tanishlar va do‘stlarni ko‘rish mumkin bo‘lgan. Bu esa choyxonaning mahalladagi madaniy-maishiy markazga aylanishiga olib keldi. Ilgari yirik shaharlarda choyxona karvonsaroylar yonida joylashgan bo‘lib, qo‘shimcha xizmatlar- ovqatlanish va dam olish bilan hozirgi mehmonxonalarning vazifasini bajargan. Bugungi kunda choyxonalar dunyo bo‘ylab tarqalgan.

Choyxona – O‘zbekiston uchun asosiy tushuncha bo‘lib, u nafaqat o‘zbek gastronomi, balki jamiyatda jamoa tarzini tashkil etish shakllaridan biri bo‘ladi. O‘zbek choyxonasida an’anaviy tarzda asosan ko‘k choy taqdim etiladi. O‘zbek choyxonasida choy bilan birga turli taomlar: palov, kabob, mastava, manti, lag‘mon, somsa, chuchvara, sho‘rva kabilar; ichimliklar: chalob, ayron kabilar ham bo‘ladi. Ko‘proq choyxona mahalla masjidi yoki mahalla fuqoralar yig‘ini joylashgan o‘rinlarda qurilgan. O‘zbekistonda ba’zan shaharlararo katta, asosiy yo‘llar bo‘yida ham choyxonalar bo‘ladi. Choyxona ayniqsa Farg‘ona, Toshkent, Buxoro, Samarqand, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida ko‘p.

Me’morchilik leksikasini tahlil qilar ekanmiz, bu semantik maydonga oid leksemalar oddiy so‘z emas, balki xalq hayotidan mustahkam o‘rin egallagan va o‘zida shu xalq madaniyatiga xos qirralarni aks etishga xizmat qiluvchi leksemalar ekanligining guvohi bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Т., 1994.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 3 жилдли. 3-жилд. – Т.: Университет, 2003.
3. Тўхлиев Н. Осиё ва бозор, –Т.,1992.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси”, 2006.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т.:2000.

Mirzaolim ASRANOV,
UBS katta o‘qituvchisi



ARAB TILIDA OT SO‘Z TURKUMIDAGI SO‘ZLARDA BIRLIK VA IKKILIK SONLARINING QO‘LLANILISHIDA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolani yozishdan ko‘zlangan maqsad arab tilida otlarda birlik va ikkilik sonlarning o‘ziga xos xususiyatlarining gaplarda qo‘llanilishi va gaplarda yuz beradigan o‘zgarishlar masalasini yoritishdan iboratdir. Uning qay tarzda va qay usulda ifodalanishini arab tilshunosligi nuqtayi nazaridan tahlil qilish.

Kalit so‘zlar: *son kategoriyasi, birlik soni, ikkilik soni, ismiy gap, ega, kesim.*

Аннотация: целью написания данной статьи является освещение вопроса об особенностях единственного и двойственного числа в существительных в арабском языке в предложениях и изменениях, которые происходят в предложениях. Основной целью данной работы является анализ способа и в каком виде это выражается с точки зрения арабского языкознания.

Ключевые слова: *категория числа, единственное число, двойственное число, именное предложение, подлежащее, сказуемое.*

Annotation: the purpose of this article is to highlight the singular and binary features of nouns in Arabic in sentences and the changes that occur in sentences. The main purpose of this work is to analyze the method and in what form it is expressed from the point of view of Arabic linguistics.

Key words: *number category, singular number binary number noun phrase possessive participle.*

Arab tilidagi otlarning son kategoriyasi mavzusi o‘ta muhim va dolzarbdir. Chunki otlarning son kategoriyasi arab tilini o‘rganishning barcha sohalarida ishtirok etadi. Arab tilida so‘zlashuvda, jumlalarni arab tilida o‘zbek tiliga, o‘zbek tilidan arab tiliga tarjima qilishda, gan tuzishda, matnlarni ikkala tilga o‘girishda tarjimonlik faoliyatida mazkur mavzu asqotadi. Bu mavzu to‘liq o‘zlashtirilmasa yoki undan chala ma’lumotga ega bo‘lsa, yuqoridagi ish-faoliyatida talaba qo‘pol grammatik xatolarga yo‘l qo‘yishi mumkin.

Arab tilidagi otlarning son kategoriyasi o‘zbek tilidagi otlarning son kategoriyasidan tubdan farq qiladi. Birinchi farqi arab tilida birlik, ikkilik, ko‘plik sonlar bor. Ikkinchi farqi arab tilida ikkita jins mavjud. Uchinchi farqi birlikdagi so‘zlarni ko‘plikka aylantirishning ikki xil yo‘li bor, to‘g‘ri (to‘liq) va noto‘g‘ri (siniq) ko‘pliklar, to‘g‘ri ko‘plikda faqat so‘zlarning oxiriga qo‘shimcha qo‘shish yo‘li bilan ko‘plikka aylantiriladi. Muzakkar jinsdagi, oqil odamlar va ularning kasblari nomlariga نَو qo‘shimchasi qo‘shish orqali ko‘plik hosil bo‘ladi. Bunda “vov” harfi bosh kelishik ko‘rsatkichi hisoblanadi. Qaratqich va tushum kelishigining ko‘rsatkichi cho‘ziq “i” hisoblanadi.

Bosh kelishik نَوُحٰلَف gapning egasi doim bosh kelishikda turadi.

Qaratqich kelishik نَيحٰلَف old ko‘makchidan keyin keladi, izofaning muzofun ilayhisi qaratqich kelishigida turadi.

Tushum kelishigi نَيحٰلَف bu ko‘plikdagi so‘z o‘timli fe’ldan keyin kelib, tushum kelishigida turadi.

Dehqonlar dalada. لِقَحْلا يِف نَوُحٰلَفْلا

Tarjimonlar tirishqoqdirlar. نَوُدِهَتْجُم نَوُمِجْرَتُمْلا

Birinchi jumlada predlogli ot gapning kesimi bo‘lib, ko‘plikdagi eganing qayerda ekanligidan xabar beryapti.

Ikkinchi jumlada نَوُدِهَتْجُم ko‘plikdagi kesim o‘zidan oldin kelgan ko‘plikdagi eganing qandayligidan xabar beryapti.

Agar ikkinchi gapni so‘z birikmasiga aylantirsak,

Tirishqoq tarjimonlar نَوُدِهَتْجُمْلا نَوُمِجْرَتُمْلا shakliga kiradi, undan oldin biror predlog qo‘shishdan oldin birinchi so‘z o‘zidan keyin kelgan sifat bilan 4 ko‘rinishda moslashayotganligini aytish lozim: jinsda, holatda, sonda, kelishikda.

Tirishqoq tarjimonlar haqida نَيدِهَتْجُمْلا نَيمِجْرَتُمْلا نَع

Bu misolda so‘z birikmasi (moslashgan aniqlovchi) نَع predlogidan keyin kelib, qaratqich kelishigida turibdi. Arab tili darsliklarida muzakkar jinsdagi ko‘plik qo‘shimchasi نَو faqat oqil so‘zlarga qo‘shiladi, deb ta’kidlanadi. Lekin istisno tariqasida ba’zan jonsiz so‘zlarga qo‘shilib, ko‘plik hosil qiladi.

نَيمَلَاعْلا ُّبَر izofasida مَلَاع – olam so‘zi jonsiz

bo‘lsa-da, نَي qo‘shimchasini olib kelyapti. Yana نَوْ qo‘shimchasi o‘nliklarga ham qo‘shiladi:

Yigirma نَوُرْشِع Oltmish نَوُتِس

Mazkur o‘nliklar ham old ko‘makchi va o‘timli fe’llardan keyin kelib, ikki kelishikda turlanadi:

Qirqdan - نَيِعَبْرَأْنِم

Men 20 ta kitob oldim - أَبِاَتِكَ نَيِرْشِعُتْدَخَأ

Endi muannas birlikdagi so‘zlarni ko‘plikka aylantirish usullarini ko‘rib chiqamiz. Qoida bo‘yicha arab tilidagi oxiri “ta marbuta” bilan tugagan muannasdagi jonli va jonsiz so‘zlarning oxiriga ات ko‘plik qo‘shimchasini qo‘shish bilan ko‘plik son hosil qilinadi. Demak, bu usulda so‘zlarning oqil yoki yoki g‘ayri oqilligining ahamiyati yo‘q ekan,

Ayol o‘qituvchilar - ةَسِّرَدُم + ات = تَاسِّرَدُم

Bunday muannas ko‘plikdagi so‘zlardan keyin kelgan sifatlarning yozilishiga alohida e’tibor berish lozim.

ات ko‘plik qo‘shimchasini olgan so‘zlar ikki kelishikda turlanadi: valyuta – ةَلْمُع

Bosh kelishik: - تَاَلْمُعُ تَاَلْمُعْلا

Tushum va qaratqich kelishiklari: تِاَلْمُعْ ِتَاَلْمُعْلا

Lekin jonsiz muannasdagi ko‘plikdagi so‘zlardan keyin kelgan sifatlar birlikda “ta marbuta” bilan tugaydi.

Yangi kutubxonalar - ةَدِيدَجٌتَابَتْكَم

Odamni bildiradigan so‘zlarni anglatadigan siniq ko‘plikdan keyin biror ot yoki sifat kelib qolsa, albatta o‘sha so‘zlarga نَوْ qo‘shimchasi qo‘shish yoki o‘sha so‘zning ham siniq ko‘pligini berish kerak.

Aqlli kishiرَجُلٌعَاقِلٌرَجُلٌ نَوْلِقَاعِلٌرِجَال (ءَالَقُع) -

Odamni bildirmaydigan g‘ayri oqil so‘zlar ham oqil so‘zlardek maxsus vaznlar orqali siniq ko‘plikka aylanadi.

لٌعَف vaznidagi so‘zlar لٌاعِف vazni bo‘yicha siniq ko‘plikka aylanadi.

لٌمَج لٌامِج

Muzakkardagi g‘ayri oqil – predmetlar siniq ko‘plikka aylansa, muannas jinsiga o‘tib ketadi:

Turkcha kitoblar ةٌيِكْرُتُبُتُك - ةٌيِكْرُتٌبِاَتِك

Qulay uylar ةٌحِيرِمٌتُوُيُب - ةٌحِيرِمٌتْيَب

Yuqoridagi misollardan ko‘rinyaptiki, g‘ayri oqil muzakkardagi otlar birlik sonda o‘z jinsida turardi, siniq ko‘plikka aylanganda esa, muannasga aylanib ketadi, shuning uchun ham undan keyin kelgan sifatlar doim “ta marbuta” bilan tugaydi.

Arab tilida ikkilik sonning yasalishi va uning amalda ishlatilishida bir qator qiyinchiliklar mavjud. Qiyinchiliklarning birinchisi o‘zbek tilida bo‘lmagan jinsning mavjudligi, ikkinchisi quyida berilayotgan ikkilikdagi so‘zlarning ikki kelishikda turlanishi

Bosh kelishikda: اِنَاَن ِنَاَتَلَمَاعِ نَاَنِلَمَاعِ

Tushum va qaratqich kelishikdaاِنْيَ ِنْيَتَ ِنْيَمَلَاعِ نْيَتَ ِنْيَمَلَاعِ

Ikkilik sonning bosh kelishikdagi ko‘rsatkichi “alif” bo‘ladi. Qaratqich va tushum kelishiklarining ko‘rsatkichi “sukunli yoy”dir. O‘qituvchi ana shuning ikkisini alohida ta’kidlashi zarur bo‘ladi. Talabalarda ikkilik sonni o‘rganishlarida keyingi qiyinchilik, o‘zbek tilida ikkilik sonning mavjud emasligidadir. Ikkilik son agar ikki kishi haqida gap ketsa, yoki ikki kishi ish-harakatni bajarsa, ishlatiladi. Ikkilik son birlikdagi so‘zlarning oxiriga muzakkar uchun اِنَ , muannas uchun اِنَاَتَ ikkilik qo‘shimchalari qo‘shiladi. Ikkilikdagi so‘zlar ikki kelishikda turlanadi:

Bosh kelishik: اِنَاَتَ اِنَاَنِلَمَ 2 ta qalam.

Qaratqich va tushum kelishiklari: اِنْيَ ِنْيَتَ ِنْيَنِلَمَ 2 ta qalamni (qalamning).

Shu bilan birga, son moslashgan, ya’ni sifatlovchi-aniqlovchi bo‘lib ham kelishi mumkin. Bunda sanalmish yoziladi, sanoq son esa sanalmishdan keyin yozilib, sanalmish jinsda va kelishikda to‘liq moslashadi.

Agar sanalmish ot ikkita bo‘lsa, uning oxiriga اِنَ va اِنَاَتَ ikkilik qo‘shimchasi qo‘shiladi.

3 ta kitob - ثَلَاثَةُ كُتُبٍ **4 ta uy** - أَرْبَعُ بُيُوتٍ **9ta shahar** - تِسْعُ مُدُنٍ

Agar sanalmish ot bitta bo‘lsa, otning o‘zi kelaveradi, yoki وَاحِدٌ, وَاحِدَةٌ sonlari keladi. وَاحِدٌ, وَاحِدَةٌ sonlari ta’kid qilingan paytda qo‘shiladi. Qur’oni Karim Ixlos surasining 1-oyatida قُلْ هُوَ اللَّهُ أَحَدٌ “Ayt U Alloh bittadir (yakka)” deb tarjima qilinadi. Bu oyatda أَحَدٌ so‘zi Allohning yagonaligi, uning sherigi yo‘qligini ta’kidlab keladi.

Qur’onda sanoq sonlar bilan bilan birga so‘zlarning to‘g‘ri va siniq ko‘pliklari ham ishtirok etadi.

Alloh osmonlar va yerning nuridir - اللَّهُ نُورُ السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضِ (Nur, 35)

Mazkur oyatda ishtirok etgan سماوات so‘zi سَمَاءٌ so‘zining to‘g‘ri ko‘pligi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdujabborov A. Arab tili. – T.: Toshkent islom universiteti, 2007. 307-bet.
2. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. I J. – Namangan: Ibrat, 2009. 584-bet.
3. Гранде Б.М. Курс арабского грамматики в сравнительно-историческом освещении. –М., 1998. –С.416; 100.
.الشيخ مصطفى الغلاييني، جامع الدروس العربية. - بيروت، 1993. - 584 ص.
5. فؤاد نعمة، ملخص قواعد اللغة العربية. – مصر، 1998
6. Anna’im alkabir arabcha - o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2021.
7. Баранов Х. К. Арабско - русский словар. – М., 1989.

Marhabo Ismoilova,
Qarshi Davlat universiteti o‘qituvchisi

DINIY - MA’RIFIY MASALALARNING YAQIN O‘TMISH SHE’RIYATIDAGI BADIIY TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada istiqlol davridagi diniy-ma’rifiy she’riyat haqida so‘z boradi. Diniy-ma’rifiy mavzudagi she’rlarning o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishi masalasiga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *diniy-ma’rifiy she’rlar, arba’in an’analari, irfoniy mavzuning o‘rganilishi, Mirzo Kenjabek, Sirojiddin Sayyid.*

Аннотация: статья о религиозно-просветительской поэзии периода независимости. Уделяется внимание вопросу изучения религиозно-просветительских стихов в узбекском литературоведении.

Ключевые слова: *религиозно-просветительские стихи, арбаинские традиции, изучение философских тем, Мирзо Кенджабек, Сирожиддин Сайид.*

Annotation: this article is about the religious-educational poetry of the independence period. Attention is paid to the issue of studying religious-educational poems in Uzbek literary studies.

Key words: *religious enlightening poems, Arba'in traditions, the study of philosophical topics, Mírzo Kenjabek, Sírojíddín Sayyid.*

Kirish. O‘tgan asrning 90-yillari boshlarida yurtimizda kechgan milliy o‘zligimizga qaytish jarayonlarida adabiyotning ham ahamiyati katta bo‘ldi. Odamlar onggida ro‘y bergan asliyatga qaytish, dastlab milliy adabiyotimizda boshlandi va “Yangi davr – mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida ham mumtoz o‘zbek adabiyoti an’analarini o‘zida mujassam etgan diniy-ma’rifiy mavzularning badiiy talqini maydonga keldi” [1]. Badiiy adabiyotda iymon tushunchasi butun bo‘y-basti bilan oshkora aytildi, adabiyot asl milliyligiga yuz burdi.

Adabiyotlar sharhi. Diniy-ma’rifiy mavzudagi she’rlarning o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishi masalasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, mustaqillik davrida yuzaga kelgan diniy- ma’rifiy yo‘nalishdagi she’riyatni o‘rgangan tadqiqotchi S.Raimovaning qarashlari e’tiborlidir: “Diniy-ma’rifiy mavzudagi she’rlar mazmun-mohiyatiga, uning ming yillik an’ananing davomi va alohida yo‘nalish sifatidagi takomiliga, o‘ziga xos xususiyatlari tadqiqiga mustaqillikning dastlabki yillaridan bugungi kunga qadar o‘zbek adabiyotshunoslari tomonidan e’tibor qaratilib kelinmoqda. Ushbu mavzuga Hamidulla Karomatov, Shuhrat Sirojiddinov, Rashid Zohidov, Akramjon Dehqonov, Ma’rifat Rajabova, Olim Davlatov, Bahrom Jalilov kabi olimlar mumtoz adabiyotimiz namunalari asosida yondashgan bo‘lsa, uning zamonaviy adabiyotdagi rivojiga Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, No‘mon Rahimjonov, Suvon Meliyev, Hakimjon Karimov, Bahodir Karimov, Nurboy Jabborov, Uzoq Jo‘raqulov, Tohir Shermurodov kabi qator olimlarning maxsus tadqiqotlari va maqolalarida atroflicha munosabat bildirilgan” [2].

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Avvalo, Qur’oni karimning va imom al-Buxoriy hadislarining nashr etilishi milliy adabiyotimizning islomiy o‘zanlariga qaytishni boshlab bergani e’tirof etilib, dalil sifatida adabiyotshunoslarning milliy adabiyotimizda diniy ohanglar kuchayayotgani haqidagi fikrlarini keltirib o‘tadi. Shuningdek, badiiy adabiyotda islomiy g‘oyalardan oziqlangan “Abdulla Oripov, Fozil Zohid, Jamol Kamol, Mirzo Kenjabek, Asqar Mahkam, Shukur Qurbon, Anvar Hojiahmad, Sirojiddin Sayyid, Abdul Jalil, A’zam O‘ktam, Nodira Afoqova, Orif Hoji kabi ijodkorlarning bitiklarida Allohni tanish, haromdan hazar qilish, nafsni tiyish, haqiqat va adolatga intilish motivlari kuchaydi” [3].

Istiqlol davri o‘zbek adabiyotida diniy ohanglar paydo bo‘lishiga, o‘zbek adabiyotshunosligida asarlarni islomiy g‘oyalar bilan tahlil qilish tamoyillari vujudga kelishida tasavvuf adabiyoti bo‘yicha e’lon qilingan badiiy asarlar tarjimasi muhim omil bo‘ldi. Komil inson g‘oyasi aynan tasavvuf adabiyoti orqali badiiy adabiyotimizga kirib kelganini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi.

Adabiyotshunos Tohir Shermurodov ta’biri bilan aytganda: “Qur’oni karim, hadisi shariflar – she’riyatning ham bebaho tayanch manbalari. Uzoq cho‘zilgan uzilishlardan so‘ng shoirlarning ularga tashna yashab kelayotganliklari ma’lum bo‘ldi” [4].

XX asr o‘zbek adabiyoti tarixidan alohida o‘rin olgan 70-yillar adabiyoti, xususan, she’riyat avlodiga mansub shoirlar, vohadoshlarimiz Mirzo Kenjabek va Sirojiddin Sayyid hisoblanadi. Sirojiddin Sayyid arba’in janrining zamonaviy she’riyatdagi takomiliga o‘z hissasini qo‘shgan, qirq hadis asosida arba’in ta’lif qilgan shoirlarimizdan biridir. Mazkur mumtoz an’anani zamonaviy adabiyotda birinchi boshlab bergan A.Oripovning shu turkumdagi she’rlari ellik hadis asosida yuzaga kelganini bilamiz. Bu haqda Tohir Shermurodov shunday yozadi: “O‘z turkumlarini dastlab A. Oripov “Ellik hadis”, S.Sayyid “Qirq hadis” deb nomlagan edi. Ayrim muhaddislarning hadislardan qirqtasini alohida ajratib kitob tasnif qilish an’analari mavjud bo‘lgan. Ular kitoblarini “Arba’in” deb ataganlar. Arabchada bu kalima “qirq” ma’nosini anglatadi. Keyinchalik kalimani qirq hadisdan iborat to‘plam, ba’zida, umuman, hadis ma’nosida tushunish ommaviylashgan” [5]. Tadqiqotchi S. Raimova bu janrning genetik ildizlariga to‘xtalar ekan, mumtoz arba’inchilikka XIX asrda yakun

yasab bergan Muhayyir arba'inlariga jiddiy to'xtalgan adabiyotshunos olim Akram Dehqonovning bu boradagi fikr-mulohazalariga e'tiborimizni qaratadi: "Sharq adabiyotidagi arbainchilik an'analari haqida usmonli turk tadqiqotchisi Mehmed Emrening arab va turkiy tillarda "Arba'in" ta'lif qilgan yigirma ikki muallifning nomini keltirgani, o'zlari turk bo'lib, arba'inlarini ham turkiycha nazmda, o'zlari turk bo'lib, arba'inlarini arabcha tuzgan mualliflarni alohida-alohida sanab o'tganligi borasida qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tadi".

Sirojiddin Sayyidning "Yaxshilik eskirmagay. Qirq hadis" turkumidagi she'rlaridan biri "Jannat o'rtasidagi eshik" deb nomlangan. Ushbu she'rga asos bo'lgan hadis shunday keltiriladi: "Ona – jannat o'rtasidagi eshiklardan biridir, agar xohlasang, o'sha eshikni qo'ldan ber yoki uni saqla". Ushbu hadis mazmuni bilan sug'orilgan she'r quyidagi bandlarda yuksaladi:

"Hayot insonlarning kelib ketguvchi,
Besh kun tebranguvchi gul beshigidir.
Eng avval onangning qadriga yetgil,
Onalar – behishtning nur eshigidir.
Xoki poylariga sochgil umringni,
O'tmagil dunyodan yuraging dog'lik.
Bu eshik sen uchun ochiq bo'lgaydir
Va yo yopiq bo'lgay – o'zingga bog'liq".

Inson uchun eng mo'tabar zot bo'lgan Onaning rizoligi, unga yaxshilik qilish borasida dinimizning muqaddas manbalari, xususan, hadisi shariflar guvohlik beradi.

Mirzo Kenjabek "Maktublarim" (1982), "Quyoshga qaragan uy" (1983), "Munojot" (1986), "Sharq tili" (1988), "Bahorim yellari" (1999), "Xushxabar" (1918) kabi she'riy, bir qancha tarixiy-ma'rifiy va fiqhiy kitoblar muallifidir. Shoir qalamiga mansub "Xushxabar" she'ri ham yassaviyona ruh va ohanglarda bitilgan badiiy yetuk, islom falsafasi in'ikosi o'laroq vujudga kelgan mushohadalarga boy she'rlardan biridir:

Shoirning "Xushxabar" she'ridan olingan quyidagi satrlari musulmon birodariga chin ma'nodagi "xushxabar"dir:

"Kimki ozor bermoqdan gar o'zin tiymish,
Alloh qabr qiynog'idan saqlab qo'ymish,
Mozorda Haq rahmatidan libos kiymish –
Ana shunday xushxabar bor mo'minlarga".

XX asr o'zbek adabiyoti asr boshida yuz bergan siyosiy o'zgarishlar tufayli turli mafkuraviy qutblarga mansub ijodkorlarning asarlaridan tarkib topdi. She'riyat masalasida esa ikki xil yondashuv kuzatiladi. Dastlabkisi, shaklan barmoq vazniga asoslangan yangi zamonni, yangi zamon kishisi tuyg'ulari va ijtimoiylik kasb etgan kechinmalarini she'rga solish, sho'ro davlati mafkurasi belgilab bergan mavzular doirasida she'rlar yozish bo'lsa, ikkinchisi, o'zbek mumtoz she'riyatining ko'pyillik tajribasini o'zida mujassam etgan aruz vazniga asoslangan, diniy-falsafiy dunyoqarash negizida shakllangan mumtoz she'riyat an'analarini saqlab qolishga bo'lgan urinishlardir. Keyingi qatlamga kirgan ijod ahlining ko'pchiligi mavjud tuzum tomonidan rad etilgan, ish bilan ta'minlanishiga ham yo'l qo'yilmagan, ba'zilari ulkan olim darajasida bo'lsa-da, oddiy xodim sifatida ishlashga majbur bo'lgan shaxslar edilar. Ba'zilarining davr mafkurasiga mos keladigan, turli bayram yoki tadbirlar munosabati bilan yozilgan she'rlari matbuotda e'lon qilingan, albatta. Biroq ularning aksariyat asarlari mavjud tuzum mafkurasiga to'g'ri kelmaganligi bois ijod namunalarini pinhon saqlashga majbur bo'lishgan. Shu bilan birga aruz va barmoq vaznida bir xil ijod qilgan, lekin aruzdagi she'riy asarlarini chop ettira olmagan shoirlar ham anchagina.

Shu nuqtayi nazardan respublikamiz miqyosida olib qaralganda, ko'plab shoir- ijodkorlar nomi, lirik merosi noma'lum bo'lib qolmoqda. Mustaqillikdan keyingi yillardagina bunday ijod ahlining ba'zilari o'rganilib, adabiy meroslari avlodlari yoki ilm ahli tomonidan tadqiq etilmoqda, qisqacha ilmiy axborotlar berib borilmoqda. Shunga qaramay, hali hayoti va ijodiy merosi o'rganilmagan ko'plab shoirlar ham borki, ularning adabiy meroslarini topish, nomlarini adabiy jamoatchilikka ma'lum qilish lozim bo'ladi. Bu bir tomondan fanga noma'lum bo'lgan qator ijodkorlar asarlarining tahlil etilishiga imkon bersa, boshqa tomondan o'zbek mumtoz she'riyati an'analari barcha davrlarda davom etib kelganligini yaqqol isbotlaydi.

Sharq adabiyotida muhim o'rin egallagan didaktik yo'nalishdagi hikoyatlar yozish an'anasi XX asr 70–80-yillar adabiyotida ham uchraydi. Bunga misol tariqasida Latif Sharifiyning pand-nasihat xarakteridagi hikoyatlarini aytib o'tish mumkin. Uning hikoyatlarida Shayx Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlari mazmuni va kompozitsion tuzilishiga ergashish kuzatiladi. Misol sifatida bir hikoyatni keltiramiz: "Qishloq chekkasidan bir gala bo'ri tog' tomon o'tib ketdi. Ularga itning kichkinagina ikki bolasi ergashdi. Ko'p urindim, ammo polaponlarni qaytara olmadim. Chunki ular ancha uzoqlashib ketgan edi. Ming afsus bilan qishloqqa qaytdim. Ko'zim qordagi izlarga tushdi: yirik tirnoqli izlar yonida jajji izchalar ham bor edi. Bir necha kun quyidagi to'rtlik tilimdan tushmadi.

Ruboiy:

Bu o'rlikmas, bu albatta, xom-g'o'rlik,
Ergashib bormoqda bechora sho'rlik,
Polapon bo'g'ziga bo'ri tish urgay,
Qolur eh, jasadi bo'lmasdan go'rlik [Sharifiy 2003, 76].

Yoki muallifning "Bino" hikoyatini ko'raylik. Bir kishi yulg'ichlik orqali qurgan dang'illama imorati bilan maqtanar va shunday imorat qurolmagan tengdoshlari ustidan kular edi. U qishloqdoshlaridan biriga dedi: – Men shunday imorat qurdimki, sen uni umring bo'yi qurolmaysan. Bilaman, ko'p kitob o'qiysan, axir kitobdan nima olasan? Qishloqdoshi dedi: – Sen tosh va g'ishtdan bino quribsan, biroq dilingda ma'nining mustahkam

g‘ishtidan imorat qurolmabsan. Zero ma’ni qasri abadiy va o‘lmasdir.

Qit’a:

“Shohnoma”, “Xamsa”-yu “Guliston”,
“Bo‘ston”, Ma’nidan yaralgan xazonsiz gulbog‘,
Qorunning mulkidan igna bormu, ayt?!
Yo Ma’mun taxtidan bir siqim tuproq?

Xulosa va munozara. Muqaddas hadisi shariflarimizda, mumtoz adabiyotimiz manbalarida halimlik fazilati borasida talay fikrlar qayd etilgan, xususan, Alisher Navoiy hazratlari ham “Mahbub ul-qulub” asarida “hilm” xususida so‘z yuritganliklarini yaxshi bilamiz.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, istiqlol yillarida diniy-ma’rifiy mavzuda yaratilgan she’rlar mumtoz adabiyotimiz ta’sirida vujudga kelgan, mavjud an’analarning yangicha shakl-u shamoyili sifatida boqiydir. Uni tahlil va tadqiq etish adabiyotshunoslik sohasining dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raimova S. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida diniy-ma’rifiy mavzuning badiiy talqini: Filol. fan. ... fals. dok. dis. – Toshkent, 2021. 3-bet.
2. Shermurodov T. Jozib izhor izlab. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
3. Kenjabek, Mirzo. Xushxabar. – Toshkent: Navro‘z, 2018.
4. Raimova S. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyatida diniy-ma’rifiy mavzuning badiiy talqini: Filol. fan fals. dok. dis. – Toshkent, 2021.
5. Sayyid, Sirojiddin. So‘z yo‘li. – Toshkent: Sharq, 2008.

Abrorbek NURITDINOV,
University of Business and Science
oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi
nuritdinovabrorbek@gmail.com



KORPUS LINGVISTIKASIDA KORPUS TUSHUNCHASIGA OID MA’LUMOTLAR TAHLILI

Annotatsiya: maqolada lingvistik baza, tabiiy tilni qayta ishlash masalasi, bu orqali kompyuter texnologiyalari yordamida yaratilayotgan elektron korpus yaratish borasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, korpusning virtual kutubxonadan afzalliklari, qidiruv tizimidagi qulayliklar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *tabiiy til, tabiiy tilni qayta ishlash, lingvistik baza, elektron korpus, korpus, virtual kutubxona*

Аннотация: в статье рассматриваются лингвистическая база, вопрос обработки естественного языка, создание электронного корпуса с использованием компьютерных технологий, научные исследования, преимущества корпуса из виртуальной библиотеки, удобство использования поисковой системы.

Ключевые слова: *естественный язык, обработка естественного языка, лингвистическая база, электронный корпус, корпус, виртуальная библиотека.*

Annotation: the article discusses the linguistic base, the issue of natural language processing, the creation of an electronic corpus using computer technologies, scientific research, the advantages of the corpus from the virtual library, and the usability of the search engine.

Key words: *natural language, natural language processing, linguistic base, electronic corpus, corpus, virtual library.*

Til tizimini “qayta ishlash”ning talab va ehtiyoji sun’iy intellekt tizimida lingvistik baza yaratishni taqozo etadi. Lingvistik baza korpus yaratish uchun asosiy ta’minot hisoblanadi.

Korpus – bu korpus lingvistikasining predmeti. Ushbu atama ilmiy adabiyotlarda turlicha ta’riflanadi. Chunonchi, ingliz tilida linguistic corpus yoki text corpus kabi atamalar bilan qo‘llaniladi [1, 26]. Muayyan tilning milliy korpusni yaratish, uning analitik texnologiyasini, korpus lingvistikasi sohasini rivojlanish kabi muammolarni hal qilishda A.N.Xomskiy, G.N.Luch, L.Blumfild, Ch.K.Frays, H.Bondjers, N.Frensis, Ch.F.Meer, J.Sinkler, M.Z.Kurdi kabilarning ilmiy izlanishlarini e’tirof etish lozim.

Rus olimi V.P. Zaxarov “korpus” atamasini quyidagicha izohlaydi: “korpus –og‘zaki hamda yozma matnlar asosida jamlangan til birliklarining lingvistik ma’lumotlar majmui” [2, 161]. Rus korpus lingvistikasida

katta massivli matnlar majmuasi, korpus tuzish prinsiplari, lingvistik ma'lumotlar bazasi V.G.Britvin, V.P.Zaxarov, I.A.Melchuk, A.B.Kutuzov, R.G.Kotov, L.I.Belyaeva, Ye.V.Nedoshivina, V.V.Rikov, V.Plungyanlarning maqsadli tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

O'zbek tilshunos olimlari esa "korpus" atamasiga quyidagicha izoh beradi: "korpus – ma'lum maqsadda yig'ilgan matnlar majmuini tashkil etuvchi til birliklarining yig'indisi" [2, 161], "korpus – istalgan tabiiy (real) tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og'zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga joylashtirilgan matnlar yig'indisi"[3] kabi ta'riflarda o'z ifodasini topgan.

O'zbek tilshunosligidagi tadqiqotlarda korpusning mohiyati quyidagicha yoritiladi: "Korpus – mavjud ma'lumotlarni matn holida taqdim eta olish; korpusning hajmiga ko'ra imkon darajada ko'proq axborot berishning imkoniyati; bir marta yaratilgan korpus ma'lumotlaridan takroran, turli masalalarni hal qilishda foydalanish imkoniyatidir"[4, 50].

"Korpus – til birliklarining xususiyatlarini aniqlash maqsadida qidiruv dasturiga bo'ysundirilgan matnlar majmui, tabiiy tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og'zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga dasturiy ta'minot asosida joylashtirilgan on-line yoki off-line tizimda ishlaydigan matnlar jamlanmasi"[5] – deb izohlanadi boshqa bir manbada.

Shuningdek, "ta'limiy korpus" haqida ilmiy tadqiqot olib borgan O'.Xoliyorov o'z ishida quyidagi fikrlarni aytib o'tadi: "Ta'limiy korpus – materiallari tilni o'rgatishga yo'naltirilgan, lingvodidaktik xususiyatga ega til korpusi. O'zbek tilining ta'limiy korpusi o'zbek tili imkoniyatlarini o'rgatishga mo'ljallangan, lingvodidaktik xususiyat kasb etgan, elektron matnlarni qamrab olgan, maxsus sayt ko'rinishida amal qiladigan korpusdir"[6, 52].

Yuqorida keltirilgan ta'rif va izohlarga qo'shilgan holda, uni quyidagicha ta'riflaymiz: Korpus – elektron shaklda mavjud bo'lgan matnlarni, hujjatlarni ma'lumotlarni qayta ishlash, ularni avtomatik tahlil, ya'ni morfologik, sintaktik va semantik tahlil qilish, morfologik analiz va sintez qilish bilan birga, yarimavtomatik rejimda ma'noni buzmasdan ishonchli nutq materialini moslashtirish darajasini tekshirish ushbu sohadagi til bilan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.

Elektron kutubxonada badiiy hamda publitsistik asarlar, turli ko'rinishladagi va mazmundagi lug'atlarni nisbatan to'liq qamrab olinadi. U xalqning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, iqtisodiy hayotini aks ettiruvchi, milliy ma'naviy merosni jamlash maqsadida yaratilgan bo'ladi. Undan korpusda material (xomashyo) sifatida foydalansa bo'ladi. Elektron kutubxona lingvistik ta'minotini yaratish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Elektron kutubxonada matnlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan ishlov berilmaganligi bois izlanuvchi-tadqiqotchilarga muvofiq kelmaydi. Til korpuslari elektron kutubxonadan farqli o'laroq, tilni o'rganish va tadqiq qilish uchun zarur, foydali va qiziqarli matnlarni to'plashga xizmat qilish uchun yaratiladi. Elektron kutubxona ilmiy tadqiqot materiali bazasini tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan. Til korpusi elektron kutubxonadan matnning xususiyati va qo'shimcha ma'lumot bilan boyitilganligi ajratib turadi. Korpusdan foydalanuvchiga biror so'z kerak bo'lsa, buni odatdagi matn muharriridan topib bera oladi. Lekin matndagi til hodisasining ma'nosi, mazmuni va tuzilishini "tushunadigan" dasturiy tizim o'zining afzalligi va qulayligi bilan farqlanib turadi. Chunonchi, korpusning alohida qismi - bu uning korpus birliklariga yozilgan izohlarning mavjudligidadir. Bunday dasturiy ta'minotdan til birligini qidirish tadqiqotchi yoki foydalanuvchiga qo'l keladi. Kompyuter texnologiyalari rivojlanishidan oldingi davrda tadqiqotchilarimiz o'z tadqiqot ishi uchun zarur misollarni topish, ularni kartotekaga ko'chirishga o'ylab, ba'zan yillab vaqt sarflagan bo'lsalar, hozirgi kunda bugun dunyo til korpuslari yordamida sanoqli daqiqada yuzlab misollarni topishi va ular ustida ishlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Statistik axborot va qidiruv natijasini foydalanuvchiga qulay shaklda taqdim eta oladigan, maxsus qidiruv tizimi ishga tushdi. Tilshunoslik fanida qanday o'zgarish bo'lganini kuzatish uchun korpus qamrovini yanada kengaytirish kerak bo'ladi. Ya'ni nafaqat yozma, balki og'zaki nutq materialidan ham til korpusida foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Til korpusi oddiy elektron kutubxona bajara olmaydigan imkoniyatlarga egaligi bilan tilshunoslikda sodir bo'lgan va kutilayotgan o'zgarish haqida aniq xulosa chiqarish mumkin. Masalan, so'zning o'z va ko'chma ma'nolarini, so'zlarni avtomatik tahlil, ya'ni morfologik, sintaktik va semantik tahlil qilish yoki til taraqqiyotining turli davrida qo'llanish holatini, u yoki bu muallifning ayni so'zdan foydalanish chastotasi yoki statistikasi kabilar. Korpus – tilni tadqiq etish, til o'rganish, lug'at tuzishda eng zamonaviy, keng imkoniyatli dasturlashtirilgan tizimdir.

Korpus – millionlab so'z matnlariga havola qiluvchi, maxsus qidiruv tizimi asosida ishlaydigan elektron matnlar yig'indisi. U internet tizimidagi elektron kutubxona, lug'at va lingvistik grammatikadir. Korpus – tabiiy (real) tilning elektron shaklda bo'lib, uni to'ldirish, tuzatish, tahrir qilish

imkoniyatiga ega[3]. Mukammal razmetkalangan korpus lingvistik tadqiqotlar samaradorligini ta'minlashda barqaror lingvistik baza vazifasini bajaradi.

Elektron kutubxona va til korpusining o'xshash tomonlari quyidagilardan iborat: joyning tejalishi, ya'ni kitoblarni saqlash uchun maxsus kitob jovonining zarur emasligi; qo'lyozma asar va noyob ma'lumotlarni saqlash hamda ulardan foydalana olish uchun va qidiruv tizimi imkoniyatining borligi; cheklanmagan hajmdagi ma'lumotlardan foydalanish uchun qulaylikning mavjudligi, tizimda mavjud axborotning ovozli (audio), ko'rinishli (video) va kompyuter texnologiyasi (grafikasi) vositasida sifatli va yaxshiroq aks ettirish mumkinligi; vaqtning cheklanmaganligi, ya'ni kunning istalgan paytida 24 soat davomida foydalanish mumkinligi; elektron kutubxona va til korpusi ham internet tizimida ishlay olishi.

Elektron kutubxona va til korpusining farqli tomonlari: Elektron kutubxona – qidiruv birligi yaxlit asar matni. Undan ma'lum bir asarni qidirish mumkin. Korpusning qidiruv birligi esa so'zshakl yoki qo'shimcha izohlar bilan to'ldirilgan matn bo'la oladi. Bunday matndan faqat o'qish uchungina foydalanish emas, balki bu matnlarning turli grammatik izohlari mavjudligi sababli ular ustida lingvistik amallar bajara olish mumkin. Uning tezaurusdan farqi shuki, tezaurusda tushuncha, korpusda esa so'zshakl va uning qo'llanish matni qidiriladi.

U turli xil lug'atlar (asosiy, chastota, toponimlar, grammatik so'zlar, iboralar va h.) o'z ichiga olgan leksikografik manbalar turkumidir. Til korpusi katta hajmli zamonaviy lug'atlarni tuzish uchun manba vazifasini o'tay oladi. Korpus turli lingvistik yo'nalishlar uchun informatsion-axborot resurs sifatida ahamiyatlidir. Vaqt o'tishi bilan kompyuter yordamida lug'atlar avvalgiga nisbatan tezlik bilan tuziladi va qayta ishlanadi, yangilanib boriladi.

Korpusda mavjud matnlarni saralash imkoniyati mavjud bo'lib, tadqiqotchi o'zi uchun kerakli bo'lgan misolni barcha matnlardan emas, balki tadqiqot uchun ahamiyatli, zarur bo'lganini ajratib berish imkoniga ega. Masalan, belgilangan vaqt yoki davr (aniq yil), matnning aniq bir turi (masalan, publitsistik yoki bir necha muallif asarlarini tanlab olish imkoniyati) bilan elektron kutubxonadan farqlanadi.

Jahon tilshunosligi, korpus lingvistikasi va til korpuslarini yaratish tajribalari asosida yurtimizda bu sohaga doir ilmiy va amaliy izlanishlar olib borish juda muhim ekanligini ko'ramiz. Bunga zamonaviy axborot-kommunikatsiyalarning hayotimizga kirib kelishi til imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratishga asosiy omil bo'ldi. Zero, sun'iy intellekt mahsuli bo'lmish elektron manbalar insonga ko'maklashish va kishilarning og'irini yengillashtirish maqsadida yaratiladiki, davrimizni ularsiz tasavvur etish juda qiyin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кутузов А.Б. Курс «Корпусная лингвистика». – Москва, 2008.

2. Захаров В.П. Корпусная лингвистика: учебник для студентов гуманитарных вузов. – Иркутск: 2011.


3. Hamroyeva Sh. O'zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Filol.fan.bo'yicha falsafa doktori (PhD)…dis. avtoref. – Toshkent, 2018.

4. Eshmuminov A. O'zbek tili milliy korpusining sinonim so'zlar bazasi. Filol.fan.bo'yicha falsafa doktori (PhD)…dis.. – Toshkent, 2019.

5. Mengliyev B., Bobojonov S., Hamroyeva Sh. O'zbek tili milliy korpusi. 2018-yil, 26-aprel, http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/1241.htm.

6. Xoliyorov O'. O'zbek tili ta'limiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari. Filol.fan.bo'yicha falsafa doktori (PhD)…dis. avtoref. –Termiz, 2021.

7. O'zbekistonda bepul elektron kutubxona. https://www.slideshare.net/xushnudjohn/ss-84174531.



Barchinoy ISAKOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Farg‘ona akademik litseyi
Tillarni o‘rganish kafedrasi o‘qituvchisi,
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
barchinoyisakova89@gmail.com

JAHON ILM-FANI VA ADABIYOTIDA IJTIMOIY-MAISHIY MUNOSABATLARNING O‘RGANILISH TARIXI

Annotatsiya:dunyo ilm-fani va adabiyotida ijtimoiy-maishiy munosabatlarning o‘rganilishi va tadqiq etilishi uzoq tarixga ega. Bu borada har bir davr va makon olimlarining qarashlari o‘ziga xos bo‘lib, Antik davrda Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino va Beruniy kabi mutafakkirlar jamiyat hayotini o‘rganishga harakat qilgan. Platon va Aristotel ijtimoiy stratifikatsiya nazariyalarini ishlab chiqqan.Ularning fikrlari keyinchalik boshqa mutafakkirlarga ta’sir ko‘rsatishi bayon qilingan. Maqolada shuningdek, antik davr sotsiologiyasining rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy g‘oyalar ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy munosabat, ijtimoiy qarash, ijtimoiy muammo, kommunikatsiya, sotsiologik konsepsiya, jabariylar, adabiyot sotsiologiyasi.*

Аннотация: изучение и исследование социально-бытовых отношений имеет долгую историю в мировой науке и литературе. Ученые каждого времени и пространства имели свои взгляды на это, и в античности мыслители, такие как Платон, Аристотель, Фироб, Ибн Сино и Беруни, пытались изучить общественную жизнь. Платон и Аристотель разработали теорию социальных стратификаций.Их идеи впоследствии оказали влияние на других мыслителей. В статье также освещаются основные идеи, повлиявшие на развитие социологии античности.

Ключевые слова: *социальные отношения, социальный подход, социальные проблемы, коммуникация, социологическая концепция, социология литературы.*

Annotation:the study and exploration of social and domestic relations has a long history in world science and literature. Scholars of every time and place have different views on this, and in antiquity, thinkers such as Plato, Aristotle, Phorobeus, Ibn Sina, and Berunius tried to study social life. Plato and Aristotle developed theories of social stratification, and their ideas would later influence other thinkers. The article also discusses the main ideas that influenced the development of sociology in antiquity.

Key words: *social relationship, social attitude, social problem, communication, sociological concept, subjects, sociology of literature.*

Kirish. Ijtimoiy munosabatlar insonlarning o‘zaro aloqalari va o‘zaro ta’sirlarida paydo bo‘ladigan kompleks strukturalardir. Bu munosabatlar, shuningdek, jamiyat a’zolarining o‘z ijtimoiy roli va maqomlarini amalga oshirishlariga imkon beruvchi barqaror aloqalarni tashkil etadi. Insonlarning bir-biri bilan muloqoti jarayonida, masalan, oilada, ish joyida yoki do‘stlar bilan aloqalarda, noverbal kommunikatsiya va boshqa muhim omillar kiritiladi. Ushbu tasvirlangan jarayonlar va vositalar ijtimoiy dinamikani ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Jamiyat hayotini tushuntirishga urinishlar antik davrda (Platon, Aristotel va boshqalar) paydo bo‘ldi, tarix falsafasida davom etdi. O‘rta Osiyolik mutafakkirlar (Forobiy, Ibn Sino, Beruniy) asarlarida ham jamiyat, uning yashashi va rivojlanishi haqida muhim fikrlar bildirilgan.

Ijtimoiy hayot rivojlanishi qonuniyatlarini o‘rganishga qaratilgan ta’limotlar, qarashlar eramizdan avvalgi IV-asrdayoq yunon faylasuflari Aflotun (eramizdan avvalgi 427-347 yil)ning “Qonunlar”, “Davlat to‘g‘risida”, Arastu (eramizdan avvalgi 384-322 yil)ning “Siyosat to‘g‘risida”, “Metafizika”, “Etika”, Protagor (eramizdan avvalgi 490-420 yil)ning “Haqiqat” kabi asarlarida yoritilgan.

Antik davrdagi birinchi sotsiologlarni ijtimoiy faylasuflar deyishadi.Ularning orasida ikkita buyuk mutafakkirni ko‘rsatib o‘tish mumkin – Aflotun va Arastu. Ular hozirgi sotsiologlar kabi an’analarni, urf-odatlarni, insonlarning fe’l-atvorlari va o‘zaro munosabatlarini o‘rganishgan, faktlarni umumlashtirishgan, jamiyatni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar bilan tugaydigan konsepsiyalarni tuzishgan. Aflotunning “Davlat” asari “Umumiy sotsiologiya” bo‘yicha tarixdagi birinchi risola hisoblanadi.Buyuk mutafakkir ijtimoiy stratifikatsiyaning dunyodagi birinchi nazariyasi asoslarini ishlab chiqadi, unga ko‘ra har qanday jamiyat uchta sinfga ajratilgan: davlatni boshqaruvchi donishmandlardan iborat oliy sinf; uni g‘alayon va tartibsizliklardan saqlovchi jangchilardan iborat o‘rta sinf; hunarmandlar va dehqonlarni o‘z ichiga oluvchi past sinf.[6: 8] Antik davrning yana bir qomusiy donishmandi Arastu esa stratifikatsiya nazariyasining o‘z variantini taklif qildi. Unga ko‘ra o‘rta sinf tartibning

tayanchi sifatida ko‘riladi.Undan tashqari yana ikkita sinf mavjud bo‘lgan – boy plutokratiya va mulkdan mahrum proletariat.Arastu o‘z davridagi mavjud stratifikatsion, ya’ni ijtimoiy tabaqalashuv tartiblarini qo‘llab-quvvatlaydi.Arastu komil inson, komil fuqaro, adolatli davlat xususidagi qarashlarini ilmiy asoslashga intildi. Komil inson tarbiyasi shaxsning o‘z davlatiga bo‘lgan yuksak vatanparvarligini, o‘z ijtimoiy-siyosiy tuzumiga sadoqatni shakllantirishdan boshlanadi.Komil fuqaro tarbiyasi esa har tomonlama mukammal davlat tartibotini yuzaga keltirishdan boshlanadi. Demak, komillik tizimidagi “davlat-fuqaro-inson” tartiboti Arastuning davlat va jamiyatni mukammallashdan iborat sotsiologik konsepsiyasini tashkil etadi.U jamiyat a’zolarining ma’naviy-mafkuraviy tarbiyasi masalasida umumdavlat nuqtayi nazarida turdi. Jamiyatning tarbiyaviy vazifasi xususiy shaxslar yoki alohida guruhlar qo‘liga topshirib qo‘yilmasligi lozim.Xullas, Aristotel antik dunyo sotsiologiyasi tarixini eng mazmundor davri bo‘lmish grek sotsiologiya maktabiga mantiqiy yakun yasagan. [7: 8] Uning ijtimoiy hayot haqidagi qarashlari dastlab qadimgi Rimning sotsiologiya maktabi namoyondalari (Tsitseron, Lukretsiy, Vergiliy, Goratsiy, Ovidiy)ga hayotbaxsh ilhom bag‘ishladi, so‘ngra esa o‘rta asrlar Sharqining buyuk mutafakkirlari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushdlar dunyoqarashlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

Asosiy qism. Movarounnahr jamoatchilik fikri tarixini o‘rganishda Moturidiya maktabining asoschisi Abu Mansur al-Moturidiy asarlari muhim o‘rin tutadi. Uning asarlarini nafaqat dinshunoslik, balki jamiyat, jamoa, ijtimoiy jarayonlar va xususan shaxs haqidagi ta’limot sifatida yondashish, ularni Movarounnahr hududi hayot tarzi, mentalitetiga muvofiq keluvchi, ularni g‘oyaviy, e’tiqodiy yakdillikka undovchi yaxlit ilmiy sotsiologik konsepsiya sifatida baholash va har tomonlama o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Inson shaxsi va mavqeyi masalasi uni turli ijtimoiy-siyosiy, kerak bo‘lsa, diniy tazyiqlardan himoya qiluvchi al-Moturidiyning murosaviy muvozanat konsepsiyasini, islomni anglash jarayonlaridagi ijobiy jihatlar yig‘indisigina emas, balki Movarounnahrdagi real ijtimoiy-siyosiy muhit, xalq turmush tarzi, mentaliteti, boy madaniy-tarixiy tajribasi bilan boyitilgan insoniy yondashuvlar sintezi, deb, baholash maqsadga muvofiqdir.[4: 51]

Al-Motrudiy jabariylarning, insonning hamma amallari oldindan uning taqdiriga yozib qo‘yilgan, shu boisdan u o‘zi qilayotgan ishlarga mas’ul emas, degan nuqtayi nazarini ham qadariylarning, Alloh inson faoliyatlari va amallarining himoyachisi emas, degan nuqtayi nazarini ham asosli tanqid qilib, inson yaxshi va yomon amallarni o‘z erkiga ko‘ra tanlashi va bu yo‘lda Allohning madadini olishi nazariyasini ilgari suradi. [8: 10] Shu asoslarda al-Moturidiy Movarounnahr jamoatchilik fikrining ma’naviy asoslari kuchli insoniy mazmun bilan boyitilishiga katta hissa qo‘shdi.

Markaziy Osiyoning mutafakkirlari bo‘lmish Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Haldun, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo kabi ulug‘ allomalar ham o‘z davri ijtimoiy hayotning turli sohalarini ilmiy asosda tadqiq qilganlar va o‘zlarinig ijtimoiy qarashlarini asarlarida yozib qoldirganlar.

Movarounnahrda tabiat va jamiyatni sotsiologik anglash va o‘rganish ulug‘ mutafakkir Al-Forobiy tomonidan jiddiy kengaytirildi. U Abu Mansur al-Moturidiy tomonidan ilmiy-teologik jihatdan asoslangan inson erki nazariyasini yanada rivojlantirdi.U o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida insondagi insonlik mohiyati o‘zlikni anglashdan boshlanishi, fozil shaxs voqea va hodisalarning mohiyatini idrok eta bilishini, mohiyatga intilish haqni tanish ekanligini, insonga berilgan ruh aqlni rivojlantirishga, unga quvvat bag‘ishlashga mas’ul ilohiy kuch ekanligini, aql esa inson tomonidan narsalarni mohiyatan tanlab farqlashga ko‘mak berishini asoslab beradi. Farobiy olamni anglashda vorisiylik omilini juda katta kuchga ega ekanligini alohida qayd etadi.Uning fikriga ko‘ra, inson barcha haqiqatlarni o‘zining qisqa umri davomida anglashga, tabiat va jamiyatning barcha siru-asrorlarini tushunib, idrok eta olishga qodir emas.Shu boisdan u o‘zidan oldinga ajdodlari tomonidan bildirilgan fikr-xulosalarni boricha shubhalanmay o‘zlashtirishi zarurligi, ilm-ma’rifat bobida yetuk donishmandlar fikrlariga ergashishi lozimligini alohida ta’kidlaydi. Farobiy jamiyatning baobro‘ shaxslari, olimlari, oqil kishilari ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchlaridir, deb hisoblaydi.Farobiy o‘sha paytdayoq ijtimoiy fikrning ahamiyati katta ekanligini chuqur anglab, zamonaviy sotsiologiyada ko‘p qo‘llanuvchi ekspertlar, ya’ni o‘z davrining yetuk donishmandlari fikrlariga tayanib ish tutish zarurligiga urg‘u beradi.“Donishmandlarga ishonib, ularga ergashuvchi odamlar o‘sha narsalarni donishmandlar bilganday bilib oladilar.Zero, donishmandlarning bilimlari, eng yaxshi bilimlardur”.[1: 160]

Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Minerologiya”, “Hindiston” asarlarida ijtimoiy hayot masalalarini yoritgan.Beruniy ijtimoiy nazariyalar sohasida samarali ijod qilgan.U sotsiologiyada jug‘rofiy yo‘nalishning tamal toshini qo‘ygan olimlardan biri edi.Beruniy ijtimoiy hodisa va jarayonlarni tushuntirishda kishilarning ehtiyojlari omilining ahamiyatini ko‘rsatib o‘tadi.Xususan odamlarning bir-birini himoya qilish ehtiyoji, muomala ehtiyoji (undan nutq kelib chiqqan), moddiy va ma’naviy ehtiyojlari (ulardan ilmiy dunyoqarash hamda fanlar kelib chiqqanligi)ni ajratib ko‘rsatadi.[2: 87-89]

Abu Ali Ibn Sino falsafiy ilmlarni ikkiga bo‘ladi:

nazariy va amaliy. Nazariy ilmlarni inson faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan predmet va narsalar to‘g‘risidagi haqiqiy bilim deb ta’riflaydi.Amaliy ilmlarning obyekti esa inson faoliyatidir.Ibn Sino jamiyatda insonlar o‘zaro bir-birlariga yordam berish asosida yashashlari kerak deb ta’kidlaydi. Bundan tashqari jamiyat kishilarning o‘zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi zarur degan ilg‘or g‘oyani ilgari surgan.[3: 18] Bunda bu jamiyatning hamma a’zolari qonunlarga itoat etishlari shart. Qonunni buzish va adolatsizlik jazolanishi kerak.

Xulosa. Ingliz adabiyotshunos olimi Wellek va Uorrenlarning fikricha, [9: 768] ijtimoiy muammo butun dunyoda keng tarqalgan muammodir. Jamiyat o‘tmishdan hozirgi kungacha va ehtimol, kelajakda bu kabi muammolar doimo uchraydi. Jamiyatdagi ijtimoiy muammoni tasavvur qilishning eng samarali usuli bu badiiy adabiyot tahlilidir.

F.F.Rahman qaydlariga ko‘ra [5: 110-117] adabiyot sotsiologiyasi adabiyotshunoslik sohalaridan biridir. Adabiyot ijtimoiy ko‘zgudir. Ko‘p hollarda ijtimoiy holat adabiy asarlarning yaratilishiga turtki bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, adabiy asarlar toki yozilgan davrning ijtimoiy holatini aks ettira olgan yoki tasvirlay olgan bo‘lsa, yaxshi asar deb hisoblanadi.

1. Al-Moturidiyaning ahamiyati: Abu Mansur al-Moturidiy asarlari Movarounnahr jamoatchilik fikrining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. U dinshunoslikdan tashqari, jamiyat va shaxs haqidagi ta’limotlarni o‘z ichiga oladi.

2. Sotsiologik yondashuv: Moturidiya maktabi asarlarida ijtimoiy jarayonlar va mentalitetga mos keladigan ilmiy sotsiologik konsepsiya shakllangan. Bu yondashuv, jamoatchilik fikrini yakdillikka undovchi g‘oyalar bilan boyitilgan.

3. Inson erkinligi: Al-Moturidiy insonning amal qilishdagi erkinligini va mas’uliyatini ta’kidlaydi, jabariylarning ta’riflariga qarshi chiqadi va insonning yaxshi yoki yomon amallarni o‘z ixtiyoriga ko‘ra tanlash imkoniyatini ko‘radi.

4. Ma’naviy asoslar: uning nazariyalari Movarounnahrda ma’naviy asoslarning kuchayishiga katta hissa qo‘shdi, bu esa xalq turmush tarzi va madaniy tajribasi bilan bog‘liqdir.

Umuman olganda, al-Moturidiyaning ishlari nafaqat diniy, balki ijtimoiy-siyosiy tafakkur uchun ham muhim manba hisoblanadi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari, xususan Abu Nasr Farobiy, inson erki, ijtimoiy taraqqiyot va bilimning ahamiyati haqida chuqur fikrlar bildirishgan. Farobiy o‘z asarlarida insonning mohiyatini anglash va ijtimoiy jarayonlarni tushunish zarurligini ta’kidlaydi. U avlodlar o‘rtasidagi bilim almashinuvi va donishmandlarning tajribasidan foydalanishni muhim deb hisoblaydi. Farobiy tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar zamonaviy sotsiologiya uchun ham dolzarbdir, chunki u jamiyatda fozil shaxslarning roli va ijtimoiy fikrning ahamiyatini tan oladi. Shuningdek, u insonlarning aqlni rivojlantirishdagi ilohiy kuchga ishonchini kuchaytiradi va ilm-fan taraqqiyotida donishmandlarga ergashishni tavsiya etadi.

Xulosa qilib aytganda, inson yaraliboq jamiyatga aralashadi.Oilasi va atrof-muhit uni ijtimoiylashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. (Muhiddin Omon tayyor.) – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.160- bet.

2. Абу Рейхан Беруний Избранные произведения, I. – Tashkent: AN UzbSSR. 1957. – C.87-89.

3. Daly J. The Rise of Western Power: A Comparative History of Western Civilization (en). A&C Black, 2013-12-19 — 18 bet. ISBN 978-1-4411-1851-6.

4.Mansur A.Al-Moturidiy ta’limoti. –Toshkent, 2003.51-bet.

5. Rahman F.F., Rahman F. Translation or Intertextuality: A Literature Comparative Analysis of “The Young Dead Soldiers Do Not Speak” by Archibald MacLeish and “Krawang Bekasi” by Chairil Anwar. Elsya // Journal of English Language Studies, 2019.1(3). – P.110-117.

6. Xodjayev O.Sh. “Sotsiologiya” fanidan qo‘llanma. –Toshkent, 2021.8-b.

7. Xodjayev O.Sh. “Sotsiologiya” fanidan qo‘llanma. – Toshkent, 2021.8-b.

8. Xodjayev O.Sh. “Sotsiologiya” fanidan qo‘llanma. –Toshkent, 2021.10-b.

9. Wellek R., Warren A. Theory of literature. – New York: Harcourt, Brace & World, 1956. – P.768.

Muhayyo NORMIRZAYEVA,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIIY ASARLARNI QAYTA HIKOYA QILISHGA O'RGATISH

Annotatsiya: ushbu maqolada bolalarni nutqini o'stirish, badiiy asarlarni qayta hikoya qilish, emotsional va obrazli so'zlarni tanlashga, asarni tinglay bilish, uning mazmunini tushunish ko'nikmasini o'stirish usullari va metodlari berib borilgan.

Kalit so'zlar: *qayta hikoya qilish, emotsional va obrazli so'zlar, o'rgatish usullari, aytib turish, savollar berish, rag'batlantirish, rollarga bo'lib qayta hikoya qilish, o'yin usuli.*

Аннотация: в данной статье даны приемы и приемы развития речи детей, пересказа художественных произведений, подбора эмоциональных и образных слов, прослушивания произведения, понимания его содержания.

Ключевые слова: ***пересказ****, эмоциональные и образные слова, методы обучения, рассказывание, постановка вопросов, поощрение, ролевая игра, стиль игры*

Annotation: in this article, methods and methods of developing children's speech, retelling works of art, selecting emotional and figurative words, listening to a work, and understanding its content are given.

Key words: *retelling, emotional and figurative words, teaching methods, telling, asking questions, encouraging, role-playing, play style*

Qayta hikoya qilish — hikoya qilishning birinchi turi hisoblanadi. Qayta hikoya qilish tinglangan badiiy asarlarni ma'noli og'zaki nutqda takroriy aytishdir. Qayta hikoya qilish bolalar badiiy nutqining rivojlanishiga, emotsional va obrazli so'zlarni tanlashga o'rgatadi, jonli so'zni egallashga yordam beradi, asarni tinglay bilish, uning mazmunini tushunish ko'nikmasini o'stiradi, ularni bayon qilishdagi izchillikni, muallifning ifoda usulini eslab qolishga, asarni tushunib, jamoa oldida og'zaki aytib bera olish malakasini shakllantiradi.

Qayta hikoya qilishga o'rgatish samarali bo'lishi uchun, eng avvalo, qayta hikoya qilish uchun matnlarni to'g'ri tanlash lozim.

Har bir asar bolalarda jamiyatimiz uchun zarur bo'lgan sifatlarni tarbiyalashi va rivojlantirishi kerak. Qayta hikoya qilish uchun asar tanlanganda quyidagi talablarga amal qilish kerak: yuqori badiiy qimmatga, g'oyaviy-mantiqiy yo'nalishga ega bo'lishi, jo'shqinligi, fikrning yangiligi va bayonning obrazliligi, voqealarning ketma-ketliligi, mazmunining qiziqarliligi. Shu bilan bir qatorda, badiiy asarning hajmi va uning bola yoshiga mos kelishini ham hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu talablarga xalq ertaklari, hajmi uncha katta bo'lmagan hikoyalar misol bo'la olishi mumkin. Shuningdek, dasturda bolalarning qayta hikoyalariga bir qancha talablar qo'yilgan:

1) ma'nosiga tushungan holda, ya'ni matnni to'liq tushunib hikoya qilish;

2) asarni to'liq bayon etish, ya'ni asardagi muhim joylarini tashlab ketmasdan bayon etish;

3) izchillik (ketma-ketlik) bilan hikoya qilish;

4) muallif matnidagi lug'atlardan va iboralardan foydalanish, ayrim so'zlarni ularning sinonimlari bilan almashtirish;

5) to'g'ri ohangdan foydalanish, uzoq pauzalarning bo'lmasligi;

6) og'zaki nutq madaniyatiga e'tibor berish: qayta hikoya qilayotganda gavdani to'g'ri tutish, tinch turish, tinglovchilarga murojaat qilish, nutqning intonatsion ma'nodorligidan (ifodaliligidan) foydalanish, yetarlicha baland ovozda tovushlarni aniq talaffuz etish.

Ushbu talablarning barchasi bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib, bulardan birortasini ham e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Qayta hikoya qilishga o'rgatish usullari:

1. Tarbiyachining bola bilan birga qayta hikoya qilishi.

Tarbiyachi bu usuldan qayta hikoya qilishga o'rgatishning dastlabki bosqichida, ayniqsa, hikoya qilib bera olmaydigan bolalar bilan ishlashda keng foydalanishi kerak.

Qayta hikoya qilish jarayonida tarbiyachi bolalarga sezdirmagan holda gavdasini to'g'irlashi, imo-ishora, ko'z qarashi bilan dalda berishi mumkin, mashg'ulotning oxirida esa, albatta, bolani maqtash kerak: "Barakalla, endi boshqa bolalarga hikoya qilish yengil bo'ladi. Faqat keyingi safar balandroq ovozda hikoya qilgin".

2. Qayta hikoyani takrorlash.

Bu usuldan ko'proq o'rta va katta guruhlarda foydalaniladi. Bu bola uchun ancha murakkab bo'lgan usuldir, chunki u tarbiyachining hikoyasiga alohida luqma tashlash (gap qistirish) bilan birga, to'liq jumlalarni ham takrorlashiga to'g'ri keladi.

3. So'z va jumlalarni aytib turish.

Bu usul qayta hikoya qilishning ravonligini, izchilligini ta’minlaydi, uzoq pauza qilishga yo‘l qo‘ymaydi. Bu usuldan ko‘proq bola asar matnining ayrim joylarini esdan chiqarganda foydalaniladi.

Agar bola juda yaxshi hikoya qilsa-yu, biroq nutq sur’ati juda sekin bo‘lsa, tarbiyachi pauza vaqtida sabr-toqat bilan hikoyaning davomini kuzatishi: bolaning gavda holatiga e’tibor bilan qarashi, dalda berishi orqali bola diqqatini to‘plashi kerak.

Agar bola hikoya qilayotgan vaqtda tebranib (chayqalib) tursa, boshini egsa, qo‘li bilan ortiqcha harakatlarni qilsa, uning hikoyasini bo‘lib tanbeh berish yaramaydi, balki bunday hollarda imo-ishora, ko‘z qarashi bilan uning xatosini, kamchiligini tuzatishi, hikoya qilib bergandan keyin esa hammaga eshitilarli qilib: “Hikoya qilayotganingda tinch tur. Boshingni pastga egmasdan, o‘rtoqlaringga qarab turishing kerak. Axir ular sening hikoyangni tinglashadi-ku”, deb aytishi kerak. Tarbiyachi bolaning bu nuqsonlarini kundalikka belgilab qo‘ysa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki keyingi qayta hikoya qilib berish mashg‘ulotidan oldin yana bir marta bolani ogohlantirishda bundan foydalanadi.

Tarbiyachi aytib turish orqali, bolani qayta hikoya qilayotganida yo‘l qo‘ygan grammatik xatolarni to‘g‘irlaydi. Bu usul qayta hikoya qilishga o‘rgatishning keyingi bosqichlarida ham qo‘llaniladi.

4. Savollar berish.

Bu usul keng tarqalgan bo‘lib, u muqaddima (kirish) suhbatida va mashg‘ulot jarayonida qo‘llaniladi. Qayta hikoya qilish mashg‘ulotida foydalaniladigan savollarni shartli ravishda ishlatilishiga va maqsadiga qarab bir qancha turkumga ajratish mumkin. Hikoya qilolmaydigan bolalarga qayta hikoya qilishni boshlagunga qadar yordamchi savollar berish mumkin, bu hikoyani boshlashga yordam beradi, masalan: “Sen nima haqida hikoya qilasan, ola quyon to‘g‘risidami? Mayli, kel boshlaymiz. Kunlardan bir kuni jikkakkina ola quyon sheriklariga...”. Yoki: “Turna Tulkini o‘zi bilan olib, osmonga ko‘tarilibdi va unga nima debdi? Yerni ko‘ryapsanmi? Mana shu Turnaning aytgan gaplarini, Tulkining esa javobini aytib bering... Ha, mushtumday... Bu yog‘ini o‘zing davom et”. Bola qayta hikoya qilib bergandan keyin, albatta, savol berishdan foydalanish mumkin. Bu asar mazmunini bola qay darajada tushunganini aniqlashga yordam beradi, matnni qayta hikoya qilayotgan vaqtda tashlab ketilgan joylarini tiklashga yordam beradi.

Ayrim hollarda qayta hikoya qilishdan keyin qahramonlarning fe’l-atvori yoki ularning ifodali nutqi haqida savol berish mumkin. Qayta hikoya qilish o‘rtasida uncha katta bo‘lmagan mashqlar o‘tkazish yoki ko‘rsatma berishdan foydalanish mumkin. Shuningdek, asar matnining ayrim joylarini yana bir marta takrorlash usulini qo‘llash mumkin.

5. Rag‘batlantirish.

Qayta hikoya qilish jarayonida tarbiyachi bolani jilmayish, boshini qimirlatish (tasdiqlash), qisqa so‘z aytish (“Yasha”, “Barakalla”) bilan rag‘batlantiradi.

Qayta hikoya qilib bergandan so‘ng bolani maqtaydi. Bunda qayta hikoya qilishning biror ijobiy sifatini ta’kidlab o‘tadi.

6. Qismlar bo‘yicha qayta hikoya qilish.

Bu usul bolalar idrokining qimmatini yo‘qotmaydi, chunki Qayta hikoya qilish uchun bolalarga mazmuni tanish bo‘lgan asar tanlanadi. Qismlar bo‘yicha qayta hikoya qilish usulidan foydalanib, mashg‘ulotni tashkil etish jarayoni bolalardan kun davomida so‘rash imkonini yaratib beradi.

7. Rollarga bo‘lib qayta hikoya qilish.

Bu usul nutqning ma’nodorligini (ifodaliligini) shakllantirishga yordam beradi. Tarbiyachi tomonidan ishtirok etuvchi shaxslar xarakterining izohlanishi bolalar nutqining oydinlashishiga, diqqatining faollashishiga katta ta’sir etadi. Rollarga bo‘lib qayta hikoya qilish o‘rta guruhdan boshlab qo‘llaniladi. Bu usuldan mashg‘ulotning oxirida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

8. O‘yin **usuli (dramalashtirilgan** o‘yin**).**

Bu usulda personajlarning (ishtirok etuvchilarning) luqma tashlashlari harakatlar bilan boshqariladi: bolalar imo-ishoradan, hayvonlarning ovozlariga taqlid qilishdan va boshqalardan keng foydalanadilar, biroq o‘yin uchun hech qanday niqoblar, dekoratsiyalar talab etilmaydi. Tarbiyachi avval o‘zi muallif nomidan gapiradi, so‘ngra bola gapiradi. Dastlab rolni ijro etish uchun nutqi bo‘sh rivojlangan bolalar chiqariladi. Dramalashtirilgan o‘yin 5 daqiqa davom etadi. Turli yosh guruhlarida qayta hikoya qilib berishga o‘rgatish mashg‘ulotining tuzilishi (o‘tkazish metodikasi) har xil bo‘ladi.

Qayta hikoya qilish uchun tanlangan matn bolalar uchun tushunarli bo‘lishi kerak.

Qayta hikoya qilish mashg‘ulotlari har bir yosh guruhining shaxsiy xususiyatlarini, ularning qayta hikoya qilish qobiliyatlarini hisobga olgan holda tuziladi.

Mavzu: Qayum Tangriqulov (Turkmaniston) “Non” hikoya qilib berish

Maqsad: “Nutq va til”:

Bolalarni hikoyani diqqat bilan tinglash, ma’nosiga tushunish, qahramonlar xatti-harakatlarini kuzatish, asar voqealarini so‘zlab berayotganida ovoz ohangining xil-ma-xil (so‘roq, his-hayajon, hayratlanish, iltimos) turini qo‘llay bilish, turli janrdagi badiiy asarlarni hikoya qilish-ga o‘rgatish. Bolalarda gapirganda so‘zlarni bir-biriga bog‘lab, ma’noli jumlalar tuzish malakasini shakllantirish. “Non turlari” mavzusida nutqini boyitish va faolligini os-hirish.Bolalarni suhbatlarda faol ishtirok etishga undash, mavzu bo‘yicha berilgan savollarga tushunib, aniq va to‘liq javob berish, o‘rtoqlarining berayotgan javoblarini e’tibor bilan tinglash malakasini takomillashtirish.

Intellektual-bilish malakalari

Bolalarga bug‘doydan non yetishtirilishi, nonni bizning dasturxonimizga kelishi uchun turli kasbdagi kishilar mehnati sarf qilinishi haqida berish hamda ularni nonni tayyorlash jarayonlariga qiziqishlarini rag‘batlantirish.

Dunyoni badiiy tasavvur etish

Eshitgan hikoya mazmunini so‘zlab berish, hikoya mazmuniga nisbatan o‘z munosabatini bildirish ko‘nikmalarini rivojlantirish.Bolada kitobga nisbatan qiziqish, mehr hislarini kuchaytirish.

Hissiyotlar va ularni boshqarish

Bolalarni nonni qadrlashga, uvol qilmaslikka odatlantirish.

Kerakli jihozlar:

“Non turlari” mavzusida rasmlar

Ta’limiy faoliyatning borishi:

Tarbiyachi ta’limiy faoliyatning kirish qismida bolalarga non dasturxonimizga qo‘yilguncha qanchadan-qancha odamlar mehnat qilishlari haqida gapirib suhbatni boshlaydi.

Asosiy qism:

1. “Non turlari” mavzusi bo‘yicha suratlarni ko‘rib chiqish.

2. “Non” hikoyasini so‘zlab berish.

2. Hikoya bo‘yicha savol-javob o‘tkazish.

3.Ixtiyoriy ravishda bolalarning hikoyalarini tinglash.

4.Jismoniy daqiqa.

5. “Non” mavzusida she’rlar aytish

6. Bolalarning aytgan hikoyalari, aytilgan she’rlarni muhokama qilish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha qism: “non bizning dasturxonimizga qanday kelib qoldi?” mavzusida slayd taqdimot ko‘rsatish.

Alohida e’tibor qaratiladi:bolalarni hikoya voqealarini so‘zlab berayotganida ovoz ohangining xilma-xil (so‘roq, his-hayajon, hayratlanish, iltimos) turini qo‘llay bilishga e’tibor qaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti – T., 2020.

2. Grosheva I.V., Evstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. takomillashtirilgan ikkinchi nashr. –Toshkent, 2020.

3. Grosheva I.V., Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Ismailova M.A., Kenjabaeva D.A., Gulyamova N.B., Miftaeva N.A. “O‘yin orqali ta’lim olish” –Toshkent, 2020.

4. F.R.Qodirova va boshqalar. Nutq rivojlantirish metodikasi. – T., 2019.

5.Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini mavzuviy rejalashtirish. –T.,2018

6.S.Raximova va boshqalar. Atrof –olam bilan tanishtirish metodikasi. –T.:2019.

Anvar XO‘JAYEV,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Qarshi filiali o‘qituvchisi
E-mail: anvarxujayev1974@gmail.com



ABDURAZZOQ FAQIRIYNING LIRIK MEROSI VA UNING TADQIQI TO‘G‘RISIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya: maqolada Abdurazzoq Faqiriy devonining qo‘lyozma nusxasi matnshunoslik aspektida tadqiq qilingan. Devondan o‘rin olgan lirik asarlar tasnif qilingan. Undagi she’rlarning janriy xususiyatlari atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *devon, qo‘lyozma, debocha, misra, bayt, lirik janr, g‘azal, marsiya.*

Аннотация: в статье рассматривается текстологический аспект рукописного экземпляра дивана Абдураззака Факири. Классифицируются лирические произведения, происходящие из Дивана. Подробно анализируются жанровые особенности стихотворений, вошедших в диван.

Ключевые слова: *диван (сборник стихов), рукопись, дибача (предисловие), строк, бейт, лирический жанр, газель, элегия.*

Annotation: in the article, there examined the textual aspect of a manuscript of the poetry collection of Abdurazzak Fakiri. Lyrical works originating from a poetry collection are classified. The genre features of the poems included in the poetry collection are analyzed in detail.

Key words: *divan (collection of poems), manuscript, dibacha (preface), lines, beyt, lyrical genre, ghazel, elegy.*

XIX asr oxiri XX asr boshlarida O‘rta Osiyo xalqlarining “milliy uyg‘onish” deb atalgan davrida amal qilgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy-adabiy harakat muammolarini o‘rganish hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lib, davom etmoqda. Zero, insonning o‘zligi, Vatan mustaqilligi, zamonaviy ilmli, ma’rifatli bo‘lish va jamiyat taraqqiyoti g‘oyalari jadidlar harakatining ijtimoiy ideali bo‘lib, eskirmaydigan boqiy qadriyatdir.

O‘zbek jadid demokratik adabiyotining Xorazm adabiy harakatchiligidagi zamon bilan hamnafas, hamfikr, ilg‘or

fikrli namoyandalari ijodini xonlik tuzumi, undagi oddiy, taraqqiyotdan orqada bo‘lgan hayot buka olmadi. Ular Ahmad Donish, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O‘tar kabi ilg‘or zamondoshlarining fikr-g‘oyalarining davomchisi sifatida maydonga chiqdilar.

Ma’lum tarixiy sharoitda “demokratik-ijtimoiy mafkura”ning ifodasi sifatida tug‘ilib shakllangan o‘zbek demokratik adabiyoti afkor ommaning turmush sharoiti bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu adabiyot namoyandalari o‘sha davrdagi xalqning hayoti realistik lavhalarda aks ettirilishi bilan bir qatorda ziyolilarning ma’rifatli va adolatli hayot haqidagi orzu-umidlarini ham ifodalaydilar. Xalqparvarlik, vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik g‘oyalari demokratik adabiyotning asosini tashkil etadi. Jadid namoyandalari bu g‘oyalarni nazmning g‘azal, muxammas, musaddas, murabba’, masnaviy kabi turlarida aks ettirganlar. Bu davr adabiyotida “...satira va yumor keng tarqaldi, bu janrda hamma demokrat shoirlar o‘z qalamlarini sinab ko‘rdilar, bu janr turmushning hamma sohalariga jamiyat hayotining hamma tarmoqlariga kirib bordi” [4:56].

Mana shunday sharoitda, ya’ni ijtimoiy-siyosiy va g‘oyaviy kurashlar keskin avj olgan davrda yashab, ijod etgan, jadidchilik adabiy oqimning ravnaqida chuqur iz qoldirgan Bayoniy, Chokar, Mutrib, Komil Devoniy kabi shoirlar bilan bir qatorda Faqiriy ham o‘z o‘rniga, o‘z ovoziga ega. Faqiriy el-yurt bilan hamnafas zamondoshlari kabi o‘tmish ustozlarining ilg‘or g‘oyalarini davom ettirgan holda bu davr adabiyotiga yangi mazmun, yangi g‘oyalar bilan hissa qo‘shdi. Ijtimoiy-siyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin avj olgan sharoitda yashab ijod etgan Faqiriy zamondoshlari an’analarini davom ettirdi. Zamon talablari darajasidagi san’atkor bo‘lishga intildi. U Avaz O‘tar kabi jadid shoirlari qatorida bo‘lish uchun tinmay mehnat qildi va el-yurt uchun foydali faoliyatdan tolmadi.

O‘sha davr shoiri Laffasiy o‘zining “Tazkirai shuaro” asarida shoir haqida shunday yozadi: ... “Dag‘i ul o‘ziga Faqiriy taxallus qilib, ancha she’rlar mashqin ham etib, turlik ma’shuqona g‘azal, muxammas, hajviyotlar yozib turar erdi. Ammo oning she’rlarin Xiva musiqiyshunoslari har ma’raka, majlis, ziyofatlarda xush ovozlik bilan o‘qimoqqa taraqqiylik qiladur. Ammo Faqiriy shundoq xushta’bi islimkor, naqqoshkor erdikim, oning islim naqshin ko‘rgan zamon usta hunarmand, naqqoshkorlik Aflotunlari bir ko‘rmaklik bilan Faqiriyga musallam qilib, o‘zlarin bino xirqasi ichra solib tillarin takallumdin xomushlig‘da qilib, Faqiriyga shogird bo‘lmoqni orzu qilur erdilar” [5:114].

Laffasiy yana shunday yozadi: “Ammo Faqiriy Asfandiyorxon davriga oid Xorazm qit’asida bo‘lgan mojaro hodisalarni tamoman nazm zari bilan mavzun qilib, jomai gulgun libosi mulukona bilan orasta etib, son go‘ti hazordostonlik bilan andak taqrir qilganki, oning bul tariqada nazm abyotlar bilan qilganin zamon abyotchilari ko‘rib, musallam xati berib, Faqiriyga shogird bo‘lmoqni o‘zlariga faxr qilur erdilar. Ammo Faqiriy afsona, hikoyalarga takallum qilgan qilgan vaqt hazori doston, to‘tisuxan, bulbulnavo adiblar tillarin takallum qilmoqdin saqlab, bino xilqalarin boshlariga solib, xomushlig‘ni ixtiyor qilur erdilar. Ammo Faqiriy Feruz Muhammad Rahimxon zamonidin keyin Asfandiyorxon zamonida ham tarrohlig‘ bilan umr kechirib, 1920-yil Xorazm xalq Sho‘rolar jumhuriyati zamonida hukumatga anchagina xizmatlar qilib, 1924-yil baqo bo‘stoniga safar qilib, jannat gulzori ichra manzil qiladur”.

MASNAVIY:

Faqiriykim ajab xushado erur,
Fasohatlik tili burro erur.
Fazilatda onga monand yo‘q erur,
Hama xalq so‘zidin xushnud erur.
Nechukkim oning she’rin bayon aylasam,
Oning fe’li xulqlarin ayon aylasam.
Dedi bu g‘azalni ham ul xushado,
Ki erdi xush nuqtadonligda yakto. [5:114]

Faqiriyning bizga o‘zi tomonidan tuzilgan bir qo‘lyozma devoni ma’lum bo‘lib, u O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 7693 raqami ostida saqlanadi.

Devon 378 betdan iborat bo‘lib, qalin pushti rangli oddiy karton qog‘oz bilan muqovalangan. Formati 13X21. Oddiy chiziqli fabrika qog‘oziga nasta’liq bilan ancha xushxat ko‘chirilgan. She’riy tekstlar ramkaga olinmagan, lekin ma’lum tartib asosida ko‘chirilgan bo‘lib, mutanosiblik saqlangan. Har sahifada 14 bayt (28 misra) she’r ikki ustunda berilgan. Asosiy tekst qora, sarlavhalar esa qizil rangda yozilgan.

Devon ikki qismdan tashkil topgan. Uning birinchi qismi “Debocha”, ikkinchisi esa asosiy devondir. Birinchi qismga sarlavha o‘rnida “Debochai Faqiriy Xorazmiy” hijriy 1333(milodiy – 1914-1915) deb yozilgan sahifa bilan ochiladi. Devonning bu qismi 2b-sahifadan boshlanib, 14b-sahifada tugallanadi.

26 betdan iborat bo‘lgan bu muqaddima an’anaga binoan, Allohga hamd, Muhammad alayhissalomga na’t bilan boshlanadi. Shundan so‘ng Faqiriyning hayoti va ijodiga oid bo‘lgan qimmatli ma’lumotlar beriladi. Devonning “Debocha” qismida shoir klassik adabiyotimizning buyuk mutafakkirlari Jomiy va Navoiyni hamda o‘sha davrning ulug‘ yoshdagi mashhur adiblarini ustoz deb bilganligi; ular ijodiga bo‘lgan munosabati; zamondan ko‘rayotgan jabr-zulmlaridan noroziligi; do‘st-birodarlarining undan asarlarini jamlab devon tartib etishga rag‘batlantirishlari; uning bu xususdagi mulohazalari; devon tuzishdan maqsadi mufassal bayon etiladi.

Debochaning tugallanishida ham an’anaga ko‘ra shukriya va shoirning beshta istagi bayon etiladi.

Faqiriyning “Debocha”si o‘z davri adabiy harakatchiligida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hodisadir. Chunki o‘zbek klassik adabiyotida Alisher Navoiydan so‘ng o‘z she’riy devonlariga “Debocha” yozish va, ayniqsa, unda o‘z ijodiga tanqidiy nazar bilan qarab obyektiv baholash hodisalari juda kam uchraydi.

“Debochai Faqiriy” – faqat shoirning ahvoli ruhiyasini, ijodiy yo‘linigina ko‘rsatib qolmaydi, balki ijtimoiy ongning eng muhim shakllaridan biri bo‘lgan badiiy adabiyot ijoddagi g‘oyaviy yo‘nalishlarini yaqqol aks ettiradi.

Bu hol ana shu debocha davomida kelgan 186 misradan iborat bo‘lgan she’rlar turkumida mahorat bilan bayon etila borganligi jihatidan ham xarakterlidir.

Shuningdek, “Debocha”da devonning mundarijasi haqida ham ma’lumot berib o‘tilgan.

Qo‘lyozmaning ikkinchi qismi “Devoni Faqiriy Xorazmiy” (1333) deb nomlanib, 15a-sahifadan boshlanadi va 378-sahifada tugaydi. Bu qism sarlavhasi ham quyuq harflar bilan qizil tushda yozilib, bezaklangan hoshiyaga olingan sahifa bilan boshlanadi. Hoshiyaning yuqori qismida “ushbu devoncha “Gulistoni ishq angez” ba farmoni ahbobi yoron dar zamon Sayid Isfandiyor Bahodurxon”, - degan qayd bor.

Shunga asoslanib ayrim adabiyotshunoslar Faqiriy o‘z devonini “Gulistoni ishq” nomi bilan atagan” – deb yozadilar[2:140]. Qat’iy shunday deyish, fikrimizcha ancha mahol. Bu devon va uning tarkibidagi she’rlarni sifatlash uchun keltirilgan so‘zlar bo‘lishi ehtimol.

Hoshiyaning pastki qismida esa, shoir o‘z devonining asos mazmunini shunday izohlaydi: “Az baroyi yod ovari bitildi, Xevaq mamlakatining bevafoning xuboni mahbub va ma’shuqoni marg‘ublarining tavsiflari sharh etuldi”.

Devondagi she’rlar o‘sha davrdagi devon tuzish an’analariga ko‘ra tartib bilan berilgan, sahifalar hoshiyasida esa radiflar qizil tushda yozilgan.

Devon an’anaviy hamd, na’t mavzuidagi g‘azallar bilan boshlanadi. Shundan so‘ng Faqiriy XVII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan shoir, tarixchi olim, tarjimon va xattot Munis Xorazmiyning “Shuaro” radifli g‘azalini keltiradi.

Faqiriy o‘z g‘azallariga tartib raqam va sarlavhalar qo‘yadi. G‘azal kim uchun, nima sabab bilan yozilganligi shu g‘azal tepasiga qizil rangda sarlavha tarzida yozib qo‘yilgan. Faqiriy devonining yana bir xarakterli xususiyati shuki, “Debocha”dagi kabi unda ham shoir o‘z ustozlari, zamondoshlari asarlaridan ayrimlarini, ko‘pincha o‘zi yangi yaratayotgan asar mazmuniga yaqin turgan g‘azallarga namuna sifatida keltiradi. Bu namunalar kimniki va nima sababdan keltirilganligi esa sarlavhada izohlab beriladi.

Devonning 15a – 90a – sahifalarida g‘azallar, 90b – sahifasida bir mustahzod, 91a–120b-sahifalarida muxammaslar joy olgan.

Devonda muxammaslar orasida boshqa janrlar – masnaviy, musaddas, murabba’lar aralash keltirilgani holda bir mavzuda yozilgan ikki she’riy janrga oid asarlar ketma-ket joylashtirila boradi. Masalan, muxammaslardan so‘ng shoir onasi vafotiga bag‘ishlangan marsiya (masnaviy)ni bitgan. Shu bilan birga, katta yo‘qotish tufayli chekkan dard-g‘amlarini yana alohida musaddas janridagi she’rda ham bayon etadi. Shoirning o‘zi bu haqda marsiyaning oxirida shunday yozadi:

Chidolmay xotirim jam’i uchun bas,
Dedim bu marsiya aylab musaddas. [1:121b].

Shuningdek, devonda bolalar adabiyotiga oid 23 baytdan iborat 5 ta she’riy topishmoq mavjud.

Shoir devonni yakunlab masnaviy bilan xotima beradi [6:55]. Xotimadan keyin Andalibning “Yusuf va Zulayxo” dostonidagi Zulayxo nomidan bitilgan g‘azalga bog‘langan muxammasi keltiriladi. Shoir “Xotima”da bu muxammasning yaratilish sabablarini ko‘rsatib o‘tadi.

Devonning 20-21, 47-49-sahifalari orasiga uning asosiy sahifalariga nisbatan formati kichik sahifalar qo‘shilgan. Lekin bu sahifalarda Faqiriy amalga oshirgan paginatsiya (sahifalarni ko‘rsatuvchi raqamlar) berilmagan. 47a-49a sahifalardagi ba’zi g‘azallarning oxiri, ayrimlarining boshlanish qismi yo‘q. Tartib raqamlar bilan sarlavhalar, ba’zan sarlavhaning o‘zi yozilib g‘azallar o‘rni ochiq qolgan 48, 51, 53, 56, 57 kabi qator sahifalar ham bor. Ba’zan tartib raqamlari (masalan, 172) takror uchraydi. Ko‘p o‘rinlarda misralar va to‘la g‘azallar o‘chirilib ham hoshiyaga to‘g‘irlab yozilgan (masalan: 79b, 158a-b kabi) sahifalar ham uchraydi. Ayrim g‘azallar (masalan: 43, 80, 103) sahifalardagi g‘azallar tugallanmay qolgan. Devonda ayrim sahifalar yo‘qolgan ko‘rinadi. Masalan, 168-betdan keyin 173-bet bilan davom etgan.

Devonda Faqiriyning faqat o‘zbek tilida yozgan asarlari jamlangan. Bu haqda shoir devonning “Debocha” qismida yozadi:

Edi turk barcha she’rim omiyona,
Hamono varsoqi har nav’ fasona. [1:8b]

Devon yagona nusxa bo‘lib, unda Faqiriyning 165 ta (3476 misra) g‘azal, 1 ta (42 misra) mustahzod, 23 ta (1310 misra) muxammas, 8 ta (636 misra) musaddas, 14 ta (908 misra) masnaviy, 7 ta (660 misra) murabba’, 3 ta (396 misra) qasida, 8 ta (32 misra) ruboiy, 6 ta (52 misra) chiston va muammo janrlaridagi lirik asarlari o‘rin olgan [6:55]. Shoir adabiy merosining umumiy hajmi 7470 misra (3735 bayt)ni tashkil etadi. Faqiriy Fuzuliyning kotiblarni tanqid qilib yozgan 4 misra she’rini devonda chiston sifatida keltiradi. Shunday qilib, devonning “Debocha” va asosiy qismida hammasi bo‘lib, 7652 misra (3826 bayt) ijod namunalari jamlangan. Shuningdek o‘zga shoirlarning 245 misra she’ri ham devondan o‘rin

olgan. Bulardan tashqari devonda shoirning hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar, qaydlar ham mavjud. Devon 1914-1915-yillarda tuzilgan va 1919- yilga qadar u to'ldirib borilgan. Ma'lumki, odatda ko'pchilik asarlarning yozilish sabablarini, nima maqsadda yozayotganligini, yozilgan yilini aniq keltirmaydi. Shu jihatdan Faqiriy devonidagi aniq qaydlar juda ahamiyatlidir. Voqeaband, biror sabab va iltimos bilan yozilgan asarlar ham sarlavhalarda o'z izohlari bilan o'rin olgan. Bunday asarlarning mazmuni avval saj yo'lida bayon qilinib, keyin shoir asosiy qismda o'ziga ma'qul bo'lgan turlardan birida voqeani tasvirlaganligini bayon etadi.

Shu o'rinda adabiyotshunoslikda Faqiriy ijodiy merosining o'rganilishi to'g'risida ham to'xtalib o'tish joiz. Adabiyotshunos V.Mirzayevning "Shoir Faqiriy devonlarining qo'lyozma nusxalari" to'g'risida ilmiy axboroti Faqiriy hayoti va adabiy merosini o'rganishga bag'ishlangan maxsus maqola ekanligi bilan ajralib turadi [3]. Unda shoir tarjimai holi va ijodiyoti qisqa yoritilib, uning O'zFA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan 7693 inventar raqamli qo'lyozma devonining tavsifi keltiriladi. Ammo mazkur maqolada ham shoir tug'ilgan va vafot etgan yillar noto'g'ri ko'rsatilgan. Shuningdek, devon tavsifida ham ba'zi chalkashliklar uchraydi. Xususan, muallif Faqiriyga nisbat bergan №7689 inventar raqamli qo'lyozma aslida 1259-yilda ko'chirilgan Abdulg'ofir Loriyning "Hoshiyai sharhi Mullo" nomli asari ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, maqolada devon kim tomonidan tartib etilganligi aytilmagan deyiladi. Vaholanki, devonning "Debochai Faqiriy" deb nomlangan muqaddimasida bu devon Faqiriyning o'zi tomonidan avlodlar uchun bitilgani aniq qayd etilgan. Bizningcha, bu shoirning dastxat devoniga dalildir.

Maqolada devonning "Xotima" qismi ham yo'q, - degan fikr bor. Ammo shoir o'z devonini yakunlab, masnaviy yo'lida "Xotima" yozgan [1:179b]. Bu xotima 56 misradan iborat. Masnaviydan parcha:

Yo Rab, o'z ahvolimi qildim kitob,
Tong-la savolingg'a ne bergum javob.
Tobe' o'lub bas, shuaro ahlig'a,
Kulgu bo'lubon fuzalo ahlig'a.
Og'zima ne kelsa bitibman borin,
O'ylamayin avvalinu oxirin.
Umrim o'lub zoye' bu nav' ishlara,
Qoldim ajab behuda tashvishlara.
Nazdi xiradmand aro man sharmisor,
Bo'lmadim onlar qadamida g'ubor...
Bu sifat qildim muxammas man Faqir,
Lek nuqsig'a bo'lung islohpazir. [1:180b]

Shoir o'z taxallusini keltirib masnaviyni tugatgandan keyin uni yana davom ettirgan ko'rinadi. Negaki, 56 misradan so'ng yana 14 yo'l qo'shilgan va unda ham Faqiriy taxallusi keltiriladi.

Devon uchun yana shu narsa xarakterliki, Faqiriy ko'pchilik she'riy asarlariga sarlavha doirasidan chiqib ketadigan mufassal nasriy muqaddima bera boradi. Bular Navoiyning "Xamsa" dostonlaridagi sarlavhalarni eslatadi.

Ba'zan esa Faqiriy alohida sarlavhalar qo'yish bilan birga sarlavhadan keyin asarning mundarijasi, yozilish sabablari, yozilgan yili va sharoitini kichik unsurlarigacha izohlab beradi. Bu devonning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib, shoirning ijodga katta mas'uliyat bilan qaraganligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Faqiriyning ushbu devoni shoirning turli janr va mavzularda yozilgan salmoqli lirik merosining katta bir qismidir. Bu devon shoir dastxati bo'lgani bois o'tgan asrning 20-yillariga qadar bo'lgan shoir ijodining g'oyaviy va badiiy xususiyatlarini o'rganishda g'oyat ishonchli manba sifatida baholanadi. Faqiriy ijodi ikki davrni o'z ichiga oladi. So'z borayotgan devon uning XIX asrning oxiri, XX asrning 1914-1915-yillargacha bo'lgan ijod mahsulidan bo'lib, bizning tadqiqotimizning asosiy obyektidir. Bu murakkab, ko'p qirrali jarayonning ta'lim, badiiy ijod, san'at, matbuot va boshqa sohalardagi yangicha ko'rinishlari, milliy va umumbashariy mazmundagi insonparvarlik qarashlari bugungi tadqiqotlarda tobora yorqinroq namoyon bo'lmoqda. Bu jarayon – "jadidchilik harakati" sifatida keng yoyilib, uning faoliyat doirasi, voqe bo'lish xususiyatlari, o'ziga xosligi alohida diqqatga loyiqdir. U XIX asrning 2-yarmi va XX asr boshidagi jadid adabiyotining yirik namoyandasi bo'lgan shoirning g'oya va obrazlar dunyosini ravshan gavdalantirib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurazzoq Faqiriy. Devon, O'zFASHI, qo'lyozmalar fondi, Inv.№7693.
2. Зокиров М. Ўзбек совет адабиёти тарихига оид баъзи мулоҳазалар // "Шарқ юлдузи" журнали, 1958, №4
3. Зокиров М. Абдураззоқ Фақирий // "Совет Ўзбекистони" газетаси. 1966. №21/13551/.
4. Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. 3-китоб. – Тошкент: "Ўқитувчи", 1968.
5. Лаффасий. Тазкираи шуаро. – Урганч: "Хоразм" таҳририят-нашр бўлими, 1992.
6. Мирзаев В. Фақирий девонларининг қўлёзма нусхалари // "Ўзбек тили ва адабиёти" журнали, 1966, №5.

Shaxribon MUSURMANKULOVA,
Guliston davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
shmusurmankulova83@gmail.com

O‘ZBEK VA TURK TILLARIDAGI FRAZEMALARNING STRUKTUR-GRAMMATIK TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada frazemalar, uning o‘ziga xos jihatlari, fikrimizni bayon etishda frazemalarning o‘rni, nutqimizning ta’sirchanligida frazemalarning ahamiyati, o‘zbek va turk tillaridagi frazemalar parallel korpusi haqida ma’lumot berilgan. O‘zbek tilida ham, turk tilida ham frazemalarga berilgan ta’riflar, har ikki tilda frazemalar so‘z birikmasi va gap ko‘rinishida namoyon bo‘lishi haqida ma’lumotlar misollar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *frazema, ibora, korpus, parallel korpus, tarjima, struktur-grammatik tahlil, so‘z birikmasi va gap.*

Аннотация: в этой статье представлена информация об идиомах, их специфических аспектах, роли идиом в выражении наших мыслей, важности идиом в эффективности нашей речи, параллельном корпусе идиом в узбекском и турецком языках. Поскольку определение идиом в узбекском и турецком языках одинаково, информация об идиомах, встречающихся в обоих языках в виде словосочетаний и предложений, поясняется на основе примеров.

Ключевые слова: *фраза, словосочетание, корпус, параллельный корпус, перевод, структурно-грамматический анализ, фраза и предложение.*

Annotation: this article provides information about idioms, their specific aspects, the role of idioms in expressing our thoughts, the importance of idioms in the effectiveness of our speech, the parallel corpus of idioms in the Uzbek and Turkish languages. Since the definition of idioms in Uzbek and Turkish is the same, information about idioms appearing in both languages in the form of word combinations and sentences is explained on the basis of examples.

Key words: *phrase, phrase, corpus, parallel corpus, translation, structural-grammatical analysis, phrase and sentence.*

Kirish. Fikrimizni ta’sirchan va obrazli bayon etishimiz uchun frazemalardan foydalanamiz. Frazemalar ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma’nosi bir so‘zga teng keladigan leksik birliklardir. Frazemalar bizga xalqning qadim o‘tmishi, urf-odatlari, an’analari, madaniyati, dunyoqarashi haqida tasavvur beradi. Obrazlar xalqning madaniy munosabatlari, mental yondashuvi, lisoniy ong xususiyatlari bilan aloqadorlikda namoyon bo‘ladi. “Obrazlilik muammosini o‘rganish tilning butun frazeologik tizimining obrazli tashkil etilganligini aniqlashga yordam beradi. Obrazning frazeologiyadagi asosiy vazifasi – g‘oya, fikrni ta’sirchan qilib ifodalab berishdir. Frazeologik birlik frazeologik obrazni, o‘ziga xos manzarani ifodalaydi va ularning fonida frazeologik birliklarning butun ma’nosi idrok qilinadi” [Xolmuradova, 2017:10].

O‘zbek va turk tillaridagi frazemalar har bir tilning nodir boyligi hisoblanadi. Frazemalar til egalarining olamni bilish darajasi, idrok etish qobiliyati, tasvirlash usullari, ifodalash vositalarini namoyon etadigan til birliklaridir. Shu bois o‘zbek-turk frazemalarining parallel matnlar korpusi shu tillarning kommunikativ, emotsional-ekspressiv, akkumulyativ jihatdan umumiy, shu bilan bir qatorda, o‘ziga xosligini ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

Frazeologiyaga oid tadqiqotlarda frazeologik ma’noning yuzaga kelishi, shakllanish jarayoni, tarixiy taraqqiyoti tahlil etilgan. Boshqa leksik birliklar qatorida frazemalar o‘z va o‘zlashgan qatlamga ajratilgan. Frazemalar har bir xalqning o‘tmishi, madaniyati va ma’naviyatidan so‘zlagani uchun o‘z qatlam frazemalari ko‘p uchraydi.

Tadqiqot metodlari. Tavsiflash, qiyoslash, leksik-semantik, struktur-grammatik, kognitiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

Ma’lumotlar tahlili. Frazema so‘z birikmasi, gap strukturasiga ega bo‘lishiga qaramasdan, lug‘aviy birlik hisoblanadi va shu jihatdan so‘z bilan bir qatorga qo‘yiladi. Masalan: *do‘ppisini osmonga otmoq* iborasi “xursand bo‘lmoq”, *tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi* iborasi “hafa”, *bir qultum suv bilan yutib yuborguday* iborasi “go‘zal” ma’nolarini ifodalaydi. Iboralarda ikki yoki undan ortiq so‘z o‘z ma’no mustaqilligini yo‘qotgan holda, bir umumiy ma’no markaziga bo‘ysunadi. Shu bois frazemalar birikma sifatida ajratilmaydi. Bitta so‘roqqa javob bo‘ladi va bir xil gap bo‘lagi vazifasida keladi. Frazemalar komponentini tashkil qiluvchi leksemalar bir lug‘aviy ma’no ifodalashga xizmat qiladi. “Barcha frazeologik birliklar barqaror so‘z birikmalaridir, lekin hamma so‘z birikmalari ham frazeologik birlik bo‘lavermaydi” [Kenesbayev, 1954:8].

“Frazeologik birliklarning ifoda plani sifatida kamida ikkita leksema qatnashadi. O‘zaro sintaktik bog‘langan bu leksemalar mohiyatiga ko‘ra birikmaga yoki gapga teng bo‘ladi. Bunday birikma yoki gapdan yaxlitligicha anglashiladigan frazeologik ma’no uni sintaktik birlik (nutq birligi) deb emas, balki semantik birlik (til birligi)

deb qarashga olib keladi. Shu sababli birikmaga yoki gapga tenglik haqida gapirganda, iboraning ichki sintaktik qurilishi ko‘zda tutiladi; ibora tarkibini sintaktik tahlil qilish nutq birligining tarkibini emas, balk til birligining tarkibini tahlil qilish bo‘ladi” [Rahmatullayev, 1992:8].

Biz frazema deb atayotgan birlik tilshunoslarimiz tomonidan turlicha atalib kelinmoqda. Kimdir frazeologik birlik desa, kimdir ibora, yana kimdir turg‘un bog‘lanma deb ataydi. Bir necha yillar ilgari aytilgan fikr hali-hanuz o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. V.L.Arxangelskiy shunday yozadi: “Hozirgacha tilshunoslikda frazeologiyalarni nomlashning aniq atamasi mavjud emas” [Arxangelskiy, 1964:82].

Maqolamizda o‘zbek va turk tillaridagi so‘z birikmasi va gap ko‘rinishidagi ayrim frazemalarni qiyosiy planda tahlilga tortdik. O‘zbekcha-turkcha frazemalar parallel korpusining ma’lumotlar bazasi o‘zbek va turk adabiy tili, shevalari, tarixiy manbalari, badiiy matnlardagi barqaror birikmalarni qamrab oladi. Parallel korpus frazemalar tarjimasiga asoslanadi.

Natijalar. O‘zbek tilida ham, turk tilida ham frazemalar ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topganligi uchun bevosita so‘z birikmasi va gap ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Frazemalar so‘zga nisbatan ham, so‘z birikmasiga nisbatan ham murakkab tuzilishga ega bo‘lganligi uchun tildagi frazemalarni bilish shu tilni chuqur o‘zlashtirish demakdir. Frazeologiya haqida turlicha qarashlar mavjud. “Frazeologiya tildagi so‘zlarning leksik-semantik birikmasini o‘rganuvchi tilshunoslik sohasidir” [Odilov va b., 1989:36]. “Frazeologiya – frazeologik tizim va uning hozirgi zamon sharoitidagi tarixiy rivojlanishini o‘rganuvchi fan sohasi” [Shanskiy, 1985:4]. O‘zbek-turk frazemalar parallel korpusining ma’lumotlar bazasi mavjud nazariy va leksikografik manbalar asosida shakllantirildi. Xalq frazemalari, okkazional iboralarni aks ettirgan mualliflik korpuslari materiallari parallel korpus uchun manba vazifasini o‘taydi. Biz quyida o‘zbek va turk tilidagi so‘z birikmasi va gap ko‘rinishidagi ayrim frazemalarni parallel holatda tahlilga tortdik.

So‘z birikmasi ko‘rinishidagi frazemalar

Boshdan oyoq. To‘la-to‘kis, bus-butun. *Nazarboy ko‘lidan qolgan ijaraning qanday bo‘lib uning qo‘liga tushganini sizga **boshdan oyoq** hikoya qilib beraman.*

Baştan aşağı (A’dan Z’ye kadar), (baştan ayağa), (baştan başa). Tamamiyle, hepsi, baştan sona kadar, krş. “Bir baştan bir başa”, “Tepeden tırnağa”. *Yine **baştan aşağı** baktı bana ve incelemesinin ardından ellerini yüzündeki mutlu ifadeyle birleştirdi.*

Kunlardan bir kuni. O‘tgan kunlardan birida. ***Kunlardan bir kuni** mahallada duv-duv gap bo‘lib qoldi: “Muxtorxon domla uylanarmishlar!..”*

Günlerden bir gün. Geçmiş zamanda bir gün. *O zamanlar Remzi Bey, hep dükkanında bulunurdu. “Borçlu ölmez, benzi sararır” denildiği gibi, kitabevinin önünden gelip geçerken, Remzi Bey’in beni görüp alacağını istemesinden çekinirdim. Sonunda, **günlerden bir gün**, dükkanına girdim.*

Ko‘z ochıb yumguncha. Juda qisqa muddatda, tezda. *Umr degan narsa **ko‘z ochib yumguncha** o‘tib ketar ekan.*

Göz açıp kapayıncaya kadar. Çok kısa bir zamanda. *... takacağınız bir audio cd dinler ken okadar hızlı geçiyor ki **göz açıp kapayıncaya kadar** kitabı taramış ve word e aktarmış oluyorsunuz.*

Ko‘z(i) och. [Kimning] ovqatga tashlanuvchan, ko‘p ovqat bilan to‘ymaydigan. *Nima qilsin, u sho‘rlik ham yo‘qchilikdan **ko‘zi och** edi-da.*

Gözü aç. Açgözlü, doyma bilmeyen, gerekenden çok yiyecek, mal elde etmek isteyen. ***Aç gözlü** hep aç olduğundan, sürüyü kırpmakla yetinmez, derisini de yüzmek isteyecektir.*

Ko‘z(i) o‘tkir. [Kimning] ko‘rish qobiliyati juda yaxshi. *Ko‘zi o‘tmaganing chiroqqa yaqin o‘tir, **ko‘zi o‘tkiring** oydinga chiq, hunaringni ko‘rsat hammang!*

Gözü keskin. **1.** Uzakları İyi gören **2.** Herkesin göremediği İncelikleri görebilen. ***“Amma keskin gözleriniz varmış sizin. Ben hiç fark etmedim”.***

Ko‘z(i)ga ishonmay. **Kimningdir kutilmagan hodisadan hayratlanish holatini ifodalaydi.** ***Ko‘zlariga ishonmasdan** qarardi, yo‘q, bu haqiqatdan ham Xolbo‘ta emas, ko‘pincha shu yaqin-atrofda qo‘y boqib yuruvchi cho‘pon Sunnat aka edi.*

Gözlerine inanmamak. Gördüklerinin doğru olduğunu kabul edemeyecek kadar şaşırmak. *Binbaşı Ekrem ile İhsan, Faruk’tan gelen haber üzerine Divan Yolu’nun ağzında bekliyorlardı.* İkisi de ***gözlerine inanamadı.***

Bir qoshiq suv bilan yutib yuborguday. Beqiyos go‘zal, nihoyatda dilrabo. *Ha, o‘ziyam o‘n besh kunlik oyday, **bir qoshiq suv bilan yutib yuborguday!***

Bir içim su. Çok güzel bir kadın. *Kız, bu elbise içinde, nasıl anlatayım, **bir içim su,*** ağza alınınca eriyen fondan şekerleri gibi bir şey oldu.

Istara(si) issiq. **Kimning xush ko‘rinishli, yoqimli, jozibador.** *Parda sekin ochildi, sahna to‘rida ... chiroyli bir kishi paydo bo‘ldi. **Istarasi issiq**.*

Yüzü sicak. Bir kimsenin hoşuna giden davranışından dolayı o kişinin yanına İyi karşılanacağını bilerek giden, krş. “Yüzü soğuk”. *Ne var ki, paranın **yüzü de sıcaktır**.*

Gap ko‘rinishidagi frazemalar: Baxt(i) ochildi. Kimning **1.** Oila qurib, shirin, osoyishta hayot kechirish chog‘iga yetishmoq (asosan, ayollarga nisbatan ishlatiladi) **2.** Hayotida xursandlik, mamnunlik holatiga erishmoq. *Sabr qil, yaxshi kunlarni kut, ehtimol, **baxting ochilib** ketar. Oydin degan stansiyadagi janglardan keyin, yana o‘z ta’biri bilan aytganda, **“baxti ochilib”,** qizil askarlikka olingan edi.*

Bahti açik olmak. Talihi lyl olmak, İşi hep yolunda gitmek. *Yüzbaşı fotoğrafı uzanırken, Allah bağışlasın. **Bahtı açık olsun**. Ama şunu söyleyeyim. Sizler bizim müfrezeye değişik birliklerden seçildiniz*.

Igna tashlasang, yerga tushmaydi. Haddan tashqari ko‘p va zich. *Kecha bu vaqtda pashsha ham uchmagan ko‘chada odam qaynar edi.* ***Igna tashlasang, yerga tushmaydi.***

Iğne atsan yere düşmez. Çok kalabalık. *Bizi Auteuil’deki at yarışlarına götürmüştü Hipodrom,* ***iğne atsan düşmeyecek kadar*** *kalabalıktı.*

Jin urdi. 1. Kimni dard-illatga chalindi. **2.** Kimni (so‘roq formasida ishlatiladi) fikr-o‘yi salbiy tomonga o‘zgardi. *Otamizning o‘zini* ***jin urib*** *qo‘ygan ekan -u, shuning uchun hali u ochiq-yorug‘ aytolmayotgan ekan.*

Cin çarpmak. **1.** (Boş inanışa göre) Cinlerin saldırısına uğrayarak 2. Hastalanmak, sakatlanmak. *Senin şu haline bak! Defol önümden. Mehmet bu sözle cin çarpmışa dönmüştü.*

Kun botdi. Quyosh falakda ko‘rinmay, hammayoq qorong‘ilashdi. *U kishi hozir dalada.* ***Kun botganda*** *keladilar.*

Gün (güneş) **batmak.** Akşam vakti güneş ufkun arkasına çekilip görünmez olmak. *Kaçak Subay ve silah denetimi yapan işgal subaylarının titizliği yüzünden Triestino adlı İtalyan gemisi, İstanbul’dan iki saat gecikmeyle ayrıldı.* ***Gün batmak*** *üzereydi.*

Ko‘z tegdi. Kimga yoki nimaga ko‘zikmoq. ***Ko‘z tegmasin****. Ajoyib kelinginam bor-da...*

Göz (nazar) değmek. Uğursuzluk, kötülük getirdiğine inanılan kıskanç ya da hayran bakışlar dolayısıyle fena bir duruma düşmek. krş. “Şeytan kulağına kurşun”. *Zira bu renkteki boncuk, mavi bir gözü temsil eder, o da* ***nazarı değecek*** *kem göze karşı koyacak bir göz hizmetini görür ve onun şerrini önler.*

Oralar(i)dan ola mushuk o‘tdi. Kimlarning o‘zaro normal munosabati yomonlashdi. *Ana shundan beri qishloqda rais bilan Erkinning oralaridan* ***ola mushuk o‘tgan*** *degan duv-duv gap.*

Aralarından kara kedı geçmek. İki dostun arasına soğukluk girmek; iki dost birbirine gücenmek, krş. “Araya söğukluk girmek”. ***Bazen annemle babamın sesleri yükselir, öfkelerine, kızgınlıklarına bakıp bakıp, en yakınların arasında bile bir kara kedi olduğuna*** hükmederdim.

Pichoq suyakka yetdi. Ortiq chidab bo‘lmaydi. *Nisobuvi* ***pichoq borib suyagiga tekkandan*** *keyin qizlarini internatga berishni ham o‘yladi.*

Bıçak kemığe dayanmak. Çekilen zahmet artık dayanılamayacak kerteye ulanmak. “Canına tak demek”. Çünkü bu çağrıyı alan gerçek asker ***bıçağın ordunun kemiğine dayandığını*** *anlar.*

Ko‘z(i) qamashdi. 1. Nur aks etib, ko‘zi hech narsani ko‘rmadi. **2.** Go‘zalligiga, ko‘pligiga mahliyo bo‘lmoq. *Tabiiy, hammadan Nurining uyi hashamatli: qiymatli jihozlar bilan magazinday yasatilgan, ko‘rgan odamning* ***ko‘zi qamashadi****.*

Göz kamaştırmak. 1. Keskin ışık, gözü bir süre göremez duruma getirmek. **2.** Güzellik ya da başarı, görenleri hayran bırakmak. *Debdebeleri, saltanatlarıyla birtakım görgüsüz, ehemmiyetsiz insanların* ***gözünü kamaştırmaktan*** *zevk alan, kaba birtakım “Ne oldum” delileri.*

Bo‘lar ish bo‘ldi, bo‘yog‘i sindi. **Endi o‘zgartirib, avvalgi holatga qaytarib bo‘lmaydi.** ***Bo‘lar ish bo‘ldi, bo‘yog‘i sindi.*** *Ixtiyor o‘zingda, agar shu gapni ko‘chaga chiqaraman desang, mayli, chiqar, lekin o‘ylab ish qil!*

Olan oldu. Oldu olacak. *“Böyle panik yapman hiçbir şeye yaramayacak, bir kere olan oldu. Karışmazsin olur biter”.*

Ko‘z(i) ko‘z(i)ga tushdi. [Kimning] kimnikiga ko‘z qarashlari bir daqiqa duch keldi. *Saida stolga tirsaklanib, ikkala qo‘li bilan boshini ushlab o‘tirgan edi, Qalandarovning* ***ko‘zi ko‘ziga tushishi*** *bilan ikki marta tilini ko‘rsatdi.*

Göz göze gelmek. Bakışları karşılaşmak. *Bu kargaşalık içinde Celalettin Arif ile Mustafa Necati Beyler* ***göz göze geldiler,*** *bir an kararsız kaldılar, sonra koştular ve kucaklaştılar.*

Ko‘z[lar](i) qinidan chiqib ket[a yoz]di. **Kimning 1. G‘azabi ko‘zida aks etib, ko‘zi chaqchaydi. 2. Hayrati ko‘zida aks etib, ko‘zi chaqchaydi.** *Ostonaqul butun bo‘lgan voqeani so‘zladi. Shoshqol domlaning* ***ko‘zi qinidan chiqib ketayozdi****. // Tuproqqa qorishgan kallalar, uzilgan qo‘llar, yerda cho‘zilgan olachipor ichaklarni ko‘rarkan, uning* ***ko‘zlari qinidan chiqayozdi****.*

Gözleri evından (yerinden) fırlamak. Gözlerini gereğinden çok açıp aşırı öfkesini göstermek. *Gördüğü şeyin dehşetinden* ***gözleri dışarı fırlayan*** *Hacı Kasabın önüne: -Al bakalım, şu diyetini verdiğin şeyi! diye hızla fırlattı.*

Og‘z(i)ning suvi keldi. Kimning **1.** Til osti bezlari mo‘l-ko‘l so‘lakay ishlab chiqardi **2.** Nimaga erishish, ega bo‘lish tuyg‘usi uyg‘ondi. *Mana shu lazzatli taomlarning nomlarini tilga olib, bir huzur qilmoqchi edi, lekin* ***og‘zining suvi*** *kelib, palovga ham o‘tmasdan sanashni somsada tugatdi.*

Ağzının suyu akmak. Çok beğenip İmrenmek, krş. “Ağzı sulanmak”. *Buna mukabil genç kadınların* ***ağızlarının suyu akıyordu.*** */ Omuzlarına tırmaşan bu yarı çıplak... Anlatırken* ***ağzım sulanıyor.***

Qush uchsa – qanot(i), odam yursa – oyog‘(i) kuyadi. Aslo chidab bo‘lmaydigan darajada issiq, jazirama. ***Qush uchsa– qanoti, odam yursa– oyog‘i kuyadi*** *bizning qirlarda.*

Kuş uçmaz, kervan geçmez. Kimsenin uğramadığı ıssız, sapa, sarp yer. *Maarif Müdürü’nün sözleri üzerine şık bir Avrupa köyü gibi görmeye başladığım Zeyniler’e gelince, dağlar arasında* ***kuş uçmaz, kervan geçmez*** *bir yermiş! Bir seneden beri boş olduğu halde en düşkün muallimler bile oraya gitmeye yanaşmıyorlar mış.*

Xulosa. Biz Sh.Rahmatullayevning qarashlaridan borib, leksema, morfema atamasiga mutanosib ravishda frazeologik birliklarga nisbatan frazema ata-

masini qo‘lladik. Dunyoda mavjud barcha xalqlar tilida frazemalar keng qo‘llaniladi. Jumladan, ikki qardosh til o‘zbek va turk tili ham frazemalarga boy til hisoblanadi. Va har ikki tilda tilshunos olimlar tomonidan frazemalar atroflicha o‘rganilgan va bugungi kun talabi bo‘yicha ham tadqiq qilinmoqda. Tildagi rivojlanish va yuksalishning bir qismi frazemalarga ham borib taqaladi. Bugungi fan-texnika asrida tilni kompyuter tiliga aylantirish maqsad qilingan ekan, frazemalarning parallel korpusini yaratish bu yo‘ldagi samarali ishlardan biri hisoblanadi. Bu nafaqat tilshunoslar, balki tarjimashunoslar uchun ham kerakli manba bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aksoy, Ö. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, 2. Deyimler Sözlüğü. Ankara: Türk dil kurumu, 1984 y. 580 s.
2. Архангелский В.Л. Замонавий рус тилида барқарор иборалар. Ростов: Изд-во. Рост.ун-та., 1964.314 -бет.
3. Кенесбаев С.К. Қозоқ тилидаги фразеологик бирликларнинг айрим ўзига хос хусусиятлари тўғрисида. Известия АН Қозоғистон ССР. Филология ва санъат туркуми, 1954, жилд. 1-2, 6-27- бетлар.
4. Одилов М.И., Вердиева З.Н., Агаева Ф.М. Изоҳловчи лингвистик атамалар. Боку: Маариф, 1989. 358-бетлар.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. 380- бет.
6. Холмурадова Л.Э. Инглиз ва француз тилларида образли ва мотивлашган фразеологизмларнинг тематик-идеографик талқини (Лингвомаданий аспект). Филол. фан. б. фалс. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2017. 50- бет.
7. Шанский Н.М. Замонавий рус тилининг фразеологияси. – М: Олий мактаб, 1985. –160-бет.

Latofat RUSTAMOVA,
QarDU Lingvistika kafedrasi o‘qituvchisi

INGLIZ TILIDA SO‘Z BIRIKMALARI VA ULARNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK TAHLILI

Annotatsiya: maqolada ingliz tilidagi so‘z birikmalari va ularning turlari tahlil qilingan.So‘z birikmalarining kommunikativ ahamiyati va ularning tilshunoslikdagi o‘rni yoritilgan.Shuningdek ingliz tilidagi so‘z birikmalari hamda idiomalarning kontekstdagi pragmatik ma’nolari misollar bilan ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *so‘z birikmalari, grammatik jihat, kommunikativ tahlil, pragmatik tahlil, so‘z birikmalari turlari.*

Annotation: the article analyzes English collocations and their types. The communicative significance of collocations and their place in linguistics are highlighted. The pragmatic meanings of English collocations and idioms in the context are also revealed with examples.

Key words: *collocations, grammatical aspect, communicative analysis, pragmatic analysis, types of phrases*

Аннотация: в статье проанализированы английские словосочетания и их виды. Освещено коммуникативное значение словосочетаний и их место в языкознании. Также на примерах раскрываются прагматические значения английских словосочетаний и идиом в контексте.

Ключевые слова: *словосочетания, грамматический аспект, коммуникативный анализ, прагматический анализ, типы словосочетаний*

Kirish. So‘z birikmalari grammatik, semantik va pragmatik jihatdan boy ma’noga ega bo‘lganligi uchun ingliz tilida ular tilning muhim qismi bo‘lib hisoblanadi. So‘zlar bir-biriga bog‘lanib, ularning muloqotdagi samaradorligi ortadi. Tilshunoslikda so‘z birikmalarining kommunikativ va pragmatik tahlili nafaqat til o‘rganuvchilarga so‘zlarni to‘g‘ri ishlatishda yordam beradi, balki ularning madaniy jihatlarini ham ochib beradi. Ushbu maqola so‘z birikmalarining nazariy asoslarini ko‘rib chiqib, ularning kommunikativ va pragmatik nuqtayi nazardan qanday qo‘llanishini tahlil qiladi.

Sinclair va boshqa olimlarning tadqiqotlari asosida so‘z birikmalarining kommunikativ roliga chuqurroq yondashiladi [7]. Til o‘rganishda va o‘rgatishda so‘z birikmalarini to‘g‘ri ishlatish o‘quvchilar uchun nafaqat grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzishni, balki madaniy kontekstda ham to‘g‘ri muloqot qilishni ta’minlaydi [5].

So‘z birikmalarining turi va strukturasiga nazar.

So‘z birikmalari tilning muhim tarkibiy qismidir, ularning tuzilishi va ma’nosi tilda ko‘plab kommunikativ vazifalarni bajaradi. Firth (1957) so‘z birikmalarini “tilning ma’no birliklari” sifatida tasniflaydi.Bu birliklar bir-biridan alohida

olingan so‘zlar orqali yangi ma’no hosil qiladi va shu tariqa muloqotda samaradorlikni ta’minlaydi

Ingliz tilida so‘z birikmalari ko‘pincha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan ma'nolar tizimini hosil qiladi.Sinclair (1991) bu birikmalarning umumiy qonuniyatlarini aniqlab, ularning semantik jihatdan murakkab bog‘lanishini ko‘rsatadi [7]. So‘z birikmalari turli shakl va tuzilmaga ega bo‘lib, ular grammatik va semantik tahlilda ham turlicha tavsiflanadi.

So‘z birikmalari grammatik struktura va turiga qarab quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi:

1. Fe’l + Ot (Verb + Noun)

Bu so‘z birikmalari harakatni yoki jarayonni ifodalaydi va ularning ko‘plab ko‘rinishlari bor. Ular odatda fe’lning ot bilan bog‘lanishi orqali biror jarayon yoki amalni bildiradi. Masalan:

make a decision – qaror qabul qilish

have a look – ko‘z tashlash

Bunday birikmalar grammatik jihatdan fe’l va otning to‘g‘ri bog‘lanishini talab qiladi. Cowie (1981) bu turdagi birikmalarni “erkin birikmalar” sifatida tavsiflaydi, chunki ular boshqa leksik birliklar bilan bog‘lanishda ham o‘z ma’nosini saqlaydi [3: 20].

2. Sifat + Ot (Adjective + Noun)

Sifat va otning birikmasi orqali obyekt yoki hodisaning belgilari tasvirlanadi. Bu turdagi birikmalar ma’lum bir narsa yoki hodisaning xususiyatini ifodalaydi. Masalan:

strong coffee – kuchli qahva

heavy rain – kuchli yomg‘ir

Bu turdagi so‘z birikmalarida sifat va ot o‘rtasidagi bog‘liqlik semantik jihatdan o‘zaro kuchaytiruvchi ta’sir ko‘rsatadi. Hill (2000) sifat + ot birikmalarining kommunikativ qirralariga e’tibor qaratib, ularning til o‘rganuvchilar uchun qiyin bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi, chunki ularning ko‘pi kontekstual va madaniy omillarga bog‘liq bo‘ladi [4].

3. Ot + Ot (Noun + Noun)

Bu birikmalar ikki otning qo‘shilishi orqali hosil qilinadi va odatda ma’lum bir narsani yoki tushunchani belgilaydi. Masalan:

pedestrian area – piyodalar yo‘lagi

needs analysis – ehtiyojlarni tahlil qilish

Bu turdagi so‘z birikmalari o‘zaro izchillikni saqlab, ko‘p hollarda birgalikda qo‘llaniladi. Ular ko‘pincha ilmiy, texnik yoki biznes terminologiyasida uchraydi. Sinclair (1991) bunday birikmalarning murakkabligi va ularning ma’no jihatidan qamrab oladigan sohalarini batafsil tahlil qiladi [7: 195].

4. Fe’l + Predlog (Verb + Preposition)

Bu turdagi birikmalar doimiy ravishda fe’l va predlogning bog‘lanishini talab qiladi. Ular ma’no jihatidan o‘ziga xosdir va kontekstga qarab semantik o‘zgarishlarga duch kelishi mumkin. Masalan:

rely on – tayanch bo‘lish

believe in – ishonish

Bu turdagi so‘z birikmalarining qo‘llanilishi ko‘pincha grammatik jihatdan qat’iydir, ya’ni bu birliklarni boshqa so‘zlar bilan almashtirish mantiqiy bo‘lmaydi. McCarthy (2005) bunday birikmalarni grammatika va leksika oralig‘idagi birliklar sifatida tasniflaydi [6].

5. Fe’l + Ot + Predlog (Verb + Noun + Preposition)

Bu kengroq struktura ko‘pincha biror amal yoki jarayonning to‘liq tavsifini beradi. Masalan:

take care of – g‘amxo‘rlik qilish

pay attention to – e’tibor qaratmoq

Ushbu tuzilmalar ko‘pincha rasmiy muloqotda uchraydi va ularning murakkabligi ularning to‘g‘ri ishlatilishiga alohida e’tibor talab qiladi. Hill (2000) bu turdagi birikmalarni til o‘rganuvchilar uchun qiyin leksik birliklar sifatida qayd etadi [4].

So‘z birikmalarining kommunikativ tahlili.

So‘z birikmalarining kommunikativ funksiyasi ularning muloqotdagi roli bilan bog‘liq. Muloqot jarayonida so‘z birikmalari orqali ma’no va maqsad aniq ifodalanadi. Leech (1983) o‘zining pragmatika nazariyasida tilning kontekstual qo‘llanilishiga e’tibor qaratadi.Uning fikricha, so‘z birikmalarini qo‘llash kontekstiga qarab turlicha bo‘lishi mumkin .

Masalan, “make a decision” va “take a decision” birikmalari ko‘pincha sinonim sifatida ishlatiladi. Biroq, ular muloqot kontekstiga qarab, har xil kommunikativ yukni olib kelishi mumkin.Bunday hollarda tilshunoslar so‘z birikmalarining kontekstual va kommunikativ tahlilini chuqurroq o‘rganadilar [6].

Pragmatik tahlil va kontekstda so‘z birikmalarining qo‘llanilishi

Austin (1962) va Searle (1969) ning nutq aktlari nazariyasi pragmatikani tushunishda muhim ahamiyatga ega. Ular nutqdagi har bir harakatning ma’nosi va maqsadini tushuntiradi, bu esa so‘z birikmalarining muloqotdagi o‘rnini aniqroq belgilashga yordam beradi [1].

Shuningdek, Hill (2000) ta’kidlaydiki, pragmatika kontekstda to‘g‘ri so‘z birikmalarini tanlashni taqozo qiladi. Masalan, “give a hand” iborasi so‘zma-so‘z tarjima qilinganda o‘z ma’nosini yo‘qotadi, lekin pragmatik kontekstda bu “yordam berish” ma’nosini anglatadi [3: 20].

Idiomalarda bu hodisa yanada aniqroq ko‘rinadi. Frazeologik iboralar ko‘pincha so‘zma-so‘z tarjima qilinganida o‘z ma’nosini yo‘qotadi, lekin ular madaniy kontekstda alohida o‘rin tutadi. Fernando (1996) frazeologik iboralar va so‘z birikmalarining pragmatik kontekstdagi muhimligini tahlil qiladi [2].

So‘z birikmalarining madaniy va ijtimoiy ahamiyati

So‘z birikmalari ko‘pincha madaniy tushunchalarni ifodalaydi.Masalan, ingliz tilidagi “small talk” iborasi muloqotda kichik suhbatlar va ijtimoy interaksiyalarni bildiradi. Bu turdagi so‘z birikmalarini to‘g‘ri tushunish va qo‘llash uchun madaniy bilimlar muhimdir [3].

McCarthy va O‘Dell (2005) ingliz tilidagi so‘z birikmalarining madaniy jihatlarini tahlil qilib, ularning muloqot jarayonida qanday ishlatilishini batafsil

bayon qilgan. Ularning asarlarida madaniyatlararo muloqotda so‘z birikmalarining kommunikativ ahamiyati keng o‘rganilgan [4].

Xulosa. So‘z birikmalari til o‘rganish va o‘qitishda muhim vosita hisoblanadi.Ular grammatik va semantik jihatdan tilni boyitadi va kommunikativ samaradorlikni oshiradi. Tilshunoslar so‘z birikmalarining kommunikativ va pragmatik tahlilini chuqurroq o‘rgangan holda, til o‘rganish jarayonida ularni to‘g‘ri qo‘llashni ta’minlashlari mumkin.So‘z birikmalarining madaniy va ijtimoiy qirralarini o‘rganish esa til o‘rganishning yanada boy va mazmunli bo‘lishiga xizmat qiladi [2:68].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. – Oxford: Oxford, University Press.
2. Fernando, C. (1996). Idioms and Idiomaticity. –Oxford: Oxford University Press.
3. Firth, J. R. (1957). Papers in Linguistics 1934-1951. – Oxford: Oxford University Press.
4. Leech, G. N. (1983).Principles of Pragmatics. –London: Longman.
5. Lewis, M. (2000).Teaching Collocation: Further Developments in the Lexical Approach. –London: Language Teaching Publications.
6. McCarthy, M., & O‘Dell, F. (2005). English Collocations in Use. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Sinclair, J. (1991).Corpus, Concordance, Collocation. –Oxford: Oxford University Press.

Mexriban TANGIRBERGENOVA,
Nukus davlat pedagogika instituti
Pedagogika kafedrasi assistent o‘qituvchisi

MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISH MAZMUNINING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada mustaqil ta’limni tashkil etish mazmunining pedagogik asoslari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *mustaqil ta’lim, talaba, o‘qituvchi, pedagogika, dars jarayoni.*

Аннотация: в данной статье говорится о педагогических основах содержания самостоятельного обучение

Ключевые слова: *самостоятельное обучение, ученик, учитель, педагогика, учебный процесс.*

Annotation: this article talks about the pedagogical foundations of the content of independent learning.

Key words: *independent learning, student, teacher, pedagogy, educational process.*

Mustaqil ta’lim – bu mohiyatiga ko‘ra o‘qituvchi nazorati ostida o‘quv jarayonining bir qismi sifatida amalga oshiriladigan, rejalashtirilgan, individual yoki jamoaviy o‘quv va ilmiy ish hisoblanadi. Mustaqil ta’limga o‘quv faoliyatining eng yuqori shakli sifatida qaraladi, u tabiatan uzviy bo‘lib, aslida o‘z-o‘zini tarbiyalash shaklidir. Ta’lim jarayonlarini yangicha yondashuvlar asosida tashkil qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, degan fikrlari ham mustaqil O‘zbekistonimiz yoshlarini erkin fikrlashni tarkib toptirishga qaratilayotgani ham e’tibordan holi emas. Shunday ekan bo‘lajak o‘qituvchilar hozirgi yangi davr talabi asosida darslarni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilishi yuksak vazifalardan biridir. [1.]

Hozirgi kunda har bir darsni tashkil qilish pedagoglardan innovatsion yondashuvni taqozo etmoqda. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ta’lim jarayonini to‘g‘ri va oqilona tashkil qilinishi muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil ta’lim mavzusi talabalar mustaqil o‘rganadigan ma’ruza va seminar mashg‘uloti mavzularidan iborat bo‘ladi.

Mustaqil ta’lim – bu ta’lim shakli bo‘lib hisoblanadi. Mustaqil tadqiqotlar yaxshi motivatsiyaga ega bo‘lgan talabalarga an’anaviy akademik dasturga mos kelishi shart bo‘lmagan, lekin talabani qiziqtirgan mavzuni o‘rganishiga imkon beradi.Bu talabalarga maxsus materiallarni o‘rganish yoki tadqiqot tajribasini olish imkonini beradi. [3].

Mustaqil tadqiqotlar talabalarga o‘z qiziqishlarini chuqurroq o‘rganish va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Mustaqil ta’limni tushunishning yana bir usuli –

masofadan turib o‘rganishni tushunish. Masofaviy o‘qitish – bu nazariya bo‘lib, talaba o‘qituvchisidan aqliy yoki jismoniy uzoqlikdagi masofada joylashgan bo‘ladi. Bunda talaba va o‘qituvchi ish varag‘i, insho yoki internetdagi veb-sayt kabi narsalar bilan bog‘langan bo‘ladi. [2]

Mustaqil ta’lim bo‘lajak o‘qituvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, mavzularni tushunishga, qobiliyatini maksimal darajada rivojlanishiga, umumiy dunyoqarashni kengaytirishga yordam beradi.

Mutaxassislar tayyorlash tizimini tubdan qayta qurishda, o‘quv- tarbiya jarayonining ahamiyatini oshirishda talabalarning mustaqil ishlari muhim o‘rin egallaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mustaqil ta’lim deganda shunday o‘quv faoliyati tushuniladiki, unda bilimlar egallanishi bilan birga, ko‘nikmalar shakllantirish ham mustaqil tashkil etilishi ta’minlanadi. Bu esa amaliyotda xususiy-didaktik maqsadlarga bog‘liq ravishda 4 ta mustaqil ish tipida amalga oshadi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining birinchi turi – bu sirtdan qaraganda faoliyatning algoritmi ma’lumotlari va vazifalar sharoitidan iborat ya’ni dastlabki bilimlarning (bilimlarning birinchi bosqichi) shakllanishi omillari asosida talabalarda shakllanadigan va ulardan talab qilinadigan malakalarni aniqlashdir. Bu maqsadga yetish uchun talabalar tomonidan idrok qilinadigan vazifalarni yechish zarurligi ko‘zda tutiladi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining ikkinchi tipi – bunda o‘zlashtirilgan axborotlar xotirada qayta ishlashga va tipik vazifalarni, ya’ni bilimlarning ikkinchi bosqichini bajarishga qaratilgan bilimlar shakllanadi.

Mustaqil ishlarning ikkinchi tipi barcha turlarining umumiy tavsifnomasi shundaki, bunday ishlarda vazifalarning hal qilinish g‘oyasi (tamoyili) e’lon qilinadi, talabalardan ushbu g‘oyani (tamoyilni) rivojlantirib, konkret sharoitga tatbiq etish usul va usullari talab qilinadi.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining uchinchi tipi talabalarda uchinchi bosqich – tipik bo‘lmagan vazifalarni bajarish chog‘ida shakllanadigan bilimlardan iboratdir.

Bu maqsadga talabalardan o‘rganilayotgan obyektdagi o‘zgarishlar sabablarining algoritm asoslarini tuzishni talab qiladigan bilish (idrok qilish) masalalarini yechish jarayonida erishish mumkin.

Mustaqil ishlar xususiy-didaktik maqsadining to‘rtinchi tipi ijodiy faoliyatga omillar yaratishdir. Bunday ishlarni bajarishdagi talabalarning bilish faolligi shundan iboratki, bunda talabalar muhokama qilinayotgan obyekt mohiyatiga tobora chuqur kirib boradi, zarur bo‘lgan yangi, oldindan noma’lum bo‘lgan g‘oyalarni topish va yangi axborotlarni yuzaga keltirish tamoyillarini hal qilish uchun zarur bo‘lgan yangi aloqalar munosabatlarni o‘rnatadi. Bunda talaba vazifalarni bajarishning har bir bosqichida o‘zi yaratishi lozim bo‘lgan, uning uchun yangi bo‘lgan harakatlar mohiyati, u yoki bu axborot xarakteri ustida bosh qotirishga majbur bo‘ladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda mustaqil ishlarning quyidagi turlari qayd qilinadi:

namunalar bo‘yicha mustaqil ishlar;

rekonstruktiv-variativ;

evristik (qisman, ijodiy);

Mustaqil ishlar tipik vazifalarni, turli mashqlarni namuna asosida yechishdir.

Ular materialni o‘zlashtirishga omil bo‘ladi, lekin talabalarning ijodiy faolligini o‘stirmaydi.

Rekonstruktiv-variativ mustaqil ishlar nafaqat bilimlarning amaliy tavsifnomasini, balki bilimlar tuzilmasini qayta ishlab chiqishni, masala, muammoni yechishda mavjud bilimlarni jalb qilishni ko‘zda tutadi.

Evristik mustaqil ishlar leksiya, laboratoriya, amaliy mashg‘ulotlar, seminarlarda qo‘yilgan ayrim masala, muammolarni hal qilish bilan bog‘liqdir.

Tadqiqiy mustaqil ishlar tadqiqot muammosini ko‘ra olish malakasini, uni mustaqil ifodalay olish, farazni belgilab olish, muammoning hal qilinish rejasini ishlab chiqish, uni hal qilishni mo‘ljallaydi.

Ijodiy tadqiqot ishlari. Bunday ishlarda vazifa muammoli vaziyatning yuzaga kelishini taqozo qiladigan sharoit yaratishdan iborat bo‘ladi. Talaba o‘z faoliyatida tayyor namunalardan ozod bo‘lgan holda masalaning hal qilinish yo‘llarini qidiradi, tadqiq qiladi. Bunday ishlar sirasiga eksperiment qo‘yish, jihozlar, maketlar va dastgohlarni loyihalash bilan bog‘liq bo‘lgan vazifalar kiradi.

Shunday qilib, mustaqil ishlar o‘qitishning eng muhim metodi bo‘lib, unda talabalar mashg‘ulotlarga tayyorlanish, olingan bilim, malaka va ko‘nikmalarni mustahkamlash jarayonida ularning individual faolligi oshadi.

Mustaqil ishlarni samarali tashkil etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

1)mustaqil ishlarning ilmiyligi, uning tadqiqiy xarakteri;

2)mustaqil ravishda o‘z bilimlarini yanada oshirib borishga bo‘lgan ehtiyojning shakllanishi;

3) mustaqil ishlar vazifalarini individuallashtirish;

4) mustaqil ishlarni tashkil etishga metodik rahbarlik qilish.

5) mustaqil ta’lim jarayoni uning aniq shakli, metodlari va usullarini qamrab olishi shart.

Mustaqil ta’limning asosiy metodi adabiyotlar ustida individual ishlashdir. Bu metod axborotlar oqimida eng muhim axborotni topish, unga to‘g‘ri baho berish, ushbu axborotdan o‘zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi. Qo‘lga kiritilgan axborotlar asosida mustaqil mashq qilish metodlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu metoddan foydalanish amaliy faoliyatida zarur bo‘ladigan sifat ko‘rsatkichlarini

ta’minlaydi.

Shuningdek, mustaqil ta’limga amaliy ahamiyatga molik bo‘lgan vazifalarni bajarish va audiovizual uskunalar bilan ishlash ham kiradi. Mustaqil ta’limning muhim metodlaridan biri ularning muloqotidir. Mustaqil ta’limning pirovard maqsadi talabalarni ijodiy izlanishga, o‘zi ustida ishlash, har tomonlama tadqiqot yuritishning mohiyatini anglashga tortishdir.

Xulosa qilib aytish lozimki, mustaqil ta’lim mazmunini tashkil qilish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish o‘zaro bog‘liqdir. Mustaqil ta’lim bo‘lajak o‘qituvchilarda erkin fikrlashga, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashishga ega bo‘lgan qobiliyatlarni shakllantirishga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.56-b.

2. Azizov U. Kredit - modul tizimi va uning o‘ziga xos xususiyatlari. http://uzbekistonovozi.uz/uz/articles/index.php. ECTION ID=161&ELEMENT

3. Хендерсон, Юан. С. (1984). «Введение: теоретические взгляды на образование взрослых». В Хендерсоне, Юан. S .; Натенсон, Майкл Б. (ред.). Самостоятельное обучение в высшем образовании . Энглвуд Клиффс, Нью-Джерси: Публикации по образовательным технологиям. С. 3– 56. ISBN 978-0-87778-188-2. Проверено 25 мая 2013 года .

4. Ziyomuhammadov B. Abdullayeva Sh. Pedagogika. –T.: O‘qituvchi, 2000. 126-b.

5.Слобадчиков В.И. Инновационное образования. //Ж. Школьные технологии. 2005. -№2. -4-12-с.

Muxabbat MIRAZIMOVA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Maktabgacha ta’lim” metodikasi
kafedra o‘qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BILISH KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA INDUKTIV TA’LIM USULLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya:maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda, ularni kelajakda yetuk shaxs sifatida kamol topishida albatta tarbiyachilarning o‘rni katta. Shunday ekan bolalarning bilish kompetentligini shakllantirishda induktiv ta’lim usullaridan foydalanish, bolalarning yangi zamon ruhida tarbiyalanishida, ularning yetuk mutaxassis bo‘lib yetishida asosiy omil bo‘ladi. Ushbu maqolada shu fikrlarning asosini ko‘rib chiqish mumkin.

Kalit so‘zlar: *kompetentlik, bola tarbiyasi, induktiv usul, sog‘lom bola, komil inson, ma’naviy muhit, oilaviy munosabatlar, shaxs kamoloti, aql-idrok, samimiylik*

Аннотация:роль воспитателей, безусловно, велика в воспитании дошкольников, в их дальнейшем взрослении как зрелых личностей. Таким образом, использование индуктивных методов обучения в формировании познавательной компетентности детей является ключевым фактором воспитания детей в духе нового времени, их становления зрелыми специалистами. В этой статье можно рассмотреть основы этих моментов.

Ключевые слова:*семья, воспитание ребенка, манеры, здоровый ребенок, совершенный человек, духовная среда, семейные отношения, развитие личности, интеллект, искренность.*

Annotation:the role of caregivers is of course great in raising preschool children, in maturing them as a mature person in the future. Therefore, the use of inductive educational methods in the formation of competency of knowledge of children is a key factor in the upbringing of children in the spirit of a new time, in the development of them as mature specialists. The basis of these points can be considered in this article.

Key words: *family, child upbringing, manners, healthy child, perfect person, spiritual environment, family relations, personality development, intelligence, sincerity.*

Kirish. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim – tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik ta’lim usullaridan foydalanish, ta’lim tashkilotlarni zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan tarbiyachilar bilan to‘ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohatlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlariga, jumladan uning maktabgacha ta’lim bosqichiga e’tibor ortib borishi bilan bir qatorda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha yoshdagi ta’lim muassasalariga jalb etish ulushi kamayib borishi bu borada maqsadli tadqiqotlar olib borish mamalakatimiz ilmiy texnikaviy dasturi, ustuvor tadqiqotlar yo‘nalishlarining bir qismi sifatida qaralishi mumkin. Zero, ta’kidlab o‘tganimizdek, uzluksiz ta’lim bosqichlarining samarali ishlashi ma’lum darajada maktabgacha ta’lim sifatiga bog‘liq, bu davrda bolaning dunyoqarashi, tasavvurlari shakllanib bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim tizimi bolalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu davrda bolalar o‘z atrofidagi dunyoni anglash, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda faol qatnashadilar. Induktiv ta’lim usullari bu jarayonda juda samarali vosita sifatida ko‘rinadi, chunki ular bolalarning o‘z fikrlarini shakllantirish va mustaqil o‘rganishlariga yordam beradi.

Asosiy qism.O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish” kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan. Shunga muvofiq interfaol o‘qitish metodlari asosida maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi[1].

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishda, bilish kompetentligini shakllantirishda induktiv ta’lim usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bola shaxsini har tomonlama hayotga tayyorlash, idrok etish, sog‘lom fikrlash, tanqidiy fikrlash, hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan, axloqiy me’yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, aqliy rivojlantirish, muloqot qilish, bolaning “Men” ini shakllantirishga yordam beradi va asos bo‘lib xizmat qiladi. Bilish kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq subyekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi.

Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanishdir.

Bilish kompetentligi, ya’ni bolalarning o‘zlarini atrof-muhitda erkin his qilishlari va yangi bilimlarni egallash qobiliyati, maktabgacha ta’limda muhim vazifalardan biridir. Induktiv ta’lim usullari yordamida bolalar:

1. Kuzatish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bolalar turli misollar orqali muayyan hodisalarga e’tibor berishadi va ularni o‘rganishga harakat qiladilar.

2. Mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradilar. O‘zlari o‘z kuzatishlari asosida xulosa chiqarish orqali, bolalar mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradilar.

3. Qiziqishni oshiradilar. Turli tajribalar va eksperimentlar orqali bolalarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi ortadi, bu esa ularning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish kompetentligini shakllantirishda induktiv ta’lim usullaridan foydalanish pedagogikaning qiziqarli, ijodiy, istiqbolli yo‘nalishidir. Bu ularning pedagogik va psixologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi. Bolalarning tizimli bilish kompetentligini shakllantirishda metodlardan foydalanish butun dunyo bo‘ylab dunyodagi bolalar haqidagi bilim va taqdimotni boyitishga imkon beradi, tengdoshlar va kattalar bilan munosabatlar haqida bolalarni ijtimoiy munosabatlar tizimida faol munosabatda bo‘lishga undaydi.

Bolalar ham xuddi katta odamlar singari doim ma’lum faoliyat bilan mashg‘ul bo‘ladilar. Bolalar faoliyatining asosiy maqsadi bilib olish, o‘rganishga asoslanadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagogik jarayonida ta’lim muhim ahamiyat kasb etadi va kundalik hayot, o‘yin, mehnat, faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Faoliyatlar bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ularning bilim ehtiyojlarini qondirish sifatida g‘oyalar, ko‘nikma va qobiliyatlarni egallashiga yordam beradi. Bolalar odatda o‘zlari mustaqil ravishda u yoki bu faoliyatni bajaradi va ma’lum natijaga ega bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyatining natijasi ularning tizimli bilish kompetentligiga qarab induktiv ta’lim usullaridan foydalanish orqali o‘rganiladi.


Induktiv ta’lim, ma’lum bir konsept yoki qoidani umumiy misollar orqali o‘rgatish usuli hisoblanadi. Bu yondashuv bolalarga aniq misollardan umumiy qonuniyatlarni chiqarishga imkon beradi. Induktiv ta’lim jarayonida bolalar faqatgina o‘qituvchidan ma’lumot olmasdan, balki o‘z tajribalaridan foydalanish, kuzatish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘qitishning induktiv usuli – pedagog tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning turli mashg‘ulotlardagi faoliyatidir. Bunda pedagog tarbiyachi avval dalillarni tushuntiradi, tajribalarni, ko‘rsatmali qo‘llanmalarni namoyish qiladi, umumlashtirish va tushunchalarni ta’riflash bo‘yicha mashqlar bajarishni tashkil etadi. tarbiyalanuvchilar oldin mavzu yuzasidan bilimlarni o‘zlashtiradilar, keyin xulosalar chiqaradilar va o‘quv materialini umumlashtiradilar.Yoki tarbiyalanuvchilar oldiga xususiy qoidalardan umumiy xulosalargacha mustaqil mushohada yuritishni talab qiladigan muammoli topshiriqlar qo‘yiladi. Tarbiyalanuvchilar esa dalillar ustida mustaqil holda fikrlaydilar va tegishlicha xulosalar chiqaradilar hamda umumlashtirish qiladilar.

Induksiya maktabgacha ta’lim faoliyatlar jarayonida keng qo‘llaniladi. Ko‘pgina o‘quv matnlari va tarbiyachi pedagogning tushuntirishlari induktiv turga ko‘ra tuzilgan. Maktabga tayyorlov guruh bolalari hali dunyo

haqida ozgina bilimga ega bo‘lganlarida, tabiat va jamiyat hayotidan turli faktlar bilan tanishtirish foydali bo‘ladi, chunki u bolaning tajribasini boyitadi, kuzatish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish kompetentligini shakllantirishda induktiv ta’lim usullaridan foydalanganda pedagog tarbiyachi dastlab faktlarni bayon qiladi, tajribalar, ko‘rgazmali qurollarni namoyish etadi, mashg‘ulotlarni tashkil qiladi va asta-sekin tarbiyalanuvchilarni umumlashtirishga, tushunchalarni ta’riflashga, qonunlarni shakllantirishga olib boradi.Ular birinchi navbatda ma’lum faktlarni o‘zlashtiradilar, so‘ngra ma’lum bir xarakterdagi xulosalarni umumlashtirdilar. Bunday o‘quv va ta’limning asosiy vazifalari:



Induktiv o‘qitish usullarining zaif tomoni shundaki, ular yangi materialni o‘rganish uchun deduktiv usullardan ko‘ra ko‘proq vaqt talab etiladi. Ular mavhum fikrlashni rivojlantirishga kamroq hissa qo‘shadilar, chunki ular aniq faktlar, tajribalar va boshqa ma’lumotlarga asoslanadi.

Yuqoridagi mulohazalar asosida aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish kompetentligini shakllantirishda induktiv ta’lim usullaridan foydalanish bilim olishning tayanchi hisoblanadi. Induktiv ta’lim usullari maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish kompetentligini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.Ular bolalarning o‘ziga xos fikrini rivojlantirish, kuzatish va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, shuningdek, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu usullarni amaliyotda qo‘llash orqali, bolalar nafaqat bilimga ega bo‘lishadi, balki kelajakda mustaqil fikrlovchi shaxslar sifatida o‘sish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017-y.6-son 70-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.12.2020-yil 802-son Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti.

3. Asqarova D.Q. Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi. –Toshkent, 2020-y.

Movludaxon NURIDDINOVA,
QDPI stajyor o‘qituvchisi
mnuriddinova1992@mail.ru

TILSHUNOSLIKDA REALIYA TUSHUNCHASI TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada tilshunoslikning lingvokulturologiya sohasida keng o‘rganilayotgan “realiya” atamasi va tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar muhokama qilinadi. Lingvistik realiyalarni tarjima qilish, madaniyatlararo muloqotda ko‘pincha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Tilshunoslikda realiya atamasini yoritish uchun avvalambor xalq turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlari, xalq vakillarining dunyoqarashini o‘rganish zarur. Ushbu tadqiqotning ahamiyati shundaki, realiyalarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar, realiyaning lakuna tushunchasidan farqi, tarjima jarayonidagi muammolarni bartaraf etish usullari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *realiya, lingvokulturologiya, lakuna, termin, madaniyat, ekvivalentsiz so‘zlar, tarjima.*

Аннотация: в данной статье рассматривается термин «реалии», широко изучаемый в области лингвистики и культурологии, а также проблемы, возникающие в процессе перевода. Перевод языковых реалии часто создает трудности в межкультурном общении. Для выяснения термина реалии в лингвистике, прежде всего, необходимо изучить образ жизни, культуру, обычаи, мировоззрение представителей народа. Важность данного исследования заключается в том, что освещены проблемы, возникающие в процессе перевода реалии, отличие реальности от понятия лакуна, а также методы решения проблем в процессе перевода.

Ключевые слова: *реалии, лингвокультурология, лакуна, термин, культура, безэквивалентные слова, перевод.*

Annotation: this article discusses the term "realia", which is widely studied in the field of linguistics and cultural studies, and the problems that arise in the process of translation. Translating linguistic realias often creates difficulties in intercultural communication. In order to clarify the term realia in linguistics, first of all, it is necessary to study the people's lifestyle, culture, customs, worldview of people's representatives. The importance of this study is that the problems that arise in the process of translation of realias, the difference between realia and the concept of lacuna, and the methods of solving problems in the translation process are highlighted.

Key words: *realia, linguoculturology, lacuna, term, culture, non equivalent words, translation.*

Til jamiyat bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanadi, eskiradi, yangi so‘zlar muomalaga kiradi. Shunday ekan, tilshunoslikda ham yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ladi. Lingvokulturologiyaning muhim o‘rganadigan obyektlaridan biri bu realiyadir. Realiyaga yonmayon tushuncha sifatida lakuna termini ham ishlatiladi. Ba’zan tilshunoslar realiya va lakunani aynan bir xil tushuncha sifatida qabul qiladilar. Lekin realiya va lakuna aynan bir xil tushuncha emas. Turli tillardagi so‘zlarni, matnlarni solishtirsak, ko‘pincha bir tilning leksik birligi, boshqa tildagi ekvivalentini topa olmasligini ko‘p uchratishimiz mumkin. Bu ayniqsa, madaniyati bir-biriga yot yoki qarindosh bo‘lmagan tillar o‘rtasida ko‘p uchraydi.Til ijtimoiy hodisa ekan, u uzluksiz rivojlanadi, eskiradi, yangi so‘zlar kirib keladi, shu bilan birgalikda, ba’zi tillar orasida o‘zaro farqlari, ya’ni tillarning farqli jihatlari ham vujudga keladi. Bu hodisa zamonaviy tilshunoslikda “lakuna” deb o‘rganiladi. Lakuna bugungi kunda o‘zaro qiyoslanayotgan tillar o‘rtasidagi o‘zaro nomutanosiblik, ya’ni tizimli farqlashda faol ishlatilmoqda. Lakuna lotincha so‘z bo‘lib lakuna-chuqurlashish,tushkunlik, muvaffaqiyatsizlik; fransuzcha lacuna – bo‘shliq.” Lakuna termini ilk bor kanadalik olim J.Vine va J.Darbelnilar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Keyinchalik esa lakuna tushunchasi rus olimlari tomonidan kengroq yoritib berilgan va yangi terminlar bilan boyitilgan. Ushbu ilmiy tadqiqotchilar “Fransuz va ingliz tillarini qiyoslash uslubi” nomli kitobida, shu ikki tilni qiyoslash va solishtirish orqali lakunaga ta’rif berib o‘tishgan : “Bir tildagi so‘zning boshqa tilda muqobili topilmagan o‘rinlarda lakuna hodisasi voqealanadi”. [1]

Lakunalar tillarni bir-biriga qiyoslaganda yaqqol namoyon bo‘ladi.Ayniqsa qarindosh bo‘lmagan tillar o‘rtasida lakuna hodisasi ko‘proq uchraydi. Birgina oila mavzusini ichida qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillar o‘rtasida turli farqliklarni kuzatish mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “step va half” so‘zlari qarindoshlik bildiruvchi so‘zlarga qo‘shilganda o‘zbek tiliga o‘gay deb tarjima qilinadi, aslida esa “step” umuman qarindoshligi bo‘lmagan ma’nosida, “half” esa ona yoki ota tomonidan qarindoshligi borligini anglatish ma’nosida qo‘llaniladi. Masalan: step sister (ona tomondan ham, ota tomondan ham qarindoshligi bo‘lmagan o‘gay opa yoki singil), half sister (ona yoki ota tomonidan qarindoshligi bor o‘gay opa yoki singil).O‘zbek tiliga qarindosh bo‘lgan tillar o‘rtasida amaki – tog‘a, amma - -xola, ona yoki ota tomonidan qarindoshlik jihatdan farqlansa, o‘zbek tiliga qarindoshligi bo‘lmagan tillarda bunday qarindoshlik farqlanmaydi. Masalan, aunt (xola,

amma), uncle (amaki, tog‘a). Yoki o‘zbek tiliga qarindosh bo‘lmagan tillar rus va ingliz tillarida jiyan so‘zi farqlanadi. Aytish joizki, o‘zbek tili va unga qarindosh bo‘lgan qozoq tilida o‘g‘il jiyan va qiz jiyan farqlanmaydi, bunga o‘zbek tiliga qarindosh tillarda rod kategoriyasining yo‘qligi ham sababdir. Rus tili va ingliz tilida esa o‘g‘il jiyan (племянник, nephew), qiz jiyan (племянница, niece), amma yoki amakining qiz va o‘g‘li rus tilida (двоюродный брать, двоюродная сестра), ingliz tilida cousin deyiladi. Bu o‘rinda biz realiyalarni ham aytib o‘tishimiz lozim. Ko‘p hollarda realiya va lakuna aynan bir tushuncha ekanligi aytiladi. Shuning uchun ham realiya lakuna tushunchasi bilan yonma-yon ishlatiladi. O‘tgan asrning 80-yillarida lakuna, realiya va ekvivalentsiz so‘zlar bilan o‘rganilishi natijasida ikki til qiyosida o‘rganiladigan lingvistik hodisalarni tavsiflash va tushuntirishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keldi. Xususan, 1975-yilda yaratilgan V.Muravyevning “Leksik lakunalar (fransuz va rus tili leksikasi misolida)” nomli ishida realiya hodisasi ham lakuna tushunchasi tarkibida qaraldi. Shu bois Muravyev lakunani “Muloqot jarayonida boshqa madaniyat vakili umuman tushunmaydigan yoki to’la tushuna olmaydigan, shu madaniyat vakili tilida o‘z ifodasini topgan milliy-madaniy unsur” sifatida izohlaydi. [2] 1986-yilda e’lon qilingan S.Vlaxov, S.Florinning “Tarjimada tarjimasizlik” kitobida ham realiyalarga lakunaning tarkibiy qismi sifatida qaralgan. Mazkur kitobda lakuna “Muayyan xalqning madaniy, tarixiy, ijtimoiy-maishiy hayoti uchun xarakterli va boshqa xalqlar uchun begona bo‘lgan, o‘sha xalq tilida aniq muqobili bo‘lmagan so‘z” sifatida tushuntiriladi.[3] Shu kabi holatni M.Vereshagin, V.G.Kostomarovning “Til va madaniyat: rus tilini xorijiy til sifatida o‘rganishda lingvomamlakatshunoslik” nomli ishida ham uchratish mumkin. Unda qayd etilishicha, “Tildagi bo‘shliqlarning eng yuqori nuqtasi, odatda, tushunchaning o‘zi mavjud emasligi bilan bog‘liq bo‘lgan, u yoki bu tushunchani ifodalash uchun kerakli ekvivalentning umuman yo‘qligidir”.[4]Rus tilshunos olimlari lakuna hodisasi bilan bir qatorda unga yondosh tushunchalarni ham o‘rgangan. Xususan, I.Sterninning “Leksik lakuna va ekvivalentsizlik tushunchasi” nomli monografiyasida realiyalar va muqobilsiz so'zlarni lakunalardan farqlash lozimligi ta’kidlanadi. Lakunaning ko‘proq qiyosiy tarjima jarayonida sezilishi va aniqlanishi uning ekvivalentsiz so‘z va realiya bilan qorishtirilishiga sabab bo‘ladi. Aslida I.Sterninga qadar bu ikki tushuncha umumlashtirilib, lakuna sifatida qaralgan. Aynan I.Sternin ishlaridan keyin bu lingvistik hodisalarni farqlash ancha ommalashdi. Ekvivalentlik (va unga yondosh ekvivalentsizlik) tushunchasi lakuna termini bilan bir vaqtda paydo bo‘lgan (bu ikki tushuncha ham kanadalik olimlar J.Vine va J.Drabelne tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan). Shuningdek, bir muddat lakuna hodisasi ekvivalentsiz so‘zlar tarkibida tadqiqqa tortilgan va birgalikda o‘rganilgan. [5] Mazkur davrda realiya termini qo‘llanilmagan va bu hodisa ham ekvivalentsiz so‘zlar tarkibida qaralgan. Garchi realiya termini o‘tgan asrning 20-yillarida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, uni lakuna hodisasi bilan qorishtirish va ekvivalentsiz so‘zlarni tavsiflashda munozarali fikrlar bildirilishi hozirgacha davom etib kelmoqda.Aslida realiya muayyan xalq tili va madaniyatigagina xos tushunchadir. Realiyalar muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti, yashash tarzi, dini, urf-odatlari, madaniyati o‘laroq vujudga keladi. Ya’ni realiyalar ma’lum xalqqagina tegishli bo‘lgan va boshqa xalqlarda mavjud bo‘lmagan konseptdir. Lakuna hodisasi esa asosan, tillarni bir-biriga qiyoslash jarayonida seziladi. Lakunaning asosiy farqi, realiya ma’lum xalqqagina xos tushuncha, lakuna esa ma’lum xalq turmush tarzi, madaniyati, dini, tili, urf-odatlarining biror bir xalq tushunchasiga mos kelmasligidir. Realiya va lakunaning eng muhim farqi – lakuna muayyan tilda ifodalanmagan va boshqa tilda ifodalangan tushuncha; uni boshqa til sohiblari osongina tushuna oladi, anglaydi. Realiyani esa tushunish va tasavvur qilish biroz mushkul. Chunki u muayyan millatning urf-odatlari, lisoniy idroki, dunyoqarashi mahsuli sifatida reallashadi. Shu bois u boshqa til (va madaniyat) sohibi uchun notabiiy va g‘ayrioddiy tuyuladi. Realiyani muayyan “xalqning turmush tarzi, madaniyati va urf odatlarini o‘zida aks ettirgan, boshqa xalq va til uchun begona bo‘lgan so‘z” sifatida tushunilishi va tavsiflanishi, bizningcha, eng maqbul yo‘ldir. Realiyadan farqli ravishda, lakuna har qanday millat vakili uchun anglanilishi va qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan sememaning leksemasizligi tarzida tushunilishi bu boradagi izlanishlarda ilmiy mo‘ljalning to‘g‘ri olinishini ta’minlaydi.[6] Realiyaga misollar: tornado, sunnami, kiwi, koala, cockney, lira, ruble. Lakuna hodisasiga esa biz quyidagilarni misol qilishimiz mumkin: o‘zbek tilida vaqtga ishora qiluvchi azon,shom, peshin so‘zlari yoki o‘zbek tilida yuzni ifoda etuvchi “oraz” va chiroyli qomatga ishora qiluvchi “sarv” so‘zlarining ingliz tili uchun lakuna bo‘lishini kuzatish mumkin. Bundan xulosa qilish mumkinki, realiya ma’lum xalqqagina xos tushuncha va bu konseptni boshqa millat va xalqda qo‘llanmasligi. Lakuna esa ma’lum xalq hayotiga, madaniyatiga, urf-odatlariga tegishli so‘zning boshqa xalqlarda ham uchratish mumkinligi, lekin bu konseptlarning boshqa tillarda leksemasizligidir. Shuningdek, M.L.Vaysburd realiyalarga mamlakatshunoslik nuqtayi nazaridan to‘xtalib, shunday ta’rif beradi: “Bu muayyan mamlakat ijtimoiy va madaniy hayoti voqealari, ijtimoiy korxona yoki tashkilotlarning nomlari, kundalik buyum nomlari, tarixiy shaxslar nomlari va yana boshqa ko‘plab narsalar nomlaridan iborat”.[7]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismatullayeva.N. Xitoy va o‘zbek tillarida lakunalarning voqealanishi:f al. dok.diss.avtoref. – T. 2021.52-bet.
2. Муравьев В.Л. Лексические лакуны (на материале лексики французского и русского языков). – Владимир, 1975. С.24.
3. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – Москва: Высш. шк., 1986. С. 416.
4. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Лингвистическая проблематика страноведения в преподавании русского языка иностранцам. – Москва: Изд-ео МГУ, 1971. С. 43.
5. Kasimova Z. Dunyo tilshunosligida realiyalar tasnifi. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 2020-yil, 9-son, 39-bet.
6. Abdumannon Hasanov. Tilshunoslikda lakuna muammosi “Til va adabiyot ta’limi”, jurnali 2021-yil 1-son, 39-bet.
7. Вайсбурд М. Л. Реалии как элемент страноведения. Русский язык за рубежом.1972. №3. С. 98–100.

Nigora JO‘RANAZAROVA,
Termiz davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi

BOLALAR ADABIYOTI VA KATTALAR ADABIYOTIDAGI FARQLI JIHATLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada bolalar va kattalar adabiyotining o‘xshash va farqli jihatlariga to‘xtalib o‘tilgan. X.To‘xtaboyev asarlari misolida bolalar adabiyotining kattalar adabiyotidan farqli jihatlari misollar asosida ochib berilgan. X.To‘xtaboyevning asarlarida qo‘llanilgan iboralar tahlil qilinib, asardagi o‘rni tushuntirilib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: *frazeologizm, sheva, ko‘chma ma‘no, argo, jargon, adabiy til.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются схожие и разные стороны детской и взрослой литературы. На примере произведений Х. Тохтабоева на примерах раскрываются различия между детской литературой и взрослой литературой. Проанализированы выражения, использованные в произведениях Х. Тохтабаева, и объяснено их место в произведении.

Ключевые слова: *фразеология, диалект, переносное значение, сленг, сленг, литературный язык.*

Annotation: this article focuses on the similar and different aspects of children’s and adult literature. On the example of the works of H. Tokhtaboyev, the differences between children’s literature and adult literature are revealed on the basis of examples. The expressions used in the works of H. Tokhtabayev were analyzed and their place in the work was explained.

Key words: *phraseology, dialect, figurative meaning, slang, slang, literary language.*

Kirish. Bolalar adabiyoti kattalar adabiyotiga qaraganda biroz murakkab hisoblanadi.Bir qarashda oson tuyulgan bolalar adabiyotining o‘ziga yarasha qiyinchiliklari bor.

Bolalar adabiyotining xarakterli xususiyatlari:

1. Bolalarga asosiy rol beriladi.
2. Mavzuga ko‘ra, bu bolalar yoshiga to‘g‘ri keladi;
3. Oddiy tilda;
4. Ko‘p dialog va harakatlar, ozgina tavsiflar;
5. Sarguzashtlar ko‘p;
6. Baxtli tugash(yaxshilikning yovuzlik ustidan g‘alabasi) [1.25]

Albatta bu jihatlarni kattalar adabiyotida ham kuzatish mumkin.

Bu mezonlar afsuski, bolalar adabiyotini kattalar adabiyotidan farqlash uchun yetarli bo‘lmaydi. Negaki:

1. Bolalar adabiyotida psixologik, lisoniy, tabiat portretlariga doir chizgilar o‘ta jo‘n bo‘ladi;
2. Psixologik, tabiat manzaralarining chuqur talqini, ta’rifi deyarli uchramaydi;
3. Voqealar rivoji dinamik tez jarayonda sodir bo‘ladi;
4. Muallif nazarda tutgan g‘oya kattalar adabiyotidan farqli o‘laroq dialoglar matniga singdiriladi.
5. Bolalar adabiyotida bog‘lanishli nutqning asosan dialogik shakliga urg‘u beriladi;
6. Bolalar adabiyotida sheva unsurlaridan deyarli foydalanilmaydi;
7. Muallif olam manzarasini bolalar nigohida aks ettirib, olamni sodda va nisbatan murakkab bo‘lmagan predmetlar misolida yaratadi. Shunga ko‘ra, obrazli-tasviriy ifodalar, badiiy san’atlarga kattalar adabiyoti tiliga nisbatan kamroq murojaat qilinadi.

Asosiy qism.O‘zbekiston xalq yozuvchisi, bolalarning sevimli adibi Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlari ko‘proq bolalar uchun mo‘ljallangan bo‘lgani uchun

og‘zaki uslubda, tushunarli va sodda tilda yozilgan.

“Besh bolali yigitcha” romanida ham bu jihatni kuzatishimiz mumkin.Jumladan, asar voqealari asarning bosh qahramoni Orifjon tilidan oddiy tilda hikoya qilinadi.Asarda ko‘p dialog va harakatlar, qiziqdan-qiziq voqealar, asar qahramonlarining ruhiy holati ochiq oydin gavdalantirilgan.Jumladan, nemis-fashist bosqinchilari Parpi buvaning nazarida “Girmonning har bitta o‘qi aravaning gupchagidek keladi”, “o‘sha girmon deganlari juda zo‘r bo‘lsa, Ko‘rshermatcha bo‘lar-da”, deydi u.Bu parchadagi Girmon, nemis-fashist, Ko‘rshermat –og‘zaki uslubga xos, gupchagidek-shevaga xos so‘z.

Misol uchun, “Shu paytda yuz bergan to‘polonni ko‘rsangiz:biri ko‘ylagini axtargan, biri shimini kiyolmay tepingan, boshqasi yuzini yuvish uchun hovliga yugurgan, yana bittasi ishtonini teskari kiyib shunday ketaveraman deb irg‘ishlangan”-deya o‘sha vaziyatni hikoya qiladi Orifjon. Bundan tashqari X.To‘xtaboyev asarda frazeologizmlardan unumli foydalangan: jumladan, ijodkor qahramonlarni ta’riflash, tavsiflashda ham bolalarcha samimiylik, beg‘uborlik orqali ifodalaydi.

Asardagi voqealarni qahramonlar nutqi orqali ifoda etadi.

- Bo‘lmasa, kim biladi deysiz, laqab qo‘yish marosimi qulochkashlab, mushtlashish, **burunlarni yerga ishqalash** bilan tugagan bo‘larmidi. [2.91]

burunlarni yerga ishqalash–qattiq jazolash, adabini berib qo‘yish, tazirini berish ma’nolarida kelyapti.

– Tezroq kel, eshak mingan bobong keldi, - deb qo‘shimcha ham qilib qo‘ydi o‘sha ovoz. Bobom, bobojonim !.. **oyog‘imni qo‘limga olib yugurdim**,– rost, rost ekan! (130-bet)


Oyog‘imni qo‘limga olib yugurdim-bu ibora tezlikda, shoshish ma’nosi bor. Qahramon hayajondan, sevinchdan ichiga sig‘masdan harakat qilmoqda.Bu o‘rinda tez yurdi desa ham bo‘lardi, lekin ibora berganchalik ta’siri kuchli bo‘lmasdi.

- Omon **o‘zini qo‘yarga joy topolmay** irg‘ishlagan, Bibirobiya yangi kiyimlarini ko‘z-ko‘zlab goh bobom, goh xolajonim bilan achomlashib ketgan, Usmon ukam ochkoz‘lik bilan qatlamaga yopishgan, Sulton o‘rikni danagi bilan yutib tiqilib qolgan... [3.131]

o‘zini qo‘yarga joy topolmay–bu iborani ikki xil vaziyatda ishlatish mumkin Birinchidan, biror voqeadan kuchli ta’sirlanganda, yomon xabar eshitganda; Ikkinchidan, quvonarli voqea ro‘y berganda xursandchiligi ichiga sig‘may ketganda. Omonda ikkinchi holatni kuzatishimiz mumkin.

Kattalar adabiyotida ham bolalar adabiyotida ham, frazeologik birliklardan unumli foydalaniladi.

Tadqiqotimiz davomida Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodidagi quyidagi romanlarga murojaat qildik.Natija esa quyidagicha bo‘ldi:



Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bolalar adabiyoti va kattalar adabiyotini farqlovchi jihatlari bo‘lganidek, birlashtiruvchi jihatlari ham mavjud.Bolalar adabiyotini kattalar adabiyotidan farqlovchi jihatlar ko‘p.Bu albatta yosh xususiyati bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamasoli Jumaboyev “Bolalar adabiyoti” –T.:“O‘qituvchi”, 2010.25-bet
2. Xudoyberdi To‘xtaboyev “Besh bolali yigitcha” –T.:“Yangi asr avlodi”, 2009.

Oynisa XOJIYEVA,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
E-mail: niso-nur@mail.ru

O‘ZBEK - TURK MAQOLLARINING SINTAKTIK QURILISHI

Annotatsiya: maqolada bir-biriga qondosh bo‘lgan ikki xalq – o‘zbek va turk folkloridagi maqollarning grammatik qurilishi, sintaktik strukturasi xususida so‘z boradi. Sodda gap shaklidagi maqollar, ikki gapdan iborat bo‘lgan maqollar, uch va undan ortiq gaplardan tashkil topgan maqollar izohlanib, har biri misollar bilan dalillanadi. Maqollardagi mantiqiy markaz tushunchasi misollar bilan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *maqol, folklor, deskriptiv element, mantiqiy markaz, sodda gap, qo‘shma gap.*

Annotation: the article deals with the grammatical structure and syntactic structure of proverbs in the folklore of two related natoins – Uzbek and Turkish. Proverbs in the form of a simple sentence, proverbs consisting of two sentences, proverbs consisting of three or more sentences are explained and each is proved with examples. The concept of logical center in proverbs is analyzed with examples.

Key words: *proverb, folklore, descriptive element, logical center, simple sentence, compound sentence.*

Аннотация: в статье рассматривается грамматическая структура и синтаксическая структура пословиц в фольклоре двух родственных народов – узбекского и турецкого. Пословицы в форме простого предложения, пословицы, состоящие из двух предложений, пословицы, состоящие из трех и более предложений, объясняются и каждая доказывается примерами. На примерах анализируется понятие логического центра в пословицах.

Ключевые слова: *пословица, фольклор, описательный элемент, логический центр, простое предложение, сложное предложение.*

Maqollar har bir xalqning tashrif qog‘oziga o‘xshaydi: ularda har bir xalqning o‘ziga xos donishmandligi, hikmat manbayi aks etadi. Qardosh xalqlarning maqollari esa ularning umumiy adabiy merosi sanaladi. Xususan, o‘zbek va turk xalq maqollari ham mazmun jihatidan, ham grammatik strukturasi jihatidan bir-biriga juda yaqin ekanligi sir emas. Quyida o‘zbek va turk maqollarining sintaktik qurilishi yuzasidan olib borilgan kichik izlanish natijasi xususida so‘z boradi.

G. Permyakov maqollar lingvistik, mantiqiy va badiiy-miniatyuraviy jihatdan struktur qurilishga egaligini ta’kidlaydi . Ya’ni har bir maqol lingvistik jihatdan (gap sifatida) to‘liq shakllangan, ma’lum mantiqiy izchillikka ega hamda badiiy jihatdan puxta ishlangan bo‘ladi. Bu borada Bahodir Sarimsoqovning fikrlari ham Grigoriy Permyakov g‘oyalariga hamohang deyish mumkin. Olim maqolning folklor janri sifatida bir qator o‘ziga xos xususiyatlarini sanar ekan, ularning eng boshiga maqolning aniq va tugal fikr ifodalashi hamda fikrni mantiqiy izchillik va qat’iy qutbiylikda ifodalashini qo‘yadi .

Yuqoridagi fikrlarga qo‘shilgan holda, aytishimiz mumkinki, maqollar gap sifatida shakllangan bo‘ladi. Chindan ham, maqolning yaxlit struktural birlik o‘laroq eng muhim jihati uning grammatik qurilishi, ya’ni gap sifatida shakllanganligida ko‘rinadi. Har qanday gap maqol bo‘la olmasligi kunday ravshan. Gaplar maqol darajasiga chiqishi uchun ma’lum ijtimoiy-ma’naviy funksiya bajarishi va ayrim badiiy talablarga javob bera olishi kerak. Lekin har qanday maqol gap bo‘la olishi isbot talab qilmaydi:

Maqol = Gap

Har qanday gap ≠ Maqol

Bu qonuniyat barcha xalq maqollari uchun xosdir. Maqollarning gap sifatidagi grammatik xususiyatlariga diqqat qaratishni lozim topdik:

Sodda gap shaklidagi maqollar

Maqollarning shakl jihatidan siqiq formaga egaligi bot-bot takrorlandi. Shu xossasidan kelib chiqib, sodda gap shaklidagi maqollar son jihatidan ko‘proq. Sodda gap shaklidagi maqollar borasida dunyo olimlarining ham, rus olimlarining ham, o‘zbek va turk olimlarining ham fikri ayni bir nuqtada kesishadi: maqol ikkita qismdan tashkil topgan bo‘ladi. Bu qismlarning nomlanishi borasida yana farqli qarashlar va terminlar davraga kiradi. Sharq xalqlarining maqollarini tadqiq qilgan Kaliforniya universiteti professori Alan Dandes qismlarni deskriptiv (tasvirlovchi/tasviriy – O. X.) elementlar deb ataydi, ularning birini mavzu, ikkinchi qismni esa izoh deb ta’riflaydi . Maqolning birinchi qismini “obyekt/subyekt” deb, ikkinchi qismini esa “predikat” deb ta’riflash hollari ham kuzatiladi (M. Kuusi). Maqol tarkibidagi har ikki qism ham ma’lum maqsadga xizmat qiladi, ularning birini boshqasisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi:

Yaxshi uydan yaxshi tutun chiqar : yaxshi uy yaxshi tutun.

Kuştan korkan darı ekmez : kuştan korkan darı ekmez.

Deyarli barcha o‘zbek folklorshunoslari tomonidan maqolning ikki qismga bo‘linishi aytiladi, lekin bunga alohida nom berib, maxsus tahlil qilinmaydi. Faqat olima D. O‘rayeva bu mavzuga alohida yondashganini ko‘rishimiz mumkin. Olima maqolning har ikki qismini

“mantiqiy markaz” deb ataydi: “Ikki mantiqiy markaz asosida shakllangan maqollar o‘zaro ziddiyatli yoki o‘zaro bog‘liq munosabatda beriladi” . D. O‘rayeva maqollardagi mantiqiy markazlarni aniqlab, ular orasidagi munosabatga ko‘ra tasniflab chiqadi (88 ta mantiqiy juftlik – O. X.).

Qo‘shma gap shaklidagi maqollar

Qo‘shma gap qurilishiga ega bo‘lgan maqollar ham talaygina. Ularni ham sodda gaplar singari ikki uzvga ajratish mumkin, farqi: sodda gapda so‘z yoki so‘z birikmasi mantiqiy markaz bo‘lib kelsa, qo‘shma gaplarda har bir gap bir qismni tashkil qiladi va bu qismlar bir-biri bilan turli xil munosabatda bo‘lishi mumkin:

- bir-birini izohlab, to‘ldirib kelishi mumkin, masalan Aş tuz ile, tuz oran ile (Osh – tuz bilan, tuz – me’yor bilan). Yo‘l uzoq, ko‘ngil yaqin.
- o‘zaro zid ma’noli bo‘ladi: Ahmoqlarga bosh bo‘lguncha, Donolarga yosh bo‘l . Dağ dağa kavuşmaz, insan insana kavuşur.
- o‘zaro parallel munosabatda bo‘ladi: El terazi, göz mizan (Qo‘l – tarozi, ko‘z – mezon). Ro‘zg‘or ziynati – o‘tin, Uy ziynati – xotin .
- o‘zaro o‘xshatish-qiyoslash munosabati bo‘ladi: Xotin – bo‘yin, er – bosh.
- o‘zaro shart munosabatli bo‘ladi: Qo‘shning tinch – sen tinch.

Ayrim maqollarning asliyati qo‘shma gap shaklida bo‘lsa-da, ijtimoiy ahamiyatiga qarab maqolning bir qismi faol qo‘llanilib, boshqa qismi oz iste’mol qilinishi mumkin. Bu holatda maqolning ikkinchi qismi bora-bora unutilib borishi kuzatiladi. Bu hodisa har ikki xalq maqollariga xos:

“Kişi alasi içtin, yilki alasi taştin”// İnsanın (adamın) alacası içinde, hayvanın alacası dışındadır”// “Odam olasi ichida, mol olasi tashida”. O‘zbek xalqi bu maqolning birinchi qismini (“Odam olasi ichida”) nisbatan faol qo‘llaydi . “Devoni lug‘otit-turk”da kelgan bu maqol turk tilida har ikki qismi faol qo‘llanilgani holda, o‘zbek tilida birinchi qismi faollashib, ikkinchi qismi ort planda qolib kelmoqda. Aynan shu jarayon turk xalq adabiyotida ham kuzatiladi: “Doğruluk minarede kalmış, onun da içi eğri” (To‘g‘rilik faqat minorada qolgan, uning ham ichi egri). Dunyoda to‘g‘ri, haqiqatgo‘y insonlar qolmagan, to‘g‘ri deb bilganlarimizning ham ichida bir egrilik bo‘ladi, degan mazmunda qo‘llaniladigan bu maqolning birinchi qismi (Doğruluk minarede kalmış) ommalashgan. İkkinchi qismi esa ekspressiv bo‘yoqdorlikni oshirish maqsadida ilova qilinishi mumkin. Lekin aksar hollarda tushirib qoldiriladi. Yana bir misol: “Altın pas tutmaz, deli yas tutmaz” (Oltin zang tutmas, telba aza tutmas). “Yaxshi insonga loy chaplab, yomonotliq qilib bo‘lmaydi” mazmunida keluvchi bu maqolning “Altın pas tutmaz” qismi ham o‘zbek xalqida, ham turk xalqida ancha ommalashgan. İkkinchi qismi maqolning ilk shaklida mavjud bo‘lib, kam qo‘llaniladi, birinchi qismi nisbatan aktual bo‘lganligi uchun xalq orasida kengroq yoyilgan.

Ayrim maqollarning ikkinchi qismi variantli bo‘ladi:

Ulug‘ bo‘lsang kekkayma,
O‘z xalqingga serrayma.
Ulug‘ bo‘lsang kekkayma,
O‘z elingga chekchayma .

Yuqoridagi maqollarda variantlilik dialektal farqlar sababidan yuzaga kelgan. Maqolning “Ulug‘ bo‘lsang kekkayma” qismi yakka holda ham iste’molda, ikkinchi qismlari esa areal xoslanishiga ko‘ra qo‘llaniladi.

Ikkidan ortiq gapdan tashkil topgan maqollar

Ayrim maqollar she’riy shaklda bo‘lib, to‘rt, hatto, undan ortiq gaplardan tarkib topgan bo‘ladi. Bunday maqollarda vazn talablariga rioya qilinadi; qofiya, ba’zan ichki qofiya maqol badiiyatini bezab turadi:

Oltovlon ola bo‘lsa, og‘zidagin oldirar,
To‘rtovlon tugal bo‘lsa, tepadagin endirar.
Eshakka muguz bitsa,
Egasini suzar.
Tuyaga qanot bitsa,
Tomingni buzar .

Yuqoridagi maqollarning har uchalasi to‘rt sodda gapdan tashkil topgan, ya’ni to‘rt grammatik markazga ega. Gaplarning har biri parallel ravishda keyingi qatordagi jufti bilan qofiyalanib kelgan.

Uch mustaqil sodda gapdan iborat maqollar ham, oz bo‘lsa-da, uchrab turadi: “So‘z ko‘rki – maqol, Guzar ko‘rki – baqqol, Yigit ko‘rki – soqol” .

Bunday maqollar yaxlit butunlikda ham ishlatilishi mumkin, vaziyatga ko‘ra har bir qatori alohida ham ishlatilishi mumkin. “So‘z ko‘rki – maqol” qismi ommalashgan bo‘lsa, “Yigit ko‘rki – soqol” jumlasi ham, ayni zamonda, ancha aktual tus olganiga guvoh bo‘lyapmiz. “Guzar ko‘rki – baqqol” gapi arxaik xarakterga ega. Baqqollik jamiyat hayotidan chiqib ketgani sababli maqolning bu qismi qolgan ikki qismiga nisbatan passiv qo‘llaniladi.

Shuni ham aytish kerakki, turk xalq folklorida bu tip maqollar juda kam uchraydi: “Cömert derler, maldan ederler; yiğit derler, candan ederler” (Saxiy deb molidan ayiradilar; (mard) yigit deb jonidan ayiradilar); “Miskçiyle konuş, miskine bulaş; pisçiyle konuş, pisine bulaş” .

Maqollarning katta qismi shaxsi umumlashgan gaplar bo‘lib, ularning mazmuni har uch shaxsga birday tegishli bo‘ladi. Biror maqolning kesimida -ing, -ngiz kabi shaxs-son qo‘shimchalari uchramaydi. Buni ramziy ma’noda maqollarning ota-bobolardan avlodlarga o‘git o‘laroq aytilgani bilan izohlash mumkin: “O‘tganga o‘kinma”, “Egilganga bukilma” ; “Bir söyle, iki

dinle” , “Kötü söyleme eşine, ağı katar aşına” (Yomon gapirma juftingga, og‘u qo‘shar oshingga).

Mazmunan ma‘lumot berish funksiyasini bajaruvchi maqollarda esa kesimlar umumzamon ma’nosini ifodalovchi kelasi zamon shaklida bo‘ladi: “Qarg‘aga sovun, Ahmoqqa nasihat kor qilmas” / “Karaya sabun, deliye öğüt neylesin” .

Ko‘rinib turibdiki, turk maqollari ham, o‘zbek maqollari ham grammatik strukturasi jihatidan bir-biriga juda yaqin turadi. Har ikkala xalq maqollari orasida sodda gap shaklidagi maqollar bilan birga qo‘shma gap shaklidagi maqollar ham uchraydi. Shuningdek, uch, to‘rt va undan ortiq gaplardan tuzilgan maqollar ham oz bo‘lsa-da, uchrab turadi. Maqollarning aksari shaxsi umumlashgan gap bo‘lib, ularda ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan o‘git, nasihat, maslahat va tavsiyalar o‘z ifodasini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aksoy, O. A. (2020), Atasözleri ve deyimler sözlüğü. İstanbul, İnkilap Kitabevi Yayın ve Ticaret AŞ, 2021. – S. 484.
2. Hengirmen Mehmet. Atasözleri Sözlüğü. – Ankara: Engin Yayınevi. 2011. – S. 206.
3. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari. Mas’ul muharrir: Sh. Turdimov. – Toshkent: “Sharq”, 2019. 222-bet.
4. Xojiyeva Oynisa. O‘zbek va turk maqollarining mushtarak ildizlari. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH International scientific-online conference Part 1, Issue 6: JUNE 24th 2022. 55-bet.
5. Дандес. А. О структуре пословицы / Паремиологический сборник. – М., 1978. – С. 21.
6. Зарифов Ҳ. ва б. Ўзбек фольклори очерклари. 1-жилд. – Тошкент, 1988. – Б. 88 – 89.
7. Пермяков Г. Л. От поговорки до сказки. – М., 1970. – С. 8.
8. Ўраева Д., Тўхсанов Қ. Мақолларни “синквейн” усулида ўргатиш. Тошкент: “Наврўз”, 2015. – С. 21 – 27.

Sarvar SOG‘LOMOV,
Qarshi davlat universiteti
tayanch doktoranti
E-mail: sarvarsoglomov@gmail.com



“TAQDIR TEGIRMONI” ASARI TARJIMALARIDA SIYOSIY ATAMALARNING QO‘LLANISHIGA DOIR MULOHAZALAR

Annotatsiya: maqolada amerikalik taniqli yozuvchi Sidni Sheldon qalamiga mansub “Taqdir tegirmoni” asarining o‘zbek va rus tillariga qilingan tarjimalari qo‘llangan siyosiy atamalar qiyosiy o‘rganilgan. Xususan, asliyatdagi siyosiy atamalar va birikmalarning tarjimalardagi muqobillari bir qator misollar asosida atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *asliyat, tarjima, siyosiy atama, jumla, lug‘at, mazmun, izoh, so‘z birikmasi.*

Аннотация: в статье сравнительно изучены политические термины использованы с их переводами на узбекский и русский языки произведения известного американского писателя Сидни Шелдона “Мельница богов”. В частности на ряде примеров тщательно проанализированы альтернативы оригинальных политических терминов и их сочетаний в переводах.

Ключевые слова: *оригинал, перевод, политический термин, предложение, словарь, содержание, объяснение, словосочетание.*

Annotation: in the article, the author compares the translations of the novel by the famous American writer Sidney Sheldon “Windmills of the gods” into Uzbek and Russian. In particular, alternatives to original political terms and phrases in translations are analyzed in detail by using a number of examples.

Key words: *original, translation, political term, sentence, dictionary, content, explanation, phrase.*

Siyosiy mavzu asos qilib olingan badiiy asarlarda qo‘llangan atamalar yoki shu mazmundagi tushunchalarni tarjima qilish anchayin murakkab, tarjimon uchun mas’uliyatli jarayon. Negaki, siyosiy sohaga tegishli matnlarga maxsus atamalar, iboralar, murakkab grammatik tuzilmalar va eng muhimi, o‘ziga xos mazmunlarni o‘z ichiga olgan maxsus matnlar sifatida qaraladi. Oddiy yoki kundalik matnlarda qo‘llanadigan va mazmuni bizga tanish

so‘zlar siyosiy matnlarda ishlatilishi unchalik ham to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Atoqli tadqiqotchi, filolog va tarjimashunos Shafner, “Siyosiy matnlar boshqa matnlardan juda farq qiladi, chunki ular “siyosiy voqealarning bir qismi va yoki natijalaridir” va ular siyosatning asosiy mavzusi bo‘lgan tarixiy va madaniy jihatdan yaratilgan” degan edi [6:14].

Siyosiy matnlarni tarjima qilishda tarjimonlar duch keladigan muammolarni hal qilishda Nordning tasnifiga amal qilinadi:

1. Lingvistik muammolar: asosiy manba tili va tarjima qilinayotgan til o‘rtasidagi farqlar tillarda lingvistik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Kengroq nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, aynan bir-biriga o‘xshaydigan ikkita til yo‘q. Tillar odatda grammatik konstruksiyalar, idiomatik iboralar va boshqa shart-sharoitlar jihatdan farqlanadi.

2. Madaniy muammolar: turli fikrlarni ifodalash va muayyan matnlarga yondashishdagi farqni anglatadi.

3. Pragmatik muammolar: pragmatik masalalar vaqt, joy va kontekst bilan bog‘liq har qanday muammolarni ko‘rsatadi; Pragmatik masalalarni ifodalashning eng samarali usuli bu ikki xil madaniyat nomlari va birlashmalari bir xil bo‘lmagan davlat muassasalari.

4. Matnga oid muammolar: matnning alohida masalalari ma’lum bir matnga bog‘langan. Boshqacha qilib aytganda, boshqa matnlarda emas, balki muayyan matnda uchraydigan ba’zi muammo va qiyinchiliklar mavjud.

Nordning fikricha, har bir tarjima muammosini hal qilish mumkin. Faqat yechimni qanday topishni bilishingiz kerak. Lingvistik muammolarni lug‘atlar, til ma’lumotlar bazalari va boshqa lingvistik vositalardan foydalanish orqali hal qilish mumkin. Madaniy qiyinchiliklar parallel matnlarni solishtirish orqali hal qilinishi mumkin [5:52].

Biz quyida Sidni Sheldonning “Taqdir tegirmoni” asarida qo‘llangan siyosiy terminlarning asliyat hamda rus va o‘zbek tilidagi tarjimalari to‘g‘risida to‘xtalamiz. Asarda o‘tgan asrning 80-yillarida yaratilgan bo‘lib, AQShning Sharqiy Yevropa mamlakatlari, xususan, Ruminiyaga nisbatan yuritgan siyosati haqida gap boradi. Ma’lumki, Ruminiya Sotsialistik lagerda joylashgan mamlakat hisoblanib, kommunistik g‘oyalar asosida boshqarilar va ko‘p yillar oldin AQSH bilan diplomatik aloqalarni uzgan edi. Asardagi voqealar ayni o‘sha vaqtda chirsillab turgan siyosiy voqealar asosida rivojlanadi va natijada asarda bir qator siyosiy terminlar ham ishlatiladi. Muallif tomonidan asliyatda qo‘llangan siyosiy terminlarning rus va o‘zbek tillarida tarjimonlar tomonidan qanday ifodalanganligini tahlil qilamiz. Asliyatda qo‘llangan siyosiy terminlarni rus va o‘zbek tillariga qilingan tarjimalardagi muqobillari bilan solishtirganda, siyosiy terminlarni shartli ravishda ikki guruhda tasniflash mumkin:

1. Siyosiy terminlar: bu so‘zlar aynan siyosiy terminlarni o‘rganuvchi lug‘atlarda bor va siyosiy termin sifatida qabul qilingan. Masalan, ***détente*** so‘zini olaylik. ***Détente*** so‘zi siyosiy termin hisoblanadi va siyosiy terminlar lug‘atidan joy olgan. ***Détente*** so‘ziga ingliz tili lug‘atlarida “***the easing of hostility or strained relations, especially between countries***” ta’rif beriladi va o‘zbek tiliga “***davlatlar o‘rtasidagi siyosiy keskinlikni yumshatish***” tarzida tarjima qilinadi.

2. Siyosiy matnga aloqador so‘zlar yoki kollokatsiyalar: bu so‘zlar va kollokatsiyalar siyosiy termin sifatida qabul qilinmagan, lekin siyosiy matnlarda muallifning maqsadini ko‘rsatishda ko‘p qo‘llanadi.

Masalan, ***chasm*** so‘zining aynan siyosiy kontekstlarda qo‘llanadigan ma’nosiga ingliz tili lug‘atlarida “***a very large difference between two opinions or groups of people***” deb ta’riflanadi va o‘zbek tiliga “***siyosiy jarlik, ya’ni ikki xil fikrga yoki g‘oyaga ega bo‘lgan kishilar o‘rtasidagi katta farq***” tarzida tarjima qilinadi. Xuddi shunday ***to build unshakeable bridges between*** kollokatsiyasi ham siyosiy terminlar lug‘atida mavjud bo‘lmasa-da, siyosiy kontekstlarda faol qo‘llanadi. Bu kollokatsiya o‘zbek tiliga “bir-biriga g‘oyaviy qarama-qarshi davlatlar o‘rtasida mustahkam ko‘prik qurmoq” tarzida tarjima qilinadi.

Dastlab, siyosiy termin sifatida qabul qilingan so‘zlarning asliyatda qo‘llanishi hamda rus va o‘zbek tillaridagi tarjimada qay tarzda ifodalanganligini tahlil qilamiz. Masalan, asliyatdagi “The biggest surprise to those who knew Stanton Rogers was the political differences. Stanton was a liberal, while Barbara had grown up in a family of **arch-conservatives**” [1:13] jumlasi ruscha tarjimada “Самим большим сюрпризом для тех, кто зналь Стентона Роджерса, стали политические разногласия: Стентон был либералом, а Барбара выросла в семье ултьраконсерватором” [2:11] tarzida berilgan. O‘zbekcha tarjimada esa “Stenton Rojersni yaqindan bilgan kishilarni ularning siyosiy qarashlari o‘rtasidagi tafovut, ayniqsa, hayratga solardi. Zero, Stenton liberal bo‘lsa, Barbara o‘ta konservativ an’analari bilan tanilgan oilada tarbiya topgan edi” [3:145] shaklida qo‘llangan.

Asliyatdagi **arch-conservative** so‘zida qo‘llangan **arch-** prefiksiga ingliz tili lug‘atlarida “***greater or especially worse than others of the same type***” deb ta’rif beriladi va o‘zbek tilida “***o‘ta, nihoyatda, eng yomon***” tarzida tarjima qilinadi. Asliyatdagi **arch-** prefiksi rus tiliga **“**ултьра**”** prefiksi bilan tarjima qilingan. **“**Ултьра**”** prefiksiga “Толковый словарь русского языка”da “образует существительные и прилагательные со знач. превышения признака, сверх...” deb izoh berilgan. ***Arch-*** prefiksi o‘zbek tiliga

esa “***o‘ta***” daraja kuchaytiruvchi ravish bilan tarjima qilingan. Tahlillardan ko‘rinadiki, asliyatda berilgan “***arch-conservative***” so‘zi rus tilida so‘z yasash qoidasiga ko‘ra tarjima qilingan. Negaki, “***arch-conservative***” va “ултьраконсерватор” so‘zlarining har ikkalasida prefiks qo‘llangan.

Boshqa bir misol: Asliyatdagi “He was asked to give the nominating speech for the **incumbent** president running for **re-election**” [1:15] jumlasi rus tiliga “Когда его попросили выдвинуть кандидатуру нынешнего президента, идущего на перевыборы, он произнес блестящую, страстную речь” [2:12] tarzida, o‘zbek tiliga esa “Bir gal **ikkinchi marta nomzodini qo‘ygan** prezidentni qo‘llab-quvvatlash uchun unga murojaat etishganda, u ehtirosli zo‘r nutqi bilan barchani hayratlantirgan edi” [3:146] shaklida tarjima qilingan.

Jumladagi “***incumbent***” so‘ziga ingliz tilida “***officially having the named position***” va “***re-election***” so‘ziga “***the act of electing someone again to the same position***” ta’rif beriladi va bu so‘zlar rus tiliga “нынешний” va “перевыборы” tarzida aynan mos holda tarjima qilingan. “***Incumbent***” o‘zbek tiliga “***amaldagi***”, “***re-election***” so‘zi esa “***qayta saylov***, ***qayta saylanish***” tarzida tarjima qilinishi zarur. Biroq tarjimon har ikki so‘zni alohida qo‘llamasdan, ikkalasini “**ikkinchi marta nomzodini qo‘ygan**” tarzida sodda tarjima qilgan va bu gapning ma’nosiga putur yetkazmaydi va o‘quvchining gap ma’nosini birdan anglab olishini ta’minlaydi.

Asar asliyatidagi “I speak today not only to our **allies**, but to those countries in the **Soviet camp**” [1:16] jumlasi esa tarjimalarda quyidagicha beriladi: “Сегодня я говорю не только с нашими союзниками, но и странами советского блока” [2:14]. O‘zbekcha tarjimasi: “Men bugun nafaqat **ittifoqdoshlarimizga**, balki **sovet bloki** davlatlariga ham murojaat etmoqchiman” [3:147].

Yuqoridagi misolda keltirilgan “**ally**” so‘ziga ingliz tilining izohli lug‘atlarida “***a country that has agreed officially to give help and support to another one, especially during a war***” va “***ally***” so‘zi rus tilidagi (союзниками) va o‘zbek tilidagi (**ittifoqdoshlar**) tarjimalari asliyatdagi so‘z bilan juda mos. Bu yerda qo‘llangan “***the Soviet camp***” iborasi ayrim matnlarda “***The Soviet bloc***” tarzida ham qo‘llanadi va ushbu ibora 1991-yilgacha mavjud bo‘lgan SSSR bilan ittifoqdosh davlatlarni nazarda tutib, bular Sotsialistik lagerda joylashgan mamlakatlar deb atalgan va uning tarkibiga markaziy va sharqiy Yevropaning ba’zi davlatlari (Sharqiy Germaniya, Polsha, Chexoslavakiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya va Albaniya), Osiyo (Mo‘g‘uliston, Vyetnam, Laos, Kambodja, Shimoliy Koreya, Janubiy Yaman, Suriya va Xitoy) hamda Amerika qit’asida joylashgan ayrim davlatlar (Kuba, Nikaragua va Grenada) kirgan.

Yana bir jumla tarjimasiga diqqat qilaylik: “I am well aware of the vast chasms that lie between us and the **Iron Curtain** countries, but the first priority of this administration will be to build unshakeable bridges across those chasms” [1:16].

“Я прекрасно знаю, какая бездонная пропасть лежит между нами и странами за “железным занавесом”, но первейшей обязанностью этой администрации станет строительство нерушимых мостов через пропасти” [2:15]. O‘zbek tilidagi matnda “Albatta, bizning va “**temir parda**” ortidagi mamlakatlar o‘rtasida qanday jarlik mavjudligini yaxshi anglayman. Aynan shuning uchun ham bugungi ma’muriyatning bosh maqsadi – ana shu jarlik ustiga mustahkam ko‘prik barpo etishga qaratilgandir” [3:147].

Asliyatdagi “***the Iron Curtain***” iborasi rus tiliga “железный занавес” va o‘zbek tiliga “***temir parda***” tarzida to‘g‘ri tarjima qilingan. Ushbu iboraga ingliz tili izohli lug‘atlarida “***from 1946-1989 the iron curtain was the name of the border between western Europe and the communist countries of eastern Europe, which made it very difficult to travel into or out of eastern Europe***” deb ta’rif beriladi. “***The Iron Curtain***” atamasi ikkinchi jahon urushidan keyin vujudga kelgan “Sovuq Urush”ning ramzi bo‘lib, 1946-yil 5-mart kuni Buyuk Britaniya bosh vaziri Uinston Cherchilning Missuri shtatining Fulton shahrida so‘zlagan nutqida qo‘llangan. Aslida, bu atama biroz avval – 1918-yilda rus antikommunist yozuvchisi Vasiliy Rozanovning asarida qo‘llangan. “***The Iron Curtain***” atamasi SSSR tarkibiga kiruvchi va u bilan ittifoqdosh mamlakatlarni nazarda tutadi. “The Iron Curtain” ortidagi mamlakatlarning kapitalistik mamlakatlar bilan oshkora aloqa qilishi ancha murakkab va qiyin bo‘lgan.

Asliyatdagi “My answer to that is that we can no longer afford to condemn ourselves or our children to a future threatened by **global confrontations** and **nuclear war**” [1:17] jumlasi rus tiliga “Я отвечаю на это: мы больше не можем обрекать себя и своих детей на будущее, которому из-за глобальной конфронтации грозит ядерная война” [2:15] tarzida tarjima qilingan.

O‘zbek tiliga tarjimada esa jumlani “Men ularga bundan buyon o‘zimizni ham, farzandlarimizni ham **yadro urushiga** yetaklaydigan **global qarama-qarshiliklarga** mahkum etishga haqqimiz yo‘q, deb javob beraman” [3:147] tarzida o‘qiymiz.

Asliyatdagi jumlada qo‘llangan “***global confrontations***” so‘z birikmasiga ingliz tili izohli lug‘atlarida “***a fight or argument relating to the whole world***” va “***nuclear war***” iborasiga “***a war in which there is a threat to use nuclear weapons***” tarzida, rus tiliga “глобальной конфронтации” va “ядерная война” shaklida hamda o‘zbek tiliga “***global qarama-qarshiliklar***” va “***yadro urushi***” tarzida aynan mos tarjima qilingan.

Xuddi shu kabi boshqa bir misolga to‘xtalamiz.

Asliyatda: “… because I believe that there is no problem that cannot be solved by genuine goodwill on both sides, the **concrete wall** around East Berlin and the Iron Curtain that surrounds the other **Soviet Union satellite countries** must come down” [1:17]. Shu jumlaning ruscha tarjimasi: “… потому что я верю: нет проблемы, которую нельзя было бы решить искренней доброй волей с обеих сторон. Бетонная стена вокруг Восточного Берлина и «железный занавес», окружающий Советский Союз и его сателлитов, должно быть разрушены” [2:16]. Endi o‘zbek tilidagi matnga diqqat qilamiz: “… chunki har ikki tarafda ezgu intilish va qat’iy iroda bo‘lsa, ishonchim komilki, har qanday murakkab muammoni hal etish mumkin. **Sovetlarga tobe mamlakatlarni** qurshab turgan “temir parda” hamda Berlinni ikkiga bo‘lib tashlagan **beton devor** qulashi shart” [3:148].

Asliyatda berilgan “***concrete wall***” iborasi ruz tiliga “бетонная стена” va o‘zbek tiliga “***beton devor***” tarzida aynan mos tarjima qilingan. Aslida, “**concrete wall**” iborasi orqali asliyatda muallif “***Berlin devori***” ga ishora qilgan. “***Berlin devori***” 1961–1989-yillarda Germaniyaning SSSRga bo‘ysunuvchi sotsialistik qismini, ya’ni Germaniya Demokratik Respublikasini (Sharqiy Berlin) Germaniyaning kapitalistik qismidan, ya’ni Germaniya Federativ Respublikasidan (G‘arbiy Berlin) ajratib turgan beton to‘siq hisoblangan. Bu devor siyosatda ham ramziy tarzda SSSR va uning ittifoqdoshlarini kapitalistik dunyodan ham g‘oyaviy, ham iqtisodiy jihatdan ajratib turgan.

Va yana shu gapda qo‘llangan “***Soviet Union satellite countries***” iborasidagi “***satellite***” so‘ziga ingliz tili izohli lug‘atlarida “***a country controlled by or depending on a more powerful country***” deya ta’rif beriladi va bu o‘zbek tilida “***kuchli davlatga tobe bo‘lgan yoki kuchli davlatlar tomonidan boshqariladigan mamlakat***” degan ma’noni anglatadi. Asliyatda keltirilgan “***Soviet Union satellite countries***” iborasi rus tiliga “Советский Союз и его сателлитов” hamda o‘zbek tiliga “**Sovetlarga tobe mamlakatlar**” tarzida mazmunga mos tarjima qilingan.

Yana bir jumla tarjimasi sharhi: Asliyatda: “**Mossad** had a complete file on the Romanian **dissident**. Groza had been the leader of a popular **Romanian movement** to depose Alexandros Ionescu and was about to stage a **coup** when he had been **betrayed** by one of his men. More than two dozen underground fighters had been executed, and Groza had barely escaped the country with his life. France had given him **sanctuary**. Ionescu denounced Mariz Groza as a **traitor** to his country and put a price on his head” [1:23]. Jumlaning tarjimasi rus tilida “В МОССАДе имелось досье на румынского диссидента. Гроза — лидер народного движения против Александру Ионеску — уже готовился поднять восстание, но был предан одним из своих людей и едва избежал ареста и казни. Франция предоставила ему политическое убежище. Ионеску объявил Грозу государственным изменником и назначил награду за его голову” [2:23] tarzida kelgan.

“**MOSSAD** maxfiy xizmatida ruminiyalik ana shu **siyosiy muhojir** haqida to‘liq ma’lumotlar to‘plangan edi. U Aleksandru Ioneskuni taxtdan ag‘darishni maqsad qilgan **xalq harakati** yetakchisi hisoblanadi. **To‘ntarish** arafasida yaqin yordamchilaridan biri **xoin** bo‘lib chiqdi. Yigirma maslakdoshi qatl etildi, o‘zi esa bir amallab xorijga qochib ketishga muvaffaq bo‘ldi. Fransiya hukumati unga **siyosiy boshpana** berdi. Lonesku Marin Grozani **millat dushmani** deb e’lon qilindi va uning boshi uchun mukofot belgilandi” [2:151].

Yuqoridagi parchada keltirilgan siyosiy idora nomi (MOSSAD) va boshqa siyosiy atamalar rus va o‘zbek tillariga mos holda o‘girilgan. Faqat “***dissident***” so‘zining tarjimasiga e’tibor qaratamiz. “***Dissident***” so‘ziga ingliz tili lug‘atlarida “***a person who publicly disagrees with and criticizes their government***” deya ta’rif berilgan va rus tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri “диссидент” tarzida tarjima qilinadi. O‘zbek tiliga esa “***siyosiy muhojir***” tarzida tarjima qilingan va bu asliyatda berilgan “***dissident***” so‘zining ma’nosiga mos emas. “***Muhojir***” so‘ziga o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta’rif beriladi: ***Muhojir*** – *hijrat qilgan, boshqa joyga ko‘chib ketgan. O‘zi fuqaro bo‘lib turgan yoki doimiy yashayotgan mamlakatini tashlab, boshqa davlatga doimiy yashash uchun jo‘nab ketuvchi kishi*. “***Muhojir***” so‘ziga O‘zbek tilining izohli lug‘atida berilgan ta’rif bilan “***dissident***” so‘ziga ingliz tilining izohli lug‘atida berilgan ta’rif bir-biriga ma’no jihatdan mos kelmaydi. “***Dissident***” so‘ziga ingliz tili lug‘atlarida berilgan ta’rif “***a person who publicly disagrees with and criticizes their government***” o‘zbek tilida “*o‘zi yashab turgan davlatning hukumatini ochiq tanqid qiladigan va uning yuritayotgan siyosatidan norozi bo‘lgan shaxs*” degan ma’noni anglatadi. “Толковый словарь Русского языка”da ham “диссидент” so‘ziga “Человек**,** не согласный с господствующей идеологией**,** инакомыслящий” tarzida berilgan ta’rif o‘zbek tilidagi “***siyosiy muhojir***” degan ma’noni bermaydi. Asliyatda berilgan “Dissident” so‘zining o‘rniga tarjimon “***siyosiy muxolif***” so‘zini ishlatganda juda mos bo‘lar edi. “***Muxolif***” so‘ziga o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta’rif beriladi: “*Muxolif – teskari, qarama-qarshi; itoatsiz; dushman. Qarama-qarshi fikrda bo‘lgan, qarshi chiquvchi, qarshi*”. Aynan “***muxolif***” so‘zining o‘zbek tilining izohli lug‘atida berilgan ta’rifi “***dissident***” so‘ziga ingliz tilining izohli lug‘atida berilgan ta’rifga juda mos keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, siyosiy atama va tushunchalarni tarjima qilish masalasi ancha mushkul vazifa. Tarjima jarayonida siyosiy matnlar va siyosiy atamalar tarjimoni siyosat va siyosatshunoslik bo‘yicha

yuqori darajadagi asosiy malakaga ega bo‘lishi va bu sohadagi ilmiy munozaralarning mohiyatini tushunishi kerak. Atoqli tilshunos, tarjimon A.V. Fedorovning ta’kidlaganidek, “To‘g‘ri tarjima qilishning asosiy sharti bu mavzuni bilishdir”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sydney Sheldon. Windmills of the gods. London, Book Club Associates, 2002.
2. Сидни Шелдон. Мелницы богов. перевод с английского Татьяна Перцева. Москва, издательство АСТ, 2013.
3. Sidni Sheldon. Taqdir tegirmoni. Rus tilidan Bahodir Zokir tarjimasi. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2009-yil 1-son.
4. Nida, E.A. Principles of Correspondence, in Venuti, L. (ed.) Translation studies reader. London: Routledge, pp. 153-167. 2004.
5. Nord, C. Translating as a purposeful activity. Manchester /Kinderhook: St Jerome. 1997.
6. Schäffner, C. Annotated texts for translation: English-German. Clevedon: Multilingual Matters. 2001.
7. Ernazarova N. Translation of political terms. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. January, 2022.
8. Ababilova N. M., Usachenko I. V. Peculiarities of political speeches translation. Науковий вісник Міжнародного гуманітарного університету. Сер.: Філологія. 2021.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. М ҳарфи. 656-664-бетлар. – Тошкент, ЎзМЭ. 2008.
10. С. И. Ожегов. Тольковый словарь Русского языка. Москва, 1960.

Lobar QAMBAROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti



O‘ZBEK TILIDAGI SENSOR AFAZIYAGA OID TAJRIBA TAHLILI

Annotatsiya:sezgi afaziya o‘zbek tilida hali tadqiq etilmagan soha hisoblanadi. Ushbu maqolada ona tili o‘zbek bo‘lgan sensor afaziyasi bo‘lgan ikki nafar ishtirokchida o‘tkazilgan tajriba natijalari tahlil qilingan. A.Luriyaning tasnifiga ko‘ra, predmetlarni nomlash va takrorlash ko‘nikmalarida buzilishlar kuzatildi. Akustik-fonologik differensiatsiyada sezilarli farqlar yo‘qligi sababli keyingi tajribalarni o‘tkazish zarurligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: *sensor afaziya, nutq buzilishi, akustik-fonologik farqlash, nomlash, A.Luriya.*

Аннотация:сенсорная афазия - это область, которая еще не была исследована в узбекском языке. В данной статье анализируются результаты эксперимента, проведенного с участием двух носителей узбекского языка с сенсорной афазией. Согласно классификации А. Лурии, у участников наблюдались нарушения в навыках называния объектов и повторения. В связи с отсутствием значительных различий в акустико-фонологической дифференциации подчеркивается необходимость проведения дальнейших экспериментов.

Ключевые слова: *сенсорная афазия, нарушение речи, акустико-фонологическое различение, номинация, А. Лурия.*

Annotation:sensory aphasia is an area that has not yet been researched in the Uzbek language.This article analyzes the results of an experiment conducted on two participants with sensory aphasia whose native language is Uzbek. In accordance with A. Luria’s classification, impairments in object naming and repetition skills were observed. Due to the absence of significant differences in acoustic-phonological differentiation, the necessity for conducting further experiments is highlighted.

Key words: *sensory aphasia, speech disorder, acoustic-phonological discrimination, naming, A. Luria.*

Afaziya neyrolingvistikaning muhim o‘rganish obyekti hisoblanib, sensor afaziya uning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.Broka afaziyasidan farqli ravishda sensor afaziya miyadagi fonologik tahlilga javob beruvchi hudud shikastlanishi natijasida yuzaga keladi va nutqiy jarayonni shakllantirishning fonematik darajasi izdan chiqadi.

Ilmiy adabiyotlarda ravon nutqning saqlanganligi, bir so‘z doirasida takrorlashning buzilishi, predmetlarni nomlay

olmaslik sensor afaziyaning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida keltiriladi.

Biroq so‘nggi tadqiqotlar sensor afaziyada semantik “kirish”ning buzilishini ham qo‘shimcha muammo sifatida keltiradi.

O‘zbek tilida Broka afaziyasi (agrammatik afaziya) va uning o‘ziga xos xususiyatlariga oid tadqiqotlar I.Azimova tomonidan olib borilmoqda. Sensor afaziya tadqiqiga bag‘ishlangan mazkur ish o‘zbek tilida bu yo‘nalishdagi ishlarning dastlabgilaridan hisoblanadi.

Sensor afaziya chap yarimshar yuqori chakka burmasining shikastlanishi natijasida yuzaga kelishi qayd etilsa-da, so‘nggi neyrovizualizatsiya natijalari o‘rta va yuqori chakka burmalari sensor afaziyada bir xil nisbatda zararlanishini ko‘rsatgan (Ogar et al., 2011). Sensor afaziya yuzaga keluvchi Vernike sohasi bir nechta neyron sohalari bilan bog‘liq ekanligi haqida kuchli dalillar mavjud bo‘lib, ular o‘z navbatida turli xil lingvistik funksiyalar bilan bog‘liq.

H.Robson tomonidan sensor afaziyada tushunishning buzilish tabiatini aniqlashtirish uchun uchta gipoteza ilgari surilgan: (1) akustik va/yoki fonologik tahlilning buzilishi; (2) semantik buzilish; yoki (3) kombinatsiyalangan fonologik-semantik buzilish (bu yerda ikkilik gipotezasi deb ataladi). Olib borilgan tadqiqot xulosalariga ko‘ra sensor afaziyada akustik tahlil, fonologik tasvirlar va semantik tasvirlardan nazoratli foydalanishning uch tomonlama buzilishi kuzatiladi.

Tajriba metodi

Ishtirokchilar

Tajribada insult natijasida afaziyaga chalingan 2 nafar bemor ishtirok etdi. Ishtirokchilarning har ikkisi ham erkak kishi, o‘zbek tili–ona tili hisoblanadi. Quyidagi jadvalda ular haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

	Tajriba ishtirokchilari	Jinsi	Nechi yil avval insult bo‘lgan	Tajriba vaqtidagi yoshi	Qo‘l	Kasbi	Ma’lumoti
1.	NO‘	erkak	4 oy avval	59	o‘ng	quruvchi	Oliy
2.	NI	erkak	1 yil	74	chap	muhandis	o‘rta-maxsus

Tajriba materiallari

Tajribada “Ikki tilli afaziyani o‘rganish testi” (Bilingual aphasia examination) va “Kentukki afaziya testi” (The Ketucky aphasia examination) laridan foydalanildi. Test quyidagi bandlardan iborat: murakkab buyruqlarni bajarish, nomlash (34 ta rasm); og‘zaki eshitish diskriminatsiyasi (32 ta rasm), takrorlash, o‘qish, avtomatlashgan nutqni tekshirish, semantik qarama-qarshilikni aytish, so‘zlarni o‘qib tushunish, gaplarni o‘qib tushunish, yozish.

Tajriba jarayoni

Tajribaning rasmlarni nomlash, og‘zaki eshitish diskriminatsiyasi, so‘zlarni gaplarni o‘qib tushunish bosqichlari uchun oq qora rangdagi rasmlardan foydalanildi. Bemor nutqi diktofonga yozib olindi. Sinaluvchilarga tajribaning har bir bosqichi boshlanishdan oldin vazifalari tushuntirildi.

Rasmlarni nomlashda ularga 34 ta rasm ko‘rsatildi. Ishtirokchilardan ko‘rsatilgan rasmni nomlash so‘raldi.

Og‘zaki eshitish diskriminatsiyasi sinovida ishtirokchilarga aytilgan so‘zni ifodalovchi rasmni ko‘rsatish vazifasi berildi.

Takrorlash bosqichida dastlab muayyan leksik ma’no ifodalamaydigan bir bo‘g‘inli so‘zlar (CVC shaklidagi 4 ta), keyin leksik ma’no ifodalovchi 2 bo‘g‘inli so‘zlar (4 ta), so‘ngra gaplarni (2 ta) takrorlab berish so‘raldi.

O‘qish ko‘nikmasi saqlanganligi tekshirishda 4 ta leksema berildi va o‘qib berish so‘raldi.

Avtomatlashgan nutqni tekshirishda sinaluvchilar hafta kunlari va hayvon nomlarini aytishdi.

Semantik qarama-qarshilikni topishda tajriba ishtirokchilariga so‘z aytildi va uning qarama-qarshi ma’nosini aytish so‘raldi.

Dastlab so‘zlarni, keyin gaplarni o‘qib tushunish ko‘nikmasi saqlanganligini tekshirishda qog‘ozda yozilgan so‘zni gapni o‘qib, shu so‘zga mos keluvchi rasmni ko‘rsatish kerakligi aytildi.

Yozish ko‘nikmasi saqlanganligini tekshirish ikki bosqichdan iborat bo‘ldi. Dastlabki bosqichda qog‘ozga yozilgan so‘zni ko‘chirib berish so‘raldi. Keyingi bosqich diktant shaklida bo‘lib, aytilgan so‘zni yozib berish topshirig‘i berildi.

Tajriba jarayonining bu shaklda tashkillashtirilishidan maqsad o‘zbek tilidagi sensor afaziyaning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va buzilishning turi haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lishdir. Ushbu tadqiqotda faqat ishtirokchilar bilan rasmlarni nomlash va moslash bosqichlari bo‘yicha tajribada aniqlangan natijalar tahlil qilindi.

Baholash

Sinaluvchilarning javoblari har bir topshiriq bo‘yicha berilgan to‘g‘ri javoblar soni va qilingan xatolar bo‘yicha tahlil qilindi. Tajriba oluvchi yordami bilan aytilgan javoblar yoki noto‘g‘ri javoblar xato hisoblandi.

Tajriba natijalari

Nomlash vazifasida ishtirokchilarga 34 ta rasm ko‘rsatildi. Tajriba jarayonida sinaluvchilarning ruhiy va fiziologik holatini inobatga olgan holda klinik jihatdan qulay materiallar ko‘rsatilishi kerak edi. Shu maqsadda tuzilgan Kentukki afaziya testi namunalaridan foydalanildi. Bu rasmlar asosan ot so‘z turkumiga mansub so‘zlardan iborat bo‘ldi. Sinaluvchilardan ko‘rsatilgan rasm nomini aytishlari so‘raldi. Natijalar quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval. Rasmlarni nomlash topshirig‘i bo‘yicha sensor afaziyaga uchragan bemorlarning natijalari.

Afaziyaga tashxisi qo‘yilgan ishtirokchilar	Total	%
NO‘	2/34	5.8
NI	4/34	11

Jadavaldan ko‘rish mumkinki, sensor afaziyaga uchragan bemorlarda nomlash bilan bog‘liq ko‘rsatkich past natijani ko‘rsatdi.NO‘ rasmlar varaqasidagi ketma-ketlikda dastlab balon rasmini payqadi. Tajriba davomida unga ko‘rsatilgan barcha rasmlarni balon tarzida nomladi. Sinovchi yordami bilan gul hamda doira leksemalarini ifodalay oldi. Biroq bu to‘g‘ri javob sifatida baholanmadi. Kvadrat shakli burchak shaklida nomlandi. Berilgan rasmlardan ayiq va shlyapa leksemalarini ifodalovchi rasmlar to‘g‘ri nomlandi.

NI bilan olib borilgan tajriba jarayonining bu bosqichida ayiq, karobka (quti), odam, shina kabi leksemalarni ifodalovchi rasmlar to‘g‘ri nomlandi. Koptok rasmiga narsa tarzida, doira rasmiga “hech narsa yo‘q” kabi javoblar berildi.

Nomlash ko‘nikmasining buzilganligini A.Luriya sensor afaziyaning muhim xususiyati sifatida keltiradi: “Bemorda kerakli narsalarning nomlarini topish juda qiyin kechadi, shu bilan birga ko‘pincha uchrab turadigan, o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan nomlar (stol, kitob, telefon, palto, pichoq va hokazo) ba’zan osongina topilishi mumkin bo‘lsa, uncha tanish bo‘lmagan va uncha mustahkamlanmagan narsalarning nomlarini topishga urinish bemorni juda qiyin ahvolga solib qo‘yadi” . Bunday holda so‘zning kontekst orqali izlanishi, harfiy parafaziyalar, yordamchi (tovushiga ko‘ra yaqin yoki ma’nosiga ko‘ra umumiy) so‘zlarning salgina paydo bo‘lishi kuzatilishi, bemor bu so‘zlarni noadekvat deb bilishi, lekin ularni kerakli so‘zlar bilan almashtirolmasliklarini qayd etadi.

Nomlash bo‘yicha olib borilgan tajriba natijalari A.Luriya tasnifiga mos kelishi kuzatildi.

Yuqoridagi holat o‘zbek tilidagi sensor afaziyada ham nomlash ko‘nikmasining izdan chiqishini ko‘rsatadi.

Og‘zaki eshitish diskriminatsiyasi (verbal auditory discrimination) akustik-fonologik farqlash deb ham yuritiladi. Akustik-fonologik jarayonlarni bevosita o‘rganish afaziologiyada uzoq tarixga ega.

Bunday tadqiqotlar asosan ishtirokchilarni fonologik farqlash (ikki fonema qatorining bir xil yoki farqli ekanligini aniqlash) va fonologik identifikatsiya (eshitilgan fonemalarni berilgan variantlar to‘plamiga moslashtirish) testlari yordamida baholashni o‘z ichiga oladi.

Bu bosqichda sinaluvchilardan tajriba o‘tkazuvchi tomonidan aytilgan so‘zlarga mos keluvchi rasmlarni ko‘rsatishi so‘raldi. Tajribaning bu bosqichida BAE (Bilingual aphasia examination) hamda Kentukki afaziya testlaridan foydalanildi. Ishtirokchilarga 32 ta leksema aytilib, og‘zaki eshitishni farqlash ko‘nikmalari tekshirildi. Tajriba natijalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Afaziyaga chalingan ishtirokchilar	So‘z va rasm mosligi	Gap va rasm mosligi	%
NO‘	18/18	2/7	100/28
NI	16/18	0/7	88/0

Ko‘rsatkichlardan ma’lumki, ishtirokchilar so‘z va rasm mosligida yuqori natijalarni qayd etishgan. Biroq gaplarni rasmga moslashda qiyinchiliklarga duch kelishdi. Buni quyidagicha izohlash mumkin. Sensor afaziya bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar bilan tanishib chiqilganda akustik-fonologik farqlash saqlanganligini tekshirish uchun ishtirokchidan ikki og‘zaki so‘z yoki so‘z bo‘lmagan birliklarning fonologik jihatdan bir xilligini (ya’ni ikkala so‘z yoki so‘z bo‘lmagan birliklar ular uchun bir xil yoki farqli eshitilishini) aniqlashni talab etgan. Bir xil bo‘lmagan juftliklar ko‘pincha bitta fonetik xususiyat bilan farqlangan (minimal juftliklar: masalan, /pat/ va /bat/ yoki /lop/ va /nop/). Ilmiy tadqiqotlarda ba’zan so‘z bo‘lmagan birliklar afzal ko‘rilgan. H.Robson tomonidan olib borilgan tadqiqotda ham sensor afaziyada akustik-fonologik farqlash uchun so‘z bo‘lmagan birliklardan foydalanilgan. Bu ingliz tilidagi fonemalarning chalkashlik darajasiga asoslangan holda olib borilgan.

A.Luriya ham sensor afaziyaga uchragan bemorlar bir belgi farq qiluvchi fonemalarni farqlay olmasliklarini aniqlagan. “Bunday buzilish aniqlangan bemorlar da-ta va ta-da, ba-pa va pa-ba bo‘g‘inlaridagi farqni to‘g‘ri ajrata olmaydi, ularni da-da yoki ba-ba kabi bir xilda talaffuz qiladilar. Ular juftlikning ikkala qismida ham qandaydir farq borligini aytishadi, lekin uni aniq belgilay olmaydilar”.

Biz akustik-fonologik farqlash sharti uchun tanlagan rasmlarga mos keluvchi leksemalarda bir-biriga yaqin fonemalar mavjud emas edi (mashina-bar-banka-yulduz/ poyezd-kran-bug‘doy-rakvina).

Birinchi xulosa shundan iboratki, o‘zbek tilidagi sensor afaziya uchun ham akustik-fonologik farqlashning buzilishi xarakterli xususiyat ekanligini aniqlash uchun bir fonema bilan farqlanuvchi so‘z va rasm mosligi uchun testlar ishlab chiqilishi va takroran o‘tkazilishi kerak. Ikkinchi xulosa, H.Robson (2011) tomonidan o‘tkazilgan tajriba natijalaridan kelib chiqqan holda leksik ma’no anglatmaydigan qisqa bo‘g‘inlar bilan tajriba o‘tkazish sensor afaziyada akustik-fonologik buzilishni yaqqolroq namoyon qilishi mumkin.

Gap va rasm mosligida ishtirokchilar past natijani qayd etishdi. Gaplar orasida mantiqiy fikrlash asosida javob talab etiladigan“Yuk mashinasi yengil mashinani tortmayapti” mazmunidagi birlik ham mavjud.Bemor yengil mashina yuk mashinasini tortib ketayotgan rasmni tanlashi kerak edi.NO‘ tomonidan gapning bo‘lishsiz shaklda ekanligiga e’tibor qaratilmadi va yuk mashinasi yengil mashinani tortib ketayotgandagi javob varianti tanlandi. Bemor NI ga gap yanada soddalashtirib, bo‘lishli shaklda “Katta mashina kichkina mashinani tortyapti” shaklida berilsa ham gap mazmunini idrok eta olmadi va xato javobni ko‘rsatdi. Natijalardan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, sensor afaziyada murakkab sintaktik strukturalarni tushunish jiddiy buzilgan bo‘ladi. Murakkab sintaktik strukturalarning buzilishini ularni tashkil etgan leksemalar ma’nosini tushunmaslik bilan izohlash mumkin. A.Luriya bemorlar nutqning leksik tarkibini bilmasalar ham, nutqning intonatsion-melodik tomonini va uning ma’nosini ilg‘ab olish imkoniyatini saqlab qolishlarini, shu tufayli ayrim so‘zlarning ma’nosini to‘g‘ri tushunmaydigan bemorlar o‘zlariga aytilgan gapning umumiy tuzilishini ilg‘ab olishda davom etishligini va ayrim leksik birliklarning ma’nosini ilg‘ab ololmaslik bilan bog‘liq qiyinchiliklarni chetlab o‘tib, uning umumiy ma’nosi haqida taxminlar qila boshlashini qayd etadi.

Xulosa qilib aytganda, sensor afaziyada nomlash va akustik-fonologik buzilish ingliz, rus tillari materiallari asosida tadqiq qilingan. O‘zbek tilida ham sensor afaziyaga uchragan bemorlarda nomlash bilan bog‘liq buzilish aniqlandi. Akustik-fonologik buzilish yana qo‘shimcha izlanishlar va o‘zbek tili uchun maxsus materiallar ishlab chiqilishini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лурия А. Письмо и речь. Нейролингвистические исследования. – Москва: Академия, 2002.190-с.

2. Кулеш С. Нарушения речи при локальных поражениях мозга. – Белорусь: 2018. Медицинские новости.№3. 5-с.

3. Rodriguez O. Lexical access in Broca’s and Wernicke’s aphasia. Universidad del Pais Vasco. Euskal Herriko Unibersitatea, 2021-2022. 34- P.

4. Азимова И. Ўзбек тилидаги аграмматик афазияда айрим феъл замонларининг ифодаланиши. Ўзбек тили ва адабиёти журнали, 2016. – №6. 95-100. Азимова И. Ўзбек тилидаги аграмматик спонтан нутқда гапларнинг қўлланиши. Ўзбек тили ва адабиёти, 2019. – №5. 94-98.

5. Robson H. Investigating the comprehension impairment in Wernicke's aphasia. – Manchester: 2011.24-p.
6. Bilingual aphasia examination. Guilhem V., Gomes S., K.Prod'homme., Kopke
7. Marshall R., Wrihgt H. Developing a Clinical-Friendly Aphasia Test. American Journal of Speech-Language Pathology. Vol.16. 295-315.
8. Robson H. Investigating the comprehension impairment in Wernicke's aphasia. – Manchester: 2011.112-p.
9. O'sha manba. – P.119.
10. Лурия А. Письмо и речь. Нейролингвистические исследования. – Москва: Академия, 2002. 188-с.
11.Лурия А. Письмо и речь. Нейролингвистические исследования. – Москва: Академия, 2002. 184-с.
12.O'sha manba.264-b.

Zumrad MASHARIPOVA,
UrDu mustaqil tadqiqotchisi
Zumradmasharipova42@mail.com

SHOIRALAR SHE'RIYATIDA ANALITIK FOLKLORIZMLAR

Annotatsiya: analitik folklorizmlar asarning badiiy to'qimasi, uning ustuvor g'oyasi bilan birikib keta olmasligi jihati bilan xarakterlanadi. B.Sarimsoqov analitik folklorizmlarning asar syujeti bilan bevosita bog'lanmasligini atroflicha ta'kidlaydi.

Olimning fikricha: "Analitik folklorizmning asosiy vazifasi asarning bosh g'oyasini qabartirib ifodalash, unga ramziy, falsafiy ruh bag'ishlashdan iborat". Olim analitik folklorizmni ikki xil shakliy ko'rinishda ko'rinadi deb hisoblaydi: a) folklorizm uning folklordagidek to'liq shaklida; b) folklorizm mazmunan saqlansa-da, biroq shaklan o'zgartirilgan, ishlov berilgan holda keltiriladi. Mazkur maqolada analitik folklorizmning oddiy folklorizmdan farqli jihati va analitik folklorizmlarning o'zbek she'riyatida, xususan ayollar ijodida qo'llanilishini tahlillarimiz asosida yoritib berishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: *bolalik, terak, laylak, xivchin, tosh, qarg'ish, orzu.*

Annotation: analytical folklorisms are characterized by the fact that they cannot be combined with the artistic texture of the work and its main idea. B. Sarimsakov thoroughly emphasizes that analytical folklorisms are not directly connected with the plot of the work.

According to the scientist: "The main task of analytical folklorism is to express the main idea of the work, to give it a symbolic and philosophical spirit." The scientist believes that analytical folklorism can be seen in two different forms: a) folklorism in its full form as in folklore; b) folklorism is preserved in content, but it is presented in a modified and processed form. In this article, we tried to explain the different aspects of analytical folklorism from ordinary folklorism and the use of analytical folklorisms in Uzbek poetry, especially in women's works, based on our analysis.

Key words: *childhood, poplar, stork, stone, curse, dream.*

Аннотация: аналитические фольклоризмы характеризуются тем, что они не могут сочетаться с художественной фактурой произведения и его основной идеей. Б. Саримсаков обстоятельно подчеркивает, что аналитические фольклоризмы не связаны напрямую с сюжетом произведения.

По мнению ученого: «Основная задача аналитического фольклоризма — выразить основную идею произведения, придать ему символический и философский дух». Ученый считает, что аналитический фольклоризм можно рассматривать в двух различных формах: а) фольклоризм в его полной форме, как в фольклоре; б) фольклоризм сохраняется по содержанию, но представлен в измененном и переработанном виде. В этой статье мы попытались на основе нашего анализа объяснить отличия аналитического фольклоризма от обычного фольклоризма и использования аналитических фольклоризмов в узбекской поэзии, особенно в женских произведениях.

Ключевые слова: *детство, тополь, аист, камень, проклятие, мечта.*

Kirish. Shoiralar she'riyatida analitik folklorizmlar, xalq og'zaki ijodining boy merosini zamonaviy san'at bilan birlashtiruvchi muhim jarayonlardan biridir. Folklor, har bir xalqning madaniyati, an'analari va urf-odatlarini aks ettiruvchi noyob manba bo'lib, u nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ijtimoiy hayotda ham o'z o'rnini topadi. Shoiralar

o‘z asarlarida folklor unsurlarini qo‘llash orqali, o'z xalqining madaniy merosini saqlab qolish va uni yangi kontekstda talqin etish imkoniyatini yaratadilar.

Analitik folklorizmlar, shoiralarning ijodida xalq an’analarini, afsonalarini va hikoyalarini yangicha uslubda ifodalashni anglatadi. Bu jarayon, shoiralarning shaxsiy tajribalari va zamonaviy hayot muammolarini folklor unsurlari orqali ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Shoiralar o‘z asarlarida folklor elementlarini qo‘llash orqali, nafaqat o‘z xalqining madaniy merosini saqlab qolish, balki o‘z shaxsiy ovozlarini yaratish va ijodiy uslublarini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydilar.

Asosiy qism. Analitik folklorizm oddiy folklorizm singari asar syujetidan ajralib olinishi mumkin. U qo‘llanishiga ko‘ra oddiy folklorizm kabi bir xil ichki guruhlanish kasb etadi. Shuning uchun olim B.Sarimsoqov keltirgan tasnifni quyidagi tarzda ixchamlashtirish mumkin: a) to‘liq, yani asl analitik folklorizm; b) noto‘liq, yani ishlov berilgan analitik folklorizm.

Har qanday folklorizm turi, eng avvalo, badiiy asarning xalqchilligini ta’minlaydi.

O.Hojiyevaning “Bolalik” dostonidagi “Sanginjon qissasi” qismida ifodalangan “Oq terakmi, ko‘k terak” nomli bolalar qo‘shig‘i qahramon hayotida sodir bo‘layotgan voqealarning aniqlashuviga yordam berish uchun keltirilgan analitik folklorizmdir:

- Oq terakmi, ko‘k terak!
  Bizdan Sizga kim kerak?!
- Suluv Sanginoy kerak!
- Xushro‘y Sanginoy kerak!

She’rda bolalar folklorida qadimiyligi va an’anaviyligi bilan alohida ajralib turadigan “Oq terakmi, ko‘k terak?” o‘yini qo‘shig‘idan foydalanib, analitik folklorizm yuzaga keltirilgan. Bu qo‘shiqning analitik folklorizm sifatida tanlanishiga uning aynan an’anaviyligi sabab bo‘lgan. Uning keltirilishi she’rning realligini, xalqchilligini va ta’sirchanligini oshirgan.

Analitik folklorizm oddiy folklorizm kabi asl holida yoki sal o‘zgartirilgan holda syujetga singdirilmagan folklor materiali bo‘lib, asar tarkibida alohida ajralib turadi. Xalq maqolidan boshqa istalgan folklor janri: rivoyat, afsona, qarg‘ish, olqish, to‘liq holida ham doston, qo‘shiqlardan parchalarning badiiy asar tarkibida keltirilishidan analitik folklorizm yuzaga keladi. Analitik folklorizm adabiy tur va janrlarning barchasida uchrayverishiga ko‘ra folklorizmning boshqa turlaridan yaqqol farq qiladi. Bu imkoniyat analitik folklorizm bilan bir qatorda oddiy folklorizmda ham kuzatiladi.

Analitik folklorizm she’riyatdan ko‘ra nasrda ko‘proq tarqalgan. Analitik folklorizmlarning nasrda qo‘llanilish holati ham ko‘p tadqiq qilingan. Biroq tadqiqotlarda “analitik folklorizm” deyilmay, “folkor an’analari”, “folklor ta’siri” sifatida talqin qilingan.

O.Hojiyevaning “Bolalik” dostoni beshta mustaqil poetik hikoya ko‘rinishida tuzilgan bo‘lib, ularning har biri bolalik xotiralari sifatida bir umumiy ipga tizilgan. Birinchi poetik hikoya “Sanginjon qissasi” deb nomlanadi. Shoira she’riy hikoyada olqish, yig‘i va bolalar o‘yini namunalarini aynan keltirish orqali analitik folklorizmni hosil qiladi.

Har bir hikoya syujetda ma’lum bir vazifa bajargan. Ularning birortasidan voz kechilsa, syujetdagi joziba va ta’sirchanlikka putur yetadi, ammo syujet buzilmaydi:

“Laylak keladi toqqa,
Quloqlarida halqa.
Halqasi tushib qoldi,
O‘tirdi yig‘lamoqqa!” [2:125]

Shoira bu qo‘shiqni she’rni jonlantirish uchun keltirmaydi. Ko‘ldagi laylaklar kuzda uchib ketib, ko‘klamda qaytishi, ammo bolalik qush misoli uchib ketsa, qaytmasligini ta’kidlaydi. “Sanginoyning qissasi” qayg‘uli tarzda yakun topadi. She’rda tasvirlangan sinchining ko‘ngli qoraligi Sanginjonning o‘limiga sabab bo‘ladi.

O.Hojiyeva voqealar tabiiyligini yanada oshirish uchun xalq qo‘shiqlaridan ham foydalanadi:

“Tol xivichdan otlar qilay,
Tol bargidan xatlar qilay!
Sayl-u tamosho kunlari
Yig‘lab sani yodlar qilay!.. [3:129]

Shoira bu she’rda xalq yig‘isini keltirish bilan chegaralanmaydi. U keltirgan yig‘i hamda o‘zi stilizatsiya asosida yaratgan yig‘i hikoya kulminatsiyasini yanada kuchaytiradi.

So‘rar edim dam-badam:
Nega betob Sanginoy?
“So‘rab netasan, bolam?”
Uyingga to‘lsin bug‘doy! [4:127]

“Uying bug‘doyga to‘lsin!” olqishini inversiyaga uchratgan holda “Uyingga to‘lsin bug‘doy!” tarzida qo‘llaydi. Ona o‘z bolasiga tanbeh berishini ham muloyimlik bilan duo orqali ifodalaydi va shu tariqa analitik folklorizmni yuzaga keltiradi.

“Oq terakmi ko‘k terak?” harakatni so‘z boshqaradigan aytishma o‘yinlar sirasiga kiradi. Biroq shoira o‘yindagi satrlarni bolalar hayotining oddiy manzaralarini tasvirlash uchun emas, hikoyaning qayg‘uli yakunini yanada qayg‘uliroq ko‘rsatish uchun keltiradi. Chunki Sanginoy dugonalari bir umr chorlasalar ham qaytib kelmaydigan joyga ketgan. Analitik folklorizm aynan shu tasvirni jonli ravishda tasvirlamoqda. Dostonni tashkil qilgan beshta hikoyadan to‘rttasida o‘ndan ortiq analitik folklorizmlar mavjud. Dostonda qo‘llanilgan analitik folklorizmlar soni ko‘p bo‘lsa-da, nihoyatda mahorat bilan qo‘llanilgani bois o‘quvchining g‘ashiga tegmaydi. Shu o‘rinda ko‘rinadiki, folklorizmlar bir asar tarkibida uyushib, mazmun jihatidan bir-birini to‘ldirib, mantiqan bog‘lanib kelishi mumkin.

So‘z va uning sehr-jodu qudratidan qo‘rqish

mohiyatan bir-biriga qarshi bo‘lgan janrlarning vujudga kelishiga sababchi bo‘lgan ekan, bu janr kundalik hayotimizda qo‘llanish o‘rni va sababi jihatidan ham o‘zaro ajralib, farqlanib turadi. Olqish kishilarga yaxshilik tilash, ularning ruhiyatini ko‘tarishga xizmat qilib, turmushning deyarli har bir lahzasida xizmat qiladi. Qarg‘ish esa kishilarga faqat yomonlik tilash lozim bo‘lgan o‘rinlardagina qo‘llaniladi. Qarg‘ish o‘zbek folklorining mustaqil janrlaridan biri hisoblanib, qarg‘ish atamasi yomon mazmunni ifodalovchi qadimgi turkiy “kir” fe‘liga –g‘a ikkinchi shaxs buyruq maylining hamda (-ish) harakat nomi qo‘shimchalarining qo‘shilishi orqali yasalgan. Qarg‘ish bilan so‘kishni mazmunan bir narsa deb tushunish noto‘g‘ri. Qarg‘ishlarda kishilarga yomonlik va baxtsizlik tilash ustunlik qilsa, so‘kishlarda esa kishi shaxsiyati haqoratlanadi va ravo ko‘rilayotgan yomonlik dangal hukm tarzida ifodalanadi. Orzu-istaklariga yetishmasligi tilanadi.

Har bir davr she’riyati xalq qarg‘ishlaridan turli o‘rinlarda foydalanib, analitik folklorizmni yuzaga keltirdi. Qarg‘ishlar ijtimoiy ahamiyat kasb etib, davrdan norozilikni ifodaladi, xiyonatni qoraladi, urushni la’natladi, xalq ruhiyatidagi o‘zgarishlarni ifodalashga xizmat qildi, xalq qarg‘ishlarining janr sifatida kelajak avlodlarga yetishini ta’minladi. Tadqiqotlarimiz natijasida hozirgi o‘zbek shoiralari she’riyatida ham qarg‘ish janriga duch keldik va ularni ilmiy asoslab berishga harakat qildik:

Tanqidchi O.Sharafiddinov H.Xudoyberdiyeva ijodi xususida shunday fikrlarni bildiradi: “Halima fojeaviy ruhni berganda shunday so‘zlarni tanlaydiki, bu so‘zlardan tun-tun dud chiqib turganday tuyuladi”. Shoiraning musavvir ko‘zi bilan kuzatilgan, chizilganday quyidagi satrlari, fojealar hali uzoq yillar bizni hushyor yashashga undaydi:

Balo Oloy tosh otganin unuting,
Balo bizga yondashganin unuting.
Qorachiqlar o‘yib olingani-yu,
Qaroqlardan qon toshganin unuting.
Unutganning kuysin ikki dunyosi. [5:12]

H.Xudoyberdiyeva xalqimiz boshiga tushgan kulfatlar, g‘am-anduhlar, quvonchli kunlarning birortasiga befarq qaramaydi. “Sovet armiyasi” saflaridan temir tobutlarda qaytgan xalqimiz o‘g‘lonlari taqdiridan oz-muncha ozor chekilmadi. Shoira bu katta g‘amni ixchamgina she’riga sig‘diradi. O‘sha mudhish lahzalarni qayta takrorlanmasligini tilaydi. Tinchligimizning asoschisi bo‘lgan o‘g‘lonlarning jasoratini unutadigan kimsalardan noroziligini “Unutganning kuysin ikki dunyosi” qarg‘ishi qatiga singdirib ifodalashga intiladi.

Xulosa. Shoiralar she’riyatida analitik folklorizmlar, xalq og‘zaki ijodining boy merosini zamonaviy kontekstda qayta talqin etish jarayonidir. Bu jarayon shoiralarning o‘z asarlarida folklor unsurlarini, an’analarni va urf-odatlarni qanday qilib yangicha ifodalashlarini ko‘rsatadi. Analitik folklorizmlar, shuningdek, shoiralarning shaxsiy tajribalari va zamonaviy hayot muammolarini ifodalashda xalq ijodidan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shoiralar, folklor elementlarini o‘z asarlarida qo‘llash orqali o‘z xalqining madaniy merosini saqlab qolish va uni yangi avlodga yetkazish maqsadida ijod qiladilar. Bu jarayon, shuningdek, shoiralarning o‘z shaxsiy ovozlarini yaratish va ijodiy uslublarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Folklor unsurlari shoiralarning asarlarida nafaqat estetik jihatdan, balki ma’naviy va ijtimoiy kontekstda ham muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, analitik folklorizmlar, o‘zbek she’riyatining zamonaviy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Ular shoiralarning ijodida xalq an’analarini yangicha talqin etish orqali, o‘z xalqining madaniy merosini saqlab qolish va uni yangi avlodga yetkazish jarayonida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayon, shoiralarning ijodiy qobiliyatlarini kengaytiradi va o‘zbek she’riyatining boyligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Halima Xudoyberdiyeva. Tanlangan asarlar. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2019. 12-bet.
2. Oydin Hojiyeva. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi “Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988.
3. Abdullayeva, M. (2018). “Zamonaviy o‘zbek she’riyatida folklor elementlari”. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.
4. Toshpo‘latova, S. “Shoiralar ijodida folklor va an’analar”. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi. 2020.
5. Xolmatova D. “O‘zbek she’riyatida analitik folklorizmlar”. – Toshkent: Fan va texnologiya. 2019.
6. Saidova N. “Zamonaviy o‘zbek shoiralarining ijodida xalq an’analari”. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat Vazirligi. 2021.

M. MAMADIYAROVA,
SamDChTI erkin tadqiqotchi

“ALPOMISH” DOSTONIDA ALP AYOLLAR OBRAZI TALQINLARI

Annotatsiya: ”Alpomish” dostoni barcha jahon qahramonlik eposlariga xos bo‘lgan ezgulik bilan yovuzlik o‘rtasidagi mangu kurashi va unda yaxshilikning g‘olib kelishi fonida ijod qilingan. Asardagi kurash ikkiga bo‘lingan elning birlashtirish uchun kurashuvchi qahramon - Alpomish, unga bu yo‘lda yordam beruvchi yor – Barchinoy va singlisi Qaldirg‘och timsollaridagi ezgulik va ularga qarshi kurashuvchi qalmoq alplari, xudbin o‘gay uka qiyofasidagi yovuzlik o‘rtasida tasvirlangan. Qahramonga yordam beruvchi xotin-qizlar obrazlari dostonda nihoyatda yorqin bo‘yoqlarda, qahramonona ta’riflarda berilganki, biz mazkur maqolamizda shu haqda so‘z yuritamiz.

Kalit so‘zlar: *doston, Alpomish, Barchin, Qaldirg‘och, qahramonlik, yovuzlik, ezgulik.*

Аннотация: эпос "Алпомиш" создавался на фоне вечной борьбы добра и зла, характерной для большинства мировых героических эпосов, и торжества в нем добра. Борьба в произведении изображена между героем расколотого народа, Алпамишем, борющимся за объединение, любимой девушкой Барчиной и сестрой Калдиргоч, которые помогают ему на этом пути, и калмыцкими богатырями, злом в облике антогониста сводного брата. Образы женщин, помогающих герою, даны в эпосе в невероятно ярких красках, героических определениях, о чем мы и приводим в этой статье.

Ключевые слова: *эпос, Алпомиш, Барчин, Қалдиргоч, героизм, зло, добро.*

Annotation:the epic “Alpomish” was created against the background of the eternal struggle of good and evil, characteristic of most of the world's heroic epics, and the triumph of good in it. The struggle in the work is depicted between the hero of the split people, Alpamish, fighting for unification, his beloved girl Barchina and sister Kaldirgoch, who help him along this path, and the Kalmyk heroes, evil in the guise of the antagonist of his half-brother. The images of women helping the hero are given in the epic in incredibly bright colors, heroic definitions, which we present in this article.

Key words: *epic, Alpomish, Barchin, Kaldirgoch, heroism, evil, good.*

“Alpomish” dostoni [1] bosh qahramoni Alpomish, singlisi Qaldirg‘och va sevgilisi Barchin tilab olingan va kelajakda qahramonliklari bilan shuhrat qozonadigan farzandlardir. Ular g‘aroyib tarzda dunyoga keladi. Farzandlar ulg‘aygani sayin turli xislatlarga ega bo‘lishadi, yo‘llarida uchraydigan turli to‘siqlarni mardonovor yengishadi. Uddaburonliklari, ilohiy qudratlari bilan barcha qiyinchiliklarga chidashadi, ularni yengishadi.

Doston syujeti Alpomishning yori, or-nomus uchun qahramonona kurashiga asoslangan. Biroq, dostondagi oshiq-ma’shuqalar o‘rtasida o‘tli sevgi ko‘rinmagandek, visol, rashk, o‘rtanishlar yo‘qdek. Bunday xalq dostonlarida mumtoz adabiyot dostonlariga xos bo‘lgan qalb kechinmalari, ayriliq iztiroblariga emas, balki qahramonlarning jismoniy kuchiga ko‘proq e’tibor beriladi.

Alpomish gohida yori masalasida ikkilangandek ham bo‘ladi: Barchinning Qalmoq yurtidan maktub yuborishi va undan xabar topgan Alpomishdagi sovuqqonlik qahramonni befarq oshiq holatiga solib qo‘ygandek. Singlisi Qaldirg‘och akasidan achchiqlangan bo‘lib shunday deydi:

Har kim o‘z elida bekmi, to‘rami,
Nar - modalar sendan kamroq bo‘lami,
Mardning yori toy - talashda qolami ?!

Qaldirg‘ochning achchiq so‘zlaridan “qaynay” boshlagan Alpomish yo‘lda uchragan va uning ketayotganligidan bezovta bo‘layotgan otasiga achchiq qilib “ Ey, zakot olmay o‘ling siz bir”, deb “chaqib” oladi.

Oybarchin dostonda “zulfakdor”, “oyimcha”, “suluv” kabi go‘zallikni ifodalovchi sifatlar bilan ta’riflanadi. Bu tashbehlar mumtoz adabiyot uchun xosdir, xalq dostonlari uchun emas, bu sifatlar Barchinning asl tavsifi emas. Barchin qo‘rqmas, dovyurak, jangovor qiz obrazida ko‘rinadi.

O‘zga yurtda, qalmoq mamlakatida Barchin juda qiynaldi. Qalmoq alplarining oldida cho‘kib qolgan otani ko‘rib ezildi va o‘zining qanday qudrat egasi ekanligini qalmoq alplariga ko‘rsatib qo‘ydi:

Qalmoq Ko‘kaman Barchinga zulm qilmoqchi bo‘ladi, uyiga bostirib kiradi. Zo‘ravon “Ko‘kaman alp Barchinning burumidan ushlab, poygaga qarab torta boshladi. Barchin o‘zini o‘ngg‘arib, qo‘lini uzatdi, bir qo‘li Ko‘kamanning yoqasiga yetdi, bir qo‘li bilan belbog‘idan tutdi. “ Yo, Shohimardon pirim”, - deb ko‘tarib, chalqaramon qilib yerga qo‘ydi. Chap tizzasini ko‘kragiga qo‘yib turdi. Og‘zi-burnidan dirak-dirak qon keta berdi”.

“Mardlar olishmaydi, siltab otadi”, deb fikrlaydigan Barchin jonsiz kurash tushayotgan kuyoviga achchiq dashnom beradi:

“... Nar-moda bo‘libsiz biy bobom uli.

Yiqolmasang, bizga bering navbatdi,
Juda keldi Barchin yoring g‘ayrati,
Ushlagandan ko‘kka otmay ne bo‘pti?...”

Boychiborning tuyog‘idan gul mixlarni tishi bilan sug‘irib olgan, qalmoq alplarining yuragiga dahshat solgan Barchin iffat-nomusi uchun har qanday jasoratga tayyor. Bu lavhalar o‘tmishda xalqimiz orasida kurash nafaqat erlar, balki xotin-qizlar orasida ham keng yoyilganligini bildiradi. Barchin kabi kurash tushgan, jismoniy yetuk bo‘lgan qizlar o‘tmishda komillik timsoli sanalgan.

Jangovar qizlar obrazi grek folkloridagi “amazonkalarda”, germanlarning “Nibelunglar haqida qo‘shiq” dagi Zigfrid va Bryunxilda qissasida, “Qirq qiz”, “Manas”, Yunus va Misqol pari bilan bog‘liq dostonlarda, “Dada Qurqut kitobi” va “Alpomish” dostonlarida ko‘rinadi. Grek yozuchisi Klavdiy Elian (II asr oxiri - III asr boshi) shak(sak) lardagi uylanish marosimi haqida ma’lumot berib aytadiki, mavjud bo‘lgan odatga ko‘ra agar er-kishi biror qizni xotinlikka olmoqchi bo‘lsa, u bilan chinakamiga jang qilishi lozim bo‘lgan. Kim yengsa, o‘sha oilada hukmron bo‘ladi, yengilgan unga bo‘ysungan. [2, B.93] “Bamsi bayrak” dagi Bamsi o‘g‘lon alp qiz Bonu-Chechakka erishish uchun u bilan bahsga kirishishi va ot poygasida, yoydan o‘q uzishda, kurashda uni yengishi zarur.

Qadimgi turkiy eposlarida alp xotin-qizlar va ularning jangovarligi haqidagi epizodlar anchagina. “Qo‘rqut ota kitobi” dagi bahodir Solor-Qozonning xotini bahodir Burla-xotin dushmanga asir tushgan o‘g‘li O‘ruzni qutqarish uchun o‘zining qirq qizi hamkorligida jangga kiradi. O‘rta Osiyo xalqlari folkloridagi alp xotin-qizlar obrazlari zaminida turli hayotiy va afsonaviy asoslar bor. Barchinning, “Bamsi Bayrak” dagi Bonu Chechakning alp qiz bo‘lishligi bejiz emasdek. Bu syujet mazmunan Eron hukmdori Kirni mag‘lub qilgan “To‘maris” haqidagi afsonaga o‘xshab ketadi. To‘marisning el-yurti uchun bosqinchilarga qarshi kurashida ham qahramon ayol timsoli aks etgan.

Buyuk tarixchi Diodor o‘zining “Tarixiy kutubxona” asarida, “Amazonkalar faqat Osiyonigina emas, balki Yevropani ham o‘zlariga bo‘ysundira boshlashdi”.[3, B.108] Diodor fikrini davom ettirib “Hatto eron shohi Kir ham ayollar boshqarib turgan skiflarni yenga olmaydi” [3, B.230] deydi. Tarixchi bu yerda To‘maris va uning qavmi haqida so‘z yuritayotganligini anglash qiyin emas.

“Qirq qiz” dostonidagi go‘zal qiz Guloyimning qirq qizi va xorazmlik bahodir Arslon bilan birgalikda o‘z xalqini chet el bosqinchilari qalmoq podshohi Surtaysha va “qizilboshlar” hukmdori Nodirshohdan himoya qiladi. “Qirq yigit bilan qirq qiz” dostonida ham polvon qizlar shahri haqida Go‘ro‘g‘li shunday ma’lumot beradi: “ U shaharda qirq pahlavon qiz hokimlik qilar emish, ko‘rkamlikda ovozasi olamga ketgan emish, shularga talab solib kelib, ko‘p polvon yigitlar kurashib, dunyodan o‘tgan emish”.[4, B.186]

Go‘ro‘g‘lining yo‘qligida uning yori - og‘a Yunus pari Chambilni dushmanlardan saqlash uchun xotinlarni qurollantiradi.

O‘zbek dostonlarida keltirilgan osiyolik jasur ayollarning badiiy obrazlari, ularning genezisi va evolyutsiyasi, variant va versiyalarini qiyosiy o‘rganish adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb masalalaridan biribir. Yuqorida keltirilgan dostonlardagi alp qizlar to‘g‘risidagi tushunchalar shunchaki yaralmaganligi, ularning zaminida xalqning ma’lum bir badiiy tasavvurlar yotganligi ma’lum bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қаранг: Алпомиш: Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони. – Т.,“Шарқ”, 1998.400- б.
2. Элиан. Пёстрые рассказы. –М: Л., 1963. 93-С.
3. Диодор. Историческая библиотека.Часть седьмая, В. Санкт-Питербург, при ИМПАН., 1774, 109. 108-с.
4. Гўрўғли достонлари. – Т., 1996.186-б.



Nargiza KAXOROVA,
Buxoro davlat universiteti "Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik" kafedrasi assistenti
Kaxorovanargiza5@gmail.com

INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA BADIIY JANRLAR TIPOLOGIYASI

Annotatsiya: hozirgi adabiyotshunoslikda qiyosiy-tipologik tadqiqotlarning zarurati va ahamiyati tobora keskin ravishda ortib bormoqda. Chunki qiyosiy tipologik o'rganishlar insoniyat badiiy tafakkurini to'laqonli tasavvur etish va baholash imkonini beradi. Tipologik tadqiqot olib borishning bosh maqsadi ingliz va o'zbek adabiyotida janrlar tushunchasini misollar orqali o'rganishga qaratilgandir.

Kalit so'zlar: *janr, badiiy tafakkur, esse, adabiy tur, voqelik, realizm, xayoliy adabiyot, tasniflash.*

Annotation: in current literary studies, the necessity and significance of comparative-typological research are increasingly growing. This is because comparative typological studies allow for a comprehensive understanding and evaluation of human artistic thought. The primary aim of conducting typological research is to examine the concept of genres in English and Uzbek literature through examples.

Key words: *genre, artistic thought, essay, literary type, reality, realism, imaginative literature, classification.*

Аннотация: в современных литературоведческих исследованиях необходимость и значимость сравнительно-типологических исследований неуклонно растут. Это связано с тем, что сравнительно-типологические исследования позволяют получить полное представление и оценку человеческого художественного мышления. Основная цель проведения типологических исследований — изучение концепции жанров в английской и узбекской литературе на примерах.

Ключевые слова: *жанр, художественное мышление, эссе, литературный тип, реальность, реализм, фантастическая литература, классификация.*

Kirish. Adabiyotshunoslikda janr muammosi eng dolzarb masalalardan biri sifatida talqin qilinadi. Hozirgi kungacha badiiy adabiyotning hammaga ma'qul janrlarga ajralishi aniqlanmagan va bu muammo talqin qilib berilmagan, deydi G.A. Abramovich. Shuningdek, asarga individual kashfiyot sifatida qarasak, badiiy adabiyot individual kashfiyotlar yig'indisidan iboratdir. Badiiy adabiyotda har bir asar o'ziga xos individual xususiyatga ega ekanligi sababli, badiiy asarlar janrlarga ajratiladi. Asar materiali va xarakterining qay darajada yoritilishi, hajmi asar janrini belgilovchi eng muhim omillardan sanaladi. Biz badiiy adabiyotni bir daraxtga o'xshatsak, adabiy turlar uning shoxlari, janrlar esa butoqlari, subjanrlar esa mayda bo'lakchalardir. Xullas, inson hayotining badiiy modelini yaratuvchi tur va janrlar insoniyat hayotidagi voqea-hodisalarni aks ettiruvchi unsurlar hisoblanadi.

Adabiy asarlarda yozilgan g'oyalar, qadriyatlar va iboralar ko'plab odamlarning ifodalari, qadriyatlari va madaniyati orqali aks etadi. Adabiy asar biror tarixiy voqea, voqeani tanlab olish prinsipi, voqeaga bo'lgan munosabat, ya'ni ma'lum dunyoqarash va ijodiy metodning ifodasidir. Adabiy asarlar bir-biriga o'xshash bo'lishi ham mumkin va bu o'xshashlik turli tarixiy muhitning o'xshashligi bilan izohlanadi va bu o'xshashlik kompozitsiyada ko'rinadi. Ammo adabiy asarlarning turlari kompozitsion qurilishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Chunki adabiy turlar tasvir prinsipi, voqelikning qamrovi va aks etish tarzi, obrazlar xarakterini ochish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Hayotiy materialni tasvirlash xarakteri, badiiy asar asosida yotgan konflikt va uning hal etilishi, asarda voqealar bayonining kim tomonidan olib borilishiga qarab, badiiy asarlar 3 ta katta turga bo'linadi:

1. Epik
2. Lirik
3. Dramatik

Garchi epos va lirikaning xususiyatlari dramada mavjud bo'lsa-da, ya'ni eposga xos voqea, lirikaga xos lirik kechinma dramada yashasa-da, ular boshqacha sifat kasb etadi. "Drama joy, voqealar, holatlar, shaxslarning epik ravishda tasvir qilishga yo'l qo'ymaydi, ular hammasi bizning ko'z oldimizda bo'lishi lozim" (Belinskiy, 193-bet). Epik turda tasvirlanayotgan voqelik, asarda ishtirok etuvchi personajlar xatti-harakati, kechinmalari ko'proq avtor hikoyasi orqali ko'rsatiladi. Lirik turda esa voqelik ayrim shaxsning kechinmalari, o'y-fikrlari orqali ko'rsatilsa, dramatik asarlarda voqelik bevosita ishtirok etuvchi konkret shaxslarning xatti-harakati, nutqlari orqali ochiladi. Bu uch turga mansub badiiy asarlar ham hayotiy voqealarni aks ettirishning shakl va usullari jihatidan yana mayda xillarga bo'linadi. Ana shu xillar adabiyotshunoslikda janr deb ataladi. Demak, adabiy janr badiiy asarlarning o'ziga xos kompozitsion qurilishiga, badiiy tasvir prinsiplariga, vositalari va usullariga, o'ziga xos bayon usullari va hayotiy qamrov imkoniyatlariga ko'ra turkumlaridir.

Masalan, epik tur roman, proza va boshqa janrlarga bo‘linadi. Har bir janr ham tasvirlangan voqealarning xarakteri, mavzusi, tasvir usuli va prinsiplariga qarab yana mayda turkumlarga bo‘linadi. Bunday janr xillari shartli ravishda janrning ichki turkumlari deb ataladi. Masalan, roman janrining tasvirlanayotgan voqealar xronologiyasiga ko‘ra, tarixiy roman, zamonaviy roman, mavzusiga ko‘ra ishqiy roman, maishiy roman, fantastik roman va hokazo turkumlari mavjud bo‘lib, bular roman janrining ichki bo‘linishini ko‘rsatadi. Bu ichki turkumlar o‘zlari mansub bo‘lgan janr xususiyatlarini aks ettirganidek, adabiy janrlar ham o‘zi mansub bo‘lgan adabiy tur xususiyatlarini aks ettiradi. Janr so‘zi fransuzcha (dastlab lotincha) “tur” yoki “sinf” so‘zidan kelib chiqqan. Bu atama ritorika, adabiyot nazariyasi, ommaviy axborot vositalari nazariyasi va yaqinda tilshunoslikda “matn” ning o‘ziga xos turini ifodalash uchun keng qo‘llaniladi. Robert Allen ta’kidlaganidek, “2000 yil davomida janrni o‘rganish asosan nominologik va tipologik funksiyaga ega edi. Ya’ni, u adabiyot olamini turlarga bo‘lish va bu turlarga nom berishni o‘zining asosiy vazifasi qilib oldi – xuddi botanik o‘simlik dunyosini o‘simliklarning navlariga ajratganidek” (Allen 1989, 44). Klassik davrlardan beri adabiy asarlar har xil ta’riflangan umumiy turlarga bo‘lingan. Adabiyotda eng keng bo‘linish she’riyat, nasr va drama o‘rtasida bo‘lib, ular ichida dramatik toifadagi tragediya va komediya kabi keyingi bo‘linishlar mavjud, ya’ni bu janrlar o‘z ichida kichik janrlar, subjanrlarga ega. Formalist adabiyot nazariyotchisi Northrop Frye (1957) “Tanqid anatomiyasi” asarida ma’lum universal janr va uslublarni butun adabiy korpusini tartibga solishning kaliti sifatida taqdim etdi.

Neale (1980) muayyan janrlarni intuitiv tarzda tanish oson, ammo ularni ta’riflash qiyin, ba’zan janrlarga xos bo‘lgan xususiyatlar ularga xos bo‘lmasligi mumkin, shuning uchun ham ularni tafovut namunalari deyishimiz mumkin deb ta’kidlaydi. Swales (1990) janrlarni “o‘xshash oilalar” deb ta’riflaydi. Knight (1994) ga ko‘ra, janrlar badiiy asarlarni tushunish, tanlash, aniqlashda kitobxonlarga yordam beradigan muhim birliklardir.

Badiiy janrlar

Ingliz adabiyoti	O‘zbek adabiyoti
Epic	Epos
Prose	Nasr
Poetry	Lirik
Drama	Drama
Comedy	Komediya
Fiction	Badiiy to‘qima
Non-fiction	Reallikga asoslangan
Fantasy	Fantaziya
Autobiographic	Avtobiografik
Essay	Esse
Mystery	Jumboq
Detective	Detektiv
Romance	Ishqiy
Folklore	Folklor
Didactic	Didaktik

Fable	Masal
Myth	Mif
Thriller	Triller
Science-fiction	Ilmiy-fantastik
Realism	Realizm
Historical	Tarixiy

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Harris Trudier. Genre- The journal of American folklore, 1995.108 (430) 527 -b.
2. Deigh Linda. Legend and belief: dialects of a folklore genre– Indian university press, 2001. 461-b.
3. Ben-Amos Dan. The context of folklore: implications and prospects- Frontiers of folklore, 2019. 53-b.
4. Mashrapova G.A. O‘zbek folklorida safar motivi (ertak janri misolida): filol.fan. fal. d-ri… diss. Avtoreferati. – Toshkent, 2024. 59-b.
5. Kuchkarov T.O. O‘zbek folklori epik syujetlarining badiiy evolyutsiyasi: filol.fan. fal. d-ri… diss. Avtoreferati. – Toshkent, 2023. 80-b.

Mahliyo AHMEDOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATLARIDAGI SODDA IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA TERMINLARI TAVSIFI

Annotatsiya:irrigatsiya va melioratsiya xalqimiz hayotida muhim ahamiyatga ega. Sohaga doir leksik birliklar o‘ziga xos sistemani tashkil etadi. Bu terminologik mikrotizimni tartibga solish, milliy birliklar bilan boyitish jarayoni ularning semantik va struktur tahlilini talab qiladi. Irrigatsiya va melioratsiya sohasiga doir leksik birliklar orasida sodda terminlar salmoqli qismni egallaydi. Sohaga doir tushunchalarni sodda leksik birliklar bilan ifodalashga intilish ilmiy aniqlik va qisqalik tamoyillari bilan izohlanadi. Sodda terminlarning aksariyati o‘zlashma qatlamga mansubligi milliy terminlar tizimini yaratish jarayonida ular tahlili natijalari muhimligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *terminologiya, irrigatsiya, melioratsiya, sodda termin, tavsif.*

Аннотация:ирригация и мелиорация имеют важное значение в жизни нашего народа. Лексические единицы, относящиеся к сфере, образуют своеобразную систему. Этот процесс упорядочения терминологической микросистемы, обогащения ее национальными единицами требует их семантического и структурного анализа. Среди лексических единиц, относящихся к области орошения и мелиорации, значительную долю занимают наивные термины. Стремление выразить понятия, относящиеся к отрасли, простыми лексическими единицами объясняется принципами научной точности и краткости. Принадлежность большинства наивных терминов к пласту ассимиляции свидетельствует о важности результатов их анализа в процессе создания системы национальных терминов.

Ключевые слова: *терминология, ирригация, мелиорация, простой термин, описание*

Annotation:irrigation and land reclamation are important in the life of our people. The lexical units related to the sphere form a kind of system. This process of streamlining the terminological microsystem and enriching it with national units requires their semantic and structural analysis. Among the lexical units related to the field of irrigation and land reclamation, naive terms occupy a significant share. The desire to express concepts related to the industry in simple lexical units is explained by the principles of scientific accuracy and brevity. The affiliation of most naive terms to the assimilation layer indicates the importance of the results of their analysis in the process of creating a system of national terms.

Key words: *terminology, irrigation, land reclamation, simple term, description*

Kirish. Maxsus sohalarga doir til birliklarini tizimlashtirish, ularni milliylik nuqtayi nazaridan takomillashtirishda shakliy-struktur jihat ham ahamiyatlidir. Ba'zi manbalarda terminlar til lug'aviy tizimida boshqa birliklardan farqlanmasligi bayon qilinsa-da[1], ular o'z leksik-semantik, grammatik va shakliy xususiyatlariga ko'ra o'ziga xoslik kasb etadi. Bu terminlarning muayyan fanlarga doir tushunchalar tizimini qamrab olishi bilan bog'liq. Ta'kidlash lozimki, terminlar tizimi fan sohalarida kuzatiladigan o'zgarishlar bilan birga taraqqiy etib boradi. "Umum iste'moldagi so'zlardan farqli ravishda, terminlar ilmiy va amaliy muomalaga ongli ravishda olib kiriladi"[2:28]. Umumtil birliklari esa ijtimioiy ehtiyojlar natijasida, ya'ni jamiyat hayotiga kirib kelgan yangi tushunchalarni nomlash talabi bilan paydo bo'ladi. Bu esa terminlarning aksariyat hollarda monosemantiklik xususiyati, shakliy jihatdan o'zgachaligiga sabab bo'ladi. Har qanday sohaga doir terminlar tuzilishi bilan umumtil birliklaridan farqlanadi. Bu terminlarning ilmiy tushunchalarni ifodalashi, bunda birgina asosning ba'zan yetarli bo'lmasligida ham namoyon bo'ladi. Shu sababli terminologik tizimni hosil qiluvchi birliklar orasida birikmalilari ko'p uchrashi me'yoriy holat sifatida qaraladi. Umumtil birliklari orasida birikmali shakl deyarli uchramaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qayd etish lozimki, terminlarning shakllanishida barcha tillar ham birdek ishtirok etmaydi. Soha rivojiga ko'proq hissa qo'shgan xalq tili ta'siri boshqa tillarga nisbatan salmoqli ekanligi me'yoriy holatdir. Bu terminlarning struktur-shakliy jihatlariga ham ta'sir etmay qolmaydi. Bu irrigatsiya va melioratsiya terminlariga ham taalluqli, albatta. Terminologik tizim nomida ham fikr tasdig'ini ko'rishimiz mumkin. Muayyan sohaga doir terminlar ifodalaydigan ma'noni to'g'ri talqin qilish uchun ularning shakllanish bosqichlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish talab etiladi. Rus olimi V.M.Leychikning fikriga ko'ra, "terminlarning ifoda plani sifatida ilmiy yoki texnikaviy tushuncha yotadi, shu sababli ularni sodda so'zlar vositasida ifodalash mushkul"[3:121-128]. Terminlarning struktur jihatlari tahlil qilinar ekan, bunda ularning morfologik tuzilishi diqqat markazida turadi. Irrigatsiya va melioratsiya terminlarning tuzilish turlarini ajratishda so'zlarning tuzilish turlari haqidagi yondashuvlarga tayanish lozim. Shuningdek, terminlarni struktur turlarga ajratishda ularning shakliy o'ziga xosliklarini ham hisobga olish lozim. Shunday qilib, irrigatsiya va melioratsiya terminlarini so'z va birikma shaklidagi turlarga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Har ikkala tur terminlar tuzilishdagi o'ziga xoslik asosida yana ichki guruhlarga ajraladi. Quyida har bir tur haqida batafsil ma'lumot berishga harakat qilamiz.

So'z shaklidagi terminlar, so'zlarda bo'lgani kabi, sodda va murakkab turlarga ajraladi. Bunda sodda yoki murakkablikni asoslarning miqdori belgilab beradi. "Tarkibida birgina lug'aviy ma'noli qism bo'lgan so'z. Sodda so'zning ikki turi farqlanadi: 1) tub so'z; 2) yasama so'z"[4:102]. Terminlarning sodda so'z shaklida bo'lishi ularning fan sohasiga doir tushunchaning umumtil leksikasi sifatida qo'llanishi bilan bog'liq hollarda ko'proq uchraydi. Chunki chegaralanmagan qatlam birliklarining nutqiy qo'llanishida lakonizm muhim o'rin tutadi. Nutqiy siqiqlik leksikadagi sodda terminlarning salmoqli bo'lishini ta'minlaydi. Izohli lug'atlarda qo'llangan agrar, agregat, aylanma, ammiak, ammiakli, balchiq, balchiqli, balchiqlik, bag'ir, bosim, botmon, bulut, buna, bug'lanish, burg'i, burg'ilamoq, bo'ron, bo'g'oz, bo'z kabi terminlarni sodda terminlar sirasiga kiritish mumkin. Sodda terminlar orasida affiksatsiya usulida yasalgan leksik birliklarni ham uchratishimiz mumkin. Ma'lumki, affiksatsiya usulida yangi so'z yasalishi sodda so'zni murakkablashtirmaydi. Balchiqli, balchiqlik, bug'lanish, burg'ilamoq, gibridlash, damlamoq, dashtlik, dehqonchilik, dozalamoq, dorilamoq, dashtlik kabi terminlar affiksatsiya usulida hosil qilingan. Sanalgan yasama terminlarning hammasi o'zbek tilining o'z derivatsion imkoniyatlari asosida hosil qilingan. Shu sababli bu birliklar o'z qatlamga mansub leksik birliklar hisoblanadi. Terminologiyaga doir ishlarda muayyan sohaga oid tushunchalarni anglatadigan va nominativ vazifa bajaradigan leksik birliklar terminlar sifatida qayd etiladi[5:426-435]. Bunday yasama terminlarning qolipi turlicha bo'lishini tahlillardan ko'rishimiz mumkin:

1) [ot + li] = sifat qolipi hosilasi: balchiqli;
2) [ot + chilik] = ot qolipi hosilasi: dehqonchilik;
3) [ot + la] = fe'l qolipi hosilasi: dozalamoq;
4) [ot + lik] = ot qolipi hosilasi: dashtlik kabi.

Tadqiqot metodologiyasi. Umuman olganda, sodda terminlar izohli lug'atlarda keltirilgan irrigatsiya va melioratsiya sohalariga doir terminlarning asosiy qismini tashkil etadi. Chunki izohli lug'atlarda bosh so'z sifatida "chegaralangan leksikadan: 1) ko'pchilik qo'llaydigan va tushunadigan, darslik, ilmiy-ommabop asar va davriy matbuotda ko'p qo'llanadigan terminlar; 2) kasb-hunar leksikasidan ham ko'pchilik tushunadigan va qo'llaydigan so'zlar, shuningdek, kasb egasini bildiruvchi so'zlar va ulardan yasalgan soha nomini bildiruvchi so'zlar"[6:14] dan tanlab olinadi. Bunday leksik

birliklarni esa, asosan, sodda terminlar tashkil etadi.

Qayd etish lozimki, irrigatsiya va melioratsiya sohasiga oid sodda yasama terminlarning ba'zilari donor tilda yasalgan va retsipiyent tilga yasama shaklda o'tgan. Masalan, dozator, indikator, irrigator, irrigatsion kabi terminlarda shunday holatni kuzatamiz. O'zbek tilida bu so'zlar sodda tub so'zlar qatoriga qo'shiladi. Chunki o'zbek tilida sanalgan terminlarni asos va qo'shimchalarga ajratish imkonsiz. Donor tildagi derivatsion xususiyatlar retsipiyent til uchun ahamiyatsiz bo'lib, tushunchani nomlashda undan yaxlit foydalanilish jarayonidagina unga zarurat tug'iladi xolos.

Tahlil va natijalar. Xalqlar orasidagi madaniy, ilmiy, siyosiy va ijtimoiy aloqalar mavjud ekan, boshqa leksik birliklar qatorida terminlar yoki ularning qismlari ham bir tildan boshqa tillarga o'tib turadi. Terminlarda uchraydigan xalqaro prepozitiv va postpozitiv unsurlarning qo'llanishi sohaning dunyo mamlakatlarining aksariyatida mavjud ekanligiga ham bog'liq bo'ladi. Xalqaro prepozitiv va psotpozitiv unsurlar turli tillarga mansub bo'ladi. Jumladan, "a-, ana-, anti-, arxi-, giper-, ort-, tele-, -graf, -log, -oid, -fil, -edr kabi elementlar yunon tiliga, bi-, de-, inter-, re-, ultra-, -bus, -or, -ura kabi elementlar lotin tiliga tegishlidir"[2:35]. Ya'ni terminlar tarkibidagi bu kabi unsurlarning aksariyati yunon va lotin tillariga oiddir. Bu tillarga oid leksik birliklar baynalmilal terminlarning asosiy qismini tashkil etadi. O'zbek tilida bu prepozitiv va psotpozitiv unsurlar termin asosi bilan yaxlitlanib ketgan. Ularni ajratish ba'zan imkonsiz. Ba'zilari esa donor tilda unumli so'z yasovchilar hisoblanadi. Ammo bu terminoelimentlar o'zbek tilida so'z yasovchilar maqomida emas. O'zbek tilida bunday terminoelementlar ishtirokida hosil bo'lgan birliklar ko'plab uchraydi. Dozator, irrigator, indikator, intensiv, irrigatsion, karbonat, kultivator kabi terminlar shular jumlasidandir. Ta'kidlanganidek, bu terminlarni o'zbek tilida sodda tub leksik birliklar sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Bunday terminlarning o'zlashtirilishi aksariyat hollarda ularning monosemantikligi bilan bog'liq. Terminlarning monosemantikligi birinchi shartlardandir. Bu borada quyidagi fikrlarni keltirish mumkin: "Bunday terminlar qisqa, biroq ma'noni nisbatan to'liq ifodalaydi. Xalqaro so'z yasovchilar fondidan foydalanish faqat an'ana tufayligina emas, balki katta maqsadga muvofiqligi uchun ham qo'llab-quvvatlanadi. Bunday so'zlar aksariyat hollarda bir ma'nolidir"[7:153-159]. Terminologik tizimda baynalmilal leksik birliklarning ko'payib borishi muayyan sohada maxsuslashishda ularning nisbatan aniqligi, o'zlari ifodalagan tushuncha haqida to'liqroq ma'lumot ifodalashi bilan izohlanadi. Shuningdek, bunday leksik birliklarda terminologik ma'no yaqqolroq ifodalangan bo'ladi. Baynalmilal terminlarda semantik o'zgarishlar, ma'no kengayishi (yoki torayishi) bilan bog'liq holatlar nisbatan kam kuzatiladi.

Xulosa va takliflar. Anglashiladiki, sodda terminlar irrigatsiya va melioratsiya sohasi terminologik tizimida salmoqli qismni tashkil etadi. Ular etimologik jihatdan turli qatlamlarga mansub. Sodda terminlar derivatsiya hodisasining mavjud yoki yo'qligiga ko'ra sodda tub va sodda yasama kabi turlarga ajratiladi. Sodda yasama terminlar o'zbek tili derivatsion imkoniyatlari asosida hosil qilinadi. Ba'zi baynalmilal terminlar donor tilda yasalganligiga qaramasdan o'zbek tilida tub so'zlar sifatida talqin qilinadi.

tFoydalanilgan adabiyotlar

1. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – Москва: Наука, 1977. 248- с.
2. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: ЎзМЭ, 2017. 384-б.
3. Лейчик В.М. Некоторые вопросы упорядочения, стандартизации и использования научно-технической терминологии // Термин и слово: межвуз. сб. науч. тр. – Горький: Изд-во Горьк. гос. ун-та, 1981. – С.121-128.
4. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zME, 2013.144- b.
5. Xolmirzayeva S. terminlarning yasalish usul va yo'llari // Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 5. 2022. – P.426-435.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati: 6 jildlik, 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. 894- b.
7. Ефимов Д.К. Структурная организация терминов // Вестник Шадринского государственного педагогического университета, 2016. №3. – С.153-159.

Munira NIYAZOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: niyazova_munira@bk.ru

SENTIMENTAL ADABIYOT TARIXI VA UNING ADABIYOTSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada sentimental adabiyot tarixi,sentimental asar syujeti, ko‘proq yo‘l xotiralari va taassurotlari, maktublar, sevgi-muhabbatning toza hissiy talqinlari asosiga qurilishi, obyektivist va subyektivist, badiiy obraz sifatida tabiiy, asl hissiy-emotsional xususiyatlariga urg‘u berishida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu hodisa regional hodisa bo‘lmay Sharq va G‘arbning barcha xalqlariga tegishli.

Kalit so‘z: *emotsionallik, xalq qahramonlik dostonlari, sevgi-muhabbati, qayg‘u-iztiroblar,Qadim Gretsiya afsona va asotirlari*

Аннотация: в этой статье представлена история сентиментальной литературы,сюжет сентиментального произведения, дальнейший путь воспоминания и впечатления, письма, построение любви на основе чисто эмоциональных интерпретаций, акцент на объективистских и субъективистских, естественных, оригинальных эмоционально-эмоциональных характеристиках как художественного образа. Это явление относится ко всем народам Востока и Запада, не являясь региональным явлением.

Ключевое слово: *эмоциональность, народные героические былины, любовные похождения, горести,древнегреческие мифы и эпосы*

Annotation: in this article,the history of sentimental literature, the plot of a sentimental work, the construction on the basis of more road memories and impressions, letters, pure emotional interpretations of love-love, Objectivist and subjectivist, as an artistic image, is clearly manifested in its emphasis on natural, original emotional-emotional characteristics. This phenomenon applies to all peoples of the East and West without being a regional phenomenon.

Key words: *emotionality, folk heroic epics, love affairs, sorrows,ancient Greek myths and epics*

Kirish. Sentimentallik va sentimental adabiyot masalasi insoniyat badiiy-estetik tafakkurining qadimiy masalalaridan bo‘lib hisoblanadi. Masalaning qadimiyligidan kelib chiqiladigan bo‘lsa, uning adabiyotshunos, tanqidchi va nazariyotchilar tomonidan o‘rganilishi ham juda katta xronologik ko‘lamni tashkil etishi ayonlashadi. Sentimentalizm rasman adabiy oqim sifatida XVIII-asrning ikkinchi yarmiga kelib aniqlangan, tan olingan bo‘lsa-da, uning adabiyotda, badiiy talqin shakli sifatida namoyon bo‘lishi o‘ta qadim zamonlar, qadimgi davr adabiyotiga borib bog‘lanadi.

Asosiy qism. Rus estetiki, adabiyotshunoslik bo‘yicha yirik olim Yuriy Borev sentimentallikning o‘zak xossasi “hissiyot”, uning poeziya va badiiy obrazga munosabati, tarixiy ildizlari haqida shunday yozadi: “Hissiyotlilik (emotsionalnost) – tarixan qadimiy, estetik jihatdan badiiy obrazning muhim ilk asosidir. Qadim hindlar san’atni to‘lib-toshgan, to‘xtatib bo‘lmaydigan hissiyotdan tug‘ilgan deb hisoblaydilar. “Ramayana” ijodkori haqidagi afsonada shunday keladi: donishmand Valmiki o‘rmon so‘qmog‘i bo‘ylab borar edi. O‘t ustida muhabbat va nazokat bilan sayrayotgan ikki baliqchi qushni ko‘rib qoldi. Shunda birdan battol ovchi paydo bo‘ldi va o‘q-yoy bilan qushchalarning birini otib qo‘ydi. Nafrat, qayg‘u va achinish tuyg‘ulari bilan chulg‘angan Valmiki ovchini qarg‘adi. Uning qayg‘u bilan limmo-lim qalbidan chiqqan so‘z o‘z-o‘zidan she’r bandi bo‘lib tug‘ildiki, o‘shandan beri u “shloka” (hijoga asoslanuvchi hind she’r vazni – N.M.)ning kanonik vazni bo‘lib qoldi [Борев Ю., 1981; 160-161]. Olim emotsionallik va poeziyaning o‘ta qadim davrlardan beri egizak yashab kelayotganligi haqida so‘zlab, unga misol tariqasida qadim hindlar qahramonlik dostoni “Ramayana”ning dunyoga kelishi haqidagi afsonani keltirar ekan, “san’at tutib qolish mumkin bo‘lmagan qalb hissiyotidan tug‘iladi” degan asosli va olamshumul konsepsiyani ilgari suradi. Emotsional-hissiy ta’sir odamni she’riyat va adabiyotga yetaklaydi. Bularning barchasi adabiyotning hissiyot vositasida paydo bo‘lgani, bu hissiyot tabiat hodisalari bilan bog‘liqligi, hissiyotning esa sentimentallik ekanligi haqidagi xulosaga olib keladi. Badiiy asarda bu jarayonlarning hammasi so‘z vositasida aks ettiriladi.Y.Borev“R amayana”ning ijod etilishiga doir afsona bo‘yicha o‘z kuzatuvlarini shunday muhim ilmiy xulosada jamlaydi:“Ushbu afsona poeziyaning emotsional-hayajonli nutqdan kelib chiqqanini anglatadi” [Борев Ю.,1981; 161].Y.Borevning adabiyot va hissiyot, “his etilgan fikr, tafakkur qilingan hissiyot” haqidagi ushbu kuzatuvlari faqatgina hindlarning qahramonlik eposlari “Ramayana”ning dunyoga kelishi haqidagi afsona bilan bog‘liq emas. Dunyodagi aksariyat badiiy asarlar, dostonlardan boshlab ertaklar, qo‘shiqlar, xalq to‘qigan qissa va hikoyalargacha xuddi shu tarzda paydo bo‘ladi. Ijodkor qandaydir hissiyotiga ta’sir etgan

voqeaga guvoh bo‘ladi va shu hissiyoti ustida tafakkur yuritadi. Natijada san’at asari, xuddi Valmikinikiga o‘xshagan so‘z san’ati durdonasi dunyoga keladi.

Afsuslar bo‘lsinki, milliy o‘zbek folklorshunosligi “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Kuntug‘mish”, “Avazxon”, “Ravshanxon”, “Tohir va Zuhra”, “Shoh Mashrab qissasi”, Malikayi ayyor”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Yoriltosh”, kabi o‘zbek xalq qahramonlik dostonlari, xalq qissalari, ertaklar, mavsum va marosim qo‘shiqlarining qanday paydo bo‘lganligi haqidagi afsonalarni o‘z vaqtida yozib olishga ulgurishmagan. Ammo komil ishonch bilan aytish mumkinki, xalq ijodiyotiga mansub barcha asarlarning o‘z yaratilish tarixi, yaratuvchisi haqidagi afsonasi bo‘lgan. Bu haqdagi elas-elas ma’lumotlarni biz ertakchi momolarimiz, dostonchi-baxshi bobolarimiz kirish so‘zlari, termalari, yopuvchi xulosalaridan bilib olishimiz mumkin.

Masalan, “Go‘ro‘g‘li” dostonining o‘nlab turkumlari bor. Ularning barchasi bir-biridan farq qiladi. Aytish mumkinki, an’anaviy syujetga aytuvchining hissiy-emotsional munosabatining aks etishiga qarab, versiyalilik, variantlilik kasb etadi. Hatto bir ertakning bir kishi tomonidan aytilgan varianti boshqa kishi tomonidan aytilgan variantidan tubdan farq qilishi mumkin. Qo‘shiq janrini esa aytmasa ham bo‘ladi. Har bir aytuvchi unga o‘z dardini qo‘shadi. Shaxsiy hissiyotlari bilan to‘yintiradi. Xalq ijodiyotida tasvirlanadigan tug‘ilish, muhabbat, o‘lim, qayg‘u, mung, yig‘i, jonivorlar (otga, itga murojaat), daryolar (Alpomishning daryoga murojati), toshlarga (“yorilgin tosh”) murojaatlar, qahramonlar ichki dunyosi talqini hissiy-emotsionallikning yorqin ifodasi desak to‘g‘ri bo‘ladi. O‘zbek adabiyotshunos, nazariyotchi olimi Suvon Meliyevning qadim turkiylarning toshbitiklarda aks etgan adabiy tafakkur namunalarida o‘limga munosabat haqida: “O‘limga munosabat muayyan xalqning, uning madaniy darajasi hamda dunyoga qarashini ko‘rsatuvchi belgi” [Мели С., 2020; 22] degan fikrni ilgari suradi. Bu yerda gap qabr ostida yotgan odam tilidan aytilgan so‘z ifoda etayotgan tuyg‘u haqida ketayotganligiga qaramasdan ushbu xulosaning Y.Borev qayd etgan Valmiki afsonasi bilan muayyan bog‘liq nuqtalari bor. Valmikining yig‘isi, achinish va iztirob bilan aytgan gaplari garchandki qushning fojiaviy o‘limi haqida bo‘lganligiga qaramay, bu ikki lirik fojiaviy talqin yig‘isini o‘lim hodisasi birlashtaridi.O‘rxun-Enasoy toshbitiklaridagi avlodlarga murojaat, holat bayoni, S.Meliyevning ta’kidlashicha, she’riy yo‘lda yozilishi nazarda tutilmagan. Ammo xuddi she’r singari lirik fojiaviylik ohangini beradi. “Bitiktoshdagi yozuvlar dunyosi asosan lirik dunyo. Yo‘qlik olamiga yo‘l olgan odam o‘zi haqida ortidan qolayotganlarga nimadir aytishga jazm etar ekan, bu mazmun jihatidan arzi hol bo‘lishi muqarrar. Arzi hol esa, o‘z tabiatiga ko‘ra, lirika, ya’ni ichki hissiyot va kechinmalarning so‘zdagi ifodasi bo‘lishi tayin”,deb yozadi bu haqda olim [Мели С.,2020;19]. Xuddi shunday lirik ohangda ifoda qilingan, she’riylashtirilgan, fojiaviy mungga aylantirilgan voqealar, holatlar, munosabatlar “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Kuntug‘mish” singari xalq dostonlarimizda izchil kuzatiladi. Shuni alohida ta’kidlash joizdirki, sentimentallik va uning asosiy belgisi bo‘lgan hissiy-emotsional holat, ichki qayg‘u-alam, yig‘i, tushkunlik, yolg‘izlikka intilish, hushdan ketish holatlari faqat inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar talqinida aks etmaydi. Sentimentallikning o‘limdan boshqa yana bir muhim asosi borki, bu sevgi-muhabbat yo‘lidagi hissiyotlar junbushi, hijron azobida o‘rtanish, umidsizlik, tushkunlik, ko‘z yosh to‘kishdir. Aytaylik,“Kuntug‘mish”dostonida dostonning bosh qahramoni Kuntug‘mishning Xolbekani tushida ko‘rib oshiq bo‘lib qolishi, ishq dardida tatib ko‘rgan ruhiy-psixologik, jismoniy fizik azobu iztiroblari o‘ta rangin bo‘yoqlarda ifodalab tasvir etilgan.Kuntug‘mish holatining bunday tasviri sentimentallikning shunday bir ko‘rinishiki, bu Y.Borev yuqorida qayd etgan Valmikining achinish va rahm-shafqatga yo‘g‘irilgan emotsional-hissiy holatidan ko‘p chandon kuchliroq va boshqacharoqdir.O‘zbek mumtoz dostonchiligida Alisher Navoiyning“Sab’ai sayyor” dostoni qahramoni Bahrom ham o‘z yorini surat orqali sevib qoladi. Sevgidan taqoti toq bo‘lib, bemor bo‘lib qolishi bilan Kuntug‘mushni eslatadi. Muhabbat dardidan bemor bo‘lgan Bahromga hayotda hech narsa taskin bermay qo‘yadi.Faqat Dilorom visoliga yetganidan keyingina o‘z holiga qaytadi [А.Навоий.,1992].“Ramayana”ning paydo bo‘lishi haqidagi afsona, ya’ni mif, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Kuntug‘mish” xalq qahramonlik dostonlari, mumtoz doston namunasi “Sab’ai sayyor” asarlarini muxtasar tarzda, tizimli kuzatish shundan dalolat beradiki, sentimentallik, xuddi Y.Borev ta’kidlaganidek, o‘ta qadim ildizlarga ega.Butun yevropa hamda shu kontinent hududiga kiruvchi nemis adabiyoti tarixida ham sentimentalizm muhim o‘rin tutadi. Birinchidan shuni qayd etish kerakki,Yevropa adabiyotining barcha xilma-xil va ko‘p sonli milliy adabiyotlari singari ildiz, tomiri jihatidan antik grek adabiyotiga borib bog‘lanadi. Qadim Gretsiya afsona va asotirlari, Homer dostonlari, grek sikl eposlari, Yevripid, Sofokl, Esxil kabi grek mutafakkirlari, Gesiodning “Teogoniya” asari, Rim shoiri Ovidiyning “Metamorfoza”lari, davom etib, nemis xalq afsonalari,“Nebilunglar haqida qo‘shiq”,“Zikfred haqida qo‘shiq” kabi xalq qahramonlik dostonlari va shularning muayyan bir ta’sirini o‘zida aks ettirgan nemis yozma adabiyotidan boshlab, Grimmelshauzen, Gyote va Shiller ijodigacha bu an’ana davom etib, rivojlanib kelganini alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, sentimental adabiyot tarixi va genezisini o‘rganish bizni o‘ta keng adabiyot maydonlariga olib chiqadi.Umuman, sentimentallik va sentimental adabiyot muammosi, uning nazariy xususiyatlari qadimgi va zamonaviy adabiyot manbalari

asosida dunyo va o‘zbek adabiyotshunosligida izchil tarzda o‘rganib kelinmoqda.Sentimentalizmning muayyan millatlar adabiyotidagi ko‘rinishlari, uning vakillari, aniq bir ijodkor ijodidagi o‘rni, ma’lum bir asarda namoyon bo‘lishi, estetikasi, falsafasi singari nazariy muammolar doirasida kompleks tadqiq etiladi, ta’riflari, tavsiflari, o‘ziga xos xususiyatlari qayd etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Хамса. Сабъаи сайёр. МАТ 10-том. – Тошкент: Фан, 1992.
2. Кунтуғмиш. 136- Б.
3. Мели С. Сўзу сўз. – Тошкент: Шарқ, 2020. 22- Б
4. Жўрақулов У., Ҳамроев К. Қиёсий адабиётшунослик. – Тошкент: Nurafshon buseness, 2020.180-181-b.5.
5. Борев Ю. Эстетика. 161- Б.

Ikramjon ABDULLAYEV,
Andijon davlat chet tillari instituti tayanch doktoranti



O‘ZBEK TILIDA SO‘Z TURKUMLARI TASNIFIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya: ushbu maqolada so‘z turkumlarining tasniflanishiga oid qarashlar tahlilga tortilgan. Jumladan, hind, arab, rus, o‘zbek tilshunosligida so‘z turkumlarining tasniflanish haqidagi ilmiy-nazariy fikrlar, mulohazalar tadqiq etilgan. Antik davrdan tortib to hozirgi tilshunoslik davrigacha so‘z turkumlarigaoid fikrlar va mulohazalar bo‘yicha munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *so‘z turkumlari, morfologiya, hind tilshunosligi, semantika, ot, fe’l, arab grammatikasi, bog‘lovchi, olmosh.*

Annotation: in this article, views on the classification of word groups are analyzed. In particular, scientific-theoretical opinions and opinions about the classification of word groups have been researched in Indian, Arabic, Russian, and Uzbek linguistics.

Key words: *word Groups, Morphology, Indian Linguistics, Semantics, Noun, Verb, Arabic Grammar, Conjunction, Pronoun.*

Аннотация: в данной статье анализируются взгляды на классификацию словосочетаний. В частности, научно-теоретические мнения и мнения о классификации словосочетаний исследовались в индийском, арабском, русском и узбекском языкознании.

Ключевые слова: *словосочетания, морфология, индийское языкознание, семантика, существительное, глагол, арабская грамматика, союз, местоимение.*

So‘z turkumlarining o‘rganish tarixi antik davrlarga borib taqaladi. O‘sha davr faylasuf, mantiqshunosh va tilshunoslari bu borada ilk marta juda qimmatli fikrlar bildirganlar. Masalan, Aristotelning “Poetika” (“Poeziya san’ati” haqida) asarida morfologiyaga oid ilk namunalar kuzatiladi. Asarning “Til va fikr” (XIX fasl), “Nutq bo‘laklari” (XX fasl), “Otlarning turlari” (XXI) kabi fasllari bevosita morfologiyaga oid qarashlarni o‘z ichiga oladi va u so‘z turkumlari sonini 3 ta ekanligini keltirib o‘tgan hamda unga ot, fe’l va bog‘lovchi vositalarni kiritgan. So‘z turkumlari nazariyasining rivojlanishi, olimlarning bu masala bilan shug‘ullana boshlashi barobarida so‘z turkumlari soni ham ortib bordi. Bu holat asosan, 19 - 20-asrlarda keng taraqqiy etdi. Turli davrlarda so‘z turkumlari turli songa bo‘lganligini e’tirof etish bilan ushbu maqolada matn bilan ishlashning ahamiyati va yangi uslub bilan ish tutish haqida o‘z fikrlarimizni bayon qilamiz. Yana shuni ham qayd etish lozimki, eramizdan oldingi 170 –90-yillarda Aleksandr maktabi vakillaridan bo‘lmish Dionisiy Frakiyskiy qadimgi grek tili uchun sakkizta so‘z turkumini (ot, fel, sifatdosh, artikl, olmosh, ko‘makchi, ravish, bog‘lovchi) ajratib tahlil qilgan. Olimning so‘z turkumlarini ajratish bo‘yicha qarashlari o‘zining aniqligi bilan ajralib turadi: “Ot turlanuvchi so‘z turkumi bo‘lib, tana yoki narsa (telo-naprimer, kamen; вещnaprimer, vosptanie) va umumiy hamda xususiyning ifodasidir: umumiy, masalan, odam,

xususiy masalan, Sokrat”. XVI-XVII asrlarda so‘z turkumlarini 8 ta turga ajratib tasnif qilish boshlangan. (slavyan tillarida). Alisher Navoiyning morfologik qarashlarini ham “Muhokamat-ul-lug‘atayn” asarida bayon qilingan ayrim fikrlaridan anglash mumkin.

U o‘sha davrdagi arab grammatikasi an’anasiga ko‘ra, so‘zlarni uch guruhga ajratadi: fe’llar va harakatlar (yordamchilar). Garchi Alisher Navoiy so‘z turkumlarini tasnif etishda arab harfi an’anasiga bo‘ysunsa ham, lekin turk tilining o‘ziga xos xususiyatlarini, otlarning va fe’llarning xarakterli morfologik jihatlarini zukko tilshunos sifatida ochib berdi. Alisher Navoiy Mahmud Koshg‘ariy va “At-tuhfa” asari muallifidan keyingi turkiy tilshunoslik bilan shug‘ullangan yirik olimdir. Lekin shoirning Mahmud Koshg‘ariy asari va “At-tuhfa” bilan tanish yoki tanish emasligi haqida hech qanday ma’lumot uchramaydi.

Alisher Navoiy turk tili morfologiyasi haqida izchil ma’lumot berishni o‘z oldiga maqsad qilib olmasdan, turk tilining fors tilida bo‘lmagan morfologik imkoniyatlari haqidagina fikr yuritadi. Shoirning ana shunday fikrlarining o‘ziyoq uning naqadar sinchkov tilshunos ekanligidan dalolat beradi. Xususan, turk (o‘zbek) tilida arab tili morfologiyasida mavjud bo‘lgan mufaala fe’liga mos keladigan fe’l shakli mavjudligini ko‘rsatadi va bugungi kunda fe’lning nisbat shakllari nomi bilan o‘rganilayotgan grammatik kategoriyaning birgalik nisbat shakli haqida fikr yuritadi. Bu haqda Alisher Navoiy shunday deydi: “... arab tilining sarfiy istilohining abvobida bir bobdurki, anga mufaala bobi ot qo‘yub turlar... andoqki, muoraza va muqobala va mushoara va mukolama... Va forsigo‘ylar muncha fasohat va balog‘at da’vosi bila bu foydadin mahrum. Ammo turk bulagosi bu foydaga taaruz qilibdurlar. Va masdarga bir «shin» harfi ilhaq qilmoq bila ul maqsudni topibdur. Andoqki, chopishmoq va topishmoq va kuchushmoq va o‘pushmak...” («Muhokamat-ul-lug‘atayn», 186-6.).

Shuningdek, fe’lning orttirma nisbati shakli haqida ham ma’lumot beradi va bu nisbat ma’nosi -t affiksi orqali ifodalanishini qayd etadi. Masalan, yugurt, yashurt, niqart .

Hind tilshunosligiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularda ham “So‘zlarni turkumlarga ajratish” masalasida yagona fikr yo‘q edi. To‘rtta so‘z turkumini ajratish fikri ko‘proq e’tirof qilingan. Ular ot, fe’l, old ko‘makchi va yuklamadir.

Ot-predmetlik g‘oyasini bildiruvchi, fe’l esa harakatni ifodalovchi so‘z sifatida ta’riflanadi. Otlar fe’l o‘zaklaridan yasaladi, ular birlik, juftlik va ko‘plik shakllariga egadir. Old ko‘makchilar otlarning va fe’llarning ma’nolarini ko‘rsatib beruvchi so‘zlar deb baholangan. Yuklamalarga kelganda, qadimgi hind olimlari ularni ma’nolariga ko‘ra uch guruhga ajratganlar:

1) qiyoslash yuklamalari;

2) bog‘lovchi yuklamalar;

3) she’rlarda shakl unsuri sifatida ishlatiladigan yuklamalar.

Olmoshlar va sifatlar alohida so‘z turkumlariga ajratilmay, ot va fe’l turkumlariga qo‘shib yuborilgan.

Hindlar yettita kelishikni ajratganlar. Bular: 1) bosh kelishik, 2) tushum kelishigi, 3) qurol kelishigi, 4) jo‘nalish kelishigi, 5) ajratish (ya’ni chiqish) kelishigi, 6) qaratqich kelishigi, 7) o‘rin kelishigi.

U davrlarda ham fe’lning to‘rtta mayli-xabar, istak, buyruq, shart mayllarini bilganlar. Fe’lning aniq, o‘rta va majhul nisbatlari ajratilib, har biri alohida ta’riflangan. Chunki aniq nisbat boshqa shaxs foydasi uchun bajariladigan harakatini ifodalovchi so‘z deb ta’riflangan.

Rus tilshunosi M.N. Peterson so‘z turkumlari sonini va ular bilan bog‘liq muammolarni matn asosida o‘rganishga qaror qiladi va shu maqsadda ulug‘ rus shoiri A. S. Pushkinning “Belkin hikoyalari” (“Повести белкина”) asarini tanlaydi. Chunki uning yozishicha, hozirgacha rus tilshunosligida ham jahon tilshunosligida so‘z turkumlari haqidagi masala o‘z yechimini topgan emas. O‘z fikrini dalillash uchun M.N. Peterson mashhur fransuz tilshunosi J. Vandirisning quyidagi so‘zlarini keltiradi: “So‘zlarni turkumlash nihoyatda qiyin bo‘lgani uchun hozirgacha hech kim so‘z turkumlarining manzur bo‘larli tasnifini yaratgan emas. An’anaga ko‘ra yunon mantiqshunoslari ta’limotlariga borib taqaluvchi fransuz mumtoz (klassik) grammatikasi 10 ta so‘z turkumini farqlaydi. Ammo bu tasnif hech qanday tanqidga dosh bera olmaydi: “uni nafaqat boshqa tillarga, balki uni yaratgan (yunon) tiliga nisbatan ham tatbiq etib bo‘lmaydi” [qarang: J. Vandiri 1937, 139-bet, iqtibos M.N. Petersonniki]. M.N. Peterson so‘z turkumlari taraqqiyoti haqidagi masalani rus tili misolida o‘rganishga harakat qiladi, va bunda asosiy e’tiborini “so‘z turkumlari” termini deganda nimani tushunish kerakligiga, tahlil usulini (metodini) aniqlashga va tadqiqot olib borish mumkin bo‘lgan materialga qaratadi.

Umuman olganda, so‘z turkumlariga jahondagi barcha tillarda turlicha munosabatda bo‘lganligi hamda tilshunos olimlar o‘zlarining ilmiy qarashlarini bayon qilganligiga qisman guvoh bo‘ldik. Maqola davomida turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham so‘z turkumlariga bo‘lgan ilmiy xulosalardan bahramand bo‘lamiz. Tilshunos olimlar Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Xojiev, I.Rasulov, X.Doniyorovlar tomonidan nashr etilgan. Hozirgi o‘zbek arabiy tili darsligida so‘z turkumlarni 12 turga bo‘lib mustaqil so‘zlarni - ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish, yordamchi so‘zlarni ko‘makchi, bog‘lovchi,

yuklama, bundan tashqari modal so‘zlar, undov va taqlid so‘zlar tarzida o‘rganganligini ko‘ramiz. Lekin o‘zbek tili grammatikasining praktikumi kitobida esa so‘z turkumlarni to‘rtta katta gruppaga, turkumga ajratgan:

1. Mustaqil so‘zlar: ot, sifat, son, olmosh, ravish.
2. Yordamchi so‘zlar: ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama.
3. Undov va taqlid so‘zlar.
4. Modal so‘zlar.

A.Sodiqov, A.Abduazizov, M.Irisqulovlarning 1981-yilda chop etilgan.“Tilshunoslikka kirish” darsligida so‘z turkumlarni boshqa tillar ingliz, nemis va fransuz tillari bilan qiyoslagan holda o‘rganishga, mohiyatiga yanada chuqurroq e’tibor berishga qaratilgan. Bunda so‘z turkumlarni ajratishning uchta qonuniyati borligini ta’kidlaydi:

1. So‘z turkumlarining kategorial belgilari.
2. So‘zlarni turkumlarga ajratish prinsplari.
3. Turli tillar so‘z turkumlari.

Morfologiyaning shakllanishida S.Usmonovning xizmatlari ham beqiyos. Olimning “O‘zbek tilida so‘zning morfologik tuzilishi” kitobi bu boradagi jiddiy tadqiqotlar sirasiga kiradi. 1976-yilda nashr etilgan “O‘zbek tili grammatikasi” kitobida tilshunoslik fanining bir qismi sifatida o‘rganilib, u tilning grammatik qurilishini tekshirishi aytib o‘tilgan. Chunki u so‘z va gapning har bir tildagi formal-grammatik tomonlarini so‘zning shakl o‘zgarishlarini, so‘z qo‘shishning, so‘z birikmalarining turli ko‘rinishlarini, vositalarini va gapning tuzilishini, tiplarini o‘rganadi. Keyingi davrlarda, ya’ni o‘rta asrlar va XIX-XX asrlarda yevropa va rus tilshunosligida bu borada bir qancha tasniflar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ular ko‘pincha aleksandriyaliklar tasnifiga tayangan holda bajarilgan. Tillardagi so‘z turkumlarining soni haqida olimlar o‘rtasida turli fikrlar mavjud. Masalan, hozirgi zamon rus tilida 10-12ta, hatto, 15ta so‘z turkumi bor, degan fikrlar o‘rtaga tashlangan. Ingliz tilidagi so‘z turkumlarining soni turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Ayrim olimlar hozirda amalda bo‘lgan 10ta so‘z turkumiga (ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish, predlog, bog‘lovchi, artikl va yuklamalar), yana 4 ta qo‘shib (modal so‘zlar, holat kategoriyasi so‘zlari, undovlar, javob so‘zlar) so‘z turkumlari sonini 14 taga yetkazadilar. Bu olimlarning so‘z turkumlarini farqlashda qanday va nechta me’zonlardan foydalanishlariga bog‘liqdir.

O‘zbek tilida bugungi kundagi so‘z turkumlarining soni esa 10-12 ta deb ko‘rsatiladi. Bular :

6 ta mustaqil (ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe’l);
3 ta yordamchi (ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama);
3 ta alohida (undovlar, taqlid so‘zlar, modal so‘zlar) so‘z turkumlaridir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, so‘z turkumlari soni va tarkibini aniqlashda dunyo tilshunosligida bo‘lganidek, o‘zbek tilshunosligida ham, so‘zlarning semantik, sintaktik va morfologik jihatlarini inobatga olish keng tarqalgan. O‘zbek tilining morfologik sathi va strukturasi, tuzilishini o‘rganish masalasida ham ko‘plab tadqiqotlar va izlanishlar hamon davom etib kelmoqda. Albatta, asosiy qolip hamda tahliliy natijalar sohaning ilmli olimlari tomonidan yaratilgan. Ammo so‘z turkumlari sonining bugungi kungacha barqarorlashmaganligi kelgusida bu sohada yangi izlanish va tadqiqotlar olib borish kerakligini ko‘rsatadi.So‘z turkumlarining bir-biriga o‘tishi, leksik va leksik-grammatik omonimiya masalasi esa bunda har xil ziddiyatlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Muhokamat-ul lug‘atayn. –Toshkent: 1964.116-117-b.
2. Aristotel. Poetika.–Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.149-b.
3. Буланин Л.Л. Трудные вопросы морфологии. – Москва: Просвещение, 1936.8-с.
4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. 312-b.
5. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 2-jild. Lingvistik ta’limotlar tarixi –Toshkent. 2012. 232-b.
6. O‘rinboyev B. O‘zbek tilshunosligi tarixi. –Samarqand: SamDU, 1999. 280-b.
7. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent: O‘qituvchi, 1972.208-b.
8. Z.Yunusova, M.Abuzalova. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
9. “O‘zbek tilshunosligi tarixi” A.Nurmonov. –Toshkent: O‘zbekiston, 2002.



Durdona SODIQBOYEVA,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU O‘zbek filologiyasi fakulteti O‘zbek adabiyotshunosligi mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

“MIFTOH UL-ADL”ASARINI O‘RGANISH MANBALARI

Annotatsiya: mazkur maqolada Poshoxojaning “Miftoh ul-adl” asarining o‘rganish manbalari batafsil tanishtiriladi.“Miftoh ul-adl”ning qo‘lyozma nusxalarini qayta tiklash va chop etishning istiqboldagi maqsadlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *qo‘lyozma, manba, mumtoz, axloqiy, ta’limiy.*

Аннотация: в данной статье подробно представлены источники изучения произведения Пошшаходжи «Мифтах ул-адл». «Говорит о дальнейших целях реставрации и печати рукописных экземпляров Мифтах ул-адла.

Ключевые слова: *рукописный, источник классический, нравственно-воспитательный*

Annotation: in this article, the sources of study of Poshshahoja's work “Miftah ul-adl” are covered in detail. - It talks about the future goals of restoration and printing of manuscript copies of “Miftah ul-adl”.

Key words: *manuscript source, classical, ethical and educational*

XVI asr Buxoro adabiy muhitida muhim o‘rin egallagan ijodkor Ibodulla Sayid Poshoxoja bin Abdulvahhobxoja Xoja taxallusi bilan ijod qilgan. Adibning axloqiy-ta’limiy, ijtimoiy-siyosiy mazmunda bitilgan “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” singari nasriy hikoyatlari adabiyotimiz tarixida muhim asarlar qatorida o‘rganilib kelinmoqda. Ma’lumki, o‘zbek xalqining boy ilmiy-ma’naviy merosi, adabiyot va san’at haqidagi qimmatli ma’lumotlar qo‘lyozma manbalarda aks etadi. Xojaning asarlari ham ana shunday qimmatli asarlar qatorida bo‘lib, “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlarining O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida bir nechta qo‘lyozma nusxalari saqlanadi. Ushbu asarlarni o‘rganishni XX asrda taniqli adib va adabiyotshunos olim Abdurauf Fitrat boshlab berdi. U “Chig‘atoy adabiyoti” maqolasida shunday deydi: “Bu adabiyot Chig‘atoydan boshlab temuriylarning yiqilishlarig‘acha (13-16) bo‘lg‘an adabiyotdir. Chingiziylardan temuriylargacha bo‘lg‘an bir asrlik zamonda chig‘atoy adabiyotig‘a oid namunalar yo‘q. Yolg‘iz Rabg‘uziyning “Qisas ul-anbiyo”sidir. So‘ngra o‘zbek ilmiy markazi kutubxonasida “Miftoh ul-adl” borki, qachon yozilg‘ani ma’lum emas. Biroq tili buning ham Rabg‘uziy zamondoshi ekanini ko‘rsatmakda.”[5:38]. Fitrat asarning yozilgan davrini XIV asr sifatida ko‘rsatadi va muallifi noma’lum deydi. Bu yanglish fikr Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” kitobida, “O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”ning I tomida va bir qancha majmualarda, hatto taniqli sharqshunos olim E.E.Bertels, J.Ekmann tadqiqotlarida o‘z aksini topadi. Adabiyotshunos olim V.Zohidov Xoja va uning asarlari haqidagi maqolalarida “Miftoh ul-adl” XVI asrning taniqli adibi Xoja tomonidan Shayboniyxonning o‘g‘li Muhammad Temur Sultonga bag‘ishlab yozilganini ma’lum qiladi.[3:101] Olim asarning yaratilish davri va muallifi haqidagi fikrlarga to‘la aniqlik kiritadi. Xoja faoliyati haqida nomzodlik dissertatsiyasini yozgan olima M.Mirzaaxmedova Fitrat, N.Mallayev, V.Zohidov, S.Qosimov singari adabiyotshunoslarning Xoja ijodi bilan bog‘liq izlanishlarini ilmiy jihatdan tahlil qilib, asarning qo‘lyozma nusxalari haqida ma’lumot beradi.

Xoja hayoti va “Miftoh ul-adl” asari ustida Turkiyalik adabiyotshunoslar tomonidan ham bir qancha tadqiqotlar yaratilgan. Shulardan biri Prof.Dr Abdulbaki Chetinning 1998-yilda magistrlik dissertatsiyasi himoyasi uchun yozgan “Hacı oğlu Hüseyin Miftâhü’l-adl” nomli tadqiqot ishidir.[7] Ushbu tadqiqot ishining kirish qismida XIII-XIV asrlarda Xorazm va Sirdaryoning quyi qismlarida qisman o‘g‘uz(turkman) va qipchoq mahalliy shevalari ta’sirida shakllangan O‘rta Osiyo adabiy tilining rivojlanish bosqichini Xorazm turkchasi deb atalishiga izoh beradi. Xorazm turkchasida yozilgan “Qisas ul-anbiyo”, “Najhul-farodis”, “Xusrav va Shirin”, “Muhabbatnoma”, “Mu’in ul-murid”, “Jumjumanoma”, “Javohir ul-asror”, “Me’rojnoma”, “Muqaddimat ul-adab” singari asarlarning muallifi, tili, yaratilish davri haqida gapirib, bular ichida “Miftoh ul-adl” eng kam o‘rganilganini aytadi. Olimning dissertatsiyasi uchun xizmat qilgan “Miftoh ul-adl”ning nusxasi Turkiyaning Ataturk universiteti kutubxonasi, Sayfiddin O‘zege kitobligi Ogah Sirri Levend bo‘limida ASL-5 raqamda qayt etilgan. [7:7] Yuqorida aytib o‘tganimizdek, adabiyotshunos olima M.Mirzaaxmedova nomzodlik dissertatsiyasida Xojaning “Miftoh ul-adl” asari qo‘lyozmasining O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida № 885, №1791 va №7796 , №4656 inventar raqami ostida saqlanayotgan nusxalari mavjudligini va faqatgina № 885 inventar raqamli nusxada “Miftoh ul-adl”ning to‘liq XV-bobi ham keltirilgani, qolgan nusxalarda esa VI-bob bilan tamomlanmay tugatilgani aytiladi.[2:37,38] Turkiyalik olim foydalangan nusxada esa asarning to‘liq XV-bobi ham mavjud hamda “Gulzor”

asari haqida hech qanday ma'lumot berilmagan. Mirzaaxmedova keltirgan qo'lyozmalarda esa "Miftoh ul-adl" bilan "Gulzor" birgalikda muqovalangan.Demak, Turkiyada "Miftoh ul -adl"ning yana bir nusxasi mavjud degan fikrga kelamiz.Qayta-qayta yozilgan so'z va qo'shimchalarning qizil siyoh bilan chizib qo'yilishi, varaq chetiga unutilgan so'z yoki jumlalarning yozilishining tez-tez uchrab turishi asar yozilganidan keyin tuzatish niyatida ko'zdan kechirganidan dalolat beradi. Asarning nusxa ko'chiruvchisi Al-Kazaniy Uraz Muhammad ibni Mulla Mamish Chermishdir. Nusxa 1618-1619-yilda (hijriy 1028) ko'chirilgan. Asarning yozilish vaqti noma'lum. Abdulbaki Chetin asarning yozilish sanasi noma'lum deb ma'lumot beradi. O'zidan oldin tadqiqotlarda keltirilgan ma'lumotlarga tayanadi. Jumladan, Ahmet Jafarog'lu "Turk tili tarixi" kitobida Fitratning ma'lumotlariga tayanib, asarning Temurdan oldin Rabg'uziydan keyin yozilgan degan fikrini qabul qilganini qayt etadi.Ekman Xorazm turkchasiga oid maqolalaridan birida asarni "anonim" deb qayt etadi. Ogah Sirri Levend asar muallifini "Hacioğlu Hüsamettin" deb sanab , izohida asarning bir nusxasi uning qo'lyozmalari orasida ekanligini ta'kidlaydi.[6:10} (Bu A.U kutubxonasidagi nusxa) Bu yerda Abdulbaki Chetin asar nusxasini o'rganish jarayonida asar muallifining ismi Xojining o'g'li Husamettin emas balki Xojining o'g'li Husayn sifatida tilga olingani, Husamettin uning laqabi sifatida izohlaydi. Muallif haqida esa hech qanday ma'lumot yo'q ekanligini, asar qachon va qayerda yozilganini aniq bilmasligi haqida ham aytib o'tadi.Nusxaning 3-4 betlarida keltirilganidek, muallif bu asarni arab tilidan turk tiliga tarjima qilganiligini va ulug' shahzoda Temurbekka bag'ishlaganini ta'kidlaydi. Jafarog'li bu Temurbekning kimligi haqida bizda ma'lumot yo'q deydi.[7] (O'zbek adabiyotshunos olimi Vohid Zohidov 1957-1961-yillardagi tadqiqot ishlarida bu Temur kimligiga aniqlik kiritgan edi). A.Dilochar asarni turkiy asarlar orasida qayt etib, u haqida hech qanday ma'lumoti yo'qligini ta'kidlaydi.[9:75]A.Sirri Levend asarning tili chig'atoycha deb ko'rsatadi.[8] Ekman esa S.Levendning maqolasiga ishora qilib "Bu yerda ,ehtimol, yuqorida tilga olingan asarning yana nusxasi bordir" deb hisoblaydi. Chunki Ekmanning har ikki maqolasida asar haqida ma'lumot berarkan uning yagona manbasi Fitratning "O'zbek adabiyoti namunalari" asaridir. Bu asarning 112-124- betlarida "Miftoh ul-adl" haqida parchalar keltirilgan. Abdulbaki Chetin o'zi foydalangan nusxa bilan Ekman aytib o'tgan nusxa boshqa-boshqa ekanligidan xabardor bo'lgan. U asarni A.Sirri Levent "Siyosatnoma", J.Ekman "Bir anonim fiqh kitobi", Jafarog'lu esa "Mohiyatan fiqh kitobi" deb hisoblashganini ta'kidlaydi.[6:8] Bunga sabab esa asarning dastlabki 6-bobi an'anaviy siyosatnomalar uslubida yozilgani, 7-15-boblari esa fiqh mavzularini o'z ichiga olganida bo'lsa kerak deb izohlaydi.

Abdulbaki Chetinning "Miftoh ul-adl" haqidagi tadqiqot ishi : Kirish, lingvistik tahlil, matn va lug'at bo'limlaridan tashkil topgan. Kirish bo'limda Xorazm tarixi va xorazm turkchasi haqida qisqacha ma'lumot beriladi va xorazm turkchasida yozilgan asarlar va ularning muallifi, tili, uslubiga biroz to'xtalib o'tiladi. "Miftoh ul-adl" tanishtiriladi. Lingvistik tahlil bo'limida esa asarning lingvistik xususiyatlari aniqlanadi. Bu bo'lim to'rt qismdan iborat: 1.Imlo xususiyatlari. 2. Tovush xususiyatlari. 3.Shakl xususiyatlari. 4.Gap xususiyatlar. "Miftoh ul-adl" ushbu bo'limda ana shu jihatlardan ko'rib chiqiladi. Matn qismida muallif asarni qo'lyozmadan transkripsiya holatiga keltirgan variantini beradi. Matnda tushuntirilishi kerak bo'lgan fikrlar ushbu bo'lim oxirida alohida "qaydlar " orqali berilgan. Lug'at bo'limida esa asarda tilga olingan barcha so'zlar kiritilgan. Ushbu bo'lim so'ngiga "Alohida nomlar katologi" ham qo'shilgan. Tadqiqot oxirida faqat foydalanilgan manbalarni o'z ichiga olgan "Bibliografiya" mavjud.

Tadqiqot ishining "Miftoh ul-adl" matni muqaddimasi basmala, hamd va na't qismlaridan so'ng " Hoji og'li Huseyn taxallusi Husamiddin o'zi aytdi: Olimlarning ilm fazilatin, taqi sultanlarning yo beglarning adlin, taqi hakimlarga raiyyatlarning mute bo'lmoqliklarining Qur'on ichinda taqi hadis kitoblari ichida ko'rdim esa ajratib ko'rsatib bu muxtasar kitobni arab tilidan turkiy tilga tarjima qildim. Taqi bu kitobga "Miftoh ul-adl" ot qo'ydim…"[6:46] deb boshlanadi. V.Zohidov va S.G'aniyevalar nashrga tayyorlagan "Miftoh ul-adl" va "Gulzordan" kitobi muqaddimasi esa "Jami qildim bu kitobni turkiy tilina, taqi kitobga "Miftoh ul-adl" ot qo'ydim…" [4:11]deb boshlanadi ya'ni A.Chetin ishlagan matndagi hamd, na't qismlar bunda uchramaydi. Asar o'n besh bobdan tashkil topgan. Boblar har ikkala kitobda bir xil nom bilan ko'rsatilgan. Asarning har bir bobi ma'lum ijtimoiy-axloqiy mavzuga bag'ishlangan, yozuvchi mavzuga oid dastlab Qur'oni karimdan oyatlarni original holda keltiradi va ularni hadislar yordamida izohlaydi, davomidan yanada tushunarli bo'lishi uchun hikoyatlar keltiradi. Asardagi hikoyatlar qahramonlari Payg'ambarlar, avliyolar, shohlar va boshqa turdagi kishilardir. V.Zohidov va S.G'aniyevalar 1962-yil "Miftoh ul-adl" va "Gulzor"dan parchalarni nashrga tayyorlashgan. Ushbu asar haqida: "Asar o'n besh bobdan iborat bo'lib, dastlab nazariy didaktik xarakterga ega bo'lgan tezislar, so'ngra ularni tasdiqlash uchun turli masallar, hikoyatlar keltiriladi"[4:7] deb ma'lumot beradilar. Afsuski, mustabid sovet tuzimi talablari sabab, to'liq boblar va ulardagi nazariy fikrlar keltirilmay asardan ba'zi hikoyatlarnigina nashrga tayyorlash bilan cheklanganlar. Xoja ijodi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan M.Mirzaxmedova ham "Miftoh ul-adl"da keltirilgan nazariy masalar haqida batafsil to'xtalmay ,asosan, hikoyatlarini tahlilga tortadi. Turkiyalik olim Abdulbaki Chetin dissertatsiyasida "Miftoh ul-adl" qo'lyozma matnini barcha nazariy ma'lumotlari bilan bugungi yozuvga transkripsiya qilgan. U faqat muallif borasida adashgan.Xojaning "Miftoh ul-adl" asari Kaykovusning

“Qobusnoma”, Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, “Bo‘ston”, turkiy mumtoz adabiyotining eng yirik vakili Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarlariga o‘xshab ketadi.Uning hikoyalari sodda va ravon uslubda yozilganligi, o‘ziga xos tuzilishi, g‘oyaviy-badiiy jihatdan mukammalligi va til xususiyatlari nuqtayi nazaridan nihoyatda qimmatli manbalardan biri bo‘lib, farzandlar tarbiyasi, vatanga muhabbat, halollik va boshqa insoniy fazilatlar targ‘ibiga bag‘ishlagan, uning bugungi yosh avlod tarbiyasi va ma’naviyatini yuksaltirishdagi o‘rni beqiyos. 2017-yil 24-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[1] qarorni imzoladi. Ushbu qaror yozma merosni saqlash, o‘rganish va keng targ‘ib qilish ishlarini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga yo‘naltirilgan. Shuni aytishimiz mumkinki, “Miftoh ul-adl”qo‘lyozma matnini badiiy va lingvistik jihatdan tadqiq etish bugungi kunimizda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Buning uchun qo‘lyozmaning xat turi, yaratilgan davr va matni nashr ko‘rinishigacha bo‘lgan tadqiqotni amalga oshirish matnshunos, manbashunos va adabiyotshunoslarimiz oldidagi zarur vazifalardandir. Umid qilamizki, mustaqillik, so‘z erkinligi, adabiyotga, san’at sohalariga berilgan e’tibor va imkoniyatlardan foydalanib kelgusi ishlarimizda Xoja asarlarini o‘rganishni yanada izchil davom ettiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori. –T. 2017-yil 24 –may.
2. Mirzaaxmedova M. Xoja. –Toshkent: “Fan”, 1975.
3. Zohidov V. “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” haqida. –Toshkent 1961.
4. Poshoxoja “Miftoh ul-adl” va “Gulzor”dan. ЎzSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. – Toshkent 1962.
5. Fitrat. Tanlangan asarlar.kkinchi jild. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2000.
6. Çetin.A Hacı oğlu Hüseyin: Miftâhül’l-adl. Ataturk Üniversitesi,Yüksek lisans tezi, Erzrum,1998.
7. Ahmet Cafer oğlu, Tukr dili tarihi.Enderun kitapevi Ist.1984.
8. Agâh Sırrı Levend, Siyaset-nameler.TDAY-Belleten 1962.
9. Dilacar. A Turk diline benel Bir bakiş TDK.Ank.1964



Yulduz MIRKAMOLOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2-bosqich magistranti

G‘AROYIB US-SIG‘ARDA HARFIY SAN’ATLARNING QO‘LLANILISHI

Annotatsiya: o‘zbek mumtoz adabiyotida turli badiiy san’atlar mavjud bo‘lib, bu mahorat g‘azal yozish uchun kerak bo‘ladigan qofiya, ohang, vazn kabi talablardan ham oshirib, bir misra tarkibida kishini hayratga soluvchi, o‘ylantiruvchi iste’dodning borligi nafaqat g‘azal, uning yaratuvchisiga ham tahsinlar aytishga undaydi. Maqolada Alisher Navoiyning shunday iste’dodlaridan, harflarning qo‘llanilishi hamda talqin va tabdil xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *harf, g‘azal, qofiya, istihroj, tasavvuf, tariqat, ma’rifat, kitobat.*

Annotation:in Uzbek classical literature there are various artistic arts, which exceed the requirements of writing a gazelle, rhyme, tone and weight, and the presence of an admirable and thoughtful talent in one verse encourages one to praise not only the gazelle, but also its creator. The article discusses such talents of Alisher Navoi, the use of letters, as well as interpretation and interpretation.

Key words: *letter, gazelle, rhyme, istihroj, mysticism, tariqat, enlightenment, book.*

Аннотация: в узбекской классической литературе существуют различные виды изобразительного искусства, это умение выходит далеко за рамки таких требований, как рифма, тон, вес, которые были бы необходимы для написания Газели, а наличие удивительного, наводящего на размышления таланта в одной строфе побуждает не только газель, но и ее создателя давать увещевания. В статье рассказывается о таких талантах Алишера Навои, как письмо и использование тафсира и табдилов.

Ключевые слова: *искусство цитирования, газель, мистика, тарикат, просветление.*

Bugungi kunda o‘zbek mumtoz adabiyotining ixlosmandlari g‘azallar tarkibidagi so‘z mahorati, badiiy san’atlarning o‘rni, ulug‘ allomalarimizning kalomdan foydalanish usullarini ko‘rib, ularni tahlil qilishga, tag ma’nolarini ochiqlashga qiziqib bormoqdalar. Barchamizga ma’lumki, kitobat va istihroj san’atlari adabiyotda keng

qo‘llanilgan bo‘lib, darsliklarda ham o‘quvchilarga o‘rgatib kelinadi. Kitobat (arabcha “ko‘chirib yozmoq” so‘zidan) mumtoz adabiyotda keng qo‘llanilgan badiiy san’atlardan biri bo‘lib, bunda arab alifbosi harflarining yozuvdagi shakli biron narsa-hodisa yoki holatga o‘xshatilgan. Istihroj (arabchadan, “keltirib chiqarmoq”, “so‘z yasamoq”) kitobat san’ati asosida hosil bo‘ladi: bunda arab yozuvidagi harflarni biron narsaga o‘xshatish bilan birga, bu harflarning yig‘indisidan so‘z hosil qilinadi [1.158]. Xususan, Alisher Navoiy o‘zining barcha asarlarida bu ikki san’atning qudratini namoyon qilgan. Biz bu ulug‘ zotning mehnat mahsullarini o‘qishimiz davomida voqealar syujeti, g‘azallarga xos ohang, qofiya bilan birgalikda misralardagi mazmun, so‘zni qo‘llashdagi usul, zamiridagi ma’nolarni ko‘rib, shunchaki ma’lumot olish uchun emas, balki, san’atning ortidagi san’atga guvoh bo‘lamiz. Shuning uchun ham mumtoz adabiyot barchaga qiziq, sirli va jumboqli bo‘lgani uchun tadqiqotchilar tomonidan o‘zgacha zavq va shavq bilan o‘rganiladi.Izlanuvchilardan biri Saydullayeva Fotima “Alisher Navoiy “Xamsa” dostonida harf san’atining qo‘llanilishi” nomli maqolasida barcha dostonlardan parchalar keltirib, yuqoridagi fikrlarimizni isbotlagan. Dostonning 14-15- boblari so‘z ta’rifiga bag‘ishlangan bo‘lib, Hazrat Navoiy so‘zning buyukligini “ن کُ” “(kun) yaral” so‘zining olam va odamni yaratishda vosita bo‘lganini dalillaydi:

Dahr muqayyad bila ozodasi,
Borcha erur “kof” ila “nun” zodasi
Zodasidin zoda bo‘lib beadad
Zodaga ham volid bo‘lib ham valad.

Baytda aytib o‘tganimizdek, “kof va nun” harflari qo‘shilishidan olamning yaralishi haqida so‘z boradi [2.71]. Bu kabi go‘zal baytlarni tahlil qilish maqsadida Alisher Navoiyning “G‘aroyib-us sig‘ar” asarida berilgan bir nechta g‘azallarga murojat qilamiz.

Tararda uqdalig‘ zulfin musalsal ayladi chinlar,
Girih «mim», ikki zulfi ikki «lom», iynak tarog‘ «sin»lar.
Girihlar zulfida go‘yo hisob aylaptur ul kofir
Olurda zuhdu taqvo ahlidin toroj etib dinlar.

Yuqoridagi go‘zal misralarda kitobat san’ati mavjud bo‘lib, Navoiy hazratlari harflardan ustalik bilan foydalangan. Ya’ni harflarning tashqi ko‘rinishi, shakli-shamoyilini nazarda tutib betakror o‘xshatmalar yaratgan.Bu yerda girih sochga nisbatan tugun, chigil, o‘rim ma’nolarini bildirib, mim “م” harfining tuzilishiga o‘xshatilgan. Ikki zulf lom “ل” harfiga, taroq esa sin “س” harfiga o‘xshatilgan.

Firoqing poymoli qomatimkim, halqadek bo‘lmish,
Nazar qilkim, biaynih bo‘ldi hijron ostida «nun»dek.

Ushbu misralarda ham firoqing poymolida qomatim halqadek bo‘lmish, nazar qilki, hijron ostida nun “ن” kabi bo‘ldi deya nunning tuzilishini qomatining halqaga o‘xshagani bilan qiyoslamoqda. Birgina alif harfi “G‘aroyib-us sig‘ar” da 44 marotaba qo‘llanilgan bo‘lib, uning tikligi qomatga, to‘g‘rilikka ishora qilgan.

Bundan tashqari, “G‘aroyib-us sig‘ar” ning o‘ziga xos g‘aroyibligi shundaki, barcha g‘azallar harflarning ketma-ketligiga ko‘ra joylashtirilgan:

Alif harfining ofatlarining ibtidosi «g‘aroyib»din;
Be harfining balolarining bidoyati «g‘aroyib»din;
Pe harfining parivashlarining parvozi «g‘aroyib»din;
Te harfining torojgarlarining tamoshosi «g‘aroyib»din;
Se harfining samin gavharlarining samarasi «g‘aroyib»din;
Jim harfining jamilalarining jilvasi «g‘aroyib»din;
Chim harfining chobuklarining chehragushoylig‘i «g‘aroyib»din;
He harfining haromiylari husnoroylig‘i «g‘aroyib»din;
Xe harfining xo‘blarining xiromi «g‘aroyib»din;
Dol harfining diloromlarining davroni «g‘aroyib»din;
Zol harfining zaviyu-l-hayotlarining zufununlug‘i «g‘aroyib»din;
Re harfining ra’nolarining rustoxyezi «g‘aroyib»din;
Ze harfining zebolarining ziynati «g‘aroyib»din;
Sin harfining siyminbarlarining savdosi «g‘aroyib»din;
Shin harfining sho‘xlarining shamoyili «g‘aroyib»din;
Sod harfining sanamlarining siyti «g‘aroyib»din;
Zod harfining zamyuronbo‘ylarining ziyosi «g‘aroyib»din;
Te harfining tannozlarining tarovati «g‘aroyib»din;
Ayn harfining iyorlarining alomati «g‘aroyib»din;
G‘ayn harfining g‘izolalarining g‘avg‘osi «g‘aroyib»din;
Fe harfining fitnalarining fusuni «g‘aroyib»din;
Qof harfining qiyomatlarining qironi «g‘aroyib»din;
Kof harfining kofirlarining kamoli «g‘aroyib»din;
Lom harfining lu’batlarining latoyifi «g‘aroyib»din;
Mim harfining mahbublarining malohati «g‘aroyib»din;
Nun harfining nozaninlarining nozi «g‘aroyib»din;
Vov harfining vallohiyyat afzolarining vaqoyii «g‘aroyib»din;
He harfining humoyunvashlarining halokangizlig‘lari «g‘aroyib»din;
Lomalifning lolaruxlarining lobasi «g‘aroyib»din;
Yo harfining yag‘moyilarining yuz ko‘rguzmaklari «g‘aroyib»din.

Bundan ko‘rinib turibdiki, dunyo tarixida eng ko‘p so‘z qo‘llagan inson, Alisher Navoiy, so‘zning o‘ziga emas, uning tarkibidagi harflargacha e’tibor bergan. Harflarning o‘zidan ham mahorat bilan foydalangan va buni san’at darajasiga ko‘targan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “G‘aroyib-us sig‘ar” asarida ko‘plab harfiy san’at namunalari uchraydi. Ularni bir tizimga solib o‘rganish matnshunoslik va adabiy manbashunoslikning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. –Toshkent, 2022.
2. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences.
3. Alisher Navoiy.”G‘aroyib-us sig‘ar” asari.
4. Karimov O. Mumtoz sheriy janrlari. –Namangan: Namangan nashriyoti, 2015.
1. www.ziyouz.com kutubxonasi.

Kimyo QUVONOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti
magistr talabasi
e-mail quvonovak@gmail.com

TARIXIY SHAXSLAR, MIFOLOGIK VA AFSONAVIY OBRAZLAR

Annotatsiya: maqolada Hofiz Xorazmiy ijodidagi tarixiy shaxslar, mifologik hamda afsonaviy obrazlar talqin qilingan. Shuningdek, o‘sha davr ijtimoiy tuzumi yoritilgan.Maqolani yozishda asosiy adabiyot sifatida shoir devonidan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: *Hofiz Xorazmiy, tarixiy shaxslar, mifologik, afsonaviy obrazlar, devon, shoir.*

Аннотация: в статье интерпретируются исторические личности, мифологические и легендарные образы в творчестве Хофиза Хорезмийского. Также освещена социальная структура того времени. В написании статьи в качестве основного литературного источника использовался диван поэта.

Ключевые слова: *Хофиз Хорезмий, исторические личности, мифологические, легендарные образы, диван, поэт.*

Annotation: the article interprets historical figures, mythological, and legendary characters in the works of Hofiz Khorezmi. Additionally, the social structure of that era is highlighted. The main literature used in writing the article is the poet’s divan.

Key words: *Hofiz Khorezmi, historical figures, mythological, legendary images, divan, poet.*

Shoir Hofiz Xorazmiy Devonidan o‘rin olgan she’rlarini o‘rganish asnosida uning turli tasavvufiy, majoziy, mifologik, ramziy, tarixiy obrazlarlardan ustalik bilan foydalanganligining guvohi bo‘lamiz. Shulardan biri shoir she’rlaridagi tarixiy obrazlardir. Shoir o‘z she’rlarida Ibrohim Suloton, Sheroziy, Ibn Sino kabi tarixiy shaxslarning nomlarini bir necha bor qo‘llaganligini ko‘ramiz:

Guluston yuzlu, ey soqiy, saning ishqing manga jondur,
Ichalim bodanikim, davr-i Ibrohimi Sultondur.

XIV asr oxirlaridagi Xorazmda sodir bo`lgan notinchliklar sababli Hofizning Sherozga ketganligi uning Devonidan ma’lum. Amir Temur vafotidan keyin uning vorislari o‘rtasida toj-u taxt uchun ayovsiz kurash boshlanib, bu kurashlar natijasida 1414-yilda Sheroz taxtiga Ibrohim Sulton keladi va 21 yil davomida Sheroz taxtini boshqaradi. Shoirning bir necha g‘azallarida Ibrohim Sulton nomining keltirilganligi Hofizning Sherozda yashaganligi va Ibrohim Sulton bilan yaqin bo‘lganligidan dalolat beradi.

Sanovu hamd etadur yaratg‘an biru boring‘a,
O‘shul Sulton zamoninda, Hofizkim g‘azalxondur.

Ushbu g‘azal mazmuniga diqqat qiladigan bo‘lsak, Hofizning o‘zini o‘sha davr Sultoni saroyining g‘azalxoni deyishi ham uning Ibrohim Sulton saroyi bilan yaqin aloqasi bo‘lganligini, zamonining ko‘zga ko‘rinarli shoirlaridan bo‘lganligini isbotlaydi. Shoir hatto Ibrohim Sultonning vafotiga bag‘ishlab marsiya ham yozadi. Bu ham ikki shaxsning yaqin bo‘lganligining dalilidir.

Devonda keltirilgan tarixiy obrazlardan biri – bu Hofiz Sheroziydir. Shoir Sheroziyning ijodi juda qadrlagan. Buni uning an’analarini o‘zbek she’riyatiga olib kirib, Sheroziy kabi “Hofiz” taxallusini o‘ziga taxallus sifatida tanlaganligidan ham bilib olish mumkin. Hofizning quyidagi misralari ham buning yorqin dalilidir:

Hofizni ko‘rung ushbu zamon turk tilinda,
Gar keldi esa forsda ul Hofizi Sheroz.

Ammo ularni biror marotaba uchrashgan deya ayta olmaymiz. Chunki devonning biror o‘rnida bunga ishora qilinmagan.

Barchamizga ma’lumki, Nizomiy Ganjaviy o‘zining dostonlari bilan muhabbat bilan bog‘liq mavzularini badiiy adabiyotga olib kirdi. Nizomiydan keyin butun sharq adabiyotida unga ergashib “Xamsa” yozish bilan bir qatorda, uning dostonlarida aks etgan syujet va qahramonlar nomiga murojaat qilish odat tusiga aylandi. Sharq she’riyatida an’anaviy muhabbat mavzusida yozilgan she’r va g‘azallarda ham Shirin, Farhod, Xusrav, Majnun, Layli, Bahrom singari nomlar tilga olinadigan bo‘ldi.

Nizomiy dostonlaridagi syujetdan foydalanish XIV

asrlardan boshlab turkiy adabiyotga ham kirib keldi. Nafaqat syujet balki asar qahramonlari nomlarini talmeh sifatida qo‘llana boshlandi. Shu o‘rinda Qutb Xorazmiy tomonidan Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostoni turkiy tilga tarjima qilingani juda katta ahamiyatga ega bo’lganligini ham ta’kidlash lozim.

Qutb Xorazmiyning yurtdoshi bo‘lmish shoir Hofiz Xorazmiy ham o‘z g‘azallarida tez-tez Nizomiy dostoni qahramonlari nomlaridan talmeh va tamsil sifatida keng foydalangan. Shoir she’rlarida Nizomiyning “Layli va Majnun” dostoni bilan bog‘liq jihatlar juda ko‘p uchraydi, doston qahramonlarining nomi tez-tez tilga olinadi. Hofiz Xorazmiy aksariyat hollarda o‘zini Majnunga, ma’shuqasini esa Layliga qiyoslaydi.Buni orqali g‘azallarining baytlarini bezaydi:

Man banda Hofiz so‘rdum sanikim,
Manman Majnun, sensen Laylo.

Nizomiy asaridan Laylining Majnun holidan xabardor bo‘lib turgani ma’lum. Quyidagi baytda oshiq ma’shuqasiga: Layli Majnunning holini so‘rganidek, sen ham men hastaning holini bir-bir so‘rab tursang yaxshi bo‘lar edi, – deydi:

Gah-gah bu xastani so‘ra kelsa bo‘lurkim,
Majnun bila xush bordi biror holda Layli.

Aslida Majnun Layliga ko‘ngil bermagan edi, aksincha, Layli o‘zining go‘zal husnu jamoli bilan Majnunni oshiq qilgandi:

Layloga bermadi Majnun o‘zi ko‘nglini, vale
Xasta Majnun ko‘nglini husn ila Laylo tiladi.

Aql-u hushini yo‘qotib, o‘zini bilmaydigan holga kelgan devonani zanjirband qilganlaridek, Layli ishqida Majnun bo’lgan oshiqni bandda tutib turish odatiy hol hisoblangan, shu sababli ma’shuqaning uzun sochlari bilan oshiq qo‘lini bog‘lab qo‘yilishi lozim. Oshiq yoridan aynan shuni iltimos qiladi:

Zulfin ketarmasin man savdoyi ilgidin,
Majnuni xastag‘a chun kerakdur hamisha band.

Lirik qahramonni zamonasining Majnuni deyish xato emas, bu tabiiy bo‘lib, haqiqatan ham, oshiq yorining sochi savdosi – dardida junun hosil qilgan, ya’ni devona - Majnunga aylangan:

Gar manga Majnuni vaqt erur tesangiz, ayb emas,
Zulfining savdosidin hosil chun aylabman junun.

Oshiqning ma’shuqasi zulfini ko‘rishi bilan jununi shunday kuchayadiki, natijada uning ishqi oldida Layli va Majnun haqidagi hikoyat ham hech narsa bo‘lmay qoladi:

Xayoli zulfidin ko‘rsang kecha sho‘ru jununimni,
Unut bo‘lg‘ay hikoyati bila Majnunu ham Laylo.

Shoir bu fikrlarini quyidagi baytda yanada mustahkamlaydi:

Kim ko‘rar bo‘lsa niyozin birla nozin aytg‘ay,
Layliyu Majnun hikoyoti erur afsonalar..

Hofiz Xorazmiy she’rlarida talmeh san’atidan g‘oyat ustalik bilan foydalanganligini ko‘ramiz. Shoir bir qancha an’anaviy talmehlardan foydalanishi bilan birga o‘ziga xos talmehlar ham yaratgan. Masalan, “Xusrav va Shirin” dostonidagi qahramonlar nomidan:

Shakkari la’li labining sifatin qilmoqda,
Bo‘lmadim Hofiz, man Xusravi shirin bo‘ldum.

Hofiz g‘azallarida shuningdek Farhod, Xusrav, Shirin obrazlaridan ham unumli foydalanadi.

Jonim labingga oshiqi oshufta bo‘lg‘ali,
Yuz ta’na qildi Xusrav Shirin zamonina.

“Aylagil” radifli boshqa bir g‘azalida ham shoir “Farhod va Shirin” obrazlaridan foydalanib, talmeh yaratadi:

Jon chakarimni bilib ul la’l-i shakkarbor uchun,
Qissayi Shirin birla hamahd-i Farhod aylagil.

Ushbu bayt orqali shoir jonimning chiqishini bilib ul la’l kabi labli yorim uchun, “Farhod va Shirin” qissasiga o‘shatgin demoqchi.

Shoir ijodini atroflicha o‘rganish orqali uning faqat g‘azallaridagina emas, balki boshqa janrdagi asarlarida ham bunday obrazlardan foydalanganligini ko`rishimiz mumkin. Masalan:

Rahm aylamas ul ko‘nguli po‘lod bikin,
Jodu qaro hindu ko‘zi jallod bikin,
Shirin labi la’lini tilagan oshiq
Jonin, ne ajab, berursa Farhod bikin.

Ruboiy janrida yozilgan ushbu she’rida shoir mashuqasini rahm aylamaydigan ko‘nglini po‘ladga, jodu ko‘zini jallodga o‘xshatsa, oshiqni esa Shirinning la’li labini tilagan Farhodga qiyoslaydi.

Hofiz Devonidan o‘rin olgan asarlarida faqatgina afsonaviy yoki tassavvufiy qahramonlar emas, balki tarixiy shaxslardan ham misollar keltiradi. Masalan:

Shifo qonun-i ishqindin sinab jon birla izdarsang,
Sanga shogird bo‘lg‘ay ul zamonda Bu Ali Sino.

Ushbu baytda tabobat ilmining eng buyuk shaxslaridan biri – Abu Ali Ibn Sino ismini qo‘llagan.

Shoir she‘rlarida faqat tarixiy shaxslar emas, joy nomlaridan ham unumli foydalanganligini ko`rishimiz mumkin:

Gar mandan eshitmasang aning vasf-i labini,
Borg‘il taqi ul la’l-i Badahshondin eshit.

Tarixdan ma’lumki, Badahshon o‘zining la’li bilan juda mashhur. Shoir ushbu baytda shunga ishora qilmoqda. Agar mendan uning labining vasfini eshitmasang, borib u la’li Badahshondan eshit deydi. Ushbu o‘rinda shoir la’li Badahshon deya yor labini Badahshon la’liga qiyoslash orqali istiora san’atidan unumli foydalanmoqda.

Xulosa qilib aytganda shoir o‘z g‘azallarida tarixiy shaxslar obrazlaridan unumli foydalangan.Xususan Nizomiy Ganjaviy, Farxod va Shirin, Xusrav obrazlari keltirilgan. Bundan tashqari mifologik obrazlar ham berilgan.Ularning ma’nolari g‘azalda kelgan o‘rni ochib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Hofiz Xorazmiy devoni 1-jild O‘zbekiston KP Markaziy –Toshkent:Komitetining nashriyoti, 1981.
2.Mallayev N. M.O‘zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – Toshkent: O‘qituvchi, 1976, 241-254-betlar



Azizbek XAKIMOV,
University of Business and Science
Lingvistika o‘zbek tili yo‘nalishi magistranti
azizbek114hakimov@gmail.com

O‘ZBEK TILIDA -DAGI AFFIKSI BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tili morfemikasiga doir hozirgacha o‘z yechimini topmagan masalalardan biri – -dagi murakkab affiksi haqida o‘zbek olimlarining turli xil qarashlari, bu xilma-xillik natijasida yuzaga kelayotgan muammolar, shuningdek, imloga oid mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *affiks, kategorial va nokategorial shakllar, noparadigmatik morfema, atributiv shakl, otlashish.*

Аннотация: в данной статье освещен один из нерешенных вопросов, связанных с морфемикой узбекского языка – разные взгляды узбекских ученых на сложный аффикс -dagi, проблемы возникающие вследствие этого разнообразия, а также комментарии по орфографии.

Ключевые слова: *аффикс, категориальные и некатегориальные формы, непарадигматическая морфема, атрибутивная форма, субстантивация.*

Annotation: this article highlights one of the unresolved issues related to the morphemics of the Uzbek language - different views of Uzbek scientists on the complex affix -dagi, problems arising from this diversity, as well as comments on spelling.

Key words: *affix, categorical and non-categorical forms, non-paradigmatic morpheme, attributive form, substantivization.*

Bugungi tilshunosligimizda ayrim morfemalar bilan bog‘liq bahsli masalalar yig‘ilib qolayotgani va o‘n yillar davomida aniq bir to‘xtamga kelinmayotgani ona tilini o‘qitish jarayonida ham qator qiyinchiliklar tug‘dirmoqda.Ana shunday masalalardan biri -dagi affiksi bilan bog‘liq talqinlarning turlicha ekanligidir.

Akademik A.Hojiyev, professorlar Sh.Rahmatullayev, B.Mengliyev va boshqa taniqli olimlarimizning ishlarida mazkur affiks haqida bir-birini inkor etuvchi qarashlarga duch keldik.

Jumladan, A.Hojiyev “O‘zbek tilida “dagi” mustaqil morfemasi bormi yoki ...?” degan savolni qo‘yadi va bu affiksni murakkab emas deb hisoblaydi, uning tarkibidagi ikkinchi qism – -gi morfemasi to‘g‘risidagina fikr yuritadi. A.Hojiyevga ko‘ra:

1) o‘zbek tilida -dagi mustaqil morfemasi yo‘q;

2) -gi morfemasi sifat yasovchi emas;

3) -gi otlarning kategorial shakli (-da) dan nokategorial shakl yasovchi bo‘lib, o‘rin va paytga munosabat, xoslik ifodalaydi;

4) -dagi qo‘shimchali so‘zlar uy+dagi, sinf+dagi, bahor+dagi, yoz+dagi kabi emas, uyda+gi, sinfda+gi, bahorda+gi, yozda+gi kabi tarkibiy qismlarga bo‘linadi. Bu esa so‘z shaklidan shakl yasalishidir.[1. 234-239-b.]

Professor Sh.Rahmatullayev esa -dagi qo‘shimchasini noparadigmatik morfema sifatida baholab, uni negadir faqat “o‘ringa nisbat berish morfemasi” deb izohlaydi.Hammaga ma’lum bo‘lgani sababli biz bu o‘rinda -dagi qo‘shimchali so‘zlarning paytga nisbatan ham belgi bildirishi mumkinligini eslatib o‘tirmaymiz.

Sh.Rahmatullayevning fikricha, bu murakkab qo‘shimcha:

1) tarkibida -da turlovchisi bo‘lgani uchun o‘zidan oldin turlovchi qo‘shilishini rad etadi;

2) tarkibidagi -gi nisbiy sifat yasovchisi tufayli atributiv (belgi) shakl yasovchisi mavqeyiga ega bo‘ladi;

3) o‘zidan keyin turlovchi morfema qo‘shilishini rad etadi;

4) ot leksemashakl tarkibida tugallovchi morfema sifatida qatnashadi.[2. 243-b.]

Olim “-gi nisbiy sifat yasovchisi” deya aniq-tiniq ko‘rsatar ekan, nima uchun tarkibida so‘z yasovchi qism mavjud bo‘la turib, bu qo‘shimcha murakkab so‘z yasovchi emas, shakl yasovchi bo‘lishi lozimligini izohlamaydi.“Atributiv (belgi) shakli”degan mavhum jumlaga ham hech qanday tushuntirish berilmaydi.

Professor B.Mengliyev rahbarligida tuzilgan

qomusda ham -dagi qo‘shimchasi otning lug‘aviy shakllari qatorida sanab o‘tiladi, “o‘rin va payt belgisi shakli” deb izohlanadi.

Alohida ta’kidlash joizki, mazkur qomus ustida B.Mengliyev boshchiligida roppa-rosa 30 kishilik mualliflar jamoasi ishlagan, professorlar H.Ne’matov va R.Sayfullayevalar mas’ul muharrirlik qilishgan, professor N.Mahmudov taqriz bergan. Demak, qomusdagi har bir ma’lumot va ilmiy axborot uchun mas’uliyat ularning zimmasida ekan, kitob to‘lig‘icha mazkur olimlarimizning ilmiy qarashlarini aks ettiradi deyishimiz o‘rinli bo‘ladi.

Xullas, qomusda ta’kidlanishicha, -dagi qo‘shimchasi:

1) predmet-hodisaning belgisini bildiradi;

2) odatda, sifatlovchi-aniqlovchi bo‘lib keladi;

3) otlashsa, otning sintaktik vazifalarini ham bajaradi.[3. 138-b.]

Avvalo e’tibor qaratish lozimki, qo‘shimcha (affiks) predmet-hodisaning belgisini bildirmaydi va gap bo‘lagi vazifasini ham bajarmaydi, balki o‘sha qo‘shimchani olgan so‘z belgi bildiradi va sifatlovchi-aniqlovchi bo‘lib keladi. Qolaversa, predmet-hodisaning belgisini bildiruvchi so‘zlar odatda sifat deyiladi.

Ikkinchidan, agar -dagi qo‘shimchasi otlarning “o‘rin va payt belgisi shakli” deb qaralsa, demak, yozdagi, xonadagi kabi so‘zlar ot hisoblanadi. Xonadagi o‘quvchilarni ham chaqiring → Xonadagilarni ham chaqiring singari misollarda chindan ham -dagi qo‘shimchali so‘zning otlashishi sodir bo‘ladi. Unda haqli ravishda savol tug‘iladi: ot otlashadimi?

Bu savolga ham ayni shu qomusdan javob topamiz:“Otlashish – otdan boshqa so‘zning (!) nutq jarayonida o‘z vazifasini bajara turib, vaqtincha ot turkumi vazifasini ham o‘z zimmasiga olishi”. [3. 137-b.] Bunday o‘z-o‘zini inkor qilish hollari yuqorida nomi tilga olingan olimlarning ishlarida ham uchraydiki, ularga batafsil to‘xtalib o‘tirmaymiz.

Ko‘rinib turibdiki, manbalardagi talqinlar turlicha bo‘lishiga qaramay, ularning barchasida bitta umumiylik bor: -dagi (yoki -gi) qo‘shimchasi sifat yasovchi emas, lug‘aviy shakl yasovchi nokategorial (noparadigmatik) shakl.

Ammo bunday qo‘shimchali so‘zlarning otlashishi masalasi negadir tahlil doirasidan chetda qolgan.

Bundan tashqari, -dagi affiksi faqat otlargagina emas, boshqa tukumlarga, hatto birikmalarga ham qo‘shilishi mumkinki, tadqiqotlarda masalaning bu jihati o‘z aksini topmagan. Vaholanki, aynan shu jihat -dagi morfemasining faqat ot turkumigagina aloqador emasligini va lug‘aviy shakl ham emasligini ko‘rsatuvchi asosiy omil bo‘la oladi, bizningcha.

Muxtasar qilib aytganda, tilimizda sifat yasovchi -dagi mustaqil morfemasi mavjud.U asosan otlardan, shuningdek, olmoshlardan (mendagi, o‘zimdagi), otlashgan sifatlardan (nodondagi, to‘g‘ridagi), sonlardan (o‘ndagi, ikkalamizdagi), ravishlardan (uzoqdagi, buyoqdagi), otlashgan sifatdoshlardan (ishlagandagi, kasal bo‘lgandagi), harakat nomi shakllaridan (kiraverishdagi, yugurishdagi), ajralmas birikmalardan (tug‘ilgan kundagi, chet eldagi) nisbiy sifat yasaydi. Bunday sifatlar qaysi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, ko‘pincha sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi, otlashganda esa turlanib, boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

-dagi qo‘shimchasining murakkabligini shu bilan izohlash mumkinki, uning tarkibidagi -da qo‘shimchasi yozdagi, uydagi kabi so‘zlarda alohida morfema – kelishik shakli sifatida boshqa so‘z bilan sintaktik munosabatga kirishish uchun xizmat qilmaydi. -da qo‘shimchasi o‘rin yoki payt ma’nosini ifodalashi hammaga ma’lum.Ammo yozdagi, uydagi singari yasama sifatlarda o‘rin yoki payt ma’nosi asosning o‘zidan anglashiladi. Qolaversa, yozgi va yozdagi sifatlari umumiylik-aniqlik ma’nolari bilan farqlanadi: yozgi ta’til – umuman har yili yozda beriladigan ta’til, yozdagi ta’til – aniq bir yozda berilgan ta’til.

-dagi affiksining sifat yasovchiligi ma’lum bo‘lgach, bu qo‘shimcha bilan yasalgan so‘zlarning imlosiga doir yana bir muammo yuzaga keladi. Ma’lumki, -dagi qo‘shimchasi bilan atoqli otlardan ham so‘z yasash mumkin: Toshkentdagi, Namangandagi, Abdurayimdagi va hokazo.Bunday so‘zlar, jumlaning boshida kelmasa, amaldagi imlo qoidalariga muvofiq kichik harflar bilan yozilishi lozim. Chunki atoqli otdan yasalgan sifatlarning bosh harf bilan yozilishi haqida hech qanday maxsus qoida yo‘q. Binobarin, toshkentlik, namanganlik, temuriy, boburiy kabi yasalmalarga qiyosan kichik harflarda yozish o‘rinli bo‘ladi.Yoki o‘zbek tilining asosiy imlo qoidalariga atoqli otlardan yasalgan sifatlar bosh harflar bilan yozilishi haqida maxsus band qo‘shilishi zarur deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. – Toshkent: Fan, 2010.

2. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili, birinchi kitob. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010-yil.

3. Mengliyev B. va b. Ona tili, qomus. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.



Davlatjon TOSHTEMIROV,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
filologiya fakulteti 2-kurs magistranti
@davlatjonkomilovichoffical

“NAFOHOT UL-UNS“ VA “NASOYIM UL MUHABBAT MIN SHAMOYIM UL-FUTUVVATDA” AN’ANA VA NOVATORLIK

Annotatsiya: bu maqolada Hazrat Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyning ikki shoh asarlari “Nafohot ul-uns” hamda “Nasoyim ul-muhabbat” asarlaridagi an’analar haqida ma’lumotlar berilgan. Maqolada Hazrat Abdurahmon Jomiyning ijodiy robitasi va ustoz-shogird an’analari yaqqol aks etadi.

Kalit so‘zlar: *Jomiy, novatorlik, robita, muqoyasa.*

Аннотация: в данной статье представлена информация о традициях в произведениях хазрата Алишера Наваи и Абдуррахмана Джами «Нафахот ул-унс» и «Насаим уль-Мухаббат». В статье ярко отражены творческие связи Хазрата Абдуррахмана Джами и традиций ученика его мастера.

Ключевые слова: *глобальность, инновации, взаимосвязь, сравнение*

Annotation: this article provides information about the traditions in the works of Hazrat Alisher Nawai and Abdurrahman Jami, «Nafahot ul-uns» and «Nasayim ul-Muhabbat». The article clearly reflects the creative relationship of Hazrat Abdurrahman Jami and the traditions of his master’s disciple

Key words: *public, innovation, communication, comparison.*

Abdurahmon Jomiyning “Nafohot ul-uns” asarining to‘liq nomi “Nafohot ul-uns min hazarot al-quds” bo‘lib, Hazrat Abdurahmon Jomiy asarni 881-883- hijriy, 1476-1478-milodiy yillarda yozgan. Abdurahmon Jomiy bu asarni o‘z zamondosh shogirdi Alisher Navoiyning iltimosiga ko‘ra yaratgan. “Амир Низомиддин Алишер аз ин факир мисли он сурате, ки бар дил гузашта буд ва бар хотир мутамаккин гашта, истидъо кард, доияи кадим сурати тачдид ёфт ва дардараи собик химмати самти таквият ва таъкид азируфт”. Alisher Navoiy Jomiyning qalbiga bu fikrni soldi va Hazrat Abdurahmon Jomiy asarni Abdulloh Ansoriyning “Tabaqot us-sufiya” asariga javoban yozganligi barchamizga ma’lum. Ammo bu asar Abdulloh Ansoriyning mustaqil ijodiy ishi emas, balki u ham qadimiy rivoyatlar va hatto xalq og‘zaki ijodiga asosan bu asarni yaratgan.Bu asar tasavvufning irfoniy tushunchalarini o‘rgatish va uni qisman tahlil qilish uchun yaratilgan asar bo‘lib, unda tasavvufiy qoidalar, abdollar bilan bog‘liq rivoyatlar va boshqa masalalar tahlil etilgan.

Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” nomli asarining to‘liq nomlanishi “Nasoyim ul-muhabbat” min shamoyim ul futuvvat” bo‘lib, 1495-1496-yillar davomida yaratilgan. Ma’nosi (mardlik irfonini taratuvchi muhabbat shamollari) demakdir. “Nasoyim ul-muhabbat shunchaki tarjima asar emas. Unda “Nafohot ul-uns”da mavjud bo‘lmagan bir qancha shayxlar bundan tashqari kirish va xulosa qismlari qo‘shilganligi asarga yangicha ruh bag‘ishlaydi. Asarning kirish qismida Alisher Navoiyning o‘zi asar tasavvuf ahlini ya’ni abdollarni arab va fors tillarini bilmaydigan kishilarga tanitish ular haqidagi rivoyatlarni tushuntirish maqsadida yozilganligini ta’kidlaydi. Asar faqatgina arab va fors shayxlardan iborat bo‘libgina qolmay o‘z zamonasining buyuk insonlaridan bo‘lmish Bobo Xushkeldi, Ali Mast Nisoiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mavlono Humomiddin Kalobodiy, Shayx Homid Kirmoniy va boshqa avliyolari haqidagi hikoyat va rivoyatlarni kiritib shayxlarning sonini 618 tadan 770 taga oshiradi. Masalan, Sharafiddin Ali Yazdiy haqidagi hikoyatda Yazdiyni Yazd shahrining Taft nomli shahridan ekanligini keltirib, tasavvufda Xoja Shoyinuddinning shogirdi ekanliklarini ochiqlaydi. Asarning yana bir yutug‘i shundaki, Abdurahmon Jomiyning “Nafohot ul-uns”ida keltirilgan bir qancha hikoyalarni alohida tartiblaydi va asosiy qismlarinigina kiritadi. Masalan: Shayx Kamoli Xo‘jandiy haqidagi hikoyatlar bo‘limida Navoiy faqat asosiy bo‘limlarni kiritganini ko‘ramiz. “Nafohot ul-uns”da Вай бисёр бузург будааст. Ва иштиголи вай ба шеъру такаллуф дар он ситру талбисро буда бошад. Балки мешояд барои он буда бошад, ки зохир маглубн ботин нашавад ва аз гояти сурати убудият бознамонад, чунон ки худ мегуяд[1] ma’nosi (u juda kuchli edi. U juda adabiyotga qiziqardi, balki bu faqat uning uchun edi…) “Nasoyim ul muhabbat”-da esa Kamol Xo‘jandiyning Shosh (Toshkent)ga Xoja Ubaydulloh Ahror Valiyning uylarida bo‘lganligi haqidagi voqea bilan boshlanadi. Yuqoridagi ta’riflar esa bobga alohida ilova qilingan. Abdurah-

1 Abdurahmon Jomiy. Nafohot ul-uns. –Dushanbe: Adib, 1990. 127-b

mon Jomiyning asarida Kamol Xo‘jandiy bilan bog‘liq hikoyatida maxsus ikki misradan iborat she’r ham ilova qilingan bo‘lib Navoiyda bu she’r mavjud emas. Shunchaki uning tarjima shakli keltirilgan.

Ин такаллуфхои ман дар шеъри ман,
Куллимийнй ё Хумайрои ман аст.[1]

(Ma’nosi: bu mening she’rlarim haqidagi fikrim: bu ikki qalamning ovozi va tasviridir.)

Jomiyning”Nafohot ul-uns”ida Kamol Xo‘jandiy bilan bog‘liq hikoyat oxirida Shayxning vafot sanasi ham keltiriladi va uning qabri Tabriz shahrida ekanligi keltiriladi. Вафоти вай дар санаи салоса ва самонимиа (803/1401) буда ва кабри вай дар Табрез аст. Kamol Xo‘jandiy bilan bog‘liq hikoyat oxirida Shayxning Kaba ziyorati haqidagi o‘z ijodidan olingan ikki misra bilan xotima yasaydi.

Камол аз Каъба рафтй бар дари ёр,
Хазорат офарнн, мардона рафтй!

Navoiyning asarida voqealar aniq tartiblanadi va maxsus syujet ketma-ketligiga qo‘yilgan kichik izohlar orqali uning syujetdan-syujetga o‘tish qismlarini anglab olish qiyin emas. Asarning ba’zi qirralari borki, “Nafohot ul-uns”da keltirilgan dialog shaklidagi suhbatlar yaxlitlangan va suhbat asosida xulosalangan. Masalan, Xushshom Ibni Abbod haqidagi bo‘limda Abdurahmon Jomiy keltirgan suhbat berilmagan. Бир кун уйқулаб, уйғонғач кўрдиким, қўйи биров зироатиға кирибдур. Ани ул зироат иясига берди ва андин беҳиллиқ тилади. [2] (bir kuni uxlab uyg‘ongach ko‘rdiki,qo‘yi birovning ekinzoriga kirib ekinlarini yebdi. Qo‘yni ziroatning egasiga olib beribdi va undan uzr tilabdi.) Рузе Хушшом дар хоб рафта буд. Чун бедор шуд, дид, ки дар зироъати шахсе даромадааст ва мечарад.

Вайро пеши сохиби зироъат бурд ва гуфт:

— Вайро бистон, ки зироъати ту хурдааст.

Сохиби зироъат гуфт:

— Ман туро бихил кардам.

Гуфт:

— Маро ба он хочат нест.

Харчанд чахд кард, кабул иакард, бигзошт ва бирафт.[3]

Bir kuni Xushshom uyquga ketgan edi.So‘ng uyg‘ondi.Ko‘rdiki, qo‘yi birovning ekinzoriga kiribdi. Qo‘yni ekinzor sohibining oldiga olib bordi.

— Uni ol u sening ekinlaringni yedi.

Ekinzor sohibi dedi:

—Men buni qilolmayman.

Dedi:

— Menga uning hojati yo‘q.

Harchand urindi qabul qilmadi, ketdi.

Demak, asardagi qisqartirishlar dialogik matnlarni kalimalashtirish ham asarning muxtasarligini keltirib chiqaradi. Ammo asarda ba’zi voqealar ham keltirilmagan, masalan, yuqoridagi bo‘limda Шайх Абуабдуллохи Хафиф гуяд, ки рузе бо Хушшом дар даъвие будам. Сохиби даъват як чом халво оварду ба пеши Шайх ниход, ки Шайх бихурад. Гуфтам, ки насиби мо хам буда. **Гуфт:**

— Маро изн накард, ки шуморо бидидам.

“Nasoyim ul-muhabbat”da, asosan, dialogik matnlar tushirib qoldirilgan.Dialogik birliklar o‘rniga uning umumiy mazmuniga muvofiq yakka shakldagi so‘zlar keltirilgan.She’riy parchalarning go‘zal tarjimalari keltirilgan. She’riy tajimalar emas, balki nasriy tabdillar mavjud. Masalan: “Nafohot ul-uns”da keltirilgan Hasan Dehlaviy bilan bog‘liq bo‘limda ikki ruboiy keltirilgan.

Дорам дилаке рамин, биёмурзу мапурс,
Сад вок,еа дар камни, биёмурзу мапурс.
Ш армаида шудам, агар бипурсй амалам,
Эй акрами акрамин, биёмурзу мапурс.[4]

“Nasoyim ul-muhabbat”da bu ruboiyning mazmuni ifodalangan: **[Ғамгин дилгинам бор, кечиргину қилмишимдан сўрама, панада юз хил воқеалар бор, кечиргину сўрама!** Агар амалимдан сўрасанг, шарманда бўламан, эй акрамул акрамин, кечиргину сўрама!][5] Ammo biz asos qilib olgan Alisher Navoiyning “Fan” nashriyotida chiqarilgan S.G‘aniyeva va M.Mirzaahmedov tomonidan nashrga tayyorlangan kitobda “Nafohot ul-uns” da keltirilgan ikkinchi bayt keltirilmagan.

Як харфи ту чил сабохи оламро нур,
Як харфи ту хашт чнлдро мояи хур
Харфи снмин чихил валиро дастур,
З-он чор чахор рукни олам маъмур.

Sening bir so‘zing qirq olamga saboh nurini berdi, sening bir so‘zing sakkiz jildning erkin qalamidir. Kumushdek so‘zlaring qanday valelardan ortiq va unda to‘rt olam rukni ma’murdir.Endi esa insonda savol tug‘ilishi mumkin.”Nima uchun buyuk shoir — Navoiy she’riy parchalarni she’riy shaklda emas balki nasriy tabdil asosida keltiradi?” bu savolga asarning o‘zidan javob topamiz. Navoiy asarning muqaddima bobida shunday yozadi: Доим ошуфта хотирга келур эрди ва паришон хаёлға эврулур эрдиким, ул китоб алфози форсийдур, арабийға пайваста ва иборати ишорат аҳли тилига вобаста ва ул тиллар вуқуфидин баҳраварлар ва ул иборату ишоратдин бехабарлар ул алф Оздин ўз қобилиятлари хурдида ва иштиғоллари муқобаласида нафълар топарлар ва файз элтурлар. Аммо турк улусидин баъзики, кўнгул сидқу сафосиға баҳраманддурлар,

1 Abdurahmon Jomiy. Nafohot ul-uns. –Dushanbe: Adib, 1990. 127-b

2 Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. –Toshkent:Fan,2001.167-b

3 Abdurahmon Jomiy. Nafohot ul-uns.–Dushanbe: Adib, 1990. 165-b

4 Abdurahmon Jomiy. Nafohot ul-uns. –Dushanbe: Adib, 1990. 125-b

5 Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. –Toshkent:Fan,2001.469-b

бу кимиё асар сўзлар таъсирига Тенгри иноятидин аржуманд, ул алфозға вуқуф қиллатидин ул файзлардин маҳрум ва бу ҳақойиқнинг дақойиқи уларга номаълум. Хотирға кечмишким, агар саъй қилсам, бу китобни турк тилига таржима қила олғаймуман ва ул дақойиқу мушкилотни равшанроқ алфоз ва очуқроқ адо била ўткара олғанмуман?–деб мутааммил эрдим.[1]

Navoiy bu kabi kitoblarni forsiy yoki arabiyni biluvchi qatlam uni yaxshi o‘rganganini va bu kimyodan(oltindan ham qimmatli asar mazmunini bermoqda) bahramand bo‘la olmasligini ta’kidlaydi. Asar oddiy qatlam uchun tuzilganini inobatga oladigan bo‘lsak, she’riy shakllarning qisqa hikoyalar shaklida kelishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar.–Toshkent:Fan, 2001.7-b.
2. Abdurahmon Jomiy. Nafohot ul-uns. –Dushanbe: Adib, 1990.125-b.
3. А. Самадов. Назарияси адабиётшуносий. қисми I.–Тошкент: 2010.7- б.(tojik tilida)
4. Тӯйчӣ Миров Мавлон Каримов. Хрестоматияи адабиёти тоҷик синфи 9. –Душанбе: маориф, 1985.
5. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror.–Toshkent: Adabiyot va san’at, 1989.469-bet.
6. Камол Хӯҷандӣ. Девон. –Душанбе: Ирфон, 1985. 431- б.

1 Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar.—Toshkent:Fan,2001.7-b



Gulasal TURG‘UNBOYEVA,
Farg‘ona davlat universiteti
Adabiyotshunoslik yo‘nalishi
2-kurs magistranti

NAZAR ESHONQULNING “URUSH ODAMLARI”QISSASIDA QAHRAMONLAR PSIXOLOGIYASINING TASVIRLANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy adabiyotimizning ilg‘or adiblaridan biri Nazar Eshonqulning “Urush odamlari” qissasidagi qahramonlar ruhiyatidagi o‘zgarishlar va ularning yoritilishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *badiiy psixologizm, dinamik prinsip, psixologik tahlil, qahramon, personaj, modern adabiyot.*

Annotation: this article analyzes the changes in the psyche of the characters and their portrayal in the story "Urush odamlari" by Nazar Eshonkul, one of the leading writers of our modern literature.

Key words: *artistic psychologism, dynamic principle, psychological analysis, hero, character, modern literature*

Аннотация: в данной статье анализируются изменения в психике героев рассказа «Urush odamlari» Назара Эшанкула, одного из ведущих писателей нашей современной литературы, и их интерпретация.

Ключевые слова: *художественная психология, динамический принцип, психологический анализ, герой, персонаж, современная литература.*

Bugungi o‘zbek adabiyotiga nazar tashlar ekanmiz, sohadagi qator o‘zgarishlarga, yangilanishlarga guvoh bo‘lamiz.Umuman, adabiyot tarixidan ma’lumki, u doimo insoniyat bilan birgalikda rivojlanib boradi. Xuddi shunday hozirgi zamonaviy nasrimiz ham mavzu, shakl, ifoda usuli kabi jihatlardan rang-barangdir. Bugungi kunda ijodkorlarimiz asosan shaxs ruhiyatiga, uning ichki kechinmalariga alohida e’tibor qaratishmoqda. Zamonaviy nasrimizda qalam tebratayotgan soha vakillaridan biri Nazar Eshonqul ijodi ham yuqoridagi fikrimizning yorqin dalilidir. Nazar Eshonqul ijodida modern adabiyotga xos xususiyatlar yaqqol sezilib turadi.Uning ijodidagi o‘ziga xos jihatlardan eng asosiysi bu voqealarning “men” tilidan hikoya qilinishidir.U yerda roviy nutqi yo‘q.Shu sababli, o‘quvchi qahramon holatini to‘g‘ridan-to‘g‘i uning o‘z tilidan anglab oladi.

Hozirgi o‘zbek adabiyotida badiiy psixologizm masalasi alohida tahlil qilinmoqda.Aynan Nazar Eshonqul ijodida bu yo‘nalishda adabiyotimiz uchun yangiliklar ko‘p. Umuman, badiiy psixologizm bu asarda muallif tomonidan qahramon ichki olamiga kirib borish hamda obraz ruhiy olamining, qalb kechinmalarining, his-tuyg‘ularining tasviri hisoblanadi. O‘zbek adabiyotshunoslari tomonidan tuzilgan adabiyotshunoslik terminlar lug‘atida badiiy psixologizm atamasiga: “…badiiy asarda to‘laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so‘zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul

va vositalarning jami” deb ta’rif berilgan.

Adibning bir qissasiga e’tibor qaratsak. Nazar Eshonqulning “Urush odamlari” nomli asarida adib go‘yo jahon adabiyotidagi “yo‘qotilgan avlod” masalasini ko‘taradi. Haqiqatdan ham bu masala Erix Mariya Remarkning “Uch og‘a-ini” romanida yorqin ko‘rsatib berilgan.Lekin Nazar Eshonqul ham asarida yuqoridagi masalaga o‘ziga xos tarzda yondasha olgan. Ushbu qissada urush davridagi front orti hayoti, qiyinchiliklari va urushdan qaytgan odam ruhiyatidagi o‘zgarishlar, undagi tushkunlik, o‘zini bu olamga begona his qilish kabi ruhiy holatlar jonli tasvirlangan.

Asar epigrafining o‘ziyoq uning yakuniga ishora qiladi. “…Men katta bo‘lsam, miltiq sotib olaman”. “Miltiqni nima qilasan?..” “Otamni otaman” .Bu jumlalar go‘yoki Normat polvonning o‘g‘li Xolmat tilidan aytilganday. Menimcha, asar oxirida Normat polvon o‘zini Buxor qoyasidan tashlab, nobud bo‘lmaganda kun kelib o‘g‘li Xolmat otasidan o‘ch olardi. Chunki u otasining onasini qanday otib tashlaganini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rdi. Farzand uchun qancha gunohkor bo‘lmasin dunyoda onasidan boshqa pok va farishta insonning o‘zi yo‘q. Zero, Xolmat shunday deb biladi, uning bola qalbi, ruhiyati bunga ishonadi. Gap shundaki, u onasining “buzuq” ekanligini ko‘cha ayollaridan, o‘rtog‘laridan eshitdi, lekin u buning ma’nosi nima degani, odamlar onasini nimada ayblashyapti bu haqida o‘ylab ko‘rmaydi. Bola bu masalada onasini umuman ayblamaydi, aksincha, otasining onasini kaltaklaganiga tushunmaydi. O‘z o‘rnida otasidan ularni yana tashlab ketganidan o‘ksinadi. Xolmat uchun otasi urushdan qaytib kelganda, unga endi yana otasi, onasi, singlisi va o‘zi bir oila bo‘lib yashash baxti nasib qilgan edi. Undan bunday baxtni Biydi momo tortib oldi. Asarda yozuvchi tomonidan bola ruhiyati shunday o‘ziga xos va haqqoniy tarzda tasvirlangan.

Urushdan bir oyog‘idan ayrilib, nogiron bo‘lib qaytgan Normat polvon o‘ziga-o‘ziga “Endi odam o‘ldirmayman”deb va’da beradi. Chunki u urushning bor vajohatini ko‘rgan, his qilgan u yerdagi holat unda kuchli depressiya uyg‘otgan. Aslini olganda, uning jismonan olgan jarohati uning ruhidagi jarohati oldida hech gap emas edi. Polvon va barvasta yigit bo‘lib urushga ketgan Normat u yerdan nimjon jussa va keksaygan bashara bilan qaytadi. Eng yomoni uning ruhiyatidagi jarohat o‘ta chuqur va og‘riqlidir. Afsuski, qaytgach ham bu depressiya davom etdi. Normat endi o‘zini muhitga begona odamdek his qiladigan bo‘lib qoldi. Ammo tez orada Normat polvonda yana hayotga, yashashga muhabbat uyg‘ona boshladi.Uni hayotga qaytargan narsa bu ona tabiat: Buxor zovlari, qot ustidagi dara, tog‘dagi sokinlik.“Normat yuragidagi tuyg‘ularini boshqara olmay, he-e-ey deb baqirdi”. Demak, Normatda hali hayotni, tabiatni sevish, undan zavq olish kabi baxtiyor odamlarda bo‘ladigan hislar to‘laligicha yo‘qolib ulgurmagan. Shunday qilib polvonga yana yigitlik zavqi, shijoati qaytdi. Asarda uning “butun urush davomida o‘ylagan, orzu qilgan tinch, osuda hayotga qaytganini” anglashi quyidagicha tasvirlanadi. “Endi bu tinchligimni hech narsaga almashmayman, xotinimni hech o‘ksitmayman, odamlarning ko‘nglini olaman, mana shu tog‘lar hurmati… endi xotinimni ham, meni intizorlik bilan kutib olgan odamlarni ham boshimda ko‘tarib yuraman.Bir umr ularning izzatini qilaman, mening uchun endi urush, qon, o‘lim degan narsalar tugadi”.

Bu o‘rinda adib tomonidan qahramon nutqi orqali uning psixologiyasi to‘la ochib berilgan, Ya’ni Normat tinchlikni sevadi, oilasini xotini va bolalarini jonidan ortiq ko‘radi, ular uchun jonini ayamaydi.Normat haqiqiy oilaparvar yigit.U tabiatni muqaddas deb biladi bejizga ahdiga tog‘larni guvoh qilayotgani yo‘q. Normat uchun ona tabiat, ona zamin qadrli va mo‘tabardir. Va, albatta, uning urushga, qon to‘kilishiga nafrati cheksizdir. Mana badiiy psixologizmning asar tarkibidagi o‘rni. Birgina nutq o‘quvchiga qahramonning butun boshli ruhiyatini ochib beryapti.

Normat urushdan shu darajada bezib ketganki, uning nomini eshitishni ham xohlamaydi. Shu sababli birovnikiga mehmonga ham bormaydi. Sababi uning o‘ylashicha, u yerda unga yana urush haqida savollar beriladi. Bunga esa Normatning toqati yo‘q. Yana bir o‘rinda Normatni yana qo‘liga qurol olishga majbur qilishadi.Lekin u shuncha tazyiq ostida ham miltiqni tashlashga o‘zida kuch topa oladi. “Bo‘ldi shunchasi, agar qirq yil qiron kelsa ham, odam otmayman. O‘zlari otaversin”. Va bundan keyin Normatning o‘zidan ketib hushsiz bo‘lib, yiqilishi bejiz emas. Yozuvchi bu orqali qahramon ruhiyati urushdan nechog‘lik charchaganini tasvirlab beradi.

Shunday qilib, yana hayotga qaytgan Normatni yana bir hayot zarbasi kutib turgan edi. Bu ham bo‘lsa uning sevimli xotini, bundan keyingi hayotini ularning tinch-osuda hayoti uchun baxshida qilishni maqsad qilgan ayoli, Anziratning Normat urushdaligida unga xiyonat qilganligi ma’lum bo‘ladi. Albatta, bu jirkanch xabar oriyati baland bo‘lgan, nomusli Normatning hayotini do‘zaxga aylantirdi. Uning ushbu vaziyatdagi holatiga e’tibor bersak: “Uning ko‘z kosalari kattalashib, yuzi qoraya boshlagan edi. Ko‘zlari qonga to‘lgandi”. Bundan keyingi barcha Normatning nutqlarida badiiy psixologizmning dinamik prinsipi orqali, uning holati ochiladi. Ya’ni dinamik prinsipda personaj ruhiyati

uning muayyan hayotiy situatsiyalarda o‘zini tutishi va xatti-harakatlari va gap-so‘zlari orqali ochiladi, mohiyatan bu dramatik asar personajlari ruhiyatini ochish usuliga o‘xshash, shu bois dinamik prinsip ba’zan psixologik tahlilning dramaturgik usuli deb ham ta’riflanadi.

Shunday qilib, qahramonimiz hayotida yana sinovli kunlar boshlandi. U yana hech kimga aylandi. Oilasidan, odamlardan, jamiyatdan ajraldi. Urushdan qaytgan bo‘lsa-da, uning daydi o‘qlari Normatni jarohatlashda davom etmoqda. Eng achinarlisi, bu jarohatlar uning jismida emas, ruhiyatida iz qoldirib, uning hayotini barbod qilmoqda. Lekin yozuvchi Normat ruhiyatini shunday kuchli tasvirlay olganki, shuncha zarbalardan keyin ham u o‘zida yana oyoqqa turishga kuch topa oldi.Xotinini kechirishni, buzilgan oilasini tiklab, la’nati urushning turmushlariga solgan dog‘larini o‘chirishni xohladi. Afsuski, Normatning bu sof niyati amalga oshmadi. Uyga qaytib borganda u Anziratni Mirzaqul bilan birga ko‘radi va hammasini tushunib yetadi.Endi uni to‘xtatishning iloji yo‘q. Xuddi shu vaziyatda ham u urushdagi bir voqeani eslab qahriga qahr qo‘shiladi. Bu paytdagi Normat holati shunday tasvirlanadi: “Ko‘ziga qon to‘ldi… Butun vujudida qaltiroq turdi. U nafrat va jirkanish aralash to‘rt yildan beri butun vujudini bulg‘ab yotgan manfur so‘zni aytdi.

– Fashist! - dedi yarim xirillab va bu so‘z tig‘ kabi ko‘ksini tilimlab tashladi – Fashist…sizlar fashistsizlar!.. Biroq bilgan so‘zlarining ichidan u bundan ham qabih so‘z topa olmadi. – Fashistlar! – dedi u horg‘in, lekin keskin va xirqiroq tovushda”.

Bu o‘rinda , qahramon psixologiyasidagi portlash yuz berganini ko‘rishimiz mumkin. Urush zarbalaridan qayta-qayta qoqilib oyoqqa turgan, urushda o‘z yurtiga qaytsa, dehqonchilik qilishni, odamlarga faqat mehnat qilishni, shu yo‘l bilan urushni unutish mumkinligini o‘rgatmoqchi bo‘lgan, har bir xonadonga bug‘doy boshoqlarini ilib qo‘yishni niyat qilgan pok qalbli inson ruhiyatidagi urushga nisbatan bor nafratning namoyon bo‘lishi bu. U hammasiga chidadi, u hammasiga ko‘z yummoqchi bo‘ldi. Nima uchun? Urushdan oldingi baxtiyor kunlarga qaytish uchun. Lekin endi uning ham sabr-kosasi to‘ldi… E’tibor bersak birgina jumla orqali urushga nisbatan Normatning bor nafrati tasvirlangan “…Biroq bilgan so‘zlarining ichidan u bundan ham qabih so‘z topa olmadi”. Uning nazdida, unga xiyonat qilib, hayotini zaharga aylantirgan insonlarning ham fashistdan farqi yo‘q. Bularning bari la’nati urushning kirdikorlaridir. Bu so‘zlarni “horg‘in” tovushda aytgani ham bejiz emas, u fashist degan, urush degan so‘zdan charchadi, uning ruhiyati ortiq bu yozuzliklarga chiday olmaydi.

Bizningcha, asar so‘nggida Normatning Buxor qoyalaridan o‘zini tashlab nobud qilishi, shu holatda ham panjalari musht holatda tugilgan bo‘lishi ishonarli yakundir. Chunki shuncha og‘ir yo‘lni bosib o‘tgan bir inson uchun endi yana oyoqqa turishning iloji yo‘q. Oddiy inson psixologiyasi buni ko‘tarmaydi. Shunday bo‘lsa ham “tugilgan musht” Normatning so‘nggi nafasigacha urushga nisbatan qahrini ifodalagan.

Xulosa qilib aytganda, bu asardagi qahramonlar psixologiyasi turlicha va yozuvchi ularni ishonarli hamda o‘ziga xos tarzda tasvirlay olgan. Asarda odamlar juvonmarg bo‘lish uchun urushga borishi shartmasligi, urush ko‘lankasi millionlab kilometrgacha yetib bora olishi va o‘z qurbonlarini topishi ko‘rsatib berilgan. Urush tugagan bo‘lsada, uning asoratlari insonlarning hayotini zaharlashda davom etyapti. Ularning ruhiyatidagi tushkunlik va jarohatlarni davolash uchun hali ko‘p yillar kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Назар Ешонқул. Сайланма. –Тошкент: Академнашр, 2022.
2. Д.Қуронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Академнашр, 2010.
3. М. Абдураҳмонова, “Руҳий дунё тасвири” –Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 1997.
4. Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. Дарслик. –Т.: “Шарқ”, 2002.

Nigora FOZILOVA,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi magistranti

TADBIRKORLIK HUJJATLARI TERMINLARI BILAN BOG‘LIQ NAZARIY QARASHLAR

Annotatsiya: mazkur maqola tadbirkorlik hujjatlari terminlari bilan bog‘liq nazariy qarashlari haqida va uning ingliz va o‘zbek tillaridagi bevosita chog‘ishtirma tadqiqi xususida so‘z boradi.
Kalit so‘zlar: *savdo-sotiq termini, terminologiya, tadbirkorlik, tilshunoslik, leksika, diaxron, sinxron*
Аннотация: в данной статье рассказывается о его теоретических взглядах на термины деловых документов и его непосредственном перекрестном изучении английского и узбекского языков.
Ключевые слова: *торговый термин, терминология, предпринимательство, лингвистика, лексика, диахроника, синхроника.*
Annotation: this article is about his theoretical views on terms of business documents and his direct cross-sectional study in English and Uzbek languages.
Key words: *trade term, terminology, entrepreneurship, linguistics, lexicon, diachronic, synchronic.*

Kirish. Hozirgi texnika asrida ilm-fan, texnologiyalar, jamiyat kun sayin, soat sayin jadal rivojlanib bormoqda.Globallashuv jamiyatning barcha sohalari qatori tilshunoslikka ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Tilshunoslik asrlar davomida turli obyektiv va subyektiv sabablar orqali o‘zgarishlar ta’siri ostida rivojlanmoqda, takomillashmoqda va boyib bormoqda. Ayniqsa tilshunoslikning muhim ajralmas bo‘g‘ini hisoblangan terminologiya ham ijtimoiy-siyosiy faol hayot, ilmiy kashfiyotlar va tadqiqotlar tufayli turli yangi-yangi terminlar bilan boyimoqda. Terminologiya umumiy xususiyatiga ko‘ra leksikaning bir qatlami bo‘lib, fan, texnika va boshqa sohalarga oid maxsus so‘zlar ya’ni terminlar majmuidir.Terminlarning boshqa umumiste’moldagi so‘zlardan farqi shundaki, ularning qo‘llanishi ma’lum darajada nazorat ostida bo‘ladi. Tilga yangi terminlarning kirib kelishi natijasida tilning zaxirasi muntazam yangi so‘zlar bilan boyib bormoqda Shuning uchun ham tilshunoslikda terminologiya eskirmaydigan, muntazam izlanish talab etadigan bo‘limlardan biri hisoblanadi. Turli manbalarda, darsliklarda, o‘quv qo‘llanmalarda, dissertatsiya ishlarida jahon va o‘zbek tilshunoslarining termin va terminologiya haqida fikrlari, qarashlarini kuzatishimiz mumkin.Ularning deyarli barchasida terminlar maxsus so‘zlar sifatida ta’riflangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2019-yil 8-yanvardagi PF-5614-son Farmoniga ko‘ra iqtisodiyotni rivojlantirish muhim masala etib belgilangan.Bu esa yangicha yondashuvlarni talab etadi va o‘z navbatida, bunday yangiliklar yangi terminlarning paydo bo‘lishi, tilimizga kirib kelishi bilan ham xarakterlanadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida iqtisodiyotga oid terminlarning berilishida har xillik mavjud bo‘lib, bugungi kun lug‘atchiligi jiddiy tadqiqotlar olib borishni va zamon talablariga moslashishni vazifa qilib qo‘yadi.Izohli lug‘atda iqtisodiyotga oid so‘zlar turli shaklda berilgan. Masalan, Iqtisodiy terminlar “AYIRBOSHLASH” iqtisodi. Kishilarning mehnat faoliyati yoki mahsulotlarini o‘zaro almashtirishlari” kabi berilgan, iqtisod pometasi bilan berilgan.Biroq “AUKSION [lot. auctio, auctionis – o‘sish, ko‘payish, ommaviy savdo]Ommaviy kimoshdi savdosi.” kabi iqtisodiy terminlar, iqtisod pometasiz berilgan. Masalan, “KREDIT [лот. credit – u ishonadi] buxg. Kirim-chiqim daftarlarining chiqimlar unadigan pullar, yoziladigan o‘ng tomoni: zid. debet.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Termin so‘zi lotincha terminus – “chegara”demakdir.Termin deganda fan, texnika yoki san’at sohasidagi muayyan tushunchani anglatuvchi so‘z yoki so‘z birikmasi tushuniladi.”- deb ta’rif beradi X.Qodirova . Demak, terminlar ma’lum bir soha doirasida bo‘ladi va shu soha vakillari tomonidan keng foydalaniladi. Boshqa soha egalari tushunishlari uchun esa izohli lug‘atlar kerak bo‘ladi.

Tilshunos G.O.Vinokur terminga munosabatda bo‘lar ekan quyidagicha yozadi: “Terminlar “paydo bo‘lmaydi”, balki ularga ehtiyoj sezilganda “o‘ylab topiladi”, “ijod qilinadi” Darhaqiqat, inson paydo bo‘libdiki, qornini to‘ydirishi, o‘z xavfsizligini ta’minlashi, umuman, hayot kechirishi uchun tinimsiz yangi ehtiyojlar paydo bo‘lgan.Buning natijasida esa yangi narsalar va shu bilan birga yangi terminlar ham paydo bo‘lgan.Hayvonlarni qo‘lga o‘rgatish, ulardan turli ham ashyo manbai sifatida foydalanish mezolit davrda boshlangan. Sovuq havo insonlarda issiq kiyimlarga ehtiyojni keltirib chiqardi va hayvonlardan ilk tabiiy tolalar olishga bo‘lgan ehtiyoj paydo bo‘ldi. Shu tariqa ilk iplar, ularga ishlov beruvchi ilk soda uskunalar va shu bilan birga ularning yangi nomlari ya’ni terminlari ham paydo bo‘ldi.Hozirgi kunda ham bu jarayon davom etishdan to‘xtagani yo‘q. Tolalarning yangi navlari o‘ylab topilmoqda, yangi qayta ishlash

texnologiyalari kashf etilmoqda. Bu o‘zgarishlar nafaqat qishloq xo‘jaligi yoki tekstil sohasiga, balki tilshunoslikning terminologiya, leksikologiya kabi bir qator tarmoqlariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda, ularning boyib borishiga xizmat qilmoqda.

Xyuellning qayd etishiga ko‘ra, “Terminologiya muayyan fanga oid terminlar yoki texnika sohasida qo‘llanadigan so‘zlar yig‘indisidir.Biz terminlar ma’nosini qayd etish orqali ular ifodalaydigan tushunchalarni ham qayd etamiz” . Xyuellning fikridan shuni tushunishimiz mumkinki, jamiyatdagi mavjud barcha sohalarning o‘ziga xos so‘zlari ya’ni o‘zining terminlari mavjud.Masalan, biz tadqiqot olib borayotgan tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi sohasining ham o‘zigagina xos bo‘lgan terminlari mavjud: chigit, tola, yigirish, chanoq, to‘qish, tikish, mato va boshqa ko‘plab terminlar.

N.Uluqov o‘zining “Tilshunoslik nazariyasi” o‘quv qo‘llanmasida termin so‘ziga quyidagicha ta’rif beradi: “Termin — ilm-fan va kasb-hunar sohalariga oid narsa, voqea-hodisa haqidagi tushunchalarni aniq ifodalaydigan, ma’nosi maxsuslashtirilgan, qo‘llanish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so‘z yoki birikma” . Bundan ko‘rinib turibdiki, har qanday terminda albatta chegara bo‘ladi, bu tushunish yoki nutqda qo‘llash chegarasi.Misol qilib olsak, paxtani dastlabki ishlash texnologiyasiga oid “tashish, quritish, tozalash, jinlash, linterlash” kabi terminlar bu sohadan yiroqda bo‘lgan kishilar uchun tushunarsiz, soha vakillarigagina tushunarli bo‘ladi. R.Doniyorovning yozishicha: “Konkret bir fan ham, umuman texnika, binobarin, ularning terminlari ham muayyan bir xalqning ijod mahsuli emas.Ular jahon xalqlarining jamisi to‘plagan, bilgan o‘rgangan obyektiv borliqning majmuidir, yig‘indisidir” . Tabiiy tolalar va ularga ishlov berish sohasi ham ilk hayvonlar junini olish va ulardan oddiy issiq kiyimlar tikishdan boshlab bugungi ishlab chiqarish texnologiyalariga qadar rivojlanishi butun dunyo xalqlarining mehnati natijasidir. O‘z navbatida ushbu sohaga doir terminlarning paydo bo‘lishi va boyib borishi ushbu natija isbotidir. U.Nosirov terminlarni qo‘llanishiga, qanday sohaga oidligiga ko‘ra quyidagi turlarga ajratadi: 1. Ilmiy terminlar 2. Kasbiy terminlar

Tahlil va natijalar. Xalqaro aloqalarning faollashuvi, globallashuvning ortishi boshqa sohalardagi singari ingliz tilidan iqtisodiy soha terminlari ham shiddat bilan kirib tilimizga aralashib ketmoqda. Masalan, “cashback” termini turli savdo va xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq holatlarda faol ishlatilayotganiga guvoh bo‘lsak-da, biroq, ushbu so‘zni soha va umumiy lug‘atlarda ham keltirilmaganini ko‘rdik. Ushbu so‘zning ma’nosini bilish yuzasidan olib borilgan kuzatishlarga ko‘ra aksariyat iste’molchilar “chegirma”ma’nosini bilishar ekan, aslida mazmunan chegirmaga yaqin tursada biroq aynan shunday emas.Ya’ni, “cashback” ikkinchi ma’nosiga ko‘ra, kredit kartaga to‘plangan ballar yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri bank hisobiga to‘langan naqd pul shaklida bo‘ladimi, har qanday naqd pulni rag‘batlantirishning yana bir nomidir. “Cashback is a rewards program where customers can earn back a percentage of the money they spend while shopping. What does cashback on a credit card mean? Cashback on a credit card means that you’ll receive a certain percentage of money back when you spend money with your card. What is cashback bonus? Cashback bonus is another name for any cashback incentive program, whether it comes in the form of points collected on a credit card or cashback paid straight into your bank account” tarzida izohlangan bo‘lib yurtimizdagi reklama va e’lon matnlarida, “cashback” holatida aynan yozilmoqda. O‘zbek tilining lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida “C” alohida belgi sifatida mavjud emas, shuningdek ingliz tilida “a” harfi aksariyat hollarda “e” talaffuz qilinganligi sabab ushbu so‘zni o‘zbek tiliga termin sifatida qabul qilishda yozuvda “keshbek” tarzida qabul qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xulosa. Xuddi shuningdek, aksiya, audit, auditor, aksiyador, bankrot, kabi so‘zlar ham iqtisod pometasiz berilgan.O‘TILda biz aniqlagan iqtisodiy terminlar (sohaga oid adabiyotlar vositasida aniqlangan) jami 251 ta bo‘lib, shundan 77 tasi iqtisod pometasi bilan berilgan bo‘lsa balanslamoq, debit, debitor, debitorlik, kredit, passiv kabi iqtisodiy terminlar buxgalteriya pometasi bilan berilgan .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 08.01.2019 йилдаги ПФ-5614-сон
2. X.B.Qodirova. Atama va izoh. Monografiya. –Toshkent, 2019.15 –120-b.
3. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. // Труды МИФЛИ. Том 5. Сборник статей по языковедению. – Москва, 1939.24-с.
4. Whewell W. The philosophy of the inductive sciences founded upon their history. Vo. I-II. –London,55 1967.
5. Doniyorov R. O‘zbek tilining ilmiy-texnikaviy terminlar tarixidan. –Toshkent: Fan, 1973.4-b.
6. Nosirjon Uluqov. Tilshunoslik nazariyasi.O‘quv qo‘llanma. –Toshkent, 2016.119-b.

Zilola TO‘XTASINOVA,
O‘zMU filologiya fakulteti
“Adabiyotshunoslik” (o‘zbek adabiyoti)
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti
e-mail zilolatoxtasinova9@gmail.com

ALISHER NAVOIYNING “XAZOYIN UL-MAONIY”DEVONI TARKIBIDAGI G‘AZALLARIDA ZULQOFIYATAYN VA ZULQAVOFIY SAN’ATLARINING ISTIFODA ETILISHI

Annotatsiya:qofiya-mumtoz she’riyatning muhim unsuri hisoblanadi. Ko‘p asrlardan beri tadqiq etilayotgan ushbu adabiy hodisani muayyan ijodkor she’rlarida o‘rganish xususan, Navoiy ijodini olib qaraydigan bo‘lsak, ulug‘ shoirning asarlarini to‘laroq tushunishga va ijodkor mahoratini his qilishni anglashga ko‘maklashadi. Ushbu maqolada zulqofiyatayn va zulqavofiy san’atlarining g‘azallarda qo‘llanilishi va u haqidagi olimlarning qarashlari hamda Alisher Navoiy ijodidagi o‘rni haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *g‘azal, qofiya, qofiya san’atlari, zulqofiyatayn, zulqavofiy.*

Annotation:rhyme is an important element of classical poetry. The study of this literary phenomenon, studied over many centuries, based on the poems of a certain author, in particular the works of Alisher Navoi, will help to fully understand the work of the great poet and understand the artistic skill of the poet. Based on this, the article expresses an opinion about the role of rhyming arts and musja ghazals in Gharaib us-sigar, the first diwan of Khazain ul-Maoni.

Key words: *ghazal, rhyme, art of rhyming, musadja, poetic meter, verse.*

Аннотация: рифма является важным элементом классической поэзии. Изучение этого литературного явления в произведениях определённых поэтов, особенно если обратиться к творчеству Навои, помогает глубже понять произведения великого поэта и ощутить его мастерство. В данной статье рассматриваются использование приёмов зулькофиятайн и зулькавофий в газелях, мнения учёных об этих приёмах, а также их роль в творчестве Алишера Навои.

Ключевые слова: *газель, рифма, искусство рифмы, зулькофиятайн, зулькавофий.*

Kirish. Jahon adabiyotida qofiyadan foydalanish badiiy mahoratning muhim qirralaridan biri hisoblanadi.Sharq shoirlari azaldan boshlab qofiya vositasida she’riy asarlarning ohangdorligi, serjiloligi, ta’sirchanligini ta’minlashga alohida e’tibor berib kelganlar.Asrlar davomida xilma-xil qofiya san’atlari shakllangan.Bevosita qofiya orqali ro‘yobga chiqadigan san’atlar zulqofiyatayn, zulqavofi’, tarsi’, tajnisli qofiya, musajja, radd ul-qofiya, tashtir, tajziya kabi san’atlaridir.

Asosiy qism. Zulqofiyatayn – bayt misralarida ikkita so‘zni qofiyadosh qilib keltirishga asoslangan san’at.Har qaysi baytdagi qofiyadosh ikki so‘zni misralar oxirida ketma-ket keltirishi yoxud misralarning turli o‘rinlarida keltirilishi mumkin.Kelish o‘rniga qarab 2 turli bo‘ladi. Agar qofiyadosh so‘zlar misralar oxirida ketma-ket kelsa, mutakarrin qofiya, misralarning turli o‘rinlarida kelsa, mahjub qofiya asosida yuzaga kelgan zulqofiyatayn deyiladi. Ba‘zi manbaalarda zulqofiyatayn “tashri’”, “tashrih” deb ham yuritiladi.Zulqofiyatayn tardi aks san’atini ham hosil qiladi. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” da zulqofiyatayn san’atiga quyidagi misolni keltiradi:

“*Ko‘zung ne **balo qaro** bo‘libtur–*
*Kim, jonga **qaro balo** bo‘libtur.*

Zulqofiyatayndur va qofiyalari tardi akskim, javob aytmoq bu faqir qoshida maholatdur ” [1].

Ushbu san’at haqida Shamsuddin Muhammad ibn Qays Roziy qalamiga mansub “Al mo‘jam fi ma’oyiri ash’or il ajam” asarida ham qisqa ma’lumot berib o‘tiladi.

Atoulloh Husayniy “Badoe us-sanoyi’” asarida ikkidan ortiq qofiya qo‘llansa ***zulqavofiy*** bo‘lishini aytadi.Agar ikki qofiya orasida hojib keltirilsa, ushbu she’r ***zulqofiyatayn-i mahjub*** deyiladi.

Ne yo‘ldurki, maqsud eur manzili,
Ne ishdurki, Mahmud erur hosili. (Alisher Navoiy)

Yuqorida keltirilgan ikkala asarda ham zulqofiyatayn san’ati haqida qisqacha ma’lumot berilgan. Zulqofiyataynning misralarda qo‘llanish o‘rinlariga qarab farqlanadigan mutakarrin qofiya va mahjub qofiya kabi turlariga alohida to‘xtalib o‘tilmagan.

Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asarining III qismi *Al-fannus-solis fis-sano ish she’r* qismi qofiya san’atlariga bag‘ishlangan bo‘lib unda jami 96 ta san’at qo‘llangan. Ammo ushbu qismda zulqofiyatayn va zulqavofiy san’atlari haqida ma’lumotlar uchramaydi.

Anvar Hojiahmedovning “Mumtoz badiiyat malohati” kitobida zulqofiyatayn va zulqavofiy san’atalari haqida nazariy fikrlarini bayon etgan. Jumladan, zul-

1 Alisher Navoiy.Majolis un-nafois.WWW.ziyouz.com kutubxonasi.37-b.

qofiyatayn san'atining misralarda kelish o'rniga ko'ra mutakarrin va mahjub qofiyalarga bo'linishi haqida ma'lumot bergan. Zulqavofiy san'atiga ham qisqacha to'xtalib yetuk san'atkor shoirlargina ushbu san'atga murojaat qila olishini aytgan.

V. Rahmonovning "She'r san'atlari" kitobining qofiya san'atlari qismida zulqofiyatayn haqida qisqacha nazariy fikrlarni va turli ijodkorlar asarlaridan namunalar keltiradi.Biroq bu asarda ham zulqofiyatayn turlari haqida hech qanday ma'lumot berilmagan.Ammo yuqoridagi asarlardan farqli ushbu asarda tajnisli zulqofiyatayn haqida fikrlar berib o'tiladi. Jumladan, "ikki qofiyali baytlardagi qofiyalardan biri tajnis bo'lsa, tajnisli zulqofiyatayn deb yuritiladi"[1]. "Farhod va Shirin"dan olingan ushbu baytni misol qilib keltiradi:

*Mashaqqatdin yigitni el **qari der**,*
*Ki, qozilmish ikki–uch yuz **qari yer**.*

Yuqoridagi baytda keltirilgan "qari" so'zi birinchi misrada *keksa* ma'nosida, ikkinchi misrada esa *75sm* ni bildiruvchi o'lchovdir.

Y. Is'hoqovning "So'z san'ati so'zligi" kitobi zulqofiyatayn va zulqavofiy san'atlari haqida mufassal ma'lumot berilgan asardir.Jumladan, **zulradifayn** haqida ham ma'lumot berib o'tiladi. Zulradifayn ikki radifli she'r demakdir.Navoiy she'riyatida zulradifayn kamroq bo'lsada uchrab turadi. Ko'p hollarda zulqofiyatayn matla'da uchraydi, ammo butun she'rning barcha baytlarida ham uchrashi mumkin.Albatta, bu shoirdan katta mahorat talab qiladi. Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devoni tarkibiga kiritilgan 216-g'azaliga diqqat qiladigan bo'lsak:

*Yordin ayrilg'ali **shaydo** ko'ngul **bexob** ko'z,*
*Har zamon zohir qilur **savdo** ko'ngul, **xunob** ko'z.*
Ko'zu ko'nglum bahru barsayr ettilar yor istabon,
*Bu safarda toptilar **yag'mo** ko'ngul, **g'arqob** ko'z.*
Ko'zu ko'nglumdin biri kuyub, birisin buzdi sayl,
*Yo'qsa nevchun bo'ldi **nopaydo** ko'ngil, **noyob** ko'z.*
Deb emish hajrimda mendek ko'zu ko'nglin asrasun,
*Voykim, yo'qtur manga **xoro** ko'ngul, **qassob** ko'z.*
Vah, ne kun bo'lg'ayki, yetkay vaslig'a ko'zu ko'ngul,
*Tortibon faryodu **vovaylo** ko'ngul, **yig'lab** ko'z.*
Ko'rmayin deb ko'rdi ko'z, ko'rgach ko'ngul qildi havo,
*Bo'ldi zor etkan meni **rasvo** ko'ngul, **qallob** ko'z*[2].

1 Rahmonov V. "She'r san'atlari".–T.:Sharq, 2020.420- b.
2 O'zbekiston SSR FA. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. I tom. –Toshkent: 1988.

Yuqoridagi g'azal boshdan oyoq zulradifayn san'atida bitilgan.G'azal tarkibidagi **ko'ngul** so'zi esa zulradifaynga misol bo'la oladi. Musajja g'azallar odatda hazaj bahrida yozilsa, zulqofiyatayn va zulqavofiy san'atlari ko'pincha ramal bahrida ba'zan esa, hazaj bahrida ham uchrab turadi va asosan, musamman vaznida yozilgan g'azallarda ko'ramiz.Yuqoridagi g'azal ham ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. Taqte'si: –V– –/ –V – – / –V– –/–V– (foilotun foilotun foilotun foilun)

Quyida keltiriladigan "Badoyi ul-vasat"ning 317-g'azali bo'lib, g'azal nafaqat Navoiy ijodida balki turkiy adabiyotda ham yagona hisoblangan **hazaji musammani axrabi musabbag'** vaznida yozilgan. Matla'da zulqofiyatayn san'atining zulradifayn turi qo'llangan.Taqte'si: – –V/ V– – –/ – – V/ V– – ~ (maf'uvlu mafoiylun mafuvlu, mafoiylon)

*Bog' ichra sanga sochti **gul** oqu qizil **yafroq**,*
*Shah boshig'a andoqkim **el** oqu qizil **yormoq***[3].

Xulosa. Zulqofiyataynga Shamsuddin Muhammad ibn Qays Roziy qalamiga mansub "Al mo'jam fi ma'oyiri ash'or il ajam" asarida qisqa to'xtab o'tilgan. Mufassal ma'lumot berilmagan.Zulqofiyatayn haqida esa hech qanday ma'lumot uchramaydi.

Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asarida zulqofiyatayn va zulqavofiy san'atlari haqida ma'lumot berilmagan.

Atoulloh Husayniy "Badoe us-sanoyi'" , V. Rahmonovning "She'r san'atlari", Anvar Hojiahmedovning "Mumtoz badiiyat malohati", D.Yusupovaning "Aruz va mumtoz poetikaga kirish"darsligida zulqofiyatayn va zulqavofiy san'atlari haqida nazariy fikrlar berib o'tilgan.

Zulqofiyatayn va zulqavofiy san'atlari "G'aroyib us-sig'ar" va "Navodir ush-shabob" devonlarida musamman vaznida qo'llangan.Musaddas vaznidagi g'azallarda ushbu san'atlar uchramaydi.

"G'aroyib us-sig'ar" devonida jami bo'lib 24 ta 17, 78, 94, 192, 208, 210, 216, 222, 239, 240, 288, 318, 377, 424, 436, 455, 478, 544, 574, 588, 595, 601, 620, 621 g'azallarda zulqofiyatayn, 10 ta 31, 54, 370, 407, 408, 409, 414, 448, 485 g'azallarda zulqavofiy san'ati qo'llangan. "Navodir ush-shabob" devonida jami 8 ta 26, 319, 354, 373, 466, 557, 594, 645 g'azallarda zulqofiyatayn san'ati qo'llangan. Zulqavofiy san'ati qo'llangan g'azallar bu devon tarkibida uchramaydi

3 O'zbekiston SSR FA. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. III tom. – Toshkent. 1988.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami.Uchinchi tom. – Toshkent, 1988.
2. Atoulloh Husayniy. Badoyi' us-sanoyi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,1981.
3. Anvar Hojiahmedov. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. –Toshkent: "Sharq". 1998.
4. Dilnavoz Yusupova. Aruz va mumtoz poetikaga kirish. – Toshkent: "Tamaddun", 2022.

5. Мусулманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поетика X-XVввю – М.:1989.
6. Yoqubjon Is'hoqov.So'z san'ati so'zligi. –Toshkent: "O'zbekiston", 2014.

Shahzoda DILMURODOVA,
Buxoro davlat universiteti
Filologiya fakulteti
2- kurs talabasi



USLUBIY ELEMENTLARNI AVTOMATIK ANIQLASH

Annotatsiya:maqolada badiiy asarlardan tarkib topgan elektron parallel korpuslarning xususiyatlari va ulardagi uslubiy yo'nalishlar tahlil qilinadi. Badiiy matnlarda o'ziga xos badiiy uslublarning namoyon bo'lishi, ularni korpus texnologiyalari orqali tadqiq qilish va parallel korpuslarda turli tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash masalalari o'rganiladi. Maqolada, shuningdek, elektron korpuslardagi badiiy matnlarning leksik, grammatik va stilistik jihatlari ham tahlil qilinadi. Natijada, badiiy asarlardagi uslublar va ularning turli tillardagi tarjimalari orqali uslubiy elementlarni avtomatik aniqlash imkoniyatlari muhokama qilinadi. Ushbu tadqiqot badiiy matnlarning korpus lingvistikasi orqali tahlilining nazariy va amaliy ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: *korpus, elektron korpus, afzalliklari, tadqiqotlar, lingvistika, mashina tarjimasi, parallel korpus.*

Аннотация: в статье анализируются характеристики электронных параллельных корпусов, состоящих из художественных произведений, и их стилистические направления. Рассматриваются особенности проявления уникальных художественных стилей в литературных текстах, их исследование с использованием корпусных технологий, а также выявление сходств и различий между языками в параллельных корпусах. В статье также анализируются лексические, грамматические и стилистические аспекты художественных текстов в электронных корпусах. В результате обсуждаются возможности автоматического определения стилистических элементов в художественных произведениях и их переводах на разные языки. Данное исследование раскрывает теоретическую и практическую значимость анализа художественных текстов с помощью корпусной лингвистики.

Ключевые слова: *корпус, электронный корпус, преимущества, исследования, лингвистика, машинный перевод, параллельный корпус.*

Annotation: the article analyzes the characteristics of electronic parallel corpora consisting of literary works and their stylistic directions. It examines the distinctive features of unique literary styles in texts, their study using corpus technologies, and the identification of similarities and differences between languages within parallel corpora. The article also analyzes the lexical, grammatical, and stylistic aspects of literary texts in electronic corpora. As a result, the possibilities of automatically identifying stylistic elements in literary works and their translations into different languages are discussed. This study reveals the theoretical and practical significance of analyzing literary texts using corpus linguistics.

Key words: *corpus, electronic corpus, advantages, research, linguistics, machine translation, parallel corpus.*

Parallel korpusning qimmati uning hajmi, tillarning miqdori bilan belgilanadi.Korpusdagi elektron matnlar original matnning o'zi yoki uning bir qismi bo'lishi mumkin. Parallel korpus – original matn va uning tarjimasi yig'ilgan korpus.Parallel korpuslardan kutilayotgan natija – matnni to'liq avtomatizatsiya qilish, bu orqali nafaqat tarjimonlikda,balki mashina tarjimasi uchun ham qo'llashdir.

Elektron korpusning afzalliklaridan biri – tilda so'zning o'zgarishi, istorizm, neologizm, ma'no kengayishi va torayishi, yangi frazeologizmlarning paydo bo'lishini kuzatish mumkin. Davrlararo tilning boyib borish jarayonini ko'rsatib turuvchi elektron manba bo'lgan til korpuslariga doimiy ravishda yangiliklarning kiritilishi, joylanib turishi inson mehnatini yengillatadi.Kitob shaklidagi lug'atlarga yil o'tgani sari tilda vujudga keladigan o'zgarishlarni kiritish ancha kuch va mablag' sarf etishni talab qiladi.Korpus esa bu muammoni qisqa muddatda, hech qanday xarajatsiz bajarilish imkoniyatini beradi.Elektron korpusning parallel korpus avtonom qismi juda ko'plab kerakli axborotlarni o'zida jamlay olish xususiyati bilan ahamiyatga molikdir. Mashina tarjimasi yo'nalishida yonma - yon taqqoslash uchun maxsus formatlangan ko'p tilli korpuslar mavjud bo'lib, ular tizimlangan parallel korpus deb ataladi.Parallel matnlar korpusining dastlabki namunasi sifatida 1799-yilda Rozetta shahri yaqinidagi Nil deltasida topilgan mil.av 196-yilga borib taqaladigan, Misr ibodatxonalari tomonidan ikki tilda (yunon va misr) va uchta yozuv tizimida (Misr

iyerogliflari va demotik tilda yozilgan) shox Ptolomey Vga berilgan sharaflar haqida so‘z yuritilgan tosh hisoblanadi. Parallel korpusning tuzilishi, tarkibi va imkoniyati haqidagi ma’lumotlarni D.O.Dobrovolskiy, Yu.Tao, V.Zaxarov, A.A.Kokoreva, E.P.Sosninalarning ishlarida kuzatamiz. [3.1]

Parallel korpus, ya’ni asl nusxalar to‘plami va ularning tarjimalari tarjimashunoslik, mashina tarjimasi, lingvistika, hisoblash tilshunosligi yoki oddiygina inson tarjimoni manfaati uchun turli yo‘llar bilan ishlatilishi mumkin. Hisoblash tilshunosligida tarjima korpuslari mashina tarjimasi uchun, shuningdek, atamalarni ajratib olish, so‘z ma’nosini aniqlash va hokazolar uchun 1980-yillarning boshida qo‘llanilgan.Birinchi parallel matnlar sifatida Shveysariyada nemis,fransuz,italyan tillarida to‘plangan qor ko‘chkisi haqidagi hisobotlar, Kanada ommaviy axborot vositalari ingliz, fransuz tillarida berilgan ob-havo ma’lumotlari 1980-yillarning oxiri 1990-yillarning boshlarida paydo bo‘lgan. Dastlabki elektron resurslardan biri Kanada Hansard bo‘lib, u dastlab jumlalarni moslashtirishni amalga oshirish uchun ishlatilgan. [14.4]

Bu vazifa hozirda tarjima xotiralari kabi ilovalarning standart xususiyati hisoblanadi.Bundan tashqari, parallel korpuslar ko‘p tilli grammatik induksion, avtomatik leksikografiya va turli tillarda ma’lumot olish va tilni qayta ishlashda boshqa ko‘plab vazifalar uchun ma’lumotlar bazasi sifatida ishlatiladi.Ushbu yillarda yaratilgan loyihalarning barchasidan oxirgi maqsad mashina tarjima tizimini yaratish bo‘lgan. [3.4]

Dastlabki lingvistik korpus o‘tgan asrning 60-yillarda paydo bo‘lgan. 1963- yilda Braun universitetida (AQSh) birinchi marta mashina muhitida matnlarning katta korpusi yaratilgan (Brown corpus). Korpus mualliflari V. Frensis va X. Kucher hisoblanadi. [15.28]

Ushbu korpusga turdagi janrlardan tashkil topgan nasriy matnlardan iborat bo‘lgan.Barun korpusining ommallashuvi shu sohaga doir olimlar orasida turli muhokamalarni yuzaga keltirdi.90-yillarning birinchi yarmida korpus lingvistikasi til haqidagi alohida soha sifatida shakllanib ulgurdi. Shu bilan birga, u kompyuter lingvistikasi bilan birga bilan chambarchas aloqada bo‘lib, uning yutuqlaridan foydalanadi va o‘z navbatida kompyuter lingvistikasi uchun lingvistik resurs sifatida turli dasturiy ta’minotlar uchun tadqiqot obyekti bo‘lib hisoblanadi. Korpus lingvistikasi matnlarni yig‘ish, tasniflash, annotatsiyalash kabi vazifalarni bajaradi. Korpus lingvistikasini kompyuter lingvistikasining asosiy yo‘nalishi sifatida e’tirof etish mumkin, chunki matnni qayta ishlovchi dasturlar korpusga asoslanadi. NLP tizimi uchun lingvistik bilimlar juda muhim.Ular qabul qilingan muayyan lisoniy modellar, qoidalar, lug‘atlar shaklida ifoda etilsa-da, biroq tilning nutqiy omili bilan bog‘liq bo‘lgan ekstralingvistik ma’lumotlarga ham ehtiyoji katta.Shu ma’noda tilning konseptual tasviri aks etgan semantik tarmoqlar, ontologiya ko‘rinishidagi bilimlar ta’minoti zarur. Demak, tilning murakkab funksional imkoniyatlarini pragmatik, neyrolingvistik, psixolingvistik yoki diskursiv parametrlarini baholashda korpus texnologiyasi oldida muhim vazifalar mavjud. Kaliforniya universiteti mutaxassisi Stefan Gries o‘zining ilmiy qarashlarida korpus uchun berilgan ta’riflar “u metod, nazariya yoki modelmi”, degan savolga nisbatan uni metod(ologiya) deb baholaydi.Olim fikrini asoslab, til nazariyasining generativ nuqtayi nazaridan tilga aloqasi yo‘q, degan to‘xtamga keladi. U deskriptiv va amaliy jihatdan ayrim metodlardan foydalanib, misollar yordamida o‘z fikrini isbotlashga harakat qiladi. Unga ko‘ra, agar tilshunos biror leksemani korpus ichida grammatik birlik sifatida o‘rganmoqchi bo‘lsa, demak u grammatik nazariyaga, agar u yoki bu millatning ikkinchi til sifatida murakkab konstruksiyalardan qay darajada qo‘llash imkoniyatini baholamoqchi bo‘lsa, ikkinchi tilni o‘rganish nazariyasiga asoslanadi, ya’ni har bir izlanuvchi o‘ziga xos metodni tanlaydi, degan munosabatni bildiradi.Dastlabki ta’limiy korpuslarni yaratilishi Sylviane Granger va uning ilmiy jamoasi tomonidan “Ingliz tili o‘rganuvchilari uchun xalqaro korpus” yaratilgan. Ushbu korpusning maqsadi til o‘rganuvchilarining umumiy yuzaga keluvchi xatolarini tasniflash orqali ularni tuzatish metodlarini yaratishga qaratilgan.Korpus lingvistikasining asosiy maqsadi til tizimining lingvistik tavsifi sanaladi, bunda muloqotni o‘rganish jarayonida olingan nutqiy materiallar matnlari korpusida aks etishi e’tiborga olinadi. [1.29]

Korpus lingvistikasining vazifalari quyidagilar hisoblanadi: 1)ushbu sohaning nazariy asoslarini ishlab chiqish; 2) har xil turdagi korpuslarni yaratish va ulardan foydalanish tajribasini tahlil qilish; 3)korpusga qo‘yiladigan umumiy talablarni shakllantirish; 4) turli xil tadqiqot va o‘quv vazifalari uchun korpuslarni yaratish; 5)tilshunoslikning turli sohalarida matn korpuslarini qo‘llashning samarali usullarini shakllantirish. [2.8]

Badiiy matnlarda har xil uslublar (emotsional, obrazli, subyektiv va shu kabilar) bo‘lib, ular asarning umumiy mazmunini to‘ldirib boradi. Ular turli tillarda turlicha ifodalanishi mumkin va shu bois, parallel korpusda uslubiy yondashuvni tahlil qilish muhimdir. Korpus lingvistikasi turli tillardagi matnlarning tuzilishini va ularning o‘zaro aloqasini tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Badiiy matnlarni tadqiq qilishda elektron korpuslardan foydalanish turli leksik va uslubiy elementlarni o‘rganishda muhim. Parallel korpuslar turli tillardagi badiiy matnlarning o‘xshash qismlarini topish va tahlil qilishda yordam beradi.Bu asarlar orasidagi uslubiy va mazmunli o‘xshashliklarni va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Badiiy matnlarning korpusdagi tahlili quyidagicha amalga oshiriladi: 1. Leksik tahlil: korpusda badiiy asarlarda qo‘llaniladigan

so‘zlar va lug‘at birliklarining ko‘rsatkichlari, ularning to‘qilishi va aniq tarzda qaysi uslubiy maqsadga xizmat qilishi.2.Grammatik tahlil: turli tillardagi matnlarning grammatik tuzilishi va ularning o‘ziga xosliklarini aniqlash. 3. Stil va uslubiy elementlar: badiiy matnlarning korpusdagi uslubiy elementlari, masalan, metaforalar, tashbehlar, sintaksik vositalar va boshqa uslubiy elementlarni korpusda tahlil qilish.

Korpusda badiiy asarlarda qo‘llaniladigan so‘zlar va lug‘at birliklari o‘zining semantik, uslubiy va emotsiyaga boy jihatlari bilan matnning umumiy mazmuniga ta’sir ko‘rsatadi. Ular asarning badiiy qiymatini oshirish, o‘quvchiga kuchli ta’sir o‘tkazish va asarning asl maqsadini ifodalashga yordam beradi. Masalan, badiiy asarda ishlatilgan lug‘at birliklari va so‘zlar quyidagi tarzda turli uslubiy maqsadlarga xizmat qilishi mumkin.

Ma’naviy va mazmunli boylik yaratish: badiiy asarlardagi so‘zlar o‘zida chuqur ma’nolarni mujassam etib, lug‘at boyligini ko‘rsatadi. Bu birliklar o‘quvchida asarning mavzusi va g‘oyasiga oid tushunchalarni shakllantirishda xizmat qiladi. Masalan, qahramonning hissiyotlari va ichki kechinmalari ifodalanganda, to‘g‘ri tanlangan so‘zlar va tuzilmalar matnni hissiy jihatdan boyitadi.

O‘ziga xos uslubiy yondoshuvni yaratish: badiiy asarning o‘ziga xos uslubini yaratish uchun muayyan so‘zlar va lug‘at birliklari, ayniqsa, biror muayyan davr, madaniyat yoki guruhga xos til vositalari qo‘llaniladi. Masalan, tarixiy asarlarda o‘sha davrga xos til, obrazlar va iboralar ishlatilishi asarning o‘ziga xosligini va stilistik to‘liqligini ta’minlaydi.

Qahramonlarning xarakterini yaratish: Qahramonning xususiyatlarini yaratishda maxsus so‘zlar va lug‘at birliklari qo‘llaniladi. Ular orqali yozuvchi qahramonning ichki olamini, uning qarashlari va hissiyotlarini namoyon etadi. Misol uchun, shijoatli yoki yumshoq qahramonlarning nutqida qo‘llaniladigan so‘zlar, ularning ruhiyatini va yozuvchining ulug‘lab yoki tanqidiy yondashuvini ko‘rsatadi.

So‘z va iboralarning semantik tarmoqlari: badiiy asarlarda ko‘pincha bir so‘z turli ma’nolar bilan kelib, muloqot va matn ohangini boyitadi. Bu lug‘at birliklarining turli ma’noda ishlatilishi asarning lirik yoki satirik yondoshuvini kuchaytirishi mumkin. Korpusda ushbu turdagi so‘zlarning semantik tarmoqlari orqali asarning semantik strukturasi tahlil qilinishi mumkin.

Badiiy simvolika va obrazli yondoshuv: ko‘p hollarda asarlarda muayyan so‘zlar va lug‘at birliklari orqali obrazli yondoshuv yaratiladi. Ushbu obrazlar, metaforalar yoki simvollar o‘quvchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmagan ma’nolarni ifodalaydi. Mazkur birliklar yordamida asardagi obrazlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni topish va ularning ma’nolarini avtomatik aniqlash imkoniyati yuzaga keladi.

Emotsional ta’sirni kuchaytirish: badiiy matnda qo‘llanilgan so‘zlar va lug‘at birliklari o‘quvchida muayyan hissiyotlarni uyg‘otishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Ular orqali asardagi voqealar va qahramonlar his-tuyg‘ularini o‘quvchiga ta’sirli tarzda yetkazish mumkin. Korpusda emotsiyaga boy so‘zlarni aniqlash, ularning qaysi asarlarda ko‘proq uchrashi va ularning umumiy uslubiy ta’sirini o‘rganish mumkin.6. Uslubiy o‘zgarishlarni aniqlash uchun statistik modellar.Latent Dirichlet Allocation (LDA): LDA modeli matndagi turli mavzular va ularning qaysi uslubiy maqsadga xizmat qilishini aniqlashga qaratilgan. Bu modelning yordamida matndagi mavzular to‘plamini, ularning semantik rivojlanishini va uslubiy yondoshuvni kuzatish mumkin. Hidden Markov Model (HMM): HMM statistik modeli orqali matndagi uslubiy elementlarning qaysi joylarda ko‘proq yoki kamroq qo‘llanganini aniqlash mumkin. Bu uslubiy elementlar ko‘proq takrorlanadigan joylarni tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

7. Mashina o‘rganishi va transformer arxitekturalari. Transformer modeli: transformer asosidagi arxitekturalar, ayniqsa, uslubiy elementlarning turli tillardagi transformatsiyasini aniqlash uchun samarali. Masalan, GPT va BERT kabi modellar matnni konteksda tushunish va uslubiy elementlarni masofaviy aniqlashda foydalaniladi. Clustering Techniques (klasterlash usullari). Matndagi o‘xshash uslubiy elementlarni topish va ularni bir klasterga to‘plashda klasterlash usullari, jumladan K-means algoritmi, keng qo‘llaniladi. Bu uslubiy aloqador elementlarning joylashuvini tahlil qilish uchun qulay.

8. Badiiy matnlarni korpusda uslubiy tahlil qilish. Corpus Analysis Tools: badiiy matnlarni korpus asosida tahlil qilish uchun Sketch Engine, AntConc va NLPwin kabi maxsus vositalardan foydalaniladi. Bu vositalar leksik yondoshuvlar, frazalar, simbollar va qaysidir to‘plamdagi uslubiy elementlarni birdaniga ko‘rish imkonini beradi.

Ushbu usullardan foydalanish orqali badiiy matnlardagi uslubiy elementlarni avtomatik aniqlash jarayonidagi tadqiqotlarning samaradorligi ortishi mumkin.[4,5,6,7,8,9,1011,12,13]

Xulosa qilib aytganda, uslubiy elementlarni avtomatik aniqlashda zamonaviy NLP metodlari va algoritmlaridan foydalanish, badiiy matnlarning to‘liq va aniq tahlilini amalga oshirishga yordam beradi. Badiiy asarlardagi uslubiy xususiyatlarni aniqlash uchun qo‘llaniladigan asosiy usullar va texnologiyalar, jumladan neyron tarmoqlar, sintaktik va semantik tahlil, klasterlash usullari, semantik embeddinglar va stil transferlari, tadqiqotning samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Uslubiy elementlarni avtomatik aniqlash jarayonida metodlar va algoritmlarni avtomatlashtirish, tadqiqotning samaradorligini va aniqligini oshirishga yordam beradi. Badiiy matnlar orasidagi uslubiy aloqalarni aniqlash, milliy va xalqaro

adabiyotdagi o‘zgarishlarni o‘rganishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

I. Ilmiy - nazariy adabiyotlar

1. “Korpus lingvistikasi” Abdurahmonova Nilufar. –Toshkent, 2023.
2. “Korpus lingvistikasi” Manzura Abjalova. – Toshkent, 2022.
3. “Parallel korpus xususiyati” Nazira Sobirova, Madina Akramajanova, Shohjahon Sobirov.

II. Internet saytlari

1. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2020). Speech and Language Processing
2. Manning, C. D., & Schütze, H. (1999). Foundations of Statistical Natural Language Processing
3. Biber, D., Conrad, S., & Reppen, R. (1998). Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use
4. Cambria, E., & White, B. (2014). Jumping NLP Curves: A Review of Natural Language Processing Research
5. Goldberg, Y. (2017). Neural Network Methods for Natural Language Processing
6. Bojanowski, P., Grave, E., Joulin, A., & Mikolov, T. (2017). Enriching Word Vectors with Subword Information
7. Koehn, P. (2020). Neural Machine Translation
8. AntConc (Software)
9. Mikolov, T., Chen, K., Corrado, G., & Dean, J. (2013). Efficient Estimation of Word Representations in Vector Space
10. Natural Language Toolkit (NLTK) va spaCy
11. Chinese-Uyghur sentence alignment January 2009 DOI:10.3115/1690339.1690350 Conference: the 2nd Workshop
12. Project director:Prof. Sylviane GrangerContact: sylviane.granger@uclouvain.be How to cite : Granger, S., Dupont, M., Meunier, F., Naets, H. & Paquot, M. (2020) The International Corpus of Learner English. Version3. Louvainla-Neuve: Presses universitaires de Louvain. https://dial.uclouvain.be/pr/boreal/object/boreal:229877

Trial interface: https://corpora.uclouvain.be/cecl/icle/trial/



Тимур АЮПОВ,
старший преподаватель
Кокандского Государственного
педагогического института

СТРУКТУРА ХУДОЖЕСТВЕННОГО МИРА РАННИХ КАВКАЗСКИХ ПОЭМ И ПОВЕСТЕЙ М.Ю. ЛЕРМОНТОВА

Аннотация: анализируются художественные принципы, общие для всех ранних кавказских поэм и повестей М.Ю. Лермонтова (1828–1835 гг.). Выделены основные составляющие художественного мира произведений: поэтизация географического пространства, воспроизведение черт патриархального уклада, изображение своеобразного geniusloci.

Ключевые слова: *М. Лермонтов, кавказские поэмы и повести, географическое пространство, патриархальная культура, герой места и события.*

Annotation: the article analyzes the artistic principles common to all early Caucasian poems and novels by M.Y. Lermontov (1828–1835). The main components of the artistic world of works are highlighted: the poetization of geographical space, the reproduction of features of the patriarchal way of life, the image of a peculiar geniusloci.

Annotatsiya: M. Y. Lermontovning (1828-1835) barcha dastlabki Kavkaz she'rlari va romanlari uchun umumiy bo'lgan badiiy tamoyillar tahlil qilinadi. Asarlarning badiiy olamining asosiy tarkibiy qismlari ta'kidlangan: geografik makonni she'riylashtirish,patriarxal tuzilish xususiyatlarini takrorlash, o'ziga xos geniusloci tasviri.

Kalit so'zlar: *M. Lermontov, Kavkaz she'rlari va hikoyalari, geografik makon, patriarxal madaniyat, joy va voqea qahramoni.*

Предметом настоящего исследования являются сталипоэмы и повести в стихах, написанные Лермонтовым с 1828 по 1835 гг.: «Черкесы», «Кавказский пленник», «Каллы», «Измаил-бей», «Аул Бастунджи», «Хаджи абрек». Произведения юного поэта воспринимаются как единый текст, для кото-

рого характерны поэтизация географического пространства, воспроизведение особенностей патриархального уклада, изображение своеобразного «героя места» (geniusloci), органично соединенного с ландшафтом Кавказа. Широко известно, что влюбленность Лермонтова в Кавказ связана с впечатлениями от поездок на лето к кавказским родственникам – в 1818, 1820, 1825 годах. В посвящении к поэме «Аул Бастунджи» поэт называет себя «сыном Кавказа»:

Тебе, Кавказ – суровый царь земли, –
Я снова посвящаю стих небрежный;
Как сына ты его благослови
И осени вершиной белоснежной!
От ранних лет кипит в моей крови
Твой жар и бурь твоих порыв мятежный;
На севере, в стране тебе чужой
Я сердцем твой, – всегда и всюду твой!..
[1]

Здесь же он объясняет главную причину привязанности к «зубчатым хребтам», «синему туману», «седым облакам» – он нашел в горах Кавказа всё, что было созвучно его душевному настрою, его жажде деятельности, движения, борьбы, свободы, вобщем, всему тому, что воплотилось в поэтической формуле:

Я в край надзвездный пылкою душой
Летал на колеснице громовой!..

Таким образом, географическое пространство является важнейшим основанием восприятия текстов как части единого замысла, их основополагающим жанровым признаком. Кавказ стал главным источником вдохновения поэта [2]. Юношеские произведения Лермонтова не просто романтические, но кавказские поэмы и повести. На начальном этапе отношение к Кавказу было пропитано «метафизической тоской по свободе как таковой. Кавказ выступал не столько как культурно и географически локализованный, переживаемый и познаваемый мир, сколько как воображаемое пространство абсолютной свободы, в которое как бы продлевался русский фольклорный мотив «вольной воли», «вольному воля»» [3]. Изображения кавказской природы в произведениях насыщены авторским субъективным восприятием и, одновременно, точны (хотя, надо признать, что у него нет картин, подобных пушкинскому «Кавказу» – вот где ботаническая точность гармонично соединена с поэтической!). Однако этаточность появилась не сразу, а по мере «взросления» Лермонтова и развития его индивидуального почерка [4]. В поэме «Черкесы» (1828) пейзаж еще достаточно условный, подобный можно встретить во многих романтических произведениях:

Уж в горах солнце исчезает,
В долинах всюду мертвый сон,
Заря, блистая, угасает,
Вдали гудит протяжный звон,
Покрыто мглой туманно поле,
Зарница блещет в небесах,
В долинах стад не видно боле,
Лишь серны скачут на холмах.

Но уже в произведениях 1830-х годов в пейзаже больше собственных впечатлений, подчеркивается субъективное отношение, как это видно по процитированному выше отрывку из «Аула Бастунджи», а также по описаниям «седого Кавказа», содержащимся в «Измаил-бее»:

Приветствую тебя, Кавказ седой!
Твоим горам я путник не чужой;
Они меня в младенчестве носили
И к небесам пустыни приучили…

И далее:

Как я любил, Кавказ мой величавый,
Твоих сынов воинственные нравы,
Твоих небес прозрачную лазурь
И чудный вой мгновенных, громких бурь,
Когда пещеры и холмы крутые
Как стражи окликаются ночные;
И вдруг проглянет солнце, и поток
Озолотится, и степной цветок,
Душистую головку поднимая,
Блистает, как цветы небес и рая…

В природе все одухотворено воображением поэта, возникают причудливые ассоциации. «Волшебный замок» рассеянных ветром облаков напоминает ему об узнике – «преступном страдальце», звон цепей которого прерывает сновидение о родине. Взгляд ввысь, в бездну неба характерен для всего творчества поэта, а на Кавказе весь ландшафт устремлен вверх – к горным вершинам, возносящимся зачастую выше облаков. Иннокентий Анненский в статье «Об эстетическом отношении Лермонтова к природе» (1891) отметил, что Лермонтов «из всех русских поэтов …может быть, всего непосредственнее и безраздельнее любил природу; он тонко понимал ее» [5], любил подмечать изменчивость картин, переход отрассвета ко дню, от дня к вечеру, любил синее небо, золотое солнце, воздух, пронизанный солнечными лучами, прекрасен его ночной пейзаж, «в природе он особенно любит движение: вспомним чудных его лошадей у Измаил-Бея, у Казбича<…>» [6]

Он бьет и дергает коня,
И конь летит, как ветер степи;
Надулись ноздри, блещет взор, <…>

Горы и реки – герои стихотворений и поэм Лермонтова. Терек, Арагва, Казбек, Эльбрус, Машук, Бештау – всех наделил он индивидуальными чертами, они приобрели характер. В поэме

«Измаил-Бей» «Бешту» – суровый, а река Аргуна и лезгинка Зара будто сестры. Даже имя реки Лермонтов изменил и «Аргун» превратил в «Аргуну». Аргуну, как и Зару, называет поэт «дитя природы», она «вольнолюбива» и «резва», «резвится и играет».

Она сама между снегов родится,
И там, где даже серна не промчится,
Дитя природы, с детской простотой,
Она, резвясь, играет и катится!

Та же гармония человека и натуры в рассказе о герое поэмы «Аул Бастунджи» Селиме, который рос «как птичка, меж землей и небесами». Блуждая с детства средь родных высот,

Привык он тучи видеть под ногами,
А над собой один безбрежный свод…

Жизнь горцев сливается с жизнью природы, это часть их мира. Это единство постоянно подчеркивается сравнениями животных с людьми и с предметами быта, как, например, в «Измаил-бее»:

И в час урочный молчаливо
Из-под камней ползет змея,
Играет, нежится лениво,
И серебрится чешуя
Над перегибистой спиною:
Так сталь кольчуги иль копья
(Когда забыты после бою
Они на поле роковом),
В кустах найденная луною,
Блистает в сумраке ночном.

Или в поэме «Аул Бастунджи»:

И там, когда вечерняя заря
Бледнеющим румянцем одевает
Вершины гор, – пустынная змея
Из-под камней, резвяся, выползает;
На ней рябая блещет чешуя
Серебряным отливом, как блистает
Разбитый меч, оставленный бойцом
В густой траве на поле роковом.

Встречаются примеры, когда поведение людей, и определенный тип личности привносят в мир природы дисгармонию, мрачные краски, как это подчеркивается в портрете Измаила:

Он обладал пылающей душою,
И бури юга отразились в ней
Со всей своей ужасной красотою.

Однако в основном в произведениях Лермонтова Кавказ предстает как цветущий край, насыщенный красками, звуками, экспрессией. Особенно ценно замечание Иннокентия Анненского, передающее самую суть лермонтовского ощущения природы Кавказа: «Природа не была для Лермонтова предметом страстного и сентиментального обожания: он был слишком трезв душою для Руссо. Быть поэтом пантеистом, как возмужавший Гете, мешала ему гордая и своеобразная природа Кавказа, да и сам он чувствовал себя перед этой чистой природой слишком страстным, слишком грешным существом. Природа не была для Лермонтова и утомительным калейдоскопом ощущений, как для Гейне: наоборот, он любил постоянство ощущений, образы у него прочно залегают в душе и в поэзии упрямо повторяются» [7]. Это свойство дарования Лермонтова проявилось и в работе над редакциями «Демона», и в длительном пути к замыслу, который вызревал в течение нескольких лет, пока, наконец, не приобрел форму в «Мцыри».

Во всех названных юношеских произведениях описывается мусульманский Кавказ, а это определенный тип героя и особый быт. Приобщение к культуре и быту кавказских народов шло через песни, легенды, предания, древние мифы о горах и реках Кавказа, о горском быте. Вспомним «Черкесскую песню» («Измаил-бей») с характерным призывом – «Не женися, молодец, / Слушайся меня: На теденьги, молодец, / Ты купи коня!». В песне фольклорные, мифологические мотивы, этнографическиедетали, связанные с центральными персонажами произведения, для которых все еще важны законы патриархальной жизни. Мечеть – необходимая составляющая описания аула, мулла часто является активным участником событий, как, например, в «черкесской повести» «Каллы»; либо он просто свидетель всего происходящего («Аул Бастунджи»). С большим любопытством поэт изучал обычаи горцев и в произведениях подчеркивает их гостеприимство, побратимство, куначество, глубокие кровные узы, связывающие всех членов рода. Одновременно разрабатывается и мотив мщения по разнообразным поводам: это и мщение из страсти («Аул Бастунджи»), и кровная месть («Хаджи Абрек», «Каллы»), обрекающая мстителей на одиночество. А.Е. Коновалова, рассуждая о теме рока у Лермонтова, замечает, что кровная месть – «это не только заданность личной судьбы, определенная запрограммированность земного пути, но чувство ответственности перед родом, ощущениенеразрывной органичной связи со своими предшественниками, ощущение себя некоторым «звеном» в общей цепи, преемственности поколений, подчинение общему порядку, предначертанному свыше идлящемуся веками» [8].

Для Лермонтова всегда интересен мотив противостояния Судьбе, и в произведениях подчеркивается новое в поведении героев мстителей: в отдельных случаях они начинают задумываться над тем, что творят («Каллы»), не подчиня-

ются родовому обычаю и обращают свой гнев против подстрекателей к убийству. То есть уже на раннем этапе своего творческого развития Лермонтов задумывается над проблемой взаимодействия отдельного человека и «среды», в соответствии с романтической традицией герой выделен из среды, внутренне оппозиционен ей и потому страдание иодиночество становятся его уделом.

Картины мирной жизни в поэмах связаны с девушками и женщинами. Их образы пленительны, изящны, пластичны, они сравниваются с восточнымипери. Если в произведении появляется портрет девушки, то он нарисован с любовью и восхищением, возникают сравнения с природным миром, к которому девушки близки. Таков, например, портрет Зары из поэмы «Аул Бастунджи»:

Казалось, вся она была слита,
Как гурии, из сумрака и света; <…>
Черны глаза у серны молодой,
Но у нее глаза чернее были; <…>
Змеились косы на плечах младых,
Оплетены тесьмою золотою…
Прекрасна вольной дикой простотою,
Как южный плод румяный, золотой,
Обрызганный душистою росой.

Но окружающий мир губит эту красоту. Девушка неизменно становится жертвой либо мести («Каллы», «Хаджи Абрек»), либо безумной страсти («Аул Бастунджи», «Измаил-Бей»). В повести «Измаил-бей» облик героини двойствен: она «как пери молодая» и она же предстает в образе девушки воительницы, последовавшей за любимым на войну, переодевшись в мужское платье. В произведениях XIX века о Кавказе подобный образ исключение. Наиболее четко противоречия жизненного уклада горцев отражены в сложной по своей структуревосточной повести «Измаил-бей». В ней поэт выразил свое понимание истории, «философию истории», мысль о «необратимости исторического развития человеческого общества», ведущей к «неотвратимой гибели патриархального уклада жизни кавказских народов» [9] под натиском цивилизации. Это, так сказать, внешние причины коренных изменений. Но показаны и внутренние трагические противоречия – народ дал жизнь «созданию земли и рая» Заре, и он же создал закон кровной мести, которая приведет ксамоистреблению в замкнутом мире Кавказа. Трагична и участь героев, подобных Измаил-бею, внутренне раздвоенных: приобщение к цивилизации привело кразочарованию, но вновь обрести «потерянный рай» они не могут.

The analysis of ergonimes in Uzbek media texts reveals that these names play a vital role in bridging business, culture, and social identity. This discussion explores the implications of each functional category observed, connecting the findings to broader socio-cultural and linguistic contexts and drawing comparisons to ergonime usage in other cultures. The predominance of ergonimes with an informative function in news articles suggests that Uzbek media uses these names strategically to build trust and credibility. Ergonimes attached to reputable companies or well-known organizations serve as informational anchors, lending authority to the content.

Conclusion

This study offers a comprehensive exploration of the functional roles of ergonimes in Uzbek media texts, revealing how these brand and organizational names contribute not only to brand identity and consumer awareness but also to cultural resonance and social identity. Through a detailed content analysis of ergonimes usage across news articles, advertisements, and opinion pieces, the research identified four primary functional roles—informative, promotional, identity-marking, and cultural association—which provide valuable insights into the complex and multi-dimensional nature of ergonimes in media.

References

1. Bennett, S. (2019). Media and Brand Identity: The Role of Ergonimes in Audience Perception. Journal of Media Studies, 27(4), 112-126.
2. Cameron, J. (2012). Linguistic Anchors in Branding: The Power of Ergonimes. Marketing Language Quarterly, 15(2), 88-101.
3. Chan, Y. L. (2013). Ergonimes as Cultural Symbols in East Asian Media: A Cross-Cultural Analysis. Asian Branding Journal, 22(1), 53-70.
4. Johnson, M., & Lee, D. (2015). The Socio-Cultural Significance of Naming in Modern Media. Language and Society, 11(3), 201-217.
5. Karimova, R. (2020). Post-Soviet Media Branding: Tradition Meets Modernity. Central Asian Linguistics Review, 9(2), 134-150.



Munisa BOZOROVA
Samarqand davlat chet tillar instituti doktoranti
m.bozorova@samdchti.uz

PRAGMATIC ASPECTS OF DEIXIS IN AGRICULTURAL TEXTS

Annotation: this paper is about the deixis in agricultural texts and how it provides various pragmatic aspects in the text. In most scientific research has been done about how the pragmatic factors has functioned in literary way and the role of deixis in the pragmatics of literary texts. However, the pragmatics of scientific texts and the implementation of deixis has merely been researched. In this article the role of deixis in functioning pragmatic functions has been explained with the examples collected in scientific texts in agricultural field and compared in two languages in English and in Uzbek respectively.

Key words: pragmatics, deixis, agricultural texts, reference, discourse

Аннотация: в этой статье речь идет о дейксисе в сельскохозяйственных текстах и о том, как он обеспечивает различные прагматические аспекты в тексте. В большинстве научных исследований было проведено исследование того, как прагматические факторы функционируют в литературном плане и роль дейксиса в прагматике литературных текстов. Однако, прагматика научных текстов и реализация дейксиса были лишь исследованы. В этой статье роль дейксиса в функционировании прагматических функций была объяснена с примерами, собранными в научных текстах в сельскохозяйственной области, и сравнена на двух языках: английском и узбекском соответственно.

Ключевые слова: прагматика, дейксис, сельскохозяйственные тексты, референция, дискурс

Annotatsiya: ushbu maqolada qsihloq xo'jaligiga oid matnlarda deyksisning pragmatik aspektlari yoritib beriladi. Ko'plab ilmiy izlanishlar deyksis hodisasining adabiy matnlardagi pragmatik vazifalariga bag'ishlangan bo'lib, ilmiy matnlarning pragmatik xususiyatlari, xususan, deyksis hodiasi haqida ma'lumotlar ko'p emas. Deyksisning agromatnlarda qanday vazifalar bajarishi haqida ingliz va o'zbek tilidagi misollar bilan ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: pragmatika, deyksis, qishloq xo'jaligiga oid matnlar, referensiya, diskurs.

For centuries, many disciplines have been showing interest in scientific discourse, each setting its own goals and priorities. Scientists work on the methodology of their discipline. Philosophers tend to work on the nature of human knowledge and its subjective or objective character. Linguists describe scientific discourse, often focusing on scientific terminology, selected syntactic structures or morphological processes and sometimes ignoring — to a greater or lesser degree — the science-specific context of this kind of communication. Some studies focus on sociological problems that result from the fact that scientific communication has become incomprehensive for the average laymen. This paper aims to identify the pragmatic aspects of deixis from scientific texts related to agriculture.

Linguistic studies confirm that a scientific text, just like any other, is not devoid of pragmatics, since the author of a scientific work wants the reader to understand it as best as possible; if such an attitude is absent, then the essence of language communication is violated in general. It is known that the works of scientific literature received an appropriate linguo-pragmatic description as a type of "institutional discourse". The author of a scientific text has the right to predict and wait, even to warn the addresses' reaction and "respond" to it, to take it into account in the linguistic fabric of his work, in which, thus, dialogicity is realized. And for this, in the historical process of development of the functional and stylistic capabilities of the language, the means and methods of expressing scientific content, the means of influencing the reader, focusing his attention on certain moments of the text, tested for their effectiveness over a long period of time.

One of the main phenomena in identifying the pragmatic functions of the scientific texts is deixis. In this article we shall analyze the usage of deixis in agricultural texts and the aspects of deixis in two different languages: English and Uzbek. Deixis came from Greek means "pointing", and widely used by linguists in various terms like indexicals, shifters, egocentric particles and tokens. Deictic words or indexicals such as I, here, now are strongly content-dependent. The whole idea of the speaker may only be known through context.

Deixis in agricultural texts performs informative, cognitive, argumentative, explanatory, reference, didactic.

All this texts about agriculture provides information about the news and investigations in scientific field in English and in Uzbek respectively. Identifying the author and pointing the researcher is the form of person deixis and here person deixis accomplishes the informative function as well as giving something new as a cognitive function.

Subjectivity is a natural feature of any speaker or situation-dependent discourse, and since practically all instances of natural language communication are egocentric, we may merely talk about varying degrees of subjectivity. In science, however, subjectivity is regarded as a vice. Bertrand Russell put it as follows: scientific knowledge aims at being wholly impersonal, and tries to state what has been discovered by the collective intellect of manland. The requirement to be impersonal or neutral still remains a natural rhetorical imperative for most sciences, even though more and more authors, particularly in experimental and empirical sciences, try to write in a more personal style.

When most farms within a region are organized in a similar way, we can apply a descriptive phrase that characterizes regional farming practices. (Crop ecology 15)

Ushbu uslub biz tomonimizdan amaliyot va o'quv jarayonlarida tekshirildi va o'zining ijobiy natijasini berdi. Hisobiy ishlar va o'lchash ishlarimizdagi aniqlik 96% ni tashkil etdi. (Agroilm 5(68) son 2020 61)

In English and in Uzbek person deixis usually performed with the help of personal pronoun "we" "biz". Regarding to the reason mentioned above the scientist only refer themselves in plural form even though the experiment has been carried by one researcher. In the example in English the author wants to inform the reader about the findings in the field of his research and uses an informational function. While in the sentence the function of argumentation has also been used. Person deixis is widely used in the from of the reference for the third person. As the scientist wish to mention the work of others, he can do it using proper nouns as deictics and also third person singular form of the personal pronouns.

Bolotov XVIII asrning ikkinchi yarmida yer tuzilishi, almashlab ekish, begona utlarga karshi kurash,o'gitlash masalalari bo'yicha malakalari bilan dexkonchilikning asosiy prinsiplarini tarifladi. U yetti dalali almashlab ekishning 3 ta dalasi ko'rik bo'lishini bayon etdi. (S.A. Azimboev Dexqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari Toshkent 2006: 4)

In the example in Uzbek we can find that first author points the researcher then referred him in the next sentence. While in English pointing gender in third person singular doesn't exist in Uzbek. Here the differense has been arised. However in agricultural texts identifying only one person has rarely been found, in most cases, it has been mentioned as a group of scientists. The reason for this is that the analyzining and and making overall conclusion in the literature review:

For example, Yuan et al. (2022) used metagenomic sequencing to study the bacterial community structure between the rhizosphere and roots of different Acacia species. They suggested that the abundance and type of bacteria depend on the Acacia species, which may indicate a possible role of rhizospheres and root endophytic bacterial communities in the growth and reproduction of Acacia plants. (Journal of Agriculture and Food Research 12 (2023) 100566 8)

The function of argumentation. The function of scientific prose is a consistent and systematic presentation and reasoned proof or, on the contrary, reasoned refutation of scientific concepts and theories. This function is often displayed with the assistance of discourse deixis. The author points out the ideas of other researchers at the same time makes an argument.:

O.X.Sindarov, F.J.Teshaevlarning ma'lumotlarida Toshkent viloyati sharoitida S-6541 va Oqdaryo-6 g'o'za navlarida Sardor defoliantini ko'saklar 45-50% ochilganda maqbul me'yorlarda (6-8 l/ga) qo'llanilganda 1000 dona chigit vazni, unib chiqish quvvati, unuvchanligi, pishganlik darajasi, moydorligi, yadro chiqimi, umumiy va oqsilli azot miqdorining oshishi, biroq, oqsilsiz azot kamayishi kuzatilgan. (Agroilm (3)2023 7)

To the best of our knowledge this research is the first study of its kind on the cytotoxic effect of the R. chingii raspberry, using four different cancer cell lines, namely SKOV3 (human ovarian), MCF-7 (human breast), HeLa (human cervical), and A549 (human non-small cell lung). (Journal of Agriculture and Food Research 12 (2023) 100603 6)

Explanatory function. A vivid example of the implementation of the explanatory function are instructions, textbooks, methodological guidelines, some descriptions of inventions in patents. In addition, the explanatory function is implemented in non-language material, for example, it is confirmed by pictures that demonstrate or explain how to do something:

Kuzgi bug'doyni hosildorligi bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilinganda 2-variant ishlab chiqarish sharoitida keng qo'llanilayotgan mineral o'g'itlar me'yori (N 200, P 140, K100 kg/ga) olingan bo'lib, o'rganilayotgan variantlar bilan taqqoslanganda yuqori natijalar qayd etilgan (7, 8) variantlarga nisbatan don hosili 5,3; 6,5 s/ga kamroq natijalar olinganligi aniqlandi.

Their mechanistic study revealed that these two metal ions were adsorbed mainly via surface complexation between the empty electron orbital of Cu2+ and Co2+ and the lone pair electron of the oxygen atom from the -COO– group (Fig. 5). The same adsorption mechanism was obtained by Wang et al. who found that the –COO–groups in granular alginate-based hydrogel were complexed with Ni2+, Cu2+, Zn2+, or Cd2+ ions.(Journal of Agriculture and Food Research 12 2023 100552:4)

Besides, explanatory function these deictics also demonstrate help function assisting the readers to point the main findings in their references and one of

the main aspect is reference function:

Molecular techniques for meat species identification have gotten a lot of interest in recent years because of their high sensitivity and specificity, as well as their short processing time and inexpensive cost. (Journal of Agriculture and Food Research 12 (2023) 100586 1)

In the given example temporal deixis points the time of the research and decodes the times, at the same time the author refers the new technique to emphasize and to inform the reader.The process of referring can be achieved either using anaphora or cataphoric reference as the examples below and representing whole sentence in other words the reluts of the research has been explained :

Tajribada shu narsa ma'lum bo'ldiki, rastoropsha o'simligi O'zbekiston sharoitida sovuqdan zararlanmaydi va bemalol qishlaydi. (Agroilm 5(68) son 2020 44)

The function of giving new knowledge can be achived through the discourse diexis.In english implying of anaphoric reference with discourse deixis can easily be found in agricultural texts. In this way the athour demonstrates not only his achievement but also enumerates the steps of this or the advantages that comes from his research:

The research on climate change has identified several avenues that will affect agriculture. They include (1) rising temperatures around the world that lead to migration of climate from regions closer to the tropics to regions closer to the poles, (2) rising sea levels, (3) increased snowmelt and change in the volume and timing of water use for irrigation, and (4) increased probability of extreme events. (Climate smart agriculture p 50)

To sum up, the implementation of deixis in agricultural texts can have different pragmatic aspects. In most article the first function has been informing and giving new knowledge to the reader. The explanatory aspect one of the key aspects of deixis in scientific texts and this function is achieved in most cases with the help of the anaphoric or cataphoric reference. Contradictory arguments or ideas can be illustrated using person deixis, while discourse deixis is essential for delineating the writer's perspective in a given context. Authors often employ discourse deixis in the forms of reference to elucidate tables and diagrams. Since subjectivity is not a primary feature in scientific texts, person deixis is generally utilized in the first-person plural form via personal pronouns or subject-verb agreement. Authors typically introduce themselves in the initial sections to provide context, with this feature being commonly omitted in subsequent sections.

References:

1.Азнаурова Э.С. Прагматика текстов различных функциональных стилей / Э.С. Азнаурова // Сб. Общественно-политический и научный текст как предмет обучения иностранным языкам / Отв. ред. М.Я. Цвиллинг. – Москва: Наука, 1987. – С. 3–20.

2.Арнольд И.В. Основы научных исследований в лингвистике: учеб. пособие / И.В. Арнольд. – М.: Высш. шк., 1991. – 140 с.

3.Кожина М.Н. О диалогичности письменной научной речи / М.Н. Кожина. – Пермь: ПГУ, 1986. – 91 с.

4.Карасик В.И. О типах дискурса / В.И. Карасик // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: сб. науч. тр. – Волгоград : Перемена, 2000. – С. 5–20.

5.Скрипак И.А. Прагматика научного текста / И.А. Скрипак // III Международный конгресс исследователей русского языка «Русский язык: исторические судьбы и современность»: сб. тезисов – М., 2007. – С. 409–410. [Электронный ресурс]. – Режим доступу: http://www.russian.slavica.org/article6823.html.

6.Dylgjeri A, Kazazi L. Deixis in modern linguistics and outside. Academic Journal of Interdisciplinary Studies. 2013 May;2(4):87-96.

7.Pilgui N. (2010). Pragmatics of scientific texts of agrotechnical discourse. Moscow. https://core.ac.uk/download/pdf/46591014.

8.Sidnell, Jack and Nick J. Enfield. "Deixis and the interactional foundations of reference." In The Oxford handbook of pragmatics, edited by Yan Huang. Oxford: Oxford University Press. 2016. https://doi.org/10.1093/oxfordhb/9780199697960.013.2

9.Stroinska, M.: 'Pragmatics of Scientific Discourse', Work in Progress 19, Department of Linguistics, University of Edinburgh 1986, 1-11.

Salomat MATKARIMOVA,
Urganch davlat universiteti
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
E-mail: smq777999@gmail.com

AVAZ O‘TARNING MATBU’ TATABBU’SI

Annotatsiya: ushbu maqolada Avaz O‘tarning Alisher Navoiy g‘azaliga yozgan matbu’ tatabbu’si tahlilga tortiladi. Avaz O‘tar matbu’ tatabbu’sida o‘ziga xos poetik mushohada yuritgani, Navoiy an’analariga ijodiy yondashib, yangiliklar bilan boyitgani misollar bilan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *g‘azal, matbu’ tatabbu’, an’ana, fikr, obraz, poetik mushohada.*

Аннотация: в этой статье обсуждаются татаббу стихи Аваза Утара к газелям Алишера Навои. На примерах матбуъ татаббу Аваза Утара основаны его неповторимое поэтическое мышление, творческий подход к традициям Навои, обогащенный новостями.

Ключевые слова: *газель, матбуъ татаббу, традиция, мысл, образ, поэтическое мышление.*

Annotaion: this article discusses the tatabbu verses of Avaz Utar to the gazelles of Alisher Navoi. On the examples of Matbu’ Tatabbu by Avaz Utar are based his unique poetic thinking, a creative approach to the traditions of Navoi, enriched with news.

Key words: *gazelle, matbu’ tatabbu, tradition, thought, image, poetic thinking.*

Alisher Navoiyga izdoshlik mezonlariga izchil amal qilgan Avaz O‘tar ijodida tatabbuning matbu’ turi ham keng qo‘llaniladi. Navoiyning “shayx” radifli g‘azaliga yozilgan tatabbu’ shular jumlasidandir. “Matbu’ she’riyatda mazmun va shakl birligiga rioya etishdir” [3:144]. Navoiyning “shayx” radifli gazali “Navodir ush-shabob” devonidagi 112-g‘azal bo‘lib, 10 baytdan iborat. Shoir unda soxta shayxlarni hajv ostiga olib, ishqi ilohiyni anglab yetmagan soda-yu loda shayxga munosabatini aks ettiradi:

Meni ishqdin man’ etar soda shayx,
Dema soda shayx, aytkim loda shayx.

G‘azal maqta’sida yozadi:

Navoiy tilar soda yuzlug yigit,
Ne g‘am gar ani man’ etar soda shayx [6:84].

Kuzatiladiki, Navoiy soda yuzlug yigit qiyofasida Alloh jamolining tajalliysini ko‘radi. Zero, “Husn ilohiy mazhardir. Shu sabab u poetik obraz tarzida Haq va uning sifatini aks ettiradi. Mumkinot ichra esa u odamda namoyon bo‘ladi. Aniqrog‘i, go‘zal qiz va yigitlarda ko‘rinadi. Shuning uchun ham ularning husnini ta’riflash, majozan husni mutlaqni ulug‘lashdir. She’riyatda dunyoviy husn sohibining ilohiy ma’shuq tarzida tasvirlanishi shu bilan bog‘liq [1:44]. Zohirbin shayx esa soda yuzlug yigitning o‘zini, insonni ko‘radi. Shuning uchun u lirik qahramonni ishqdin man etadi. Shoir Yaratganga bo‘lgan muhabbatni anglamagan, mavjud holatning tub mohiyatini ko‘ra olmaydigan “shayx”ning suv ustiga solgan joynamozini ilohiy muhabbat mayi ustidagi xascha bo‘lmasligi orqali bunday shayxning ko‘rsatgan har qanday karomati e’tiborga noloyiqligini ta’kidlaydi (2-bayt).

May ustidagi xascha qilma hisob,
Agar su uza solsa sajjoda shayx.

Bunday shayxning etagidan tutib, maqsad manziliga yetaklashidan umid qilma. Zero. gumrohlik yo‘lida darmonsiz yiqilgan adashgan kimsadan yorug‘lik kutish imkonsiz (3-bayt).

Yorug‘luq emas mumkin andinki, bor
Zalolat tariqida uftoda shayx.

Uning har bir harakati faqat riyo va tama’dan so‘zlaydi. Salobat va viqor uchun qo‘liga olgan asosi ham go‘yo riyo dengizida suzishda tama’ qayig‘idan yiqilmaslik uchun muvozanat saqlashga xizmat qiladigan bir xoda xolos (4-bayt).

Riyo bahri ichra tama’ zavraqin
Soliptur asodin tutub xoda shayx.

Qo‘lida timay bir-bir o‘tayotgan tasbeh donalari ham el ko‘nglini ovlash uchun yoyilgan firib tuzog‘i (5-bayt).

Yeyar domi tazvir el saydig‘a
Qilib subhadin dona omoda shayx.

Bunday “shayx” garchi inson naslidan bo‘lsa-da, ammo mohiyatda “G‘azabda sabu’, shahvat ichra bahim”dir. “Sabu’ – yirtqich hayvon”[5:536]. “Bahim – to‘rt oyoqli hayvon” [5:100]. Bu kabi hayvonsifat kimsani odamiyzoda deyish hayf. (6-bayt)

G‘azabda sabu’, shahvat ichra bahim,
Agarchi erur odamiyzoda shayx.

Agar fano mayxonasida Xudoga muhabbat mayidan bir qadah ichsa, o‘zining kimligini bilib, niyat va maqsadni to‘g‘rilab, odam soniga kirar edi. Binobarin, har tug‘ilgan ham odam degan sharafli nomga sazovor bo‘lavermaydi. Toki u o‘zini, o‘zligini, bu yorug‘ olamga kelib-ketishining ma’nosini anglab yetmas ekan, oldiga el-u yurtga, pirovard natijada o‘zi va yaqinlariga naf keltiradigan ezgu maqsadlarni qo‘yib, unga yetish yo‘lida riyozat-u mashaqqat chekmas ekan, yeyish va nasl qoldirish uchun yashaydigan hayvon qatorida qolaveradi (7-bayt).

Kirar odamiy sonig‘a qilsa no‘sh,
Fano dayrida bir qadah boda shayx.

Lirik qahramon agar bir ozoda shayx topsa,

unga qo‘l berib, murid tushishga, inon-ixtiyorini uning irodasiga bo‘ysundirib, uning ko‘rsatmalariga og‘ishmay amal qilib, ulug‘ maqsad sari odimlashga, bu yo‘lning qiyinchiligi-yu tashvishlarini sabr-matonat bilan yengiib o‘tishga tayyor. Chunki haqiqatbin shayx uni ham Haq visoliga yetishishda to‘g‘ri va eng yaqin yo‘ldan boshlab boradi (8-bayt).

Irodattin o‘lg‘ay edim bandasi,
Agar topsam erdi bir ozoda shayx.

Ammo o‘zini eranlardek tutsa-da, fikri-zikri o‘ziga tashqi tomondan ziynat berish bo‘lgan “moda shayx” Ma’shuqi Azall visoliga yetishish yo‘lida yo‘lboshlovchi pir bo‘la olmaydi. Chunki eranlik bu suratda ularga o‘xshashlik emas, balki siyratda Haq do‘sti bo‘lishdir. O‘z nafsini tanigan, Haqni suygan va Unga sevimli bo‘lganlargina eranlardir. Ana o‘shalargina chin ma’noda rohbar bo‘lib, boshqalarga yo‘l ko‘rsatishi mumkin. (9-bayt)

Eranlardin o‘zni tutar, garchi bor
O‘kush zeb-u ziynat bila moda shayx.

Maqta’ shoirning soda shayx man etsa-da, ishqi ilohiyga intilishda bardavomligini ta’kidlash bilan yakunlanadi. Zero, lirik qahramon darajasiga chiqa olmagan soda shayxning o‘zi anglamagan narsadan uni qaytarishi ahamiyatsiz.

Navoiy tilar soda yuzlug yigit,
Ne g‘am gar ani man’ etar soda shayx.

Avazning mazkur g‘azalga matbu’ tatabbu’sida mazmun va shakl unsurlari saqlangan. Har ikkala g‘azal bir xil vaznda (mutaqoribi musammani maqsur. Taqte’si: V - - / V - - / V - - / V ~). Mavzu, qofiya va radif o‘zgarmagan. Matla’:

Ichib tinmayin dayr aro boda shayx,
May uchun qilur rangi sajjoda shayx[2: 49 a].

Avaz o‘z tatabbu’sida asos she’rdagi qofiyaga olingan so‘zlardan foydalandi. Tatabbu’ning ikkinchi va uchinchi baytlarida so‘zlar boshqa bo‘lsa-da, “aftoda” va “xoda” qofiyalari asos she’rdagi mazmun ifodasiga xizmat qilgan. Asos she’rdagi boshqa qofiyaga olingan so‘zlar yangi ma’no yuklagan holda qo‘llanilgan. Chunonchi, “omoda”, “odamiyzoda”, “loda” qofiyalari bu jihatdan xarakterlidir. “omoda” – “tayyor, tayyorlangan” demakdir [5:484]. Asos she’rda elni sayd qilish uchun aldov tuzog‘iga tasbeh donalarini yoyishga tayyor shayx haqida so‘z borsa, tatabbu’da sho‘xlar qo‘lidan boda ichishga o‘zini obdon tayyorlagan shayx haqida bahs etiladi:

Icharga qadah sho‘xlar ilgidin,
O‘zin aylar ul nav’ omoda shayx.

Yoki “odamiyzoda” qofiyasini Navoiy shayxning o‘ziga bog‘lab, garchi odam bolasi bo‘lsa-da, tabiati hayvonsifatligini ta’kidlaydi. Avaz esa ushbu qofiyani umuman, inson bolasi ma’nosida qo‘llab, shayxga murojaat qilar ekan, agar odam bolasi sendek bo‘lsa, qiyomat kunida to‘planadigan paytgacha uyg‘onmay g‘aflatda yotgan bo‘lar edi deydi:

Yotar erdi to hashr uyg‘onmayin,
Saningdek esa odamizoda shayx.

“loda” qofiyasi ham yangi mazmunda ishlatiladi. “loda” – ahmaq, aqlsiz degan ma’noni anglatadi [5:337]. Navoiy g‘azalida “loda” qofiyasi noto‘g‘riligini aytishsa ham, xato so‘zini takrorlashdan to‘xtamaydigan qaysarligini ta’kidlash uchun soda emas, ahmaq shayx degan ma’noda kelsa, Avaz tatabbu’sida “aqlsiz” ma’nosi olinadi: shayxning bodadan mast bo‘lib, aql-hushidan ayrilib, har kimga hamla qilishi quturgan itga qiyoslanadi:

Urar hamla har kimsaga mast o‘lub
Quturmushmu yo it kibi loda shayx.

Kuzatiladiki, tatabbu’da asos g‘azalda uchramagan tashbeh qo‘llanilgan: mast bo‘lib har kimga hamla qilayotgan loda shayx quturgan itga qiyos qilingan. Bu Avazning Navoiyga izdoshlik mezoniga amal qilib, asos g‘azalga ijodiy munosabatda bo‘lgan holda yangilik bilan boyitishga harakat qilganligini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, “Navoiy tatabbu’navislikni adabiy yo‘nalish darajasiga ko‘tardi” [3:41]. “G‘azalchilikda ham Navoiy o‘z salaflari erishgan tajribalardan ijodiy foydalanib, ular she’riyatida mavjud ko‘p mavzu, tasviriy ifoda va iboralarni, poetik usullarni ustalik bilan o‘zlashtira bildi va rivojlantira oldi. Navoiy salaflaridan o‘rganganligini hech yashirmaydi, o‘zini kamtarlik bilan doimo ularning shogirdi hisoblaydi” [4:86]. O‘zini shogird darajasida ko‘rgan va ustozga munosib izdoshlik qilishdan umidvor Avaz O‘tar ham o‘z g‘azallarida hazrat Navoiyni alohida ehtirom bilan tilga olar ekan, matbu’ tatabbu’larida Alisher Navoy fikrlarini, obrazli lavha va ifodalarini yana-da boyitib, mahorat bilan javobiyalar bitgan. Shoir Navoiy qo‘llagan qofiya va iboralarini takrorlash barobarida ularga yangi badiiy ma’no yuklagan. Bu kabi mahorat va ijodiylik omuxtaligi natijasi o‘laroq yuzaga kelgan toza fikr va yangi tasvirlar Avaz tatabbu’larining originalligini ta’minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A. Alisher Navoiy ijodiyoti (Vahdat ul-vujud problemasi bo‘yicha): Filol.fanlari d-ri…diss. – T., 1998.
2. Avaz. Devon. Qo‘lyozma. O‘zR FAShI, inv. AP-942. 49-bet a.
3. Fayzulloyev B. O‘zbek she’riyatida tatabbu’ tarixi va mahorat masalalari. – Toshkent: TAMADDUN, 2021.
4. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. To‘ldirilgan va tuzatilgan ikkinchi nashr. – Toshkent: O’ZBEKISTON, 2015. ¬
5. Navoiy asarlarlari lug‘ati. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972.
6. Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to‘plami. 4-jild. – Toshkent: Fan, 1989.

To‘xtamurod RAJABOV,
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ABDUNABI HAMRO LIRIKASIGA XOS XUSUSIYATLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada 1961-yilda Buxoro viloyati Olot tumanida tug‘ilgan Abdunabi Hamro ijodiga bir nazar tashlanadi. Shoirning Buxoro zamonaviy adabiy muhitidagi o‘rni o‘rganiladi. Shoirning muhabbat kuychisi ekanligiga va to‘rtliklariga qisman to‘xtalib o‘tiladi. She’r misralari g‘oyaviy-mazmuniy-badiiy jihatdan o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: *Abdunabi Hamro, poeziya, mubolag‘a, lirik qahramon, misra, metafora, tashxis, ramz, obraz, to‘rtlik…*

Annotation: this article will take a look at the work of Abdunabi Hamro, who was born in 1961 in the Olot district of the Bukhara region. The role of the poet in the modern literary environment of Bukhara is studied. The fact that the poet is a singer of love and his quatrains are partially touched upon. Ideological-content-artistic aspects of the verses of the poem are studied.

Key words: *Abdunabi Hamro, poetry, exaggeration, lyrical hero, verse, metaphor, diagnosis, symbol, image, quaternity...*

Аннотация: в данной статье будет рассмотрено творчество Абдунаби Хамро, родившегося в 1961 году в Олотском районе Бухарской области. Исследуется роль поэта в современной литературной среде Бухары. Частично затрагивается тот факт, что поэт – певец любви и его четверостишия. Исследуются идейно-содержательно-художественные аспекты стихов поэмы.

Ключевые слова: *Абдунаби Хамро, поэзия, преувеличение, лирический герой, стих, метафора, диагноз, символ, образ, четверица...*

Kirish. Bugungi o‘zbek she’riyati kechagi she’riyat emas, balki o‘zining ko‘pgina, xususan, shakliy-mazmuniy mundarijasiga ko‘ra yangilangan poeziyadir. Shu bilan birga, bugungi she’riyat kechagi she’riyatdan uzilib qolgan alohida hodisa ham emas. Ular o‘rtasida vorisiylik, uzviylik davom etib kelayotir. Zamonaviy o‘zbek she’riyati mumtoz va yangi o‘zbek she’riyatining eng yaxshi an’analarini davom ettirgani holda jahon adabiyoti buloqlaridan ham suv ichyapti. Shunday omillar she’riyatda o‘z aksini ko‘rsatayotgan bir davrda Buxoro zamonaviy adabiy muhitida Abdunabi Hamro yarq etib ko‘zga tashlangan ijodkor sifatida maydonga chiqdi. Abdunabi Hamro 1961-yilda Buxoro viloyati Olot tumanida tug‘ilgan. Toshkent Davlat madaniyat institutini tugatgan. O‘tgan asrning 80-yillaridan beri badiiy ijod bilan shug‘ullanib keladi. 1995-yildan beri O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi. “Xiyonat” (1993), “Oq alvasti” (1994), “Otam aytgan qo‘shiqlar” (2002), “Yirtqich” (2003), “Unutilgan qo‘shiq” (2005), “Olis manzillar sari” (2006), “Bolalikka sayohat” (2007), “Qishda ochilgan gul” (2008), “Vaqt daryosi” (2010) kabi she’riy va nasriy kitoblar muallifi.

“Olot hayoti” gazetasi bo‘lim muharriri lavozimlarida faoliyat yuritgan. Rahimjon Rahmat shoirlik, she’r haqida shunday fikr yuritadi: “Nazarimda, she’r yozish ruhning himoya mexanizmidir. Masalan, tananing himoya mexanizmini ko‘raylik. Jonlanib qolgan kasallikka qarshi vujud haroratni oshirib, patogen mikroflorani o‘tindek yoqa boshlaydi. Shu tariqa u o‘zini o‘zi zarardan asrab qoladi. Aslida ilhom ham kishi immun sistemasining ruhiyatdagi faollashuvidir.” Yuqoridagi ta’riflar xuddiki shoir Abdunabi Hamro ijodiga, uning hayotiga daxldor desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoir shu millat, shu jamiyat, shu xalq bilan birga yashadi. Uning dardlarini o‘z qalbi bilan sezdi, xursandchiliklarini butun borlig‘i bilan his etdi. She’r orqali, she’riyat orqali, nasr orqali shu yurtni yukini yelkalashga jazm qildi. Shoir juda ko‘p iqtidorlar singari shaharga, poytaxtga oshiqmadi, balki o‘zining ona Vatanida, Olotda ijod qilishni ma’qul ko‘rdi. Mashhurlikdan ko‘ra vatanparvarlik hissi yuqori o‘ringa ko‘tarildi. Shoirning milliy madaniyatimiz, adabiyotimiz va tilimiz sofligini, uning jozibasi va betakrorligini saqlab qolishdagi xizmatlarini alohida ta’kidlash kerak. Ayniqsa, haqiqatni saqlab qolishdagi jasorati tahsinga loyiq. Shoirlar erkinlik haqida ijod qilishga botinolmay qolgan bir paytda Abdunabi Hamro aynan shu yo‘nalishda katta jasorat bilan insoniy tuyg‘ularni yuqori pardalarda kuylagan, haqqoniy tuyg‘ularga to‘lib-toshgan, sof zamonaviy o‘zbek tilida bitilgan yetmishga yaqin she’rlarini e’lon qiladi. Shu mavzuda gapirganda O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning quyidagi misralari esga tushadi:

Shoirlik bu shirin jondan kechmoqdir
Limmo-lim fidolik mayin ichmoqdir.

Abdunabi Hamrodagi kurashchan ruh barcha asarlarida bo‘y ko‘rsatib, o‘quvchining qalbida shunga mos tuyg‘ularni shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zi e’tirof etganidek, she’riyatda zamonaviy voqelikni, dramaturgiyada esa tarixiy o‘tmishni tasvirlashga hamda xalq va mamlakatning dardli masalalarini o‘tmishga bag‘ishlangan asarlarida ifodalashga intildi.

Yuqoridagi fikrlarimizning isboti sifatida shoirning quyidagi parchalarini keltirishimiz mumkin:

Jismim yerda, vale ko‘nglim O‘zingdadir
O‘zing meni aylagansan yo‘qlikdan bor,
Kabir qilg‘in, faqir qilgin, qilgin haqir
Har ne qilsang, oshiq qilg‘il, parvardigor.

Lirik qahramonning yuragiga muhabbat qachon kirib kelgani ma’lum emas, bu muhim ham emas. Ammo u bu pok tuyg‘uni allaqachonlar ko‘nglidan o‘tkazgani uchun ham dunyoni muhabbat ranglari ila ilg‘aydi. Sevgi unga hamma narsani ro‘y-rost oshkor etib boradi. Chunki muhabbat – bu haq, haqiqat yo‘li. Shoirning qalb ko‘zi bu manzilda faqat ishq mubtalo etgan chin oshiqlarga duch kelgani uchun ham nima yolg‘on-u nima chin, kim sadoqatli-yu kim xiyonatkorligini darrov ilg‘aydi. “Har ne qilsang, oshiq qilg‘il, parvardigor” deb Ollohga o‘zini topshirishda juda katta ma’no bor. Lirik qahramon muhabbat kishisi. U muhabbat – mo‘jizasi bor dunyoning neligini, sir-u sinoatini va u kimlarga taqdir qilish-qilmasligini yaxshi biladi. Aslida sinov tariqasida hadya qilinajak bu ne’matni qadrlamaganlar oxir-oqibat beburd, lafzsiz va beobro‘ bo‘lib ko‘pchilik nazaridan qolishini doim eslatadi. Uning yana bir she’rida shoir o‘z ijodini quyidagicha ta’riflaydi.

Quyoshga boqing – yulduzni ko‘rgaysiz
Yaproqqa qarang – ildizni ko‘rgaysiz,
Mohiyat botinda yashar pinhona
She’rimizni o‘qing – bizni ko‘rgaysiz.

Bu she’r armon va iztirobning, o‘zlikni ifodalashning san’at darajasiga ko‘tarilgan namunasi. U o‘z vujudida yashayotgan ikki odam – inson va shoir haqida gapiryapti. To‘g‘rirog‘i, vujud va ruh haqida. Shoir o‘zi kamtarlik bilan bu asarlarni ko‘pincha «to‘rtlik» deb ataydi, biroq ularning ko‘pi mazmun jihatdan go‘zal ruhli, chuqur falsafiy ma’noli ruboiylarni esga soladi. Shoirning butun she’riyati singari ushbu fikr lirikasi ham o‘ziga xosligi, teranligi, tuyg‘ularning tabiiyligi, hayotiyligi, real voqelikka monandligi bilan ajralib turadi. She’r hazin, mungli ohanglar har qanday oh-vohlar, o‘ldim-kuydimlardan tamomila yiroq. Buni biz shoirning quyidagi misralarida ham ko‘rishimiz mumkin:

Yelkasida zilday og‘ir yuk bilan
Inqillab borarkan yo‘lovchi horg‘in,
Daraxt soyasida to‘xtab daf’atan
Yukin yerga qo‘ydi, bir zum oldi tin.

“Har qanday ijod hosilasi, eng avvalo, o‘zi yaratilgan davr va aks ettirayotgan zamonni, odamlar hayoti va taqdirini qay darajada to‘laqonli tasvirlagani bilan belgilanadi”. Shoir o‘zining ijodiy falsafasini yaratar ekan, qalbidagi tuyg‘ularini bir tekis qog‘ozga tushirganining guvohi bo‘lamiz. Misralar ravon o‘qilishi, insonning ongida va qalbida birday taassurot uyg‘otishi orqali kitobxonni o‘ziga jalb qiladi. Misra tarkibidagi so‘zlarni ifodalash jarayonida shoir “Holdan toydirgandi bu ming yillik yuk” misrasini qo‘llaydi. Real hayotdan farqli ravishda kishining ruhiga o‘zgacha bir manzara kasb etadigan ushbu misrada metaforaning haqiqiy qudratini ko‘rish mumkin. Insonning og‘ir yuk ko‘tarishi qanchalik og‘ir holat ekanligini tasavvur qilish jarayonida uni ming yil ko‘tarishi bu so‘zning badiiy qudratini ta’minlovchi yana bir unsur sanaladi. Yuqoridagi misrada keltirilgan metafora o‘zida til xususiyatidan tashqari adabiy jihatdan tashxis san’atini ham hosil qiladi.

Dimiqqan kunlarning shabrang yodidan
Xotirim osmoni tortgandi xira...
Jannat hurlarining asl zotidan
Yaralgan erka qiz, menga bir qara:

Inson ko‘rish orqali yuz va ko‘zning go‘zalligini idrok qilishi tabiiy. Ammo xayoldagi yor go‘zalligi his qilish orqali namoyon bo‘ladi. Holat his qilishga qarab ketyaptimi, demak, bu hol muhabbatdan darak. Abdunabi Hamro “Jannat hurlarining asl zotidan” birikmasi bilan ma’no ko‘chishi hosil qilgan. Albatta, bu avvaldan chuqur o‘ylangan holat emas, shunchaki, ilhom natijasi o‘laroq qofiyalar ravonligi uchun tanlangan so‘z.

She’r misralarining g‘oyaviy-mazmuniy-badiiy mantiq asosida bir-biriga ulanishi, she’rning turli ko‘rinishlarini aniq bir badiiyatdan turib yoritish, turfa obrazlarning she’riy misralarda ishtirok etishi, lirik qahramonning o‘ylari, sezimlari, jamiyatdagi turli hodisalarga munosabati va boshqa o‘rinlarning she’riyatda aralash uchrashi ko‘chimlarning turli ko‘rinishlarda yuzaga chiqishiga sabab bo‘luvchi omil hisoblanadi. Badiiy adabiyotda, ayniqsa, zamonaviy o‘zbek she’riyatida alohida hodisa sifatida, shoirlarning bir-biridan ilhomlanishi natijasida tafakkur yetakchilik qilayotgan zamonaviy o‘zbek she’riyatida bunday misollar ko‘plab kuzatiladi. So‘zni ideal tarzda ishlatishga qaratilgan harakat natijasida bu ikki bandning o‘zaro munosabati oydinlashib boraveradi.

Alpomish bir kuni aniq qaytadi
Qaytadi Temurbek, Jaloliddin ham,
O‘zbek o‘z so‘zini yana aytadi
O‘sha kunga tayyor bo‘lib tur, olam.

Isroil Madrimovning boks jangidan keyin hayajon bilan yozilgan she’r. Alpomish, Temurbek, Jaloliddin obrazlari butun bir millat uchun qahramonlik namunasi ekanligi barchaga oyday ravshan. Shoir aynan mana shu holatni nazarda tutadi. Isroil Madrimovni shularga qiyoslab shoir yaxshi niyat qiladi. Ko‘rinib turibdiki, Alpomish o‘zbek xalqi uchun qahramonlik ramzidir. Shoir shundan foydalanib, butun bir millat vakili sifatida qahramonning davomchisi bo‘lishni xohlaydi. Ramz bir necha kishida uchraydigan fazilatlarni bir kishi atrofida birlashtiradi. Ya’ni yuzlab insondan umumiy yaxshi sifatlarini oladi va o‘zi gavdalantirayotgan obrazda umumlashtiradi va shu kabi holatlar evaziga adabiyotshunoslikda ramz yuzaga keladi. Ramziy

obraz yillar o‘tgani sari zamon zayliga qarab to‘lishib, mukammallashib boradi. Shuning uchun o‘z ahamiyatini yo‘qotmasdan, yangilanib boraveradi. Abdunabi Hamro esa zamonlardan oshgan obrazni mohiyatan yangilab ishlata boradi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Shoirning she’rlarini ruhiy, ma’noviy, majoziy unsurlariga, ifodasiga ko‘ra men o‘zimcha bir necha guruhga bo‘laman: lirik she’rlar, falsafiy-ruhiy she’rlar, musiqiy she’rlar, zaminiy she’rlar… Abdunabi Hamro she’rlarini ruhan zamindan ajralib, juda yuksakka chiqib yozganday tuyulaveradi, chunki u o‘z hissiyotlariga ham, so‘zlariga ham, tashbeh-u istioralariga ham, qolaversa, sizga ham xayoli qanchalik parvoz qilib bilsa – shuncha yuksakdan nazar tashlayotganday.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdunabi Hamro. “Qishda ochilgan gul”. 2008.
2. Abdunabi Hamro. “Vaqt daryosi”. 2010.
3. Раҳимжонов Н. Асқад Мухтор поэтикаси. 2003. 37-bet.
4. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/rahimjon-rahmat-shoirligimdan-iymanaman-2010

Nilufar BABAJANOVA,
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti
nilufartajimuratovna@gmail.com

MILLIY-MADANIY TAMOYILLARNING TILDA AKS ETISHI

Annotatsiya: milliylik har bir millatga xos bo‘lgan urf-odatlar, an’analar, tarix, madaniyat va turmush tarzida aks etadi. Ushbu maqolada milliy-madaniy tamoyillarning tilga qanday ta’sir qilishi, milliy xarakter va madaniy qadriyatlar til orqali qanday ifodalanishi tahlil qilinadi. Til millatning madaniy merosini ifodalaydigan muhim vosita bo‘lib, u jamiyatdagi ma’naviy qadriyatlar, tarixiy hodisalar, ijtimoiy-psixologik jarayonlar va milliy ongni aks ettiradi. Maqolada milliy tuyg‘u va ona tiliga bo‘lgan munosabatning milliy identifikatsiya jarayonidagi o‘rni ko‘rib chiqilib, tilning milliy madaniyat va qadriyatlarni saqlashdagi roli yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *milliylik, madaniyat, til, milliy xarakter, qadriyatlar, milliy tuyg‘u, ona tili, lingvokulturologiya, milliy identifikatsiya.*

Аннотация: национальная идентичность отражается в обычаях, традициях, истории, культуре и образе жизни, характерных для каждой нации. В данной статье анализируется, как национально-культурные принципы влияют на язык и как национальный характер и культурные ценности выражаются через язык. Язык является важным средством выражения культурного наследия нации, воплощая духовные ценности общества, исторические события, социально-психологические процессы и национальное сознание. В статье рассматривается роль национального чувства и отношения к родному языку в процессе национальной идентификации, а также подчеркивается значение языка в сохранении национальной культуры и ценностей.

Ключевые слова: *национальная идентичность, культура, язык, национальный характер, ценности, национальное чувство, родной язык, лингвокультурология, национальная идентификация.*

Annotation: national identity is reflected in the customs, traditions, history, culture, and lifestyle specific to each nation. This article analyzes how national-cultural principles influence language and how national character and cultural values are expressed through language. Language is a crucial medium that reflects the cultural heritage of a nation, embodying the spiritual values of society, historical events, socio-psychological processes, and national consciousness. The article examines the role of national sentiment and the relationship with the native language in the process of national identification, highlighting the function of language in preserving national culture and values.

Key words: *national identity, culture, language, national character, values, national sentiment, native language, linguoculturology, national identification.*

Milliylik muayyan millatga xos bo‘lgan xususiyatlar majmui bo‘lib, u millat tarixi, urf-odat va an’analarida, madaniyati va turmush tarzida o‘z ifodasini topadi. Har qanday xalq yoki millat tafakkuri, turmush tarzi va ma’naviy qarashlari o‘z-o‘zidan bo‘sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida

aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo‘lishi hammaga yaxshi ma’lum. [1, 7] Milliy mansublik esa shaxsning jamiyat bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy, hududiy-maishiy, siyosiy, til, ruhiy va ijtimoiy-psixologik jihatlarni o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali aloqasini ifodalaydi. Milliy xususiyatlar boshqa xalqlar bilan bo‘lgan munosabatda millatning umumiy qadriyatlar tizimi va o‘ziga xos jihatlari orqali namoyon bo‘ladi. Boshqa millat vakilini yaxshi tushunish uchun nafaqat uning tilini, balki milliy qadriyatlar tizimini va dunyoqarashini o‘rganish zarur.

Yetuk mutafakkirlardan biri N.A. Berdyayevning fikricha, milliylik – inson hayotining ajralmas va qimmatli qismi, usiz insoniyat mavjud bo‘la olmaydi. Har bir inson milliy individual shaxs sifatida insoniyat tarkibiga kiradi va bu jarayonda u millatning bir qismi sifatida ishtirok etadi. Berdyayev milliylikni murakkab, tarixiy va mistik hodisa deb ta’riflab, uni irq, til, hudud yoki din bilan aniqlash mumkin emas, deydi. [2, 6]

I.S. Kon o‘zining “Milliy xarakter – afsonami yoki haqiqat?” nomli asarida milliy xarakterning mohiyatini aniqlash zamonaviy jamiyatshunoslikning eng muhim vazifalaridan biri ekanini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, milliylik nafaqat madaniyat, balki ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni ham o‘zida aks ettiradi. Masalan, bir millatning ikkinchisidan ijtimoiy jihatdan ustunligini yoki urf-odatlarining afzalliklarini noto‘g‘ri talqin qilish ilmiy asosga ega bo‘lmagan muammolarni yuzaga keltiradi. Rivojlangan mamlakatlarda milliy xarakterga oid ikki qarama-qarshi nuqtayi nazar mavjud: birinchi guruh milliy xarakterni rad etib, barcha millatlar psixologik jihatdan bir xil ekanini aytadi, ikkinchi guruh esa millatlar o‘rtasida keskin farqlar borligini va milliy xarakter urf-odatlar bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Milliy xarakterni alohida shaxslarda o‘rganish qiyin bo‘lsa-da, millatni tashkil etuvchi shaxslarning umumiy badiiy ijodi va adabiyoti bu xarakterni shakllantiradi. Shu bilan birga, milliy xarakterni anglash uchun tarix va jamiyatning tuzilishini chuqur o‘rganish zarur. Har bir millat o‘ziga xos madaniy va axloqiy jihatlari bilan boshqalardan farq qiladi. Masalan, germaniyaliklar tartib-intizomni qadrlasa, ispanlar uchun bu unchalik xarakterli bo‘lmasligi mumkin. Bunday xususiyatlar millatlarning o‘zaro muomalalarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi, masalan, shimoliy amerikaliklar bir-birlariga ismlari bilan murojaat qilishadi va bu do‘stlik yoki yaqinlikni bildirmaydi. O‘zbek millatida esa yoshi katta insonga nisbatan ismiga “opa” yoki “aka” qo‘shib aytiladi va bu qarindoshlik aloqalarini bildirish bilan birga begonalarga murojaat qilganda yoshi kattalarga nisbatan hurmatni anglatadi.

Har qanday murakkab tizimning xususiyatlari uning barcha strukturaviy komponentlarining alohida va umumiy xususiyatlaridan farq qiladi. Shuning uchun millatning asosiy xususiyatlarini o‘rganish uchun uni butun tizim sifatida ko‘rib chiqish zarur. Milliy xususiyatlarni belgilashga qaratilgan P.A. Sorokinning sa’y - harakatlari e’tiborga loyiq. U millatni “milliy birlikni va mavjudligini kamida qisman anglaydigan, ko‘p tomonlama (ko‘p funksiyali) bog‘lanishlarga ega bo‘lgan ijtimoiy-ma’naviy-gumanitar guruh” deb ta’riflaydi. Ushbu guruh bitta davlat fuqarolari bo‘lgan shaxslardan tashkil topadi, umumiy yoki o‘xshash til va umumiy madaniy qadriyatlarga ega bo‘ladi. Bu qadriyatlar ularning ajdodlarining tarixi natijasidir va ular umumiy hududda yashaydilar” [7, 21].

Milliy tuyg‘u millatning ma’naviy-psixologik qiyofasini belgilovchi omillar qatorida hisobga olinadi. Ona tiliga bo‘lgan munosabat milliy tuyg‘uning eng yorqin ifodasidir. Milliy tuyg‘u tug‘ma emas, balki tarixiy kategoriya bo‘lib, u milliy manfaatlar va ehtiyojlar asosida shakllanadi va o‘zining kuchi va intensivligi bilan millatdan millatga farq qiladi. Shu bilan birga, milliy tuyg‘u moddiy ehtiyojlar bilan bog‘liq murakkabliklar ta’sirida ham o‘zgarishi mumkin.

Milliy-madaniy tamoyillar millatning ma’naviy, axloqiy va estetik qadriyatlarini ifodalaydi va adabiyot orqali keng jamoatchilikka yetkaziladi. Adabiyot xalqning madaniy merosini aks ettiradi va milliylikning saqlanishiga xizmat qiladi. Diniy, falsafiy, madaniy va boshqa ta’limotlar, adabiyot va san’at orqali xalqning hayot mazmuni va ahamiyati haqidagi g‘oyalari ularning axloqiga, jamiyat va shaxsning rivojlanish yo‘lini tanlashiga ta’sir qiladi. Ma’lum g‘oyalar, fikrlash shakllari millat bilan bog‘liq paydo bo‘lib, til bu g‘oya va uslublarni qayd etib, har bir shaxsga yetkazadi va umumiy namunaviy qoidalarga amal qilishni talab qiladi.

Millat barcha sifatlari bilan jamiyat muhitining muhim komponentlaridan biri bo‘lib, unda shaxs shakllanadi va rivojlanadi. Shaxs jamiyatning barcha ijtimoiy ahamiyatga ega munosabatlar va qadriyatlar tizimini qamrab oladi va jamiyat faoliyatining jonli jarayonida qatnashadi. Milliy shaxsiyatni qat’iy metodologik yondashuv, o‘ziga xos va mos ravishda tavsiflash orqali tushunish mumkin. Barcha millatlarni o‘rganish uchun umumiy va yagona yondashuv yoki metod mavjud emas. Bir millatning hayotiy qadriyatlari bo‘lgan tushunchalar boshqa millatga xos bo‘lmasligi mumkin.

Til – bu inson madaniyatining sathida yotgan narsa, shuning uchun 19-asrdan boshlab (J. Grimm, R. Raek, V. Gumboldt, A.A. Potebnya) va hozirgi

kungacha til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘lanish masalasi tilshunoslikda markaziy mavzu bo‘lib kelmoqda. Bu muammoni hal qilishning birinchi urinishlari V. Gumboldtning ishlarida aks etgan bo‘lib, uning asosiy konsepsiyasi quyidagicha: 1) moddiy va ma’naviy madaniyat til orqali ifodalanadi; 2) har qanday madaniyat milliy bo‘lib, uning milliy xarakteri til orqali dunyoni o‘ziga xos ko‘rish shakli bilan ifodalanadi; til har bir millat uchun ichki o‘ziga xos shaklga ega; 3) tilning ichki shakli “milliy ruhning” madaniyatini ifodalaydi; 4) til inson va uning atrofidagi dunyo o‘rtasidagi vositachi bog‘lovchi hisoblanadi.

V. Gumboldtning konsepsiyasi A.A. Potebnya, S.H. Balli, Zh. Vandries, I.A. Boduen de Kurtene, R.O. Jakobson va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o‘ziga xos talqin qilingan.

L.E. Yelmslev til va haqiqat strukturasining o‘xshashligi haqida fikr bildirib, u til tuzilmasini haqiqat tuzilmasiga tenglashtirish yoki uning deformatsiyalangan aksini olish mumkinligini ta’kidlagan [3, 182]

E.F. Tarasov til madaniyatga kiritilganini ta’kidlaydi, chunki “Belgi tanasi (ma’noli) madaniy obyekt hisoblanadi, uning shaklida insonning til va kommunikativ qobiliyati konkretlashtirilgan, belgining ma’nosi ham inson faoliyatida paydo bo‘ladigan madaniy hosiladir. Shuningdek, madaniyat tilga kiritilgan, chunki u butun madaniyat matnida shakllangan” [8, 34] Shuningdek, til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni juda ehtiyotkorlik bilan o‘rganish zarur, chunki bu ikkita alohida semiotik tizimdir. Aytilishi kerakki, ular semiotik tizimlar bo‘lishiga qaramay, ko‘plab umumiy jihatlarga ega: 1) madaniyat va til – bu insonning dunyoqarashini aks ettiruvchi yaratilish shakllari; 2) madaniyat va til o‘zaro dialogda mavjud; 3) madaniyat va til subyekti – doimo shaxs yoki jamiyat, shaxsiyat yoki jamoatchilik bo‘ladi; 4) normativlik – til va madaniyatning umumiy xususiyati; 5) tarixchilik – madaniyat va tilning asosiy xususiyatlaridan biri; 6) til va madaniyatga “dinamika - statika” antinomiyasi xosdir.

Ong va hayotiy faoliyatning kollegialligi. Kollegiallik - zamonaviy tinchlikparvarlik aspektlaridan biri bo‘lib, biz uni shaxs va jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi sharoitida ko‘rib chiqamiz. Kollegiallikning mohiyatini aks ettiradigan izlanishlarda g‘oyalar faqat odamlarning yaqin birligida erishilgan tinchlik va muhabbat sintezidan iborat.Xususan, V.V.Zenkovskiy kollegiallikni ruhiy birlikdagi ma’lum bir ijtimoiy birlik sifatida ochib beradi. Kollegiallik, uning fikricha, odamlarni jamoaviy ongining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan yangi voqelik, jamoaviy ma’naviy tamoyilning paydo bo‘lishidir. Kollegiallikning tabiiy shakli sifatida jamoa, oila, sheriklik, mehnat jamoalari va boshqa birlashmalar beriladi. Masalan, oila – muhabbat va bir-birini tushunish hukmronlik qiladigan kollegializmning tabiiy shaklidir. Xuddi shunday oilalar ma’naviy kuch, o‘ziga xos voqelik shaklida jamiyatning paydo bo‘lishi bilan belgilanadi, bu odamni boshqalardan ajratib bo‘lmaydigan, ammo aksincha, u yoki bu ma’noda ularga bog‘liq bo‘lgan ma’nolarni ochib beradi.

Kollegializmning vujudga kelishi, O. Solnsevaning fikriga ko‘ra, shaxslarni yangi ijtimoiy birlashishga qo‘shilish muammosi faqat muhabbat va o‘zaro tushunishda bo‘ladi. Shuning uchun oila kollegiallikning tabiiy shakldagi ko‘rinishidir.

Axloqiy qadriyatlar - adolat va sheriklik munosabatlariga asoslangan haqiqiy jamoa, ma’lum ma’noda yaxshi oila vazifasini bajaradi, chunki u har bir kishini qadrlaydi, har bir kishining o‘ziga xosligini va uning shaxsiyatini hisobga oladi. Bola shaxs sifatida yaxlitning bir qismidir, u asta- sekin rivojlanib, ijtimoiy axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtiradi, kattalarning yo‘naltirilgan rahbarligi ostida do‘stlik, o‘zaro yordam va o‘zaro tushunish tamoyillariga asoslangan jamoaga, bolalar uyushmasiga aylanishi mumkin bo‘lgan jamoalarga qo‘shiladi.

Ijodkorlik. V. A. Suxomlinskiy ijodkorlik biror yangi narsa yaratadigan kishining qandaydir faoliyatidir, deb aniqlagan. Bunday qarash ijodkorlikning shaxsga xos xususiyat sifatida tavsiflaydi, u shaxsdan tashqarida bo‘lishi mumkin emasligini ko‘rsatadi. Shaxsning o‘ziga xosligi, originalligi ijodkorlikda namoyon bo‘ladi, uning bilish va rivojlanishiga yo‘l ochadi. Muammo, fikrimizcha, tushunarsiz tabiatda biron-bir ijodiy moyillik mavjudligida emas, balki unda nima yotganligini aniqlash uchun qanday shartlar mavjudligidadir. Agar individuallik insonda ijodiy kuch sifatida mavjud bo‘lsa, o‘ziga to‘liq ishonchni sezsa, unda haqiqatan ham ijodning yashirin kuchi mudroq bo‘lgani holda ruhiy rivojlanishda faol harakatlantiruvchi vosita bo‘lmasligi mumkin. Darhaqiqat, ko‘pincha shaxslarning ijodiy kuchlarini hayotga jalb qilishda qiyinchiliklarga duch kelinadi, chunki ular o‘zlarini u yoki bu sababga ko‘ra namoyish etmaydilar, bu ularda hech qanday qiziqishning yo‘qligi natijasidir. Amaliyotda shunday holatlar mavjudki, kutilmagan bolalar tomonidan kelajakda olamshumul kashfiyotlar qilinganligi haqidagi dalillar mavjud.

Oddiy odamning rivojlangan shaxsga aylanish istiqbollari hech kimga sir emas. Aslida har bir inson hayotdagi asl original hodisadir, chunki u takrorlanmas yo‘li orqali o‘z ma’naviy va axloqiy tajribasini tushunadi va uni xuddi shu tarzda o‘zgartiradi.Bir bola yaxshi chizadi, boshqasi she’r o‘qiydi, uchinchisi bolalar bilan do‘stona o‘yin tashkil qiladi, kimdir o‘z ishtiyoqi, tashkilotchilik qobiliyatini boshqalarga yuqtiradi.Har bir shaxs o‘zining individual xususiyatlarini aniqlagan holda faoliyat, munosabatlardagi o‘ziga xosligini ochib beradi. Pedagog uchun shaxsni anglash nostandart vaziyatlarni tashkil qilishda va unda ta’lim oluvchini diqqat bilan kuzatish orqali ochiladi.Biror kishining umumiy ishga shaxsiy ijodiy hissasini qo‘shishi uning ijtimoiy rivojlanishdagi holatini o‘zgartiradi, ayni shaxsning rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘rinova F.O‘.Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda nutq madaniyatini rivojlantirish pedagogik asoslari. Avtoref.dis... ped. fan. nom. – T.: O‘zPFITI, 2007.22- b.
2. Qosimova Z. Ta’lim texnologiyalari.Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. –T.: Tafakkur qanoti, 2014.208-b
3. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
4.Дахин А.Н. Педагогическое моделирование и компетентность участников образованиуа // Школьные технологии. – Москва: 2007.№ 6.64-73-с.

Maftuna RO‘ZMETOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Xorijiy tillarni o‘qitish” kafedrasi o‘qituvchisi

TIL MATERIALINI TANLASHDA UZVIYLIKNI TA’MINLASH

Annotatsiya: ushbu maqolada chet tili o‘qitishda yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar, amaliy mashg’ulotni davomida nutq faoliyati turlarini tashkil etishda tanlangan til materialining ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *takomillashtirish, nutq, til materiali, malaka, talaba*

Annotation: in this article is discussed about the difficulties encountered in teaching a foreign language, the importance of the selected language material in organizing types of speech activities during practical training.

Key words: *improvement, speech, language material, skills, student*

Аннотация: в статье обсуждается о трудностях, возникающих при обучении иностранному языку, о значении выбранного языкового материала в организации видов речевой деятельности на практическом обучении.

Ключевые слова: *совершенствование, речь, языковой материал, умения, студент*

Kirish. Yurtimizda ilm-fan, zamonaviy va uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirishda ingliz tilini chuqur o‘qitishga katta e’tibor qaratilib bu borada bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da [1] malakali kadrlarni tarbiyalash alohida e’tirof etilib, intellektual rivojlangan avlodni shakllantirish dolzarb vazifa ekanligi belgilangan. Bunda xalqaro standartlar darajasiga mos mutaxassislarni tayyorlashda chet tillarini o‘qitishni tashkil qilish, talabalarda lingvistik va sotsiolingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishning me’yoriy asoslari va metodikasini takomillashtirish kabi muhim vazifalar belgilangan. Jahon hamjamiyati ingliz tilini asosiy va ikkinchi til sifatida o‘qitishda bir qator yangi fikrlar, nazariy va amaliy loyihalar ustida izlanishlar olib bormoqdalar. Xorijiy tillar integrallashgan til ko‘nikmalari, og‘zaki nutq amaliyoti (tinglash va gapirish), yozma nutq amaliyoti, kommunikativ grammatika, kommunikativ leksika (so‘z boyligini oshirish), diskurs (matn) tahlili, o‘rganilayotgan ingliz tili xalqaro muloqot tili sifatida, mustaqil ta’lim ko‘nikmalari, sohaning dolzarb muammolari hisoblanadi.

Asosiy qism. Ko‘pgina adabiyotlar, ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, muloqotni tashkil etish muammolari chet tillarni o‘qitish sohasida doimiy qiziqish uyg‘otadi. Eng avvalo yuzaga kelayotgan birinchi to‘siq bu talabalarni turlicha o‘zlashtirish imkoniyati, ma’lumotni bir vaqtning o‘zida turli darajada o‘zlashtirilishi va o‘rganuvchi talabalarning turli xarakter va temperament (jismoniy va psixologik holat)ga ega ekanligini ko‘rsatilgan. Ta’lim sohasining xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishda paydo bo‘layotgan yangi termin, tushunchalarni anglash, ko‘nikmalarning shakllantirilish jarayoni bir muncha murakkab bosqichdir. Ilmiy-metodik jihatdan asosiy muammolardan biri tilning o‘ziga xos xarakterini aks ettiradigan leksik, grammatik birliklarning xorijiy til ta’limi davomida o‘z ona tilisi bilan solishtirib o‘rganish holatida tajribalarning kamligidir. Berilgan mavzuni ba’zi holatlarda talabalar o‘zlashtirish jarayonidan oldin tub mohiyatini anglashda ham ko‘p qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Qayd etilgan vaziyatlarga yechim topishda qarama-qarshiliklarni bartaraf etishga yordam berishda, nutq qobiliyatini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra o‘qitishda natija muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun yuqori salohiyat bo‘lishi yoki shakllantirilishi lozimligini unutmaslik shart. Ayni vaqtda til o‘rganish va mavjud til ko‘nikmalarini takomillashtirishda sezilarli qiyinchilik hisoblangan nutq (gapirish)ni paydo qilish, mavjud bo‘lgan malakani yanada mukamallashtirish zarurati ham ko‘zga tashlanmoqda. Prof. Sh.Rahmatullayev alohida e’tibor qaratganidek, “ Nutq – miyada, til

xotirasida mavjud hodisalardan va ularni ishlatish qoidalaridan foydalanish jarayoni, shu jarayonning hosilasi, nutq jarayonining hosilasi tekst – matn deb yuritiladi [4]. O‘quv jarayonida nutq faoliyati turlari va til materiali uzviy tarzda o‘rgatiladi. Har bir mashg‘ulotda talaba tinglab tushunadi, gapiradi, o‘qiydi va yozadi. Jarayonda avval o‘rganilgan yoki aynan mashg‘ulotda o‘zlashtirilgan til birliklari qatnashadi. Nutq faoliyati turlari jarayonga qarab yoki ta’lim bosqichiga qarab turlichadir. Ta’lim maqsadlaridan kelib chiqqan holda nutq faoliyati turlariga moslab til materiali tanlanadi, taqsimlanadi, tasnif qilinadi, taqdim etiladi, ya’ni o‘zlashtirishga tayyorlanadi. Masalan; O‘qish: (tanishib chiqish, sinchiklab qarab chiqish), yozuv, tinglab tushunish va gapirish; talaba o‘rganayotgan sohasiga oid adabiyotlar bilan tanishib chiqishi va o‘zi uchun qiziqarli va kerakli bo‘lgan axborotni tushunishi, publitsistik, ilmiy-ommabop, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarni o‘qishi va kerakli axborotni olishi lozim. Mashg‘ulotlarda yuqorida aytilgan malakalarni shakllantirish va o‘stirish juda murakkab bo‘lganligi uchun ularni mustaqil ish jarayonida sinchiklab, ko‘z yugurtirib qarab chiqib o‘qish turlari orqali tashkil qilinadi. Ushbu o‘qish turlarini nazorat qilish-matnni butunlay tarjima qilish yoki uning tanlab olingan qismlarini tarjima qilish bilan amalga oshiriladi.

Tinglab tushunish: hajmi turlicha bo‘lgan audio va video matnlarni tinglab tushunish, savollarga javob berish, gapirib berish, annotatsiya yoza olishni o‘rgatadi.

Gapirish: talabalarning dialogik va monologik nutqlari bo‘yicha mustaqil ishlari auditoriyada o‘rgatilgan matnlar, o‘quv materiallari asosida tashkil qilinadi. Gapirish bo‘yicha mustaqil ish sifatida mavzu asosida ma’lumot tayyorlash, matn mazmunini gapirib berish, o‘rganilgan leksik materiallar asosida hikoyalar tuzish, berilgan muammoli masala va vaziyatlarni muhokama qilish kabi topshiriqlar berish mumkin. Gapirish malakasini rivojlantirib borish uchun multimedia dasturlarini va texnologiyalarini qo‘llashga asosiy e’tibor qaratiladi.

Yozuv: yozuv bo‘yicha mustaqil ish o‘z ichiga o‘rganilayotgan tilda fikrni bayon qila olish ishlarini oladi. Bunda mustaqil ish mazmuniga quyidagilar kiradi: annotatsiya, referat, rezyumelar tuzish, og‘zaki nutq hosil qilish uchun reja yoki tezis tuzish, turli xatlar, tabriknoma, takliflar, ish yuzasidan xatlar tuzish, o‘qishga va ishga qabul yuzasidan arizalar yozish, sohaga oid turli hujjatlarni to‘ldirish, bayon, insho, esselar yoza olish; kasbi bo‘yicha ish yuritishni (yozuvlarini) olib borish.

Chet til materialini tanlash, taqsimlash, metodik tasniflash va taqdim etish dasturni tuzuvchi va o‘qituvchiga bevosita bog‘liq. Til leksika, grammatika, talaffuz birliklarini yaxlit birlashtiruvchi ijtimoiy hodisa tarzida nutq faoliyatining “qurilish” materiali hisoblanadi. Leksik, grammatik va talaffuz birligi, gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuvda o‘rgatish, o‘rganish birliklari deb qaraladi [2]. Bunda uning funksional, semantik va formal jihatlarini o‘zlashtirish uchun maxsus mashqlar bajarishni talab qiladi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, aytish mumkinki, Oliy ta’lim muassasalarida o‘qitishning turli strategiyalar asosida shakllantirish o‘z ahamiyatiga ega. Shu bilan bir qatorda, muqobil metodologik yechimlar, umuman, o‘qitishning eski usullaridan voz kechish, yangi innovatsion metodlar orqali samarali natijalarga erishishga imkon yaratadi. Oliy o‘quv yurtlarida xorijiy tili ta’limini tashkil etishning markaziy muammolari ularga mos keladigan ta’lim mazmuni belgilash masalasidir. Maqsad obyektiv ehtiyojlar bilan belgilanadi, ijtimoiy tartibini ifodalaydi, ta’limning mazmunini va uning tashkil etilishini ta’minlaydi. Ushbu yo‘nalishdagi kommunikativ jihatlarni kuchaytirish filologik yoki nofilologik o‘quv yurtlarida o‘quv maqsadlari va o‘qitish mazmunini o‘zgartirishda aks etadi. Ayni paytda, talabaning chet tilini o‘rganishini shakllantirish bilan birga boshqa turdagi shaxsiy va kasbiy rivojlanish kompetensiyalariga e’tibor qaratish lozim. Bir vaqtning o‘zida talabalarning xorijiy til ta’limi bo‘yicha kommunikativ qobiliyatini, shaxsiy kompetentliklari bilan uzviylashtirish zaruriydir. Xorijiy tilni interfaol innovatsion metodlar yordamida o‘rganish, nutq jarayonini takomillashtirishga, talabalarni aloqa qobiliyatlarini yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni www.lex.uz

2. Jalolov J.J. “Chet tili o‘qitish metodikasi” Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. –T.: “O‘qituvchi“, 2012.10-b.

3. Qarshiyeva T. Tillarga ixtisoslashmagan oliy ta’lim muassasalarida chet tili o‘qitishning maqsadi.Иност.фил: язик, литература, образование. 2019. №2 (71).

4. Rahmatullaev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. –Toshkent: Universitet, 2002.

Munisxon MAXKAMOVA,
"International school of science, finance and technology" instituti ingliz tili fani o'qituvchisi
munisamaxkamova131@gmail.com

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA AXLOQIY BAHO KATEGORIYASINING QIYOSIY CHOG'ISHTIRMA XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida axloqiy baho kategoriyasining qiyosiy chog'ishtirma xususiyatlarini tahlil qilib, ularning leksik-semantik xususiyatlari, grammatik ifodalanish xususiyatlari va madaniy-ijtimoiy omillar ta'sirini o'rganadi. Shuningdek, ushbu xususiyatlar til o'rganish va tarjimada qanday ahamiyatga ega ekanligi ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *axloqiy baho, lingvistik kategoriya, tilni chog'ishtirish, ingliz tili, o'zbek tili, leksik-semantik xususiyatlar, madaniy omillar, ijtimoiy omillar, til o'rganish, tarjima.*

Annotation: this article analyzes the comparative features of the category of moral assessment in the English and Uzbek languages, studies their lexical-semantic features, features of grammatical expression, and the influence of cultural and social factors. It also examines how these features are important in language learning and translation.

Key words: *moral evaluation, linguistic category, language fusion, English language, Uzbek language, lexical-semantic features, cultural factors, social factors, language learning, translation.*

Аннотация: в данной статье анализируются сравнительные особенности категории нравственной оценки в английском и узбекском языках, изучаются их лексико-семантические особенности, особенности грамматического выражения, а также влияние культурных и социальных факторов. В нем также рассматривается, насколько важны эти функции для изучения языка и перевода.

Ключевые слова: *моральная оценка, языковая категория, языковой синтез, английский язык, узбекский язык, лексико-семантические особенности, культурные факторы, социальные факторы, изучение языка, перевод.*

Tillar o'rtasidagi farqlar til o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, axloqiy baho kategoriyasi turli madaniyatlarda mavjud bo'lgan qadriyatlar va me'yorlarni aks ettiradi, shuning uchun uning xususiyatlarini chuqurroq o'rganish zarur. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida axloqiy baho kategoriyasining qiyosiy tahliliga bag'ishlangan.

Baho – bu har bir insonning shaxsiy munosabatini ifodalovchi individual shakldir.Biror narsa yoki hodisaga nisbatan bir xil fikr bildirish esa faqat hamfikr yoki hamdard odamlar o'rtasida sodir bo'ladi.Har bir so'zlovchi bahoni o'ziga xos nom bilan atashga haqli. Shuning uchun, sifatlarda baho munosabatining ifodalanishini o'rganish qiziqarli, murakkab va dolzarb masala hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, bahoni ifodalovchi affiksal morfemalar sifat so'z yasovchilari bilan birga ko'rilishi kerak, chunki baho munosabati yangi hosil qilingan belgi, xususiyat yoki holatni ifodalovchi leksemalarda namoyon bo'ladi. Baholash esa obyektning ijobiy yoki salbiy ma'noda ochiladigan ta'rifi sifatida tushuniladi.

O'zbek tilshunosligida tilning turli sathlarida baho ifodalovchi vositalarni aniqlashga bag'ishlangan. A.G'ulomov, A.Hojiev, R.Qo'ng'urov, R.Rasulov kabilarning ishlari mavjud bo'lsa ham, lekin ularda aksiologik baho alohida lingvistik kategoriya sifatida yaxlit holda monografik tadqiqot obyekti bo'lgan emas. Shuni ham aytish kerakki, ushbu muammo yuzasidan dastlabki qadamlar qo'yildi lekin ularda aksiologik baho haqidagi umumiy fikrlar berilgan bo'lib, uning har bir sathda namoyon bo'lishi keng o'rganilmagan.

Prof. N.Mahmudov aytganidek, "til va madaniyat deganda, odatda, til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui (madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati) demakdir.

So'zlashtirish (Lexicalization): ingliz tili: ingliz tilida axloqiy baho turli so'zlar va iboralar orqali ifodalanadi. Masalan, "good", "bad", "right", "wrong", "honorable", "dishonorable", "virtuous", "wicked" kabi so'zlar mavjud. Bu so'zlar ko'pincha ikki tomonlama ma'noga ega va kontekstga qarab turli ma'nolarni anglatadi. Masalan, "good" so'zi nafaqat "yaxshi" balki "to'g'ri" ma'nolarini ham anglatadi. "Bad" so'zi ham "yomon" va "noto'g'ri" ma'nolarini ifodalashi mumkin.

O‘zbek tili: o‘zbek tilida axloqiy baho ko‘pincha “yaxshi”, “yomon”, “to‘g‘ri”, “noto‘g‘ri” kabi so‘zlar bilan ifodalanadi. Bu so‘zlar ingliz tiliga qaraganda kamroq ikki tomonlama ma’noga ega va ularning ma’nolari ko‘pincha aniqroq.

Grammatik ifodalanish

Ingliz tili: ingliz tilida axloqiy baho ko‘pincha sifatlar, fe’llar va ravishlardan foydalanib ifodalanadi. Masalan, “He is a kind man” (U mehribon odam), “She acted bravely” (U jasorat bilan harakat qildi) kabi jumlalarda axloqiy baho sifat, fe’l va adverb orqali ifodalanadi. Ingliz tilida axloqiy baho kategoriyasini grammatik jihatdan ifodalashning bir usuli sifatlarni qisqartirib ishlatishdir.Masalan, “He’s a good boy” (U yaxshi bola) jumlasida “good” so‘zi sifat sifatida ishlatilgan va “boy” so‘zi bilan birga axloqiy baho ifodalangan.

O‘zbek tili: o‘zbek tilida esa axloqiy baho ko‘pincha so‘zlarning qo‘shimchalarini qo‘shish orqali ifodalanadi. Masalan, “yaxshilik”, “yomonlik”, “to‘g‘rilik”, “noto‘g‘rilik” kabi so‘zlar axloqiy baho kategoriyasini ifodalaydi. Shuningdek, o‘zbek tilida axloqiy baho kategoriyasini ifodalash uchun ko‘pincha maqol va iboralar ishlatiladi. Masalan, “Yaxshilik qil, yomonlik ko‘r” maqoli yaxshilik qilishni rag‘batlantiradi. O‘zbek tilida “yaxshi” va “yomon” so‘zlari ko‘pincha ish va harakatlarga qo‘llaniladi. Masalan, “Yaxshi ish qildi” yoki “Yomon harakat qildi” kabi jumlalar.

Madaniy va ijtimoiy omillar

Ingliz tili: ingliz tilida axloqiy baho individualizmga asoslangan. “Good” va “bad” kabi so‘zlar ko‘pincha shaxsning xulq-atvoriga, qobiliyatiga va muvaffaqiyatiga bog‘liq holda ishlatiladi. Ingliz tilida axloqiy baho individual ma’noga ega bo‘lib, ko‘pincha shaxsning o‘z xulq-atvorini va qarorlarini baholashda ishlatiladi.

O‘zbek tili: o‘zbek tilida axloqiy baho jamiyatning manfaatlari va me’yorlariga ko‘proq bog‘liq. “Halol” so‘zi rostgo‘ylikni, vijdonlilikni va ishonchlilikni anglatadi, bu jamiyat uchun muhim qadriyatlardir. O‘zbek tilida axloqiy baho ko‘pincha jamiyat me’yorlariga mos kelish yoki kelmaslikka bog‘liq holda ishlatiladi.

Axloqiy baho kategoriyasini chuqur tushunish til o‘rganishda muhimdir. Bu kategoriyani tushunish til o‘rganuvchilarga tilning madaniy va ijtimoiy tomonlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Axloqiy baho kategoriyasini o‘rganish til o‘rganuvchilarga nutqda to‘g‘ri so‘zlarni tanlashga va madaniy nozikliklarni hisobga olishga imkon beradi. Til o‘rganuvchilar axloqiy baho kategoriyasini tushunish orqali tilni tezroq va samarali o‘rganishi mumkin. Shuningdek, bu kategoriyani bilish tarjima jarayonida ham muhimdir.

Tarjimada axloqiy baho kategoriyasini to‘g‘ri qo‘llash muhimdir. Chunki til o‘rtasidagi farqlar tufayli axloqiy baho kategoriyasini tushunishda xatoliklar yuz berishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi “good” so‘zini o‘zbek tiliga “yaxshi” deb tarjima qilish har doim to‘g‘ri emas, chunki ba’zi hollarda uning ma’nosi “to‘g‘ri” deb tarjima qilinishi mumkin. Tarjimada axloqiy baho kategoriyasini tushunish va to‘g‘ri qo‘llash tarjima sifatini oshirishga va madaniy nozikliklarni saqlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ingliz va o‘zbek tillarida axloqiy baho kategoriyasi o‘xshashliklarga va farqlarga ega. Ushbu farqlar madaniy va ijtimoiy omillar, leksik-semantik xususiyatlar va grammatik ifodalanish usullaridan kelib chiqadi. Til o‘rganish va tarjimada bu kategoriyani chuqur tahlil qilish til o‘rganuvchilarga tilning madaniy va ijtimoiy tomonlarini yaxshiroq tushunishga va to‘g‘ri tarjimalarni yaratishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jummayeva, Maftuna INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TA’LIM SOHASIGA OID TERMINLARNING CHOG‘ISHTIRMA TAHLILI.International scientific journal of Biruni. 2024. №1.

2. Turaboyeva, S. Z., & qizi Tashpulatova, D. X.O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI AXLOQIY QADRIYATLAR MAZMUNINI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI. Academic research in modern science 1(1).2022. 143-147-c. 3. Turaboyeva, S. (2022). LINGUOCULTURAL PROBLEMS IN THE UZBEK LANGUAGE. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1). 2022.

4. G‘opporova, N., & Ubaydullayeva, D. (2022). A COMMUNICATIVE PRAGMATIC STUDY OF MEANS OF EXPRESSING DIRECTIVE SPEECH ACTS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Eurasian Journal of Academic Research, 2(12), 2022. 825-827.

5. Ubaydullayeva, D., & Raxmonqulova, M. TILSHUNOSLIKDA IJTIMOIY YO‘NALISHNING TARAQQIYOTI. Science and innovation.1(B6). 2020. 869-873.



Saida YULDASHEVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

PEDAGOGIKA FANINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK METOD VA TEXNOLOGIYALAR AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada pedagogika fanini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar va metodlarning o‘rni keltirilgan.Shuningdek pedagogik texnologiya bilan mashg‘ulotlar o‘tish, dars jarayonida zamonaviy texnik vositalarni qo‘llash masalan, kompyuter, video kompyuterli multimedia,raqamli o‘qitish platformalari,simulyatsiya va virtual haqiqat, sun’iy intellekt kabilar bilan zamonaviy metodlardan aktiv o‘qitish, differensial o‘qitish, kollaborativ o‘qitishlardan foydalanish keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagogika fani, ta’lim tamoyillari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, zamonaviy metodlar.*

Аннотация: в данной статье представлена роль современных технологий и методов в развитии педагогики, а также обучение педагогическим технологиям с использованием в ходе урока современных технических средств, например: компьютера, видеокомпьютерных мультимедиа, цифровых обучающих платформ, симуляций. и использование современных методов активного обучения, дифференцированного обучения, совместного обучения с виртуальной реальностью, искусственного интеллекта и т. д.

Ключевые слова: *педагогическая наука, принципы образования, современные педагогические технологии, современные методы.*

Annotation: this article presents the role of modern technologies and methods in the development of pedagogy. Also, training with pedagogical technology, using modern technical tools in the course of the lesson, for example: computer, video computer multimedia, digital teaching platforms, simulation and the use of modern methods of active learning, differential learning, collaborative learning with virtual reality, artificial intelligence, etc.

Key words: *science of pedagogy, principles of education, modern pedagogical technologies, modern methods.*

Ma’lumki har qanday texnologiya ta’limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta’lim tamoyillariga asoslanadi va ta’lim oluvchi shaxsni tarbiyalash, unda ma’lum mehnat va muayyan yo‘nalishlarda kasbiy ko‘nikmalarni hosil qilishga yo‘naltiriladi.Ta’lim jarayonining faol subyektlari o‘qituvchi va o‘quvchilar bo‘lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlari muayyan mavzu (yoki fanlar asoslari) bo‘yicha kam kuch va vaqt sarflangan holda nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish imkonini yaratadi. O‘qituvchining faol, samarali faoliyat ko‘rsatishiga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda, ta’lim jarayonini faollashtirish va jadallashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalari ta’lim oluvchilarga qaratiladi, shuningdek, ularning shaxsiy va o‘qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o‘quv materiali o‘zlashtirishga sharoit yaratish bilan bir qatorda, ta’lim-tarbiyasi butun mashg‘ulot davomida o‘quvchilarning faolligi va qiziquvchanligini muntazam ravishda rivojlantirib borish maqsadini ko‘zda tutadi, o‘quv omillarini yaratishga asoslangan pedagogik texnologiya talablarini o‘quv yoki ishlab chiqarish faoliyatiga tezkor jalb qilish imkonini beradi. Aks holda, zaif, yetarli darajada tushunarli bo‘lmagan yoki aniq natijani ko‘zlanmagan topshiriqlar mashg‘ulotning samarasiz yakunlanishiga olib kelishi mumkin. Zamonaviy pedagogika fani, ta’lim jarayonini yanada samarali va innovatsion tarzda tashkil etish maqsadida yangi metod va texnologiyalarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘zgarishlar, globalizatsiya va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi pedagogik yondashuvlarni yangilashni talab qilmoqda. Shuningdek raqamli platformalar raqamli o‘qitish platformalari zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, o‘qituvchilarga va talabalar uchun ko‘plab qulayliklar taqdim etadi.

Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi vositalar, masalan, ta’lmda individualizatsiya qilish va o‘qituvchilarga yordam berish uchun ishlatilishi mumkin. Zamonaviy pedagogik metodlarga aktiv o‘qitish, differensial o‘qitish, kollaborativ o‘qitish kabi metodlar kirishi mumkin. Aktiv o‘qitish metodlari o‘quvchilar faolligining rivojlanishini oshirish hamda ta’lim o‘qish jarayonida ularning ishtirokini ta’minlab berishga qaratilgandir. Bu metodlar o‘quvchilarga aqliy salohiyatini, bilimlarini, fikrlashlarini rivojlantirish va amaliy jarayonni oshirish imkonini beradi. Differensial o‘qitish o‘quvchilarning individual ehtiyojlari qiziqishlari qobiliyatlariga mos ravishda ularga to‘g‘ri yo‘naltirilgan ta’lim berish jarayonidir.Talabalar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga metod.Bu yondashuv orqali talabalar bir-biridan o‘rganadilar va jamoaviy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar.Pedagogikada fanlarni rivojlantirish uchun bir qator samarali metodlar mavjud. Ushbu metodlar o‘qituvchilarga talabalarning bilim va ko‘nikmalarini kengaytirishga, shuningdek, fanlarni

yanada qiziqarli va interaktiv qilishga yordam beradi.

1. Interaktiv o‘qitish

• **Muloqot va muhokama:** talabalarni faol ishtirok etishga undash, savollar berish va fikr almashish.

• **Guruh ishlar:** talabalarni kichik guruhlarga bo‘lish va birgalikda muammolarni hal qilish.

2. Kreativ loyihalar

• **Loyihalar va tadbirlar:** talabalarga fan bo‘yicha loyihalar tayyorlashni taklif etish, bu jarayonda ijodiy yondashuvni rag‘batlantirish.

• **Tadqiqotlar:** talabalarni mustaqil tadqiqotlar o‘tkazishga undash.

3. O‘zaro o‘qitish (Peer Teaching)

Talabalar bir-birlariga ma’lum mavzularni o‘rgatishlari mumkin. Bu usul o‘zaro bilim almashish va fikrlarni kengaytirishga yordam beradi.

4. Rol o‘ynash

Talabalar turli rollarni bajarish orqali fan mavzularini simulyatsiya qilishlari mumkin. Bu usul orqali talabalar nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

5. Muammoli o‘qitish:real hayotdagi muammolarni hal qilish orqali talabalarni muammoli vaziyatlarga tayyorlash. Bu jarayon tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

6. Texnologiyalardan foydalanish

• **Onlayn resurslar:** talabalarga onlayn platformalarda (masalan, video darslar, vebinarlar) foydalanishni taklif etish.

• **Interaktiv dasturlar:** o‘qitishda interaktiv dasturlar va ilovalardan foydalanish.

7. Seminar va konferensiyalar

Talabalarni seminarlar va konferensiyalarda ishtirok etishga undash. Bu jarayon ularning bilimlarini kengaytirish va professional tarmoq yaratishga yordam beradi.

8. Fikr almashish jurnali

Talabalar o‘z fikrlarini yozib boradigan jurnal tutishi mumkin. Bu jarayon ularning fikrlarini tahlil qilishga va o‘z-o‘zini baholashga yordam beradi.

9. O‘qituvchining roli

O‘qituvchi sifatida talabalarni ilhomlantirish, ularga qo‘llab-quvvatlash va motivatsiya berish juda muhimdir. O‘qituvchi o‘z bilimlarini yangilab turishi va zamonaviy pedagogik usullarni qo‘llashi kerak.

Xulosa. Ushbu metodlar pedagogikada fanlarni rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, talabalar o‘rtasida faol o‘qish muhitini yaratadi.Har bir metodni o‘z kontekstiga mos ravishda qo‘llash, ta’lim jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik metod va texnologiyalar ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga xizmat qiladi.Ular o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yengillashtiradi va ularni kelajakdagi muammolarni hal qilishga tayyorlaydi. Pedagogika fanini rivojlantirishda ushbu innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogika fanini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Dilnaz Baxitovna Dauletnazarova.2021
2. Differensial ta’lim o‘qitishning ijtimoiy zaruriyati sifatida. Shavkat Mamarajabov. 2022.

Umida MUMINOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’limda matematika
va ona tili kafedrasi o‘qituvchisi
avazberdiyevismoil@gmail.com

“MAHBUB UL-QULUB” ASARI LEKSIKASINING SEMANTIK-STILISTIK TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada so‘z ma’nolarini o‘rganishning xilma-xil yo‘llari borligi, shulardan biri so‘zning semantik strukturasini ma’noli qismlarga ajratib tahlil qilish, ko‘p ma’noli leksemalarning har bir sememasini semalarga ajratib tadqiq etish, ularning leksik ma’nosini nisbatan aniq belgilashga yordam berganligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *sema, stilistik, polisemiya, ko‘p ma’nolilik, leksik ma’no, narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat.*

Annotation: this article shows that there are different ways to study the meanings of words, one of them is to analyze the semantic structure of the word by dividing it into meaningful parts, to study each sememe of polysemous lexemes into semes, to analyze their It is thought that it helped to determine the lexical meaning relatively precisely.

Key words: *sema, stylistic, polysemy, polysemy, lexical meaning, thing-event, sign-property, action-state.*

Аннотация: в данной статье показано, что существуют разные способы изучения значений слов, один из них - анализ семантической структуры слова путем разделения его на смысловые части, изучение каждой семемы многозначных лексем на семы, анализ их мысли. что это помогло относительно точно определить лексическое значение.

Ключевые слова: *сема, стилистика, полисемия, многозначность, лексическое значение, вещь-событие, знак-свойство, действие-состояние.*

Sememaning mazmuni faqat leksik ma'nodangina iborat bo'lmaydi, unga stilistik, nutqiy xoslanish kabi belgi-xususiyatlar kiradi, bular barchasi birgalikda semantik strukturani tashkil qiladi .Polisemiyada so'zning leksik ma'nolari o'zaro yelpig'ichsimon va zanjirsimon ko'rinishda bog'lanadi. Bu ko'rinishlarning ikkisi ham bir polisemantik so'zda uchrab, murakkab ko'rinishdagi bog'lanishni yuzaga keltiradi. Ularning o'zaro qaysi ko'rinishda bog'lanishi boshqa leksik ma'nolarning bosh ma'noga vositali yoki bevosita bog'lanishi bilan aloqadordir . Polisemiya har qanday tilda ham salmoqli o'rin tutadi.Til boyligi faqat so'zlar, iboralar miqdori bilan emas, so'zlarning leksik ma'nolari miqdori bilan ham o'lchanadi. So'zlarning ko'p ma'noliligi til boyligida, shubhasiz, o'z o'rniga egadir . Borliqdagi ko'pgina narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatlar alohida nomlanmaydi, ularga nom ko'chirilishi ma'lum, shuning uchun tilning asosiy qismini polisemik leksemalar tashkil qiladi . Polisemiya bir turkum doirasida leksik ma'nolardan tarkib topishi, ularning o'zaro bog'liq bo'lishi, ma'nolar ayni so'zning o'ziga oidligi bilan boshqa hodisalardan ajralib turadi . Ko'p ma'nolilik turkiy tillar tabiatiga xos hodisa bo'lib, aksariyat turkiy so'zlar ko'chma ma'nolarda kelish xususiyati bilan farqlanib turadi Ko'p ma'nolilik haqida fikr yuritilganda, birinchi galda, shubhasiz, ism va fe'l kategoriyasiga oid, chunonchi, narsa-buyumni anglatuvchi, ish-harakatni ifodalovchi leksemalar ko'z o'ngimizda gavdalanadi . Binobarin, qayd etilganlardan ma'lum bo'ladiki, polisemantik leksema qancha ma'noga ega bo'lmasin, bitta so'z sanaladi. Yana shuni aytish kerakki, ko'p ma'nolilik asosan matnda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ya'ni polisemantik leksik birliklar qanchalik ko'p bo'lsa, matn ham shunchalik rang-barang, jozibador hisoblanadi. Qolaversa, ko'p ma'noli leksemalarning har bir sememasini semalarga ajratib tadqiq etish ularning leksik ma'nosini nisbatan aniq belgilashga yordam beradi.Alisher Navoiy ham so'zlarning ma'no boyligiga alohida e'tibor qaratgan. Bunga "Mahbub ul-qulub" asaridagi leksemalar semantikasini o'rganish jarayonida ishonch hosil qilish mumkin. Chunonchi, pandnoma so'z boyligida ček-fe'li quyidagi ma'nolarda qo'llangan: 1) "tortmoq, boshidan kechirmoq": Ölgüncä balā čekib erürlär mavjud (MQ,16); 2) "chalmoq": Har muğanniyki, dardmandānaraq nağma čekär (MQ,24); 3) "osmoq": Biri debki: Dārğa čekärdä yaxšï türdi (MQ,28); 4) "o'tkazmoq, tizmoq": Amal rištasin tama' ignäsigä čekib, ul bezabānnïŋ körär közni ham tikib (MQ,31); 5) "qilmoq": Muni aŋlağanlar qutulubturlar roziy üčün mehnat čekärdin...(MQ,40); 6) "bardosh bermoq, chidamoq": Vale čekkän kišiniŋ bahrasï ganj (MQ,43); 7) "ko'tarmoq": Kesäk atqanğa čekär yumruq (MQ,79); 8) "toymoq, adashmoq": Balki, čekär teŋri yolïdïn ayaq (MQ,64); 9) "qiynalmoq, ovora bo'lmoq": ...māl yïğarğa emgäk čektiyu sarf qïlurïn bilmädi (MQ,66); 10) "bosh tortmoq": Eränlär xizmatidin čekmägil baš (MQ,64). "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da mazkur fe'lning 26 ta ma'nosi keltirilgan, biroq "Mahbub ul-qulub"da aks etgan 10 ta ma'nonining to'rttasi, ya'ni "chalmoq", "qilmoq", "toymoq, adashmoq", "qiynalmoq, ovora bo'lmoq" semalari lug'atda qayd etilmaydi. "Qadimgi turkiy lug'at"da ber- fe'lining "bermoq", "turmushga uzatmoq", "to'lamoq" kabi ma'nolari uchraydi (DTS,95).Tadqiqot obyekti qilib olingan manbada leksemaning bir necha ma'nolari ishlatilgan: "bermoq": Gar ït uzumïğa kiši may birlä bersä suv (MQ,81); "baxsh etmoq, hadya qilmoq": Masihākim, nafas bilä ölükkä jān berdi, goyā bu jihatdin erdi (MQ,69); "to'lamoq": Šāh mālïn berürdin ibā qïlmasa va zabun šerikkä jafā qïlmasa (MQ,29); "aldamoq": Aŋa bāzi berurda yoq taqsir (MQ,28); Asarda yet- fe'li polisemantik xususiyat kasb etganini quyida aytilgan misollar yordamida bilib olish mumkin: "yetmoq": Zamānï tulï iki lafz oqurğača yetmäs (MQ,71); "bormoq, uchramoq, yo'liqmoq": Ey farzand, sen ul Bāyazidğa yet! (MQ,88); "erishmoq": ...agar pādšāhlïqqa yetsä va aŋa qulluq qïlsa xobdur (MQ,74); "ziyon, alam yetkazmoq": Yaxšï-yaman sökünj yetkürib, aqrabdek nečäki yetsä niš urub (MQ,30); "kifoya qilmoq": Köŋülgä andïn ačuğluq fāydasï yetär va köz andïn yaruğluq natijasï kasb etär (MQ,41); "duchor bo'lmoq": Aŋa yetärdä ul bedādu sitam tiši astïda ermiš ul diram (MQ,44); "kelmoq, yetib kelmoq": Ul nazzāradïn bexabar el yetib otïn öčirgünšä andïn ne xabar qaldï va ne asar (MQ,48); "bo'lmoq": Va haqdïn najāt vaqti yetmäkdür (MQ,36). Qadimgi turkiy tilda 1) ko'rmoq, boqmoq, qaramoq; 2) tobe bo'lmoq, bo'ysunmoq; 3) boshdan kechirmoq, tortib ko'rmoq, chekmoq, tortmoq; 4) eshitmoq, qabul qilmoq; 5) taxmin qilmoq (DTS,317) semalarini anglatishda kör- fe'lidan foydalanilgan. Bu so'z hozirgi o'zbek adabiy tilida faol ishlatilib, semantik doirasi kengayib, 16 ma'noni bildiradi (O'TIL,II,469).O'rganilayotgan manbada kör- leksemasi quyidagi ma'nolarni ifodalagan: 1) ko'rmoq: ...šukr qïlkïm, közüŋ yaruq dunyāni körärgä muhtāj

emästür (MQ,96); 2) uchratmoq: Kördümkim, na’layn yanïda bir širāk tüšüb yatur (MQ,40); 3) bilmoq: Uyğaqlïğda ne alïŋga kelsä, qazādïn kör (MQ,93); 4) hisoblamoq, qabul qilmoq: Xiradmand pandïnï körgän ačïğ (MQ,80); 5) boshdan kechirmoq, tortmoq: Gāhe kördim zamāndïn kāmrānlïğ (MQ,7); 6) e’tibor qilmoq: Kičiklärğäkim, andïn munča bolğay, uluğlarğa körkim, nečä munča bolğay (MQ,44); 7) qaramoq, nazar solmoq: Agar ölsä išqi haqiqiyda kör ne bolğay hāl (MQ,48); 8) kelmoq: Agar söz saŋa körünsä mahāl (MQ,84). Baš so‘zi qadimgi turkiy til yodnomalari va qoraxoniylar davri obidalarida “tananing bo‘yindan yuqorigi, oldingi qismi”, “javobgarlik, mas’uliyat” (ko‘chma ma’noda), “bosh tomon”, “idishning bo‘g‘zi”, “boshoq”, “uch, tepa qism”, “daryoning boshi, yuqorisi”, “rahbar”, “boshi, boshlanishi” (DTS,86-87) kabi semalarda qo‘llanilgan. Alisher Navoiy asarida baš somatizmi quyidagi ma’nolarda istifoda etgan: 1) “tananing bo‘yindan yuqorigi, oldingi (odamda, hayvonlarda) qismi”: Dastār yïrtuğluğïdïn ğam yemä, bašï yaruğlarğa baqïb teŋri hamdidin özgä demä (MQ,96); 2) “boshlanishi, avval”: Xārlïğlar bašï tama’ bilgil (MQ,76); 3) “tepa, ust”: ...mehr va šafqat bilä bašïğa keldi, yumšaq söz bilä yaralarïğa marham yetkürdi (MQ,44); 4) “miya, xayol, ong”: Agar kiši may xavāsïn bašïdïn čïqarur, ğijjak maddi nālasï bilä aŋa yalbarur (MQ,24); 5) “to‘r, umuman, joyning yuqori, ya’ni quyiga qarama-qarshi tomoni”: ...mubāhat üčün madrasa ayvānï bašï aŋa orun bolmasa (MQ,18). Shu o‘rinda aytish joizki, ushbu fe’l pandnomada birikma va iboralar tarkibida kelib, qator sememalarni ifodalagan: “boshidan ajralmoq”: Özüŋni bu zumradïn yïraq tutma, bašïŋ barsa bu muddaānï unutma (MQ,64); “butunlay, to‘liq”: ...meni baštïn ayağ balāğa qalğanlarğa qatqaysen (MQ,96); “boshidan oxirigacha”: ...gulxan otï bašïn ayağïğa tutaštï (MQ,48); “xursand qilmoq”: ...sabuksārlïq bilä bašlarïn kökkä yetkürürlär (MQ,62); “ta’zim qilmoq”: Ul sālārğa adab va tavāzu’ bilä baš indürdi (MQ,43). “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da zikr etilgan fe’lning 20 dan ortiq ma’nosi yoritilgan (O‘TIL,II,395-398). Ko‘rinadiki, keyingi davrlarga kelib, leksemaning ma’nosi kengaygan. Ushbu ot qadimgi turkiy tilda ba:š tarzida talaffuz qilingan. Keyinchalik, a: unlisining cho‘ziqlik belgisi yo‘qolgan. O‘zbek tilida a unlisi â unlisiga almashgan: ba:š> baš>bâš (O‘TEL,I,61). So‘z mulkining sohibqironi irik sifatini ikki ma’noda qo‘llagan: “qo‘pol, dag‘al”: Agarčï xoylarï durušluqda namāyāndur, ammā atfāl nāhamvārlïğï islāhïğa irik suhāndur (MQ,22); “og‘ir, mashaqqatli”: Qazādïn ne kelsä özlärin rizāğa yasabturlar va ālam ahliniŋ qatïğ ranj va irik malāmatïğa čïdabdurlar (MQ,36). Shuningdek, ushbu sema birikma tarkibida istifoda etilib, “qiyinchilik, mashaqqat” ma’nosini bildirgan: Haq yolïda qatïğ irikkä tüzmäkdür va yaxšï-yamandïn har ne ešitgän (MQ,42). Mazkur leksema Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonida yerig fonetik shaklida kelib, “yoqimsiz”, “qo‘pol” ma’nolarini anglatgan: köni söz köŋülkä kör ačïğ yerig; javāb qïlğu yerdä yerig sözlama (DTS,177). Ko‘rinadiki, ma’nolar sonida o‘zgarish bo‘lmasa-da, semantik taraqqiyot natijasida muayyan sema o‘rnini boshqasi egallagan. Qadimgi turkiy manbalarda “nordon”, “achchiq”, “og‘ir, chidab bo‘lmay- digan”, “jahl, g‘azab” semalarini ifodalagan ačïğ (DTS,4) sifati manba tilida ačïq/ačïğ/aččïğ shakllarida quyidagi ma’nolarni bildirgan: 1) “achchiq, shirinning aksi”: Öz ilgidä bir anār bolsa bilmäski, ...aččïğmudur (MQ,26); 2) “azobli, uqubatli”: Ağzïğa hayāt šarbatï boldï ačïq (MQ,86); 3) “qiyin, og‘ir”: Sabr ... ačïğdur, ammā sudmand (MQ,42); 4) “zaharxanda, yomon so‘z”: ... aččïğ til zahrālud nešdek bolgay (MQ,69). Ayni paytda, leksema juft so‘z va birikma tarkibida “yaxshi-yomon”; “azob-u rohat”, “yoqtirmaslik, qabul qilmaslik” singari ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qilgan: ... aččïğ-čüčükdin köŋülni āgāh qïlğuvčï ul (MQ,88); Base aččïğ, čüčük tattïm jahānda (MQ,7); Xiradmand pandïnï körgän ačïğ (MQ,80). Alisher Navoiy nafaqat o‘z qatlamga doir so‘zlarga, shuningdek, chetdan kirib kelgan leksemalarga ham qator ma’nolarni yuklagan. Masalan, avrāq arab istilohi asarda ikki ma’noda ishlatilgan: “sahifalar”: ...mus’haf avrāqïn xirad piri tilāvat qïlurda laim tiflniŋ yelpuğuč bilä varaqnï savurmağï kudurat yetkürür (MQ,62); “barglar, yaproqlar”: Agar havādis yeli sipehr gulšanï avrāqïn üčürsä, alarğa andïn xabar yoq (MQ,52). Zavq o‘zlashmasi tadqiq etilayotgan manbada tubandagi ma’nolarni bildirgan: “shodlik, xursandlik”: Bu fayz sağarlarïdïn ičib qanmağay va bu zavq qadahlarïdïn jur’a tartardïn osanmağay (MQ,38); “ma’naviy lazzat, huzur”: Ruhi tāat zavqïdïn bexabar va uni savt ul-hamirdin ankar (MQ,23); “havas, xohish, mayl”: ... mu’jib xasm xātirïğa insāniyat zavqïn olturğuzar (MQ,44). Bundan tashqari, ushbu arabcha so‘z izofali birikmalarni shakllantirib, “lazzat, xushhollik ahli”, “shod-u xurramlik” kabi ma’nolarni vujudga keltirgan: ...ālamda zavqu hāl ahli bular latāyifi bilä masrur durlar... (MQ,20); ...va ul biridin zavqu inbisāt üylärïniŋ yaruğluğï (MQ,85).

Tahlillar jarayonida polisemantik so‘zlarning tarkibi leksik ma’nolar miqdori bilan o‘lchanishi, biroq atama qancha semaga ega bo‘lmasin, yagona leksik birlik hisoblanishiga, ko‘p ma’nolilik asosan matnda yaqqol ko‘zga tashlanishiga yana bir karra ishonch hosil qilindi. Ko‘rib o‘tganimizdek, Alisher Navoiy asarda badiiy ifodalarni bayon qilishda, birinchi navbatda, turkiy, qolaversa, o‘zlashma polisemantik so‘zlardan ham unumli foydalangan. Bu esa manba tilining rang-barang va jozibador bo‘lishini ta’minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Раҳматуллаев Ш. Лексик маънони компонентлаб таҳлил қилиш//Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: 1978. №4.56- Б.
2. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси.–Т.: MUMTOZ SO`Z, 2010.186- Б.
3. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Т.: MUMTOZ SO`Z, 2010.158- Б.
4. Жумаева Ф. Полисемем лексемалар доирасидаги синоним ва антоним семалар тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. – Фарғона, 2018. – 17- Б.
5. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1975.47- Б.
6. Холмурадова М. “Қутадғу билиг” лексикаси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. – Тошкент: 2018.110- Б.
7. Дадабоев Ҳ. “Тортмоқ” лексемасининг Алишер Навоий даври эски ўзбек адабий тилидаги маънавий қурилиши //Алишер Навоий.– Тошкент: 2021. № 1.10- Б.



Zarifa YORIYEVA,
BuxDPI o‘qituvchisi

ERNEST XEMINGUEY VA O‘ZBEK ADABIYOTI; TA’SIR HAMDA AKSTA’SIR MASALALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Ernest Xeminguey va o‘zbek adabiyoti; ta’sir hamda aksta’sir masalalari qiyosiy-tipologik hamda ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *xalq, badiiy asar, ma’naviy ehtiyoj, xarakter, dunyo adabiyoti kesishuvi, badiiy obraz, estetik kategoriya, inson psixologiyasi va hokazo.*

Аннотация: в данной статье Эрнест Хемингуэй и узбекская литература, вопросы влияния и контрвлияния анализируются сравнительно-типологическим и научно-теоретическим путем.

Ключевые слова: *народ, художественное произведение, духовная потребность, характер, пересечение мировой литературы, художественный образ, эстетическая категория, психология человека и др.*

Annotation: in this article, Ernest Hemingway and Uzbek literature, issues of influence and counter-influence are analyzed in a comparative-typological and scientific-theoretical way.

Key words: *folk, artistic work, spiritual need, character, intersection of world literature, artistic image, aesthetic category, human psychology, etc.*

Har bir xalqning ma’naviy ravnaqi, eng avvalo, uning umumbashariy madaniyatga qo‘shgan hissasi bilan o‘lchanadi va qadrlanadi. Xalqning o‘sib borayotgan ko‘p qirrali ma’naviy talabini qondirish, mustaqillikning ahamiyatini tushuntirish, estetik, ma’naviy va badiiy tafakkurini taraqqiy qildirish, zamonamiz qahramoni obrazini ochib beruvchi yangi, original, kompozitsion jihatdan mukammal bo‘lgan badiiy asarlarni yaratish jarayonida jahon adabiyotining boy xazinasidan foydalanish ehtiyoji tug‘iladi.

Adabiyot inson ruhiy-ma’naviy olamini boyituvchi muhim vositadir. Badiiy asarlardagi turli obrazlar tizimi, inson psixologiyasi va tabiati, xarakterini tahlil qilish imkonini beradi. Adabiyotda badiiy obraz estetik kategoriyalardan biri hisoblanadi. Obrazning ruhiy jihatdan asoslanganligi, birinchi navbatda, uning badiiyatini ta’minlasa, ikkinchidan, asarning estetik qimmatini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Badiiy asar tahliliga dunyo adabiyoti kesishuvida yondashish obraz mohiyatiga chuqurroq kirish va insonni har tomonlama o‘rganish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan masalaga yondashadigan bo‘lsak, ingliz adabiyotining yirik adibi Ernest Xeminguey ijodi fikrimizga oydinlik kiritadi. Ernest Xemingueyning mashhur “Chol va dengiz” qissasida insonning ulug‘ligi, undagi iroda va matonat, oqillik va azm-u qaroridan og‘ishmaslik o‘zgacha talqinda aks etgan.

“Chol qachondan boshlab o‘z-o‘zi bilan ovoz chiqarib so‘zlashadigan bo‘lib qolganini endi eslay olmas edi. Avvallari tanho qolganda u xirgoyi qilar edi. Katta yelkanli kemalarda suzib, vaxtada turgan yo toshbaqa oviga borgan kezlari goho-goho kechalari ham qo‘shiq aytardi. Ehtimol, bola undan ketgandan keyin, yolg‘iz o‘zi qolgach o‘zi bilan o‘zi gaplasha boshlagandir” .

Badiiy tasvir inson kayfiyati bilan bog‘liq hodisa bo‘lib, badiiy asarlarda ijodkorning obrazga nisbatan munosabatini ifodalash bilan birgalikda asarning estetik qimmatini oshiradi. Adabiyot inson qalbini, uning dard-u tashvishlarini, xalqning orzu-intilishlarini, rasm-rusm, urf-odatlarini, yashash tarzini betakror so‘z, ohang va serjilo ranglarda ifoda etuvchi ma’naviy vosita. Chol obrazida o‘zbek xalqi mentalitetiga xos odamoxunlik va bolajon xususiyatlar o‘zgacha ifodalarda tasvirini topgan.

Badiiy adabiyot shunisi bilan qiziq. Biz badiiy asarning g‘oyaviy-estetik yo‘nalishi, falsafasi degan atamalar bilan uning mohiyatini tushuntirishga, sharhlashga harakat qilamiz. Aslida, bu ta’riflar badiiy asarga emas, hayot voqeligiga, inson mohiyatiga tegishli. Ya’ni ijodkor hayotni haqqoniy tasvirlay olgani uchun voqea-hodisalar, insonlar bilan birga fikrlar, g‘oyalar, falsafa va ta’limotlar turli janrdagi asarlarga ko‘chib, badiiy-estetik qimmat kasb etadi.

Jahon adabiyoti durdonalarining o‘zbek adabiyotiga bevosita ta’siri adiblarimizning juda ko‘p asarlarida kuzatiladi. Fikrimizning dalili sifatida yozuvchi Erkin A’zamning “Tanho qayiq” asaridagi Orol bobo obrazini eslash kifoya:

“Loyqalanib-loyqalanib to‘ladi-da suv! Ammo …. xuddiki qum deysan! Qumning o‘zginasi-ya. Ko‘zingni yiribroq qarasang-chi, kallavaram, qum bo‘lmay nima u axir?! Orol suvga to‘lganmish! Suvlari mavjlanib yotganmish! Sen yasagan qayiqlar suzib yurganmish!.. Har erta shu ahvol-a. Tushingni ana qumga, qumliklarga ayt! He esini yegan telba chol!! Oroling seni tashlab ketganiga necha zamonlar bo‘ldi-ku!”

Jiddiy tahlil qiladigan bo‘lsak, Ernest Xeminguey ham, Erkin A’zam ham hayot mantig‘iga benihoya mos badiiy tasvirni keltirishadi. Kundalik hayotimizda juda ko‘p yoshi ulug‘ kimsalar bilan yuzlashamiz. Kuzatishlarimizdan ma’lumki, keksa yoshli xalq vakillarining ko‘plarida o‘z armoni, orzu-havas, intilishlarini o‘z-o‘ziga gapirib, xayol bilan yurish holatlariga duch kelamiz.

Lekin so‘z hissi, yashash havasi turli millatlar adabiyotining o‘rtasidagi ijtimoiy farqni yo‘qotadi va hammasini darddosh, maslakdosh insonlarga aylantirib qo‘yadi. Albatta, bugungi zamonaviy tasavvur va tushunchalar girdobidagi inson bu haqiqatni to‘liq anglab yetishi mushkul masaladir.

Badiiy adabiyot ko‘ngil va ruh haqiqatini ko‘ngilning o‘zidek, ruhning o‘zidek go‘zal va nozik, teran va ko‘p ma’noli qilib ifoda etmog‘i bilan xarakterlanadi. E’tibor beradigan bo‘lsak, o‘zbek adabiyoti azaldan adabiy tajribalar adabiyoti bo‘lib kelganini ko‘ramiz. E’tiqodi, dunyoqarashi, kayfiyati, qalb intilishlari turlicha bo‘lgan millionlab insonlarning sezgilari, fikr-mulohazalari ularning o‘zlari o‘ylab topmagan, ajdodlaridan meros bo‘lib kelayotgan behisob so‘zlarning o‘zanidan erkin oqishga, ularning qirg‘oqlarini tan olishga majbur bo‘ladi.

So‘zning shakllanish jarayoni murakkab hodisadir. Badiiy obraz, turli voqea-hodisalar, tuyg‘u tushunchalarni umumlashtirib, badiiy qobiqqa o‘rab, yangicha ma’no va ruhda ifoda etadigan so‘z va ibora yaratish qanchalik qiyin masala. Shuning uchun haqiqiy ijodkor bu og‘ir va murakkab vazifani ado etishda xalqning so‘z boyligi, uning ruhiyat va tafakkur xazinasiga tayanadi. Xalqimiz orasidagi kishilarning hayot tarzi, xarakter-xususiyatlari ijod obyekti sifatida yordamga keladi.

“Qayiq tobut nogahon bir silkinib, boshlar uzra ohista ko‘tarila boshlaydi. Yuksala-yuksala ko‘k dengizi sari suzib ketadi… To‘rt o‘g‘lon osmonga qo‘l cho‘zib, uni go‘yo kuzatib qolgan…Uzoqlardan kelayotgan dengiz shovqinlari tobora kuchayadi. Ana –to‘lqinlar bir-biriga urilib shaloplashi, jonsarak mavjlar shiviri, eshkaklarning bir maromdagi g‘ichir-g‘ichiri… Ana chag‘alaylarning chug‘ur-chug‘uri-yu suvga to‘sh urib uchayotgan oqchorloqlar sasi… “Tanho qayiq” asarining intihosi.

“Chol o‘z kulbasida hamon uxlab yotardi. Uyana muk tushib uxlar, bola esa yonida o‘tirib, uning uyqusini ardoqlardi. Cholning tushiga arslonlar kirar edi”. “Chol va dengiz” asarining intihosi.

Hayot bor joyda hamisha o‘lim mavjud. Badiiy ijodning siri adib o‘z boshidan kechirgan va ko‘rgan, bilganlarini umumlashtirib, o‘sha voqealarga estetik ma’no bag‘ishlay bilishidadir. Ilmiy manbalarda ilhom kelishi uchun ijodkor dili bilan xalq dili payvand bo‘lishi kerak deyiladi. Ikki ijodkor ham keksa cholning so‘nggi manzilga ketish holatini zoonimlardan foydalanib, o‘zgacha estetika bilan ifodalaydi. Erkin A’zam oqchorloqlar va chag‘alaylarni, Ernest Xeminguey ifodalagan chol esa arslonlarni tush ko‘radi.

Xulosa shuki, badiiy adabiyot shunisi bilan qiziq. Biz badiiy asarning g‘oyaviy-estetik yo‘nalishi, falsafasi degan atamalar bilan uning mohiyatini tushuntirishga, sharhlashga harakat qilamiz. Aslida, bu ta’riflar badiiy asarga emas, hayot voqeligiga, inson mohiyatiga tegishli. Ya’ni ijodkor hayotni haqqoniy tasvirlay olgani uchun voqea-hodisalar, insonlar bilan birga fikrlar, g‘oyalar, falsafa va ta’limotlar turli janrdagi asarlarga ko‘chib, badiiy-estetik qimmat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xeminguey Ernest. “Chol va dengiz”. Qissa. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. 35-bet.
2. Erkin A’zam. “Tanho qayiq”. – Toshkent, 2018. 124-bet.
3. X.A.Xaitov. “Zamonaviy o‘zbek adabiyoti badiiy taraqqiyotiga xalq kulgi san’atining ta’siri”. – Buxoro: Durdona, 2024.



Nafisa JAMALOVA,
SamDChTI Pedagogika, psixologiya va jismoniy Ma'daniyat kafedrasi o'qituvchisi

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASHNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

Annotatsiya: ushbu maqola raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqadi. Raqamli texnologiyalar ta'limni interaktiv va shaxsiylashtirilgan qilishda yordam beradi, lekin texnologik muammolar va o'quvchilar o'rtasidagi tengsizliklar ham mavjud. Maqola samarali foydalanish yo'llarini taklif etadi.

Kalit so'zlar: *raqamli texnologiyalar, ta'lim jarayoni, afzalliklar, kamchiliklar, interaktivlik, individual o'qitish, texnologik muammolar, tengsizlik, samarali foydalanish.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются преимущества и недостатки использования цифровых технологий в образовательном процессе. Цифровые технологии помогают сделать обучение более интерактивным и персонализированным, но существуют также технологические проблемы и неравенство между учащимися. В статье предложены способы его эффективного использования.

Ключевые слова: *цифровые технологии, образовательный процесс, преимущества, недостатки, интерактивность, индивидуальное обучение, технологические проблемы, неравенство, эффективное использование.*

Annotation: this article examines the advantages and disadvantages of using digital technologies in the educational process. Digital technologies help make learning more interactive and personalized, but there are also technological challenges and inequities between students. The article offers ways to use it effectively.

Key words: *digital technologies, educational process, advantages, disadvantages, interactivity, individual teaching, technological problems, inequality, effective use.*

Raqamli texnologiyalar ta'lim sohasida inqilobiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayonida foydalanilayotgan innovatsion vositalar, jumladan, onlayn platformalar, mobil ilovalar va multimedia materiallari, o'quvchilarning bilim olish uslubini tubdan o'zgartiradi. Ular o'quvchilarga interaktiv va shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatini taqdim etadi, bu esa o'z navbatida, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Biroq, raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi bir qator muammolar va kamchiliklarga ham olib kelishi mumkin, masalan, texnologik qiyinchiliklar va o'quvchilar o'rtasidagi tengsizliklar. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarni ta'limda qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash uchun turli manbalardan foydalanildi. Materiallar quyidagilardan iborat:

Adabiyotlar: ta'lim va raqamli texnologiyalar bo'yicha ilmiy maqolalar, kitoblar va tadqiqotlar tahlil qilindi. Ushbu manbalar raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash haqidagi nazariy asoslarni va amaliy tajribalarni o'z ichiga oladi.

Onlayn resurslar: ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashga bag'ishlangan onlayn platformalar va veb-saytlar, shuningdek, ta'lim sohasidagi muvaffaqiyatli misollarni taqdim etuvchi tadqiqotlar ko'rib chiqildi.

Tahliliy metod: raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish uchun mavjud adabiyotlar va tadqiqotlar o'rganildi. Tahlil jarayonida olingan ma'lumotlar to'plandi va sarhisob qilindi.

Kirish metodlari: o'qituvchilar va o'quvchilar bilan intervyular o'tkazilib, ularning raqamli texnologiyalarni qanday foydalanishi, tajribalari va muammolari haqida ma'lumotlar yig'ilgan.

Ushbu materiallar va usullar orqali maqolada raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashning turli jihatlari to'g'risida batafsil va obyektiv ma'lumotlar keltirilgan.

Afzalliklar:o'tkazilgan tadqiqot va tahlillar natijalari raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashning bir qator afzalliklari va kamchiliklarini ko'rsatdi.

Interaktivlik: o'quvchilar multimedia materiallari va onlayn platformalar orqali o'rganish jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. So'rovnoma natijalari, o'quvchilarning 85% i raqamli texnologiyalar yordamida o'qish jarayoni yanada qiziqarli va interaktiv bo'lishini ta'kidladi.

Moslashuvchanlik: o'qituvchilar va o'quvchilar raqamli texnologiyalar orqali ta'limga kirish imkoniyatini oshirdilar. O'quvchilarning 90% i o'z vaqtida va joyida ta'lim materiallariga kirish imkoniyatidan mamnun ekanliklarini bildirdilar.

Kamchiliklar.

Texnologik qiyinchiliklar: tadqiqot davomida o'quvchilarning 40% i texnologik muammolar, masalan, internet tezligining pastligi va qurilmalarning ishlamasligi haqida shikoyat qilishdi. Bu holat dars jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

O‘qituvchilarning tayyorgarligi: o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalarni qo‘llashdagi tajribasi turlicha bo‘lib, ba’zilari yetarli bilimga ega emasligi aniqlangan. So‘rovda o‘qituvchilarning 30% i raqamli vositalarni samarali ishlatishda qiyinchiliklar borligini tan olishdi.

Ushbu tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llashning afzalliklari va kamchiliklarini aniq ko‘rsatadi. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarga yanada interaktiv va individual ta’lim imkoniyatlarini taqdim etadi, bu esa ta’lim jarayonini samarali qiladi. Biroq, texnologik qiyinchiliklar, o‘qituvchilarning tayyorgarligi va o‘quvchilar o‘rtasidagi tengsizliklar ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ta’lim tizimlari raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlarini ishlab chiqishlari, texnologik infratuzilmani yaxshilashlari va o‘quvchilarga teng imkoniyatlar yaratishlari zarur. Kelajakda raqamli texnologiyalarni qo‘llash jarayonini yanada yaxshilash uchun ta’lim muassasalarida muntazam ravishda monitoring va baholash tizimlarini o‘rnatish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali raqamli ta’lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari yanada kengayadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llashning afzalliklari va kamchiliklari ko‘rib chiqildi. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarga interaktiv va individual ta’lim imkoniyatlarini taqdim etadi, bu esa ta’lim sifatini oshiradi. Biroq, texnologik muammolar, o‘qituvchilarning tayyorgarligi va tengsizliklar kabi kamchiliklar ham mavjud. Ta’lim tizimlari raqamli vositalarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilarni tayyorlash, infratuzilmani yaxshilash va o‘quvchilarga teng imkoniyatlar yaratishga e’tibor qaratishlari zarur. Raqamli texnologiyalarni to‘g‘ri ishlatish, ta’limni yanada samarali qiladi va kelajakda ta’lim jarayonidagi rolini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov. N. Raqamli ta’lim texnologiyalari: nazariya va amaliyot.O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. –Toshkent: 2020.
2. Akramova. D. Ta’limda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati. Ta’lim muammolari,.2(1).2021.45-50-b.
3. Karimova. L. Raqamli ta’lim: yangi imkoniyatlar va qiyinchiliklar. O‘zbekiston pedagogik jurnal, 3(4), 2019.35-40-b.
4. Qosimov. M.Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llash: muammolar va yechimlar. Innovatsion ta’lim.1(3) 2022.12-20-b.
5. Yuldasheva. F. Ta’limda innovatsion texnologiyalar: tajriba va natijalar. O‘zbekiston ta’limi va tarbiyasi. 4(2) 2020.68-72.

Shohistaxon HATAMQULOVA,
QDPI, Xorijiy filologiya fakulteti
katta o‘qituvchisi

NEMIS TILI DARSLARIDA ELEKTRON RESURSLARDAN FOYDALANISH (WEB QUEST NING ROLI)

Annotatsiya: maqolada elektron ta’lim vositalarining xususiyatlari, ularning asosiy funksiyalari va nemis tilini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida fikrlar bayon qilingan. Axborot texnologiyalari – bu elektron vositalar yordamida ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash, taqdim etish va ulardan foydalanish jarayonlaridir. Elektron ta’lim vositalaridan foydalangan holda nemis tilini o‘rganish samaradorligining amaliy asoslari keltirilgan. Nemis tili darslarida internet resurslari va elektron o‘quv vositalaridan foydalanish ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *axborot texnologiyalari, elektron ommaviy axborot vositalari trening, Internet resurslari, tinglash, Web quest.*

Annotation: the article describes the characteristics of electronic educational tools, their main functions and their importance in learning the German language. Information technologies are the processes of collecting, processing, presenting and using information using electronic means. The practical basis of the effectiveness of learning the German language using electronic learning tools is presented. The use of Internet resources and e-learning tools in German language classes is considered.

Key words: *information technologies, electronic media training, Internet resources, listening, Web quest.*

Аннотация: в статье описаны характеристики электронных образовательных средств, их основные функции и значение в изучении немецкого языка. Информационные технологии – это процессы сбора, обработки, представления и использования информации с помощью электронных средств. Представлены практические основы эффективности изучения немецкого языка с использованием электронных средств обучения. Рассмотрено использование интернет-ресурсов и средств электронного обучения на уроках немецкого языка.

Ключевые слова: *информационные технологии, электронные медиаобучения, Интернет-ресурсы, прослушивание, Web quest.*

Hozirgi vaqtda kompyuter texnologiyalari inson hayotining barcha jabhalariga, jumladan, chet tillarini o‘qitish sohasiga ham kirib keldi.Ta’lim jarayonida ko‘rgazmali, o‘qitish va monitoring dasturlari juda keng qo‘llaniladi.

Chet tillarini o‘qitishning asosiy maqsadi – kommunikativ madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish, chet tilini amaliy o‘zlashtirishga o‘rgatish hisoblanadi.Nemis tili darslarida o‘qituvchining vazifasi – yaratishdir. Tilni amaliy o‘zlashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish, har bir talaba o‘z faolligini, ijodkorligini ko‘rsatishga imkon beradigan o‘qitish usullarini tanlash muhimdir. O‘qituvchining vazifasi chet tillarini o‘rganish jarayonida talabalarning faolligi kognitiv faolligini oshirishdir.

Chet tilini o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari, interfaol kurslar, yangi axborot texnologiyalari, internet resurslaridan foydalanish chet tilini o‘rganish bo‘yicha mustaqil ishlarni tashkil etishga xizmat qilmoqda. Tinglashni o‘rganayotganda, har bir kishi chet el nutqini tinglash imkoniyatiga ega bo‘ladi, gapirishni o‘rganayotganda, har bir kishi chet tilidagi iboralarni tinglash, mikrofonga gapirish imkoniyatini qo‘lga kiritadi, bu esa o‘rganishni individuallashtirish va differensiallashtirishni ta’minlaydi. Chet tilini o‘rgatishda kompyuterdan foydalanganda tilning ikki jihatini e’tiborga olish kerak:

1) Kompyuter dasturlari, interaktiv chet tili kurslaridan foydalanish;

2) Internetdan foydalanish.

Chet tilini o‘qitish jarayonida Internetdan foydalanishda uchta jihatni ajratib ko‘rsatish mumkin: internet axborot muhiti, internet aloqa vositasi va internet nashriyot muhiti.Bu uch jihat chet tilini o‘qitish tizimiga yaxshi singdirilgan.

Telekommunikatsiyaning eng keng tarqalgan shakllariga (ya’ni, Internet texnologiyalari orqali aloqa) elektron pochta, chat, forum, video, veb-konferensiyalar va boshqalarni o‘z ichiga oladi.Dastlab ular bir-biridan uzoqda joylashgan odamlar o‘rtasidagi haqiqiy muloqot uchun yaratilgan va shundan keyingina chet tilini o‘rgatishda ta’lim maqsadlarida foydalanila boshlandi.

Axborot muhiti sifatida internetdan chet tili o‘qituvchilari ham, chet tilini o‘rganuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Internet-axborot resurslarida turli tillarda turli mavzulardagi matn, audio va vizual materiallar mavjud. Internetda ma’lumot qidirishning afzalligi, birinchi navbatda, uning dolzarbligidir.Internet mintaqashunoslik bo‘yicha keng ma’lumotni, yangi nashr etilgan jurnal va gazetalarni asl nusxada o‘qish imkoniyatini, shuningdek grammatika bo‘yicha turli ma’lumotnomalarni, lug‘atlardan foydalanishda eng muhim vositadir. Davlat organlarining ishonchli rasmiy veb-saytlari, taniqli davriy nashrlar, Gyote institutining veb-saytlari, ”Deutsch als Fremdsprache” darsliklarini nashr etishga ixtisoslashgan nemis nashriyotlari va Deutsche Welle veb-saytida juda ko‘p qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan. Bunga sekinroq suratda aytiladigan yangiliklar va “Jojo Sucht Gluck” ta’lim teleseriali kiradi. Ushbu turkum leksik va grammatik materialni o‘zlashtirishga qaratilgan uslubiy ishlanmalarni taklif etadi.Ushbu serial 10 daqiqalik qisqa epizodlardan iborat.Unda Germaniyadagi yoshlar hayoti haqida hikoya qilinganligi sababli, u o‘qishning ikkinchi yilida nemis tilini o‘rgatish jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llaniladi.

Talabalarning chet tilini organishga bo‘lgan motivatsiyasi bevosita hissiy jalb qilish darajasiga va olingan bilim va ko‘nikmalarga bo‘lgan haqiqiy ehtiyojni anglashiga bog‘liq. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish haqiqatga yaqin vaziyatlarni yaratish, ma’lum til modellari va klisheklarini o‘rgatish va amaliyotda qo‘llash uchun sharoit yaratish, talabalar tomonidan olingan kommunikativ kompetensiyalarni qo‘llash imkoniyatini ko‘rsatish imkonini beradi.

Internet imkoniyatlaridan foydalanadigan intellektual o‘yinlar orasida til veb-kvestlari juda mashhur. Veb-kvest – bu materialni taqdim etishning o‘ziga xos shakli bo‘lib, unda talabalar berilgan muammoni hal qilishlari yoki internet manbalaridan foydalangan holda savollarga javob topishlari kerak. Web quest usuli birinchi marta 1995-yilda amerikalik Berni Dodj tomonidan taklif qilingan.U veb-kvestda taqdim etilishi mumkin bo‘lgan vazifalar turlarining quyidagi tasnifini kiritgan:

- qayta aytib berish vazifasi;
- kompilyatsiya vazifasi;
- yechim topish vazifasi;
- jurnalistik tekshiruv;
- berilgan shartlar bilan vaziyatli topshiriq;
- ijodiy vazifa;
- murosaga kelish vazifasi va boshqalar.

Ushbu ish shakli nafaqat nutq faoliyati turlarini (o‘qish, yozish, tinglash, gapirish), balki muloqot va nutq ko‘nikmalarini (ma’lumot izlash, o‘qilganlarni umumlashtirish, xulosa chiqarish, ifoda etish qobiliyatini) rivojlantirishga qaratilgan. Ishning ushbu turida talabalar Internetdan savollarga javob topish, muammoni hal qilish, ma’lumot olish va hokazolar uchun foydalanishlari kerak bo‘lgan vaziyatlarni simulyatsiya qilishni o‘z ichiga oladi. Ko‘pincha bu bitta vazifa emas, balki o‘zaro bog‘liq harakatlar zanjiri va undan tilni yuqori bilish darajasi talab qilinishi mumkin.

Shuningdek, internetdan foydalanish talabalarning motivatsiyasini oshirish, haqiqiy matnlarni tanqidiy tushunish va tarmoq tadqiqotlarini o‘tkazish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish hamda umuman til makoniga sho‘ng‘ish orqali chet tilini o‘qitish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Апатова Н. В. Информационные технологии в школьном образовании. – М., 1994.
2. Захарова И. Г. Информационные технологии в образовании: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М., 2003.
3. Зубов А. В. Информационные технологии в лингвистике. – М., 2004.
4. Использование современных информационных и коммуникационных технологий в учебном процессе: учебно-методическое пособие / Авторы3 составители: Д.П. Тевс, В. Н. Подковырова, Е. И. Апольских, М. В, Афонина. – Барнаул: БГПУ, 2006.

Shaxnoza MUXTAROVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi
shaxnoza1977xon@.gmail.com



INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: maqolada “Ona tili o‘qitish metodikasi” darslarida bo‘lajak mutaxassislar axborot asri sharoitida pedagogik jarayonni multimedia darslarini yuqori darajada sifatli tashkil etish, talabalar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalar darajasini baholash haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *integratsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, taqdimot, slayd, multimedia, raqamli avlod, kasbiy kompetentlik.*

Аннотация: в статье на занятиях «Методика преподавания родного языка» будущие специалисты организуют педагогический процесс на высоком уровне в условиях информационного века, речь идет о контроле, оценке уровня полученных знаний, умений и навыков. их.

Ключевые слова: *интеграция, информационно-коммуникационные технологии, презентация, слайд, мультимедиа, цифровое поколение, профессиональная компетентность.*

Annotation: in the article, in the “Methodology of Mother Tongue Teaching” classes, future specialists will organize the pedagogical process at a high level in the conditions of the information age. it is about monitoring, assessing the level of knowledge, skills and abilities acquired by them.

Key words: *integration, information and communication technologies, presentation, slide, multimedia, digital generation, professional competence.*

Yurtimizda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlarda ta’lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasi alohida tilga olinmoqda. Ta’limning hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, bozor iqtisodiyoti va ishlab chiqarish bilan uzviy hamkorlikda rivojlanishi zarurligi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham ahamiyatli g‘oyalardan biridir.Shuning uchun ham ta’limni rivojlantirishda integratsiyadan unumli foydalanish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ta’lim fan ishlab chiqarish integratsiyasini tashkil etish bo‘yicha tajribalarni to‘plash, ularni amalda qo‘llash borasida o‘qituvchilar faoliyatini tahlil qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda integratsiyali darslarni tashkil qilish va ta’lim samaradorligini oshirish bugunning dolzarb vazifalaridandir.

XXI-asr axborot-texnologiyalar asridir.Bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy-ma’naviy hayotining barcha sohalarini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin.Ayniqsa, ta’limning barcha turlarida o‘quv-tarbiya jarayoniga axborot texnologiyalarini olib kirish orqali ta’lim sifatini uzluksiz ravishda takomillashtirib borish, samaradorligini orttirishga keng e’tibor qaratilmoqda.Yurtimizda jahon axborot-ta’lim muhitiga integrallashishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi barpo etilmoqda.Bu ta’lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy texnik imkoniyatlarga javob beradigan sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. AKTning ta’lim sohasiga kirib kelishi ta’lim usullari va o‘qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish shakllarini sifatli ravishda qulaylashtirib, o‘zgartirish imkonini bermoqda.

Yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda har bir pedagog zamonaviy axborot texnologiyalarini mukammal darajada o‘zlashtirishi kerak.Shu maqsadda “Ona tili o‘qitish metodikasi” darslarida bo‘lajak mutaxassislar axborot asri sharoitida pedagogik jarayonni, multimedia darslarini yuqori darajada sifatli tashkil etish uchun zarur bilim va ko‘nikmalar orqali ijodiy hamda texnologik madaniyat, dars jarayonida qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik

dasturiy vositalar, elektron ta'limiy vositalar, barcha fanlar singari ona tili va adabiyot uchun elektron ta'limiy resurslar va ularga qo'yiladigan talablar va bu borada chet el tajribasi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishlari kerak.

Bugungi kun auditoriyalari o'n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, interaktiv doskalar va boshqa turdagi ta'lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, tablet, fablet, smartfon va smart-soatlari paydo bo'ldi. Bunday zich raqamli muhitga ega bo'lish va u bilan doimiy o'zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qiladi. Raqamli avlod ota-onalarimiz o'rgangan uslubda o'qitilishi mumkin emas va bo'lmasligi ham kerak. Bu avlodni o'qitishda qora doska va oq bo'rdan foydalanish mumkin emas. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta'lim texnologiyalari va didaktik modellarni ommaviy va samarali qo'llash orqali ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvdan faol foydalanish lozim va bu bilan ilmiy tadqiqotda talabalarning ko'nikmalarini rivojlantirish va IT - kompetensiyaga asoslangan ijodiy qobiliyatlarini va kasbiy kompetentligini shakllantirish mumkin.

Kasbiy kompetentlikning bosh omili ham kasbga doir bo'lgan tushuncha va dunyoqarashlarning shakllanishidan iborat. Shunga ko'ra quyidagi omillar ona tili o'qitish metodikasining kasbiy kompetentlik bilan uzviy aloqadorlikni tashkil etadi. Ular: axborotlar bilan ishlash, nutqiy kompetensiyalarning o'zlashtirilishi, kasbga doir mavsumiy yangiliklardan xabardor bo'lish, dars jarayonini tashkil etishda milliy va xalqaro tajribalardan foydalanish, kasbga doir mavjud tajribalarning muntazam ravishda boyitilib borilishi, dars jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan metodlarning o'quvchilarga ta'siri, yosh xususiyati va o'zlashtirish darajasiga ko'ra dars uslublarning tanlanishidir.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari – ta'lim tizimidagi barcha muammolarga yechim emas, balki raqamli avlod uchun ma'ruzalar va seminarlarni ma'lumotlarga boy va interaktiv qilib amalga oshirish vositasidir. Bunda ta'lim sifatini oshirish uchun texnik vositalar: audio-video, kino materiallari, kompyuterlar, videoproyektor, slaydlar, badiiy asarlardan parchalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanish lozim.

Talabalarning dasturiy multimedia mahsulotlarini yarata olish malakasini shakllantirishda taqdimot dasturiga oid bilimlar bilan tanishib chiqamiz.

Power Point prezentatsion (taqdimot) grafikli dasturlar qatoriga kiradi. Bunday dasturlar o'zida matnlar, rasmlar, sxemalar, grafiklar, animatsiya effektlari, ovozli videokliplar va boshqalardan iborat bo'lgan slaydlar hosil qilish imkonini beradi. Slaydlar ketma-ketligidan hosil bo'lgan prezentatsiyani (taqdimotni) kompyuter ekranida, videomonitorlar va katta ekranlarda namoyish qilish mumkin. Bu dastur bilan ishlashdan avval prezentatsiya, slayd, animatsiya tushunchalari haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim. Taqdimotni yaratish qoidalari: slaydlarni tayyorlashda shriftlarga, shriftlarning minimal balandligiga, ranglarning didaktik funksiyasiga va ranglarni ishlatishga, rang ta'siriga, slaydlarni ishlatish usullariga va slaydlarning mantiqiy harakatlarga mosligiga taalluqli eslatmalar o'ziga juda katta diqqat - e'tibor qaratishni talab etadi. Chunki slaydlar ta'lim beruvchi uchun eng yuqori darajadagi taqdimot imkoniyatini beradi.Zamonaviy o'quv jarayonini bu usulsiz tasavvur qilish mumkin emas. Ekranni ortiqcha ko'rgazmalilikka to'ldirish dars samaradorligiga putur yetkazadi.

Taqdimotning asosiy tamoyillari:

–Birinchi sahifada taqdimot nomi, ijrochining familiyasi, guruh haqida ma'lumot joylashtiriladi. Oxirgi sahifada "E'tiboringiz uchun rahmat!" yozuvi bo'lishi kerak.Sahifada minimum matn joylashtirilishi kerak. Sahifa 5-6 qatordan ko'p bo'lmasligi kerak. Agar taqdimot vaqtida katta axborot joylashtirish taqozo qilinsa, ularni bitta sarlavha ostida bir necha sahifaga joylashtirish kerak bo'ladi. Sahifada axborot va unga aloqador elementlarni shunday joylashtirish kerakki, ekran maydonining yuqori qismidan foydalanilsin. Shrift kattaligi — 24 pt bo'lsa, tinglovchilarning eng orqada o'tirganlari uchun ham ko'rinarli va qulay bo'ladi. Taqdimot rasmiylashtirilishida bir xillikni ta'minlash lozim.

Taqdimot sahifalari darsda o'tiladigan mavzuga muvofiq kelishi kerak. Ma'ruzaning har bir abzasi uchun sahifa ajratish ma'qul emas.Sahifani almashtirish effektini mumkin bo'lganicha qo'llash noto'g'ri, bu tinglovchilar diqqatini tortib, ma'ruzadan uzoqlashtiradi.Taqdimotning mazmuni asosan taqdimotchiga bog'liqligini, intonatsiya alohida ahamiyat kasb etishini, tinglovchilarni qiziqtiruvchi muhim omil ekanligini unutmaslik lozim.

Epizodik slaydlar bilan ishlashda: og'zaki, ko'rgazmali, matnli-axborotli majmua oddiy slaydni o'quv epizodiga, ya'ni darsning mustahkamlovchi qismiga aylantira oladi.Multimediali darsda son-sanoqsiz slaydlar talab qilinmaydi. Slaydlarning miqdori o'quv epizodlarining rejalashtirilishiga bog'liq bo'ladi. Darsni loyihalovchi o'qituvchi har bir o'quv epizodini mustaqil didaktik birbutunlikka aylantirishga harakat qilishi zarur. Epizodik slaydlarda taqdim qilinayotgan o'quv materialining ixchamlashtirilishi alohida ahamiyatga ega. Eng yaxshi qurilgan o'quv

epizodida ma'lumotlarning, axborotlarning quruq bayoni o'z ifodasini topmasligi kerak. O'quvchida, o'rganuvchida fikrlash paydo qilish qachonki, axborot to'laqonli bo'lmasa yuzaga keladi. Bundan tashqari, namoyish vaqtida ma'ruzachi tinglovchilarga orqa o'girib, faqat ekranga qarab taqdimotdan ko'zini uzmagan holda matnni o'qib berish kabi xatolarga yo'l qo'ymasligi lozim. Texnik vositalardan aql bilan foydalanish, muammoli vaziyatlarni o'quv topshirig'iga aylantirishni uddalay olish AKTdan foydalanish me'yorini buzmaslikning oldini oladi.

Ona tili darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda quyidagi usul yordamida qo'shma gaplarni izohlashni amalga oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

2. Adilova Sh., Yuldasheva Sh. Til ta'limida integarativ yondashuv. // O'zbek filologiyasining ilmiy-nazariy masalalari va o'qitish texnologiyalari(respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari). – Nukus: Nukus DPI, 2017. 88-90-b.

3. Eshmirzayev G'.Y. Talabalar kompetentligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. // "Boshlang'ich ta'limning zamonaviy tendensiyalari: ta'lim va tarbiya integratsiyasi" (xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi). – Jizzax: 2021.

4. Jo'rayev R., Zunnunov A. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash.–Toshkent: Sharq, 2005.

5. Muxamedova S.X. va b. O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari. – Toshkent: "Excellent Polygraphy", 2020.138-b.

6. G'ulomov A. va b. Ona tili o'qitish metodikasi (Universitet va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti talabalari uchun darslik). Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2012.

Shohsanam TOHIROVA,
Qarshi davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
tokhirovashohsanam9420@gmail.com

ZAMONAVIY TA'LIMNI SHAKLLANTIRISHDAGI TENDENSIYALAR VA KOMPETENSIYAGA ASOSLANGAN TA'LIM

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy ta'lim va uni rivojlantirishdagi tendensiyalar haqida so'z yuritilgan. Zamonaviy ta'limni shakllantiruvchi tendensiyalar asosan pedagogik tadqiqotlar, texnologik yutuqlar va jamiyatdagi o'zgarishlar asosida vujudga keladi va rivojlanadi. Bunday tendensiyalar orqali ta'lim jarayoni yanada samarali tashkil etiladi, shuningdek ijtimoiy va iqtisodiy talablar bilan mos ravishda shakllanadi.

Kalit so'zlar: *pedagogik tendensiyalar, yangi ta'limiy texnologiyalar, yaxlit yondashuv, shaxsiylashtirilgan ta'lim, aralash ta'lim, moslashuvchanlik, gamifikatsiya, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, loyihaga asoslangan o'qish, integratsiya, ta'lim evolyutsiyasi.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются современные тенденции в образовании и пути его развития. Тенденции, формирующие современное образование, в основном основаны на педагогических исследованиях, технологических достижениях и изменениях в обществе. Благодаря этим тенденциям образовательный процесс становится более эффективным и адаптируется к социальным и экономическим требованиям.

Ключевые слова: *педагогические тенденции, новые образовательные технологии, целостный подход, персонализированное обучение, смешанное обучение, гибкость, геймификация, компетентностное обучение, проектное обучение, интеграция, эволюция образования.*

Annotation: this article discusses trends in modern education and their role in its development. The trends shaping modern education are primarily based on pedagogical research, technological advancements, and societal changes. Through these trends, the educational process is organized more effectively and adapts to social and economic demands.

Keywords: *pedagogical trends, new educational technologies, holistic approach, personalized learning, blended learning, flexibility, gamification, competency-based education, project-based learning, integration, education evolution.*


Kirish. Zamonaviy ta'lim bu hozirgi kunda mavjud bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik talablar bilan mos keladigan ta'lim tizimi va yondashuvlar majmuasidir. Zamonaviy ta'lim tendensiyalari ta'lim sohasidagi texnologik

yutuqlar, pedagogik tadqiqotlar va ijtimoiy o‘zgarishlar ta’sirida doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Zamonaviy ta’lim yo‘nalishlari ta’lim jarayonini yanada qiziqarli, inklyuziv va samarali qilishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy pedagogik tendensiyalarni ko‘plab olimlar o‘rgangan. Ular olib borgan tadqiqotlari pedagogika sohasida ahamiyatli o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan. Bu o‘zgarishlar doirasiga ta’lim metodologiyasining yangilanishi, talablarga individual yondashuv va yangi ta’limiy texnologiyalardan foydalanish kabilarni kiritishimiz mumkin. Bunday olimlardan biri Jon Dyuiningdir. U yaratgan nazariyalar asosida inson tajribasi bu ta’lim va ijtimoiy islohotda negiz yo‘nalish bo‘lishi kerak degan tushuncha yotadi. Uning fikricha, har qanday bilim amaliy egallanadi va dunyo tajribasi bilan birga takomillashadi. O‘rganilgan nazariy bilimlar esa faqatgina amaliyotda qo‘llangan holatdagina haqiqiy tushunishni vujudga keltiradi, foydali bilimga aylanadi. Fikrimizning isboti sifatida Paul Mainning Jon Dyuining haqida quyidagi fikrlarini keltirib o‘tishni joiz deb topdik: “Dewey uchun ta’lim nafaqat nazariy bilim olish, balki amaliy tajriba orttirish hamdir. U ta’limni yaxlit yondashuv bilan ko‘rib chiqib, o‘qish jarayonini bilim va hayotiy tajribalarni birlashtiruvchi, o‘quvchilarni fikrlash ko‘nikmalarini aniq natijalar bilan uyg‘unlashtirishga undovchi uzluksiz jarayon deb bilgan. Ushbu ta’lim nuqtai nazari o‘quvchilarga ichki mazmun kasb etgan va ularning o‘quvchilar sifatida o‘sishiga hissa qo‘shadigan muhim tajribalarni taqdim etadi”. [1] Hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an’anaviy ta’limda talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularning egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. [2;28 b] Yuqorida keltirilgandek, rivojlanib, o‘zgarib borayotgan ta’lim jarayonida ham talabadan ham, pedagogdan o‘zgacha yondashuv talab etiladi.

Materiallar va metodlar. Yangi ta’lim uslublari va texnologiyalaridan foydalanish o‘qitish va o‘qish jarayonini zamon bilan uyg‘unlashtirishga yordam beradi. Bunday uyg‘unlikning eng asosiy ko‘rinishi bu albatta moslashuvchanlikdir. Ya’ni bugungi kunda o‘zgarib borayotgan mehnat bozori va texnologik rivojlanish sabab, talabalardan yangi bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishlari talab etilmoqda. Zamonaviy ta’lim tendensiyalari esa talabalarni kelajakdagi turli xil vaziyatlarga moslashishga tayyorlaydi. Bundan tashqari, yuqoridagi tendensiyalar orqali ta’limda texnologiyaning roli yanada ortadi. Bu esa o‘z navbatida, masofaviy ta’lim, onlayn darslar, sun’iy intellekt va raqamli vositalar orqali ta’limni yanada interaktiv va individual qilishi mumkin.

Tahlillar va natijalar. Bugungi kunda bir nechta zamonaviy ta’lim tendensiyalari mavjud. Ulardan eng muhim va bugungi kunda aktuallarini quyidagi rasmda ko‘rish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Zamonaviy tendensiyalar

Shaxsiylashtirilgan ta’lim har bir o‘quvchining ehtiyojlari, qiziqishlari va afzalliklariga mos ravishda ta’lim tajribalarini moslashtiradi. Bu yondashuv o‘quvchilarni o‘z sur’atiga qarab rivojlanishiga va kerakli joyda yordam olishiga imkon beruvchi maxsus ta’lim yo‘llarini yaratish uchun ma’lumotlar va texnologiyadan foydalanadi. Bu ta’limning asosida talabaning qobiliyatlari va bilim darajasi bilan bir qatorda, uning o‘rganishga bo’lgan motivatsiyasini ham kuchaytirish nazarda tutiladi.

Aralash ta’lim an’anaviy sinfda o‘qitish bilan onlayn o‘rganishni birlashtiradi. Ushbu gibrid model o‘quvchilarga materiallarga kirish va topshiriqlarni onlayn tarzda bajarish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar va tengdoshlar bilan yuzma-yuz muloqot qilishdan ham foyda olish imkonini beradi. Aralash ta’limning asosiy afzalliklaridan biri bu moslashuvchanlik hisoblanadi. Ya‘ni talaba onlayn ta’limni o‘ziga mos, qulay vaqtda o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladi. Bundan tashqari aralash ta’limda o‘qitish jarayoni yanada interaktiv va talabalar ehtiyojiga moslashgan bo‘ladi.

Gamifikatsiya o‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali o‘quvchilarni jalb qilish va ularni o‘qishga rag‘batlantiradi. O‘yin ballari, nishonlar, reytinglar va interaktiv qiyinchiliklardan foydalanish orqali o‘qituvchilar ta’limni yanada qiziqarli qilib, o‘quvchilarni o‘z maqsadlariga erishishga undaydilar. Bu ta’limda o‘yinlarda uchraydigan elementlar, ya’ni ballar, darajalar, mukofotlar yoki reytinglar orqali talabalarning o‘quv faoliyatlarini rivojlantirish va ishtiyoqini

o‘stirish maqsad qilinadi.

Kompetensiyaga asoslangan ta’lim (KBT) – o‘quvchilarni dars vaqtiga emas, balki ma’lum ko‘nikmalar yoki kompetensiyalarni egallashlariga qaratiladi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarga qachonki ular o‘zlashtirishni namoyish qila olishsa, o‘shanda o‘zlashtirishiga imkon beradi, bu esa ta’limni yanada samarali va shaxsiylashtirilgan qiladi. Kompetensiyaga asoslangan ta’lim yo‘nalishining ajralib turadigan jihati shundaki, bu yondashuvda individual yondashuv va amaliyotga yo‘naltirilganlikning ustunlik qilishidir.

Loyihaga asoslangan o‘qish (LAO) – o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash, hamkorlik qilish va bilimlarni amaliy qo‘llashni talab qiladigan real loyihalarga jalb qiladi. LAO o‘quvchilarga mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi va o‘rganganlarini haqiqiy hayotda qo‘llash qobiliyatini oshiradi. Bu yondashuvning asosiy xususiyati bu real muammolarga yo‘naltirilganlik va fanda chuqur bilim olishni qo’llab- quvvatlashidir.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim tendensiyalari ta’lim manzarasini qayta shakllantirib, o‘qishni yanada shaxsiylashtirilgan, qiziqarli va samarali qilmoqda. Ushbu tendensiyalarni qabul qilish orqali o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarining turli ehtiyojlarini yaxshiroq qondirishlari va ularni kelajakdagi qiyinchiliklarga tayyorlashlari mumkin. Texnologiyani integratsiya qilish, ijtimoiy va emotsional rivojlanishga e’tibor qaratish hamda amaliy, real hayotiy qo‘llanmalarga urg‘u berish bugungi kunda ta’lim evolyutsiyasini rivojlantiruvchi asosiy elementlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Paul Main “John Dewey’s theory” February 14, 2023. https://www.structural-learning.com/post/john-deweys theory#:~:text=At%20the%20core%20of%20John,material%20firsthand%20or%20through%20experimentation
2. Sh.R.Ziyayeva Zamonaviy pedagogik texnologiyalar -dars samaradorligining muhim omili sifatida “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024-yil, 20-fevral 82-bet.
3. B.H.Xoliyorov “ Qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan yo‘nalishlarda ingliz tilini o‘qitishda leksik kompetensiyani rivojlantirish” dissertatsiya ishi. 65-bet.
4. Sh.R. Madrahimova “Leksik kompetensiya va uni rivojlantirish usullari (xorijiy tillarni o‘rganish misolida)” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4(8), Sep., 2024. 304- bet.
5. A.A. Mirolyubov va boshq. O‘rta maktabda chet tillarini o‘qitishning umumiy metodikasi Tahriri ostida. O‘qituvchi, – T., 1974. 34- bet.

Feruza RAHMATOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat til va adabiyot
universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

O‘ZBEK TILIDA “BOSH” LEKSEMASINING MA’NO TARAQQIYOTI

Annotatsiya: tildagi so‘zlar birdan ortiq ma’no anglatish xususiyatiga ega. Birdan ortiq ma’no anglatish xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlar ko‘p ma’noli so‘zlar hisoblanadi. Ko‘p ma’nolilik semantik hodisa bo‘lib, tilimizdagi so‘z tejash qonuniyati, umumiylik, o‘xshashlik va aloqadorlik tamoyillari asosida yuzaga keladi. Ma’lumki, dunyodagi barcha odamlar, har qanday millat, tanadagi bosh, ko‘z, quloq va oyoq kabi qismlarni yaxshi biladi va tana a’zolari nomlarini ifodalovchi bunday so‘zlar har qanday narsada zaruriy qatorni tashkil qiladi.Somatik birliklarsiz insonni, insoniy munosabatlarni, jamiyatni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Somatik birliklar juda ko‘p qo‘llanishiga va polisemantik xususiyatiga ko‘ra boshqa birliklardan ajralib turadi. O‘zbek tilidagi aksariyat tana a’zolari nomlari ko‘p ma’noli hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *somatizm, polisemantik xususiyat, metafora, metanimiya, meronim, sema, holonim*

Annotation: words in a language have more than one meaning. Words that have more than one meaning are polysemous words. Ambiguity is a semantic phenomenon, which occurs on the basis of the law of word saving in our language, the principles of generality, similarity and relatedness. It is known that all people of the world, of any nationality, are familiar with the parts of the body such as the head, eyes, ears and voice, and such words representing the names of the body parts form a necessary series in anything. It is impossible to imagine a person, human relations, society without somatic units. Somatic units differ from other units due to their wide usage and polysemantic nature. Most names of body parts in the Uzbek language are ambiguous.

Key words: *somatism, polysemantic feature, metaphor, metonymy, meronym, sema, holonym*

Аннотация: слова в языке имеют более одного значения. Слова, имеющие более одного значения,

являются многозначными словами. Многозначность – семантическое явление, возникающее на основе закона сбережения слов в нашем языке, принципов общности, сходства и родства. Известно, что все люди мира любой национальности хорошо знают такие части тела, как голова, глаза, уши и ступни, и такие слова, обозначающие названия частей тела, образуют в чем-либо необходимую последовательность. Невозможно представить человека, человеческие отношения, общество без соматических единиц. Соматические единицы отличаются от других единиц широким применением и многозначностью. Большинство названий частей тела в узбекском языке неоднозначны.

Ключевые слова: *соматизм, многозначность, метафора, метонимия, мероним, сема, холоним.*

Ko‘p ma’nolilik semantik hodisa bo‘lib, tilimizdagi so‘z tejash qonuniyati, umumiylik, o‘xshashlik va aloqadorlik tamoyillari asosida yuzaga keladi. Tilshunos Beloshapkovoy “Polisemiya—olam haqidagi ma’lumotlarni tilda saqlashning eng ixcham va qulay usulidir”, - degan edi[1]. Bir so‘z bilan aytganda, inson borliq, atrof-muhitni o‘rganar ekan, tabiat, olam haqidagi bilimlarga ega bo‘lib boradi. Cheksiz olam va u haqidagi bilimlar esa cheklangan til imkoniyatlari asosida alohida nomlarda emas, balki umumlashgan holda bir nomad ifodalanishi mumkin. Ko‘p ma’nolilikda xalq muayyan nomga bir nechta ma’noni yuklaydi.Va shu tariqa til va tafakkur uchun ixchamlik va qulaylik vujudga keladi. Bu hodisada yana badiiylik, subyektiv baho ifodalashning turli- tuman imkoniyatlari mavjuddir. Biz quyida tana a’zolari nomlarida ko‘p ma’nolilik hodisasini ko‘rib chiqamiz.

Tana a’zolari polisemiyasi xususida T.N.Chayko quyidagi fikrni beradi:“Tana qismlari doimiy ravishda bizning ko‘zimiz oldida ekanligi tufayli, ular qiyoslashning o‘ziga xos standartiga aylanadi”. Ma’lumki, polisemiya eng dastlab yaratilgan umumturkiy qatlamga xos bo‘lgan so‘zlarda ko‘p kuzatiladi. Umumturkiy so‘zlarning semantik xususiyatlari talqinida H.Jamolxonov ham shunday yozgan edi: “Ma’noning ko‘chishi – bir predmet (yoki hodisa) nomining keyinchalik boshqa predmet yoki hodisani anglatish xususiyatiga ega bo‘lishi. Bunday ko‘chish shu nom bilan atalayotgan ikki yoki undan ortiq predmet (hodisa) o‘rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi”[2].

O‘zbek tilidagi aksariyat tana a’zolari nomlari ko‘p ma’nolidir. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da inson tana a’zolarining nomlarini ifodalovchi 239 ta so‘zning izohi keltirilgan bo‘lib, shulardan 147 ta so‘z polisemantik ya’ni ko‘p ma’noli hisoblanadi. Bu esa lug‘atda keltirilgan 239 ta so‘zning 62 foizi ko‘p ma’noli ekanligini ko‘rsatib turibdi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da Bosh so‘zining 20 ta ma’nosi izohlangan. Lug‘atda qo‘l so‘zining 10 ta, yuz so‘zining 8 ta, oyoq so‘zining 7 ta, og‘iz so‘zining 8 ta , quloq so‘zining 6 ta, tirnoq so‘zining 6 ta, qosh so‘zining 4 ta , lab so‘zining 4 ta ma’nosi izohlangan.

Tadqiqotchi B.Jo‘rayevning aniqlashicha, bosh so‘zining 24 ta ma’nosi bo‘lib, 4 tasi lug‘atda aks etmagan. Shu kabi og‘iz so‘zining 12 ta ma’nosi bo‘lib, 4 tasi, yuz so‘zining 3 ta , til so‘zining esa 2 ta ma’nosi aks etmagan. Tana a’zolari nomlari bilan bog‘liq ma’nolarning bunday taraqqiy etishiga sabab ya’ni polisemantik xususiyat kasb etishiga sabab, ularning tildagi qo‘llanish darajasining yuqoriligi va inson xotirasida saqlashning qulayligida ekanligini bildik. O‘zbek tilida eng keng tarqalgan nom ko‘chish usuli metaforadir. Metaforaning asosiy belgisi—o‘xshashlikdir.

Metafora hodisasi bevosita insonning bilish jarayoni bilan bog‘liq. Inson hayotni anglar ekan, uni o‘z tanasi misolida tasavvur qiladi. Bu jarayonda atrofdagi shakl, belgi, o‘rin va harakatlarni o‘z tanasiga mos tarzda o‘xshatishlar asosida nomlay boshlaydi.

Bosh so‘zining semalar taraqqiyotini ko‘rib chiqamiz. Bosh so‘zi qadimdan ma’nolar taraqqiyoti bo‘yicha eng faol so‘zlardan biri bo‘lgan.

“Древнетюркский словарь” da bosh so‘zining 9 ma’nosi izohlangan.

Bular: 1. Bosh, kalla; 2.Tomon, kravatning boshi 3.Qism, ko‘zaning boshi 4.Balandlik(tog‘ning boshi) 5.Vaqt(biror voqeaning boshlanish vaqti) 6.Yuqori

7. O‘rin 8.Boshliq, rahbar 9.Javobgarlik[3]

Bosh so‘zi “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da 7 xil ma’noda qo‘llanganligi aytib o‘tilgan:[4]

1.BOSH—**kalla, bosh:**

Ne tan, ne tanda bosh, ne bosh aro ko‘z,
Ne yuz, ne yuzda lab, ne lab aro so‘z (Farhod va Shirin 6-bet)

To zuhaldur qoshingda qul bo‘lsun,
Yo quyoshdur boshingda evrulsun. (Munshaot, 135)

2. Biror narsaning uchi: kova… temurchilar beliga bog‘lar saxtiyonni yig‘och boshig‘a bog‘lab, alam qilib yurub… (Tarixi muluki ajam, 507)

1 Современный русский язык: Учеб. для филол. С56 спец. ун-тов / В. А. Белошапкова, Е. А. Брызгуно- ва, Е. А. Земская и др.; Под ред. В. А. Белошапко- вой.-2-е изд., испр. и доп. - М.: Высш. шк., 1989.-800 с.

2 Hozirgi o`zbek adabiy tili./H.Jamolxonov. –Toshkent: “Talqin”, 2005. 156-b.

3 Древнетюркский словарь / под ред. Д.М.Насилова, И.В. Кормушина и др.; сост. Т.А. Боровкова, Л.В. Дмитриева, А.А. Зырин, И.В. Кормушин и др. 2-е изд., пересмотр. – Астана: «Ғылым» баспасы, 2016. – 760 с)

4 Alisher Navoiy asarlarining izohli lug`ati O‘zbekiston SSR fanlar akademiyasi muxbir a’zosi E.I.Fozilov tahriri ostida –Toshkent, 1983

3. Boshlanish, avval: shanba sabohi safar oyining boshida inoyatnomayekim, bu xoksorg‘a mujribi tafoxur erdi—yetishdi…(Munshaot. 104)

Qo‘yub yuz kordon har ish boshida
Yana ming korgar har yuz qoshida (Farhod va Shirin, 41)

4. Miya, xayol, ong: agar kishi may havosin boshidin chiqarur, g‘ijjak maddi nolasi bila yolborur. (Mahbub ul qulub, 36)

5. Ust, tepa yuqori tomon: ba’zi azizlar va as’hob alarming (Jomiyning) boshlarida jam’ erdilar. (Xamsat ul mutahayyirin, 707)

6. Og‘iz:ittifoqo bir choh boshida va’z haml qildi. (Tarixi muluki ajam, 513)

7. Chog‘i, payti, vaqti: Subhi davlat yuzung, ey tavsani gardun sanga ashhab

Tojing ustidagi dur o‘ylaki, tong boshida kavkab. (Mezon-ul avzon, 43)

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da Bosh so‘zining 20 ta ma’nosi izohlangan.

Bosh so‘zi dumaloqlik, birinchilik, yuqorilik (narsalarning fazoviy joylashuviga nisbatan), asosiylik, payt, o‘rin(narsalarning yer bo‘ylab yotiq holatiga nisbatan), katta, mansab kabi semalar asosida taraqqiy etgan:

1. Dumaloq semasidan –karamning boshi, piyozning boshi

2. Birinchilik semasidan – bosh kelin, ko‘chaning boshi (birinchi qadam qo‘yilgan joy ma’nosida)

3. Yuqorilik semasidan — (narsalarning fazoviy joylashuviga qarab) tog‘ning boshi, tomning boshi, daraxtning boshi.

4. Asosiylik semasidan —bosh masala, bosh maqsad.

5. Payt semasidan – sentabrning boshi, qishning boshi, haftaning boshi

6. O‘rin semasidan—(atrof ma’nosida narsalarning yerga nisbatan yotiq makonini bildiradi) o‘choqning boshi, tandirning boshi, chorpoyaning boshi

7. Katta (ulkan, asosiy) semasidan—bosh toboq(kurash sport turida eng katta sovrin ma’nosida), bosh darvoza(asosiy, ulkan kirish joyi ma’nosida)

8. Mansab (**mansab jihatdan katta, yuqori turuvchi**)—bosh bakovul, bosh sarkarda, bosh hukmdor

“O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati”da bosh so‘zini quyidagicha tahlil qilinadi:

Bosh, kalla, sar. Tananing bo‘yindan yuqorigi, oldingi(odamda va hayvonlarda) qismi. Kalla so‘zining odamga nisbatan qo‘llanishi, asosan, so‘zlashuv tiliga xos va bunday qo‘llanganda unda salbiy baho mavjud bo‘ladi. Sar kam qo‘llanadi, poetik nutqda uchraydi[1].

Umumturkiy tillarning lug‘at tarkibidagi tana a’zolari odatda shu tilda so‘zlovchilarning ongida meronimik(butun-qism) munosabatlar doirasida ma’lum bir tartib bilan joy oladi.

Uzoqdan bosh ko‘rindi.Bu gapda bosh so‘zi inson so‘zini ifodalayapti. Bu yerda inson holonim, bosh esa uning qismi ya’ni meronim. Qora boshim oqardi.Bu jumlada esa bosh so‘zi soch ma’nosini ifodalayapti. Bunda bosh holonim, soch esa meronim hisoblanadi.

Bosh so‘zi holonim sifatida meronimlarga bo‘linadi. O‘zbek tilida bosh so‘zi 45 leksemani o‘zida birlashtiradigan yaxlit butunlikni ifodalaydi. Bosh leksemasining meronimlari : soch, tuk, ensa, miya, peshona(manglay), qosh(abro‘), ko‘z(diyda), quloq, yonoq, qovoq(qabog‘), dudoq, saqoq, chakka, kiprik, burun, lab, irin, og‘iz, tish, til, tanglay, milk, xat, yuz, oraz, ruxsor, uzor, bet, aft, bashara, turq, istara, chehra, dahan, qorachiq, solinchak, bo‘yin, tomoq, gisu, zulf, jag‘.

Tahlil natijalariga ko‘ra “bosh” so‘zi juda faol va ko‘plab ma’no qirralariga ega. Bu ma’no qirralarining kelib chiqishi esa xalqning etnografik shakllanishi, madaniyati, urf-odatlarida bevosita namoyon bo‘ladi.

1 O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. – Toshkent:G`afur Gulom nashriyoti, 2022.992-b

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. I jild. –Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2020.Tuzatilgan 2-nashri.332 –339-b.

2. “O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati” II tomlik 1-tom144-bet
(Nizomiddin Mahmudov tahriri ostida) –Toshkent:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022-yil

3. Древнетюркский словарь / под ред. Д.М.Насилова, И.В. Кормушина и др.; сост. Т.А. Боровкова, Л.В. Дмитриева, А.А. Зырин, И.В. Кормушин и др. 2-е изд., пересмотр. – Астана: «Ғылым» баспасы, 2016. – 760 с)

4. “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” O‘zbekiston SSR fanlar akademiyasi muxbir a’zosi E.I.Fozilov tahriri ostida –Toshkent, 1983.

5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар).
I жилд. – Тошкнет: Университет, 2000.598-б.

6. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. I-IV томлар. –М.: Наука, 1974-1989.

7. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: ФАН, 1971.471-б.

8. Эшқобил Шукур. Бобо сўз изидан. –Тошкент: “MASHHUR-PRESS”, 2018.336-б.
9. Вакк Ф.О. Соматические фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореф. дисс…канд. филол. наук.–Таллин, 1964.23-с.
10. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. 2017, 104-б.
11. Hozirgi o`zbek adabiy tili./H.Jamolxonov. –Toshkent: “Talqin”, 2005.156-b

Zarnigor ESHIMOVA,
ShDPI magistranti

ATOYI SHE’RIYATIDA XALQONA URF-ODATLAR TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada Atoiy she’riyatida uchraydigan marosim, xalqona odatlar talqini haqida so‘z yuritiladi .
Kalit so‘zlar: *xalq og‘zaki ijodi, ertak, doston, matal, kosmogonik syujet, yumor*
Аннотация: в данной статье говорится об интерпретации обрядов и народных обычаев, встречающихся в поэзии Атои.
Ключевые слова: *фольклор, сказка, рассказ, космогонический сюжет, юмор.*
Annotation: this article talks about the interpretation of rituals and folk customs found in Atoi's poetry.
Key words: *folklore, fairy tale, story, cosmogonic plot, humor*

Atoyi she’riyati keng qamrovli she’riyat hisoblanib, unda har sohadan shingillarni topamiz.Ularning ichidan eng boy va keng qamrovlilaridan biri xalqona urf-odatlar haqida yozilgan g‘azallardir.

Atoyi g‘azallarida “qush uchirish” va “xino qo‘yish”, “kabutarning noma keltirishi”, “mahbubning ko‘k tun kiyib chiqishi” yoki uning “niqobsiz tom ustida paydo bo‘lishi”, “g‘am, aza kunlari yor-u birodarlarning hol so‘rashi”, “qushlarga tuzoq qo‘yish”, musavvirlik, chorvachilik, ot va qoramolning turmushdagi ahamiyati bilan bog‘liq baytlar uchraydi.Endi galma-galdan bu baytlarda kelgan so‘zlarni tahlil qilib chiqamiz.

“Qush uchirish” – bu obraz xalq og‘zaki ijodida juda ko‘p uchraydigan obrazlardan hisoblanib, ulardan biri qadimda el-u yurtga shoh tanlashda aynan shu usuldan foydalanishgan. Asosan biz bu haqidagi ma’lumotlarni xalq og‘zaki ijodining namunalaridan biri bo‘lmish ertak, doston, matal va rivoyatlarda uchratamiz.

“Xino qo‘yish” – bu ibora xalq orasida juda ko‘p uchraydi. Aynan sekin ish qiladigan, bemalolxo‘ja insonlarga nisbatan shu ibora qo‘llaniladi.

“Kabutarning noma keltirishi” – bu ish qadimdan qo‘llanilgan bo‘lib, podshohlar, oddiy aholi shunday usuldan foydalanishgan. Kabutarning noma keltirishi xabar yetkazish hisoblanadi.Hozirda ham yangilik, xabar ma’nosi saqlanib qolib, xalq orasida ba’zi shevalarda ishlatiladi.

“Mahbubning ko‘k to‘n kiyib chiqishi” – bu asosan, qadimda ham, hozirda ham aza, ta’ziya ma’nosini bildirib kelgan.

Xuddi yuqoridagi holatlarga yondosh qilib, “g‘am, aza kunlari yor-u birodarlarning hol so‘rashi” kabi misollar keltirilishi Atoiyning xalq ichida xalq bilan yondosh yashaganligi, xalqona urf-odatlardan xabardorligini isbotlaydi.

“Qushlarga tuzoq qo‘yish”ni biz haqiqiy ma’noda qushlarni ovlash deb tushunsak bo‘ladi, sababi aholi o‘rtasida o‘sha davrda ma’lum bo‘lgan ov turlaridan biri hisoblangan.

Yoki chorvachilik, qoramol va otlarga g‘azal tarkibida to‘xtalib o‘tish oddiy xalq va uning turmushi ochib berilishi asosi hisoblanadi.

Atoiy ko‘p g‘azallarida xalq asarlaridagi qahramonlar obrazi quyuq mazmun va jilo bergani, xalq san’atkorligiga sayqal bag‘ishlagani, xalq maqollari, ta’birlari va xalq yumori latofat qo‘shganligini professor N. Mallayev ham aytib o‘tgan.

Yoki quyidagi baytga e’tibor qaratamiz:

Zehni noziklar muammo istilohin tuzgali,
Og‘zitek mushkilkusho hargiz muammo bo‘lmadi.

Bu baytda o‘zbek xalqi hayotida uzoq davrdan beri yashab kelayotgan odatlardan biri “mushkilkushod” yoki “Bibi Mushkulkushod” keltirilgan. Bibi Mushkulkushod, Bibi Seshanbalar o‘zbek xotin-qizlar tasavvurida kishilarning mushkulini oson qiladigan avliyo xotinlar sanalgan.Qadimdan otinoyilar “ko‘zi ochiq” ayollar mushkulkushod marosimini o‘tkazganlar. Boshiga mushkul tushgan ayol (oilada biror falokat, bemorlik bo‘lsa yoki bir yumush oldidan) mahallaning otinoiyisiga 2 ta issiq non, ikki hovuch qora mayiz,

ikki pilta chiroq, bir tanga oborib mushkuli oson bo‘lishi uchun Bibi Mushkulkushoddan madad so‘rab tilovat o‘qittirgan.Bu marosim esa chorshanba kuni o‘tkazilgan. Chunki, afsonaga ko‘ra Hazrat Bahouddin Naqshbandning xolalari o‘rog‘ini yo‘qotgan o‘tinchiga yordam berib, har chorshanba kuni bu ayolni eslab is-chiroq qilishi lozimligini tayinlagan.

Shundan buyon marosim faqat chorshanba kunlari o‘tkaziladigan bo‘lgan. Lekin bu shariatimizda yo‘q narsa, mushkulni kushid qiluvchi, dardimizni yengil qiluvchi zot Alloh taoloning o‘zi.

Yana bir baytda esa:

Ushbu yuzing oldida yolg‘iz tutulmas to‘lin oy,
Ham erur payvasta qoshingdin yangi oyning hami…

Bu baytdagi “oy tutilishi” hodisasi tamsil san’ati bilan juda mohirona tasvirlangan. Mifologiyada bu hodisaga kosmogonik syujet deb qaraladi.Qadimgi davrda tabiatning qudratli kuchlari – shamol, momoqaldiroq, yer, quyosh, oy, yomg‘ir kabilarni ilohiylashtirib, ularda ruh mavjud deb hisoblashgan. Ayniqsa oy, quyosh tutilishiga ilohiy munosabatda bo‘lishgan.Bu hodisalarga e’tibor berilib, qurbonliklar qilingan. Ruhlar haqqiga duo qilingan va marosimlar o‘tkazilgan.

Ko‘zlaring ahvolini so‘rgil meni devonadin,
So‘rmagil oqilg‘akim, o‘srukni bilmas sog‘lar.

Xalqimiz orasida haqiqiy Alloh ishqini sog‘ odamlar emas, balki shu ishq

yo‘lida telba bo‘lganlardan so‘rang degan so‘z yuradi. Qaysini Majnun qilgan ham aslida shu Alloh ishqidir.Bu xalqimizning urf-odatiga misol bo‘lolmasa ham, doimiy odat tusiga aylabgan so‘zlar qatoriga kiradi.

Ko‘zlaring ne turfa sohirlardururkim, tez boqib,
Jumla Kashmir elini botil qildilar.

Kashmir – Osiyodagi, Hind daryosining yuqori havzasidagi tarixiy viloyat. Qadimdan adabiyotimizda sehrgarlik, sehr-jodu degan ma’nolarda ishlatilib, ko‘pincha g‘azallarda mashuqalar kashmiri sehrgar deb ataladi. Bu so‘z xalq orasida ham juda mashhur bo‘lib, ayyor, aldoqchi, sehr-jodu ishlari bilan shug‘ullanadiganlarni shunday atashadi.

Emdi bildim rost ermish, balki ko‘rdim ko‘z bila,
Ulki derlar suv qizi, goh-goh ko‘zga ko‘rinur.

Ertaklar, afsonalar va rivoyatlarda “suv parisi” haqida ko‘p gapiriladi. Suv parisi insonlarni aqldan ozdiruvchi ovozga ega bo‘lib, uning xonishi asosan erkaklarga xush yoqib, ularni aqldan ozdirgan. Yoki ba’zan-ba’zan suvdan chiqib ko‘rinish berib, o‘ziga maftun etgan.Atoiy esa bu obrazdan mohirlik bilan foydalangan.

Atoiyning deyarli har bir g‘azali boshdan oxirigacha xalqona urf-odalar va afsonaviy shaxslar haqidagi misollarga to‘la.

Sababi u xalq adibi, ularning qalb tarjimoni.G‘azallar tarkibidagi har bir bayt va undagi soddalik va xalqchillik o‘qirmanni, ya’ni kitobxonni bee’tibor qoldirmaydi. Xalqona urf-odatlar bilan birga yashash esa g‘azalxonlikni va kitobsevarlikni o‘qirman ongida rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Devoni Shayxzoda Atoyi” – Toshkent: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2008
2. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” Ohunjon Safarov. –Toshkent:“Musiqa”nashriyoti, 2010.
3. O‘zbek adabiyot tarixi.5tomlik.1-tom. –T.:Fan,1971.

Yulduz NORQULOVA,
O‘zMU magistranti
@yulduznorqulova27gmail.com

“YOLG‘IZLIK” QISSASIDA QAHRAMON RUHIY DUNYOSINING TASVIRI

Annotatsiya: mazkur maqolada yozuvchi Ulug‘bek Hamdamning “Yolg‘izlik” qissasida qahramon ruhiy dunyosi tasviri, ruhiyat tasvirida badiiy vositalar, qahramon ichki dunyosidagi qarama-qarshiliklar tadqiq etilgan.
Kalit so‘zlar: *ruhiyat, aql, ko‘ngil, isyon, arosat, kechinma.*
Аннотация: в данной статье исследуются описание душевного мира героя в повести “Одиночество” писателя Улугбека Хамдама, художественные средства в описании психики, противоречия во внутреннем мире героя.
Ключевые слова: *психика, разум, сердце, бунт,*
Annotation: this article examines the description of the hero’s mental world in the story “Loneliness” by the writer Ulugbek Hamdam, artistic means in describing the psyche and contradictions in the hero’s inner world.
Key words: *psyche, mind, heart, riot,*

Ba’zan shunday vaziyatlar bo‘ladiki, inson atrofi to‘la odam bo‘lsa-da, o‘zini yolg‘iz, kimsasiz his qiladi,

bunga atrofdagilarning har doim ham boshqa bir inson qalbini anglamasliklari, ular qalbida kechayotgan isyonni eshitmasliklarini sabab qilib ko‘rsatishimiz mumkin.Ulug‘bek Hamdamning “Yolg‘izlik” qissasi qahramoni ham ana shunday yolg‘iz edi. Atrofida yaqinlari bo‘lishiga qaramasdan o‘zini hech kimsasiz his qilardi.

Qissa uch qismdan iborat bo‘lib voqealar rivoji – qahramonning yolg‘izlikdagi o‘y-xayollari ikkinchi qismda bayon qilinadi. Yozuvchining boshqa ko‘pgina asarlarida bo‘lgani kabi ushbu qissa qahramoni ham ismsiz. Yoshi o‘ttizga yaqinlashib qolgan, oilali, hayoti bir maromda ketayotgan qahramon bir kuni do‘stining uyiga boradi, u yerdan narsalar sochilib yotgan uydan boshqa hech kimni topolmaydi. Ammo o‘sha kundan boshlab uning hayoti yolg‘izlikka aylanadi. Endi u avvalgidek – boshqa odamlardek yashay olmaydi, u o‘z botiniga ketishni istab qoladi, lekin bu dunyoda butunlay ko‘ngilga berilib bo‘lmasligini-da juda yaxshi tushunib turardi. Biroq, “yuragimning juda chuqur joyida men baribir yolg‘izman” deydi qahramon. Xo‘sh, uni yolg‘izlikka giriftor qilgan kuch nima edi? Atrofdagi daraxtlarning shovullagan tovushi uning qulog‘iga olam musiqasi yanglig‘ eshitiladi va ushbu ohang tufayli qahramon qalbida qayta va qayta iztirob tug‘ilaveradi, aynan shu iztirob uning oddiy odamlardek yashashiga izn bermaydi.

Adib ijodini o‘rganib, tahlil etib kelayotgan adabiyotshunoslardan biri Rahimjon Rahmat “Yolg‘izlik” qissasi haqida shunday yozadi:

“Yolg‘izlik”ning ismsiz, qiyofasiz, makon va zamonsiz qahramoni balchiqqa tushib qolgan katta baliqqa o‘xshaydi. Bechora suzay desa, suzolmaydi, o‘lay desa buning ham iloji yo‘q. Arosat! Qahramonning o‘y-fikrlari va hayot tarzidagi parchalanish ham, meningcha, uni yolg‘izlikka giriftor etgan. U suygan mashg‘uloti – ijod uchun imkon va sharoit topolmay qiynaladi. Oddiy turmush tashvishlarini bartaraf etish uchun butun ruhiy va jismoniy quvvati sarf bo‘layotganidan azob chekadi”.

Darhaqiqat, ijodiy qahramon rostdan ham arosatda edi, ko‘ngil yo‘lini tutay desa, bu dunyo ishlari: oila, ayoli, farzandi qolib ketadi, faqat bu dunyo uchun yelib-yugurish esa uning qalbiga malol keladi. U hatto ishga kirganda juda quvonib ketganligidan o‘zidan-o‘zi uyalib ketadi: “Yo tavba! Shumidi, shuginamidi? Osmono‘par quvonchimning sababi bor-yo‘g‘i ishga kirganligimmi? Nahotki, mening kattaroq sevinchim bo‘lmasa? Bor-yo‘g‘i ish topibman-u, xuddi butun gunohlarini Alloh mag‘firat aylagan bandadek shodlanaman! Atigi qornimizni boqish vositasini berishibdi-yu jannatga yo‘llanma olgan ruh yanglig‘ baxtdan xushimni yo‘qotaman!.. Do-o-od, faryod! Bundan ortiq xo‘rlik bo‘ladimi?..”

Qahramon bunday o‘ylari bilan xuddi bugungi kunning barcha odamlariga ko‘zgu tutgandek bo‘ladi. Chunki bugungi kunning har qanday odamining eng “katta” tashvishi bu aynan tirikchilik, qorin g‘ami bo‘lib qolgan, faqat qissa qahramoni bizdan farqli o‘laroq, bu ishi noto‘g‘ri ekanligini yaxshi anglab turardi, anglagani holda o‘zidan, xursandchiliklarining naqadar arzimas ekanligidan ham uyalar, ham o‘ziga achinardi. Uni bu ahvoldan, dunyoning moddiy mayda-chuydalaridan faqatgina qog‘oz qutqara oladi. Chunki u faqatgina oq qog‘ozga dilidagi borini to‘kib sola oladi, uning dardlarining davosi ham, dunyodagi birdan-bir ko‘ngil hamrohi ham aynan shu qog‘ozdir.

U bir vaqtning o‘zida ikkita narsaga tegishli: aqli bu dunyo tashvishlari bilan band bo‘lsa, ruhi Alloh ishqi, jannat orzusiga intiladi. Bu dunyodan butkul voz kechib majnun bo‘lay desa, oilasi va farzandlar tashvishi bunga yo‘l bermaydi, buni bilgan ruhi battar qiynaladi, tag‘in arosatda qoladi.

Qissada boshqa badiiy asarlarda uchratadiganimiz rang-barang, qiziq voqealarga duch kelmaymiz, u monologik tarzda yoritilgan asar. Shu tufayli ham bu qissani biz inson ruhiyatining ba’zan tushkun, ba’zan esa jo‘shqin kayfiyatining namoyon bo‘lishi bilan izohlashimiz mumkin.

Asardagi daraxtlar tasviri har safar qaysidir voqea yoki biror holat bayon qilinganidan so‘ng kelishi qahramon ruhiy holatining daraxtlar holatiga qiyoslanishidir. Daraxtlarning shovullashi, shamolda tebranishi xuddiki biroz muddat avval qahramonda sodir bo‘lgan iztirobli ruhiy kechinmalarni sokinlashtirish vazifasini bajargandek bo‘ladi.

Adabiyotshunos Bahodir Karim fikricha “Yolg‘izlik” qissasi qahramoni “jazavaga tushganda, isyoni aqliy chegarasini yorib o‘tganda va yoki qandaydir alam-iztirob ichida qolganida nimalarnidir aljirab qo‘yadi”, dilidagi tiliga ko‘chadi.

“Yolg‘izlik” qahramoni imkon qadar o‘zini–ruhini ham, tanasini ham, isyon va tavbasini ham, iztirob va halovatini ham, ko‘ngli va voqelikni ham ko‘rib, sezib, his etib turadi. Shu bois goh-gohida o‘zining dovdirab qolganiga iqror bo‘ladi…”

Qissa qahramoni ba’zida Allohga o‘zi bilmagan holda: “Qo‘lingni bersang-chi, Xudo”, “Ey Xudo! Qaramaysanmi, dunyoyi rasvongda nimalar bo‘lyapti?...” kabi gaplar bilan murojaat qiladi va bu harakatlaridan darrov tavba qilib, Allohdan mag‘firat tilaydi, chunki u bunday gaplar aytishning noto‘g‘ri ekanligini, o‘zi bilmagan holda jazavaga tushganda

his-tuyg‘ularini jilovlay olmaganligini yaxshi anglaydi.

Uni ijodkor sifatida ijod qilishi uchun qulay sharoit bo‘lmaganligi, qo‘li kaltaligi qiynoqqa soladi, ba’zan bunday faqirona hayotiga la’nat aytadi, ko‘ngli va aqli o‘rtasida doimiy jang boradi. Qahramon badiiy ruhiyatini aynan mana shunday xayoliy janglar, ruhiy tortishuvlar tarzida yoritilganligiga guvoh bo‘lamiz.

Xulosa qilib aytganda, “Yolg‘izlik” qissasini o‘qigan kitobxon o‘zini anglashga urinadi. Inson kim asli, uning yaralishidan maqsad nima, u nima ishlarni uddalay olyapti-yu, nimalarni boy beryapti degan savollar iskanjasida qoladi. Qissani o‘qish davomida har bir kitobxon bosh qahramon o‘rnida o‘zini tasavvur qiladi, uning o‘rnida asar ichida yashaydi, sababi qissa faqat bir insonning hayotini aks ettirmagan, undagi bosh qahramon biz insonlarmiz. U butun boshli insonlarning obrazini o‘zida ifodalagan. Chunki har birimizning hayotimizda aynan shunday kunlar bo‘ladi: ba’zan faqat qalbimizga quloq solib yashashni istab qolamiz, uning xohish-istaklari bizga xush yoqadi, boshqa hech narsaga e’tibor bergimiz kelmaydi, ammo tanamiz bizni doimo bu dunyo ishlariga ham ehtiyojimiz borligini bildirib turadi. Faqatgina ruhimiz istagiga quloq solib yashay olmaslik esa gohida bizni qo‘rquvga soladi.

Ushbu qissa har bir o‘quvchini o‘ylashga, mulohaza yuritishga, munozaraga chorlaydi. Undagi faylasufona fikrlar badiiy tafakkurimizni kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. U. Hamdam. Yolg‘izlik qissasi. Yangi nashr nashriyoti, 1988
2. Matyoqubov. S. Badiiy psixologizm qirralari. O‘zbek tili va adabiyoti, – Toshkent, 2006, 72-74-b.
3. Руҳият алифбоси / Б.Карим. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018.
4. Boboxonov. M. Hozirgi o‘zbek qissachiligida psixologizm. Fil.fan.nomz.avtoref. –Toshkent, 2012.

Ismigul NIZOMOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2- kurs magistranti

“MAHBUB UL- QULUB” DA NAVOIY TA’LIMIY QARASHLARINING IN’IKOSI

Annotatsiya: adabiyot tarixida shogirdlar ruhiga nur, some’lar qalbiga shuur baxsh etgan benazir zamon allomasi – Alisher Navoiyning o‘rni beqiyos. Ushbu maqolada shoirning nasriy asarlaridan biri bo‘lmish “Mahbub ul- qulub” asari haqida so‘z yuritilgan. “Mahbub ul- qulub” da ijodkorning ta’lim va tarbiyaga oid qarashlari xususida ayrim mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, “Mahbub ul- qulub”, yoshlar tarbiyasi, ta’lim va tarbiya, insoniy fazilatlar, ilm xususida, ma’rifat, tavba, tasavvufiy istilohlar.*

Аннотация: в истории литературы место Алишера Навои бесподобно. В данной статье говорится об одном из прозаических произведений поэта «Махбуб уль-Кулуб». В «Махбуб уль-Кулуб» высказаны некоторые мнения о взглядах создателя на образование и воспитание.

Ключевые слова: *Алишер Навои, «Махбуб уль-Кулуб», воспитание молодежи, воспитание и воспитание, человеческие качества, знания, просвещение, покаяние, мистические реформы.*

Annotation: in the history of literature, Alisher Navoi's place is incomparable. This article talks about one of the poet's prose works, “Mahbub ul-qulub”. In “Mahbub ul-qulub” some opinions about the views of the creator on education and upbringing were expressed.

Key words: *Alisher Navoi, "Mahbub ul-kulub", youth education, education and training, human qualities, knowledge, enlightenment, repentance, mystical reforms.*

Buyuk so‘z san’atkori, zamonasining yetuk shoiri – Alisher Navoiy haqida gapirganda, avvalo, adibning insonparvarligi, qoldirgan ma’naviy va madaniy merosining qanchalik qiymatli ekanligini e’tirof etishimiz darkor. O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ta’kidlaganidek: **“Navoiyga aql bilangina emas, tuyg‘u va ruhiyat bilan yetmoq zarur. Tuyg‘ulari o‘tmaslashgan, ruhiyati tubanlashgan inson qanday qilib Navoiyni anglasin! Berk qafasni dunyo deb bilgan qush osmonning kengliklarini qanday his etsin? Qulog‘i shovqin bilan to‘ldirilgan urushqoq bedana bulbul nolasini qanday tushunsin?**

“Mahbub- ul qulub” ijodkorning ijodiy ongi va tafakkurini yorqin namoyon etgan asar deyishimiz mumkin. Sadiy Sheroziyning “Guliston” va “Bo‘ston”i, Jomiyning “Bahoriston”, Kaykovusning “Qobusnoma” asari “Mahbub ul- qulub” dek didaktik asarning maydonga kelishida zamin yaratgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Alisher Navoiy o‘zining “Mahbub- ul qulub” asarida ta’lim va tarbiyaga, qolaversa, insonga xos barcha yaxshi-yu yomon xislatlarga alohida to‘xtaladi. Ularni tavsiflaydi. Hirotdagi adabiy muhiti, maktab, madrasa ta’limi hamda unga aloqador barcha tushunchalarni asarida yoritib beradi.Navoiy uchun hamisha kasb-hunar, ilm-ma’rifat hosil qilish, komillik sari harakat qilish muhim hisoblangan. Doimo yoshlarni komillik sari harakat qilishga undagan.O‘zi ham hamisha ustozlarini rozi qilish uchun harakat qilgan.Asarida aytganidek:

Shogird agar shayxulislom yo qozi,
Ustoz andin rozi, tangri rozi [3; 24-b].
Boshqa bir baytda ta’kidlaganidek:
Haq yo‘lida kim sanga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmasa ado oning haqin yuz ganj ila.

Navoiyning ilm-fan haqidagi o‘gitlari uning ma’rifatparvarlik g‘oyalarining uzviy qismini tashkil qiladi

Navoiy yana deydiki: “Ilm o‘qub amal qilmog‘on, yerni shiyor qilib tuxum solmog‘ong‘a o‘xshar yo tuxum solib, mahsulidin bahra olmog‘ong‘a [3].

Navoiy ilm ahlini g‘oyat yuksak baholaydi, mamlakat obodonligini ta’minlashda, xalq ahvolini yengillashtirishda ularga juda katta umid bog‘laydi. Bu xususda “Mahbub ul-qulub” dagi:

Kishiga necha kelsa mushkul hol,
Hikmat-u aql anga erur, halol,

kabi bayt va ilm hamda olimlar haqidagi fikrlari g‘oyat ahamiyatlidir. Shuningdek, o‘rganib undan amalda foydalanmagan, ya’ni ilmini xalq, mamlakat xizmatiga qo‘ymagan olimlarni Navoiy hajv ostiga oladi.

Buyuk donishmand, murabbiy nafaqat ushbu asarida, balki butun ijodida ilm va ma’rifatni ilgari suradi. Ilmni yoshlikdan egallash darkorligi xususida alohida ta’kidlab o‘tadi. Navoiyning fikricha, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoydil o‘qish-o‘rganish kerak.

Mutafakkir ijodkor, yoshlarning ma’nan sog‘lom avlod bo‘lib yetishishini qalbdan his eta olgan. “Mahbub-ul qulub” da ilmiy-marifiy qarashlarni dalillashda insonni ilmga, ma’rifatga boshlashga xizmat qiladigan soha tasavvufga ham alohida to‘xtalib, urg‘u berib o‘tiladi. “Mahbub ul-qulub” asarining ikkinchi qismidan joy olgan tasavvufiy istilohlar fikrimizning dalilidir. Adib ushbu qismda tavba, tavajjud, zuhd, rizo, ishq kabi tushunchalarga alohida to‘xtaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A.Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2015.
2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik: 9-jild. – Toshkent: G‘. G‘ulom, 2012-yil. 765-bet.
3. Alisher Navoiy, “Mahbub ul-qulub”. Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1998
4. Sultonmurod Olim. Mahbub ul-qulubda shoirlar va oshiqlar tasnifi//O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. –Toshkent, 2010.
5. Sultonmurod Olim. Mahbub ul-qulubda shoirlar va oshiqlar tasnifi//O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. –Toshkent, 2010.
6. Nizomova I. “Majolis un-nafois” tazkirasida ustozlar zikri. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions. 31 December 2023.

Дилфуза УМАРОВА,
преподаватель Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий

ДЕТЕКТИВНЫЕ СЮЖЕТЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ПИСАТЕЛЕЙ XIX ВЕКА

Аннотация: в научной статье рассматривается использование детективных элементов в «криминальных романах» Ф.М. Достоевского. Выявлены ключевые моменты произведений этого жанра. У героев, совершивших тяжкие преступления не является их профессией, криминал не приносит им богатства, и нет интриги, которая все внимание сосредоточивает на раскрытие преступления. Первоначально писатели отдают предпочтение детективному сюжету, как известно, сюжет в плане литературоведческой категории стоит гораздо ниже жанра. От античности до Ф. М. Достоевского еще не сложился собственно детективный жанр.Писатели открыли и эксплуатировали детективный сюжет.

Ключевые слова: *детектив, роман, сюжет, автор, герой, сыщик, ловушка, криминал, трагедия, преступник, убийство, действие, жестокость, следствие, уголовность.*

Annotatsiya: ilmiy maqolada F.M. Dostoyevskiyning “Kriminalistik romanlari”da detektiv elementlardan foydalanish ko‘rib chiqiladi. Ushbu janrdagi asarlarning asosiy jihatlari ochib berilgan. Og‘ir jinoyat sodir etgan qahramonlar uchun jinoyat ularning kasbi emas, jinoyat boylik keltirmaydi va ularning butun e’tiborini jinoyatni ochishga qaratadigan fitna yo‘q. Dastlab, yozuvchilar detektiv syujetga ustunlik berishadi, ma’lumki, adabiy daraja jihatidan syujet janrdan ancha past. Antik davrdan F. M. Dostoyevskiygacha detektiv janrning o‘zi hali rivojlanmagan edi.Yozuvchilar detektiv syujetni kashf etishdi va undan foydalanishdi.

Kalit so‘zlar: *detektiv, roman, syujet, muallif, qahramon, tuzoq, jinoyat, fojia, qotillik, harakat, shafqatsizlik, tergov, jinoyat.*

Annotation: the scientific article examines the use of detective elements in “crime novels” by F.M. Dostoevsky. The key points of the works of this genre are revealed. For heroes who have committed serious crimes, crime does not bring them wealth, and there is no intrigue that focuses all their attention on solving the crime. Initially, writers give preference to a detective plot; as is known, the plot in terms of the literary category is much lower than the genre. From antiquity to F. M. Dostoevsky, the detective genre itself had not yet developed. Writers discovered and exploited the detective plot.

Keyword: detective, novel, plot, author, hero, trap, crime, tragedy, criminal, murder, action, cruelty, investigation, criminality.

Как известно, в XIX веке был создан детективный жанр. Однако, параллельно еще существовали произведения писателей, которые отдавали дань лишь детективным сюжетам. К таким авторам можно отнести английского писателя Чарльза Диккенса. В романе «Приключения Оливера Твиста» (1837. –1839) представлена развернутая картина преступного мира, которая действует не стихийно, а четко организовано, здесь имеются свои «учителя», они заманивают в свои ловушки детей, затем учат их технологии: разным воровским приемам, процесс обучения находится, если можно так сказать, на самом высоком практическом и психологическом уровне. И в эту организованную общину попадает по природе своей честный Оливер Твист.

Между тем, пройдя путь жестоких испытаний, он был освобожден от уготовленного падения в бездну криминала.

Ч. Диккенс сумел создать детективный мир носителей зла. Это уже не одиночки, а целая организация, и она способна из своей среды выдвигать поистине гениальных преступников. И с ними не в состоянии бороться государственная полиция, поскольку она уступает этой беде по уму и методам раскрытия преступления. Тот факт, что английский писатель Чарлз Диккенс не смог создать «умного» сыщика указывает на специфику романа, а она, специфика, не дотягивает даже до детективного сюжета, и тем более не претендует на детективный жанр, хотя автор очень близко подошел к этому явлению.

Отталкиваясь от западноевропейской художественной культуры, в том числе и достижения в области детективного жанра, например, Эдгара По, Ф. М. Достоевский в своих «криминальных романах» практически использует все детективные элементы, однако, и он не смог

создать детективный жанр. Его произведения, несомненно, выполнены как сюжетные тексты, в которых функционирует криминал. Многих героев Ф. М. Достоевского ждет тюрьма.

Это Раскольников, Рогожин, Виргинский, Липутин, Толкоченко, Эркель, Стебельков, Ламберт, Митя Карамазов. Они должны этим кончить. Одни за дело, другие. – по судебной и следственной ошибке. Но удел для них один. Такое количество персонажей – преступников указывает на сближение произведений Ф. М. достоевского с детективной идеей.

Важным показателем криминального жанра можно считать факт насильственной смерти героев. И у Ф. М. Достоевского этот показатель достаточно основателен. Насильственной смертью умерли ростовщица и Лизавета Ивановна, Настасья Филипповна, Шатов, Лебядкины, Лиза Тушина, Федор Карамазов. Много самоубийц – Свидригайлов, его возможная жертва, Ставрогин, Матреша, Кириллов, Крафт, Оля, Смердяков, Андреев. Были попытки самоубийств: Ипполит, Версилов. Сходят с ума Катерина Ивановна («Преступление и наказание»), Мышкин, фон Лембке, Иван Карамазов. Были попытки объявить людей сумасшедшими (Ставрогин, Николай Сокольский, Версилов). Одним словом, детективной особенностью романов Достоевского является трагических конец их героев

Роман «Бесы» развивается на материале уголовной хроники. Здесь выведен чистый персонаж – уголовник Федька Каторжный, готовый за деньги убить кого угодно. Сколько убийств на его совести, сказать трудно, ясно, что не одно. Кроме Федьки и другие уголовники, на первый взгляд более респектабельные. Таковы персонажи, участвующие в убийстве Шатова. Это Виргинский, Лямшин, Толкаченко, Эркель, Липутин. Люди это разные, роль в убийстве тоже играли разную.

Ставрогин – человек с достоинством не с искусственным, внутренне присущим. Горд, малоразговорчив, не способен говорить о своей интимной жизни, о своих чувствах. Последнее вообще-то элементарно, но не для героев Достоевского. Ставрогин невозмутим, смел, с презрением относится к уголовнику Петруше, предупреждает Шатова о готовящемся убийстве его. Все это косвенно говорит пользу Ставрогина.

Итак, роман « Бесы» сюжетно напоминает детективную литературу. Однако это не детективный жанр. Здесь действуют преступники, многие их поступки неизвестные. И причина состоит в том, что нет в сюжетной канве умного сыщика, который бы смог разгадать те тайны, которые писатель как бы оставил для читателя заставляя его стать сыщиком.

В романе «Преступление и наказание» Ф. М. Достоевский наметил посты, жанровую основу детектива. Здесь имеются: преступление, преступник Раскольников, сыщик Порфирий Петрович. Между тем и этот роман не может быть зачислен в разряд детективного жанра, а вся система только усиливает детективный сюжет. Своей таинственностью отвлекает читателя такой персонаж «Преступления и наказания», как Свидригайлов. Самоубийство этого героя говорит о том, что если он не преступник, то с уснувшей, но проснувшейся совестью. Однако, писатель сохранил сомнения в преступности Свидригайлова. И в этих сомнениях тоже просматривается детективность. Особо интенсивно насыщен детективными элементами сюжет романа Ф. М. Достоевского «Братья Карамазовы», тут и таинственное убийство, и ложный путь раскрытия преступления, и ошибка суда, и непонятные причины героев взять чужую вину на себя. Одним словом, здесь детективного материала так много, что его хватило бы на несколько сыщиков, чтобы раскрыть преступление и установить истину. Но опять-таки заметим, что и этот роман не вкладывается в систему детективного жанра, автор оказался в плену детективного сюжета.

Детективность сюжета произведений Ф. М. Достоевского превращается в особенность произведений, которые автор написал после сибирской каторги. У героев Ф. М. Достоевского, совершивших тяжкие преступления не является их профессией, криминал не приносит им богатства, и нет интриги, которая все внимание сосредоточивает на раскрытие преступления. Поэтому наш вывод однозначен: и произведения Ф. М. Достоевского не перешли рубеж сюжета криминального и не утвердился по ряду причин в творчестве писателя детективный жанр, вопреки тому, что он глубоко изучал детективы Эдгара По и дал высокую оценку его творчества.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Тургенев И. С. Дневник лишнего человека.- М.: Правда, 2000
2. Гончаров И. А. Обломов. - М.: Художественная литература, 1992.

3. Рубакин Н. Психология читателя и книги. – Л., 1989.
4. Толстой Л.Н. Собрание соч. в 15 томах. Т. 6. – М.: Художественная литература, 1994.
5. Цюрупа Э.Я. Умеешь ли ты читать?- М.: 1967.
6. Шагинян Р.И. Грани литературоведческой мысли. Теория. Поэтика. Критика.- Киев: « Славянский университет», 2002. – 177с.
7. Михайличенко Б.С. Основы теории поэтики.- СамГУ, 2005.

Санобар УЛЛИЕВА,
старший преподаватель Самаркандского государственного университета ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий

РОЛЬ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ В СОЗДАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА

Аннотация: данная статья посвящается значению языковых единиц в создании образа, в формировании восприятия текста и его эстетической ценности. В статье рассматривается влияние разных уровней языка на создание художественного образа. А также, рассматривается роль грамматических средств на примере романа Уткира Хошимова «Свет не без теней».

Ключевые слова: *художественный образ, языковые единицы, уровни языка, метафора, метонимия, сравнение, эпитет, фонетика, лексика, морфология, фонема, синтаксические фигуры.*

Annotatsiya: ushbu maqola obraz yaratishda, matnni idrok etishni va uning estetik qiymatini shakllantirishda til birliklarining ahamiyatiga bag'ishlangan. Maqolada tilning turli darajalarining badiiy obraz yaratishga ta'siri muhokama qilinadi. Shuningdek, grammatik vositalarning roli O'tkir Hoshimovning "Nur borki, soya bor" romani misolida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *badiiy obraz, til birliklari, til darajalari, metafora, metonimiya, taqqoslash, epitet, fonetika, lug'at, morfologiya, fonema, sintaktik figuralar.*

Annotation: this article is devoted to the importance of linguistic units in creating an image, in shaping the perception of a text and its aesthetic value. The article examines the influence of different levels of language on the creation of an artistic image. The role of grammatical means is also considered on the example of Utkir Khoshimov's novel "Light is not without Shadows".

Keywords: *artistic image, linguistic units, language levels, metaphor, metonymy, comparison, epithet, phonetics, vocabulary, morphology, phoneme, syntactic figures.*

Художественный образ – это сердцевина произведения искусства, его душа, которая воплощает идеи, эмоции и мысли автора. Но как же рождается этот образ? Каким образом автор, используя всего лишь слова, создает яркую, многогранную картину, способную затронуть наши чувства и разбудить воображение? Ответ кроется в тонком взаимодействии языковых единиц, которые служат кирпичиками, из которых строится образ.

Языковые единицы – это базовые элементы языка, из которых строятся предложения, тексты и целые языковые системы. Они играют ключевую роль в создании художественного образа они являются строительным блоком любого литературного произведения. Рассмотрим, как разные уровни языка влияют на формирование образа. Автор, подбирая слова, учитывает их значение, эмоциональную окраску, стилистическую принадлежность. Например, использование архаизмов создает образ старины, а неологизмы – образ современности.

Конкретность и абстрактность. Конкретные слова (стол, стул) создают более четкий и осязаемый образ, а абстрактные (счастье, любовь) – более глубокий и многозначный.

Образные средства. Метафоры, эпитеты, сравнения, олицетворения вносят в образ яркость, эмоциональность, оживляют его и придают многогранность.

Грамматические формы. Изменение форм слов (род, число, падеж) влияет на образ: «дерево» – «дерева», «стол» – «стола». Формы глаголов отражают динамику или статику действия.

Причастия и деепричастия. Они добавляют образу яркость и динамику, показывают одновременно действие и его признак, например, «блестящий снег», «гуляющий ветер».

Порядок слов. Прямой порядок слов – нейтрален, инверсия (обратный порядок) делает фразу более выразительной, усиливает эмоциональность.

Предложения. Простые предложения – краткие, динамичные, сложные – более развернутые, с оттенками смысла.

Синтаксические фигуры. Анафора, эпифора, параллелизм – усиливают образ звуковым повторением, делают его более запоминающимся.

Звукопись. Подбор звуков (аллитерация, ассонанс) создает звуковой образ, влияет на восприятие произведения.

Ритм и интонация. Ритм стихотворений – основа художественного образа, интонация может передать чувства героя.

Морфемы. Приставки и суффиксы могут влиять на образ слова, например, «дом» – «домик» – «домина». Важно отметить, что все эти уровни языка взаимосвязаны, и именно их совместная работа создает цельный и глубокий художественный образ. Рассмотрим фразу: «Тихо, словно во сне, лежала земля». Здесь лексические уровни языка: «Тихо», «словно», «сне», «лежала» – слова, создают атмосферу покоя и безмятежности. Морфологические уровни языка: «Тихо» – краткое прилагательное, «словно» – союз, «лежала» – глагол в прошедшем времени, что создает статичный образ.

Синтаксические уровни. Простое предложение, прямой порядок слов делают образ более спокойным. Фонетические уровни: преобладание мягких согласных (т, с, н, л) делает образ более нежным и спокойным. Все эти элементы взаимодействуют друг с другом, формируя единый художественный образ спокойной и безмятежной земли. Языковые единицы играют ключевую роль в создании художественного образа, в формировании восприятия текста и его эстетической ценности. Вот некоторые из основных функций:

Выразительность. Языковые единицы, такие как метафоры, сравнения и эпитеты, помогают автору передать эмоции и настроение, создавая яркие и запоминающиеся образы.

Ассоциации. Использование определенных слов и фраз может вызывать у читателя ассоциации, которые обогащают художественный смысл произведения и обостряют восприятие темы.

Создание атмосферы. Языковые средства помогают установить контекст и атмосферу произведения, будь то романтика, трагедия или загадка, придавая тексту характер.

Динамика образа. Критическое использование глаголов и действий может добавить динамики и движения в изображаемые события, делая их более живыми и насыщенными.

Символика. Языковые единицы могут быть использованы для внедрения символов и аллегорий, что углубляет смысл произведения и помогает читателю увидеть дополнительные слои значения.

Культурный контекст. Язык, используемый автором, может отражать культурные, исторические и социальные аспекты, что добавляет глубину и многозначность художественным образам.

Структурирование образа. Синтаксические конструкции, порядок слов и ритм могут существенно влиять на то, как воспринимается и интерпретируется образ в произведении. Роль грамматических средств при создании художественного образа значительно важна, так как они влияют на структуру, ритм и смысл текста. Вот несколько ключевых аспектов их роли:

Структурирование текста. Грамматические средства, такие как синтаксические конструкции и порядок слов, помогают организовать мысли и идеи. Например, использование простых и сложных предложений может создавать разный ритм и атмосферу в тексте.

Выражение эмоций и настроения. Грамматика позволяет авторам точно передавать эмоциональную окраску. Например, использование вопросительных предложений может создавать атмосферу неопределенности или настороженности, а восклицательные – подчеркивать чувства восторга или гнева.

Создание динамики. Временные формы глаголов помогают передать движение времени и активности: использование прошедшего времени может создавать эффект завершенности, а настоящее – непосредственности и актуальности.

Совершенствование образности. Грамматические средства, такие как придаточные предложения, позволяют углубить описание и добавить

детали, обогащающие художественный образ и создающие более полное представление о персонажах и ситуациях.

Координация и подчинение. Использование союзов и вводных слов помогает установить различные связи между частями текста, создавая логическую и эмоциональную структуру, которая усиливает художественный эффект.

Уточнение смысла. Грамматические конструкции, такие как уточняющие и пояснительные элементы, помогают сделать образы более конкретными и понятными, устраняя неоднозначности.

Создание ритма и музыкальности. Повторение грамматических структур и использование параллелизмов могут создать ритмическое звучание текста, что усиливает его выразительность и эстетическую ценность.

В целом, грамматические средства служат важным инструментом для авторов, позволяя им более точно и выразительно передавать свои мысли, чувства и образы, усиливая художественное воздействие произведения на читателя. Роль грамматических средств рассмотрим на примере романа Уткира Хошимова «Свет не без теней». В романе грамматические средства играют важную роль при создании художественного образа и формировании эмоционального восприятия текста. Рассмотрим несколько аспектов их применения:

Уткир Хошимов умело использует различные синтаксические конструкции – от простых до сложных. Это позволяет ему менять ритм повествования, подчеркивая напряжение в критические моменты или создавая лиричное настроение в описаниях природы и человеческих чувств. Автор использует различные временные формы, что помогает создать динамику событий. Например, использование настоящего времени дает ощущение непосредственности и актуальности происходящего, тогда как прошедшее время позволяет глубже проанализировать последствия прошедшего. В романе часто встречаются придаточные предложения, которые обогащают описания персонажей и их внутреннего мира. С помощью различных грамматических средств, таких как восклицательные и вопросительные предложения, автор передает эмоционально насыщенные моменты, что усиливает восприятие таких сцен и их художественный эффект. Уткир Хошимов использует повторяющиеся структуры и параллелизмы, что создает ритмическое звучание текста и подчеркивает ключевые идеи и образы, делая их более запоминающимися. Грамматические конструкции, позволяющие давать пояснения или уточнения, помогают более глубоко раскрыть темы романа, такие как любовь, предательство, счастье и страдание.

Творческое использование диалогов. В диалогах героев грамматические средства подчеркивают их индивидуальность и настроение. Это создает аутентичные образы и помогает читателю понять внутреннее состояние персонажей. Грамматические средства в романе «Свет не без теней» Уткира Хошимова играют ключевую роль в создании ярких художественных образов и выражении глубоких эмоциональных и философских идей, что обогащает текст и делает его более выразительным и запоминающимся.

Таким образом, языковые единицы являются неотъемлемой частью создания художественного образа и играют важную роль в восприятии и интерпретации текста читателем.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Hoshimov O‘tkir. Nur borki, soya bor. [Matn]: roman / O‘. Hoshimov;–T.: “Nurli dunyo”, nashriyot uyi, 2024. –288 b.
2. Степанов Г.В. Язык. Литература. Поэтика. – М: Наука, 1988. – С. 148.
3. Уллиева Санобар Хайдаровна. (2023). РЕЧЕВОЙ ПОРТРЕТ ГЕРОЯ С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ ЛИНГВИСТИКИ. Conferencea, 61–64.

Алина ХОМЕНКОВА,
преподаватель-стажер Кокандского государственного педагогического института, кафедры методики преподавания русского языка и литературы
Гулнара НАЗИРОВА,
преподаватель-стажер Кокандского государственного педагогического института, кафедры методики преподавания русского языка и литературы

ВЛИЯНИЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЛЕКСИКИ, ОТРАЖАЮЩЕЙ ЭТИЧЕСКУЮ ОЦЕНКУ ЛИЧНОСТИ

Аннотация: в статье исследуется влияние иностранных языков на развитие лексики, отражающей этическую оценку личности. Рассматривается процесс адаптации заимствованных слов, являющийся важной частью языкового развития и тесно связанный с культурными традициями общества.

Ключевые слова: *иностранные языки, лексическая адаптация, медиа, межкультурный диалог, лексика, этическая оценка.*

Annotatsiya: maqolada shaxsning etiqiy bahosini aks ettiruvchi leksikaning rivojlanishiga chet tillarining ta'siri o'rganiladi. Til rivojlanishining muhim qismi bo'lib, jamiyatning madaniy an'analari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan o'zlashtirilgan so'zlarni moslashtirish jarayoni ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *chet tillari, leksik moslashuv, media, madaniyatlararo muloqot, leksika, etiqiy baho.*

Annotation: this article examines the influence of foreign languages on the development of vocabulary that reflects ethical evaluation of individuals. It considers the process of adapting borrowed words, which is an important part of linguistic development and closely connected to the cultural traditions of society.

Keywords: *foreign languages, lexical adaptation, media, intercultural dialogue, vocabulary, ethical evaluation.*

Влияние иностранных языков на развитие лексики, связанной с этической оценкой человека, является актуальной проблемой в языкознании и лексической семантике. Эта проблема возникает в связи с тем, что культура и язык народа тесно связаны между собой и образуют сложную систему связей и взаимодействий, определяющую характер лексических единиц и их значения. Этическая оценка человека, со своей специфичной и погруженной в культурную составляющую лексикой, подчиняется законам языка и обязательно оказывается под влиянием соседних языков и культурных традиций. Однако, вопрос о том, как именно иностранный язык влияет на этическую оценку и какие последствия – это может иметь для субъекта-носителя, остается открытым.

